ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

2024

6/1-сан

Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.

Нөкис

6/1-сан *2024*
декабрь

Шөлкемлестириўшилер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Мавлюда АЧИЛОВА
Азизжан АБДАЗИМОВ
Шухрат АБДУЛЛАЕВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Гулжахан АЛЬДЖАНОВА
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Комил ГУЛЯМОВ
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Дилдора ДАВРОНОВА
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гўлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)
Азамат КАМАЛОВ
Джавдод ПЎЛАТОВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Пердебай НАЖИМОВ
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Дилшад МАНСУРОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Абдулхамид МИРЗАЕВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Гулзабира БАБАШЕВА
Барлықбай ПРЕНОВ
Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Норим РАХМАНОВ
Муқаддас РАХМАНОВА
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Феруза САПАЕВА
Мухаббат САЛАЕВА
Шухрат ТАЖИБАЕВ
Қаҳҳор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Саодат ТОШТЕМИРОВА
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Гўзал ҚУРБОНОВА
Гулмира КАМИЛОВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

Xodjayeva D.Sh. Epideyktik nutqiy janr turlari va tasnifi masalalari ... 6
Хусаинова Л.Ю. Талабаларда тил ўрганиш қобилиятларини ривожлантиришнинг афзалликлари ... 12
Matkarimova A. Nutqiy etiket jarayonlarining ijtimoiy asoslari ... 20
Akbarova M.Sh. G‘ayriodatiy birikmalarning lingvopoetik aktuallashuvi ... 25
Suleymanova S.A. Hozirgi o‘zbek qissalarida janrlar va shakllar rang-barangligi ... 29
Oripova K.E. Badiiy nutq: uning janr va shakllari ... 35
Kenjaeva F.T. Ichki ishlar tizimi terminologiyasida soha professional leksikasining namoyon bo‘lishi ... 41
Shamirzayeva Z. X. Sport yo‘nalishi talabalarida ingliz tilida terminologik leksikani rivojlantirishning ahamiyati ... 45
Kurbanbaev Dj.A. Házirgi til biliminde paremiologiyadaǵi polisemiya hám paremiologiyaliq antonimiya ... 51
Кабулова Л.Т. Обучение правильному произношению каракалпакских студентов-неофилологов ... 56
Кабулова Л.Т. Концепт «богатство» на материале русских и каракалпакских пословицах ... 60
Нургизарова З.Б. Занятия русского языка с применением информационных технологии ... 64
Самамбетова Ф.Т. Лингвокультурный анализ концепта "здоровье" в русском и каракалпакском языках ... 68
Бекмуратова У.А. Инновационные технологии в преподавании русского языка: учим студента или преподавателя? ... 72
Кайпанова Э.А. Лингвокультурология и лингвокультурологический подход к обучению русскому языку как иностранному ... 78
Kadirov B., Kulmamatov O. Latifa, anecdote, and chiste as xenomorphic genres ... 85
Abdujabborova Sh.A. Paradigmatic and syntagmatic features of english and uzbek riddles ... 101
Musurmankulova M. N. Comparative study of modern construction terminology of the russian and english languages ... 110
Burkhanova D.I. Kinship terms and cognitive linguistics ... 115
Musurmankulova M.N. Position of terms in different spheres ... 120

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Pirniyazov I.K. Bilimlendiriwdiń sapasin arttiriwda xaliqaraliq tájiriybelerdiń orni hám áhmiyeti (Singapur tájiriybesi misalinda) ... 125
Чинқулова Г.Б. Педагогик технологиялардан ўқув машғулотида мақсадли фойдаланиш ... 132
Kamolova G. Interfaol darslarning ta’lim sifatiga ta’siri ... 137
Negmatova A. O’rganishning pedagogik va psixologik jihatlari: asosiy tushunchalar va ularning ilmiy-pedagogik tahlili ... 143
Saparov K.A., Sanayeva M.I. Biologiya fanini o‘qitishda axborot texnologiyalardan foydalanishning didaktik va metodik asoslari ... 152
Raximova N.Yu. Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida xalqaro baholash mezonlaridan foydalanishningahamiyati ... 163
Asallayev O‘.X. Zoologiya fanidan innovatsion elektron darsliklar yaratish va joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish ... 169
Rayimberdiyeva Z.R. «Tinish belgilarining grafik tizimda tutgan o‘rni» mavzusini blum taksonomiyasi asosida o‘qitish texnologiyasi ... 177
Ismoilova N.I. Mantiqiy topshiriqlarning o'qituvchilar kasbiy rivojlanishidagi ta'siri ... 183
Shernafasova H.R., Ro'zmetova F.A. Pedagogik mahoratni o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni ... 191
Mirzayeva L.E. Umumta’lim maktablari geografiya ta’limida mediata’lim resurslaridan foydalanishning pedagogik asoslari ... 195

Haytbayeva S. R. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik jihatlari 202
Ismoilova D. M. Sinf rahbari o'quvchilarning birinchi tarbiyachisi va murabbiysi 207
Mamatova A.M. Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalari zaruriyati 211
Jabborova O. M., Matupayeva Sh. Z. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli didaktikaning ahamiyati 216
Mamatova A.M. Tarbiya pedagogikasi xususiyatlari 221
Kurbanov O.E. Magistratura talabalarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual asoslari 226
Нургизарова З.Б. Мактаб раҳбарининг тарбиявий ишларни бошқаришдаги роли 231
Abdumalikov A.I. Mehnat tarbiyasi – ma'naviy tarbiyaning negizi 237
Joldasov I.S. Talabalarni kasb-amaliy faoliyatga tayyorlash jarayonining didaktik imkoniyatlari 244
Musoyeva A.B. The perspectives of future professionals on improving their research skills through academic writing 248

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Rakhimova G.S., Rasulov M.A., Yakubov K.N. Ўзбекистон ССРда табиатни муҳофаза қилишдаги қонунларнинг аҳамияти 260

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Mashrabjonov U. Mental arifmetikaning rivojlanish bosqichlari 267
Xurramov O.Sh. Matritsalarni kriptografiyadagi tatbiqlari 274
Abduqodirova P.T., Ibaydullayev D. Interfaol usullar bilan python dasturlash tilinini o'qitish 277
Ismoilov U. Fizika fanini o'qitishda stem yondashuvi va uning asosiy tamoyillari hamda komponentlari 281
Egamnazarova S.X. Kompyuter grafikasi fanlarini o'qitish istiqbollari 287
Ismoilov E.O. Differensial tenglamalarni mathcad va maple dasturlaridan foydalanib o'qitish metodikasi 292
Nortojiyev A.M. FIzikani arxitektura va qurilish fanlariga integratsiyasi asosida o'qitishni takomillashtirish 295
Jurayeva M.N., Abdiraxmonova R.E. Algebra fanini o'qitishda kontekstli topshiriqlardan foydalanish 305
Xakimova Yo.T. Informatika va axborot texnologiyalari darslarini 4 "K" modeli asosida o'qitish 310
Xurramov O. Funksiyalar va ularning turli sohalardagi tatbiqlari mavzusini yoritishda klaster metodidan foydalanish imkoniyatlari va ahamiyati 317
Berdieva Z.I. Raqamli ta'lim sharoitida loyihalashtirish kompetensiyasini rivojlantiruvchi trello elektron ta'minoti 325

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Davletov E.Yu. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida individualligini ta'minlash imkoniyatlari 331
Niyozmatova U., Isaqov Z. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida rasm asosida hikoya qilish mashqlari kreativlikni oshirish omili sifatida 336
Jabborova O.M., Toshtemirova D.D. Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari 342
Abdullayeva U'. T. TIMSS va PISA natijalari asosida talabalarning funksional savodliligini tashkillash bo'yicha asosiy yo'nalishlar 347
Karimjanov A. Boshlang'ich ta'lim muassasalarda tarbiyaviy ishlarni zamonaviy yondashuvlar asosida qo'llash holati 355
Ибрагимов А.А., Салимов А. Оила-маҳалла-мактаб таълим-тарбия тизимида ҳамкорликни кучайтиришда бошланғич синф ўқитувчиларининг ўрни 359
Yalg'ashev B.F. Boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion ta'limning o'ziga xos xususiyatlari 364

Toshmatova O‘.R. Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish 371
Toshmuradov Sh.G‘. O‘quvchilar harakat sifatlarini rivojlantirishga erishishda harakatli o‘yinlarni qo‘llashning ahamiyati 375
Тожибоева Г. Р. Понятие и задачи педагогической диагностики в начальной школе 380

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Choriyev B.B. Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi va bu yo‘lda musiqa o‘qituvchisining oldiga qo‘yilgan vazifalar 385
Xakimov O.B. Etnomusiqaning xalq ijodiyotidagi o‘rni va ahamiyati 389
Hamidov Sh.O‘. O‘zbek dostonchiligi 395
Худойбердиев Н. Ёшларни маънавий тарбиясида бахши достончилик санъатининг тутган ўрни 399

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Севинчова Н.Н. Рақамлаштиришга асосланган туризм саноатининг инновацион модели ва янгиланиш йўли (longitudinal case study) 402
Buranova D. D. Tibbiyot kasbiy muhitida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning ba’zi jihatlari 408
Kenjaeva Z. T. Harbiy xodimlar muloqotida ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati 420
Умаралиева Г.Б. Роль женщин в духовном воспитании молодежи в книге "Авеста" 423
Kulniyazov T. U. Tyutorlar faoliyati ijtimoiy pedagogik tizim sifatida 429
Yakubova N. Ko’zi ojiz talabalarga ingliz tilini o’rgatishda “spelling audio dictionary” qo’llanmasidan foydalanish samaradorligi va o’ziga xos xususiyatlari 434
Sabirova D. Ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari 439
Bekimbetova G.R. 4k tamoyili asosida talabalarning shaxslararo muloqot ko’nikmalarini rivojlantirish paradigmalari 443
Shaxmurova G.A. Tibbiy litseydagi biologiya darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llanishi 447
Jumanova S.V. Frazeologik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari 452
Bekimbetova G.R. Diskursiv kompetentsiyaning lingvodidaktik tavsifi va rivojlantirish masalalari 456
Jumanova S.V. Functional pragmatic aspects of phraseological intensificators in modern english 462
Kulniyazov T. U. Tyutorlarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda an’anaviy va innovatsion modellar 469
Исмайлов А.С. Қорақалпоқ халқ анъаналари ва қадриятлар ёшларнинг маънавий тарбиясидаги ўрни 474
Urazimbetov A. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati – talabalarning «ommaviy madaniyat»ga ta’sirchan mexanizmlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan fan 478
Nazarova K.F., Hamroyev G‘. H. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini loyihalash pedagogik muammo sifatida 483

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

Utepbergenov A. K., Mamutov P. J. Baslanǵísh mektep dáwirindegi balalar organizmine fizikalíq júklemeler tásiriniń tiykarǵí nízamlíqlarí 487
Эштаев С.А. Система соревновательной деятельности и пути её управления в спортивной гимнастике 495
Байтураев И.Э. Повышение спортивного педагогического мастерства студентов специализации самбо 502
Матчанов Р.А. Научные основы обучения ударной техники единоборцев 507
Газиев Ш.Ш. Исследование тактической подготовки самбистов в предсоревновательный период 516

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

EPIDEYKTIK NUTQIY JANR TURLARI VA TASNIFI MASALALARI

Xodjayeva D.Sh.
Qo‘qon DPI rektori

Tayanch so‘zlar: epideyktik nutqiy janr, uslubiy xoslanish, kompozitsion qurilish, epideyktik nutqqa xos jamoaviylik va tantanavorlilik, tilshunoslik.
Ключевые слова: жанр эпидейктической речи, стилистические особенности, композиционное построение, собирательность и торжественность, свойственные эпидейктической речи, лингвистика.
Key words: epideictic speech genre, stylistic features, compositional construction, collectivity and solemnity characteristic of epideictic speech, linguistics.

Резюме:
Mazkur maqolada epideyktik nutqiy janrning turlari, ularning lingvistik hususiyatlari hamda tasnifi hususida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada o’zbek tilshunosligida epideyktik nutqiy janr turlari va turkum xususiyatlari, ularning matniy kompozitsion qurilishi, uslubiy xoslanishi kabi masalalar ham bayon etilgan.
Резюме:
В данной статье рассматриваются виды эпидейктического речевого жанра, их языковые особенности и классификация. Также в статье описаны типы и категории эпидейктических речевых жанров в узбекском языкознании, их текстологическое композиционное построение и стилистические особенности.
Summary:
This article discusses the types of epideictic speech genre, their linguistic features and classification. Also, the article describes the types and categories of epideictic speech genres in Uzbek linguistics, their textual compositional construction, and stylistic features.

Kirish. XXI asrga kelib tilshunoslar e’tiborining nutqqa qaratilishi til tizimidagi nutqiy janrlarning alohida turlari va turkum xususiyatlarini ochib berishda asosiy turtki bo’ldi. Bugungi kunda til tizimidagi nutqiy janrlarni aniqlash yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda nutqiy janrlarning alohida turlari va tasnif guruhlarini belgilash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Chunki til tizimidagi nutqiy janrlar turli belgi xususiyatlariga ko’ra bir-birlaridan tubdan farqlanadi. Bunday belgi xususiyatli nutqiy janrlarga fatik va fatik bo’lmagan, birlamchi va ikkilamchi nutqiy janrlar, sodda va murakkab nutqiy

janrlar kabi turkum xususiyatli nutqiy janrlarni misol keltirish mumkin. Zotan nutqiy janrlarni turkum xususiyatlariga ko'ra farqlash masalasi alohida nutqiy janr turlarini muayyan belgi xususiyatiga ko'ra umumlashtirish, birlashtirish masalasi bilan ham bog'lanadi.

Shuni aytish kerakki, Shu kunga qadar o'zbek tilshunosligida epideyktik nutqiy janr turlari va turkum xususiyatlari, ularning matniy kompozitsion qurilishi, uslubiy xoslanishi kabi masalalar maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Zero, epideyktik xususiyatli nutqiy janrlar o'zbek tili tizimining muayyan qismini tashkil qiladi. Ushbu maqolamizda epideyktik nutqiy janr turlari va uning tasnifi masalasiga alohida to'htalmoqchimiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yunon foylasuflari Aristotel va Gorgiyning ilmiy g'oyasi asosida farqlanuvchi epideyktik nutqning o'ziga xosligi shundaki, epideyktik nutq bu muayyan jamoa ichida tantanali tashkillashtirilgan, adresant tomonidan muayyan shaxsni maqtash yoki uning kamchiligini ko'rsatishga mo'ljallangan nutqdir.[1.B.246] Shu sababli ham epideyktik nutqni matniy voqe'lantiruvchi muayyan nutqiy aktlar va nutqiy janrlar mazmunan va shaklan epideyktik nutqqa xos jamoaviylik va tantanavorlilik, rituallik, jamoaga xoslangan etiket qoidalari kabi bir qator pragmatik xususiyatlarni o'zida jamlaydi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

Ko'rinadiki, epideyktik nutq standartlari asosida epideyktik nutqiy aktlar va epideyktik nutqiy janrlar hosil bo'ladi. Ushbu nutqiy butunliklarning pragmatik mazmuni shaxsni maqtash yoki kamchiligini ko'rsatishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanib, jamoa tarkibida hosil bo'layotganligi sababli ham o'ziga xos tantanavorlilik, rituallik ruhidagi nutqiy vaziyatni hosil qiladi.

Tahlil va natijalar. Epideyktik xususiyatli nutqiy janrlarni, eng avvalo, shaxsni maqtash yoki kamchiligini ko'rsatishga mo'ljallanganligiga qarab, ijobiy va salbiy epideyktik nutqiy janrlarga ajratish mumkin. Ijobiy, ya'ni



maqtov xususiyatli epideyktik nutqiy janrlarga *qadah so'zi, tabrik, tilak, duo, yaxshi niyat tilash, ta'ziya, hamdardlik bildirish, madh etish, ulug'lash, tovba qilish, xotiralash kabilarni, salbiy, ya'ni kamchilikni ko'rsatuvchi epideyktik nutqiy janrlarga bo'hton, tuhmat, mish-mish, qarg'ash, qarg'anish, ayblash, qoralash, la'natlash* kabilarni kiritish mumkin. Buni quyidagicha ifodalaymiz:

Ijobiy epideyktik nutqiy janrlar rasmiylik va norasmiylik xususiyatiga ega. Masalan, rasmiy tabrik: *Avvalambor, dunyodagi eng ulug' va sharafli kasb egasi bo'lgan siz, azizlarni bugungi qutlug' ayyom - O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan tabriklab, barchangizga o'zimning ezgu tilaklarimni izhor etaman*.[2.B.592]

Shuni aytish kerakki, ushbu tadqiqotimizda norasmiy epideyktik nutqiy janrlar deyilganda rasmiy jamoatchilik asosida tashkillanadigan nutqiy vaziyat va ularda qo'llaniladigan nutqiy janrlar nazarda tutiladi. Aytish kerakki, o'zbek lingvomadaniyatida jamoatchilik mahalla nomi bilan yuritilib, mahalla deyilganda yuridik maqomdagi kichik ma'muriy xududga ega maxsus jamiyat tuzilmasi tushuniladi.[3] Jamoatchilik asosida yuzaga keladigan nutqiy vaziyatlarda adresant va adresatlar turli ijtimoiy kelib chiqishga ega kishilar bo'lganligi bois rasmiy jamoatchilik uslubi hosil bo'ladi. Bunda rasmiy va so'zlashuv uslubining qorishiq shakllari qo'llanilishi epideyktik nutqiy janrlarda norasmiylik xususiyatini keltirib chiqaradi. Jamoatchilik asosida hosil bo'luvchi epideyktik nutqiy janrlar jamoaviy nutqiy vaziyatni hosil qilishligi bilan xarakterlanadi. Bunday turlarga kichik jamoaviy guruh tarkibida qo'llaniluvchi nutqiy janrlarni ham kiritib tadqiq qilish mumkin. Masalan, dafn marosimidagi nutqlar, xotiralash kechalaridagi nutqlar, kollektiv jamoadagi tashkil qilinadigan kechalar, o'tirishlar, muayyan maqsad bilan uzoq safarga

otlanganlarni kuzatish (xojiga, armiyaga, o'qishga, uzoq safarga kabi), maktab jamoasining ichki tadbirlari, maktabdagi dars jarayoni bilan bog'liq maqtov yoki kamchilikni ko'rsatuvchi epideyktik nutqiy janrlar va hokazolar.

Epideyktik nutqiy janrlarni jo'shqin va sokin tantanali tarzda ifodalanishiga ko'ra jo'shqin va sokin epideyktik nutqiy janrlarga ajratish mumkin. Jo'shqin epideytik nutqiy janrlarga tabrik, qadah so'zi, tilak, duo nutqiy janrlari misol bo'la oladi. Sokin epideyktik nutqiy janrlar guruhiga esa ta'ziya, hamdardlik bildirish kabilarni kiritish mumkin. Buni quyidagicha ifodalaymiz:



Epideyktik nutqiy janrlar matniy hajmiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, mikroxajmli, makroxajmli va giperxajmli epideyktik nutqiy janrlar.

Shuni aytish kerakki, giperxajmli nutqiy janrlar mikro va makroxajmli nutqiy janrlardan iborat bo'ladi. Masalan, rasmiy tabrik gipermatni kirish qismida murojaat nutqiy akti, asosiy qismida esa eslatma, maqtov, e'tirof, kelajak ishlarga da'vat, yakuniy qismida esa duo, tilak, ya'shi niyat, ishonch bildirish kabilardan tashkil topishi mumkin. Ba'zan esa tabrik nutqiy janri ikki mikromatndan tashkil topib, bir makromatnni, ya'ni tabrik mazmunli



mikromatn 1 Q tilak mazmunli mikromatn 2ni tashkil qilishi mumkin. Ko'p hollarda makromatn xajmida tabrik, qadah so'zi, hamdardlik bildirish kabi nutqiy janrlar hosil bo'ladi. Mikromatn xajmidagi epideyktik nutqiy janrlarga duo qadah so'zi kabilar misol bo'la oladi. Masalan, Jamoamizning eng aqlli ayoli uchun! kabi.

Epideyktik nutqiy janrlar og'zaki va yozma nutqda ifodalanishiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, qadah so'zi og'zaki shaklda ifodalanuvchi epideyktik nutqiy janrdir. Tabrik esa og'zaki va yozma shaklda ifodalanish imkoniyati mavjud epideyktik nutqiy janr sanaladi. Buni quyidagicha ifodalaymiz:



Epideyktik nutqiy janrlar tarkibida diniy xoslangan epideyktik nutqiy janrlar ham kuzatiladi. Bunday turlar ko'pincha diniy xarakter kasb etadi. Masalan, xristian diniga e'tiqod qiluvchi halqlarda muqaddas avliyolar kuni, cho'qintirish kuni, pasxa kuni, muqaddas uchlik kuni, unashtirish marosimi kabilardagi maxsus nutqlar vaqtida o'ziga xos diniy xarakterdagi epideyktik nutqiy janrlar yuzaga keladi.

XULOSA. Yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, epideyktik nutqiy janrlar o'ziga xos turkum xususiyatlarga ega. Ularni lingvistik tadqiq qilish til tizimidagi semantik jihatdan shaxsni maqtash yoki kamchiligini ko'rsatishga yo'naltirilgan, jamoaviylik, tantanavorlilik, rituallik kabi xususiyatlariga ega nutqiy butunliklarni aniqlash zaruratini tug'diradi. Zero, til tizimida epideyktik xususiyatli nutqiy butunliklarni ijobiylik, salbiylik, rasmiylik, norasmiylik, jo'shqinlik, sokinlik, diniylik, shu bilan birga, matniy xajmiga ko'ra, og'zaki yoki yozma nutqda ifodalanishi kabi xususiyatlariga ko'ra ijobiy epideyktik nutqiy janrlar, salbiy epideyktik nutqiy janrlar, rasmiy epideyktik nutqiy janrlar, norasmiy epideyktik nutqiy janrlar, jo'shqin epideyktik nutqiy janrlar, sokin epideyktik nutqiy janrlar, mikroxajmli epideyktik nutqiy janrlar, makroxajmli epideyktik nutqiy janrlar, giperxajmli epideyktik nutqiy janrlar, og'zaki epideyktik nutqiy janrlar, yozma epideyktik nutqiy janrlar, diniy epideyktik nutqiy janrlar va diniy bo'lmagan epideyktik nutqiy janrlar

kabi subguruhlarga tasniflab o’rganish imkoniyati mavjud. Bu esa epideyktik nutqiy janrlar tizimining turkum xususiyatlarini lingvistik jihatdan yanada chuqurroq o’rganishni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. Шаталова, С. В Эпидейктические жанры речи. диссер. филол. наук., М., 2009, М. Анджу. Содержательно-композиционные и стилистические особенности русской политической торжественной речи: на материале выступлений президентов РФ в 2000-2010 гг., диссер. филол. наук., 2012, с 233; Аннушкина Т. В. Поздравительная речь в разных сферах общения: содержание - композиция – стиль. 2016, с 213; Арипова А. Нутқ моҳиятини ташкил этувчи муҳим восита. “Scientific Progress”, Scientific Journal ISSN. 2181-1601, Volume 1, Issue 6, pp 243-264

2. Ш. Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т., Ўзбекистон, 2017, 592-бет

3. Mahalla haqida. https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mahalla-uz/

ТАЛАБАЛАРДА ТИЛ ЎРГАНИШ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Хусаинова Л.Ю.
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
“Тилларни ўқитиш” кафедраси доценти, ф.ф.н.

Таянч сўзлар: оддий сўз, имо-ишора, мулоқот, луғат, генетик омиллар, ижтимоий-маданий омиллар, таълим усуллари, грамматика, тил, инглиз тили, соҳа, ўқитувчи.
Ключевые слова: простая речь, жест, общение, словарный запас, генетические факторы, социокультурные факторы, методы обучения, грамматика, язык, английский язык, сфера, учитель.
Key words: simple speech, gesture, communication, vocabulary, genetic factors, sociocultural factors, teaching methods, grammar, language, English language, sphere, teacher.

Резюме:
Ушбу мақоланинг мақсади талабаларда тил қобилиятини ривожлантиришнинг назарий асосларини кўриб чиқишдир. Мақолада тил қобилиятларини ривожлантириш жараёнини тушунтирувчи турли ёндашувлар ва назариялар, шунингдек, ушбу жараёнга таъсир қилувчи омиллар муҳокама қилинади. Шунингдек, ушбу йўналишда олиб борилаётган тадқиқотлар ҳақида умумий маълумот берилади ва педагоглар учун амалий тавсиялар берилади.
Резюме:
Целью данной статьи является рассмотрение теоретических основ развития языковых навыков у учащихся. В статье рассматриваются различные подходы и теории, объясняющие процесс развития языковых навыков, а также факторы, влияющие на этот процесс. Также даны общие сведения об исследованиях, проводимых в этом направлении, и даны практические рекомендации педагогам.
Summary:
The purpose of this article is to consider the theoretical foundations of the development of language skills in students. The article examines various approaches and theories that explain the process of developing language skills, as well as the factors that influence this process. It also provides general information about the research conducted in this area and gives practical recommendations to teachers.

Кириш. Мамлакатимиздаги олий таълим муассасаларининг нофилологик таълим йўналишлари ва мутахассисликларида хорижий тилларни соҳаларга мослаштирган ҳолда ўқитиш, хорижий тилларини ўқитиш бўйича замонавий ўқув-методик ҳамда билимни баҳолашга оид материаллар-

ни ўз ичига олган ягона таъминотни амалга оширувчи электрон дастурий платформани яратиш зарурлигини тақоза этмоқда. Шу каби қатор масалаларнинг барчасидан кўзланган асосий мақсад мамлакатимизда хорижий тилларни ўқитишнинг замонавий ва инновацион педагогик технологияларини, ўқув-услубий таъминотини яратишдан иборатдир.

Хорижий тил ўқувчиларнинг эркин ва креатив фикрлашига қаратилган бўлиши, ҳар бир ўқувчининг қобилиятига қараб, аниқ йўналишлар бўйича чуқур ўқитилиши яхши самара беради. Шу мақсадда янги дарсликларни яратиш, илғор таълим стандартлари ва методикаларини ўқув тизимига жорий этиш талаб этилади.

Тил қобилияти талабаларнинг билим олишида, айниқса чет тилларини ўрганишда муҳим роль ўйнайди. Тил қобилиятларини ривожлантиришнинг назарий асосларини тушуниш ўқитувчиларга ўқувчиларда тил кўникмаларини максимал даражада ривожлантиришга ёрдам берадиган ўқув дастурлари ва методларини самарали ишлаб чиқиш имконини беради.

Мавзунинг долзарблиги

Тил қобилиятларини ривожлантиришнинг асосий назариялари:

Критик давр назарияси:

– назариянинг тавсифи

– Далиллар ва раддиялар

– Амалий фойдаланиш

Тил ривожланишининг танқидий даври назарияси шуни кўрсатадики, инсон ҳаётида у тилни ўзлаштиришга энг мойил бўлган маълум бир давр бор. Бу назарияга кўра, инсон ҳаётининг дастлабки йилларида унинг тилни ўзлаштириш қобилияти энг юқори даражада бўлган мия танқидий ҳолатда бўлади.

Критик давр назарияси учун далиллар маълум бир ёшдан кейин (одатда ўсмирликдан кейин) иккинчи тилни ўрганадиган одамлар тил кўникмаларини, айниқса талаффуз ва грамматикани эгаллашда кўпроқ қийинчиликларга дуч келишларини кўрсатадиган тадқиқотларга асосланади. Шунингдек, янги тилни ўрганаётган катталар камдан-кам ҳолларда она тилида сўзлашувчилар билан бир хил даражада малакага эриша олишлари қайд этилган.

Бироқ, танқидий давр назариясини рад этишлар ҳам мавжуд. Баъзи тадқиқотлар шуни кўрсатадики, муҳим ривожланиш давридан кейин ўрганганига қарамай, она тилини муваффақиятли ўзлаштирган катталар бор. Бундан ташқари, мотивация, ўрганиш муҳити ва индивидуал фарқлар

каби кўплаб омиллар ҳам инсоннинг тилни эгаллаш қобилиятига таъсир қилиши мумкин.

Критик давр назариясининг амалий қўлланилиши шундан иборатки, тилни ривожлантириш имкониятларини яхшилаш учун иккинчи тилни эрта болалик ёки мактаб ёшида ўрганишни бошлаш тавсия этилади. Бу назария, шунингдек, ҳаётнинг дастлабки йилларида тил ўрганиш учун рағбатлантирувчи муҳит ва тил муҳитини яратиш муҳимлигини кўрсатади.

Тил тараққиёти назарияси босқичлари:

– назариянинг тавсифи;

– тил қобилиятларининг ривожланиш босқичлари;

– тил қобилиятини ривожлантириш омилларининг таъсири;

Тилнинг ривожланиш босқичлари назарияси шуни кўрсатадики, инсоннинг тилдан фойдаланиш қобилияти бир неча ривожланиш босқичларидан ўтади. Ҳар бир босқичда маълум хусусиятлар ва қобилиятлар кузатилади, улар аста-секин ривожланади.

Ушбу назарияга кўра, тил ривожланиши қуйидаги босқичлардан ўтади:

1. Дастлабки давр: Бу даврда болаларда ҳали тил қобилиятлари шаклланмаган. Улар товуш чиқариши мумкин, лекин уларни маълум бир маъно ёки сўз билан боғламайди. Болалар йиғлаш, қичқириш ва имо-ишоралар ёрдамида мулоқот қилишади.

2. Биринчи сўзлар ва имо-ишоралар: Бу босқичда болалар мулоқот қилиш учун оддий сўз ва имо-ишоралардан фойдалана бошлайдилар. Улар объектлар, ҳаракатлар ёки ҳолатларни кўрсатиш учун алоҳида товушлар ёки сўзларни талаффуз қилишлари мумкин. Бироқ, уларнинг сўз бойлиги чекланган ва барча керакли хабарларни этказиш ҳар доим ҳам мумкин эмас.

3. Сўз бирикмалари ва содда гаплар: Бу босқичда болалар бир нечта сўзларни бирлаштириб, содда гаплар ҳосил қила бошлайдилар. Улар хато қилсалар ҳам грамматик қоидалардан фойдаланишни ўрганадилар. Сўз бойлиги, ўз фикрини ифодалаш учун гаплар тузиш қобилияти ривожланади.

4. Грамматика ва луғатни ривожлантириш: Бу босқичда болаларнинг гап тузиш кўникмалари яхшиланади, сўз бойлиги бойитилади. Улар тилдан фойдаланишда тобора мослашувчан бўлиб, мураккаброқ ғояларни этказиши мумкин.

Тил қобилиятининг ривожланишига омилларнинг таъсири ҳар хил бўлиши мумкин. Асосий таъсир қилувчи омиллар орасида:

Генетик омил: генетик мойиллик тил ривожланишига таъсир қилиши мумкин. Масалан, баъзи генларнинг мавжудлиги тилни тезроқ ўзлаштиришга ёрдам беради.

Ижтимоий-маданий омиллар: Атроф-муҳит ва она тилида сўзлашувчилар билан ўзаро муносабат, шунингдек, таълим ресурслари ва амалиёт имкониятларидан фойдаланиш тил қобилиятларини ривожлантиришга кучли таъсир кўрсатиши мумкин.

Интеллектуал омил: Интеллектуал ривожланиш даражаси тилни ўрганиш ва ундан фойдаланиш қобилиятига ҳам таъсир қилиши мумкин. Баъзи тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ақл ва тил қобилияти ўртасидаги муносабатлар боғлиқ бўлиши мумкин.

Шахсий омиллар: темперамент, мотивация, мулоқотга йўналтирилганлик ва бошқа шахс хусусиятлари ҳам тил қобилиятининг ривожланишига таъсир қилиши мумкин.

Демак, тил ривожланиш босқичлари назарияси тил ривожланишининг кетма-кетлиги ва хусусиятларини тавсифлайди, шунингдек, бу жараёнга турли омиллар таъсирини ёритади.

Тил қобилиятини ривожлантириш омилларининг таъсири:

Генетик омиллар;

Ижтимоий-маданий омиллар;

Таълим усуллари ва услублари;

Генетик омиллар: Инсоннинг тил қобилиятининг ривожланишига генетик омиллар таъсир кўрсатиши мумкин. Баъзи тадқиқотлар тилларни ўзлаштириш қулайлиги учун генетик олд шартлар мавжудлигига ишора қилади. Мисол учун, баъзи одамлар бошқаларга қараганда талаффуз, грамматика ва мулоқот қобилиятларини ривожлантиришга кўпроқ мойил бўлиши мумкин. Инсоннинг тилни ўзлаштириш тезлигида генетик мерос ҳам муҳим роль ўйнаши мумкин. Бироқ, генетик омиллар аниқланмайди ва бошқа омиллар, масалан, машғулот ва амалиёт билан ўзгариши мумкин.

Ижтимоий-маданий омиллар: Тил қобилиятининг ривожланишига ижтимоий-маданий омиллар ҳам сезиларли таъсир кўрсатади. Муайян тил асосий мулоқот воситаси бўлган лингвистик муҳитда яшовчи кишига бу тилни ўзлаштириш осонроқ бўлади. Шунингдек, инсон улғайган ижтимоий муҳит унинг мотивацияси ва тильдан фойдаланиш қобилиятига таъсир қилиши мумкин. Мисол учун, агар ота-оналар ва яқинлар маълум бир тильда гаплашса ва ундан фойдаланишни рағбатлантирса, бу тил қобилиятларини яхшироқ ривожлантиришга ёрдам беради.

Ўқитиш усуллари ва услублари: Тил қобилиятини ривожлантиришга таълим усуллари ва ёндашувлари ҳам таъсир қилади. Коммуникатив ёндашув каби замонавий усул ва ёндашувлар тильдан амалий фойдаланиш ва бошқа тильда сўзлашувчилар билан ўзаро муносабатни таъкидлайди. Улар талаффуз, грамматика, тинглаш ва ўқиш қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беради. Бундан ташқари, турли ўқув материаллари, технология ва ўйинлардан фойдаланиш ҳам тил қобилиятини ривожлантиришга ёрдам беради. Шу билан бирга, ҳар бир шахснинг шахсий имтиёзлари ва ўрганиш услублари бор, шунинг учун ҳар бир талабанинг эҳтиёжларини энг самарали қондирадиган усул ва ёндашувларни танлаш муҳимдир.

Тил қобилиятини ривожлантириш соҳасидаги замонавий тадқиқотлар:

Тил қобилиятларини муваффақиятли ривожлантиришнинг асосий омилларини аниқлаш;

Тил кўникмаларини ўргатишда янги технологиялардан фойдаланиш;

Тилни ривожлантириш соҳасидаги замонавий тадқиқотлар ушбу жараённинг турли томонларини ўрганиш ва самарали ўқитиш усулларини излашдир. Қуйида биз ушбу соҳадаги иккита долзарб тадқиқот мавзусини кўриб чиқамиз.

Тил қобилиятларини муваффақиятли ривожлантириш учун асосий омилларни аниқлаш:

Болалар ва катталардаги тил қобилиятларининг муваффақиятли ривожланишига таъсир қилувчи омилларни аниқлаш бўйича тадқиқотлар олиб борилмоқда. Бу соҳадаги асосий йўналишлардан бири ирсий омилларнинг тил ривожланишига таъсирини, шунингдек, тарбия ва таълимнинг ролини ўрганишдир. Тадқиқотлар, шунингдек, турли хил ўқитиш усулларининг самарадорлиги ва уларнинг болалар ва катталардаги тил кўникмаларини ривожлантиришга таъсирини таққослайди.

Тил кўникмаларини ўргатишда янги технологиялардан фойдаланиш:

Технологиянинг ривожланиши билан тадқиқотчилар тил кўникмаларини ўргатишда янги технологиялардан фойдаланиш имкониятларини ўрганишга киришдилар. Бу ўрганишни яхшилаш ва тил қобилиятини ривожлантириш учун компьютер дастурлари, мобил иловалар, виртуал ҳақиқат ва бошқа замонавий воситалардан фойдаланишни ўз ичига олади. Бу йўналишдаги тадқиқотларда бундай технологияларнинг самарадорлиги, уларнинг ўқувчилар мотивацияси ва қизиқишига таъсири, ушбу технологиялардан фойдаланган ҳолда янги ўқитиш усулларини ишлаб чиқиш масалалари кўриб чиқилади.

Ўқитувчилар учун амалий тавсиялар:

√ Рағбатлантирувчи ўқув муҳитини яратиш
√ Ҳар бир талабага индивидуал ёндашиш
√ Коммуникатив таълим усулларидан фойдаланиш
√ турли ўқув материаллари ва манбаларидан фойдаланиш
√ ҳар бир дарс учун аниқ мақсад ва вазифаларни белгилаш
√ талабаларда танқидий фикрлаш ва мустақилликни ривожлантириш
√ турли хил иш шаклларидан фойдаланган ҳолда интерфаол машғулотлар ўтказиш (ўйинлар, гуруҳ лойиҳалари ва бошқалар).
√ мунтазам равишда фикр-мулоҳаза юритиш ва талабаларнинг ютуқларини баҳолаш
√ ўқувчиларда ўз-ўзини баҳолаш ва ўз-ўзини акс эттиришни рағбатлантириш ва қўллаб-қувватлаш.
√ фикр ва фикр алмашишни рағбатлантириш мақсадида қўшма мунозара ва мунозаралар ташкил этиш.
√ ўқув жараёнига инновацион услуб ва технологияларни жорий этиш.
√ шахслараро мулоқот ва жамоада ишлаш кўникмаларини ривожлантириш.

Талабаларда тил қобилиятини ривожлантириш қуйидаги назарий асосларга асосланади:

1. Психолингвистика: тилни ўзлаштириш, қўллаш ва тушуниш жараёнларини ўрганувчи фан. Бу назария ўқувчиларнинг тил қобилиятлари ва кўникмалари асосидаги когнитив механизмларни ўрганади.

2. Ижтимоий-маданий ёндашув: Тилнинг ижтимоий-маданий муҳитда шаклланиши ва ривожланиши ҳақидаги таълимот. Бу назария ўқувчиларнинг бошқа одамлар ва жамият билан ўзаро муносабатда бўлиш орқали ўз тил кўникмаларини эгаллаши ва ривожланишини назарда тутади.

3. Компетенция ва мулоқот: мулоқотнинг турли соҳаларини ҳисобга олган ҳолда тильда фикрни тушуниш ва ифодалаш кўникмаларини ривожлантиришга эътибор қаратиш. Ушбу назария талабаларни реал ҳаётдаги коммуникатив вазиятларда тильдан фойдаланишга тайёр бўлишларини таклиф қилади.

4. Конструктивизм: Ўқувчининг ўз таълим ва лингвистик фаолиятидаги фаол ролини таъкидлайдиган ёндашув. Ушбу назарияга кўра, талабалар ахборот ва атроф-муҳит билан ўзаро таъсир қилиш орқали ўз ғоялари, тушунчалари ва кўникмаларини фаол равишда яратадилар.

5. Тил ўргатиш услублари ва стратегиялари: Ўқувчиларнинг тил қобилиятларини самарали ўқитишга қаратилган турли метод ва стратегияларни

ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш. Ушбу усуллар мулоқот машқлари, ўйинлар, роль ўйнаш, ўқиш, ёзиш ва бошқаларни ўз ичига олиши мумкин.

Инглиз тилидан мисол тариқасида ўқувчиларнинг тил кўникмаларини ривожлантириш бир қатор назарий тамойил ва тушунчаларга асосланади. Қуйида улардан баъзилари келтирилган:

1. Коммуникатив ёндашув назарияси: Тил ўрганишнинг асосий мақсади ўқувчиларнинг мулоқот кўникмаларини ривожлантиришдир. Таълим жараёни реал коммуникатив вазиятларда тилни тушуниш ва ундан фойдаланиш қобилиятини ривожлантиришга қаратилган бўлиши керак.

2. Вазият назарияси: Тил малакаларининг тилга хос ривожланиши ўқувчилар тильдан фаол фойдаланадиган аутентик мулоқот ҳолатларини яратишга боғлиқ. Бу ролли ўйин, мунозара, лойиҳа иши ва бошқалар бўлиши мумкин.

3. Когнитив ёндашув назарияси: Тил кўникмаларини ривожлантириш идрок, фикрлаш, диққат ва хотира каби билиш жараёнларининг ривожланиши билан ҳам боғлиқ. Талабалар инглиз тилидаги маълумотларни таҳлил қилиш, синтез қилиш, таснифлаш ва шарҳлаш орқали ўрганишлари керак.

4. Ўқитувчи ва ўқувчи ролларини ўзгартириш назарияси: Ўқитувчи ҳокимият ролини ўйнамайди, балки ўқув шеригига айланади. Бу талабаларни инглиз тилидан фаол фойдаланишга ундайдиган ва топшириқлар, муҳокамалар ва лойиҳаларда жамоавий иштирок этиш орқали кўникмаларни ривожлантиришга ёрдам берадиган муҳитни таъминлайди.

5. Контекстли таълим назарияси: инглиз тили реал ҳаёт соҳалари (масалан, саёҳат, иш, таълим) билан боғлиқ бўлган муайян контекстда ўрганилади. Бу талабаларга тил кўникмаларини амалий қўллашни кўришга ёрдам беради ва уларни тилни ўрганишга ундайди.

6. Дифференциаллашган таълим назарияси: Талабалар ўрганишнинг турли суръатлари ва усулларига эга. Ўқитувчи ҳар бир ўқувчининг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиши ва барча ўқувчиларнинг тил кўникмаларини ривожлантириш имкониятига эга бўлиши учун турли хил вазифалар ва тадбирларни таъминлаши керак.

Юқоридаги назарий тамойил ва тушунчалар инглиз тилидан мисол тариқасида ўқувчиларнинг тил кўникмаларини ривожлантиришнинг асосий тамойилларидан фақат бир қисмидир. Ҳақиқий ўқитиш амалиёти муайян таълим дастурлари ва талабалар эҳтиёжларига асосланган ушбу тамойилларнинг комбинациясини ўз ичига олади.

Хулоса. Ўқувчиларда тил қобилиятини ривожлантириш таълим жараёнининг муҳим вазифаси ҳисобланади. Назарий асосларни ва тил қобилиятларини ривожлантиришга таъсир этувчи омилларни ўрганиш ўқитувчиларга ўқувчиларда ушбу қобилиятларни муваффақиятли ривожлантириш учун мақбул шароитларни яратишга ёрдам беради. Тилни ўзлаштиришда максимал натижаларга эришиш учун ҳар бир ўқувчига индивидуал ёндашиш билан бирга барча мавжуд метод ва технологиялардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга.

Адабиётлар:

1. Гаспаров М.Л. Языкознание и лингводидактика. Москва: Высшая школа, 2006.

2. Гордеева Т.Н. Основы теории и методики развития языковых навыков. Москва: Академия, 2012.

3. Дубровина И.В. Лингводидактика: Учебное пособие для студентов педагогических вузов. Москва: Логос, 2011.

4. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в неязыковом вузе. Москва: Просвещение, 2008.

5. Коцюбинська Г.М., Кузнецова В.Ф. Лингводидактика. Москва: Флинта, 2015.

6. Кузьмина Н.В. Теоретические основы развития коммуникативных способностей студентов. Москва: Книжный мир, 2014.

7. Мандрыкин А.В. Учебно-методические основы развития языковых навыков. Москва: Издательство ЛКИ, 2010.

8. Мартьянов А.П. Основы теории и методики развития языковых навыков. Москва: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2013.

9. Назаркина Г.А. Методика преподавания русского языка как иностранного. Москва: Астрель, 2009

10. Новикова Е.Ю. Развитие навыков говорения на основе функционально-коммуникативного подхода. Москва: Педагогика, 2013.

11. Орлова В.И. Лингвистика: Учеб. пособие. Москва: Проспект, 2012.

12. Пономарева Н.А. Теория и практика развития языковых навыков студентов. Москва: Флинта, 2015.

13. Соломахин В.М. Основы педагогической лингводидактики. Москва: Книжный дом Университет, 2007.

14. Шамова Е.А. Учебно-методические основы развития навыков речевого общения. Москва: Издательский центр "Академия", 2011.

15.Шеховцова Н.В. Формирование языковых навыков студентов через обучение иностранному языку. Москва: Август-Баланс, 2014.

NUTQIY ETIKET JARAYONLARINING IJTIMOIY ASOSLARI

Matkarimova A.
Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti, f.f.f.d.
ADU professori, f.f.d. Shahobitdinova Sh.H.taqrizi asosida

Tayanch so'zlar: so'z, nutq, til va madaniyat, etiket, til vositalari, sotsiolingvistika.
Ключевые слова: слова, речь, язык и культура, этикет, языковые средство, социолингвистика.
Key words: word, speech, language and culture, etiquette, expressing means, sociolinguistics.

Резюме:
XX asrda tilshunoslikning rivojlanishi tilni o'rganishda antropotsentrizm g'oyasining ustuvor mavqeyini tan olishga va shu bilan bog'liq holda inson faoliyatini uning tilida namoyon bo'ladigan izlarini tadqiq qilishga olib keldi. Antropotsentrik lingvistik paradigma tilning faoliyat ko'rsatish hamda so'zlovchining aniq maqsadlariga muvofiq til birliklaridan foydalanish qonuniyatlarini aniqlash tomon siljishi bilan tavsiflandi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola nutqiy etiketni shaxsning muloqot va uni amalga oshirish me'yorlari haqidagi bilimlarini tartibga soluvchi, interaktivlarning kommunikativ xatti-harakatlarida amalga oshiriladigan va shaxslararo muloqotning samaradorligini belgilaydigan nutqiy akt sifatida o'rganishga bag'ishlanadi.
Резюме:
Развитие языкознания в XX веке привело к признанию приоритетного положения идеи антропоцентризма в изучении языка и в связи с этим к изучению следов человеческой деятельности, проявившихся в его языке. Антропоцентрическая языковая парадигма характеризуется движением к определению закономерностей языковой деятельности и использованию языковых единиц в соответствии с конкретными целями говорящего. С этой точки зрения данная статья посвящена изучению речевая этикет как речевого акта, формирующего знания человека об общении и нормах его реализации, реализующегося в коммуникативном поведении взаимодействующих людей и определяющего эффективность межличностного общения.
Summary:
The development of linguistics in the 20th century led to the recognition of the priority position of the idea of anthropocentrism in the study of language and, in this regard, to the study of traces of human activity manifested in its language. The anthropocentric language paradigm is characterized by a movement towards defining the patterns of linguistic activity and the use of linguistic units in accordance with the specific goals of the speaker. From this point of view, this article is devoted to the study of speech etiquette as a speech act that forms a person's knowledge of communication and the norms of its implementation, realized in the communicative behavior of interacting people and determines the effectiveness of interpersonal communication.

Kirish. XXI asrning yangi davrida xalq ichki ruhining mustahkam posbonlari bo‘lgan til va madaniyatga tayanishni maqsad qiladi. Shuningdek, tilshunoslik tadqiqotlari insonning emotsional-mental sferasi, undagi etik va estetik qarashlar, qadriyatlar tizimlarini til orqali idrok etish masalasini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Natijada, til makonidagi qadriyatlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, aksiologiya va tilshunoslik kesishmasida til va qadriyat o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilish aksiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi tilshunoslikning yangi yo‘nalishlariga oid ustuvor vazifalari sifatida yuzaga chiqmoqda.

Dunyo tilshunosligida til va madaniyat, til va ma’naviyat, til va muloqot munosabatlariga e’tibor kuchayganligi bois, ularni o‘zida yaqqol aks ettiruvchi nutqiy etiket, uning birliklarini anglatuvchi lisoniy birliklar bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar madaniyat va ma’naviyatni o‘zida saqlash hamda namoyon qilish imkoniyatini yuzaga chiqarmoqda.

Tilshunoslikka oid ensiklopedik lug‘atda ham “nutqiy etiket” (речевой этикет) terminiga keng va tor ma’noda izoh berilgan [18]. Bundan anglashiladiki, nutqiy etiket turli ijtimoiy vaziyatlarda qo‘llanib, turg‘un birikma shaklida mavjud bo‘ladi. Ular nutqiy etiket shakllari deb ataladi. Sharqda juda qadimdan so‘z va so‘zlashuv madaniyatiga alohida e’tibor qaratilgan. So‘zning qudrati va uning kuchi doimo ziyoli, alloma va mutaffakirlar e’tiborida bo‘lgan. Qadim Sharqda nutqiy etiket “nutq odobi” va “so‘z odobi”, deb yuritilgan [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So‘nggi 25-30 yil ichida nutqiy etiket muammosi va uni o‘rganishning turli jihatlariga bag‘ishlangan ko‘plab izlanishlar amalga oshirilgan. Nutqiy etiket jahon tilshunosligining ilmiy tadqiqot predmeti sifatida an’anaviy ravishda turli xil o‘rganish obyektlari bilan, birinchi navbatda, nutq madaniyati yoki nutq odobi bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan. Jumladan, jahon tilshunoslaridan P.Braun va S.Levinson, E.Gofman, R.Lakof, P.A.Gazizov, T.V.Larina, N.I.Formanovskaya, V.M.Alpatov, S. Y.Glushkova, N.V.Grigoryeva, Ch.Zegiymaa, N.A.Karaban, Y.V.Karpova, V.V.Leontyev, J.P.M.Austin, K.Ehlich, J.Lichlarning olib borgan izlanishlari bunga dalildir.

O‘zbek tilshunosligida ham bu muammo doirasida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, S.M.Muminov, Sh.M.Iskandarova, Y.Hojiyeva, Sh.B.Sodiqova, Z.A.Akbarova, Q.A.Rasulov, Q.Kaxarovlarning ishlari mazkur yo‘nalishda alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunos N.Shammas [17] ta’biri bilan aytganda, lingvopragmatika doirasida o’rganiluvchi birliklar ijtimoiy aloqadorlikni qo’llab-

quvvatlash, ijtimoiy masofani anglash va insonlarning o‘zaro muloqotidagi madaniyat, mentalitet bilan bog‘liq nutqiy etiket mezonlarining barqarorligini saqlash maqsadida nutqda ifoda etiladi. Salomlashish, xayrlashish, mulozamat, minnatdorlik, tabriklash, uzrxohlik, tasalli berish, shikoyat qilish kabi nutqiy vaziyatlarda qo‘llaniluvchi iboralarni tabiiy (odatiy) nutqda ifodalanishi masalalari lingvopragmatikaning predmeti sanaladi.

Tahlil va natijalar. J.Lich nutqiy etiketda pragmatika tamoyillarining kengroq, ijtimoiy-psixologik talqinini taklif qiladi. U nutqiy etiketdagi lingvistik pragmatikani maksimalar to‘plami sifatida taqdim etilgan matnli ritorika va shaxslararo ritorika sohasi ekanligini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan u quyidagi etiket birliklarini taklif qiladi:

- Kechirim so‘rash nutqiy etiket birliklari;
- Salomlashuv nutqiy etiket birliklari;
- Xayrlashuv nutqiy etiket birliklari.

Ingliz tilida turmushga chiqmagan ayol uchun murojaat sifatida asosan Miss leksik birligi qo‘llaniladi. Ushbu murojaat ifodalovchi leksik birlik yosh qizlarga nisbatan, ularning oilaviy ahvoli ma’lum bo‘lmagan holda qo‘llaniladi. Ehtirom ko‘rsatkichli birliklar o‘zbek tiliga umumiy tarzda “xonim” deb tarjima qilinadi. Bunda yosh jihatdan xoslanganlik belgisi birmuncha sustlashadi. Masalan, “Maria stood in the archway to the kitchen, holding a silver candlestick and a rag. Miss Wolcott, are you all right?” (Kristin Hannah. The Four Winds).

Aynan ushbu romanda uzr so‘rash nutqiy etiket birliklari ham uchraydi. Muallif asarda “apologize”, “sorry”, “please” kabi nutqiy birliklaridan unumli foydalangan. Shuningdek, “I am sorry” uzr so‘rash ma’nosida qo‘llanilgan. Masalan, Mom, I can’t take it anymore. I’m sorry. I love you both (Kristin Hannah. The Four Winds).

Kechirim so‘rashni kuchaytirish uchun inglizlar juda ko‘p qo‘shimchalarni ishlatishadi, shuning uchun qo‘shimchalar bilan bir qatorda salbiy rangdagi sifatlarni awfully, dreadfully, terribly va so, such birliklari ham ishlatiladi, bu esa uzrni kuchaytirish uchun foydalanilganda ijobiy ma’no namoyon etadi.

O‘zbek tili adabiy nutq me’yorida salomlashish nutqiy etiketi sifatida “Assalomu alaykum” leksik birligi qabul qilingan.

Assalomu alaykum (ar. – sizga tinchlik, salomatlik tilayman) musulmonlar o‘zaro uchrashganda ishlatiladigan salomlashuv iborasidir. Salom qabul qiluvchi “Va alaykum assalom” (“Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman”) deb javob qaytaradi. Assalomu alaykum o‘zaro muomala-munosabatning boshi bo‘lib, o‘ziga xos iliqlik, samimiyat, ochiqko‘ngillik baxsh etadi. Shu tarzda salomlashish ijobiy ma’no ifodalovchi leksik birlikka aylanadi (inglizlar buni

positive face deb ataydilar). Masalan, “Assalomu alaykum, shervachcha, – dedi bir keksa tovush va bu tovushning egasidan ilgari “to‘q” etib hassa kirdi. Saidiy darhol chetlanib yo‘l berdi” (A.Qahhor “Sarob”, 66-bet). Ushbu misolda salbiy ma’noni ifodalovchi salomlashishga duch kelamiz.

Xayrlashuv nutqiy etiket birliklari sifatida “Mayli bo‘pti, ko‘rishguncha”, “Mayli xayr”, “Yaxshi qoling”, “Endi menga ruxsat”, “Yana keling gaplashamiz” kabi sinonomik birliklarni uchratishimiz mumkin. Ba’zan xayrlashish nutqiy birliklari o‘rnida bemalol foydalansa bo‘ladigan leksik birliklar ham uchrab turadi. Masalan, “Yo‘lchiboyning bu javobidan keyin Saidiy uchun bu mavzuni davom ettirishning ma’nisi qolmadi, soatiga qarab o‘rnidan turdi-da, “yaxshi qoling” deb tashqariga chiqib ketdi” (A.Qahhor “Sarob”, 165-bet).

Ushbu gapda adib xayrlashish o‘rnida, “yaxshi qoling” nutqiy birligini ishlatgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, turli tillardagi nutqiy etiket birliklari hamon tadqiqotlar uchun dolzarb mavzu bo‘lib, uni o‘rganish nafaqat lingvistik natijalar, balki madaniyat, mentalitet, din va boshqa qadriyatlarga bog‘liq faktlarni ham aniqlash va tili o‘rganilayotgan mamlakat xalqini ma’lum darajada tushunish imkonini beradi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi nutqiy etiket birliklari turli yo‘nalishlarga ega: ingliz tilida adresatga yo‘naltirilgan (odobli bo‘lish, boshqalarga e’tibor berishni anglatadi), u suhbatdoshga qaratilgan va katta kommunikativ funksiyani bajaradi, o‘zbek tilida u murakkab nutqiy etiketga (nutqiy faoliyatda belgilangan odob qoidalariga rioya qilish) hamda katta axloqiy yukni ko‘tarishga asoslangan.

Adabiyotlar:

1. Алпатов В.М. Категория вежливости в современном японском языке. – М.: Наука, 1973. – 111 с.

2. Austin J.P.M. The Dark Side of Politeness: A Pragmatic Analysis of Non-Cooperative Communication. Unpublished PhD Dissertation. – Canterbury: University of Canterbury, 1987.

3. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage / P. Brown, S. Levinson. – Cambridge: University Press, 2007. – 225 p.

4. Газизов Р.А. Коммуникативные стратегии вежливости в немецкой лингвокультуре (на материале электронных писем) / Р.А.Газизов // Известия Юго-Западного гос. ун-та. Серия: Лингвистика и педагогика, 2018. – Т 8. – № 3 (28). – С. 59–68.

5. Глушкова С.Ю. Лигвопрагматические аспекты категории вежливости в английском и китайском языках: дисс. … канд. филол. наук. – Казань, 2011. – 162 с.

6. Goffman E. On Face-Work: an Analysis of Ritual Elements in Social Interaction / E. Goffman // Communication in Face to Face Interaction. – Harmondsworth, 1972. – P. 5–45.

7. Григорьева Н.В. Стратегии вежливости в речевой коммуникации представителей британской, американской и австралийской лингвокультур: на материале речевого акта просьбы: Дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2009. – 233 с.

8. Ehlich K. On the Historicity of Politeness // R.J. Watts, S.Ide, K. Ehlich (eds.) Politeness in Language. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1992. – P.71-107.

9. Карабань Н.А. Коммуникативно-прагматические аспекты реализации категории вежливости в официально-деловом стиле русского языка: Дисс. … канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – 233 с.

10. Карпова Е.В. Стратегии вежливости в современном английском языке: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2002. – С.17.

11. Lakoff R. The logic of politeness; or minding your p's and q's. Papers from the 9th Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society / R.Lakoff. – Chicago: Chicago Linguistic Society, 1973. – P. 292–305.

12. Ларина Т. В. Категория вежливости в английской и русской коммуникативных культурах / Т.В.Ларина. – М.: Изд-во РУДН, 2003. – 316 с.

13. Леонтьев В.В. Лингвистическая (не) вежливость: к проблеме содержания категории // Экология языка и коммуникативная практика, 2016а, № 1. – С. 70-83.

14. Leech G. The Pragmatics of Politeness. New York: Oxford University Press, 2014.

15. Matkarimova A., Yuldasheva D. Muloqotda shaxsiy munosabat kategoriyasi/O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2024 1/4/1. – B.303-306.

16. Matkarimova A.I. Xorijiy til o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi va innovatsion texnologiyalar/ Pedagog respublika ilmiy jurnali/7 tom 2 son / 2024 - yil / 15 – fevral. -b.165-170.

17. Shammas N. Cross-cultural Pragmatic Failure: Misunderstanding in Verbal Communication between Speakers of Arabic and English, Unpublished PhD Thesis, UK: University of Loughborough, 1995.

18. Формановская Н.И. Речевой этикет и вежливость [Электронный ресурс] / Н. И. Формановская // Портал о литературе. Обновляемая база публикаций по вопросам литературы. – Режим доступа: http://literary.ru/literary/ru/readme. phpusubaction=showfull&id=1205319091 &archive=12053242.

G‘AYRIODATIY BIRIKMALARNING LINGVOPOETIK AKTUALLASHUVI

Akbarova M.Sh.
QDPI boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.b.f.d., PhD

Tayanch so‘zlar: ekspressiv sintaksis, lingvopoetik aktuallashuv, okkazional birikmalar, okkazionalizm, oksyumoron, g‘ayriodatiy birikmalar.
Ключевые слова: экспрессивный синтаксис, лингвопоэтическая актуализация, окказиональные сочетания, окказионализм, оксюморон, необычные сочетания.
Key words: expressive syntax, linguopoetic actualization, occasional combinations, occasionalism, oxymoron, unusual combinations.

Резюме:
Maqolada sintaktik ekspressivlikni ifodalovchi til satxlari, jumladan g‘ayriodatiy birikmalar, ularning badiiy matnni lingvopoetik qadr-qimmatini oshiruvchi vosita ekanligi, ekspressiv sintaksisdagi o‘rni izohlangan. Badiiy asarlarda uchraydigan g‘ayriodatiy birikmalardan namunalar keltirilgan va ularning lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan. G‘ayriodatiy birikmalarning matn qurilishini o‘rganishda sintaktik struktura xususiyatlari alohida o‘ringa ega ekanligi ko‘rsatilgan.
Резюме:
В данной статье перечислены основные единицы экспрессивного синтаксиса в языкознании. Объяснены языковые уровни, выражающие синтаксическую выразительность, в том числе необычные сочетания, их роль в экспрессивном синтаксисе, а также то, что они являются средством повышения лингвопоэтической ценности художественного текста. Приводятся примеры необычных сочетаний, встречающихся в художественных произведениях, и выявляются их лингвопоэтические особенности. Показано, что особенности синтаксической структуры занимают особое место в изучении текстового построения необычных сочетаний.
Summary:
This article lists the main units of expressive syntax in linguistics. Language levels expressing syntactic expressiveness, including unusual combinations, their role in expressive syntax, and the fact that they are a means of increasing the linguopoetic value of an artistic text are explained. Examples of unusual combinations found in works of art are presented and their linguopoetic features are revealed. It is shown that syntactic structure features have a special place in the study of text construction of unusual combinations.

Kirish. Ma’lumki, tilda ekspressivlikni ifoda etishning turfa xil imkoniyatlari mavjud. Bu kabi imkoniyatlarning naqadar kenglikda ekanligi tilning ham

nechog‘lik boy ekanligini ko‘rsatib beruvchi mezonlardandir. Tilshunoslikda xatto “ekspressivlik til taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchidir” degan fikr ham mavjud. [1] Til haqidagi fanda tilning kommunikativ va yana boshqa vazifalari qatorida uning ekspressivlik funksiyasi ham alohida ko‘rsatiladi. Tilning bu vazifasi, ayniqsa, badiiy matnda yanada ahamiyatli ekanligi ko‘rinadi. Badiiy matnning lingvopoetik muammolarini tadqiq etgan M.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, “badiiy asar tili tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda tilning ayni “ekspressiv vazifasi” termini bilan bir qatorda “tilning poetik vazifasi”, “tilning badiiy vazifasi”, “tilning stilistik vazifasi” kabi atamalar ham qo‘llanadi”. [2] U o‘z mulohazalari davomida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, deyarli keltirilgan atamalarning barchasidan tilning estetik vazifasi namoyon bo‘lishi anglashiladi.

Adabiyotlar tahlili. Rus tadqiqotchilaridan bo‘lgan A.P.Skovorodnikov rus tilshunosligida ekspressiv sintaksisning asosiy birliklarini quyidagicha ajratilishini ta’kidlaydi: 1)ellipsis, 2)antiellipsis, 3)kesish, 4)pozitsion-leksik takror, 5) parsellyatsiya, 6)segmentatsiya, 7)antisipatsiya, 8)bog‘lovchisizlik hodisasining turli ko‘rinishlari, 9)so‘z birikmasi komponentlarining o‘rnini almashtirish, 10) inversiya, 11)sintaktik parallelizm, 12)ritorik so‘roq gap, 13)undov konstruksiyalar. [3] Rus tilshunoslari sanab o‘tilgan bu 13ta sintaktik hodisani ekspressiv sintaksis birliklari sifatida bir sistemaga birlashishini asoslashga urinadilar. Tatar tilshunosi X.R.Kurbatov ham takror, gradatsiya, parallelizm kabi hodisalarni nutq ta’sirchanligini oshiruvchi sintaktik figuralar sifatida ta’kidlaydi. [4]

O‘zbek tilshunosligida ham bu kabi qarashlar kuzatiladi. Masalan, A.Abdullayev ekspressivlikning sintaktik usul orqali ifodalanishi yuzasidan fikr yuritar ekan, sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog‘lovchilarning maxsus qo‘llanishi yoki qo‘llanmasligi, antiteza, monolog, sukut qilish, inversiya, ritorik so‘roq, takroriy gaplar kabi hodisalarni sanab o‘tadi. [5] M.Yo‘ldoshev ham ekspressiv sintaksis birliklari haqida so‘z yuritar ekan, sintaktik parallelizm, inversiya, gradatsiya, oksyumoron kabi bir qator hodisalarni keltirib o‘tadi. [6] Oksyumoron atamasiga izoh keltirsak. Oksyumoron – o‘zaro mos kelmaydigan so‘zlarning kombinatsiyasi, ikkita bir-birini istisno qiladigan tushunchalarning birikma hosil qilishi, paradoks. Bu termin “o‘tkir” va “ahmoq” deb tarjima qilinishi mumkin bo‘lgan ikkita yunoncha so‘zdan kelib chiqqan. Shunisi e’tiborga loyiqki, yozuvchilar asar nomini o‘ylab topishda ko‘pincha bu usuldan foydalanadilar. Misol tariqasida quyidagi rus yozuvchilarining asarlari nomlarini keltirish mumkin: Nikolay Gogol “O‘lik jonlar”, Vsevolod Vishnevskiy “Optimistik fojea”, Fyodor Dostoyevskiy “Halol o‘g‘ri”, Yevgeniy Shvarts “Oddiy mo‘jiza” kabi.

M.Yo‘ldoshev oksyumoron hodisasini izohlayotganda uni ayrim adabiyotlarda “okkazional birikmalar”, “noodatiy birikmalar”, “g‘ayriodatiy birikmalar” deb ham nomlanishini aytib o‘tadi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turganidek, ekspressivlikni

oshiruvchi birliklar deya sanalganlar ichida biz “g‘ayriodatiy birikmalar” nomi bilan tilga olayotgan sintaktik birliklar ko‘rib o‘tilgan ishlarning hech birida asosiy o‘rinda tilga olinmaydi.

O‘zbek tilshunosligining ardoqli vakili bo‘lgan N.Mahmudov o‘zbek tilshunosligidagi sintaktik birliklar qatoriga “g‘ayriodatiy birikma” terminini kiritadi va “So‘z estetikasi”[7] nomli qo‘llanmasida alohida ta’rif berib o‘tadi. U o‘zining “So‘z shayxining mo‘jizalari” nomli maqolasida ham “g‘ayriodatiy birikmalar” terminini tilga oladi va uni shunday izohlaydi: “Muallif bunday birikmalarni tuzar ekan, u til qonuniyatlariga nopisandlik yoki zo‘rlik qilmaydi. Hassos so‘zchi sifatida u tilning botinida, tub qatlamlarida yashiringan so‘z qo‘shilishi imkoniyatlarini badiiy niyatiga muvofiq tarzda ishga soladi. Buning natijasida kutilmagan so‘z qo‘shilmalari yuzaga keladi, ular o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb qiladi va uni o‘ylashga chorlaydi, alal-oqibat u bu qo‘shilmalarda pinhon bo‘lgan ma’no injaliklarini kashf etadi”. [8] Quyida badiiy matnlarda yozuvchilar tomonidan ishlatilgan g‘ayriodatiy birikmalardan namunalar keltiramiz.

Tahlillar va natijalar. O‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan bo‘lgan Tohir Malikning “Shaytanat” nomli qissasida quyidagicha g‘ayriodatiy birikmalarni uchratish mumkin: “Anvar masrur edi. U o‘rnidan yengil turdi. Go‘yo uni uzoq yillar ezib kelgan g‘am xarsanglari Xolidiyning baqirig‘idan so‘ng yelkasidan ag‘darilganday bo‘ldi.” “Birovlarning onalari duru gavhar ustida tug‘ib, zarhal choyshablarga yo‘rgaklaydi. Sharif esa, o‘zining nazarida, alamlar tikonzori ustida tug‘ilib, tashvish choyshabiga yo‘rgaklangan. Birovlar bu dunyo ne’matlaridan to‘yib bahramand bo‘lish uchun tug‘ilgan bo‘lsa, Sharif, o‘zining nazarida, bu dunyodan nafratlanish uchungina tug‘ilgan.”(T.Malik “Shaytanat”). Siz guvohi bo‘lgan ushbu parchalarda g‘am xarsanglari, alamlar tikonzori, tashvish choyshabi kabi birikmalar mavjud. Ko‘rinib turganidek, g‘am, alam, tashvish so‘zlari insonlarga xos bo‘lgan, ichki kechinmalarni, his-tuyg‘ularini ifoda etuvchi so‘zlar hisoblanadi. Xarsang, tikon, choyshab so‘zlari esa narsa nomlarini bildiruvchi so‘zlardir. Adib asar qahramonining ichki tuyg‘ularini ifodalash, o‘quvchiga yetkazib bera olish, qahramon bilan birga yashash tuyg‘usini his qila olishi uchun shu kabi birikmalarni hosil qiladi. Mahoratli yozuvchi keltirilgan namunadagi alamlar tikonzori hamda tashvish choyshabi deya ta’rif berilgan Sharifning tug‘ilib o‘sgan olami, uni o‘rab turgan muhit uning uchun naqadar ayanchli, nafratga to‘la ekanligini, bu hayot tarzidan uning umuman ko‘ngli to‘lmasligi haqida o‘quvchiga yanada yaqqolroq tasavvurga ega bo‘lish imkoniyatini hadya etadi.

Sherzod shaharga kelgandan buyon ko'p davralarda bo'lgan, hatto to‘ng‘ich hikoyalari nazarga tushib qolgan edi. (O‘.Hoshimov "Nur borki, soya bor") Sening hukumating butun mamlakat ustiga temir parda tortgan! – dedi. (A.Qahhor “Dumli odamlar”) Muhayyoga bu gap kalaka bo‘lib tuyuldi shekilli, rangi bo‘zarib

kotibga ayiq qarash qildi… (A.Qahhor “Muhabbat”) Mahallaga alvasti mish-mish bosh tiqdi. (A.Qahhor “Muhabbat”) Bu gapdagi alvasti mish-mish birikmasida urg‘u albatta alvasti so‘ziga tushadi, alvasti – go‘yo har xil qiyofada ko‘rinadigan afsonaviy maxluq, jin, ajina; nihoyatda ko‘rimsiz badbashara odam kabi ma’nolarni ifodalaydi. [9] Alvasti so‘zini mish-mish so‘ziga bog‘lashda uning yashirin ma’no qirralari e’tiborga olingan, xalq orasida tez tarqaluvchi mish-mishlarning nechog‘lik yoqimsiz ekanligiga ham ishora berilgan.

Shu o‘rinda quyidagi birikmaga e’tiboringizni tortmoqchimiz: Tiriklar go‘ristoni bo‘lgan bu dargohning daxshati oldida o‘liklar go‘ristonining daxshati unga daxshat ko‘rinmas edi. (A.Qahhor “Daxshat”) Bu birikmada ham okkazionalizm, ham oksyumoron hodisasiga guvoh bo‘lishimiz mumkin, ya’ni birikmadagi go‘riston so‘zi okkazional yo‘l bilan go‘r + iston tarzida hosil qilingan bo‘lib, qabriston so‘ziga sinonim holatda ishlatilgan. Qabriston esa o‘liklar makoni ekanligi hammamizga oydek ayon, tiriklar so‘zi esa o‘liklar so‘zi bilan o‘zaro zid ma’nodagi so‘z hisoblanadi. Shu bois bu birikmani haqiqiy g‘ayriodatiy birikmadir. G‘ayriodatiy birikmalarning semantik xususiyatlari matniy qurshovda o‘rganiladi.

Xulosalar. Har qanday mohir quruvchi bir imorat qad rostlashi uchun kerak bo‘ladigan jamiki qurilish materiallaridan foydalanar ekan, o‘zining bor mahoratini, o‘zidagi mavjud g‘oyalarini, iste’dodini ishga solib, tinimsiz mehnat qiladi va oxir oqibat o‘z mehnatining samarasi o‘laroq yuksak bir imorat bo‘y ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, adabiyot san’atida ham ijodkor o‘z ijod mahsulini yaratish uchun til materiallaridan shunchalik mohirona foydalanadiki, til materiallarini bir-biriga semantik va grammatik jihatdan shunday birlashtiradiki, natijada o‘quvchi bu ijod namunasining naqadar betakror san’at asari ekaniga shohid bo‘ladi. G‘ayriodatiy birikmalar esa badiiy matnning lingvopoetik qiymatini oshiruvchi eng muhim sintaktik vositalardan biridir. Shu jihatdan g‘ayriodatiy birikmalarning ekspressiv sintaksisdagi o‘rni beqiyosdir.

Adabiyotlar:

1. Akimova G.N. “Novoye v sintaksise sovremennogo russkogo yazika”. – M.: Visshaya shkola, 1990.-s.80.

2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.-b.90.

3. Skovorodnikov A.P.O sisteme ekspressivnix sintaksicheskix konstruksiy sovremennogo russkogo literaturnogo yazika. – Filologicheskiye nauki, 1982.

4. Kurbatov X.R. Tatarskaya lingvisticheskaya stilistika i poetika. – M.: Nauka, 1978.-s.130.

5. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983.-b.8.

6. Yuldashev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2009.-b.39.

7. Abdurahmonov H., Mahmudov N. “So‘z estetikasi”,-qo‘llanma, – Toshkent: Fan, 1981.-b.38.

8. Mahmudov N. “So‘z shayxining mo‘jizalari”. – “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. – 2009-yil 7-son.

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I-II tom. – M.: Rus tili, 1981.

HOZIRGI O‘ZBEK QISSALARIDA JANRLAR VA SHAKLLAR RANG-BARANGLIGI

Suleymanova S.A.
CHDPU, Boshlang‘ich ta’lim fakultetei o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: qissa. janr, ruhiyat, nazariya, nasr, adabityotshunoslik, poetika.
Ключевые слова: рассказ. жанр, психика, теория, проза, литературоведение, поэтика.
Key words: story. genre, psychology, theory, prose, literary criticism, poetics.

Резюме:
Qissa janrida doimo ruhiyat bilan bog‘liq muammolar bo‘lishini e’tiborga olsak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. Muammoning faqat bir tomonlama o‘rganilishi biz olib borayotgan tadqiqotning o‘lchovlariga unchalik to‘g‘ri kelmasligi aniq.
Резюме:
Учитывая, что в жанре рассказа всегда есть проблемы с психикой, суть вопроса в проясняется. Понятно, что только одностороннее изучение проблемы мало соответствует измерениям проводимого нами исследования.
Summary:
Considering that there are always mental problems in the genre of the story, the essence of the issue in Shandon becomes clear. It is clear that only a one-sided study of the problem does not correspond much to the measurements of the research we are conducting.

Qissa janrida doimo ruhiyat bilan bog‘liq muammolar bo‘lishini e’tiborga olsak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. Muammoning faqat bir tomonlama o‘rganilishi biz olib borayotgan tadqiqotning o‘lchovlariga unchalik to‘g‘ri kelmasligi aniq. Chunki XX asrning 20- yillaridan boshlangan sinfiylik va konfliktsizlik nazariyasi, ikkinchidan, sho‘ro siyosatining tutumlari masalaga teran kirib borish imkonini chegaralab qo‘ygandi. 60-yillardan keyingina erkinlik shabadalari (unda ham to‘laqonli tamoyil emas!) muammoga aynanlik nuqtai nazaridan borishga imkon bera boshladi. Unda ham sobiq ittifoq hududlarida yashab ijod qilgan, temir qonuniyat negizidan tashqariga unchalik erkin chiqa olmagan yozuvchilar ko‘pincha urush va uning salbiy oqibatlarini yuzaga chiqarishning uddasidan chiqa oldi xolos! Ch.Aytmatovning “Jamila”, O.Yoqubovning “Muqaddas”, P.Qodirovning “Erk”, “Qadrim”, O‘.Umarbekovning “Sevgim, sevgilim”, Sh.Xolmirzayevning “To‘lqinlar”, O‘.Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” kabi o‘nlab qissalarda o‘sha

davrning odamlari ruhiyatidagi katta-kichik evrilishlar, o‘zlikni tanish, oila va shaxslararo munosabatlar talqini shular jumlasidandir. 70-yillardan keyingi M.M.Do‘st, E.A’zam, A.A’zam, A.Dilmurod kabi yozuvchilar uslubida tamomila boshqacha obrazlar sistemasi talqini yuzaga kela boshladi. Nihoyat 90-yillardan keyin badiiy adabiyotda shaxsning o‘zini tasvirlash, o‘zining muammolarini turli usul va yo‘sinlarda namoyish qilish tradisiyasi o‘lchov tig‘izligini ranginlashtirdi. Bularning ko‘pchiligi yangi odam obrazini ruhiy talqin qilish masalasiga sho‘ng‘ib ketishi kuzatiladi. Demak, muammoga turli davrlar dunyoqarashi, amaldagi kuchlar taqdimnomasidek baholash ishonchni oqlashi tayin.

XX asr adabiyotshunosligida qissa poetikasiga bag‘ishlangan qator tadqiqotlarda hayot haqiqati va inson konsepsiyasi muhim muammo sifatida o‘rganilgan Prof. U.Normatov, Y.Solijonov, A.Rasulov, N.Xudaybergenov va Q.Yo‘ldoshevlarning olib borgan tadqiqotlarida masalaning u yoki bu jihatlari davrlar silsilasidagi poetik o‘zrgarishlar fonida talqin qilingani ayni haqiqatdir. Bu tadqiqotlarning ko‘pchiligi o‘sha davr nuqtai nazaridan talqin qilinib, o‘z ilmiy bahosini oldi.

O‘tgan davr mobaynida yozuvchilar badiiy asarni o‘rganishda uchta tamoyilga diqqat qaratishgan:

1. Yozuvchi jamiyat muammolarini qay darajada ifodalash masalasi hal eta oldi. 2. Hayotiy haqiqatga mos kelishi qay darajada ifodasini topgan. 3. Tabiatning bir uzvi (kolxozlashtirish siyosatiga qay darajada o‘z hissasini qo‘sha oldi) bo‘lgan maishiy turmush an’analarini to‘laqonli namoyon qilishga qurbi yetadimi. Mana shu uchta konsepsiyaga javob bergan yozuvchi badiiy izlanishlari munosib baholanib, o‘quvchilarga o‘qilishi muhim bo‘lgan badiiy chizgilar (asarlar) sifatida taqdim qilingan. Bu zinhor o‘zining ishonchini oqlaydigan ish emas. Chunki bir yoqlama talqin va tadqiq ham alal oqibatda nasrning badiiy qiymatiga zomin bo‘lishi muhimligini bugungi kun ijtimoiy-madaniy hayot isbotini berib turibdi.

Qissa janrining kelib chiqishi o‘zbek adabiyotida folklor asarlaridagi epik tasvir talqinlarida yuzaga kelganligini inkor qilib bo‘lmaydi. Unda qahramonlikning ulug‘vor qiyofasi, (Alpomish) mardlik va olijanoblikning tantanasi eng muhim shartlaridan biri ekanligi ayonlashadi. Shundan kelib chiqib, ilk qissa Allohning muqaddas kalomi – “Qur’oni karim”dagi payg‘ambarlar haqidagi qissalar, Otam Ato va Momo Havo to‘g‘risidagi ibratli rivoyatlar bilan belgilanadi. XIII asrning noyob asarlaridan biri N.Rabg‘o‘ziyning “Qissasi Rabg‘o‘ziy”dagi qissalar janrning yanada takomillashuviga keng imkon tug‘dirdi. Keyinchalik Yevropa, Amerika, Rus va Sharq adabiyotida qissa (povest)ning o‘ziga xos shakllari namoyon bo‘la boshladi.

Prof.U.Rasulova: “Farishta (ilohiy nur), ruh hamda vujud (nutfa) borasidagi ilmi avvalda arshi a’lo, kurrai zamin makoni qamrab olinadi. Qur’ondagi shar’iy ahkom bilan qissalarning uyg‘unligida insonga yuborilgan sinovga ishora kuzatiladi. Bu

qissalar ma’lum surada izchil, ayrim oyatlarda jamlanib, muayyan payg‘ambar fazli, karomatidan boxabar etadi. Faqat ”Yusuf” surasida payg‘ambar qismati yaxlit tarzda tizimli qamrab olinadi. “Baqara” surasida Odam alayhissalom hamda Momo Havoning jannat saodati, iblis nayrangi sinoati zamirida ilk bor imon va kufr ziddiyatiga urg‘u beriladi. Suraning ma’lum o‘rnida muqaddas farishta, ojiz inson, makkor shayton – uch yaratiqning mohiyati teran mantiq asosida uqtirib bor”. Ma’lumki, qissalarda 124 ming payg‘ambar kelgani shulardan 313 tasi rasul qolgani nabiy ya’ni kitobsiz bo‘lgani qayd eslatilib, 25 payg‘ambar tarixi Qur’onda oyat va suralar bag‘riga singdirilib ifodalanishi barchamizga ma’lum. Demak, janrning ilk ildizlari haqida so‘z borganda muqaddas kitob va undan keyingi sahobalar tomonidan olib borilgan islohotlarda aks ettiriladi. Sahobalar haqidagi qissalar ham shunday tarzda diniy olimlar, faylasuflar, mutafakirlar, shoirlar va zamonamiz tarixchilari tomonidan alohida kitob holida yozib borilgan.

Keyingi yillarda janr tadrijiy rivojlanib, haqqoniy o‘z manerasiga ega chiqdi. Prof.M.Qo‘chqorova ta’kidlaganidek: “Qissa janriga xos muhim nazariy belgilardan biri unda bitta qahramonning to‘laqonli sarguzashti hikoya etilishidir. Qissa roman bilan hikoya o‘rtasidagi janrdir. Shunga ko‘ra qissada ba’zan roman janriga xos unsurlar, ba’zan esa hikoya, novvellaga xos unsurlar ko‘rinish berib qoladi. Keyingi paytdagi nazariyotchi olimlar va o‘zimizning bu janr borasidagi kuzatishlarimiz natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qissa dominant bo‘lgan asarda albatta, unga xos muhim belgilar bilan bir qatorda ba’zan boshqa janrlar (roman, novella, hikoya, esse, xotira)ning ham unsurlari ishtirok etaveradi. Lekin baribir, qissa janrining dominantligi hisobiga qissa bo‘lib qolaveradi” . Binobarin, qissaning epik tur orasidagi ifoda shakllari o‘z mohiyatiga ko‘ra davrning ehtiyoji sabab o‘zgarishga mahkumligi bilan ham ajralib turadi. Boshqacha aytganda, bitta qahramon atrofida birlashayotgan voqelik yozuvchi ijodiy konsepsiyasi hosilasidir.

Badiiy psixologizmga to‘xtaladigan bo‘lsak, qissa tabiatida ikki muhim jihat qamrov kengligini taqozolaydi. A.B.Yesin “Psixologizm – bu adabiyotning o‘ziga xos vositalari yordamida xayoliy va to‘qima, shaxs va his-tuyg‘u, fikr va lirizimga yo‘g‘rilgan kechinmalarning yetarlicha istifoda etilishi, mufassal va teran tarzda tasvirlanishidir” desa, L.G.Ginzburgning talqinda – psixologizm qahramon ichki olamining ratsional, soddalashgan tasvir ekzistensiyasi, va uyg‘un ifodasi emas, balki asar qahramonlaridagi o‘zini tutish, yashash, anglashda xayolotiga kelmagan, tasodifiy, nogahoniy bir lashzada qarama-qarshiliklardan boshlanadi” deya alohida mantiqiy dalolatlaydi. Har ikki olim ham psixologizm muammosiga turlicha rakurslardan yondoshadi. Tasodifiy ro‘y bergan voqelik qahramonni kuchli depressiyaga, quvonu shodlik esa g‘am-g‘ussaning barham topishiga olib kelishi tayin. Negaki, inson ruhiy olami – ikki qarama-qarshi tushunchalar atrofida yuzaga chiqadi. Odam birdan quvonib, shodlanib ketgandagi kayfiyati uni yanada irodali

bo‘lishga yetaklasa, ba’zi tushkunlik orqasida sinov, g‘am-g‘ussaning bahridan o‘tish yo‘llari qabarib ko‘rinadi. Yozuvchi har ikki jihatni ham bitta miyasida hayotiy haqiqatga aylantiradi. Buni hech bir davr munaqqidi inkor qilolmasa kerak deb, o‘ylaymiz.

Qissadagi aniq chegaradagi to‘g‘ri belgilab olishimiz zarur. Unda bir-birini to‘ldiruvchi kategoriyalar o‘z ifodasini topishi muhim: “Povest janriga mansub bo‘lgan asarlarda qamrab olingan davrdan qat’i nazar bosh qahramon hayotida mavjud bo‘lgan barcha voqealarning batafsil tasvirlanishi shart emas. Yozuvchi o‘sha voqealarning eng asosiylarini tanlab oladi, qaysiki bosh qahramonning xarakterini ochishga qulay kelgan, asar g‘oyasini ochishga xizmat qiladigan voqealarnigina kengroq tasvirlaydi” . Haqiqatdan ham, povestda poetik qonuniyat qisadagi singari murakkab va olamshumul masalalarni idroklashga keng imkon bermaydi. Yozuvchi muayyan voqelik fonida harakatlanadi. Davrning og‘riqlari va muammolari ma’lum bir sinfiy takomilda ayonlasha boradi. Qissada – vaqt nisbatan chegaralansa-da, qahramonning botiniy olamidagi evrilishlar asosan inson konsepsiyasi negizida talqin etiladi. U davrni ham, zamonni ham, makonni ham, tarixiy aspektdagi rolini ham maromiga bo‘ysundiradi, natijada, davrning manzarasi haqqoniy qiyofada o‘quvchi ko‘zi o‘ngida qayta jonlanadi. Dos.M.Boboxonov masalaga quyidagi rakursdan turib baho berishni ma’qul ko‘raganligida masala mohiyatiga yaqinlashish kuzatiladi. Muallif yozishicha: “Zamonaviy adabiyotshunoslikda muammo markaziga hazrati insonni qo‘yib gavdalantirish (antroposentrizm) an’anasi strukturalizmdan qolgan meros sifatida “gereosentrizm” tendensiyasiga, shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayoniga diqqatning kuchayishiga bo‘shatib berdi. Bugungi kunda insonni adabiy asar qahramoni sifatida o‘rganish turli yo‘nalishlar: ma’naviy-falsafiy muammolarning badiiy talqini, janr, kompozisiya, mavzu kabi kategoriyalar darajasida amalga oshirilmoqda” . Binobarin, psixologik talqin birgina qahramon olamida emas, yozuvchi ruhiyatidan o‘sib chiqqan iztirob alangasidir. U qissa syujetida ishtirok etayotgan barcha qahramonlar tabiatida – muvozanat birligini taqozolashga imkon beradi. Agar bordi-yu, bosh qahramon atrofida uyushgan tasvir metodologiyasiga zo‘r zalvorli muammo yuksalanaversa, voqelik o‘z-o‘zidan sochilib ketishi tayin. Ayniqsa, ishq haqida bitilgan qissalarda yozuvchilar qaysi tomonga muhabbat qo‘yishi dinamik o‘sishda ochiq-oshkor seziladi. Bu emotsiya asta-sekinlik bilan qahramonda rivojlanib, o‘quvchi ko‘ngliga kirib olishi tayin. Demak, yozuvchi – davrning manzarasini, qahramonning ruhiyatini. Voqelik oqimini bir maxrajda jilvalantirmasa, ijodiy maqsad konseptual maydonga aylanmaydi. Aniqlikdan – noaniqlik kelib chiqishi tayin. Murakkab tasvir shtrixlarida bular ro‘y-rost ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘lishi hech gap emas.

Yunon faylasufi Arastu buni tragediya timsolida izohlagani hanuzgacha o‘z ifodasini yo‘qotgan emas: “Rivoyat, ba’zilar o‘ylaganidek, bitta qahramon atrofida aylansagina bir butun bo‘lavermaydi: chunki bir (shaxs) bilan aloqador bo‘lgan cheksiz, son-sanoqsiz hodisalar yuz berishi, hatto, ularning ba’zilari hech qanday butunlikka ega bo‘lmasligi mumkin. Bir shaxs xatti-harakati ham xuddi shunday ko‘p miqdorlidir, ulardan hech qanday yagona voqea yaratib bo‘lmaydi. Shuning uchun “Herakleida”, “Feseida” va shunga o‘xshash poemalarni yozgan shoirlar yanglishayotganga o‘xshaydi. Ular Herakl bitta edi, (u haqda) rivoyat ham bitta bo‘lishi darkor, deb o‘ylashmoqda. Homer, (o‘zga shoirlardan boshqa barcha sohalarda farqlanganiday) chamasi, badiiy mahorati yoki tabiiy iste’dodi tufayli bu masalaga ham to‘g‘ri qaragan. U “Odisseya”ni ijod etganida, qahramon nimalarni boshidan kechirgan bo‘lsa, hammasini. Masalan, u Parnasda qanday yarador bo‘lganini, urushga yordam to‘plash vaqtida qanday qilib o‘zini jinnilikka solganini ko‘rsatmadi, chunki bu voqealardan birining orqasida boshqasi ro‘y berishi uchun hech qanday zarurat (yoki) ehtimollik yo‘q edi; ha u “Odisseya”ni, shuningdek, “Iliada”ni ham biz aytgan ma’noda bir voqea doirasida yaratdi . Ko‘rinadiki, Arastu hikoya qilish (qisa yoki epopeya) san’atining nechog‘li muhim ekanligining dolzarbligini ziddiyatlar qurshovida qolgan qahramonning ruhiy-ijtimoiy kayfiyatidn kelib chiqib idroklash muhimligiga mantiqiy urg‘u bermoqda. Bundan kelib chiqadigan nazariya o‘z-o‘zidan ayonki, badiiy asardagi ruhiy iqlim yozuvchi va qahramon-muhit birligida shakllanib, ozodlikka talpingan mahbusdek bitta maqsadni yuzaga chiqishiga imkon beradi. Shu maqsaddan o‘lchaydigan bo‘lsak, yozuvchi davrning ham, qahramonning ham yonida turuvchi roviy. U o‘zining tafakkur konsnpsiyasini bir-biriga muqoyasa qilmoqda. Yozuvchi ilk jumlani to‘qiydi. U tabiat tasviri yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qahramon hayoti, joylashuvi, xatti-harakatining izchilligi negizida hal qiluvchi kuchga evrilib boradi. Shu ma’noda, insonning asl idrok sezimlari ham namoyon bo‘lib, maqsaddan – maqsad sari ma’no kuchayib, rang-barang ifodalarga aylanishda davom etadi. Arastu istak va xohish bo‘lgan joyda orzuning amalga oshishi tezlashadi degan konseptual g‘oyani ilgari surgani ham bejiz emas!

“Adabiyot tarixidan ma’lumki, har qanday adabiy usuldagi yangilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi: adabiyotdagi yangi oqimlar, an’analar o‘z dvrining estetik, ijtimoiy, g‘oyaviy, mafkuraviy, tafakkur ehtiyoji, in’ikosi sifatida so‘z san’atida bo‘y ko‘rsatadi. Qadimgi davrda adabiyot yoki keyingi yuz yillik adabiyotmi, qaysi davr adabiyoti bo‘lishidan qat’i nazar, yangi bir oqimlar, so‘zga munosabat, shakliy va badiiy izlanishlar aslida o‘sha jamiyatda paydo bo‘layotgan ijtimoiy fikr va ijtimoiy ong ostining ehtiyojini namoyon qiladi”. Anglashiladiki, tarixiy-ijtimoiy jarayonning o‘z-o‘zidan yuzaga chiqmasligi mumkin. Unda davrning qiyofasi

aks etadi. Davr esa odamlarning faol ijtimoiy yashash turmushining haqiqiy manzarasida ko‘zga tashlanadi.

Umuman, olganda, qissa poetikasida psixologik tasvir takomillashuvining tadrijiy o‘sish-o‘zgarishlari XX asrning 90-yillaridan keyingina mukammalashdi. Ayniqsa, istiqlol yillarida “o‘tish davri”ning odamlar taqdirida qoldirgan izlari bu hech bir davrdagidek tez suratda inqilob yasashga hozirlantirgani yo‘q, albatta!

Qissadagi kuchli psixologik vaziyat ayni shu uch savol tegrasida aylanadi. Savolning javobi esa voqelikning izchilligida yuzaga chiqib, polifonik nutq tabiatini namoyon etadi. Jumlandan, muallif matnining kontaminatsiyasi (bayonida turli nutqlarning aralashib ketishi hodisasi)da “muallif so‘zi” va “begona so‘zi”ning imkoniyatlarini belgilash uchun quyidagilarga aniqlik kiritib olish zarur:

a) muallif matnning muallifga tegishli bo‘lmagan matn ta’sirida o‘z ko‘rinishini o‘zgartirishi, ya’ni begona so‘zning muallif so‘ziga ta’sirini;

b) bilvosita muallifga tegishli matnning muallif tomonidan ishlov berilishi ta’sirida o‘z ko‘rinishini o‘zgartirishi, ya’ni muallif so‘zining begona kimsa so‘ziga ta’siri;

Shunday ekan, L.Bo‘rixon bir vaqtning o‘zida ikki tomonga ham o‘z munosabatini simpatiya, antipatiyasini bildirib boradi. Jamiyatning boshlab bergan soxta va nurli yo‘llarining aslida puch orzu ekanligini ishongan olomonning haqiqiy ruhiy-ijtimoiy yashash ko‘nikmalari. Ikkinchisi, mafkuraning o‘ta uzoqni ko‘zlab, bo‘ysundirib yashashga odatlantirilgan geosiyosiy xunrezliklarining asl qiyofasini fosh qilish mexnizmining talqini.

Shunday ekan, yozuvchi L.Bo‘rixonning “Sirli muallim” qissasining yozilganiga yigirma yillar bo‘ldi. Unda yozuvchi “Jaziramadagi odamlar” romandiga bosh qahramon O‘roq Umurzoqovning qahramonlarcha halok bo‘gan urush va uning qishloq hayoti, ahli uchun nihoyatda ayanchli ta’siri gavdalantiriladi.

Adabiyotlar:

1. Абороров.А. Ўзбек повести. – Т: Фан, 1973. – Б. 9.

2 Арасту. Поэтика. –Т: “Янги аср авлоди”. 2018. –Б.34.

3. Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадиий психологизм. Монография. –Т: “Баёз. 2014. –Б.15.

4. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. –Л.Советский писател, 1971. –С.300.

5. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. Книга для учителя. –М. Просвещение. 1988. –С.18-19.

6. Лучанов М.Ф.История мировой литературы. – Омск, 2004.

7. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол.ан.док.дисс. –Т.: 2020. –Б.15.

8. Сулейманова С. А. Дефиниция концепта в современном литературоведении //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 351-355.

BADIIY NUTQ: UNING JANR VA SHAKLLARI

Oripova K.E.
QDPI, Xorijiy filologiya o‘qituvchisi (PhD)

Tayanch so‘zlar: badiiy nutq, tilshunoslik, stilistika, klassisizm, metaforalar, kinoya, so‘z o‘yini (tajnis), inversiya.
Ключевые слова: художественная речь, языкознание, стилистика, классицизм, метафора, ирония, игра слов, инверсия.
Key words: artistic speech, linguistics, stylistics, classicism, metaphors, irony, pun, inversion.

Резюме:
Ushbu maqolada badiiy nutq va uning rivojlanish bosqichlari haqida fikr mulohazalar keltirilgan.
Резюме:
В статье представлены взгляды на художественную речь и этапы ее развития.
Summary:
This article is discussed opinions about artistic speech and its development stages.

Badiiy nutq o‘zi uchun turli xil nutqiy faoliyat shakllarini tanlaydi. Ko‘plab asrlar mobaynida badiiy adabiyot tili notiqlik san’ati qonun-qoidalari orqali aniqlangan. Nutq (shu jumladan yozma nutq ham) aniq, puxta, taassurot uyg‘otuvchi bo‘lishi kerak bo‘lgan; shundan xarakterli nutqiy usullar, ya’ni ko‘psonli takrorlar, «bezaklar», hissiy bo‘yoqdorlikka ega so‘zlar, ritorik savollar va boshqalar kirib kelgan. Mualliflar gapga chechanlik borasida bellashganlar, stilistika esa qat’iy qoidalar asosida aniqlangan, badiiy asarlarning o‘zi esa ko‘pincha an’anaviy ma’nolar bilan to‘ldirilgan (asosan O‘rta asrlarda). Natijada XVII asrga kelib (klassisizm davri) adabiyot ilmli kishilarning tor doirasi uchun yetarli darajada tushunarli bo‘ladi. Shu sababli ham XVII asrdan boshlab Yevropa madaniyati murakkablikdan soddalikka qarab rivojlanadi. V.G.Belinskiy notiqlikni “hayotning soxta ideallashtirilishi” deb ataydi. Adabiyot tiliga so‘zlashuv nutqi elementlari kirib kela boshlaydi. So‘zlashuv nutqi, avvalombor, odamlarning shaxsiy hayotidagi muloqotlari bilan bog‘liq, shu sababli u oddiy va aniq belgilashdan erkindir. XIX-XX

asrlarda adabiyot butunligicha yozuvchilar va olimlar tomonidan o‘ziga xos muallif bilan o‘quvchining suhbati shakli sifatida tushuniladi.

Filologlar til va nutqni ajratishadi. Til - bu davrlar mobaynida o‘zgaruvchi so‘z va grammatik prinsiplar asosida qurilgan birikmalar jamlanmasi. Nutq - ma’lum bir milliy tilda ifoda, fikr va hissiyot va harakatda tilning namayon bo‘lishdir. Nutqning xususiyatlari uning maqsad va bildirgan mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Badiiy nutqning xususiyati shundan iboratki, u obrazli shaklning bir ko‘rinishi sanaladi. Shu sababli unga san’atdagi barcha shakllarga xarakterli bo‘lgan xususiyatlar xos: obrazlilik va ta’sirchanlik (hissiy bo‘yoqdorlik). Alohida bir asarni tadbiq etishda adabiyotshunosning vazifasi - badiiy nutqning stilistik o‘ziga xosligini o‘rnatishdir.

Tilshunoslar badiiy nutq o‘rganilishiga boshqa bir maqsad bilan qarashadi. Ular milliy badiiy til normalarining rivojlanishini aniqlashadi. Badiiy nutq o‘rganilishiga bag‘ishlangan ko‘p sonli tadqiqot ishlariga diqqat qaratish uchun o‘quvchi, avvalombor, ana o‘sha ikki umuman boshqa-boshqa qarashlarni ko‘zda tutishi kerak bo‘ladi. Asarda nutqning mazmuni ko‘pincha badiiy shakllarning bevosita o‘zlashtirilgan tomoni sifatida aniqlanadi, u estetik jihatdan tinglovchi va o‘quvchiga ta’sir o‘tkazadi.

Adabiyotshunoslikda formalistik maktab mavjudki, ular badiiy nutqning aynan estetik o‘ziga xosliklarini mutlaqlashtiradi va o‘z diqqatini estetik taassurot uyg‘otuvchi tovushli va konstruktiv xususiyatlariga qaratadi. Bunda o‘sha xususiyatlarni izohlovchi ikki xatoli fikrlar to‘qnashuviga duch kelamiz. Birinchidan, nutq xususiyatlari ular ifodalovchi mazmun chizig‘ida qaraladi, o‘shanda uning estetik xususiyatlari badiiy so‘z ustasi ishida o‘z-o‘zini baholash va muhim ahamiyat kasb etib namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, badiiy nutq o‘zining estetik yo‘naltirishlari bilan umummilliy til normalariga qarshilantiriladi. Lekin amaliyot shuni ko‘rsatadiki, milliy tilning ichki qonun-qoidalariga tayanuvchi o‘ziga xos she’riy til yaratishga bo‘lgan barcha harakatlar muvaffaqiyasizlikka uchraydi yoki ma’nosizlikka olib keladi. Bunga misol qilib rus futuristlarining she’riy amaliyotini keltirishimiz mumkin. She’riyat tilining formalistik konsepsiyaga bo‘lgan metodologik tanqidlarni G.N.Pospelov va L.I.Timofeyev darsliklarida uchratish mumkin. Bunda she’riy tilning formalistik konsepsiyasini chetlab o‘tib, badiiy nutqning yuqori tashkillashtirilgani, estetik sifatini rad etishdan va qarama-qarshi yo‘nalishdan qochish zarur bo‘ladi.

Badiiy nutq masalasi - adabiyot haqidagi muhim qirralaridan biridir, chunki unga badiiy ijod mahsulining o‘ziga xos xususiyati, yozuvchining she’riy mahoratining xususiyatlari taaluqlidir. U anchadan beri tadqiqotchilar va

yozuvchilarning ham diqqatini qaratib kelmoqda. Bu masalaga bag‘ishlangan o‘tgan asrning asosiy mehnatlari sifatida B.M.Tomashevskiyning “Til va adabiyot”, V.V.Vinogradovning “Badiiy adabiyot tili haqida”, L.I.Timofeyevning “Adabiyot nazariyasi muammolari”, A.V.Chicherinning “G‘oyalar va uslublar” asarlarini sanab o‘tish mumkin. Badiiy nutq - bu til vositalari yordamida badiiy asarda obrazli ma’no ifodalashdir. Tashqaridan qaraganda, badiiy nutq oddiy so‘zlashuv nutqidan hech farq qilmaydi, lekin u birinchi navbatda estetik funksiya bajaradi. Badiiy nutq har bir ishlatilgan so‘z va konstruksiyalar yordamida muallif maqsadini amalga oshiradi va asar ma’nosini ochib beradi. Til bir vaqtning o‘zida ham tasvir vositasi, ham tasvir predmeti sifatida namayon bo‘ladi. Chunki muallif, bir tomondan voqea-hodisalarni, odamlarni va predmetlarni tasvirlashda ulardan foydalansa, boshqa bir tomondan esa o‘quvchilar bilan qahramonlar nutqining lisoniy o‘ziga xosliklari ustida bosh qotiradi.

Badiiy nutqning eng yorqin xususiyatlaridan biri - bu asar personajlarining o‘ziga xosliklarini (nutqiy xarakteristikasini) til vositalari yordamida yetkazib berishdir. Masalan, N.V.Gogolning “O‘lik jonlar” asarida, zamindor Manilov nutqining xarakterli xususiyatlari sifatida bo‘rttirib yuborilgan xushmuomalaligi, kichraytirish suffukslaridan foydalanishi sanaladi. Uning qiyofasining ko‘rinishi, harakatlari, u istiqomat qiluvchi joy, uning xaraketristikasining badiiy nutq orqali tasvirlanishi o‘quvchiga obrazni tushunib yetishishiga yordam beradi. Badiiy nutq vositalari nafaqat personajlarga bo‘lgan xarakteristika va muallifning fikrini, balki asarda ifodalangan har qanday predmet yoki voqealarni yetkazib berishi mumkin.

Yana bir boshqa badiiy nutqning asosiy funksiyasi - bu muallif nutqidan qahramon nutqining ajratilishidir. Bunda muallif bir chetda turib, so‘zni qandaydir bir personajga beradi. Odatda badiiy nutq hikoyada yorqin xususiyatlarga ega (umumxalq, sheva so‘zlari va b.) va bamisoli muallif bir tomondan hikoyanavisga qarab turgan o‘quvchini bir-biriga bog‘laydi. Bunga yaqqol misol sifatida M.M.Zoshenkoning hikoyasini keltirishimiz mumkin. Unda asosiy hikoyachi – “Halol fuqaro” (milisiyaga xat) hikoyasidagi ma’lumoti kam, oddiy ishchi yoki kichik xizmatchi sanaladi. Badiiy nutq, shuningdek, ifoda tarzining o‘zgarishini aks ettiradi - so‘zni personajlardan biriga berib, ichki monolog yaratadi; masalan, F.M.Dostoyevskiy asarlarida “polifoniya”, ya’ni qahramonlar va muallif ovozlari badiiy nutq vositalari yordamida yaratiladi.

Badiiy nutqda so‘z (uning qahramon yoki muallifga taaluqligidan qat’iy nazar) alohida ma’no-mazmun kasb etadi va “ma’noning oshib ketishi” sodir

bo‘ladi (V.V.Vinogradov), ya’ni matnda oddiy ma’no qo‘shimcha mazmun og‘irligini qabul qiladi. Bunday mazmun turli xil faktorlarga bog‘liq holda ta’kidlanadi - bular asar kompozitsiyasi va uning obrazli sistemasi. Masalan, A.P.Chexovning «Ionich» asarida har bir bobning so‘nggisidagi jumlalar alohida og‘irlik kasb etadi. (Shuncha harakatlar, va lekin! Eh, semirish kerakmas edi!)

Badiiy nutq turli xildagi badiiy vositalardan foydalanadi: metaforalar, kinoya, so‘z o‘yini (tajnis), inversiya, boshqa matnlarga allyuziya va boshqalar. Bu vositalarning har biri faqatgina butun matn fonida to‘liq ochilishni qabul qiladi.

Badiiy asarlarning bu yo‘nalishi ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq etiladi. Badiiy nutq tilshunoslari, avvalombor, maxsus vositalar va normalar xarakterli bo‘lgan tilni qo‘llash shakllaridan biri sifatida qiziqtiradi. Bunda tayanch tushunchasi sifatida «badiiy adabiyot tili» (yoki tushunarliroq qilib aytganda “she’riyat tili”) turadi, tilning bu tartib-qoidalarini o‘rganuvchi tushuncha esa “lingvistik she’riyat” deb nom oladi . Adabiyotshunoslik katta darajada mazmundor shakllardan biri sifatida tushuniladigan “badiiy nutq” so‘z birikmasiga tayanadi.

Adabiyotshunoslik qonun-qoidasida, badiiy nutqdan tarkib topgan predmetni stilistika (bu atama avvalo tilshunoslikda ildiz otgan) deb atash qabul qilingan.

Badiiy nutq - kitobiy nutqning funsional turlaridan biridir. Bunda u rasional bilimlar orqali emas, balki uning obrazlari va uning hissiy o‘zi yaratgan adabiy qahramon kechinmalari bilan yashashi orqali dunyoni bilishga xizmat qiladi; bunda alohida o‘rinni muallifning dunyoga qarashi muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy muloqotning asosiy maqsadi (nima uchun gapiryapmiz?) - bu estetik ma’no kasb etish; badiiy nutq kishining amaliy faoliyati bilan bevosita bog‘lanmagan, ko‘rsatmali xarakterga ega; badiiy muloqot jarayonida axborotning oddiy tarzda berilishi maqsad emas, ko‘pincha vosita sifatida yuzaga keladi; badiiy matn bahosi shundan iboratki, u bizga tasavvurimizda o‘ynash va umumiy xususiyatlarni gavdalantirgan personajlar taqdirini boshdan kechirish imkoniyatini beradi.

Badiiy muloqotning ishtirokchilari (kim gapiryapti?) - bular, bir tomondan badiiy asarni yaratadigan muallif, aniq bir inson, va noaniq sondagi ko‘plab o‘quvchilar (noldan cheksizlikkacha) sanaladi. Axborot jo‘natuvchi va qabul qiluvchi o‘rtasidagi munosabat turli xil badiiy matnlarda o‘zgaradi, farqlanadi (birbiri bilan munosabatga kirishishga intilishdan tortib, bir-birini to‘liq rad etishgacha). “She’rlar - doim iqror bo‘lish demakdir. Shoir avvalo yaratadi, so‘ngra esa o‘zi uchun o‘zining o‘y-fikr va hayajonlarini aniqlab oladi” (B.Ya. Bryusov).

Hattoki, yozuvchi o‘quvchiga ta’sir o‘tkazmoqchi bo‘lgan paytda ham, bu ta’sir bevosita ko‘rsatkichlar va chaqiriqlar bilan emas, balki o‘quvchi qanday bo‘lsa ham qahramon va muallif shaxsiyati bilan o‘zini bog‘laydigan, birgalikda qayg‘uradigan shart-sharoit yaratish bilan amalga oshadi.

Nutq predmeti (nima haqida gapiryapmiz?) tematik jihatdan cheksiz, lekin badiiy matnda qanday bo‘lsa ham inson haqida gapiriladi (hattoki hayvonlar, jonsiz predmetlar, fantastik personajlar haqida hikoya qilinganda ham), asosiy tasvir obekti - inson, uning taqdiri, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, shu sababli ham aytish mumkinki, badiiy adabiyot insonni inson bo‘lishga o‘rgatadi, unga axloq, muomala darslarini beradi.

Aytish mumkinki, badiiy nutq til vositalarini tanlash va ulardan foydalanishda to‘liq erkinlikka ega. Birinchi galdagi ma’no ijodiy shaxsiyatning individual til ma’zasiga ega. Badiiy matnning alohida xususiyati – “ma’noli shakl”: oddiy tilning til vositalari badiiy butunlik, obrazli va emosional voqelik yaratishda ishlatiladi.

Badiiy nutqda aniq mazmunga ega bo‘lgan so‘zlar faol tarzda ishlatiladi; mavhum leksika konkretlashtiriladi. Ko‘chma ma’noning turli xillari keng miqyosda ishlatiladi, lekin obrazli muhitda, nafaqat, ma’no ko‘chishiga asoslangan leksik birliklar gavdalanadi, balki har qanday neytral so‘zlar alohida kontekst tashkil etilishi yordamida yagona estetik butunlikga ergashadi va natijada obrazli ma’noga - yangi, badiiy jihatdan to‘g‘ri mazmunga erishadi. Obraz yaratishda, shuningdek u yoki bu grammatik shakllarning yoki konstruksiyalarning turli xil ma’noli bo‘yoqlar (masalan, fe’lli ko‘rinishda, ko‘rinish va zamonda, bir tarkibli yoki tugallanmagan gaplar) ishtirok etadi.

Badiiy adabiyotning xususiyatlaridan biri - bu badiiy-obrazli, nutqiy konkretlashtirish. M.N.Kojinoy fikricha, bu badiiy nutqning eng umumiy uslubiy xossasi sanaladi. Badiiy asar tarkibida so‘zlar hamda iboralar sehrli va maftunkor raqqosalarga o‘xshaydi, degan edi mashhur rus yozuvchisi M.Prishvin. Badiiy adabiyotda so‘z va gaplar obraz, manzara yaratishning o‘ziga xos libosi, materialidir. Talantli yozuvchilarning qalami sehri ostida so‘zlar hayotdagi narsa va hodisalarni inson ongida aniq tiklaydigan, gavdalantiradigan vositadir.

Badiiy nutq faqat ko‘chma ma’nodagi so‘zlarning qo‘llanilishidan iborat matn bo‘lmay, majoziy vositalar badiiy nutqning o‘ziga xos yordamchi vositasidir. Badiiy nutq muallif nutqi, personajlar nutqi va hikoyachi bayonidan iborat matndir. Muallif nutqi va personajlar nutqining o‘zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolaridan biridir. Har qanday adabiy asarning badiiy yuksakligi, birinchi galda, nutq qurilishida namoyon bo‘ladi.

Badiiy nutq masalasini tilshunoslikning muhim bir sohalaridan bir bo‘lgan - stilistika o‘rganadi. Tilshunoslar uchun badiiy nutq - bu badiiy tilning kitobiyyozma turning funksional turlaridan biri, shu xolos. Va, shu sababli ham ular yozuvchilarning birinchi galda badiiy nutqining estetik funksiyasini emas, balki til xususiyatlarini tadqiq etishadi. Adabiyotshunoslar badiiy nutqning estetik ma’nosini o‘rganishadi.

Badiiy nutqning holati shu kungacha noma’lum, ko‘plab bahslarga sabab bo‘lgan. Chunki shunday fikr borki, ya’ni bu badiiy nutq umuman olganda bevosita barcha milliy tillarga bog‘lanadi va ularning funsional uslubi sanalmaydi. V.V.Vinogradov yozishicha, badiiy asar - bu so‘zlar birlashuvining o‘ziga xos turi sanalib, unda har xil nutq turlari - faqatgina badiiy nutq emas, balki so‘zlashuv, publisistik va boshqa nutq turlarini ham ajratib olsa bo‘ladi. Shuningdek, badiiy nutq faqatgina badiiy adabiyotning bir sohasi sanaladimi, yoki har bir qobiliyatli hikoyanavis va roman va dostonlar yaratmaydigan notiq ham egalik qiladimi - shu masalada tilshunoslar va adabiyotshunoslar bahslashishadi.

Tilshunoslik atamalaridan foydalanib, shuni aytish mumkinki, nutqning maxsus, ommaviy, so‘zlashuv turlari ularning, avvalo, axborot uzatish funksiyasini bajarganliklari va kishining amaliy vazifalarini bajarishi sababli amaliy deb nomlanishi mumkin. Nutqning badiiy-tasviriy turi va uning ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan yozma badiiy nutq bunday funsional fonda informativ nuqtai nazardan emas, balki estetik sifati jihatidan farq qiladi.

Adabiyotlar:

1. Телия, В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 214 С. –с.255

2. Шапир М. И. Язык поэтический // Введение в литературоведение. Литературное произведение: основные понятия и термины / Под. ред. Л. В. Чернец. М., 1999. С. 512–528.-с.544

3. Кожинов В. Художественная речь как форма искусства слова // Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении. Стиль. Произведение. Литературное развитие. М., 1965. С. 234–238.-с.279

4. Якобсон Р. О. Поэзия грамматики и грамматика поэзии// Семиотика. М., 1983. С. 462,-с.469

5. Махмудов,Х.Х.Русско-казахские лингвостилистические взаимосвязи. – Алма-Ата:Наука,1989. –с. 234.

ICHKI ISHLAR TIZIMI TERMINOLOGIYASIDA SOHA PROFESSIONAL LEKSIKASINING NAMOYON BO‘LISHI

Kenjaeva F.T.
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: terminologiya, keng ishlatiladigan terminlar, huquqiy bo‘lmagan (yoki texnik) maxsus terminlar, maxsus huquqiy terminlar, leksik birliklar.
Ключевые слова: терминология, общеупотребительные термины, неюридические (или технические) специальные термины, специальные юридические термины, лексические единицы.
Key words: terminology, commonly used terms, non-legal (or technical) special terms, special legal terms, lexical units.

Резюме:
Ushbu maqolada terminologiya tushunchasi va u bir soha egasi nutqida qo‘llanilishi batafsil yoritib berilgan. Ichki ishlar tizimidagi huquqiy terminlar tahlil qilingan. Muloqot jarayonida leksik birliklar ot bilan ifodalanishi va otlar nutqda jonli, jonsiz narsalarni va abstract tushunchalarni anglatishi tahlil qilingan.
Резюме:
В данной статье подробно описано понятие терминологии и ее использование в речи владельца поля. Анализируются правовые термины в системе внутренних дел. Проанализировано, что лексические единицы в процессе общения представлены существительными, а существительные обозначают в речи одушевленные и неодушевленные предметы и абстрактные понятия.
Summary:
This article describes in detail the concept of terminology and its use in the speech of the owner of a field. Legal terms in the internal affairs system are analyzed. It was analyzed that lexical units are represented by nouns in the process of communication and that nouns represent animate and inanimate objects and abstract concepts in speech.

Terminologiya maxsus bilim sohasi sifatida tadqiqotchilar e‘tiborini tobora kop‘roq jalb qilmoqda. Bu, birinchi navbatda, zamonaviy ilmiy bilimlarning xalqaro tabiati va inson faoliyatining turli sohalarida til to‘siqlarini bartaraf etish usuli sifatida terminlarni birlashtirish istagi bilan bog‘liq. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa ko‘plab sohalarning jadal rivojlanishi ko‘plab sohalar uchun dolzarb bo‘lgan nazariyalar, tushunchalar, hodisalarni o‘rganishni taqozo

etmoqda. Aynan termin yordamida turli sohalardagi bilimlarimiz natijalari tilda namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan yangi terminlarni tarjima qilish usulini tanlash muammosi tilshunoslar va tarjimonlarda katta qiziqish uyg‘otadi va tarjima nazariyasi va amaliyotida muhim o‘rin tutadi. Terminlar ilmiy tadqiqotlarning asosini belgilab beradi. Ular ma'lum sohalarda ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlardan tarkib topgan bo‘lib, bir ma'noli hisoblanadi. Terminologiya bu fan va texnikaning muayyan sohasida keng qo‘llaniladigan terminlar majmui bo‘lib, u tabiiy ravishda shakllanadi.

Bugungi kunda terminologiya inson faoliyatida alohida e‘tibor qaratilayotgan sohadir[4]. Bu borada K. Superenskayaning fikrini qayd etish o‘rinli, ya‘ni, “mahalliy atamashunoslik fani mantiq, tilshunoslik, falsafa, kontseptologiya va informatika, semiotika, shuningdek, simvolizm elementlari boshqa fanlarning parchalarini o‘zida mujassam etgan mustaqil fan sifatida vujudga keldi”[7]. Biz bu fikrga qo‘shilgan holda terminologiya leksikologiyaga faol “xizmat qiladi” deb ta‘kidlaymiz.

Shuni ta‘kidlash kerakki, terminologiya fan tilining asosi bo‘lib, har qanday tashqi ta‘sir va o‘zgarishlarga eng sezgir bo‘lgan suv osti leksikasining bir qismidir. Umuman olganda, terminlar fan tilining asosiy leksik guruhlaridan biri sifatida tan olingan[1].

Fan tilini badiiy adabiyot tilidan ajratib turuvchi bir qator o‘ziga xos xususiyatlar mavjud bo‘lib, bular o‘ziga xos bir qolipdagi ifoda vositalari, semantik jihatdan bir xil ma‘noni beruvchi semalar, fikrni ifodalashda his-tuyg‘uni o‘zida mujassam etganligi, eskirgan va ikki ma'noli birliklardan voz kechish xisoblanadi. Terminlar asosan maxsus maqsadlar uchun qo‘llaniladigan birliklardan iborat bo‘lib, ular muayyan faoliyat sohasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Dunyoda 5000 dan ortiq tillar mavjud bo‘lsa-da, yaxshi rivojlangan ilmiy terminologiya bor-yo‘g‘i 60 tilda mavjud va 300 ga yaqin professional fan sohalarini qamrab oladi. Terminologik jihatdan katta yoki kamroq darajada rivojlangan tillar mavjud. Olimlarning fikricha terminologik jihatdan yaxshi rivojlangan tillar rus, ingliz, fransuz, nemis, italyan o‘z ichiga oladi [5].

Terminga “Lingvistik entsiklopedik lug‘at” quyidagi talqinni beradi:

“Terminologiya (termin + logos – so‘z, ta‘limot) – 1. Biror ilm, kasb va boshqa sohaga oid terminlar majmui. Masalan, grammatik terminologiya, san‘at terminologiyasi va boshqalar. 2. Tilshunoslikning terminlarni o‘rganuvchi bo‘limi”[6].

“Oxford English Dictionary” termini shunday ta'riflaydi “termin – bu, ma'lum bir san'atda, fanda, ilmda ishlatiladigan so‘z yoki iboradir”[9].

V.I. Dal o‘z lug‘atida terminga quyidagicha ta‘rif bergan: “Termin – ibora, so‘z, nutq, narsa yoki qurilmaning nomi, shartli ibora”[2].

Shunday qilib, termin stilistik jihatdan neytral so‘zdir, so‘z kompleksi yoki qisqartma aniq ko‘lamiga, mantiqiy mavzu yo‘nalishiga ega bo‘lgan, undan

tashqari og‘zaki noaniqlik va ekspressivlikning yo‘qligi tavsiflaydigan terminlar majmui. So‘zdan farqi o‘laroq termin haqiqatni torroq iborasi bo‘lib o‘zida ko‘p ma‘noni ifoda etmaydi. S.Usmonovning fikriga ko‘ra, so‘z ko‘p ma‘noga, ya‘ni qo‘shimcha ma‘nolarga ega bo‘ladi, lekin termin bunday xususiyatga ega emas[8]. Termin ma‘lum bir soha egasi nutqida qo‘llanilib so‘zlardan ma'nosining aniqligi va bir ma'noligi bilan farq qiladi. Masalan, jazo, ayblanuvchi, qamoqxona, jarima, shikoyat, jinoyatchi, o‘g‘rilik, terrorizm, qotillik.

Ushbu ilmiy maqolada o'qish va o'rganish deyarli har doim ongli jarayonlarni tavsif etadi. O'rganish ongsiz darajada sodir bo'lishi mumkin bo’lib, biror narsani o'rgangan odam, bu haqiqatan ham sodir bo'lganligini tushunmasligi mumkin. Jumladan jamiyatda insonlarning xulq-atvoriga e’tibor beradigan bo’lsak, ular o'zlarida doimiy boshqa insonlarga xos bo'lgan odatlar, so'zlar, harakatlarni o’rgangan bo’ladilar. Bu esa boshqalarni kuzatish, kuzatilganlarini eslab qolish, o'rganish hamda o'zlashtirish maqsadini ongli ravishda amalga oshirmaydi. Shu kabi ilmiy izlanishlar keltirib o’tilga.
Резюме:
В этой научной статье почти всегда описываются сознательные процессы чтения и обучения. Обучение может происходить на бессознательном уровне, и человек, который чему-то научился, может не осознавать, что это действительно произошло. В частности, если мы обратим внимание на поведение людей в обществе, они усвоят привычки, слова, действия, которые постоянно присущи другим людям. При этом сознательно не достигается цель наблюдения за другими, запоминания, изучения и усвоения наблюдаемого. Приведены аналогичные научные исследования.
Summary:
In this scientific article, reading and learning almost always describes conscious processes. Learning can happen on an unconscious level, and a person who has learned something may not realize that it really happened. In particular, when we pay attention to the behavior of people in society, they will have learned in themselves habits, words, actions that are constantly inherent in other people. This does not consciously pursue the goal of observing, remembering, learning, and appropriating others. Similar scientific research has been brought to the fore.

Kirish. O'rganish qobiliyatlari yoki o'rganish strategiyalari o'rganish uchun qo'llaniladigan yondashuvlardir. O'rganish qobiliyati - bu yangi ma'lumotlarni qabul qilish, ma'lumotni saqlash yoki baholash bilan shug'ullanish jarayonini hal qiluvchi ko'nikmalar majmuasidir. Ular odatda qisqa vaqt ichida o'rganilishi mumkin bo'lgan va ta'limning barcha yoki ko'pgina sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan diskret texnikalardir. Kengroq ma'noda, insonning o'rganish, saqlash va imtihonlardan o'tishga yordam beradigan ma'lumotni eslab qolish qobiliyatini oshiradigan har qanday mahoratni o'rganish mahorati deb atash mumkin va bunga vaqtni boshqarish va motivatsion usullar kiradi. Keyingi vaqtda ta'limda mnemonikaga asoslangan o'rganish strategiyalariga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tanqidiy tahlili. O'quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo'luvchi uzluksiz jarayondir. Rus psixologi A.N.Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o'quv faoliyatida o'sishini ta'kidlaydi .

D.B.Elkonin esa o'rganish faoliyatining xususiyatlarini ko'rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o'zini namoyon bo'lish shakliga ko'ra ijtimoiyligini ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, o'rganish faoliyati natijasi avvalo ta'lim oluvchida o'zgarish yuz berishi bilan namoyon bo'ladi. Uning mahsuli turli motivlar asosida qurilgan bo'lishi lozim. Bu motivlar bevosita ta'lim oluvchi shaxsining o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

O'rganish faoliyati ta'lim, o'qish va o'rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim pedagog va o'quvchi hamkorligidagi o'quv faoliyati, pedagogning bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga o'rgatish jarayonidir. Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvorning shakllarini o'zlashtirishga qaratilgandir. O'qish va o'rgatish tushunchalari o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, o'rgatishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'rganish turlari ichida keng tarqalganlaridan biri reaktiv o'rganishdir. Reaktiv o'rganishda ta'lim oluvchi passiv hisoblanadi. Reaktiv o'rganish an'anaviy ta'limda keng qo'llanilib, ta'lim oluvchining bilim va ko'nikmalari tizimlashtirilgan, oldindan o'rganish natijalarini qayd qilish mumkin ekanligi bilan tavsiflanadi. Bu o'rganish turi o'quv reja, dars reja, uy vazifalari va imtihonlarda ham nomoyon bo'ladi . Ta'lim tizimida reaktiv o'rganishga nisbatan tanqidiy munosabatlar shakllangan bo'lsada, ayrim ta'lim

sohasi ekspertlari reaktiv ta’limda ta’lim oluvchining o’rganish natijasining aniqligini ustuvor jihat sifatida baholaydilar, shuningdek oldindan o’rganish natijasini qayd qilib bo’lmaydigan o’rganish turlaridan afzalroq deb hisoblaydi.

Ta’lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo’lib, u talabalarning o’quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ma’lumki ta’lim jarayoni besh elementdan iborat:

1. Ta’limning maqsadi
2. Ta’limning mazmuni
3. Ta’limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo’llari.
4. Ta’lim beruvchi.
5. Ta’lim oluvchi .

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko’p jihatdan pedagog tomonidan beriladigan ko’rsatmalarga ham bog’liq. Pedagogning roli shundan iboratki, u talabalarda tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so’zma-so’z esda olib qolishni, nimaning ma’nosini o’z so’zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko’rsatib o’tishi lozim. Pedagogik kuzatishlar shuni nazard tutadiki, bunday ko’rsatmalar berilmaganda, talabalarda ko’pincha noto’g’ri tasavvurlar vujudga keladi.

Shu o’rinda ta’limning emotsionalligiga e’tibor qaratish zarur. O’qitishning emotsionalligi ta’limning muvaffaqiyatliligini ta’minlovchi omillardan biridir. Ta’lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar talabalarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg’u uyg’otmasa, uni talabalar yaxshilab esda olib qolmaydilar. O‘rganish talabalarning psixik xolatlari, ya’ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari bilan uzviy bog’liq. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o’quv faoliyatini samarali tashkil qilinishiga sabab bo’lishi mumkin. Talabalar emotsional ruhdagi materialni mahsuldor o’zlashtiradilar.

O’rganishning barqarorligi uning tasavvurga, kognitiv mustaqillikni ta’minlashga yo’naltirilganligidadir. “Barqarorlik tushunchasi bevosita “o‘rganish” tushunchasi bilan qo’llanilar ekan, uning mohiyatini tushunish lozim bo’ladi. “Barqarorlik” tushunchasi ingliz tilidagi “responsibility” tushunchasi bilan ma’nodosh bo’lib, o’rganish natijasining “uzoq muddat yoki bir umrga qolishi”, “xotirada mustahkam qolishi”, “qo’llash uchun to’siq qolmaganligi”ni tavsif etadi. Shuningdek, keyingi vaqtlarda “barqaror ta’lim”, “barqarorlik uchun ta‘lim” tushunchalari pedagogik amaliyotda keng qo’llanilmoqda. “Barqaror ta’lim” tushunchasi ta’limning butun hayot davomida uzluksiz davom etishi, o’rganilgan bilim, ko’nikma va malakalar amaliy tadbiq etish

xarakteriga ega ekanligini tavsif etadi. “Barqarorlik uchun ta’lim” tushunchasi esa, ta’limning inson, jamiyat, atrof-muhit, taraqqiyot uchun ahamiyatini tavsif etadi. Shu o’rinda har ikkala tushuncha uchun bir misol keltirib o’tiladi. Ta’lim oluvchilarga plastik buyumlardan foydalanishning salbiy oqibatlarini ta’sirchan tarzda ilmiy tushutirish, plastik buyumlardan foydalanishning zararli oqibatlarini aniq misollar bilan keltirish ularda “barqaror ta’lim” jarayonini keltirib chiqaradi. Ta’lim oluvchi, plastik buyumlardan foydalanmaslik bo’yicha ma’lumotlarni o’rganib, ularni o’z kundalik-amaliy faoliyatiga tadbiq etish yuzasidan xulosalarni shakllantiradi. Bu esa ularda doimiy ravishda plastik buyumlardan foydalanmaslik, bu bilan bog’liq holatlarni kuzatish, hamda qabul qilingan qarorga nisbatan mas’uliyatli munosabatni keltirib chiqaradi. Bu esa “barqaror ta‘limning” maqsadi hisoblanadi. „Barqarorlik uchun ta’lim” bu pedagogik yondoshuv´bo’lib, ta’lim oluvchilarning insoniyat, jamiyat, atrof-muhit taraqqiyoti uchun zaruriy bo’lgan bilimlar majmuasini o’rganishni aks ettiradi. Elektr energiyasidan unumli foydalanish, tabiatga mas’uliyatli munosabat, resurslarni isrof qilmaslik “Barqarorlik uchun ta‘lim”ning mazmuniga mos keluvchi namunaviy mavzular hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Ta’lim jarayonida talabalarning bilishga qiziqishlari g’oyat katta rol o’ynaydi. Ma’lumki, qiziqish talabalarni o’rganish faoliyatining asosiy va dastlabki sharti hisoblanadi. Psixologiyada o’quvchilarning ta’lim jarayonidagi qiziqishining ikki turi aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish.

“O’rganish” tushunchasi psixologiyada keng tadqiq etiladi. Fanning bir tarmog’i sifatida “o‘rganish psixologiyasi” fani ham mavjud. Bu fan o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil psixologik nazariyalarni qamrab oluvchi nazariy fan hisoblanadi. Ma’lumki, tarixan o’rganishning turli xil psixologik nazariyalari mavjud . Neyrologiya va ijtimoiy idrok bilan bog‘liq nazariyalar kabi boshqa yondashuvlar o‘rganishni aniqlash uchun miyaning tuzilishiga ko‘proq e’tibor beradi. Ijtimoiy konstruktivizm kabi ba’zi psixologik yondashuvlar insonning atrof-muhit va boshqalar bilan o‘zaro munosabatiga ko‘proq e’tibor qaratadi .

O’rganish strategiyasi va texnikasi asosan pedagogik psixologiyada ko’p o’rganiladi. Pedagogik psixologiya predmeti ta’lim oluvchilarga ta'lim-tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o’rganish, o’quvchilar tafakkurini taraqqiy topishi, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o’zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o’rganadi .

O’rganish rivojlanishning yosh xususiyatlarini o’rganuvchi yosh psixologiyasi fanida o’raniladi. Inson shaxsining psixologik xususiyatlari va bilish jarayonlarining ontogenezda rivojlanishini o’rganadi. Yosh psixologiyasi

bolalar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, kattalar psixologiyasi, gerontopsixologiya kabi tarmoqlarga bo'linadi.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. Bugungi kunda o'rganish psixologiyasi pedagogik amaliyotda keng qo'llaniladi. So'nggi yillarda ta'lim oluvchilarning o'quv guruhlari ichida ham, tashqarisida ham qanday o'rganayotgani bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilib kelinmoqda. Tadqiqot natijalari yangi ta'lim metodlari, o'quv adabiyotlari mazmuni, uy vazifalari, o'quv va sinov topshiriqlarini shakllantirishda qo'llaniladi. O'rganish psixologiyasi bilan bog'liq nazariyalar ta'lim oluvchilarning kognitiv faoliyati, motivatsiyasi, o'rganish jarayonini "vaqt va samaradorlik" uzviyligi jihatidan muvaffaqiyatli tashkil etishi uchun intensiv ravishda amaliyotga tadbiq etilmoqda .

Quyidagi jadvalda o'rganish psixologiyasini rivojlanishiga hissa qo'shgan olim va faylasuvlar va ularning o'rganishga doir ilmiy nazariyalari va qarashlari keltirib o'tilgan (1.2-jadvalga qarang).

1.2-jadval. O'rganishga doir ilmiy nazariyalar va qarashlar

Olim va faylasuvlar	Ilmiy nazariyalarining ahamiyati
Suqrot	Suqrot (miloddan avvalgi 469-399) o'rganishda fikrlash kuchining ahamiyatini e'trof etadi. Fikrlash kuchi orqali inson dunyoni anglashi, o'z savollariga javob izlashini keltirib o'tadi. Fikrlash kuchi inson o'z savollariga to'g'ri javob topguncha faol bo'lishini ta'kidlaydi. Suqrot bilimning tug'ma ekanligini ta'kidlab, shaxs barcha bilimlarga ichki ehtiyoji orqali erishishini bayon etadi.
Hermann Ebbinghaus	Hermann Ebbinghaus (1850-1909) nemis psixologi bo'lib, eslab qolish va unutishni o'rganish orqali tekshirgan. Olim o'z eksperimental tadqiqotlarida takrorlash orqali o'rganish samaradorligi ortishini tadqiq qilgan.
Edvard Torndik	Edvard Torndik (1874-1949) 1898-yilda o'zining „Ta'sir qonuni" nazariyasini taqdim etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, odamlar va boshqa hayvonlar xatti-harakatlarni sinov va xato usullari orqali o'rganadilar. Faoliyatli yechim topilgach, bu xatti-harakatlar bir xil yoki shunga o'xshash vazifa davomida takrorlanishi mumkin. Bu uning o'rganish nazariyasi bo'yicha ishi bo'lib, bixeviorizmda operant konditsionerlikka olib keldi.
Ivan Pavlov	Rus olimi Ivan Petrovich Pavlov o'rganish bo'yicha tadqiqotlarga hissa qo'shgan. Och qolgan itning oziq-ovqat mavjud bo'lganda so'lak chiqishini tekshirib, u bir qator tajribalar o'tkazadi va itlarni tashqi ogohlantirishlar orqali so'lak chiqarishini kuzatadi.

Jan Piaget	Jan Piaget o‘zining kognitiv rivojlanish nazariyasi bilan mashhur bo‘lib, u bolalar atrofidagi dunyoning aqliy modelini qanday yaratishini tasvirlaydi. Uning nazariyasi juda muhim bo‘lib, u aqlning barqaror xususiyat ekanligi haqidagi g‘oyaga qo‘shilmagan birinchi nazariyachilardandir. Uning nazariyasi kognitiv rivojlanishni biologik yetuklik va uning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siri tufayli sodir bo‘ladigan narsa deb biladi.
Lev Vygotskiy	Lev Vgotskiy fanda kognitiv rivojlanish nazariyasi bilan mashhur bo’lib, o‘zining nazariyalarini Jan Piaget bilan bir vaqtda ishlab chiqdi. Vygotskiy ijtimoiy o‘zaro ta’sir kognitiv rivojlanishda hal qiluvchi rol ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek san’at, madaniyat va uning kognitiv rivojlanishga qanday ta’sir qilishini tadqiq etgan. Vygotskiyning ta’kidlashicha, inson rivojlanishni u o‘rnatilgan ijtimoiy va madaniy kontekstga murojaat qilmasdan tushunish mumkin emas. Vygotskiyning ta’kidlashicha, o‘rganish o‘zaro ta’sir orqali sodir bo‘ladi, bunda bola xatti-harakatlarini modellashtiradigan yoki bolaga amal qilish uchun ko‘rsatmalar beradigan odam bilan, ehtimol ota-ona yoki o‘qituvchi bilan bo‘ladi. Bola tavsiya etilgan ko‘rsatmalar yoki harakatlarni tushunishga harakat qiladi va keyin ma’lumotlarni zaruriy vaqtda, joyda ishlatishni o‘rganadi.

Talabalarda o’rganish strategiyasi va texnikasini rivojlantirish muammosi pedagogika, pedagogik psixologiya, kognitiv psixologiya fanlarining yildan-yilga ahamiyati va dolzarbligi ortib borayotgan masalalaridan biri hisoblanadi. Ta’lim oluvchilarning dunyoni ilmiy tushunishi, shaxs sifatida faolligi va faoliyati o’rganish jarayonlari orqali amalga oshadi. O’rganish ta’lim oluvchilarning aqliy qobiliyatlarini, fazilatlarini, ularning tashabbuskorligi va individualligining ajralmas qismidir. O’rganish strategiyasini rivojlantirish mazmunini aniqlash avvalambor “o’rganish faoliyati”, “o’rganish qobiliyati”, “o’rganish uslubi”, “o’rganishga qiziqish”, “o’rganish motivi”, “o’rganish strategiyasining rivojlanganligi” hamda “o’rganish turlari” kabi tayanch tushunchalarni tahlil qilish zaruratini tug‘diradi.

O’rganish faoliyati. O’rganish shaxsning ijtimoiy ahamiyatli fazilati bo‘lib, shaxsning hilma-hil faoliyat turlari negizida shakllanadi. Shaxs faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi, shaxsning faoliyatga bo‘lgan munosabatiga qarab, faoliyat turli darajaga, turlicha xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Faoliyat – bu shaxsning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u shaxsning faoliyatga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi: tayyorlik holati, mustaqil faoliyatga intilish, uni amalga oshirish sifati, maqsadga erishishning maqbul usullarini tanlash. O’rganish faoliyati shaxsning yangi bilim, ko‘nikma, ichki

qat'iyat va ma'lum bilimlarni to'plash, kengaytirish uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo'lgan qiziqishini aks ettiradi.

O'rganish faoliyatini rivojlantirish muammosi o'qituvchilar va psixologlarning turli xil asarlarida ko'rib chiqilgan. Ya.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, D.Lok, Jan-Jak Russo o'rganishni shaxsning o'rganishga bo'lgan tabiiy istagi sifatida belgilaganlar. M.A.Xolodnaya, T.M.Golovastikova, S.M.Vishnyakova, G.I.Shukina va boshqalar o'rganish faoliyatning xususiyatlarini va uni shaxsda qanday faollashtirishni tadqiq etganlar.

"O'rganish faoliyati"ga doir tadqiqotlarda uning "pedagogik hodisa" yoki "ikki tomonlama o'zaro bog'liq jarayon" kabi tavsiflari mavjud. "O'rganish faoliyat"ini sub'ektiv va ob'ektiv jihatdan ko'rib chiqish mumkin. Sub'ektiv jihatdan qaraganda, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'rganish faoliyatini tashkil etishdagi alohida pedagogik faoliyatlarning natijasi sifatida qaraladi. Ob'ektiv jihatdan qaraganda, ta'lim oluvchining o'zi tashkil etgan, atrof-olamni, o'zini va o'zgalarni anglash jarayoni sifatida talqin etish mumkin. Ikkala jihat ham tadqiqotimiz maqsadi nuqtai nazaridan muhim bo'lib, bir -birini to'ldiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi xususiyatga ega. Didaktik materiallar ishlab chiqishda ham mazkur jihatni hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Bizningcha, ta'lim beruvchining faoliyati (sub'ektiv) ta'lim oluvchining mustaqil o'rganish faoliyatidan (ob'ektiv) o'z-o'zini shakllantirish, ma'lum tamoyillarga ustuvorlik berishlik, faoliyat jarayoniga o'tkazishga qaratilishi lozim. Bu esa didaktik materiallar ishlab chiqishda ta'lim oluvchilarni nafaqat o'quv mashg'ulotida biror bir o'rganish faoliyatiga yo'naltirish, balki o'quv mashg'ulotlaridan tashqarida ham izlanuvchanligi, qiziquvchanligi, ijodkorligini faollashtirishni hisobga olishni taqozo etadi. Ko'plab pedagogik-psixologik tadqiqotlarda o'rganish faoliyatini birinchi jihatiga e'tibor qaratilgan. O'tgan asrning 50-70 yillaridagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarda "o'rganish faoliyati" ta'lim oluvchining pozitsiyasi sifatida tavsiflanadi.

Bu xususidagi fikrlarini davom ettirib, ta'lim oluvchining "bilim olishga intilishi uning aqliy mehnati hisoblanib, bu bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ixtiyoriy amalga oshiriladigan faol harakat" deb izohlagan. Ta'lim beruvchining fan mazmunini etkazishda ta'lim oluvchilarni mantiqiy va izchillikni tushunishga yo'naltirish, ularni faollashtirish, asosiy va muhim tushunchalarni ajratish, alohida ta'kidlash katta rol o'ynaydi. Ta'lim oluvchilarda mashg'ulot mavzusiga doir savollarni shakllantirishga undash ulardagi bilimlarning "mavjud holati"ni aniqlashga hamda qiziqish sohalarini belgilab olishga yordam beradi. Ta'lim beruvchining fan mazmunini professional ravishda taqdim qila olishi, ta'lim

oluvchilarni qiziqtira olishi katta rol o‘ynasa, o‘quv materiallari, metodlar va topshiriqlar ta’lim oluvchining o’rganish faolligini oshirishga turtki beruvchi jihatlar hisoblanadi.

O’rganish qobiliyati. Ilmiy manbalarda o’rganish faoliyati bilan bir qatorda o’rganish qobiliyati iborasi ham keng qo‘llaniladi. O’rganish qobiliyati ta’lim oluvchining asosiy faoliyati bo‘lib, u ta’lim oluvchining intellektual rivojlanishi, uning atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini aniqlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Qobiliyatlar – bu insonning individual psixologik o‘ziga xosligi bo‘lib, bu sifat shaxsning ilmiy, amaliy va ijodiy faoliyatida namoyon bo‘ladi hamda uni amalga oshirish muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Pedagogika va psixologiyaning zamonaviy rivojlanish bosqichida o’rganish qobiliyati shaxsning intellektual va hissiy qobiliyatlarining kombinatsiyasi sifatida tushuniladi. O’rganish qobiliyati har qanday bilim faoliyati muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Ya’ni o’rganish qobiliyati atrof-olamni, dunyoni bilishga qaratilgan, sharoit va omillar ta’siri ostida rivojlanayotgan insonning individual xususiyatidir.

O’rganishga qiziqish. Shaxsning o’rganishga qiziqishi dunyo, atrof-muhit bilan bog‘liq mavzular hisoblanadi. O‘quv materialining mazmunini chuqur o‘ylagan holda tanlash, ilmiy bilimlarga xos tushunchalarni singdirish o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni shakllantiradi. T.M.Golovastikovaning ta’kidlashicha, birinchi navbatda bunday o‘quv materiallari ta’lim oluvchida qiziqish uyg‘otadi va mustahkamlaydi, ularni noma’lum narsalar hayratga soladi, tasavvurini kengaytiradi. Ajablanish holati esa idrok qilish uchun rag‘batning asosiy elementi sifatida maydonga chiqadi. Ta’lim oluvchining ajablanish holati yangi narsalarni o‘rganishga intilish, yangi narsalarni kutish holati bo’lib hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Леонтев А. Н. Деятельност. Сознание. Личность: Учебное пособие. 2-е изд., стереотипное. М.: Смысл: Академия, 2005. -с. 236

2. Эльконин Д. Б., Давыдов В. В. Некоторые психологические проблемы построения учебных программ. Психологическая наука и образование 1.1,1996. -с. 42-45.

3. Кравцов, Г. Г., Кравцова Е. Е. Взаимосвязь обучения и развития: проблемы и перспективы. Культурно-историческая психология 16.1, 2020. -с. 4-12.

4. Raximov B., Narziyeva N.N.. Pedagogik mahorat. Darslik. Guliston: “SamDCHTI” nashriyoti, 2021. -B.154.

5. Illeris K. An overview of the history of learning theory. European Journal of Education, 2018. -p. 86–101.

6. Schunk Dale H. Learning theories : an educational perspective, 6th, Boston: Pearson, 2012.

7. Поддьяков А. Психология обучения в условиях новизны, сложности, неопределенности.» Психологические исследования 8.40, 2015. -с. 244.

8. Ormrod J. E. Essentials of educational psychology: big ideas to guide effective teaching, Jones, Brett D., 1969-, Fifth, NY, NY.

9. Myers D.G. Psychology. New York, NY: Worth publishers, 2015. -p. 290.

10. Jean Piaget's Theory of Cognitive Development Simply Psychology.. www.simplypsychology.org

11. Vygotsky L. Simply Psychology. www.simplypsychology.org

12. Когнитивная психология в контексте проблем современного образования. Коллективная монография. Под редакцией А.А.Вербицкого, Е.Б.Пучковой. – Москва, МГПУ, 2017. – 330 с.; Лифинцева Н.И. К.Д.Ушинский о формах взаимного соотнесения и гармонии веры и научного знания в образовании // Вестник ПСТГУ. Серия 4: Педагогика. Психология. 2008. №9. – 45 с.; Кибрик А.А., Кошелев А.Д., Кравченко А.В. Язык и мысль: современная когнитивная лингвистика. Языки славянской культуры. – Москва, 2015. – 857 с.; Величковский Б. Когнитивная наука. Основы психологии познания в 2 т. Том 1. 2-е изд., испр. – М.: Издателство Юрайт, 2017. – 447 с.

13. Холодная М.А. Психология интеллекта: парадоксы исследования. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – С. 264.; Головастикова Т.М. Как сделать учение увлекательным? // Начальная школа. – 2006, №2. – С. 30-34.; Вишнякова С.М. Профессиональное образование: Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика. – Москва, НМЦ СПО, 1999. – 538 с.; Тимофеева Л.Л. Когда хочется учиться // Начальная школа. – 2007, №10. – С. 41-46.; Щукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М.: Педагогика, 1988. – 145 с.

14. Leandro S. A., Prieto, M. D., Aristides I. F., Bermejo M. R., Ferrando M, Ferrándiz C. Intelligence assessment: Gardner multiple intelligence theory as an alternative, Learning and Individual Differences, Volume 20, Issue 3, 2010. – P. 225-230.

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK VA METODIK ASOSLARI

Saparov K.A.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, biologiya fandari doktori., professor.
Sanayeva M.I.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi.

Tayanch so‘zlar: axborot texnologiyalari, axborotlashtirish, biologiya ta’limi, texnik bazani takomillashtirish, elektron ta’lim muhiti, elektron resurslar, umumiy talablar, elektron darslik, multimedia texnologiyalari, multimedia dasturlari, elektron o‘quv qo‘llanmalar, o‘qitishning elektron vositalari.
Ключевые слова: информационные технологии, информатизация, биологическое образование, совершенствование технической базы, электронная среда обучения, электронные ресурсы, общие требования, электронный учебник, мультимедийные технологии, мультимедийные программы, электронные учебные пособия, электронные средства обучения.
Key words: nformation technologies, informatization, biology education, improvement of the technical base, electronic learning environment, electronic resources, general requirements, electronic textbook, multimedia technologies, multimedia programs, electronic training manuals, electronic teaching aids.

Резюме:
Ushbu maqolada jahonda ta’lim sohasidagi rivojlanish tendentsiyalari va unga mos ravishda mamlakatimizda ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida tashkil etishning didaktik va metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, axborot texnologiyalarining ta’lim-tarbiya jarayonlaridagi o‘rni va ahamiyati, umumta’lim maktablari biologiya ta’limi jarayonini axborotlashtirish, kompyuterlashtirish, ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi mavjud muammolar bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilgan. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim muassasalarida elektron ta’lim muhitini joriy etilishi, bioloogiya fani bo‘yicha axborot texnologiyalari asosida yaratiladigan elektron resurslarni ishlab chiqishga qo‘yiladigan umumiy talablar yoritilgan.
Резюме:
В данной статье описаны тенденции развития сферы образования в мире и соответственно дидактические и методические основы организации образовательного процесса в нашей стране с помощью современных информационных технологий. Также представлены роль и значение информационных технологий в образовательном процессе, информатизация,

компьютеризация процесса обучения биологии в общеобразовательных школах, а также современные проблемы использования информационных технологий в образовательных учреждениях. Выделены общие требования к внедрению электронной среды обучения в образовательных учреждениях зарубежных стран, развитию электронных ресурсов, созданных на основе информационных технологий в области биологии.

Summary:

This article describes the development trends in the field of education in the world and, accordingly, the didactic and methodical foundations of organizing educational processes in our country with the help of modern information technologies. Also, the role and importance of information technologies in educational processes, informatization, computerization of the biology education process in secondary schools, and current problems in the use of information technologies in educational institutions are presented. General requirements for the introduction of electronic learning environment in educational institutions in foreign countries, the development of electronic resources created on the basis of information technologies in the field of biology are highlighted.

Jahonda ta’lim sohasidagi rivojlanish tendentsiyalariga mos ravishda o‘quv materiallarini elektron ta’lim muhiti asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta’lim kontseptsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda ta’lim jarayonlarini elektronlashtirish joriy etish, ularning didaktik asoslarini hamda yangi usul, vositalarni ishlab chiqish metodikasini va metodologik asoslarini yanada takomillashtirish, o‘quvchilarning kreativ faoliyatining reproduktiv va produktiv darajalarni modellashtirish bo‘yicha ko‘pgina ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yuqori darajadagi bilim salohiyatiga ega o‘quvchilarni tarbiyalashda ta’lim tizimining rolini kuchaytirish, ilg‘or pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini o‘qituvchilar faoliyatiga joriy qilish uchun zamin yaratishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni [1]ning Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlangan yo‘nalishida “Yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish” vazifasi alohida belgilab berilgan. Shuningdek, Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida [2] “Xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish; o‘qitish usullarini takomillashtirish, o‘qituvchilar hamda maktab ma’muriyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalari bilan ta’minlash; ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiq etish,

muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy harakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 fevraldagi 161-sonli Qarorida [3] “elektron o‘qitish bazasini yaratish, ta’lim muassasalarining axborot infratuzilmasini shakllantirish; umumta’lim maktablarining barcha o‘quvchilarini kompyuter va axborot texnologiyalari bilan ishlashga keng ko‘lamda o‘qitishni ta’minlash” kabi vazifalar belgilangan. Mazkur huquqiy-me’yoriy hujjatlarda keltirilgan vazifalar ijrosidan asosiy maqsad, o‘quvchi-yoshlarni har tomonlama yetuk, bilimli hamda yuqori darajadagi kompetentikka ega insonlar qilib tarbiyalashdir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad – aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo‘lgan o‘quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo‘lishidir.

Axborot, axborot texnologiya deganda, ob’ekt, jarayon, hodisaning yoki axborot mahsulotining holati to‘g‘risidagi yangi sifatli axborotni olish uchun birlamchi axborotlarni to‘plash, ishlab chiqish, taqdim etish usullari, vositalari va metodlari majmuini tushunish mumkin.

G‘.Dadamirzayev [4] o‘zining “Pedagogik texnologiyalari bo‘yicha izohli tayanch so‘z, iboralar” nomli metodik qo‘llanmasida – “Axborot texnologiyasi - kompyuter texnologiyasi sanalib, ta’lim oluvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi, ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, optimal yechimlarini mustaqil yechishga va topishga o‘rgatuvchi, tadqiqotchilik faoliyatlarini kuchaytiruvchi texnologiyadir. Kompyuterli o‘qitishda o‘rgatuvchi texnologiyalarni qo‘llash natijasida o‘quv maqsadlariga samarali erishiladi” deb izoh beradi.

Pedagogik texnologiya tarkibiga kiruvchi axborot texnologiyasiga G.Poppelya, B.Golstaynlar bergan ta’rif: “Axborot texnologiyalari bu ijtimoiy hayotning barcha sohalari uchun axborot yaratish, to‘plash va uzatish, saqlash, ishlab chiqish, hisoblash texnikasi va aloqa tizimlaridan foydalanishdir” deb ta’kidlaydi [5].

Axborot texnologiyalari bo‘yicha fikr-mulohazalar asosida ushbu tushunchani quyidagicha ta’riflash mumkin: Axborot texnologiyalari – bu axborotlarni to‘plash, qidirish, saqlash, qayta ishlov berish va tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar.

Hozirgi kunda umumta’lim maktablarida biologiya ta’limida o‘quvchilarga tayyor o‘quv materiallarini taqdim etish yo‘naltirilgan yondashishdan ma’lum darajada voz kechib, o‘quvchining kundalik hayotida biologik bilimlarni qo‘llay olishi ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratish kerak. Shu sababli

mamlakatimizda biologiya ta’limi samaradorligini oshirish, unda o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xususan, L.M.Qoraxonova “Biologiyani o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish” nomli dissertatsiyasida o‘quvchilarni darsda va darsdan tashqari faoliyatlarida elektron axborot ta’lim resurslaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalalariga ahamiyat qaratgan hamda mazkur vositalar asosida tashkil etilgan darslarda tajriba-sinof guruhlarida nazorat sinflariga nisbatan o‘qitish samaradorligi o‘rtacha 12% ga oshganligi ko‘rsatgan [6].

Shuningdek, biolog olima G.S.Ergasheva [7]. o‘z tadqiqot ishida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining tayanch va kasbiy-sohaviy kompetensiyalari tarkibining elektron muhitda faol axborot almashinish, loyihalash faoliyatiga yo‘naltirish, Moodle–Web muhitining asinxron imkoniyatiga asoslangan mustaqil ta’lim elementlarini integratsiyalash hamda biologiya ta’limining o’quvchilar iqtidorini oshirishga yo‘naltirilgan metodik tizimi interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlagan.

Ta’lim samardorligini oshirish hamda optimallashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga oid xorijiy davlatlar tajribalari tahliltga ko‘ra, Rossiya davlat boshqaruv akademiyasida aynan shu masalada tadqiqot o‘tkazilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra, o‘quvchilarga o‘quv-ma’lumotlarini vizual shaklda taqdim etilganda ularning bilim darajasi 10-20 % ga, ta’lim sifati 15-20 % ga oshadi. Shu bilan birgalikda, past o‘zlashtirayotgan o‘quvchilarda ham bu bo‘yicha ijobiy natijalar kuzatilgan. Bunga har bir o‘quvchi uchun eng qulay hisoblangan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini tanlash imkoniyati yordam bergan.

Ta’lim jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish tajribalari bo‘yicha xorijiy mamlakatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Rossiya Federatsiyasi 2001-2005 yillar oralig‘ida yagona axborot ta’limini rivojlantirish maqsadida bir qancha ta’lim portallari yaratilib, ushbu yaratilgan portallarga 10 000 dan ortiq elektron ta’lim resurslari jamlanib, 42 ta hududiy masofaviy ta’lim markazi Internet tarmog‘i orqali ta’lim berish uchun axborot-kommunikatsion qurilmalari bilan ta’minlandi [8].

AQSh maktablarida ham axborotlashgan ta’lim rivojlangan bo‘lib, undan o‘quvchilar masofaviy ta’lim texnologiyalari orqali bilim olishlari hamda olgan bilimlarini turli xildagi onlayn nazorat testlari orqali mustahkalashlari hamda baholashlari mumkin. Ota-onalar ham o‘z farzandlarini barcha fanlardan egallagan

bilimlarini onlayn kuzatib, aniqlash imkoniyati mavjud. AQSh ta'limi statistikasi milliy markazi ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda 77% ta'lim muassasalari Internet tarmog'idagi elektron ta'lim resurslaridan foydalanadi.

Kanadada ham elektron ta'lim resurslari vositasida ta'lim berishning 38 xil kurslari mavjud bo'lib, ulardan 3 tasi video konferensiyalar orqali amalga oshiriladi. Kanada ekspertlarining 80% ning fikricha axborot texnologiyalari ta'limga ijobiy ta'sir etishi, bundan uy vazifasini bajarish uchun kompyuter (52%), ensiklopediya (8%) va lug'atdan (6%) foydalanadi [9].

Buyuk Britaniyada maktab o'quvchilari ta'lim jarayonida Internet va kompyuterdan foydalanish 41% ni, Finlandiya 19 % ni, Ruminiya va Vengriyada esa 53 % dan yuqori. Ushbu davlatlarning 12-17 yoshli o'quvchilarini barchasi uy vazifalari va mustaqil ishlarini kompyuter texnologiyalaridan foydalanib bajaradi. Avstraliyada esa mediata'lim 1-sinfdan majburiy predmetga aylantirilgan. Undan uy sharoitida va dars vaqtida keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda.

Yaponiyada ham 1994 yildan boshlab "100 ta maktab tarmog'i" loyihasi doirasida Internet tarmog'iga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslar yaratilib, ulardan maktab o'qituvchi va o'quvchilari foydalanib kelmoqda [10].

Janubiy Koreyada esa maktablar uchun E-learning o'qitish tizimi yaratilib, undan samarali foydalanib kelinmoqda. 2005 yilda "Bir o'quvchiga 1 ta kompyuter" loyihasi amalga oshirilgan. 2013 yilda esa barcha maktablarda onlayn shaklda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish va o'z bilimini mustaqil ravishda baholash imkoniyati yaratilgan [11].

Quyida biologiya fanidan axborot texnologiyalari vositasida yaratiladigan elektron resurslarga qo'yiladigan talablarga izoh berib o'tamiz.

1.Umumiy talablar – biologiya faniga doir yaratilgan elektron resursining mazmuni va tuzilmasi biologiya fanining o'quv dasturiga mos kelishi, ma'lumotlar kiritishda ilmiylik, ko'rgazmalilikka e'tibor qaratish, shuningdek, o'quvchilarning faolligini oshirishga, mavzuga doir eng so'ngi ilmiy yangiliklarning berilishiga, materiallarning ketma-ketligi va tizimliligiga ahamiyat berish lozim. EATRlaridagi materiallar o'quvchilarning xotirada saqlash qobiliyatlarini rivojlantirishi, nazorat topshiriqlarining berilishi, biologik jarayonlarni real, tezlashtirilgan yoki sekinlashtirilgan vaqt masshtabida o'tish vositalarining tarkibida saqlashi, biologik murakkab tushunchalarni imitatsiyasini hisobga olish lozim.

2. Didaktik talablar – yaratilgan EATRlari biologiyaga doir axborotlarni saralash ko'nikmalarini shakllantirish hamda ta'lim berishning uzluksizligi va muammoli, izlanishli topshiriqlarning o'quvchilar bilimini mustahkamlashiga xizmat qiluvchi tizimiga ega bo'lishi zarur.

3. Uslubiy talablar - biologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini hisobga olinish, o‘quvchilarning o‘quv materiallarini bochiqchma-bosqich o‘zlashtirish uchun turli xil nazoratlarni amalga oshirish imkoniyatining yaratilishi lozim.

4. Psixologik talablar – o‘quvchilarning diqqat, tasavvur, xotarada saqlash kabi psixologik xususiyatlarining hisobga olinishi, o’quv materiallari o‘quvchilarning yoshi, hayotiy tajribasini hisobga olgan holda taqdim etilishi zarur.

5. Sanitar-gigienik talabalar – o‘quv materiallarining rangi, shrifti, o‘lchovi, satrlar orasidagi masofa, ekranga bezak berish talablari hisoblanadi [12].

O‘quvchilar yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda ko‘rgan har bir narsasini tushunadi, fikr bildiradi va ijodiy tahlil eta oladi. O‘quvchilarda ijodiy tahlil eta olish qobiliyatini shakllantira oladigan vosita bu axborot texnologiyalari sanaladi. Holbuki, ta’lim jarayoni o‘rganilganda axborot texnologiyalarning talqini, undan foydalanish, kerakli resurslarni yaratish yuzasidan qator muammolar mavjudligini ko‘rish mumkin:

1. Moddiy – texnik bazani takomillashtirish maqsadida, ma’nan eskirganlarini yangilash kerak, ya’ni joylardagi o‘quv muassasalarini zamonaviy texnik qurilmalar, zamonaviy kompyuter texnologiyalari, videoproyektorlar, televizor, video kameralar, maxsus ekran, veb – kamera, skaner, printer, internet, kompakt disklar, yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlanmagan.

2. Ta’lim muassasalarida dasturiy mahsulotlar yetarli darajada emas, o‘quvchilar uchun multimedia elektron darsliklar, o‘rgatuvchi trenajyorlar, texnik qurilmalarning dasturiy ta’minoti, ularni ishlatish va o‘rgatish bo‘yicha qo‘llanmalar bilan ta’minlanmagan.

3. Umumta’lim maktablarida o‘qituvchilarning ma’lum bir qismi ta’lim jarayonlarida zamonaviy kompyuter texnikasidan o‘quv jarayonida yetarli foydalanish malakasiga ega emas. Moddiy – texnik baza va multimedia dasturlaridan dars jarayonlarida, amaliy mashg‘ulotlarda foydalanishni bilmaydi.

4. Biologiya fanining eng asosiy va qiyin mavzularga doir axborot ta’lim resurslar ishlab chiqilmagan.

Aynan yuqoridagi muammolar va ularni bartaraf etish uchun mamlakatimizda qator chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri axborot texnologiyalarini joriy etish, o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ma’lum qaror va farmonlar qabul qilinib kelayotganligi, bu ilg‘or yondashuvlar asosida esa jamiyatimizning ta’lim tizimida innovatsion o‘zgarishlar kuzatilayotganidan dalolat beradi.

Hozirda ta’lim jarayonini axborotlashtirish va kompyuter texnologiyalarini olib kirish masalasi juda ham dolzarbdir.

Axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy, ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy – texnikaviy jarayoni.

Kompyuterlashtirish – inson faoliyatining turli sohalarida kompyuterlarni joriy qilmoq, ularni kompyuter bilan ishlashga o‘tkazmoq jarayoni.

Kompyuter ta’limi texnologiyalari – o‘quvchilarning ta’lim olish, mustaqil ta’lim va o‘z – o‘zini nazorat qilishni o‘z ichiga oladigan o‘quv-bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to‘plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy – metodik ta’minot asosida tashkil etiladigan ta’limning shakl, metod va vositalari majmui, (kompyuter, skaner, telefon, faks modem, videokamera, LCD proyektor, interaktiv elektron doska, videoko‘z, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Internet tarmoqlari, shuningdek, mobil aloqa, ma’lumotlar omborini boshqarish hamda sun’iy intellekt tizimlari).

Shuningdek, axborot texnologiyalarining bir necha amaliy turlari mavjud. Bular:

1. Videotexnologiya – ma’lumotlarni turli tasvirlar ko‘rinishida ifodalaydi. Bu texnologiya orqali o‘quvchilar voqea – hodisalarni jonli ko‘radilar, bog‘lanishli tasavvur hosil qiladilar.

2. Multimedia texnologiya – ixtiyoriy ma’lumotlarni kompleks ko‘rinishda tasvirlashga asoslangan. Bu texnologiya matnlar, grafiklar, chizmalar, tasvirlar, tovushlar va harakatlarni yagona bir tizimga birlashtirib namoyish etadi. Boshlang‘ich sinflarda foydalaniladigan mul’timedia texnologiyalari o‘quvchilarni qiziqishlarini oshirishga, bilim va tafakkurini o‘stirishga xizmat qiladi.

3. Neyrokompyuterli texnologiyalari – mikroprotsessorlar bazasida bir-biriga o‘zaro bog‘langan maxsus neyrokomponentalardan foydalanadi. Bu texnologiya asab katakchalarining hatti – harakatlarini modellashtirishga asoslangan. Neyrotexnologiyalari murakkab masalalarni yechishda sun’iy intellekt metodlarni qo‘llashga tayanadi: kredit tavakkalchiliklarini boshqarish, bilimlarni aniqlash, fondlar holatini bashoratlash va boshqalar.

4. Obyektga yo‘naltirilgan texnologiya – bir nechta ob’ektlarning hamkorlikda ishlashini ta’minlaydi, loyihalash va dasturlash jarayonlarida kompyuter tizimlarini tuzishda qo‘llaniladi. Bu yerda ob’ektlar sifatida foydalanuvchilar, dasturlar, mijozlar, hujjatlar, fayllar, jadvallar va ma’lumotlar bazalarini kiritish mumkin. Ob’ektga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish natijasida boshqaruv tizimida o‘ta tezkor samarali qarorlarni qabul qilishga olib keladi.

5. Bilimlarni boshqarish texnologiyasi – ekspert tizimlarini misol qilib keltirish mumkin.

6. Internet texnologiya – barcha axborot tizimlarini global axborot strukturasiga birlashtirish texnologiyasi.

7. Bulutli texnologiya – bulutli hisoblash (inglizcha "cloud computing") odatda, foydalanuvchiga kompyuter resurslari va quvvatini internet – xizmat ko'rinishida taqdim etadi.

8. Mediatexnologiya – interfaol o'quv jarayonini yagona nazorat ostida turli xil vaziyatlarini vizual va audio effektlarni tayyorlash orqali dasturlashtirishdir. Ushbu texnologiyalar muloqotning bir usuli, inson faoliyatining mahsulidir. Binobarin, ulardan foydalanish ta'lim sifatini hamda o'quvchilarning fanga bo'lgan ishtiyoqi oshishi, o'qish vaqtini tejash, bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi organlariga ta'siri tufayli materialni chuqur o'zlashtirish, masofaviy va elektron ta'limni joriy etishga erishiladi [13].

Axborot texnologiyalaridan foydalanishning didaktik vositalariga quyidagilar kiradi:

O'qitishning elektron vositalari. Ta'lim jarayonlari o'qituvchi, o'quvchi va o'qitish vositalarining o'zaro aloqalaridan iborat. Zamonaviy kompyuter vositalari va axborot texnologiyalari imkoniyatlari o'qitish vositalariga o'qituvchi va o'quvchi vazifalarining bir qismini yuklash imkonini beradi.

Elektron o'quv – metodik majmualar – elektron ta'lim muhitida o'qitishning dasturiy, didaktik va texnik majmuasidan tashkil topgan va o'quv materiallarini kompyuter texnologiyalari, audio – video vositalar asosida taqdim etadigan o'quv – metodik majmuasi.

Elektron shakldagi o'quv - metodik materiallar – elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmalar, elektron ma'ruza materiallari, elektron kutubxonalar, mos (GD, flash va h.k.) sig'imdagi audio vizual materiallar, interfaol o'quv kurslari, kompyuterda hisoblash tajribasini o'tkazish uchun laboratoriya vazifalari, test sinovlarini o'tkazish tizimlari.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim usulidan foydalanish, mustaqil bilim olish, ma'lum bir fanga doir o'quv materiallari, ilmiy ma'lumotlarni samarali o'zlashtirishga qaratilgan o'quv adabiyoti yoki kompyuter texnologiyalariga asoslangan o'qitish metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qish vositasi hisoblanadi.

Innovatsion elektron darsliklarni yaratishda imkon qadar yuqori sifatdagi rasmlardan kamroq foydalanish zarur. Sababi, ular ushbu darslikni kompyuterga yuklashni sekinlashtiradi.

Elektron darslik ma’ruza mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg‘ulotlarida repetitor, mustaqil ta’lim olish vositasi, kompyuterda laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida metodik yordamchi, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish nazoratchisi, amaliy mashg‘ulotlar uchun masala va mashqlar ta’minotchisi bo‘lib xizmat qilishi mumkin [14].

Elektron o‘quv nashr – ilmiy malakaviy bilimlar maydonida tizimlashtirilgan materiallarda tashkil topgan bo‘lib, bu maydonda o‘quvchilarning bilimlarini faol ravishda o‘stirib borish ta’minlanadi. Elektron o‘quv qo‘llanma yuqori darajada foydalanish va badiiy ko‘rgazmaga mo‘ljallangan bo‘lib, to‘liq axborot, metodik ko‘rsatmalar sifati, texnik foydalanish sifati, aniqlik, mantiqiylikka ega.

O‘quv qo‘llanma – o‘quv nashri, o‘quv tartiblari tizimi yoki uning bo‘limi, qismi.

Elektron o‘quv adabiyot – innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ma’lumotlarni to‘plash, yangilash, tasvirlash, saqlash, bilimlarni zamonaviy usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘quv manbalari hisoblanadi.

Elektron o‘quv qo‘llanma – o‘quv adabiyotining yangi janri. Elektron o‘quv qo‘llanma (hatto eng zo‘r) kitob shakliga almashtirish shart ham, kerak ham emas. Ekranlashtirilgan o‘quv adabiyotining bu janri mutlaqo yangi. Kitobni xuddi film tomosha qilgandek tushunish mumkin. Bu janrni yangilash ham oson, ham qulay bo‘lib, qidirish tizimiga ega. U o‘zida boy ma’lumotlar video, kartinka, ma’lumotnomalar, matnlar joy olgan. Elektron o‘quv qo‘llanma maksimal darajada tushunish va tushuntirilishga ega bo‘lishi, inson miyasi, ongiga nafaqat eshitish balki ko‘rish orqali yetib borishi, kompyuter tushuntirishidan foydalanish kerak. Tashkil qiluvchi matnlar hajmi chegaralangan bo‘lishi kerak.

Test. Tashqaridan qaraganda u oddiy elektron o‘quv qo‘llanmaga o‘xshaydi. To‘g‘ri va talab darajasida tuzilgan testlar o‘quvchilarning bilimini ob’ektiv baholashga imkon beradi.

Multimedia – bunday resurslar kompyuter uchun mo‘ljallangan tovush va turli animatsiya effektlari jamlanmasidan iborat texnik yoki dasturiy majmua hisoblanadi.

Elektron axborot ta’lim resurslarini tasniflash uning didaktik maqsadi, vazifasi, foydalanishda mashg‘ulotlarni tashkil etish shakli bo‘yicha yondashuvlar mavjud.

F.H.G‘affarov o‘z tadqiqot ishida funksional maqsadlari bo‘yicha elektron resurslarni quyidagicha tasniflaydi:

- Namoyish etuvchi resurslar – ular o‘rganiladigan ob’ektlar, hodisalar, jarayonlarni vizuallashtirishga imkon beradi, istalgan ta’lim axborotlarini to‘liq holda yaqqol tasvirlashni ta’minlaydi.
- Treningli resurslar – ular turli xildagi malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun mo‘ljallanadi.
- Diagnostikalovchi va testdan o‘tkazuvchi resurslar – bunday resurslar talabalarning bilimlari, mahorati, ko‘nikmalarini baholaydi, o‘zlashtirganlik darajasini, shaxsiy sifatlarning shakllanganligini, intellektual rivojlanish darajasini belgilaydi.
- Nazorat qiluvchi resurslar – o‘qitish natijalarini nazorat (o‘z-o‘zini nazorat) qilish jarayonlarini, o‘quv materialini egallaganlik darajasi belgilanishini avtomatlashtiradi.
- Ekspert resurslar – bular o‘quv jarayoni borishini boshqaradi, foydalanuvchi va o‘qitish tizimlari o‘rtasida o‘quv vazifalarini bajarishda muloqotni tashkil etadi.
- Kommunikativ resurslar –ta’lim jarayoni ishtirokchilarining uzoq masofalardan turib interaktiv o‘zaro aloqasini ta’minlaydi.
- Hisoblash resurslari- ko‘rib chiqilayotgan jarayonlar, hodisalardagi o‘quv tajribalar, hisob-kitoblar, o‘lchovlarni qayta ishlash jarayonini avtomatlashtiradi.
- Servis resurslari – bunday resurslar foydalanuvchining kompyuterda ishlash qulayligi va havfsizligini ta’minlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta’lim – inson faolligini belgilaydigan muhim bir tarmoqqa aylanmoqda. Shuning uchun ta’lim tizimida inson faoliyati bilan bog‘liq ko‘pgina muammolarni hal etish zarur. O‘z – o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu vazifalarni ilmiy – texnika jarayonining o‘zgarishi bilan bog‘liq ta’limning yangi nazariyasini yaratish, ya’ni fanni jamiyatning ishlab chiqarish kuchiga aylantirish va amaliy ko‘rsatkichlarini rivojlantirish natijasida amalga oshirish mumkin [15].

Axborot texnologiyasi barkamol insonni shakllantirishni kafolatlovchi jarayonni tashkil qilishning ilmiy – metodik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan axborot texnologiyalari bo‘yicha tahsil oluvchini mustaqil mutolaa qilish, bilim olish, erkin fikrlay olishga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayon. Zero, shu yangilanishlarlar, orqali biz raqobatbardosh yoshlarni tayyorlaymiz. Ayni paytda esa yurtimizda barcha tarmoqlar kabi axborot – kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borishi pedagoglar oldiga yangidan – yangi vazifalarni yuklamoqda.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

3. Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 fevraldagi 161-sonli Qarori. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09/19/161/2600-son 25.02.2019 y.

4. Dadamirzaev G‘. Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha izohli tayanch so‘z va iboralar. Namangan, 2008. – 11 – bet.

5. Hamidova A. Kimyo o‘qitish metodikasining umumiy bosqichidan ma’ruzalar matni. – Toshkent, 2011.

6. Qoraxonova L.M. Biologiyani o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (7-sinf misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 46 b.

7. Ergasheva G.S. Biologiya ta’limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish. P.f.d. (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2018.

8. Мусатаева И. С. Методика разработки и исползования средств информатsионно-коммуникатсионных технологий для формирования геометрической компетентности учащихся основной школы // Диссертация. – Алма-Аты, 2008. –227 с.

9. G‘afurov A., Abdukarimov A., Tolipova J., Ishankulov O., Umaraliyeva M., Abduraxmonova I. Biologiya. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. «SHARQ» Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2018. 133-146-b.

10. Зимняя И. А. Педагогическая психология: учебник для студентов высщих учебных заведений, обучающихся по педагогическим и психологическим направлениям и специалностям / И. А. Зимняя. - Изд. 2-йе, доп., испр. и перераб. - Москва : Университетская книга; Логос, 2008 г. - 382 с.

11. Ergashev Sh.T., Mo‘minov S.M. Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etishda xorijiy davlatlar tajribalari // Fizika, matematika va informatika. –Toshkent, 2016. – № 3. – B. 3-11.

12. Saparov K.A., Sanayeva M.I. Use of electronic information educational resources in improving the efficiency of biological science teaching // British Journal of Global Ecology and Sustainable Development // USA, 2024. Volume 28, May, - pp. 138-142.

13. Пустовойтов О.Н. Развитие познавательной самостоятельности учащихся старших классов на уроках математики и информатики. – Брянск: Издательство БГУ, 2002.

14. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Ro’ziyeva D.I., Usmonboeva M.X.. Pedagogika darslik. Toshkent. 2013 yil. B.-93.

15. Sanayeva M.I. Legal and theoretical basis of organizing modern biology education based on electronic information educational resources // International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research. - Hosted online from Cambridge, London, 2023. – pp. 127-132.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA XALQARO BAHOLASH MEZONLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Raximova N.Yu.
ChDPU, o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: baholash, monitoring, xalqaro baholash, PIZA, PIRLS, TIMSS, TALIS.
Ключевые слова: оценка, мониторинг, международная оценка, PIZA, PIRLS, TIMSS, TALIS.
Key words: assessment, monitoring, international assessment, PIZA, PIRLS, TIMSS, TALIS.

Резюме:
Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xalqaro baholash mezonlaridan foydalanishning ahamiyati keltirilgan. O'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturdagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini belgilaydi. Xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligi batafsil berilgan.
Резюме:
В данной статье представлена важность использования международных критериев оценки в учреждениях общего среднего образования. Тест международной программы оценки учебных достижений учащихся определяет знания школьников по странам мира и умение применять их на практике. Детализировано, что в области должен быть задействован передовой опыт, направленный на повышение качества образования путем оценки и мониторинга развития областей образования и науки, как в зарубежных странах.
Summary:
This article presents the importance of using international evaluation criteria in institutions of general secondary education. The test of the international student assessment program determines the knowledge of students in the countries of the world and the ability to apply them in practice. It is detailed that best practices should be used in the region, aimed at improving the quality of education by evaluating and monitoring the development of areas of education and science, as in foreign countries.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va

oʻqituvchilarning har tomonlama ta’lim va tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhimdir. Talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilgʻor tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta’limni tashkil etish tajribalari tahlili shuni koʻrsatadiki, dunyoda ta’lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (Oʻquvchilarni ta’limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni oʻqish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud boʻlib, ular rivojlangan davlatlardagi ta’lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qoʻllanilib kelinmoqda.

The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli oʻquvchilarning oʻqish, matematika va tabiiy yoʻnalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash. PISA oʻquvchilarni ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash boʻyicha xalqaro dastur boʻlib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab oʻquvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qoʻllay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi - 15 yoshli oʻquvchilar ta’lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba oʻtkaziladi. Testda faqat 15 yoshdagi oʻsmirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta’lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yoʻnalishda: oʻqish, matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi boʻyicha olib boriladi. Birgina 2015 yilning oʻzida 70 dan ortiq davlatlar PISA xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta’lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta’sir oʻtkazadi. Har bir davlat oʻtkazilgan tadqiqot natijalari asosida oʻzining ta’lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeini koʻradi hamda ta’lim muassasalarida oʻquv jarayonini takomillashtirishda oʻz yoʻnalishlarini va strategiyasini belgilab oladi. Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) - boshlangʻich 4- sinf oʻquvchilarining matnni oʻqish va tushunish darajasini baholash uchun PIRLS - boshlangʻich maktab oʻquvchilarining matnni oʻqish va qabul qilish boʻyicha tayyorgarligi hamda oʻquvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab boʻluvchi ta’lim tizimidagi oʻziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday

tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash TIMSS - ham jahon mamlakatlari ta'lim tizimida keng tadbiq etilmoqda.

TIMSS dasturi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot 4 va 8 sinf o'quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o'xshab, o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalar o'tkazadi va fan sohasida to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa, o'sha mamlakatda ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi.

2015 yil TIMSS tadqiqotlari natijalariga ko'ra AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan. Shuni e'tirof etish lozimki, ayni shu davlatlarda yuqori texnogiyalarni o'zlashtirish, sanoatlashtirish va yuksak darajadagi taraqqiyot erishish maqsadida aniq fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, unda o'quvchilar tug'ma iste'dod va qobiliyatlardan ko'ra o'z ustida doimiy ishlash hamda aniq fanlarni o'qitishda guruh yoki sinfdagi o'quvchilar sonining 16 nafardan oshmasligi belgilangan. Bunday tajriba AQShda ham mavjud bo'lib, 1999 yildan boshlab bitta o'qituvchi 40 minutlik dars mashg'uloti davomida 16 ta bolaga bilim va tarbiya bera olish imkoniyatiga ega ekanligii inobatga olgan holda prezident qarori bilan ta'lim muassasalaridagi guruhlarda o'quvchilar soni 16 nafar etib belgilangan. PISAda o'qish savodxonligini baholash vositalari keskin o'zgargan. Bu borada Rossiya natijalari ham 2018 yilda bir oz yomonlashganini ko'rdik.

Shuningdek, o'quvchilarning test sinovlarini baholash uchun yangi baholash formati (kompyuter platformasi) joriy qilinibgina qolmay, balki o'quvchilarga butunlay boshqa matnlar taklif etildi: ko'p o'lchovli matnlar, ziddiyatlarni aniqlash, nuqtai nazarni yoki manbalar sifatini aniqlash kerak bo'lgan matnlar. Shuning uchun bu yo'nalishda o'zbekistonlik maktab o'quvchilarining

natijalarida uncha katta siljish bo‘lmasligi mumkin. PISA testlari 5 ta yo‘nalish boyicha otkaziladi: Oqish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik yo‘nalishlari. Testlarda asosiy etibor o’quvchilarning mazkur yo’nalishlar boyicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko’nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi! Bu testlarda o‘quvchilarning dars davomida aniq mavzular bo’yicha o’rgangan bilimlarini sinovdan o’tkazish nazarda tutilmagan! PISA sinovlarida to’rt xil sinov usulidan foydalaniladi: a) Bir javobli testlar; b) Bir nechta javobli testlar; c) Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar; d) Biror muammoning yechimi bo’yicha o’quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo’ladi, o’quvchi javobi test tuzivchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o’quvchi ijodkorligi qo‘llab quvvatlanadi). Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda o‘quvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan. PISA: Asosiy yo‘nalishlar O‘qish savodxonligi: Insonning matn shaklida berilgan ma‘lumotlarni tushina olish va ularga reaksiya bera olish ko‘nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o‘qigan ma‘lumotlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati. Bu yerda, o‘qish savodxonligi tushunchasi keng ma‘no kasb etadi. Bu yo‘nalish maqsadi o‘quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya,xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo‘llanmalar, geografik kartalar kabi rangba-rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo‘ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o‘qiganlari haqida o‘z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi. Matematik savodxonlik: Insonning matematikaning o‘zi yashayotgan olamdagi o‘rnini bilishi, matematik jarayonlarni to‘g‘ri va to‘liq asoslay olishini tekshiradi. Shaxsning matematikadan yaratuvchan, qiziquvchan va fikrlovchi insonning hozirgi va kelajakdagi matematik bilimlarga bo‘lgan ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalana olishini ta‘minlash bu bo‘limning asosiy maqsadidir. Bu bo‘limdagi savodxonlik terminidan bu bo‘lim maqsadi odatda maktab dasturida beriladigan bilimlarni qay darajada o‘zlashtirganini aniqlash emasligni ko‘rsatish uchun foydalanilgan. Asosiy e‘tibor matematik bilimlardan turli xil hayotiy vaziyatlarda fikrlash va intiutiv qaror qabul qilish talab qilinadigan turli uslublaridan qo‘llagan holda foydalana olish nazarda tutiladi. Lekin bu turdagi savollarga javob berishda maktab dasturida beriladigan bilim va ko‘nikmalar zarur bo‘lishi mumkin. Bu yo‘nalish sinovlarida odatda hayotning turli sohalarida (tibbiyot, turar joy, sport va h.k.) duch kelinishi mumkin bo‘lgan

matematikaga oid vaziyatlar taklif qilinadi. Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi: Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushinish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish, shunga ko‘ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish bu bo‘limning asosiy maqsadidir. Umuman olganda mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta’lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki mavjud emasligi yoki o‘quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning milliy dasturning yaratilmaganligi, hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o‘zlashtirish darajasining sifati va sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o‘tkazish imkoniyatini cheklab qo‘ymoqda.Shuningdek, boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi o‘qitish darajasining islohotlar tempidan ortda qolayotganligi yaqin kelajakda malakali kadrlar tanqisligini keltirib chiqaradi. Shuni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni amalga oshirish joiz deb hisoblaymiz:

1. Xalqaro ta’lim sifatini baholash dasturlarida O‘zbekistonning ishtiroki masalasini atroflicha o‘rganib chiqish va ushbu dasturlarda ishtirokini ta’minlash; 2. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o‘quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning milliy dasturini yaratish;

3. Ilm-fan yutuqlarining eng ilg‘or natijalari va adabiyotlarning ingliz tilida nashr qilinishini inobatga olgan holda, maktablarda ingliz tilini o‘rgatuvchi turli xorijiy dasturlarni tadbiq etish masalasini ko‘rib chiqish;

4. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim–tarbiya berishga mas’ul mutaxassislarning malaka talablarini aniq mezonlar orqali belgilab qo‘yish va bolalarning umumiy ta’limga yo‘naltirilishida butunlay mas’ulligini qonun bilan belgilab qo‘yish;

5. Maktabgacha ta’lim hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi guruh va sinflarda xalqaro tajribada sinalgan usullardan kelib chiqqan holda o‘quvchilar sonining maksimal hamda minimal ko‘rsatkichlarini belgilab qo‘yish;

6. Psixologik testlar yordamida boshlang‘ich sinflardagi iste’dodli bolalarni ajratib olib 8-9 yoshlilar uchun har bir maktabda ixtisoslashgan sinflar tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarorida eng ustivor vazifa qilib olindi. Mazkur xalqaro baholash dasturlari Respublikamiz ta’lim tizimini mazmunan yangilash, innovatsion ta’lim muhitini yaratish, ta’lim sifatini

orttirishni talab etadi va quyidagi vazifalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi: - Xalqaro baholash dasturlari PIRLS TIMSS va PISA talablari asosida o‘qish, o‘zbek tili va adabiyoti, matematika va tabiiy o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv va nostandart adaptiv topshiriqlarini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil ish daftarlarini bosma shaklda va modulli o‘qitish tizimiga asoslangan elektron variantini tayyorlash axborot texnologiyalari vositasida baholash mexanizmini ishlab chiqish; - Xalqaro baholash tizimi TALIS (Teaching and Learning International Survey) talablari asosida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini aniqlash uchun kvalimetrik diagnostika anketa so‘rovnomasini tayyorlash va on-lain tizimi vositasida aniqlash; - Pedagog kadrlar tomonidan o‘zining kasbiy kompetentligini mustaqil nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash imkonini beradigan kvalimetrik diagnostika topshiriqlaridan iborat metodik va elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish zarur. Xalqaro baholash dasturida o‘quvchilarimizda XXI asr ko’nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. K Shakhnoza, K Makhbuba Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process. International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.

2. Ш.Х. Кулиева, Х.Ю Хамроева, ЗД Расулова Учебный процесс как педагогическая система в процессе подготовки учителей профессионального обучения. Молодой ученый, 383-385.

3. Ш.Х. Кулиева Методологические основы системного подхода при подготовке учителей. The Way of Science 5, 39.

4. Ш.Х Кулиева, МН Каримова, МХ Давлаткулова Организатsiя теоретических и практических занятий в процессе подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой ученый, 804-807.

5. Ш.Х. Кулиева. Подготовка учителей профессионального образования на основе системного подхода Наука и мир 2 (5), 70-72.

6. Ш.Х. Кулиева Содержание эффективности и качества подготовки будущих учителей трудового образования Наука без границ, 67-69.

7. Ш.Х. Кулиева, М..Н Каримова Использование современных дидактических средств в обучении специальных предметов Педагогические науки, 84-88.

ZOOLOGIYA FANIDAN INNOVATSION ELEKTRON DARSLIKLAR YARATISH VA JORIY ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Asallayev O‘.X.
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: ta’lim tizimi, innovatsion elektron darsliklar, didaktika tamoyillari, kompyuter texnologiyalari, elektron o‘quv materiallari, o‘qitish samaradorligi, informatsion-pedagogik texnologiyalar, zoologiya ta’limi, talabalarning intellektual imkoniyatlari.
Ключевые слова: система образования, инновационные электронные учебники, принципы дидактики, компьютерные технологии, электронные учебные материалы, эффективность обучения, информационно-педагогические технологии, зоологическое образование, интеллектуальные возможности учащихся.
Key words: educational system, innovative electronic textbooks, principles of didactics, computer technologies, electronic educational materials, teaching effectiveness, information and pedagogical technologies, zoology education, intellectual capabilities of students.

Резюме:
Ushbu maqolada respublikamizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, intelektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalalalari yoritilgan bo‘lib, ta’lim jarayonlarida zamonaviy elektron ta’lim resurslarini joriy etish bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, elektron darsliklarning yangi avlodini yaratish, zoologiya fanidan innovatsion elektron darsliklarni ishlab chiqish, ulardan samarali foydalanish hamda innovatsion elektron darsliklarning an’anaviy darsliklardan afzallik tomonlari yoritilgan.
Резюме:
В данной статье освещены вопросы модернизации системы образования в нашей республике, воспитания личностей, обладающих интеллектуальным потенциалом, способных вести самостоятельное мышление и наблюдение на основе современных достижений науки, подготовки конкурентоспособных, высококвалифицированных кадров. по внедрению ресурсов. Также освещено создание электронных учебников нового поколения, разработка инновационных электронных учебников по зоологии, их эффективное использование, а также преимущества инновационных электронных учебников перед традиционными учебниками.
Summary:
In this article, the issues of modernization of the education system in our republic, education of individuals with intellectual potential, who can conduct independent thought and observation based on the modern achievements of science, and training of competitive, highly qualified personnel are covered. comments on the introduction of resources are presented. Also, the creation of a new generation of electronic textbooks, the development of innovative electronic textbooks in

zoology, their effective use, and the advantages of innovative electronic textbooks over traditional textbooks are covered.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, intelektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishni talab qilmoqda. Mafkuraviy hamda mazmun va mohiyati jihatdan eskirgan, to‘liq an’anaviy (bosma) usulda nashr etilayotgan darsliklarning ma’lum qismi yangi ta’lim tizimining talab va ehtiyojlariga javob bera olmay qoldi. Shulardan kelib chiqib, elektron adabiyotlar yaratish hozirgi zamon talablaridan biriga aylandi. Jumladan, innovatsion elektron darsliklar didaktikaning asosiy tamoyillarini ishonchli va yuqori darajada joriy qilish imkonini beruvchi, samarali o‘qitish vositasi hisoblanadi. Shu o‘rinda innovatsion elektron darsliklarning mazmun – mohiyati va ularni yaratishdagi talablarga to‘xtalib o‘tish joz.

Asosiy qism. Innovatsion elektron darsliklar – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta’lim metodlaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qitish vositasi bo‘lib, undan mustaqil ta’lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish mumkin [1].

Innovatsion elektron darslikda fanning o‘quv materiallari talabaga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalaniladi [2].

Elektron darslik ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan, zamonaviy informatsion texnologiyaning mahsuli hisoblanadi. Elektron darsliklar yangi ta’lim shakli-masofaviy ta’limning asosiy o‘quv-uslubiy yadrosini tashkil etadi. O‘qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy informatsion-pedagogik texnologiyalar, jumladan, elektron darsliklardan foydalanish alohida o‘rin egallaydi [3].

Innovatsion elektron darsliklar elektron texnologiyalarga tayangan holda, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: animatsiya, ko‘p darajali va ko‘p variantli topshiriqlar, gipermatnlar va hokazo [4]. Innovatsion elektron darsliklarni yaratishda asosiy tamoyillarga amal qilish, ularga qo‘yiladigan didaktik, texnik-texnologik, ergonomik, estetik va talablarga rioya qilish tavsiya etiladi [5].

Oliy ta’lim muassasalarida barcha fanlar qatori, zoologiya ta’limida ham o‘quv jarayonlarini yuqori saviyada tashkil qilish uchun davlat ta’lim standartlari hamda xalqaro ta’lim standartlariga to‘liq javob bera oladigan o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan o‘quv hamda elektron o‘quv adabiyotlarning tahlili o‘z yechimini kutayotgan masalalardan biriga aylanmoqda [6].

Amaliy sharoitda, eskirgan konsepsiyalar innovatsion elektron darslik sifatida talqin etishga harakat qilinayotgan elektron mahsulotlar (disketlarda elektron shaklda mavjud bo‘lgan matnlar va o‘quv materiallari va boshqalar) ning yaratilishiga olib keladi. Lekin aslida, bular kam samarali vositalardir, chunki ular elektron darsliklar emas. Shuning uchun innovatsion elektron darslikka tegishli tushunchalarni aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Darslik - talaba uchun zaruriy qurol, chunki u darsliklarsiz fan bo‘yicha mustahkam va keng qamrovli bilim va malakalarga ega bo‘la olmaydi.

Innovatsion elektron darslik oddiy qog‘ozli shakldagi darslik singari muayyan o‘quv fani dasturining barcha asosiy savollarini, mazmun va mohiyatini qamrab olishi kerak. Shu bilan birga, unda aniq ilmiy mazmunda, talabadagi yig’ilgan bilimlar doirasini hisobga olish kerak. Oddiy darslik bilan qiyoslaganda, innovatsion elektron darsliklarga qator qo‘shimcha talablar qo‘yiladi: matn varaqlarga bo‘lingan bo‘lishi, tugallagan mazmunli bo‘lakni qamrab olgan, istalgan varaqni xohlagan tartibda ekranga chiqarib berilishi ta’minlangan, matn bezakli tasvirlangan, asosiy qonunlar, formulalar, grafiklar, tasvirlar va boshqalar bo‘lishi kerak.

O‘z-o‘zini nazorat qilish maqsadida, bilim oluvchining xohishiga ko‘ra, qo‘yilgan savol masalalarining javoblari, grafiklari, diagrammalarini kompyuter ekraniga chiqarish mumkin. Darslik tarkibi bir qancha nazariyalar blokini, o‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar va ularning javoblarini, test savollari va hisoblash uchun masalalarni o‘z ichiga oladi [7].

Muhokama va natijalar. Zoologiya fani bo‘yicha yaratilgan innovatsion elektron darsliklarning an’anaviy darslikdan asosiy farqlaridan biri uni ishlab chiqarishda, majmuaviy va jamoaviy yondoshuvning mavjudligidir. Haqiqatdan ham, agar an’anaviy darslik bitta muallif tomonidan yaratilishi mumkin bo‘lsa, elektron darslik bir yoki bir necha mualliflar tomonidan emas, balki bir qator mutaxassislardan iborat alohida ijodiy jamoa tomonidan yaratiladi [8]. Shuningdek, innovatsion elektron darsliklar – bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining bilim olishi va mustaqil ishlash uchun zarur, chunki u:

− o‘rganilayotgan materialni an’anaviy qog‘ozga chop etilgan o‘quv adabiyotlariga nisbatan boshqacha: induktiv yondoshish, eshitish, emotsional xotiralarga ta’sir qilish yo‘llari bilan materialni yetkazish hisobiga uni tushunishni yengillashtiradi;

– talabalarning ehtiyojiga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga va ambitsiyalariga mos holda ko‘niktiradi;

– fanning mohiyatiga diqqatni jalb etgan hamda ko‘p sondagi misollarni ko‘rib chiqish va ko‘proq masalalar yechishga imkon yaratgan holda, murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xalos etadi;

– o‘rganishning hamma bosqichlarida o‘z-o‘zini tekshirib ko‘rish uchun keng imkoniyatlar beradi;

– ishni chiroyli va aniq rasmiylashtirilishiga hamda uni o‘qituvchiga fayl yoki qog‘ozga chop etgan holda topshirishga imkon beradi;

– o‘ta toqatli ustoz rolini cheklanmagan tushuntirishlar, sanoqsiz takrorlashlar, eslatishlarni taqdim qilgan holda bajaradi [9].

Ayniqsa, innovatsion elektron darsliklar zoologiya fani bo‘yicha tashkil etiladigan laboratoriya, amaliy mashg’ulotlar uchun juda qulay, chunki u:

– kompyuterli qo‘llab-quvvatlashlardan foydalangan holda, katta miqdordagi masalalarni yechishga, topilgan yechimlarni va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan vaqtdan ozod bo‘lishiga;

– o‘qituvchiga o‘zida rahbarlik va maslahatchi (konsultant) rolini qoldirgan holda, kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg’ulot o‘tkazishga;

– o‘qituvchiga tekshirish tadbirlari tarkibi va murakkablik darajalarini belgilagan holda kompyuter yordamida talabalar bilimini tez va samarali nazoratdan o‘tkazishga imkon beradi.

Shu sababli, innovatsion elektron darsliklarni o‘qituvchi uchun juda qulay ta’lim resursi deyish mumkin, chunki u:

– ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda o‘zining hohishi bo‘yicha hajmi jihatidan kichik, ammo tarkibi bo‘yicha o‘ta muhim bo‘lgan materiallarni yetkazishiga, auditoriya mashg’ulotlari doirasidan tashqari o‘rganish mumkin bo‘lgan masalalarni mustaqil shug‘ullanishlari uchun qoldirgan holda yetkazishga imkon beradi;

– mustaqil ta’lim topshiriqlarini va nazorat ishlarini tekshirish kabi mashaqqatli ishlardan ozod etadi;

– auditoriyada bajariladigan va uyga topshiriladigan misol va vazifalar nisbatini optimallashga imkon beradi;

– talabalar bilan mustaqil va nazorat tadbirlariga oid ishlashni individuallashtirishga imkon beradi.

Innovatsion elektron darsliklarni loyihalashtirish, ishlab chiqish va o‘quv jarayonida keng foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda, chunki ulardan ommaviy ravishda ta’lim sohasida qo‘llanila boshlandi.

Bugungi kunda yaratilayotgan innovatsion elektron darsliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

• matnning elektron versiyasi;

• kitobning gipermatnli elektron versiyasi;

• grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;

• animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;

• animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasm, gipermatnli va test tizimlari mavjud darsliklar.

Innovatsion elektron darsliklarning an'anaviy usullarga nisbatan quyidagi afzalliklarini keltirish mumkin:

1. O‘quv axborotlarining taqdim etilish shakli.

2. Kerakli axborotlarni qidirish imkoniyati.

3. Olingan bilimlar darajasini nazorat qilish usullarining mavjudligi.

4. O‘qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi.

Shulardan kelib chiqib, innovatsion elektron darsliklarni yaratishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin:

• multimedia ma’lumotlari (matn, grafik, audio, video, animatsiya) asosida axborotlarni taqdim etish;

• qidirish va yo‘llash imkoniyatlarini kiritish;

• olingan bilimlar darajasini nazorat qilishning ob'yektiv tizimini kiritish;

• tarmoq texnologiyalari asosida o‘qituvchi va talabaning o‘zaro interaktiv va teskari aloqasining yo‘lga qo‘yilishi.

Zoologiya ta’limida innovatsion elektron darsliklardan o‘quv jarayonida keng foydalanishning asosiy muammosi - bu kompyuter ekranidan katta hajmdagi axborotlarni o‘qishdir [10]. Ushbu muammoni hal qilish uchun elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida taqdim etish mumkin. Bu ikki usul bitta o‘quv materialini turli shaklda taqdim etishi bilan farqlanadi, xolos. Innovatsion elektron darslikning matn usulida material, gipermatn ko‘rinishida taqdim etilib, unda rpafik, chizma, diagramma, fotografiya, animatsiya va video qo‘llaniladi.

Zoologiya faniga doir innovatsion elektron darsliklarni yaratishda quyidagi bosqichlarga amal qilish tavsiya etiladi:

- fanga oid manbalarni tanlab olish;

- manbalardan foydalanish va qayta ishlash huquqi to‘g’risida shartnomalar tuzish;

- mundarija va tushunchalar ro‘yhatini ishlab chiqish;

- bo‘limlardagi (modullardagi) matnlarni qayta ishlash va yordam berish bo‘limini tuzish;

- gipermatnni elektron shaklda amalga oshirish;
- kompyuterli qo‘llab-quvatlanishni ishlab chiqish;
- materiallarni multimediyali ob’ektlarga keltirish uchun tanlab olish;
- tovush jo‘rligida amalga oshishni ishlab chiqish va tadbiq etish;
- materialni vizuallashtirish uchun tayyorlash;
- elektron darslikdan foydalanishga tayyorlash;
- o‘qitish metodikasini ishlab chiqish.

Shuningdek, innovatsion elektron darsliklarni ishlab chiqish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

1-bosqich. Zoologiya fani bo‘yicha innovatsion elektron darsliklar o‘qituvchi tomonidan to‘liq tanishilgan holda tanlanishi kerak. Elektron darslikning sifati bevosita uning yaratilishida qo‘llanilgan videoaudioanimatsiyalardan qanchalik samarali foydalanilganligiga bog’liq. Shuning uchun elektron darslikni yaratishda ijodiy guruh a’zolari hamda fan o‘qituvchilarining yetarli darajada bilimdonligi alohida ahamiyatga ega. Kompyuterdagi amaliy mashg’ulotlar umumiy hajmning 65-70 % ni tashkil etishi kerak.

2-bosqich. Innovatsion elektron darslikni yaratish bo‘yicha ijodiy jamoani tashkil etish. Ijodiy guruh-bo‘lajak jamoa a’zolarining elektron darslik yaratishga tayyorgarligini, shuningdek, zamonaviy axborottexnologiyalardan to‘liq xabardor ekanligini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Elektron darslikning dizayn va texnik talablari, sifatiga bevosita ta’sir qilishini e’tiborga olib, ijodiy guruhni quyidagi tartibda shakllantirish mumkin: - muayyan fan bo‘yicha pedagog yoki pedagoglar guruhi; - dasturlovchi yoki dasturlovchilar guruhi; - badiiy-dizayner; - pedagog-psixolog. Zarur hollarda, ijodiy guruh tarkibiga s’yomka qiluvchi operatorlar guruhi, s’yomka rejissyori va ovoz beruvchi diktorlarni ham kiritish mumkin.

3-bosqich. O‘quv kursini tarkiblash (strukturizatsiyalash) lozim. Bu bosqichda, elektron darslikda o‘quv materiali o‘rnatilgan modullar talablariga mos, bo‘limlar bo‘yicha materiallar taqsimlangan, hajm bo‘yicha kichik, lekin mazmun bo‘yicha keng bo‘lishi kerak. Ularga kalit so‘zlari, iboralar va izohlarni ham kiritish kerak.

4-bosqich. Innovatsion elektron darsliklarni yaratish uchun yondoshuvlarni tanlash. a) individual yondoshuv. Bunda elektron darslik–yaxlit majmua sifatida yaratiladi, ya’ni kompyuterning o‘qitish dasturidagi alohida modul va bezaklariga mos. b) davomli yondoshuv. Mazkur yondoshuvda elektron darslik avvaldan mavjud dastur - qobiq asosida yaratiladi.

5-bosqich. Innovatsion elektron darslikning rejasi, o‘quv-uslubiy ssenariysi texnik va psixologik-pedagogik talablar asosida bo‘lishiga ahamiyat berish kerak.

6-bosqich. Yaratilgan elektron darslikni taqrizdan va aprobatsiyadan o‘tkazish.

7-bosqich. Olingan taqriz va takliflar ustida ishlash.

8-bosqich. Innovatsion elektron darslikni ekspertizadan o‘tkazish. Elektron darslik maxsus ekspertizadan–elektron darsliklarga qo‘yiladigan talablar asosida o‘tadi va unga toifa beriladi.

9-bosqich. Tasdiqlash (Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan).

10-bosqich. Innovatsion elektron darslikni davlat reestriga kiritish va tugallangan dasturmahsulot sifatida ko‘paytirish [11].

Innovatsion elektron darslikni yaratish jarayonida psixologo-pedagogik, texnik-texnologik, estetik va ergonomik talablar qo‘yiladi. Elektron darslik, o‘quv va uslubiy kullanma kabi an’anaviy o‘quv nashlariga kuyilgan didaktik talablarga javob berishi kerak. Didaktik talablar ta’lim berishning spesifik konuniyatlariga va mos ravishda ta’lim berishning didaktik tamoyillariga mos kelishi kerak. Quyida innovatsion elektron darslikka bulgan an’anaviy didaktik talablar keltirilgan:

- o‘qitishda ilmiylikni, fan, texnika va texnologiyalarni so‘nggi yutuklarni xisobga olish o‘quv materiali mazmuning yetarlicha chukurligini, ishonchliligini ta’minlaydi. O‘quv materialini elektron darslik yordamida uzlashtirish jarayoni o‘qitishning zamonaviy usullari bilan mos ravishda kurilishi kerak. Masalan tajriba, eksperiment, solishtirish, kuzatish, abstraktlash, umumlashtirish, yaxlitlashtirish, uxshashlik, taxlil va sintez, modellashtirish uslubi, shu bilan birga matematik modellashtirish, shuningdek tizimli taxlil uslubi.

- o‘qitishning erishuvchanlik talablari – innovatsion elektron darslik vositasida amalga oshiriladi va talabalar yoshga va individual xususiyatlariga xos o‘quv materialini urganishning murakkablik va chuqurlik darajasini aniqlash zaruriyatini bildiradi. O‘quv materialini haddan ziyod murakkablashtirish va ortiqcha yuklash mumkin emas, unda ta’lim oluvchi bu materialni egallashga ojizlik qiladi.

- o‘qitishning muammoviylinini ta’minlash talablari - ta’lim olish faoliyatining tavsifi va mavjudligi bilan shartlashtirilgan. Agar talaba ijozat surashni talab qiluvchi o‘quv muammoli vaziyat bilan duch kelsa, uning fikrlash faolligi usadi. Ushbu didaktik talabni bajarilish darajasi, an’anaviy darsliklar va qo‘llanmalarni qo‘llashdan ko‘ra, elektron darslik yordamida bajarish sezilarli darajada yuqori bulishi mumkin.

- o‘qitishning ko‘rgazmaliligini ta’minlash talablari, talabalar tomonidan o‘rganilayotgan ob’ektlar, ularning maketlari yoki modellarini sezgili qabul qilishi va shaxsan kuzatishini hisobga olish zaruriyatini bildiradi.

- o‘qitishni ongliligini, ta’lim oluvchining mustaqilligi va faoligini ta’minlash talablari.

- o‘quv faoliyatining yakuniy maqsad va vazifalariga erishishda o‘quv axborotini jalb kilish buyicha talabalarning mustaqil holatini elektron darslik vositalari bilan ta’minlashni ko‘zda tutadi. Bunda talaba uchun o‘quv faoliyati yunaltirilgan mazmunini anglatadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishda ta’lim jarayonlarini zamonaviy ta’lim resurslari va vositalari, xususan, innovatsion elektron darsliklarni yaratish va joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati mavjud. Zero, axborotlashgan jamiyatda mamlakat istiqbolini ta’minlaydigan asosiy omillardan biri bu - innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta’lim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Абдурахманова Ш.А. Технология создания электронных образовательных ресурсов. Учебник. – ГРИФ № 133-237. –Т.: Навруз, 2020. – С. 204.

2. Begimqulov U., Sharipov Sh., Mamarajabov M.. Elektorn axborot-ta’lim resurslarini yaratish va joroiy etish. Qo‘llanma. Toshkent. “BAYOZ” 2011.

3. Яковлев Е.В. Педагогическая концепция: методологические аспекты построения / Е.В. Яковлев, О.Н. Яковлева. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2006. – 239 с.

4. Назаров М.М. Массовая коммуникация и общество. Введение в теорию и исследования / М.: Аванти-плюс, 2003;

5. David M.Marcovitz. “Powerful Power Point for Educators: Using Visual Basic for Applications to Make Power Point Interactive”. Westport, Con necticut • London. 2004. 17 p.

6. Asallayev O.Kh. Methodology of using electronic information educational resources in biology education. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Hosted from New York, USA. August, 28th 2023.

7. Визуальные коммуникации в рекламе и дизайне. Автор: Пигулевский Виктор Гуманитарный центр, 2011 г., 404 с.

8. Asallayev O.Kh. Methodology of using web-quest technology in the educational system. International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities Hosted from Barcelona, Spain. August, 26th 2023.

9. Syed Mahbubur Rahman. “Multimedia Technologies: Concepts, Methodologies, Tools, and Applications” Minnesota State University, Mankato, USA 2008.

10. Asallayev O.Kh. Theoretical Principles Of Improving The Professional Training Of Future Biological Science Teachers In The Electronic Information Education Environment. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities Volume 21, August , 2023.

11. Shashank Khanvilkar, Faisal Bashir, Dan Schonfeld, and Ashfaq Khokhar. Multimedia Networks and Communication. University of Illinois at Chicago. 2003.

“TINISH BELGILARINING GRAFIK TIZIMDA TUTGAN O‘RNI” MAVZUSINI BLUM TAKSONOMIYASI ASOSIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

Rayimberdiyeva Z.R.
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: grafik tizim, savodxonlik, taksonomiya, o`quv maqsadlari, tahlil, sintez, kognitiv ko'nikma, tinish belgilari, bilim, malaka, kompetensiya.
Ключевые слова: графическая система, грамотность, таксономия, цели обучения, анализ, синтез, познавательные навыки, пунктуация, знания, компетенция.
Key words: graphic system, literacy, taxonomy, learning objectives, analysis, synthesis, cognitive skills, punctuation, knowledge, competence.

Резюме:
Mazkur maqolada ta’lim oluvchilarda o‘zbek tilining grafik sistemasi,unda tinish belgilarining o‘rniga oid kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida Blum taksonomiyasidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari bayon qilingan. Xususan, “Tinish belgilarining grafik tizimda tutgan o‘rni” mavzusidagi amaliy mashg‘ulot texnologiyasi ishlab chiqilgan.
Резюме:
В данной статье описаны педагогические условия использования таксономии Блума в процессе формирования и развития познавательных умений, связанных с графической системой узбекского языка и важность пунктуации в нем. В частности, разработана технология практических занятий по теме «Роль знаков препинания в графической системе».
Summary:
This article describes the pedagogical conditions for using Bloom's taxonomy in the process of forming and developing cognitive skills related to the graphic system of the Uzbek language and the importance of punctuation in it. In particular, a technology for practical classes on the topic "The role of punctuation marks in the graphic system" has been developed.

Kirish. ’’Insoniyat rivojida til odamni hayvondan farqlovchi asosiy kategoriyalardan biri sanalsa, uning rivojlanganlik, madaniylashganlik belgisi esa yozuv sanaladi”[1]. Har qanday rivojlangan jamiyatning saviyasi haqida gap ketganda, albatta, mezonlar qatorida yozma savodxonlik masalasi ham e’tirof etiladi. Zero, insoniyat mavjudligining va taraqqiyotining tamal vositalaridan biri sanalmish til, undan muloqot vositasi sifatida foydalanilar ekan, doimo

umummajburiy qoidalarga ehtiyoj sezadi. Bu majburiylik muloqotning hamma uchun tushunarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Ayniqsa, yozma muloqot asnosida kommunikativ samaradorlikning asosiy shartlaridan biri orfografik va punktuatsion me’yorlarga – qoidalarga amal qilishdir. Til ta’limining asosiya maqsadi ham bilim oluvchilarni adabiy til me’yorlari bilan tanishtirish orqali nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, nafaqat o‘quvchi va talabalar, balki turli sohalarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning ham punktuatsion savodxonligi talab darajasida emas. Bizningcha, buning asosiy sabablaridan biri tinish belgilarining ahamiyatini anglamaslik, ularga fikr ifodalashnning zaririy bo‘lmagan grafik elementi sifatida qarashdir. Bunday yondashuvning yuzaga kelishiga esa mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalari to‘la faollashtirilmaganligi, punktuatsiyaga oid bilimlarining quyi kognitiv darajalarda qolib ketgani sabab bo‘lishi mumkin. Mazkur maqolada bu muammoning yechimi sifatida Blum taksonomiyasidan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Ta’lim maqsadlariga erishish va natijalarni baholash masalasi pedagogikaning markaziy muammolaridan sanaladi. Bu boradagi XX asrning eng mashhur tadqiqotlaridan biri Chikago universiteti professori Benjamin Blum boshchiligida amalga oshirildi. Olim izlanishlari natijasida “Blum taksonomiyasi” nomi bilan mashhur bo‘lgan klassifikatsiyani yaratdi [2]. Blumning fikricha, ta’lim maqsadlarini o‘quv faoliyati mazmuniga singdirish orqali bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘quvchilar tomonidan bosqichma-bosqich, ongli o‘zlashtirilishiga erishish mumkin. 6 toifa (bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez va baholash)ni o‘z ichiga oluvchi taksonomiya mohiyatan iyerarxik o‘sib borish tartibiga ega bo‘lib, tafakkurning oddiy faktni eslash kabi quyi kognitiv darajasidan boshlab, baholash, tahlil qilish va yaratish kabi yuqori kognitiv darajasigacha qamrab oladi.

BILISH – dastlabki tafakkur darajasi bo‘lib, bunda o‘quvchi atamalarni, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo‘nalishlar, kategoriyalar, tasniflar va shu kabilarni biladi, xotirlaydi, takrorlaydi.

TUSHUNISH bosqichida talaba faktlar, qoidalar, chizmalar, jadvallarni tushunadi, qaytadan tuza oladi, o‘zgartira oladi (so‘zdan raqamga yoki obrazga), mavjud ma’lumotlar asosida kelgusi natijalarni taxminan tafsiflay oladi.

QO‘LLASH kognitiv darajasidagi talaba olgan bilimlaridan faqat tanish vaziyatlardagina emas, notanish holatlarda ham foydalana oladi va ularni ma’lum bir model, me’yor, ko‘rsatma asosida to‘g‘ri qo‘llaydi.

TAHLIL QILISH darajasidagi tafakkurda talaba yaxlit butunning qismlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ajrata oladi, mantiqiy fikrlash asosida xatoliklarni topadi, sabab va oqibatlar orasidagi aloqadorlikni anglaydi, ma’lumotlarning qiymatini baholaydi.

SINTEZ – umumlashtirish darajasidagi tafakkurda talaba ijodiy faoliyat bajaradi, biror tajriba o‘tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ayrim materiallar asosida butunning, yaxlitning obrazini, ko‘rinishini yaratadi.

BAHOLASH kategoriyasi yuqorida ko‘rsatilgan barcha darajalar bo‘yicha o‘quv natijalarga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholash mulohazalarini taqozo etadi. Ichki va tashqi mezonlar asosida baholaydi, talaba baholash mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, xulosalarning mavjud ma’lumotlarga mosligini baholaydi,

200-2001-yillarda Blum taksonomiyasi qayta ko‘rib chiqildi. Yangicha talqindagi taksonomiyada ham bilim ushbu oltita bilish jarayonining negizida joylashgan, ammo ularning mualliflari idrokda ishlatiladigan bilim turlarining alohida taksonomiyasini yaratdilar:

1. **Faktik bilim** – muayyan bir fanlar uchun asos bo'lgan ma’lumotlar. Ushbu o'lchov o'quvchilar fanni tushunish yoki undagi muammoni hal qilish uchun bilishi kerak bo'lgan muhim faktlar, atamalar, tafsilotlar yoki elementlarni anglatadi.

2. **Konseptual bilim** ma'lum bir fan sohasiga tegishli tasniflar, tamoyillar, umumlashmalar, nazariyalar, modellar yoki tuzilmalar haqidagi bilimdir.

3. **Protsessual bilim** esa muayyan fan doirasida amaliy faoliyatni bajarish uchun talab etiladigan ko‘nikmalar, algoritmlar, texnika va usullar, tegishli protseduralardan foydalanish mezonlari to‘g‘risidagi bilim.

4. **Metakognitiv bilim** shaxs tomonidan anglangan strategik bilimlar, muayyan kognitiv jarayonlarda va turli vaziyatlarda qo‘l keluvchi shartli bilimlar majmuyidir [3].

Ko‘rinadiki, Blum taksonomiyasi ma’lum bir ta’lim turi bo‘yicha erishilishi kerak bo‘lgan maqsadlarni aniq belgilab beradi, ayni paytda bu maqsadni o‘quv faoliyatiga aylantirishga zamin bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun o‘qituvchi har bir kognitiv darajani faollashtirish uchun mos keluvchi savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi talab etiladi. Metodik jihatdan to‘g‘ri shakllantirilgan va ta’lim maqsadlariga bo‘ysundirilgan o‘quv jarayoni bir vaqtning o‘zida ham o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish, ham baholash imkonini beradi.

Natija va muhokama. Dars mashg‘ulotlarini Blum taksonomiyasi asosida tashkil etishda o‘qituvchi texnologik yondashuv talablaridan kelib chiqib, ketma-ketlikka amal qilishi lozim. Biz “Tinish belgilarining grafik tizimda tutgan o‘rni” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotni quyidagicha tashkil etish texnologiyasini tavsiya etamiz.

BILISH bosqichi

Mezonlar	Savol va topshiriqlar tizimi	Baholash
Bilimdan xabardor bo‘lish, ularni o‘zlashtirish, yodda tutish, qayta yodga olishni ifodalaydi	1.Grafema nima? 2.Grafema turlarini sanang. 3.Grafemalarni eng faol qo‘llanuvchi va yordamchi turlarga ajrating va ta’riflang.	Savollarga javob bera oladi. Tayanch tushunchalarga ta’rif bera oladi

TUSHUNISH bosqichi

Mezonlar	Savol va topshiriqlar tizimi	Baholash
Bilim yuzasidan mushohada yuritish, fikrlash, nazariy holatdan amaliyotga ko‘chirish mantig‘ini o‘zlashtirish	1.Grafema turlarining mohiyati (fonografema, prosodemografema (tinish belgilari), logografema, morfografema)ni atamaning nomlanishidan kelib chiqib izohlashga harakat qiling. 2. Grafema turlarining ichki bo‘linishini to‘liq ifodalash uchun “Tushuncha asosidagi diktant” usuli orqali nazoratdan o‘tkazing.	Tayanch tushunchalarning mohiyatini sharhlay oladi. Atamaning nomi bilan uning mohiyati o‘rtasidagi aloqadorlikni tushunadi va izohlay oladi.

QO‘LLASH bosqichi

Mezonlar	Savol va topshiriqlar tizimi	Baholash
Bilim yuzasidan mushohada yuritish, fikrlash, nazariy holatdan amaliyotga ko‘chirish mantig‘ini o‘zlashtirish	1.Berilgan mikromatnning grafik tomonini statistik tahlilga torting (ixtiyoriy matn tavsiya etiladi). Grafik elementlarning matnda uchrash chastotasini aniqlang. 2.Statistik tahlil natijalariga ko‘ra grafema turlarining qo‘llanish chastotasiga ko‘ra o‘rnini aniqlang. 3.Mikromatnda eng ko‘p qo‘llangan grafema turining *ifodalovchi \ ifodalanuvchi* tomonlarini farqlang va uning matnda aks etishiga e’tibor qarating.	Talaba matnning grafik sistema ekanini anglaydi. Grafik sistema elementlari miqdorini aniqlay oladi. Grafemaning ifoda va mazmun planini farqlaydi.

TAHLIL QILISH bosqichi

Mezonlar	Savol va topshiriqlar tizimi	Baholash
Mavjud bilimga tayanib, bir butun obyektni tarkibiy elementlarga ajratgan holda o‘rganish, juz’iy xulosa chiqarish	1.Mikromatnda qo‘llangan grafema turlarining matn semantikasini yuzaga keltirishdagi ahamiyatiga e’tibor qarating. 2.Mikromatndan prosodemografemalar (tinish belgilar) ni olib tashlang. Natijani tahlil qiling. 3.Prosedomografemalar(tinish belgilar)ning matn strukturasi va semantikasini shakllantirishdagi ahamiyati haqida xulosa chiqaring 4.Matnda berilgan logografemalarni fonografemalar bilan almashtiring. Matn strukturasi va semantikasida yuzaga kelgan farqlanishlarni qiyoslang va xulosa chiqaring.	Talaba har bir grafemaning matn semantikasini yuzaga keltirish (interpretatsiya) jarayonidagi ahamiyatini anglaydi. Grafemaning har bir turi matnning qaysidir jihatini shakllantiruvchi vosita ekanini tahlil qilib bera oladi.

SINTEZLASH bosqichi

Mezonlar	Savol va topshiriqlar tizimi	Baholash
Mavjud bilimga tayanib, tarkibiy elementlar asosida bir butun obyekt to‘g‘risida umumiy xulosa chiqarish	1.Grafema turlari mavzusi bo‘yicha mavjud barcha ma’lumotlarni birlashtirib, intellektual xarita (assotsiativ klaster) yarating.	Mavzuga oid alohidaliklarni umumlashtira oladi. Qismlar o‘rtasidagi aloqadorlikni sharhlay oladi.

BAHOLASH bosqichi

Mezonlar	Savol va topshiriqlar tizimi	Baholash
Shaxsning mavzu yuzasidan nazariy bilim va amaliy ko‘nikma, malakalarga egaligini baholash	1.Grafema turlari bo‘yicha konseptual jadval yarating. Mazkur jadvalda tahlilga tortilgan mavzuning til sistemasida tutgan o‘rinini asoslang. 2.Sizningcha, o‘zbek grafikasida fikrni yozma shaklda to‘liq bayon etish uchun yetarlicha grafik ko‘rsatkichlar mavjudmi? 3.Agar imkon bo‘lsa, siz yana qanday grafema turini kiritishni taklif etgan bo‘lardingiz?	Grafemalarning kommunikativ jarayondagi ahamiyatini baholay oladi. Mavjud grafik tizimga tahliliy-tanqidiy yondasha oladi. Mavzuga aloqador yangi takliflar ishlab chiqishi mumkin.

Dars mashg‘uloti mana shu tarzda tashkil etilsa, bizningcha, o‘quvchilar punktuatsiyaning grafik tizimdagi o‘rnini va kommunikativ jarayondagi ahamiyatini ongli tushunib yetadilar. Tavsiya etilgan savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar kerakli ma’lumotni topish, ularni o‘zaro qiyoslash asosida tahlil qilish, tizimlashtirish va mustaqil xulosa chiqarish, punktuatsion tizim haqida keng ko‘lamli bilimga ega bo‘lishga erishadilar Bu esa, o‘z navbatida, punktuatsion savodxonlik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o‘quv mashg‘ulotlarini Blum taksonomiyasi asosida tashkil etish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini izchil shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, o‘quvchilar bilimini, ularning intellektual rivojini monitoring qilish va asosli baholashda ham muhim ahamiyatga ega. Blum taksonomiyasini o‘quvchilarning umumiy aqliy rivojidagi bo‘shliqlarni aniqlashtirish va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishda ham beqiyos metodika sifatida e’tirof etish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. GELB, D. A study ofwritiпg. The fouпdatioп of graтratology, L.: (1952): 21].

2. Bloom, Benjamin S. (1956) Taxonomy of Educational Objectives: Handbook 1, the Cognitive Domain. Printed in the United States of America EDWARDS BROS..• ANN ARBOR, MICHIGAN.

3. Leslie Owen Wilson. Bloom’s Taxonomy Revised. Understanding the Revised Version of Bloom’s Taxonomy // Bloom's Taxonomy Revised - https://thesecondprinciple.com

MANTIQIY TOPSHIRIQLARNING O'QITUVCHILAR KASBIY RIVOJLANISHIDAGI TA'SIRI

Ismoilova N.I.
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: mantiqiy tafakkur, kasbiy rivojlanish, kreativlik, muammolarni hal qilish, ta'lim, pedagogika, o'qituvchi malakasi.
Ключевые слова: логическое мышление, профессиональное развитие, творчество, решение проблем, образование, педагогика, компетентность учителя.
Key words: logical thinking, professional development, creativity, problem solving, education, pedagogy, teacher competence.

Резюме:
O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi - o'qituvchilarning malakalarini, bilimlarini, ko'nikmalarini va pedagogik yondashuvlarini doimiy ravishda yangilash va rivojlantirish jarayonidir. Ushbu jarayon o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va ularni o'z sohalarida yetakchi bo'lishlariga yordam beradi. Kasbiy rivojlanish nafaqat o'qituvchining o'zining bilim va ko'nikmalarini boyitadi, balki ta'lim jarayonining umumiy sifatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishining ta'lim jarayonidagi o'rni quyidagicha tavsiflanadi. Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish: O'qituvchilar yangi pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va usullarni o'rganish orqali ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni olib kiradilar. Masalan, raqamli texnologiyalardan foydalanish yoki interaktiv o'quv usullarini qo'llash. O'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish: O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi ularning o'quvchilar bilan ishlash qobiliyatini kengaytiradi. Ular turli yondashuvlar yordamida o'quvchilarning turli ehtiyoj va qobiliyatlarini e'tiborga oladi, individual rivojlanish uchun mos metodlarni qo'llaydi.
Резюме:
Профессиональное развитие учителей – это процесс постоянного обновления и развития квалификации, знаний, умений и педагогических подходов учителей. Этот процесс помогает учителям развивать свои профессиональные навыки и становиться лидерами в своих областях. Профессиональное развитие не только обогащает собственные знания и умения педагога, но и существенно влияет на общее качество образовательного процесса. Роль профессионального развития учителей в образовательном процессе описывается следующим образом. Внедрение новых педагогических технологий: Учителя привносят инновации в образовательный процесс, изучая новые педагогические подходы, технологии и методы. Например, использование цифровых технологий или использование интерактивных методов обучения. Развитие навыков учащихся. Профессиональное развитие учителей повышает их способность работать с учениками. Они учитывают различные потребности и способности учащихся, используя разные подходы, и используют соответствующие методы индивидуального развития.

Summary:
Professional development of teachers is a process of continuous updating and development of teachers' qualifications, knowledge, skills and pedagogical approaches. This process helps teachers develop their professional skills and become leaders in their fields. Professional development not only enriches the teacher's own knowledge and skills, but also significantly affects the overall uality of the educational process. The role of teachers' professional development in the educational process is described as follows. Introduction of new pedagogical technologies: Teachers bring innovation to the educational process by learning new pedagogical approaches, technologies and methods. For example, the use of digital technologies or the use of interactive learning methods. Developing student skills: Professional development for teachers enhances their ability to work with students. They take into account the different needs and abilities of students using different approaches, and use appropriate methods for individual development.

Kirish. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi nima va uning ta'lim jarayonidagi o'rni. **O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi** - o'qituvchilarning malakalarini, bilimlarini, ko'nikmalarini va pedagogik yondashuvlarini doimiy ravishda yangilash va rivojlantirish jarayonidir. Ushbu jarayon o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va ularni o'z sohalarida yetakchi bo'lishlariga yordam beradi. Kasbiy rivojlanish nafaqat o'qituvchining o'zining bilim va ko'nikmalarini boyitadi, balki ta'lim jarayonining umumiy sifatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishining ta'lim jarayonidagi o'rni quyidagicha tavsiflanadi:

Ta'lim sifatini yaxshilashga yaxshi tayyorgarlikka ega o'qituvchi yanada samarali darslarni o'tkazadi, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan turli usullardan foydalanadi, murakkab mavzularni tushunish osonroq qilib tushuntiradi. Bu esa o'quvchilar bilim darajasini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish uchun O'qituvchilar yangi pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va usullarni o'rganish orqali ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni olib kiradilar. Masalan, raqamli texnologiyalardan foydalanish yoki interaktiv o'quv usullarini qo'llash mumkin.

O'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi ularning o'quvchilar bilan ishlash qobiliyatini kengaytirish Ular turli yondashuvlar yordamida o'quvchilarning turli ehtiyoj va qobiliyatlarini e'tiborga oladi, individual rivojlanish uchun mos metodlarni qo'llay olishi kerak.

Muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishda kasbiy rivojlanish orqali o'qituvchilar ko'proq tajriba va bilimga ega bo'lib, dars davomida yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu pedagogik jarayonni samarali boshqarish imkonini beradi.

Hayot davomida o'qish va o'rganish madaniyatini rivojlantirish o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi o'z-o'zini o'qitish va malakasini oshirish madaniyatini shakllantiradi. Bu esa doimiy ravishda yangiliklar va o'zgarishlarga moslashish, o'z sohasida zamonaviy bilimlarni o'rganishga yordam beradi.

Maqolaning asosiy maqsadi – mantiqiy topshiriqlarning o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish va tahlil qilishdir. Mantiqiy tafakkur va topshiriqlar o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga, ularning muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga, shuningdek, kreativ yondashuvlarini mustahkamlashga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib berishdir. Maqsad o'qituvchilarning ta'lim jarayonida mantiqiy topshiriqlarni qo'llash orqali nafaqat o'z tafakkurini rivojlantirishlari, balki o'quvchilarning ta'lim olishini qanday yaxshilash mumkinligini aniqlashdir.

Tahlil va natijalar. Mantiqiy tafakkur va mantiqiy topshiriqlar nima ekanligi. Mantiqiy tafakkur insonning ma'lumotlarni tahlil qilish, sabab-natija bog'liqliklarini topish va muammolarni hal qilish uchun aniqlangan qoidalar asosida mulohaza yuritish qobiliyatidir. Bu tafakkur turi aniq mantiqiy qonuniyatlarga tayanadi va inson fikrlarini tartibli va aniq shakllantirishga yordam beradi. Mantiqiy tafakkur orqali insonlar mavhum tushunchalarni tahlil qiladi, to'g'ri xulosalar chiqaradi va murakkab masalalarga yechim topa oladi. Bu tafakkur usuli, ayniqsa, matematikada, ilm-fanda va muammolarni hal qilishda keng qo'llaniladi.

Mantiqiy tafakkurning asosiy xususiyatlari quydagilar.

Analitiklik: Ma'lumotlarni bo'laklarga ajratish, ulardagi munosabatlarni tushunish va natijalarga tayanib xulosa chiqarish.

Izchillik: O'zaro bog'liq fikrlarni ketma-ketlikda tartibga solish va har bir qadamni asoslash.

Ob'ektivlik: His-tuyg'ulardan xoli holda faktlarga asoslangan mulohazalar yuritish.

Sababiylik: Harakat va hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'liqliklarini tushunish va to'g'ri xulosalar chiqarish.

Mantiqiy topshiriqlar - bu mantiqiy tafakkur asosida hal qilinadigan masalalar yoki vazifalardir. Ushbu topshiriqlar insonlarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga mo'ljallangan.

Mantiqiy topshiriqlarning asosiy turlari:

Mantiqiy mulohazalar: Bu topshiriqlar insonlardan aniq faktlarga asoslanib mantiqiy xulosalar chiqarishni talab qiladi. Misol: “Agar A to'g'ri bo'lsa va B to'g'ri bo'lsa, demak C nima bo'lishi mumkin?”

Sudoku va boshqotirmalar: Ushbu topshiriqlar sonlar, shakllar yoki boshqa belgilar orqali mantiqiy bog'lanishlarni topishni talab qiladi.

O'xshashlik va farqlarni aniqlash: O'xshashlik va farqlarni topishga qaratilgan topshiriqlar analitik va mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi.

Muammolarni hal qilish topshiriqlari: Bu topshiriqlar insonlarga murakkab vaziyatlar yoki masalalarni hal qilishda yordam beradi. Masalan, transport muammolari yoki resurslarni samarali taqsimlash.

Mantiqiy topshiriqlar insonning quyidagi qobiliyatlarini rivojlantiradi:

Tanqidiy fikrlash: Ma'lumotlarga asoslanib to'g'ri xulosa chiqarish va noto'g'ri fikrlarni aniqlash qobiliyati.

Muammolarni hal qilish bu - muammolarni tahlil qilish va ularni optimal yechimini topish qobiliyati.

Tahlil qilish va xulosalar chiqarishda ma'lumotlarni o'rganib, ularni mantiqiy xulosalarga keltirish. Mantiqiy tafakkur va topshiriqlar, ayniqsa, o'qituvchilar uchun kasbiy rivojlanish jarayonida muhimdir, chunki ular ta'lim berishda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va o'quvchilarga to'g'ri yondashishni o'rganishga yordam beradi. Bu esa o'qituvchilarning o'z darslarini aniq rejalashtirish va turli ta'lim muammolarini samarali hal qilishlariga yordam beradi va quydagi savollar yuzaga keladi.

Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida qanday rol o'ynaydi?

Ushbu savol orqali o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari ularning kasbiy malakalarini rivojlantirishda qanchalik muhim ekani va qanday foyda keltirishi tahlil qilinadi.

Mantiqiy topshiriqlar o'qituvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Bu savolga javob izlash orqali mantiqiy topshiriqlarni bajarish orqali o'qituvchilarning dars jarayonida va ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyatlari qanday rivojlanishi o'rganiladi.

Mantiqiy topshiriqlar o'qituvchilar kreativligini qanday rivojlantiradi?

Ushbu savol orqali mantiqiy tafakkurga asoslangan topshiriqlar o'qituvchilarning kreativ fikrlashini va yangi, innovatsion ta'lim uslublarini qo'llash qobiliyatlarini qanday kuchaytirishi tahlil qilinadi.

Mantiqiy topshiriqlar o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishda qanday yordam beradi?

Bu savol orqali mantiqiy topshiriqlarning o'qituvchilarning dars rejalashtirish va o'quvchilarga ta'lim berish uslubiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganiladi.

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi jarayonida mantiqiy topshiriqlarning o'rnini yanada kuchaytirish uchun qanday usullar qo'llash mumkin?

Ushbu savol orqali mantiqiy topshiriqlarni o'qituvchilarning o'qitish jarayonida yanada samarali qo'llash uchun qanday usullar va yondashuvlar kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Maqolaning maqsadi va ushbu asosiy savollar mantiqiy tafakkur va topshiriqlarning ta'limdagi ahamiyatini va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi o'rnini chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi.

Mantiqiy tafakkur va uning kasbiy rivojlanishdagi asosiy roli Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarning bilim va mahoratini oshirishda qanday ro‘l o'ynaydi. **Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarning bilim va mahoratini oshirishda** muhim rol o'ynaydi, chunki u o'qituvchilarga murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o'quvchilar ehtiyojlariga moslashish va ta'lim jarayonini samarali boshqarishda yordam beradi. Quyida mantiqiy tafakkurning o'qituvchilarning bilim va mahoratini oshirishdagi asosiy jihatlari keltirilgan:

Tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish. Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarga o'quv materiallarini chuqur tahlil qilish va tushunishni o'rganishga yordam beradi. O'qituvchi o'z dars mavzularini mantiqiy tahlil qilish orqali murakkab ma'lumotlarni sodda va tushunarli tarzda yetkazish qobiliyatini oshiradi. Bu qobiliyat nafaqat o'z bilimini chuqurlashtiradi, balki o'quvchilarning bilim olish jarayonini ham osonlashtiradi.

Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ta'lim jarayonida o'qituvchilar ko'pincha turli xil muammolarga duch keladi - o'quvchilarning darsdagi ishtiroki, tushunmovchiliklar, yoki ta'lim rejasiga o'zgarishlar kiritish zarurati kabi masalalar. Mantiqiy tafakkur orqali o'qituvchilar ushbu muammolarni hal qilishda tizimli yondashuvni qo'llaydi. O'z fikrlashlarini izchil va mantiqiy asosga qurish orqali ular eng samarali yechimlarni topishga muvaffaq bo'lishadi.

O'quvchilarning turli qobiliyatlariga moslashish. Har bir o'quvchi o'ziga xos o'quv uslubi va qobiliyatiga ega. Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarga har bir o'quvchining ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos ravishda ta'lim berishni tashkil qilishda yordam beradi. Mantiqiy tafakkur asosida tahlil qilish va ma'lumotni individuallashtirish o'qituvchilarga o'quvchilarning qobiliyatlarini yaxshiroq tushunishga va ularga mos ta'lim usullarini tanlashga yordam beradi. **Darslarni rejalashtirish va tashkil qilishni samarali qilish.** Mantiqiy tafakkur darslarni puxta rejalashtirish va tashkil qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi darsning maqsadlarini, materiallarni taqdim etish ketma-ketligini, va o'quvchilarning bilimlarini qanday baholash kerakligini aniqlash uchun mantiqiy fikrlash usullaridan foydalanadi. Bu esa dars jarayonini samarali va tizimli qilishga yordam beradi.

O'qituvchi pedagogik yondashuvlarini mustahkamlash. Mantiqiy tafakkur pedagogik usullarni izchil o'rganish va baholashga imkon beradi. O'qituvchilar o'quvchilarga qaysi usullar ko'proq foyda keltirayotganini tahlil qilish orqali ta'lim strategiyalarini optimallashtirishi mumkin. Bu esa ularning pedagogik

mahoratini oshiradi va yangi, samarali yondashuvlarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Muloqot va tushuntirish ko'nikmalarini yaxshilash. Mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan o'qituvchilar murakkab fikrlarni aniq, izchil va tushunarli tarzda yetkazish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Mantiqiy tafakkur orqali o'qituvchi murakkab masalalarni tizimli ravishda tushuntirib bera oladi, bu esa o'quvchilarning materialni tushunish darajasini oshiradi va ularning savol berish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Umuman olganda, mantiqiy tafakkur o'qituvchilarning bilim va mahoratini oshirishda muhim rol o'ynaydi, chunki u ularga nafaqat o'z bilimlarini chuqurlashtirish, balki o'quvchilarga ta'lim berishda samarali pedagogik yondashuvlarni qo'llash imkonini ham beradi.

Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda qanday yordam beradi. **Mantiqiy tafakkur** o'qituvchilarning **tanqidiy fikrlash qobiliyatini** rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki u o'qituvchilarni o'z fikrlari va qarorlarini chuqur tahlil qilishga, ma'lumotlarni izchil va asosli tahlil qilishga o'rgatadi. Tanqidiy fikrlash o'qituvchilarga o'z dars rejalari, metodologiyalari va o'quvchilarning ta'lim jarayonini yaxshiroq tushunish va baholashda yordam beradi. Quyida mantiqiy tafakkur tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda qanday yordam berishi haqida asosiy jihatlar keltirilgan:

Ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash qobiliyati. Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarga mavjud ma'lumotlarni ob'ektiv ravishda tahlil qilish va ular orasidan eng muhimlarini ajratib olishga yordam beradi. Bu orqali o'qituvchilar o'quv jarayonida mavjud bo'lgan muammolarni tahlil qilib, ularni chuqurroq tushunadi. Shuningdek, ular turli pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish orqali qaysi biri samaraliroq ekanini aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Ma'lumotlarning ishonchliligini baholash ham tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi.

Turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish. Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarga turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va ularni solishtirishda yordam beradi. Bu esa tanqidiy fikrlashning asosi hisoblanadi, chunki o'qituvchilar o'z qarorlarini turli faktlarga va yondashuvlarga asoslanib shakllantiradi. Masalan, o'qituvchi turli ta'lim metodlarini o'rganib, ularning afzallik va kamchiliklarini mantiqiy tahlil qilishi, bu esa tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Noto'g'ri mulohazalar va stereotiplarni aniqlash. Mantiqiy tafakkur noto'g'ri fikr va stereotiplarni aniqlash va ularni rad etish qobiliyatini kuchaytiradi. O'qituvchilar ta'limda ba'zida noto'g'ri yoki eskirgan yondashuvlar va fikrlar bilan duch keladilar. Mantiqiy tafakkur ularga bu xatoliklarni aniqlash va yangi, asosli yechimlar topishda yordam beradi. Tanqidiy fikrlash orqali o'qituvchilar

pedagogik qarorlarini ko'r-ko'rona qabul qilishdan saqlanib, ularni sinchkovlik bilan baholashadi.

Sabab va natijalarni chuqurroq tushunish – Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarga har bir qaror va harakatning sabab-natija bog'liqliklarini chuqur tushunishga imkon beradi. Bu esa dars jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar sabablar va oqibatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra olish orqali, o'z pedagogik amaliyotlarining qanday natijalarga olib kelishini oldindan bashorat qila oladilar va kerakli o'zgarishlar kiritish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Fikrlar izchilligi va xulosalar asoslanganligini ta'minlash. Tanqidiy fikrlash jarayonida izchil va asosli fikrlash talab etiladi. Mantiqiy tafakkur orqali o'qituvchilar har bir fikr va qarorni asoslashga harakat qilishadi. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi, chunki ular har bir qaror yoki yondashuvning mantiqiy asoslarini izlashadi. Bu usul o'qituvchilarni dars rejalashtirishda va turli ta'lim muammolarini hal qilishda aniq va izchil yondashuvlarni qo'llashga o'rgatadi.

Hujjatlar va dalillarni tahlil qilishda yordam berish – Mantiqiy tafakkur dalillarni to'g'ri talqin qilishga va ularni baholashda asosli bo'lishga o'rgatadi. Tanqidiy fikrlash esa faqat dalillarga asoslanadi. O'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatida ko'plab ma'lumotlar bilan ishlaydi — ta'lim natijalari, baholash tizimlari, o'quvchilarning rivojlanishi va boshqalar. Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarga ushbu ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, dalillarni to'g'ri tushunish va xulosalar chiqarishda yordam beradi.

Fikrlarni qayta ko'rib chiqish va yaxshilash qobiliyatini rivojlantirish. Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarga o'z fikr va qarorlarini qayta ko'rib chiqish va kerak bo'lsa, ularni yaxshilash qobiliyatini beradi. Tanqidiy fikrlash jarayonida o'qituvchilar yangi ma'lumotlarga yoki dalillarga asoslanib, o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishlari va moslashishlari lozim bo'ladi. Bu esa ularning dars berish uslublarini yanada takomillashtiradi va samarali qiladi.

Mantiqiy tafakkur o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki u ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, fikrlarni izchil asoslash va noto'g'ri qarorlarni aniqlash ko'nikmalarini oshiradi. Bu esa o'qituvchilarni pedagogik jarayonni yanada samarali va sifatli tashkil etishga imkon beradi, shuningdek, ularning kasbiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Mantiqiy topshiriqlarning muammolarni hal qilish qobiliyatiga ta'siri: O'qituvchilarning murakkab vaziyatlar va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishda mantiqiy topshiriqlar qanday yordam beradi. Real ta'lim vaziyatlarida

mantiqiy topshiriqlarni qo'llash tajribalari.Muammolarni hal qilishda mantiqiy tafakkurning kuchi va samaradorligi.

Mantiqiy topshiriqlar orqali kreativlikni rivojlantirish – Kreativlikning ta'limda, ayniqsa o'qituvchi faoliyatida ahamiyati. Mantiqiy topshiriqlar kreativ fikrlashni qanday rag'batlantiradi.

Amaliy misollar: mantiqiy topshiriqlar orqali innovatsion yechimlar ishlab chiqish.

Xulosa. Maqolada o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida mantiqiy tafakkur va mantiqiy topshiriqlarning ta'siri chuqur tahlil qilingan. O'qituvchilarning professional o'sishi, ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan yondashuvlarni ishlab chiqish va pedagogik strategiyalarni takomillashtirish mantiqiy fikrlash qobiliyatiga bog'liq. Mantiqiy tafakkur, o'qituvchilarga tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Maqolada ko'rsatilganidek, mantiqiy tafakkur o'qituvchilarga dars rejalashtirish, o'quv jarayonini kuzatish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llashda yordam beradi. Mantiqiy topshiriqlar esa o'qituvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, ijodkorlikni rivojlantiradi va dars jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Natijada, mantiqiy tafakkur o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlash orqali ularning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Ushbu maqola, o'qituvchilar uchun mantiqiy tafakkur va topshiriqlarni ta'lim jarayonida qanday qilib samarali qo'llashni o'rganish va rivojlantirishga yordam beruvchi muhim bilimlar va yondashuvlarni taqdim etadi. O'qituvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirishga va o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A. “Oliy ta’limda mantiqiy fikrlash qobiliyati o‘qitish metodikasi” moduli bo‘yicha o‘quv- uslubiy majmua. T.: -2022.

2. Abduqodirov A.A. “Metodikasi” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua oliy o‘quv yurtlarida pedagogklarni o‘qitish”.T.: -2016.

3. Rahimov B. “Bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy madaniy munosabatlarni shakllantirish”. Ph.D. diss. ilmiy daraja olish uchun.-T.: -2005.

4. Aripov M., Muhammadiyev M. Informatika, axborot texnologiyalari. Darslik. T.: TDYuI, 2004 yil.

5. Djurakulov R., Ismoilova N.I. “Sanoq sistemalari: aspektlar va o‘qitish”. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi ISSN: 2181-1776 Jild: 03 | Nashr: 04 | април 2022.

PEDAGOGIK MAHORATNI O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI

Shernafasova H.R.
Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Ro'zmetova F.A.
Urganch Ranch texnologiya universiteti o'qituvchisi

Tayanch so‘zlar: pedagogik faoliyat, madaniyat, aql-zakovat, bilim, ko‘nikma, malaka, mahorat.
Ключевые слова: педагогическая деятельность, культура, интеллект, знания, умение, компетентность, мастерство.
Key words: pedagogical activity, culture, intelligence, knowledge, skill, competence, mastery.

Резюме:
Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta’lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o‘qituvchilar mehnati faoliyatidir. Ushbu maqolada Pedagogning kasbiy mahorati uning o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida so‘z boradi.
Резюме:
Педагогическая деятельность – это работа специально подготовленных педагогов, несущих ответственность перед обществом и государством в целях подготовки молодого поколения к жизни и труду. В данной статье говорится о роли и значении профессиональных навыков учителя в его работе педагогом.
Summary:
Pedagogical activity is the work of specially trained teachers who are accountable to the society and the state in order to prepare the young generation for life and work. This article talks about the role and importance of the teacher's professional skills in his work as a teacher.

Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi “Pedagogik mahorat” tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, “Pedagogik ensiklopediya”da ta’rif quyidagicha izohlangan: “O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”. Ushbu ta’rifning mohiyatidan kelib chiqib o‘qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko‘rsatkichi.

2. O‘z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

4. O‘quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo‘ysunishi.

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda muka-mmal bilish.

3. Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish.

4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Barcha kasblar orasida o‘qituvchilik kasbi o‘zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me’mori, yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g‘oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb–hunar sirlarini puxta egallashlarida ko‘maklashadi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy–iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas’uliyat o‘qituvchidan o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo‘llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi. Buning uchun doimo o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko‘nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g‘amxo‘rlik qilish, zarur shart – sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy–metodik hamda texnik yordam ko‘rsatish, o‘qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko‘maklashish lozim.

Shunga asosan, ”Pedagogik mahorat” fani, mahoratli o‘qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi, o‘qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o‘rgatuvchi va uni takomillashtirish to‘g‘risida ma’lumotlar berib boruvchi fan bo‘lib, o‘qituvchilarda pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo‘llarini, vositalarini, shakllarini o‘rganadi.

Pedagogik mahorat o‘qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta’lim – tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma’naviy – ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq–atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o‘rgatadi va o‘z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to‘g‘risida ma’lumotlar

1-chizma.

beradi. Pedagogik mahorat o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta’lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o‘qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan o‘qituvchi ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo‘lib, o‘qituvchilarning faoliyat mezonini belgilab beradi. O‘qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning obyektlari bo‘lmish tarbiyalanuvchi insonga, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhiga hamda alohida o‘quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari ota-onalar, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas’uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta’lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. O‘qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya’ni egallagan bilimlarini o‘zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog‘lik qo‘llay bilishi bilan belgilanadi.

O‘qituvchilarning pedagogik faoliyati samarali bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko‘ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan har xil ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish, o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Mazkur fanning mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish uchun o‘quv – tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik–psixologik ta’limot nuqtai – nazaridan yondashish, ta’lim – tarbiyani milliy an’analarimiz ruhida zamonaviy metodlar asosida modellashtirish, o‘quv – tarbiyaviy jarayonda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun o‘qituvchi mahoratining zarurligi haqidagi ma’lumotlar va ularni takomillashtirish tizimlari o‘rin olgan.

Shunga ko‘ra, “Pedagogik mahorat” fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o‘qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko‘nikma

va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to‘g‘risida ma’lumotlar berib boradi.

Bu maqsad bo‘lajak o’qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.

2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta’lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilar milliy urf-odat va an’analarimizda va O‘rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o‘zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.

4. Egallangan pedagogik–psixologik va metodik bilimlar, ko‘nikma va malakalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida har bir bo‘lajak o’qituvchi o‘zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.

5. O‘quv–tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so‘nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o‘zlashtiradilar.

6. O‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy–ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.

7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to‘g‘risida o‘qituvchilar uzluksiz ma’lumotlarni o‘rganib boradilar.

8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari erkin foydalanish asosida o‘z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o‘qituvchilar va tarbiyachilarni zamon bilan hamnafas bo‘lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko’ra olishga o‘rgatadi. Har bir o‘qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o‘z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o‘rgatadi, hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo‘lishni tarbiyalaydi.

Adabiyotlar:

1. Nurullayeva Sh.“Pedagogik mahorat” kursidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasi metodik qo‘llanma.-Qarshi.: Nasaf, 2011

2. Podlasiy I.P. Pedagogika. I-II t. –M.: Vlados, 1999.

3. Pedagogika nazariyasi. (Ma’ruzalar matni). Mualliflar: H.Sariboev, J.Hasanboev, M.Usmanbaeva. TDPU, 2004 y.

4. Sattarov M. O‘zbek udumlari (Millatning kenja bo‘g‘iniga). –T.: Fan, 1994.

5. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T.: Moliya, 2003.

UMUMTA'LIM MAKTABLARI GEOGRAFIYA TA'LIMIDA MEDIATA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mirzayeva L.E.
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
"Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

Tayach so'zlar: ta'lim tizimi, innovatsion texnologiyalar, mediata'lim texnologiyalari, mediata'lim resurslari, geografiya ta'limi, axborotlarni tushunish va yoritish, audiovizual vositalar, pedagogik shart-sharoitlar, kommunikativ salohiyatlar, eksperiment.
Ключевые слова: образовательная система, инновационные технологии, медиаобразовательные технологии, медиаобразовательные ресурсы, географическое образование, понимание и освещение информации, аудиовизуальные средства, педагогические условия, коммуникативный потенциал, эксперимент.
Key words: educational system, innovative technologies, media education technologies, media education resources, geography education, information understanding and coverage, audiovisual tools, pedagogical conditions, communicative potentials, experiment.

Резюме:
Ushbu maqolada ta'lim tizimini zamonaviy ta'lim taxnologiyalari va vositalari asosida tashkil etish hamda yuqori samaradorlikka erishish masalalari yoritilgan. Shuningdek, media tushunchasi, uning tarixi, mediata'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalar, umumta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitishni mediata'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish, o'quvchilarning mediasavodxonligini rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan.
Резюме:
В данной статье рассматриваются вопросы организатsии образовательной системы на основе современных образовательных технологий и инструментов и достижения высокой эффективности. Также освещены понятие медиа, его история, зарубежный опыт использования медиаобразовательных технологий, совершенствование преподавания географии в общеобразовательных школах на основе медиаобразовательных технологий, педагогические основы развития медиаграмотности учащихся.
Summary:
This article covers the issues of organizing the educational system based on modern educational technologies and tools and achieving high efficiency. Also, the concept of media, its history, foreign experiences on the use of media education technologies, improvement of geography teaching in secondary schools on the basis of media education technologies, and the pedagogical foundations of developing students' media literacy are covered.

Kirish. Mamlakatimizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin olish uchun ma’naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimizning erkin, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, ularning bilim salohiyatlarini jahon andozalariga mos ravishda oshirish hamda kelajakda xalqimizga astoyidil xizmat qiladigan kasb egasi bo‘lib yetishishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Mamlakatimizda yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ham ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi ham takomillashtirildi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5099-son Farmoni ham axborot kommunikasiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari ko‘rsatishning barcha sohalariga joriy etish, axborot xizmatlarini ilgari surish, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish va amalga oshirish, xalq bilan muloqot qilish hamda aholining kundalik muammolarini joylarda o‘z vaqtida hal qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, axborot texnologiyalarining raqobatdosh, shu bilan birga yuqori unumdorlikka ega tarmog‘ini shakllantirish uchun mamlakatning fanda ta’lim sohasidagi salohiyatidan etarli darajada foydalanish, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda xalqaro axborot kommunikasion texnologiyalari (AKT) bozoridagi o‘rnini kuchaytirish borasidagi ustuvor vazifalarga muvofiq holda malakali kadrlar tayyorlash mazmunini qaytadan ko‘rib chiqish, xalqaro standartlarga javob beradigan oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun lozim bo‘lgan shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida to‘xtalgan [2]. Bundan ko’rinib turibdiki, yoshlarimizni hayotda o’z o’rinlarini topishlari uchun ularga chuqur bilim, fan materiallari bo’yicha ularda hayotiy ko’nikmalarni shakllantirish lozim bo’ladi. Bu kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish ta’lim tizimi oldiga ulkan mas’uliyatni yuklaydi.

Asosiy qism. Ta’lim jarayonlarining sifat-samaradorligini oshirish va belgilangan maqsadga erishishda ta’lim jarayonlarida innovatsion, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Bu o‘rinda ta’lim jarayonlarida mediyatexnologiyalardan foydalanish muhim o‘rinni egallaydi. Media atamasi lotinchada “medium”, ya’ni vosita, usul degan ma’nolarni anglatib, turli ko‘rinishdagi kommunikasiya va axborot vositasini bildiradi. A.A.Jurinning fikriga ko‘ra “media” – lotincha “media”

so‘zidan olingan bo‘lib, “vosita”, “vositachi”, yanada aniqrog‘i, “ommaviy axborot vositalari” degan ma’nolarni anglatadi [3]. Shuningdek, u mediata’lim tushunchasini quyidagicha izohlaydi:

Mediata’lim – bu: a) pedagogik fan bo‘lib, u – ommaviy axborot vositalari (OAV)ning bolalar va o‘smirlarga ta’sirini o‘rganadi va ta’lim oluvchilarni OAV dunyosi bilan tanishtirishga tayyorlashning nazariy masalalarini ishlab chiqish; b) o‘qituvchi va o‘quvchilarning amaliy hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, bolalar va o‘smirlarni OAVdan foydalanishga, OAVning madaniyatdagi roli va dunyoni qabul qilishga tayyorlash; v) ta’lim sohasi – uning mazmuni – OAVning madaniyatdagi roli, dunyoni qabul qilishi haqida bilimlar va OAV axborotlari bilan samarali ishlash.

Mediata’lim tushunchasi esa fransuz tilida – “edukationauxmedias”, nemis tilida – “mediadidaktik”, ingliz tilida – “media education” tushunchalari bilan mos keladi. Demak, media - ta’lim jarayonlarini vizual materiallar yordamida tashkil etilishiga, ta’limning sifatli olib borilishiga va ta’lim oluvchilarning yuqori o‘zlashtirishga erishishlariga xizmat qiladi.

Ya.Mamatova va S.Sulaymanovalarning fikricha hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta’siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy medialarning asosiy jihatlari sirasiga tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovasiyalarni kiritmoqdalar [4]. Aksariyat adabiyotlarda media tushunchasiga bir qancha tavsiflar berilganini aytish mumkin. “Media – ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo‘naltirilgan ko‘p sonli hamda serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikasiya kanallaridir” [5]. Ya’ni mutaxassislar media atamasi o‘zagida aynan ushbu tavsifni ko‘radi.

Medianing ilk turlari ancha oldin paydo bo‘lganiga qaramay, XX asrning 50-60-yillarida mediadan ta’lim jarayonida foydalanish masalalari tadqiqotchilar e’tiborini tortgan. Mediata’lim medianing barcha turlari (ovozli, bosma, ekranli, grafik, va boshqalar) turli xil texnologiyalar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u insonlarga ommaviy kommunikasiyalardan ijtimoiy ongda qanday foydalanishni tushunish, boshqa odamlar bilan kommunikasiya vaqtida mediadan foydalanish ko‘nikmasini o‘zlashtirish kabi bilimlarni beradi.

Dunyoning ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlarida mediata’lim bo‘yicha tajribalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Buyuk Britaniyada mediatexnologiyalar ta’lim jarayoni masalalari bilan shug‘ullanuvchi bir nechta tashkilotlar tuzilgan bo‘lib, ularning ichida 1933-yilda tashkil etilgan Britaniya kinoinstituti

(British Film Institute - BFI) ning alohida ko‘rsatish mumkin. Sababi, tashkilot tarkibidagi o‘qituvchilar uchun mediakurslar, seminar va konferensiyalar tashkil etishga ixtisoslashgan, shuningdek, ta’limda mediatexnologiyalarni qo‘llashga oid tadqiqotlar o‘tkazilgan, aynan pedagoglar uchun adabiyotlar, xususan, o‘quv qo‘llanmalar, uslubiy tavsiyanomalar nashr ettirildi. Ta’lim jarayonlarida mediatexnologiyalardan foydalanish tarixining xorijiy tajribalarini o‘rganish natijalari shundan dalolat beradiki, 1988-1989 yillarda mediatexnologiyalar yordamida o‘qitish ta’lim jarayonida birinchi marta Angliya va Uelsning milliy o‘quv rejasi tarkibiga kiritilgan.

Natijada, mediatexnologiyalarni boshqa fanlarga ham qo‘llash imkoniyatlari paydo bo‘ldi. XX asrning 50-yillarida Belgiyada ham ta’lim jarayonlari mediatexnologiyalar asosida tashkil etila boshlangan. 1961 yilda Leven katolik universiteta professori J.M.Peters YuNESKO uchun tayyorlagan materialida kinota’lim tanqidiy tafakkur, estetik tarbiya, so‘zsiz hayotiy tajriba, tahliliy qobiliyatni oshirishga yordam berishini ta’kidlagan. Ushbu davlatda ham mediatexnologiyaga oid ta’lim jaryoni boshqa davlatlarga o‘xshash holatda taraqqiy etdi. Xususan, 1970-yillar boshlarida “Ta’lim jarayonida audiovizual vositalar metodik inspeksiyasi” xizmati paydo bo‘ldi. 1975 yillarda esa Lejda “Audiovizual markaz” o‘z faoliyatini boshladi. Buyuk Britaniya mediatexnologiyalarning ta’lim paradigmalari Belgiya ta’lim tizimiga tizimiga ham keng joriy etila boshladi.

Mediatexnologik ta’limning kalit so‘zlari ikkala davlatda bir-biriga yaqin va o‘xshash. Germaniyada esa ushbu mamlakatlardan farqli o‘laroq mediatexnologiyaga asoslangan ta’lim birmuncha sekin sur’atlarda rivojlandi. XX asrning 60-yillarida nemis pedagoglari mediaga o‘qitishning maxsus texnik vositasi sifatida qarashadi [6]. Keyinchalik mediatexnologiyalar Germaniyada ham ta’lim jarayonlariga aniq fanlar bilan integrallashtirgan holda olib borildi. Bunda geografiya, san’at, ijtimoiy fanlar va boshqa fanlar bilan uyg‘unlashgan holda o‘qitila boshlandi. Ba’zi nemis pedagoglarining mediata’lim borasidagi fikrlariga ko‘ra, mediatexnologik ta’lim - talabalarni mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirishga xizmat qiladi. Germaniya universitetlarida ham mediatexnologiyalar ta’lim jarayonlarining asosiy qismida o‘rganiladi. Aytish joizki, hozirgi vaqtda mediatexnologiyalarni ta’lim jarayonlarida o‘rgatuvchi alohida ilmiy-tadqiqot institutlari ham mavjud.

Muhokama va natijalar. Shveysariya ta’limiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu mamlakatda mediatexnologik ta’lim nemis va fransuz mediapedagogikasi ta’sirida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Bizga ma’lumki, Shveysariya ko‘p millatli mamlakat hisoblanib, 64% dan ortiq shveysariyaliklar nemis, 19%

dan ortiq aholisi fransuz tilida so‘zlashishadi. XX asrning 50-60-yillariga kelib Shveysariya maktablarida ham mediata’limni yo‘lga qo‘yishning aniq standartlari ishlab chiqildi. Shveysariya gimnaziyalarida XX asr oxirlariga kelib mediata’lim mustaqil fan sifatida ham joriy etila boshladi. Unda o‘qitishning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirish masalalari ustuvorlik qiladi.

AQShda ham ta’lim tizimida mediatexnologiyalardan foydalanishni keng joriy etish maqsadida bir nechta assotsiasiyalar tashkil etilgan bo‘lib, ularga Los-Anjelesdagi Mediasavodxonlik markazi(Senter for Media Literacy), Vashington, Nyu-Yorkdagi “Ta’lim videomarkazi” (Educational Video Center), Nyu-Meksikadagi “Mediata’lim markazi” (Center for Media Education), San Fransiskodagi “Mediasavodxonlik bo‘yicha strategiya” (Strategies for Media Literacy) assotsiasiyasi, Shimoliy Karolinadagi “Mediasavodxonlik ortidagi fuqaro” harakati, va Milliy alyans mediasan’ati va madaniyati (National Alliance for Media Arts and Culture) va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Professor A.V.Fedorov zamonaviy dunyodagi mediata’limni ommaviy axborot bilan muloqot madaniyatini takomillashtirish maqsadida mediamatnni to‘liq idrok qilish, tahlil va talqin qilish, baholash, kommunikativ salohiyatlar, ijodiy, tanqidiy tafakkur, mediatexnika yordamida o‘zini namoyon etishning turli xil shakllariga o‘qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya (media) materiallari va vositalari va yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ko‘radi [6].

B.A.Iskakov ham o‘zining resurs markazi sharoitida o‘qituvchilarning mediakompetentlik darajasini rivojlantirish bo‘yicha yozilgan tadqiqot ishida “o‘qituvchining mediakompetentligi” tushunchasiga ta’rif bergan. Bu tushuncha shaxsiy tuzilma sifatida, o‘qituvchining mediatexnologiya vositalaridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatini kompetent va sermahsul olib borish qobiliyatida o‘z ifodasini topadi [7]. Bunday faoliyat o‘qituvchini ochiq ta’limiy mediamakonda kasbiy o‘zini o‘zi realizatsiyalashga yo‘naltirish, mediatexnologiyalar mohiyatini anglashga ko‘maklashish, yaxlit pedagogik jarayonda ularni realizatsiyalash metodikasi bilan qurollantirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda umumta’lim maktablarida geografiya ta’limi jarayonlarini mediatexnologiya vositalari yordamida tashkil etishning bir qancha ijobiy tomonlari mavjud. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin [8]: - o‘quvchilarning axborotlarni oson qabul qilish va ulardan amaliyotda foydalanish malakalari rivojlanadi; - vizual ko‘rinishdagi verbal nusxalarni loyihalash layoqati va ko‘nikmalari shakllanadi; - pedagogik faoliyatida axborotlarni o‘ziga xos tushunish va foydalanish imkoniyatlari kengayadi; - global internet tarmog‘ida

erkin muloqotni amalga oshirish imkoniyati oshadi; - mediavositalar orqali o‘quvchilarning o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirish, mustahkamlash, takrorlash, topshiriqlarni erkin bajara olish imkoniyati mavjud; - o‘quvchilarning zamonaviy axborot ta’lim resurslaridan samarali foydalanishi ularning axborot savodxonligining rivojlanishiga erishiladi; - geografiya fanidan yaratilgan elektron darsliklar, videodarslar va virtual laboratoriya mashg‘ulotlari yordamida fanga doir har qanday murakkab hodisa yoki jarayonni kuzatish, bajarish imkoni bo‘lmagan tajribalarni ko‘rsatish hamda tushuntirish mumkin bo‘ladi; - geografiya fanidan qiziqarli interaktiv dars va laboratoriya topshiriqlarini uy sharoitida ham mustaqil o‘tkazish imkoniyati yaratiladi; - virtual laboratoriya ishlarini ta’lim jarayonlarini yanada qiziqarliroq va yangiliklarga boy tarzda tashkil etishda qo‘shimcha material sifatida namoyish etish mumkin.

Ammo, olib borilgan izlanishlar natijasida umumta’lim maktablarida geografiya ta’limi amaliyotining tahliliy natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu fanni o‘qitishda quyidagi muammolar mavjud:

- ta’lim muassasalarida geografiya fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va olib borish uchun laboratoriya jihozlarining etishmasligi, mavjudlari ham talabga javob bermasligi;
- fan o‘qituvchilari tomonidan dars jarayonlarida mavjud laboratoriya jihozlaridan (agar mavjud bo‘lsa) unumli foydalanilmaslik;
- fan bo‘yicha mediatexnologiyalardan samarali foydalanmaslik;
- mavzularga doir elektron axborot ta’lim resurslari (elektron darsliklar, videodarslar, mobil ilovalar, multimedia ilovalari, taqdimotlar va b.)ning yetarli darajada yaratilmaganligi;
- geografiya xonalarining etishmasligi;
- o‘qituvchilarning mediata’lim, mediaresurs va mediasavodxonlik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini to‘liq tushunmasligi;
- zamonaviy o‘quv vositalaridan foydalanilmaslik [9].

Xulosa. O‘quvchilarning mediasavodxonlik darajalarini oshirishda ta’lim tushunchalarining yangi qirralarini, ya’ni o‘qish va o‘qitish jarayonida voqeliklarning yangi ko‘rinishlari va qo‘shimcha materialni yuzaga keltiradi. O‘qish jarayoni asosan mustaqil ta’lim bilan bog‘liq. Sababi, o‘quvchilar aynan mustaqil ta’lim jaryonida mediatexnologiyalardan foydalanish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Ta’lim-tarbiya jarayonlarida ta’limiy mediatexnologiyalardan foydalanish bo‘yicha eksperimentni tashkil etishda hisobga olingan bu holat zamonaviy mediata’limning eng muhim yo‘nalishi - texnik va tabiiy madaniyatlarning zamonaviy tendensiyasi doirasida amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida bugungi kunda umumta’lim maktablari geografiya ta’limiga mediata’lim texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha quyidagilarga alohida ahamiyat qaratish lozim [10]: - ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rekonstruksiya qilish, ta’mirlash, fanlarni o‘qitishga oid yangi innovatsion asbob-uskunalarni ta’lim-tarbiya amaliyotiga joriy qilish; - zamonaviy innovatsion va pedagogik hamda mediatexnologiyalar vositasida ta’lim berishni anglagan metodik kvalifikatsiya va zamonaviy bilim, ko‘nikmaga ega, zamon bilan raqobatlasha oladigan kadrlar bilan ta’lim jarayonlarini samaradorligini ta’minlash, fanlar mazmunini qayta ko‘rib chiqish, takomillashtirish va zamon talablari darajasiga ko‘tarish; - o‘quvchilarda geografiya fanini mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-metodik ta’minotining ta’limiy mazmunini ilmiy texnik rivojlantirish va boshqalar.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

2. Мусатаева И. С. Методика разработки и исползования средств информационно-коммуникационных технологий для формирования геометрической компетентности учащихся основной школы // Диссертация. – Алма-Аты, 2008. –227 с.

3. Зимняя И. А. Педагогическая психология: учебник для студентов высщих учебных заведений, обучающихся по педагогическим и психологическим направлениям и специалностям / И. А. Зимняя. - Изд. 2-йе, доп., испр. и перераб. - Москва : Университетская книга. Логос, 2008 г. - 382 с.

4. Журин А.А. Интегривонное медиаобразование в средней школе. – Москва: Бином, 2013. – С. 405.

5. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. – T.: Extremum-press, 2015. – 140 b. 60-64-b.

6. Федоров А.В. Развитие медиакомпетенности и критического мышления студентов педагогического вуза. МОО ВПП ЮНЕСКО Информация для всех. 2007. – 616 с.

7. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. – T.: Extremum-press, 2015. – 140 b. 60-64-b.

8. Mirzayeva L.E., Creation of electronic textbooks of geography and the requirements applied to them // Scientific research journal ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023 Ispaniya P. 1-6.

9. Mirzayeva L.E. Methodology of creating electronic tests in geography science in ispring quiz maker software// International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research/ Hosted online froom Cambridge, London., 2023. P. 120-126.

10. Mirzayeva L.E. Fanlarni o‘qitishda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish// Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi, Toshkent amaliy fanlar universiteti xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya “XXI asr fanlarida nazariy qonuniyatlardan foydalanishning amaliy muammolari va yechimlari” 2024 yil, 6-8 may.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Haytbayeva S. R.
Xalqaro Nordik universiteti
"Pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi., p.f.f.d (PhD)

Tayanch so'zlar: mustaqil ta'lim, mustaqil ish, mustaqil o'quv faollik, talabalar, ijodkorlik, optimal o'quv jarayoni, ta'lim olish texnologiyasi, amaliy darslar, o'quv jarayonlari, kompetensiya, o'quv materiallari.
Ключевые слова: самостоятельное обучение, самостоятельная работа, самостоятельная учебная деятельность, обучающиеся, творчество, оптимальный учебный процесс, образовательная технология, практические занятия, образовательные процессы, компетентность, учебные материалы.
Key words: independent education, independent work, independent educational activity, students, creativity, optimal educational process, educational technology, practical lessons, educational processes, competence, educational materials.

Резюме:
Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish, ularning mustaqil o'quv faolligini oshirish hamda mustaqil ta'limni tashkil etishning talabalar uchun yaratadigan imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, fanning amaliy darslarida talabalarni mustaqil ta'lim olish faoliyatiga yo'naltirishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar, mustaqil ishlarning asosiy vazifalari hamda ularni tashkil etish bosqichlariga aniqlik kiritilgan.
Резюме:
В данной статье освещены эффективная организация самостоятельной работы студентов в высших учебных заведениях, повышение их самостоятельной учебной активности, а также возможности, создаваемые организацией самостоятельного обучения студентов. Также на практических уроках науки уточняются аспекты, на которые следует обратить внимание, основные задачи самостоятельной работы, этапы их организации.
Summary:
In this article, the effective organization of independent work of students in higher education institutions, increasing their independent educational activity, and the opportunities created by the organization of independent education for students are highlighted. Also, in the practical lessons of science, the aspects that should be paid attention to, the main tasks of independent work, and the stages of their organization are clarified.

Bugungi kunda Oliy ta'lim tizimi rivojlanishining global tendentsiyalarida talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish va yuqori ta'lim

samaradorligiga erirshishga bo‘lgan e'tiborning oshishi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan, ta'lim jarayonida kompetentsiyaviy yondashuvga o'tish, talabalarning mustaqil ishlash ko'nikma va malakalari tizimini shakllantirish, ularning mustaqil faoliyati madaniyatini tarbiyalash zarurligi namoyon bo‘lmoqda.

Mustaqil ta’lim - talabalarning auditoriyada va undan tashqari ishlarda o'qituvchining bevosita ishtirokisiz individual va guruhli faoliyatining har xil turlaridir. Bunda asosiy maqsad talabalarning hayotiy vazifalarni hal qilish jarayonida mustaqil ravishda faoliyat olib borish, suhbatga kirishish, yangi, nostandart usullarni izlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Talabalarning mustaqil o‘quv faolligini shakllantirishning yagona usuli, ularning mustaqil o‘quv faoliyat bilan shug‘ullanishlarini tashkil etish va boshqarish hisoblanadi. Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish uzluksiz va uzviy amalga oshirilshi lozim. Bizningcha, bu yo‘nalishda yuqori natijaga erishish ta’lim jarayonida, xususan ma’ruza va amaliy, seminar mashg‘ulotlarida talabalarda o‘rganilgan o‘quv materialini mustahkamlashga qiziqish (motiv) hosil qilish, o‘quv axborotlari sig‘imini darslik va qo‘shimcha adabiyotlardan mustaqil holda o‘qish asosida kengaytirishga ishtiyoq hosil qilishga asoslanadi.

Shuningdek, mustaqil ta’lim talabalarni ijodkorlik va o’z-o’zini rivojlantirishga undash uchun haqiqiy imkoniyat yaratib, bunda pagogik kompetensiyalarni talabalarning kasbiy kompetensiyalari bilan o’zaro bog'lash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o’quv fanlarining mazmuni ham, o’qitishning tashkiliy shakllari ham qayta ko'rib chiqilishi va yangilanishi kerak. Bu ko'p jihatdan talabalarning mustaqil ishini tashkil etish bilan bog'liqdir.

Mustaqil ta’lim olish o‘quv – tarbiya jarayoniga tayanadi. Optimal o‘quv jarayonida talabalarda mustaqillik, erkinlik va ijodkorlik yaxshi rivojlanadi. Aytish joizki, har qanday ta’lim oluvchi mustaqil ta’lim materiallaridan yaxshi foydalanishni bilavermaydi. Shu bois, o‘qituvchi mazkur faoliyatda quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirishi talab etiladi: qisqa muddat ichida ta’lim oluvchini o‘tilgan dars mazmuni va vazifalarni mustaqil tushunishga o‘rgatish hamda zaruriy axborotni tanlay bilish, baholash, taqqoslash, tahlil etish, muammoli vaziyatni hal etish ko’nikmalarini rivojlantirish.

Mustaqil ta’lim olish texnologiyasini yaratish bir necha alohida muammolarni hal etishni ko‘zda tutadi. Ta’lim olish talabalarning umumiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilsa, mustaqil ta’lim olishning maqsadi professional shakllanish va kasbiy mahoratini oshirish hisoblanadi.

Ta'limni modernizatsiya qilish konsepsiyasiga muvofiq, zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi - bu inson faoliyatining turli sohalarida muammo

va vazifalarni hal etish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishdir. Ushbu fazilatlarni shakllantirishda talabalarning mustaqil ishlariga alohida ahamiyat berish zarur. Bugungi kunda talabalarni passiv bilim iste'molchisidan muammoni qanday shakllantirish, uni hal qilish usullarini tahlil qilish va optimal natijani topishni biladigan faol ijodkorga o'tkazish zarurati ham mavjud bo‘lib, talabalarning bilim va ijodiy faoliyatining faolligi darajasi, shuningdek o'quv jarayonining samaradorligi hamda mustaqil ishlarini maqsadga muvofiq tashkil etish bilan belgilanadi. Hech kimga sir emaski, an’anaviy ta’lim shakllari bilan mustaqil ishlarning tizimli xususiyati faqat oz sonli talabalarda kuzatiladi. Bu esa, avvalo, talabalarning mustaqil ishlarni bajarish etish uchun yetarli darajada tayyor emasligi bilan izohlash mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlari auditoriya va undan tashqariga amalga oshiriladi. Seminar yoki amaliy mashg'ulotlar davomida har xil nazorat turlari, ijodiy va amaliy vazifalar auditoriyaning mustaqil ishlashiga olib keladi. Auditoriyadan tashqari mustaqil ish an'anaviy ravishda yozma uy ishlarini bajarish, amaliy mashg'ulotlarda ilgari eshitilgan ma'ruza materiallarini tahlil qilishga tayyorgarlik, ma'ruza tayyorlash, kurs ishi va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Fanning amaliy darslarida talabalarni mustaqil ta’lim olish faoliyatiga yo‘naltirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1. Fanning amaliy darslarida talabalarga qisqa muddatli mustaqil mavzuga doir ishlarni bajartirish orqali ularni mustaqil ta’lim olish faoliyatga yo‘naltirish berib boriladi.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarga beriladigan mustaqil ishlar oliy ta’lim dasturiga muvofiq holda tuzilib, fanni o‘qitish metodikasidan olinadigan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashi, chuqurlashtirishi nazarda tutiladi.

4. Mustaqil ish topshiriqlari talabalarning qobiliyatiga mos, ular diqqatini tortadigan, qiziqtiradigan qilib tanlanadi.

5. Mustaqil ishlarni talabalarga berishdan oldin o‘qituvchi uni qanday bajarish kerakligi to‘g‘risida bosqichma-bosqich uslubiy ko‘rsatma berib boradi.

6. O‘qituvchi talabalarning mustaqil ishlari natijalarini ko‘rib, xatolarini to‘g‘rilashi, mumkin qadar baholashi, ishni o‘z vaqtida bajargan talabalarni rag‘batlantirib borishi lozim.

Oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan o'quv jarayonlaridagi mustaqil ishlar quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

- talabalarning auditoriya va undan tashqari mashg'ulotlar davomida olgan bilim, ko'nikmalarini mustahkamlash va kengaytirish, ularning aqliy va jismoniy faoliyat stereotiplariga aylantirish;

- o'quv dasturining fanlari bo'yicha qo'shimcha bilim va ko'nikmalarni egallash;

- tadqiqot faoliyati bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;

- ta'lim dasturini sifatli rivojlantirishga yo'nalish va munosabatni rivojlantirish;

- o'z-o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- fikr mustaqilligini, o'z-o'zini rivojlantirish, takomillashtirish va anglash qobiliyatini shakllantirish;

- mustaqil nazariy, amaliy va o'quv-tadqiqot faoliyati uchun ko'nikmalarni rivojlantirish va boshqalar.

Odatda mustaqil ishlar quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Namuna bo'yicha mustaqil ishlar (quyi bosqich) – ular o'qituvchi tomonidan ilgari namoyish qilingan va avvalgi topshiriqlarni bajarishda talabalar tomonidan sinovdan o'tgan "o'ziga xos algoritmlar" asosida amalga oshiriladi.

2. Rekonstruktiv-o'zgaruvchan tipdagi mustaqil ish - mustaqil ishning o'rta darajasi. Bu talabalarga bilimlarni tipik vaziyatlarga mazmunli o'tkazishga imkon beradi, voqealar, hodisalar, faktlarni tahlil qilishni o'rgatadi, talabalarning aqliy faoliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, bilim faoliyati texnikasi va usullarini shakllantiradi.

3. Evristik mustaqil ish – mustaqil ishning rivojlangan darajasi. Talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu turdagi ishlarni bajarishda doimiy ravishda yangi yechimlarni izlash, olingan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, ularni umuman nostandart vaziyatlarga o'tkazish amalga oshiriladi.

4. Fan ichidagi va fanlararo tadqiqot – mustaqil ishning yuqori darajasi bo'lib, bunday mustaqil ishlarni bajarish uchun talabalar bilimlarni va muammolarni hal qilish usullarini o'zgartirishi va uzatishi, mustaqil ravishda hal qilishning yangi usullarini ishlab chiqishi, mazmuni, maqsadini belgilashi va o'quv muammosini hal qilish rejasini tuzishi kerak bo'ladi. Ushbu turdagi mustaqil ishlar odatda kognitiv vazifalarni o'z ichiga oladi. Ya'ni, g'ayrioddiy vaziyatlarni tahlil qilish; ushbu vaziyatlarda yuzaga keladigan ta'lim muammolarining xarakterli belgilarini aniqlash; ushbu muammolarni hal qilish

yo'llarini izlash; ma’lum bo’lgan usullardan eng samaralilarini tanlash, ularni o’quv sharoitlariga mos ravishda o'zgartirish kabi amallar talab qilinadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, turli darajadagi mustaqil ishlarni samarali amalga oshirish uchun talabalar har xil turdagi ta'lim muammolarini hal qilishda barqaror faoliyat uslublariga ega bo'lishi kerak. Avvalo, talabalar taqqoslash, fanlararo aloqalarni o'rnatish, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish, qayta ishlash va boshqa shu kabi amallarni bajara olishi lozim. Ta’lim jarayonida mustaqil ishni faollashtirish - yangi ta’lim maqsadlariga erishishda uning rolini sezilarli darajada oshirish, unga muammoli xususiyat berish, sub’ektlarni umumiy va kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida qarashga undashdir.

Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish, ularning mustaqil bilim olish faolligini oshirish ularning ijobiy o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish uchun kognitiv faoliyat mazmuni, shakllari, usullari, usullarini takomillashtirishni o‘z ichiga olgan maqsadli talabaning o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyati sifatida qaraladi.

Adabiyotlar:

1. Иванов Д.А., Тубельский А. Н. Разработка концептуальных оснований трансляции и освоения нетрадиционного педагогического опыта на базе экспериментальных площадок // Вопр. методологии. 1992. № 1–2.

2. Larisa Alexandrovna Darinskaya “Technologies of Organization of Students' Independent Work in Studying Pedagogical Disciplines at Classic Universities”. Modern Technologies for Teaching and Learning in Socio-Humanitarian Disciplines 2019.

3. Haytbayeva S.R. Ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondoshuvni joriy etishning pedagogik jihatlari // “Ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondoshuvni joriyetishning pedagogik jihatlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. -Toshkent, 2013 y. -B. 123-125.

4. Saparov K.A., Haytbayeva S.R. Biologiya ta’limiga kompetensiyaviy yondoshuvni joriy etish va ta’lim jarayonini optimallashtirishda elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish metodikasi. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi mavzusidagi №14-sonli respublikasi ko’p tarmoqli, ilmiy konferensiya. - Toshkent, 2013 y. -B. 123-125.

5. Saparov K.A., Haytbaeva S.R. Modern approaches and innovative technologies in biology EDUCATION // International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research. New York, USA, 2024. – pp. 9-15.

6. Гречухиной Т.И., Меренкова А.В. “Самостоятельная работа студентов: виды, формы, критерии оценки”. Екатеринбург 2016.

7. Жук А.И., Кошель Н.Н. Активные методы обучения в системе повышения квалификации педагогов: учеб.-метод. пособие. 2-е изд. Минск : Аверсэв, 2004. 336 с.

8. Нишоналиев У.Н. Янги педагогик ва ахборот технологиялари: муаммолар, ечимлар // Педагогик таълим. – Тошкент, 2001. – № 3.

9. Буга П., Карпов Б. Технология обучения в высшей школе // Вестник высшей школы. – 1991. – № 11. – С. 19.

SINF RAHBARI O‘QUVCHILARNING BIRINCHI TARBIYACHISI VA MURABBIYSI

Ismoilova D. M.
ChDPU katta o‘qituvchisi

Tayanch so’zlar: axloq, tarbiya, o‘quv, individual-psixik, sinf rahbari, g‘oya, o‘quvchi, insonparvarlik, tarbiyachi, nazokat, diqqat, maqsad, ong, kommunikativ, bilim, qobiliyat, temperament, pedagogik odob, ijtimoiy.
Ключевые слова: мораль, воспитание, обучение, индивидуально-психическое, классный руководитель, идея, ученик, гуманность, воспитатель, женственность, внимание, цель, сознание, коммуникативное, знания, способности, темперамент, педагогический этикет, социальное.
Key words: morality, education, education, individual mental, class teacher, idea, student, humanitarian, educator, tenderness, attention, goal, consciousness, communicative, knowledge, abilities, temperament, pedagogical etiquette, social.

Резюме:
Maqolada sinf rahbarining pedagogik odob talablariga rioya qilishi, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo‘lish, o‘z malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talablari yoritilgan.
Резюме:
В стате описаны требования к руководителю класса соблюдат требования педагогического этикета, уважат личност каждого ребенка как человека и не забывать о требованиях к нему, обладат организаторскими способностями, постоянно совершенствовается. свои навыки и творчески подходит к работе.
Summary:
The article describes the requirements for the class leader to comply with the requirements of pedagogical etiquette, respect the personality of each child as a person and not forget about the requirements for him, have organizational skills, and constantly improve. your skills and a creative approach to work.

Hozirgi vaqtda maktab va uydagi o‘quv-tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga katta vazifalar qo‘ymoqda. Maktab yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirish, g‘oyaviy, yuksak axloqiy fazilatlarga ega qilish, mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlash lozim. Bu vaziflaarni hal qilishda sinf rahbari muhim rol o‘ynaydi. Chunki, u bir sinf sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi.

Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi

1. O‘ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg‘iz emas, shu sinfda dars berayotgan turli fan o‘qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o‘quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O‘quvchilarni darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2. O‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqish va qobiliyatini o‘stirish har bir o‘quvchining individual-psixik xususiyatlairni hisobga olgan holda kasbga yo‘naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o‘quvchining sog‘ligini mustahkamlashga ham e’tibor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o‘quvchilarning yuqori darajada o‘zlashtirishini ta’minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o‘quvchining kundalik o‘zlashtirishidan voqif bo‘lib turadi. Orqada qolayotgan o‘quvchilarga o‘z vaqtidan kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Sinfdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish ishlarini yo‘naltiradi, ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta’min etadi, maktab miqyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o‘z sinfining faol qatnashishini ta’minlaydi.

5. Sinf o‘quvchilarining ota-onalari, o‘quv kuni uzaytirilgan guruhlarining tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqa o‘rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfda dars berayotgan barcha fan o‘qituvchilari o‘rtasida o‘quvchilarga nisbatan yagona talablar o‘rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o‘z sinfidagi turli hujjatlarini, sinf jurnali, o‘quvchilarning kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma’lmuotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko‘rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog‘liqdir. Sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga qo‘yiladigan talablari o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablardan farq qilmaydi. Lekin, sinf rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma’naviy jihatdan andoza oladigan shaxs bo‘lganligi uchun ham, bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida rol o‘ynaydi.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g‘oyaviy ishonchiga va siyosiyligining darajasiga bog‘liq. Buning uchun sinf rahbari

fan yangiliklarini muntazam, egallab borishi bilan o‘zining bilimini, ongini oshiradi.

Sinf rahbarining axloqiy obro‘si g‘oyat darajada yuqori bo‘lishi ham bu o‘rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi.

Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma’naviy qiyofasi o‘quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Sinf rahbari uchun malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni o‘zi etrali emas. U o‘z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o‘z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta’sir o‘tkazadi. Chunki, tarbiyachilik qobiliyati juda ko‘p sifatlarni; chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon jaxti bilan ko‘ngil qo‘yish, bolalarga bo‘lgan cheksiz muhabbat, muomala nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq temperament, oqil va adolatlilik namunasi, alohida nazokat sipolik va vazminlik kabi fazilatlarning bo‘lishini taqozo qiladi. Bunga yana tarbiyachilik texnikasi qo‘shimacha ishda muvaffaqiyat ta’minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir.

Sinf rahbarlaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo‘lish, o‘z muomalasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. Muhimi shundaki, sinf rahbarining o‘zi bolalarni tarbiyalamoqchi bo‘lgan g‘oyaviy-axloqiy barkamollikka mos bo‘lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko‘pchiligiga asosiy sabab, bolaning oldiga qo‘yilayotgan talablar tarbiyachi xarakterida hamisha ham namoyon bo‘lavermasligidadir.

Sinf rahbarining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko‘rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lishi, ro‘y berayotgan voqea va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog‘lab baholashgina emas, balki ro‘y berishni sababiga qarab hukm ham chiqarishni, ijod qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Sinf rahbari maktabdagi eng etuk pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatning o‘lchovi, chegarsi yo‘q. Uning bilmagan ishi uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo‘lmaydi. Shu bilan bir qatorda, u beg‘araz, xolis shaxs bo‘lib, jamoatchilik asosida ishlaydi. Sinf rahbari pedagoglar ota-onalar va o‘quvchilarni o‘zaro bog‘lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarining nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarini bir markazga birlashtirish, o‘zaro aloqalarning to‘g‘ri bo‘lishiga ta’sir o‘tkazish va ayni vaqtda o‘zining o‘rnini aniq ta’minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta’minlashga garov bo‘ladi. Sinf rahbari o‘quvchilarga puxta bilim berishga,

ularni fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g‘amxo‘rlik qilib boradi. Hatto o‘zlashtirish yuqori bo‘lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni o‘stirishga, ta’lim sifatini oshirishga harakat qilish zarur.

Ayrim maktablarda yuqori o‘zlashtirishga erishishda o‘quv-didaktik masala sifatida maktabda ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga boliq bo‘ladi. O‘qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqatni, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar sistemasi to‘g‘ri va bevosita sinfda o‘zlashtirishni ko‘tarishga ta’sir etadi. Sinf rahbari o‘qituvchilar bilan hamkorlikda bolalarni o‘qishga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. O‘quvchilarning o‘qishlarini nazorat qiladi, darslarga kiradi, kuzatadi va o‘z sinfdagi o‘quvchilar bilan birgalikda sinfda o‘quv ishlarining sifatini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi. Yuqori sinflarda yuqori o‘zlashtirish uchun kurash susaymaydi, aksincha u yana ko‘proq ahamiyat kasb etib boradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5465-sonli farmoyishi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida // Xalq so‘zi, 2019 yil 8-aprel

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Https:// lex.uz/

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O’qituvchi, 1992 -62 b.

4. Abdullayev M.A. Madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat. Muloqot, 1998-№ 3-12 b.

5. Abdujalilova SH. Abdurauf Fitratning -Tarbiya fani talqini. –Toshkent, 2020. –36 b.

6. Ismoilova D.M. Zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari ta’lim mazmunini prognostika qilish. - “Xalq ta’limi” jurnali, Toshkent, 2021.

7. Ismoilova D.M. O‘quvchilarni tarbiya ishi pedagogi kasbiga yo‘naltirish mexanizmlari. Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendiriw. – Nukus, 2021. - № 4/1.- B. 43-46.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ZAMONAVIY TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ZARURIYATI

Mamatova A.M.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchi

Tayanch so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, zamonaviy tarbiya, texnologiyalar zaruriyati, yangicha yondashuvlar, mazmun va mohiyat, tavsif va samara.
Ключевые слова: новый Узбекистан, современное воспитание, необходимость технологий, новые подходы, содержание и сущность, описание и эффект.
Key words: new Uzbekistan, modern education, the need for technology, new approaches, content and essence, description and effect.

Резюме:
Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyat masalasi to‘g‘risida fikr yuritilgan va unda mualliflarning individual yondashuvlari taqdim etilgan.
Резюме:
В статье рассмотрен вопрос о необходимости современных воспитательных технологий в условиях нового Узбекистана и представлены индивидуальные подходы авторов.
Summary:
The article considers the need for modern educational technologies in the conditions of the new Uzbekistan and presents the individual approaches of the authors.

Kirish. Yangi O‘zbekistonni barpo etish va unda taraqqiyotning yangi asoslarini yaratish jarayonida barcha sohalar qatorida tarbiya masalasiga ham alohida yondashish taqozo etiladi. Bunda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan tarbiyaning jismoniy, maktabgacha sog‘lom avlod va inklyuziv turlariga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi[1;48,50,52-moddalar]. Aynan tarbiyaning mana shu shakllari yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aks etishining sababi jamiyatda zamonaviy tarbiya texnologiyalari zaruriyatiga extiyoj mavjudligini anglatadi. Shu jihatdan Konstitutsiyamizda ifodalangan tarbiyaning bu turlari maktabgacha, inklyuziv va jismoniy tarbiya vositasida sog‘lom avlod tarbiyasini amalga oshirish belgilanganligi Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida muhim yo‘nalishlardan

hisoblanadi. Shu jihatdan jamiyatimizda zamonaviy tarbiya texnologiyalari zaruriyati masalasi bo‘yicha aniq fikrlarga kelish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘rinda ana shu masalaning taxliliga e’tiboringizni tortamiz.

Natija. Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyatni anglash va ular bo‘yicha muayyan tushunchalarga kelish dolzarb bo‘lib turibdi. Bunda yondashuvlarning zamonaviyligi va istiqbolli ekanligiga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi mazmuni. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2021 yilda taklif qilingan bo‘lib, uning mazmuniga ko‘ra O‘zbekistonda barcha yo‘nalishlar yangilanishi lozim va bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat barpo etilishi kerak[2,10-15]. Bunda Yangi O‘zbekiston sharoitida eng avvalo ta’lim va tarbiya jarayonini isloh qilish va uning vositasida yangi avlod shaxslarini voyaga yetkazishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan “O‘zbekiston-2030” strategiyasi qabul qilinib, unda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning konseptual asoslari belgilab olindi[3, 1-yo‘nalish]. Bu o‘rinda yangi O‘zbekiston g‘oyasining mazmuni tarbiya masalasida quyidagilarni ifodalashini eslatib o‘tish joiz:

1) tarbiya oluvchilarning ongi va dunyoqarashida ijtimoiy adolat tushunchalarini tarkib toptirish;

2) tarbiya oluvchilarda ijtimoiy axloq ko‘nikmalarini tarkib toptirish;

3) tarbiya oluvchilarni insoniy muomalaga o‘rgatish;

4) tarbiya oluvchilarni ijtimoiy faollashtirish.

Shu jihatdan Yangi O‘zbekiston g‘oyasining mazmunida tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun adolat, axloq, muomala va faollik mezonlariga asoslanish yangicha yondashuv hisoblanadi. Mazkur masalada shuni ta’kidlash lozimki, agar mazkur mezonlarga to‘g‘ri yondashilsa va ular asosida tarbiyaviy imshlar amalga oshirilsa, jamiyatimizda barpo etilayotgan hamda ustuvor maqsadga aylangan Yangi O‘zbekiston g‘oyasini amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, yangi jamiyat sharoitida barcha sohalar qatorida tarbiya yo‘nalishi ham yangilanishi va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirilishi kerak. Shu sababli hozirgi zamon jamiyatimizda zamonaviy tarbiya texnologiyalari zaruriyatining birlamchi tayanchlaridan biri Yangi O‘zbekiston g‘oyasi hisoblanadi. Bu g‘oyani to‘liq idrok etmasdan, zamonaviy tarbiya texnologiyalarini tushunish yoki uning zaruriyatini his qilish mumkin emas. Shu ma’noda Yangi O‘zbyekiston g‘oyasi mazmuni bo‘yicha keng ko‘lamli tahlil, talqin va targ‘ibot ishlarini amalag oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

“Zamonaviy turbiya” tushunchasi mohiyati. Pedagogik olimlar zamonaviylik tushunchasini bugungi kun muammolariga javob beradigan yechimlar majmui sifatida qabul qilishadi[4,171]. Ayni paytda, biz tomonimizdan “zamonaviy tarbiya” tushunchasining mohiyati quyidagicha idrok etiladi:

1) zamonaviylik hozirgi zamon tarbiya asoslarini yangilash, uning muammolarini yorqin namoyon qilish va takomillashtirish asoslarini belgilaydi;

2) zamonaviy tarbiya tushunchasida mavjud tajribalardan foydalangan holda tarbiya masalasidagi bugungi kun ehtiyojlariga javob beradigan mezonlarni belgilab olish, uning metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalalari muhim o‘rin tutadi;

3) zamonaviy tarbiya tushunchasida bugungi kunda tarbiyalanayotgan shaxsning ertangi faoliyati aniq idrok etiladi.

Aynan mana shunday yondashuv asosida zamonaviy tarbiya tushunchasini idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Demak, zamonaviy tarbiya – bu bugungi kunda eng muhim bo‘lgan tarbiyaviy asoslarga tayangan holda shaxsni voyaga yetkazish va uni faoliyatga tayyorlash omilidir. Bunday yondashuv zamonavi tarbiya tushunchasining ma’no-mohiyatini to‘g‘ri anglab olish va u asosda bugun natija beradigan tarbyuiyani amlaga oshirishni idrok etishni taqozo etadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, zamonaviy tarbiya tushunchasi barcha davrlarda va barcha jamiyat taraqqiyoti davrida o‘z davridagi tarbiya muammolarini hal etish indikatori sifatida mavjud bo‘lib kelgan. Shu ma’noda mazkur masalada mashhur jadid pedagogi Mahmudxo‘ja Behbudiyning (1875-1919) “Tilda, fikrda va ishda birlik” tamoyili esga tushadi[5,19]. Bu tamoyilga ko‘ra, zamonaviy tarbiyaning asosini tilda, ya’ni tarbiya oluvchining o‘z ona tilisi vositasida voyaga yetishi, fikrda, ya’ni nosandart fikrlash asosida tarbiya oluvchilarni dunyoqarashini bugungi kun talablari asosida tarkib toptirish va ishda, ya’ni tarbiya oluvchilarni faoliyatga munosib tayyorlashda hozirgi zamon ehtiyojdlari asosida yondashish majmuini tashkil qiladi. Demak, tilda, fikrda va ishda birlik – bu bizning bugungi zamonaviy tarbiya tushunchamizning mohiyatini tushunishda ham muhim o‘rin tutadi. Mazkur masalani ana shunday idrok etish muhim ahamiyatga egadir.

“Zamonaviy tarbiya texnologiyalari” atamasi tavsifi. Texnologiya deganda mahorat va san’atning uyg‘unlashgan holda muayyan yangi ishlab chiqarish mahsulotlarini nazarda tutish pedagog olimlar tomoindan qabkul qilingan. Bunda texnika va san’at imkoniyatlari uyg‘unlashtiriladi, uning natijasida yangi texnologik asoslarga ega ishlanmalar yaratiladi. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko‘ra, “zamonaviy tarbiya texnologiyalari” atamasi tavsifi quyidagilardan iborat:

1) tarbiyada qo‘llaniladigan mahorat va san’atning bugungi kun talablari asosida tarkib topganligi va tarbiya jarayonini tezkor amalga oshirish xususiyatga ega bo‘lishi;

2) tarbiyani amalga oshirishda qulay, oson, oddiy va samara beruvchi vositalarga asoslangan hamda tarbiya oluvchilarning imkoniyatlariga mos vositalarning majmui;

3) zamonaviy tarbiya texnologiyalari mavhumlikdan xoli bo‘lgani holda muayyan shaxs yoki jamoani to‘g‘ri tarbiyalash va to‘g‘ri yo‘naltirish mezonlariga asoslanishi;

4) mazkur tushunchada tarbiyadagi mahorat, san’at va texnik imkoniyatlarning uyg‘un bo‘lishi.

Shu jihatdan “zamonaviy tarbiya texnologiyalari” deganda tarbiyani amalga oshirishdagi mahorat, san’at va texnik imkoniyatlardan uyg‘un foydalanish tushunilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biz mazkur yondashuv asosida zamonaviy tarbiya texnologiyalarini idrok etish to‘g‘ri mo‘ljallarni beradi, deb hisoblaymiz. Aynan mana shularning barchasi zamonaviy tarbiya texnologiyalarining zaruriyatini tushunishda muhim o‘rin tutadi.

E’tibor berilsa, zamonaviy tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatida uch muhim masala katta ahamiyatga egadir: 1) Yangi O‘zbekiston g‘oyasi mazmunini anglash; 2) zamonaviy tarbiya tushunchasini muammoning hal qilish vositasi sifatida tushunish va 3) mahorat, san’at hamda texnik imkoniyatlar mujassam bo‘lgan tarbiya jarayonini amalga oshirish. Ana shunday tushunish bugungi jamiyatimizda zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyatni oqilona idrok etish imkonini beradi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgane zaruriyatni ilmiy, pedagogik va texnologik jihatdan idrok etish, uning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatini tushunish, mazkur masala bo‘yicha yondashuvlar va qarashlarni o‘zgartirish, nostandart va yangi tajriba-sinovlardan cho‘chimaslik mezonlari yangilangan jamiyatimiz sharoitida tarbiya mazmuni, uning asoslari va natijalarini yangilash imkonini beradi. Agar bugungi kundagi zamonaviy tarbyuiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyat to‘g‘ri idrok etilsa, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining eng muhim asoslaridan birini yaratish imkonini beradi.

Xulosa va tavsiyalar. Yangi O‘zbekiston sharotida zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zarupiyatni idrok etish bugungi kundagi muhim pedagogik vazifalardan biridir. Chunki bunda Yangi O‘Zbekiston g‘oyasi mazmuni bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish taqozo etiladi. Aynan mana shu g‘oya asosida yangilangan jamiyatimizda yangi va zamonaviy tarbiya

jarayonlarini yo‘lga qo‘yish taqozo etiladi. Shu jihatdan, zamonaviy tarbiya va zamonaviy tarbiya texnologiyalari tushunchalarining mazmun, mohiyati ham nostandart yondashuvlar asosida tushunilishi muhim ahamiyatga egadir. Mazkur masalalarda bizning asosiy xulosamiz shunday: Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida tarbiya asoslarini bugungi kun talablariga moslashtirish va uni amalga oshirish texnologiyalarini hozirgi zamon tarbiya jarayoni bo‘yicha muammolarini hal etishga yo‘naltirish mumkin bo‘ladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaiy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyatni idrok etish uchun ta’lim jarayonida malga oshirilayotgan tarbiya asoslarini tahlil qilish, uning yutuqlari va kamchiliklarini qiyoslash, tarbiyaga bo‘lgan bugungi yangi extiyojlarni idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Demak, mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni ishlarida pedagoglarning yanada faol bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi va bu borada bo‘lajak pedagoglarning imkoniyatlariga tayanish muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilishini alohida ta’kidlash lozim.

Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyatni idrok etish masalasi bo‘yicha amaliyotchi o‘qituvchilar, bo‘lajak o‘qituvchilar va pedagog olimlarning keng muhokamalarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent, 2022
3. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www. ziyonet.uz
4. Mualliflar jamoasi. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2010
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2008

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI DIDAKTIKANING AHAMIYATI

Jabborova O. M.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Matupayeva Sh. Z.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Tayanch so‘zlar: didaktika, raqamli, o‘qitish, o‘qituvchi, san’at, madaniyat, asos, mazmun, mohiyat, tushuncha.
Ключевые слова: дидактика, цифра, обучение, учитель, искусство, культура, основа, содержание, сущность, концепция.
Key words: didactics, figure, teaching, teacher, art, culture, basis, content, essence, concept.

Резюме:
Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli didaktikaning ahamiyati, mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari, uning umumiy o‘rta ta’lim maktablari san’at va madaniyat yo‘nalishi o‘qituvchilarini tayyorlashdagi o‘rni masalalari tahlil qilib berilgan.
Резюме:
В статье проанализированы значение, содержание и специфика цифровой дидактики в подготовке будущих учителей, ее роль в подготовке учителей направления искусства и культуры общеобразовательных школ.
Summary:
The article analyzes the importance, content and specificity of digital didactics in the training of future teachers, its role in the training of teachers of art and culture in secondary schools.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida yosh avlodni o‘z layoqati va qiziqishlari hamda ularning iqtidori darajalariga mos ravishda kasb-hunarli qilish vazifalari belgilangan[1:3]. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Tasviriy san’at va chizmachilik”, “Musiqa madaniyati”, to‘garaklar vositasida o‘quvchilarning madaniy-dizaynerlik ko‘nikmalarini shakllantirish ishlarini amalga oshiruvchi har tomonlama professional o‘qituvchilarni tayyorlash bugungi kundagi eng muhim vazifalarimizdan

biridir. Mazkur masala Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini amalga oshirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu ma’noda bu o‘rinda e’itiboringizni ta’kidlangan o‘quv fanlari bo‘yicha va ularning yo‘nalishlari asosida oliy ma’lumotli bo‘lajak o‘qituvvchilarni tayyorlashda raqamli didaktikaning ahamiyati masalasi taxliliga diqqatingizni tortamiz.

Raqamli didaktika mazmuni. Ta’lim nazariyasi va o‘qitish metodologiyasida raqamli didaktika muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, kompyuterli dastur asosida o‘qitishning asoslari, o‘quv materiallari, topshiriqlari va uning o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish bo‘yicha barcha elektron materiallar bir joyda jamlanadi[2:72]. Shu jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda maxsus kompyuterli dasturlar va texnologiyalarga asoslangan raqamli didaktikani tayyorlash va uni amaliyotga joriy etish zaruriyat bo‘lib turibdi. Shu ma’noda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Tasviriy san’at va chizmachilik” hamda “Musiqa madaniyati” o‘quv fanlari bo‘yicha oliy ma’lumotli o‘qituvchilarni tayyorlashda oliy pedagogik ta’lim jarayonida raqamli didaktika texnologiyasini ishlab chiqish va ular asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash ham muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha raqamli didaktikaning asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

1) maxsus kompyuterli dasturda tasviriy san’at va musiqa madaniyati ta’lim yo‘nalishining mavzulari, o‘quv materiallari, topshiriqlari va ularni o‘zlashtirishning didaktik indikatorlari ifodalangan majmui o‘quv majmuasini yaratish;

2) yaratilgan majua didaktik raqamli o‘quv materiallaridan foydalanishning texnik, texnologik va metodik mexanizmlarini ishlab chiqish;

3) taqdim etilayotgan majmui raqamli didaktikada ta’kidlangan o‘quv fanlarini o‘qitish bo‘yicha tushuntirish va ta’kidlovchi matnlar, mustaqil yo‘naltiruvchi vazifalar hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini tarkib toptiruvchi ishlanmalar yaratish ko‘rsatmalarining majmuini ifodalash;

4) ushbu kompyuterli raqamli didaktikadan foydalanish bo‘yicha vaqt rejimi, uning qoidalari hamda taqdim etilgan didaktik materiallarni o‘zlashtirishning vositalari to‘g‘risida eng zaruriy metodik tavsiyalarni aks ettirish;

5) bu kompyuterli dastur asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning ijodkorlik va pedagogik layoqatlarining uyg‘un tarkib topganligini baholash diagnostikasi indikatorlarini taqdim etish.

Aynan mana shunday kompyuterli dastur asosida san’at va madaniyat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha raqamli didaktikani ishlab chiqish hamda u asosda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash mexanizmlaridan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu bilan bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli didaktikadan foydalanish bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Chunki jamiyatimizning innovatsion rivojlanib borishi sharoitida raqamli didaktikani o‘qitishning barcha yo‘nalishlari va sohalariga tadbiq etish eng muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Tasviriy san’at ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha raqamli didaktikaning xususiyatlari. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli didaktikaning turli imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan tasviriy san’at ta’limi bo‘yicha raqamli didaktika va u asosda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha idrok etiladi:

1) kompyuterli dastur asosida tasviriy san’at ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va layoqatlarini rivojlantiruvchi materiallarni tizimlashtirish va joylashtirish;

2) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “tasviriy san’at va chizmachilik” o‘quv fani darsligining o‘quv materiallari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini amaliy shakllantirish tizimlarini ishlab chiqish va dasturda tizimli joylashtirish;

3) kompyuterli dastur asosida ishlab chiqiladigan ushbu raqamli didaktika o‘quv materiallarida tasviriy san’at asarlarini yaratish, taxlil qilish va ularning ma’no-mazmunini tushuntirishga oid tasviriy va animatsion o‘quv materiallarini joylashtirish;

4) bu raqamli didaktikada tasviriy san’at asarlarini yaratish bo‘yicha metodik tavsiyalar majmusini taqdim etish;

5) o‘quv-texnik vositalar imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining va umuman o‘quvchilarning ijodkorlik layoqatlarini rivojlantirishga doir mexanizmlarni ifodalash;

6) ushbu raqamli didaktika asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlashtirganlik va kasbiy tayyorgarlik darajasini baholash indikatorlarini taqdim etish.

Bunday raqamli didaktik texnologiyani ishlab chiqish va u asosda tasviriy san’at ta’limi bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash hozirgi zamon oliy pedagogik ta’lim jarayoni imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi[3:34].

Musiqa madaniyati ta’lim yo‘nalishi raqamli didaktikasining o‘ziga xos jihatlari. Bugungi kunda mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Musiqa madaniyati” o‘quv fani vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash va ularning estetik madaniyatini tarkib toptirish ishlari eng muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qabul qilingan. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bevosita tashabbusi bilan o‘rta ta’lim maktablari 10 dan ortiq xalq cholg‘ulari bilan bepul ta’minlanish ishlari amalga oshirilmoqda, har bir o‘quvchining kamida 2 cholg‘uda ijro eta olish ko‘nikmasi shakllantirilmoqda va musiqa o‘qituvchilariga kamida 3 cholg‘uda mustaqil kuy ijro eta olish talabi qo‘yilgan. Shu jihatdan oliy pedagogik ta’lim jarayonida musiqa ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning raqamli didaktikasini ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turibdi. Mazkur raqamli didaktikaning eng asosiy jihatlarini quyidagilar tashkil qilishi idrok etiladi:

1) kompyuterli dastur asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari “Musiqa madaniyati” o‘quv fani darsliklarining tahlili asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda amaliy imkoniyatlarni ishlab chiqish;

2) bo‘lajak o‘qituvchilarning milliy musiqa merosi va jahon xalqlari musiqa merosining eng muhim didaktik asoslari bilan qurollantiruvchi tizimni mazkur kompyuterli dasturda tizimlashtirish;

3) bo‘lajak o‘qituvchilarni bolalar musiqa san’ati, ya’ni bolalar musiqasi, qo‘shiqchilik va raqsi ijrochiligi asoslari bilan tanishtiruvchi metodik majmualarni ifodalash;

4) bo‘lajak o‘qituvchilarning nota savodxonligini rivojlantiruvchi va ularning mazkur kompyuterli dastur asosida masofadan turib o‘qitish jarayonini amalga oshirish kasbiy ko‘nikmalarini tarkib toptirish hamda ushbu raqamli didaktikadan foydalanish mexanizmlarini taqdim etish.

Bunday maxsus yondashuv va dastur asosida ishlab chiqiladigan raqamli didaktikaga asosan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning bu kabi raqamli didaktika asosida masofadan turib musiqiy ta’lim va tarbiya jarayonini amalga oshirish hamda o‘z malakalarini rivojlantirib borish bo‘yicha muhim mexanizmlarga ega bo‘linadi[4:7].

E’tibor berilsa, raqamli didaktika va uning yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqiladigan kompyuterli texnologiyalarning nazariy, metodik va amaliy ahamiyati muhimdir. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning turli variativ namunalarini yaratish va ulardan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday qilib jamiyatimizning hozirgi rivojlanish sharoitida quyidagilar muhim pedagogik vazifalar bo‘lib turganligini eslatib o‘tish bilan cheklanamiz:

birinchidan, oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha turli raqamli didaktikalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi;

ikkinchidan, bunday raqamli didaktikalarni ishlab chiqishda ta’lim yo‘nalishlarining asoslari qat’iy hisobga olinishi kutilgan samarani beradi;

uchinchidan, mana shunday yondashuv asosida ishlab chiqilgan raqamli didaktikalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash ularning kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlarini bugungi kun talablari darajasida kengaytirish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. // www.lex.uz

2. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021

3. Jabborova O., Tashpulatova D. ART texnologiya va kreativlik. – Toshkent, 2022

TARBIYA PEDAGOGIKASI XUSUSIYATLARI

Mamatova A.M.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchi

Tayanch so'zlar: tarbiya pedagogikasi, xususiyat va o'ziga xoslik, nazariya va didaktika, tarbiya va ta'lim, tarbiya va amaliyot.
Ключевые слова: педагогика воспитания, особенность и специфика, теория и дидактика, воспитание и образование, воспитание и практика.
Key words: pedagogy of education, peculiarity and specificity, theory and didactics, upbringing and education, upbringing and practice.

Резюме:
Maqolada Tarbiya pedagogikasi fanining xususiyatlari, uning o'ziga xosliklari va ob'yektlari to'g'risida fikr yuritilgan, mazkur masalalar bo'yicha mualliflarning yondashuvlari taqdim etilgan.
Резюме:
В статье рассмотрены особенности науки педагогики воспитания, ее специфика и объекты, представлены подходы авторов по данным вопросам.
Summary:
The article examines the features of the science of pedagogy of education, its specifics and objects, and presents the authors' approaches to these issues.

"O'zbekiston-2030" strategiyasining ijrosining ta'minlash jarayonida ta'lim tizimida amalda bo'lgan va tarixiy-tajribadan o'tib kelayotgan fanlarni takomillashtirish masalalari ham muhim o'rin tutadi[1]. Shu ma'noda mamlakatimizda fanlar tipologiyasini takomillashtirish va ular vositasida ilm-fan, ta'lim hamda tarbiya jearayonini amalga oshirish vazifalari dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda ana shunday masalalardan biri Tarbiya pedagogikasi fanining o'ziga xos xususiyatlari taxliliga e'tiboringizni tortamiz.

Tarbiya pedagogikasi – fan sifatida. O'zbekiston pedagogik ta'lim va tarbiya tajribasida muayyan fanlarning tipologik takomillashuvi keyingi besh yil davomida muhim hodisa sifatida davom etmoqda. Shu jihatdan Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan pedagogikamiz taraqqiyotida ilk bor Tarbiya o'quv fani shakllantirilib, amaliyotga joriy etildi[2]. Mazkur tajriba tadriji davomida bugungi kunga kelib yangi Tarbiya pedagogikasi fani idrok etilmoqda. Tarbiya

pedagogikasi yangi fan sifatida quyidagilarni qamrab olishini alohida eslatib o‘tish joiz:

1) fanning me’yoriy asoslari;
2) fanning nazariyasi;
3) fanning didaktikasi;
4) fanning metodologiyasi.

Mazkur asoslarga binoan bugungi kunda mamlakatimizda Tarbiya pedagogikasi fani tarkib topganligini e’tiroya etish lozim. Shu sababli mazkur asoslarni ilmiy-nazariy va amaliy metodik jihatdan taxlil qilish dolzarb bo‘lib turibdi.

Tarbiya pedagogikasi fanining me’yoriy asoslarini uning mazmuni, huquqiy tayanchlari va ilmiy omillari tashkil qiladi. Bu masalalar batafsil taxlil qilinishi natijasida fanning aniq va asoslangan me’yoriy asoslari belgilab olinadi. Mazkur masalalar bo‘yicha pedagog olimlar va amaliyotchi o‘qituvchilarning yakdil yondashuvlarini shakllantirib olish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada mamlakatimizda “Tarbiya” o‘quv fani bo‘yicha to‘plangan milliy tajribaning yutuqlariga asoslanish bizningcha, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu o‘rinda eslatib o‘tish joizki, tarbiya pedagogikasining nazariyasi, didaktikasi va metodologiyasi masalalari ishlab chiqilishi zaruriyat hisoblanadi.

Tarbiya pedagogikasining o‘ziga xos xususiyatlari. Yangi Tarbiya pedagogikasi fani o‘ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish Tarbiya pedagogikasining o‘ziga xos xususiyatlarini idrok etish imkonini beradi:

1) Yangi O‘zbekiston jamiyatida tarbiya g‘oyasi;
2) tarbiya nazariyasining innovasion va zamonaviy asoslari;
3) zamonaviy tarbiya nazariyasining xorijiy tajribalari;
4) “Tarbiya ta’limi nazariyasi” masalalari;
5) tarbiya ta’limi innovatsiyasi;
6) tarbiya ta’limi tajribasi.

Mazkur xususiyatlar Tarbiya pedagogikasining negizini belgiliaydi.Shu sababli ushbu masalalar bo‘yicha ham tadqiqot ishlarini yaratish muhim vazifakardan bo‘lib turibdi.

Tarbiya pedagogikasining Yangi O‘zbekiston jamiyatidagi tarbiya g‘oyasi ham yangi tushunchalar ham,yondashuvlar va mazmunga asoslanishi kerak. Unga ko‘ra,milliylikdan umuminsoniylik sari g‘oyasining qabul qilinishi va bu g‘oyaning tarkibi belgilab olinishi kerak.

Tarbiya pedagogikasining tarbiya nazariyasidan innovasion va zamonaviy asoslarni belgilab olish muhimdir.Unga ko‘ra,milliy tarbiya g‘oyasiga asoslanish

shaxsni milliy qobiq iskanjasida qoldirmasligi yoki umuminsoniy tarbiya g‘oyasiga asoslanish shaxsni milliy tarbiya negizlaridan begonalashtirmasligi kerak.

Tarbiya pedagogikasining zamonaviy tarbiya nazariyasidan xorijiy mamlakatlar tajribasi bo‘yicha modellashtirilgan fikrlarga kelish maqsadga muvofiq bo‘ladi.Unga ko‘ra,asosiy e’tibor AQSH, Buyuk Britaniya,Germaniya kabi mamlakatlarning milliy tarbiya vositasida shaxsni umuminsoniy tarbiya qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash bo‘yicha tajribalarini o‘rganish va uning yutuqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiya pedagogikasining muhim xususiyatlaridan biri uning ta’lim nazariyasidir. Unga ko‘ra, tarbiya ta’limini amalga oshirish, tarbiyani o‘qitish vositasida shaxsda tarkib toptirish va tarbiya ta’limining nazariyadan amaliyotga bog‘liqlik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu sababli mazkur masala bo‘yicha ham yangi tadqiqotlarni yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tarbiya pedagogikasining muhim xususiyatlaridan biri tarbiya ta’limi asoslaniladigan innovatsiyadir. Unga ko‘ra, tarbiya ta’limini amalga oshirish jarayonida o‘qitishning yangi innovatsiyalari – raqamli, kompyuterli, axborot-kommunikasion, individual texnik kabi innovasion o‘qitish shaklariga asoslanishning mexanizmlarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Bunda tarbiya ta’limi nazariyadan amaliyotga yoki amaliyotdan nazariyaga yondashuvlari asosida tashkil qilinishi tarbiya ta’limiga nisbatan butunlay yangi munosabatlar majmuini yuzaga keltirishini eslatib o‘tish lozim.

Tarbiya pedagogikaschining muhim xususiyatlaridan biri tarbiya ta’dlimi tajribasidir. Unga ko‘ra, mamlakatimizda tarkib topgan tarbiyali o‘qitish va ta’lim jarayonida tarpbiyalash konteksti, xorijiy mamlakatlarning bevosita individual ta’lim asosida tarbiyani amalga oshirish konteksti tajribalari o‘rganilishi, ulardan foydalanishning uyg‘un metodikasi ishlab chiqilishi hamda tarbiyalanayotgan shaxsning bilim va fazilatlari uyg‘unligini baholashga erishish omillarini yaratish muhim ahamiyatga egadir.

E’tibor berilsa, Tarbiya pedagogikaning o‘ziga xos xususiyatlari nazariy, fundamental va ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etilishi bugungi kundagi muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Bunda Tarbiyaning ma’no-mazmuni tubdan o‘zgaradi. Unga ko‘ra, pedagogik olimlar tomonidan e’tirof etib kelinayotganidek, avval tarbiya, keyin ta’lim tashkil topgan tamoyili ilk rejaga chiqadi[3]. Mazkur tamoyilning mazmuniga ko‘ra, insoniyat tamaddunida avvalo tarbiya yuzaga kelgan bo‘lib, unda katta yoshlilar tomonidan bolalar yashash, muhit hamda o‘zini anglash ko‘nikmalariga moslashtirilgan, bu o‘ziga

xos tarbiya bo‘lib, u keyinchalik ta’limning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Unda ta’lim tarbiyaning asoslari va ko‘nikmalarini tarbiyalanuvchilarga tushuntirgan. Mana shu pedagogik tajriba bugungi kunda mamlakatimizda qaytadan tiklanganligini qayd etish lozim. Shu jihatdan bugungi kunda Tarbiya pedagogikasida aynan tarbiyaning ta’limiy asoslari idrok etilishi va tadqiq etilishi birlamchi vazifalardan hisoblanadi.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab mamlakatimiz ta’lim tizimida bilim berish ustuvor darajada qabul qilinib, bunda ta’limning tarbiyadan ustuvorligi o‘z ifodasini topdi. Natijada avval bilim, keyin tarbiya tamoyili kelib chiqdi. Bu o‘z vaqtida ta’lim jarayonida tarbiyalash, tarbiyaviy tadbirlar vositasida tarbiyalash, individual tarbiyalash konseptlarining paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. Shu ma’noda bundan keyin Tarbiya pedagogikasi negizida tarbiyadan ta’limga yondashuvi tarkib topishi idrok etilmoqda. Shu jihatdjan tarbiyada ta’lim, tarbiya vositasida o‘qitish, tarbiyaviy tadbirlarda bilim va ko‘nikmalarga yo‘naltirish, tarbiyalanganlik darajasi asosida bilim va ko‘nikmalarning ko‘rsatkichlarini baholash yondashuvlari ustuvor darajada ifodalanib boradi. Bularning barchasi Tarbiya pedagogikasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Tarbiya pedagogikasining metodologiyasi. Tarbiya pedagogikasi me’yoriy asoslar, nazariya va didaktik omillar tayanchlariga ega bo‘lgan holda, uning o‘ziga xos metodologiyasi tarkib toptiriladi. Bu metodologiyada quyidagi yondashuvlarning ustuvor bo‘lishi idrok etilmoqda:

1) “Maktab-oila bog‘liqligi” metodi;
2) “Maktab-mahalla hamkorligi” metodi;
3) “Ta’lim jarayonida tarbiya” metodi;
4) “Tarbiya jarayonida ta’lim” metodi;
5) “Tarbiya texnologiyalari” metodi.

Bu metodlar mamlakatimizda Tarbiya pedagogikasining amaliyotga yo‘naltirilgan metodologiyaga asoslanishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan tarbiya mazmunining ko‘lami kengayadi va u pedagogik masalalarning birlamchi asosi sifatida qabul qilinadi. Shu ma’noda mazkur metodlar bo‘yicha yangi ilmiy, nazariy va metodik ishlanmalarni yaratish dolzarb bo‘lib turibdi. Misol uchun, “tarbiya jarayonida ta’lim” metodiga ko‘ra, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish tadbirlari va ta’limi jarayonida shaxs tarbiyalanadi. Bunda taryubiya bevosita ta’limga asos bo‘luvchi vazifani bajaradi. Umuman olganda mazkur metod shaxs tarbiyasidan uning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘tish tadrijini bajaradi.

E’tibor berilsa, Tarbiya pedagogikasining metodologiyasi nisbatan hozirgi zamon talablari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli Pedagogika fanimizda

Tarbiya konseptini qaytadan idrok etish, uning ko‘lamini belgilab olish va shaxsda shakllantiriladigan tarbiyaviy fazilatlarning indikatorlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada milliy pedagogik tajriba, xorijiy pedagogik an’analarning yutuqlari o‘rganilgani holda, masalaga butunlay yangicha yondashish va qo‘yilgan muammolarni zamonaviy talablar asosida innovasion yechimlarini topishga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiya pedagogikasi ta’lim va tarbiya jarayonimiz uchun mutlaqo yangi hodisa emas. Unda faqat tarbiyaning mazmuni, maqsad-muddaolari va vazifalari korreksiyalanib, yondashuvlar yangilanadi va tarbiya konseptining pedagogik ta’limda ustuvor qo‘yilishi amalga oshiriladi. Shu sababli bunday yondashuv bilan jamiyatimizda tarbiya masalasini butunlay yangilash, uning asoslarini Yangi O‘zbekiston g‘oyalariga moslashtirish, tarbiya jarayonidagi talab indikatorlarini qayta ko‘rib chiqish, shaxsni erkin tarbiyalashning me’yorlarini belgilash, shaxs va jamiyat tarbiya extiyojining hozirgi kundagi xolatlarini asoslash taqozo etiladi. Buning uchun mamlakatimiz pedagog olimlari va amaliyotchi pedagoglarning o‘zaro hamkorligi, yakdilligi hamda fundamental yondashuvga asosdlanishi hodisasi tarkib toptirilishi kerak. Shunda bugungi kunda kun tartiga qo‘yilayotgan Tarbiya pedagogikasi konseptining asoslari aniq idrok etiladi.

Kezi kelganda shuni ta’kidlash lozimki, Tarbiya pedagogikasining xorijiy mamlakatlar pedagogik ta’limotlarida o‘ziga xos ko‘rinish va shakllari uchraydi. Milliy pedagogikamizda ham tarbiyadan ta’limga borish tajribasi mavjud. Aynan mana shu hodisalarni qiyosiy taxlil qilish, Tarbiya pedagogikasining aniq ob’yekti va vazifalarini belgilab olish taqozo etiladi.

Shunday qilib jamiyatimizda Tarbiya pedjagogikasi ijtimoiy va pedagogik hodisais yangidan idrok etilmoqda. Bu borada amalga oshiriladigan tadqiqot ishlarining mushtaraklishgi hamda yondashuvlarning individualligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Buning uchun mamlakatimiz oliy pedagogik ta’lim muassasalari va ilmiy pedagogik tadqiqot markazlari yagona yondashuv asosida tadqiqot ishlarini amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur masala bo‘yicha ilmiy, nazariy va metodik tadqiqotlar majmuini yaratish bugunig kundagi eng muhim pedagogik vazifalar sirasiga kiradi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi // www.ziyonet.uz

2. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’limda Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2022

3. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. – Sankt-Peterburg, 2001

MAGISTRATURA TALABALARINING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Kurbanov O.E.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Magistratura bo'limi boshlig‘i

Tayanch so‘zlar: magistratura, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, ijtimoiy-gumanitar fanlar, tarix o‘qitish metodikasi, muammoga asoslangan o‘qitish, matematik tafakkur, tizimli fikrlash, mustaqil izlanish.
Ключевые слова: магистр, исследовательские навыки, социальные и гуманитарные науки, методика преподавания истории, проблемное обучение, математическое мышление, системное мышление, независимые исследования.
Key words: master, research skills, social sciences and humanities, methods of teaching history, problem-based learning, mathematical thinking, systems thinking, independent research.

Резюме:
Mazkur maqolada magistratura talabalarining tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan konseptual asoslar tahlil qilinadi. Unda ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, tarix o‘qitish metodikasi misolida tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirishning muhim jihatlari o‘rganiladi. Maqolada talabalarning murakkab ilmiy-tadqiqot vazifalarini bajarishga yo‘naltiruvchi metodologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Shunga qo‘shimcha ravishda, yangi ta’lim tizimida matematik tafakkur, tizimli fikrlash va boshqa interdissiplinar bilimlar orqali talabalarni mustaqil izlanishga jalb etishning o‘rni qayd etilgan.
Резюме:
В данной статье анализируются концептуальные основы, направленные на развитие исследовательских навыков аспирантов. В ней рассматриваются важные аспекты формирования исследовательских навыков на примере методики преподавания социальных и гуманитарных наук, в частности истории. В статье рассматриваются методические подходы, помогающие студентам выполнять сложные исследовательские задачи. Кроме того, в новой системе образования отмечается роль привлечения студентов к самостоятельным исследованиям посредством математического мышления, системного мышления и других междисциплинарных знаний.
Summary:
This article analyzes the conceptual framework aimed at developing research skills in postgraduate students. It examines important aspects of developing research skills using the example of teaching methods in social sciences and humanities, in particular history. The article examines methodological approaches that help students complete complex research tasks. In addition, the new education system emphasizes the role of engaging students in independent research through mathematical thinking, systems thinking and other interdisciplinary knowledge.

Magistratura talabalarining tadqiqotchilik ko‘nikmalari pedagogik nuqtai nazardan talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka va qobiliyatlarning majmuasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu ko‘nikmalar talabaning mustaqil ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy metodologiyani tushunish va uni amaliyotda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Pedagogik ta’riflarda magistratura talabalarining tadqiqotchilik ko‘nikmalariga quyidagi jihatlar kiradi: talaba ilmiy-tadqiqot ishlarida qo‘llanadigan asosiy metodlarni, jumladan, eksperimentlar, kuzatuvlar, so‘rovlar, tahlil qilish va tadqiq etish kabi usullarni o‘zlashtirishi kerak; tadqiqotchilik ko‘nikmalari talabaning mustaqil ilmiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ilmiy muammolarni hal qilish va yangi ilmiy yechimlar topish qobiliyatlarini shakllantiradi; talabalar ilmiy manbalarni qidirish, to‘plash va tahlil qilishda texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak; tadqiqotchilik ko‘nikmalari ilmiy ishlarni yozish va taqdim etish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikma ilmiy ma’lumotlarni strukturalash, tahlil qilish, hamda ilmiy xulosalar chiqarishdan iborat.

Ba’zi olimlar fikricha, “Zamonaviy tadqiqot amaliyotida tizimli yondashuvning keng qo‘llanilishi bir qator holatlar va birinchi navbatda, zamonaviy ilmiy bilimlarda murakkab ob’ektlarning jadal rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning tarkibi, konfiguratsiyasi va ishlash tamoyillari aniq bo‘lmagan va maxsus bilimlarni talab qiladi. Tizim metodologiyasining eng yorqin timsollaridan biri tizimli tahlil bo‘lib, u har qanday xususiyatdagi tizimlarga taalluqli amaliy bilimlarning maxsus tarmog‘idir” . Bizning nazarimizda, tizimli yondashuvning zamonaviy tadqiqotlardagi keng qo‘llanilishi uning zarurati va samaradorligini namoyon etsa-da, ma’lum bir kontekstda cheklovlar mavjud bo‘lishi mumkin. Tizimning to‘liq tushunilishi har doim ham mavjud bo‘lmasligi, qo‘shimcha holatlarni va noaniqliklarni nazarda tutishni talab qiladi. Umuman olganda, tizimli yondashuv zamonaviy tadqiqotlarda murakkab tizimlarni tushunish va ularni samarali boshqarishning muhim vositasi bo‘lib qolmoqda.

Pedagogik ta’lim jarayonida talabaning tahliliy va tanqidiy yondashuvi rivojlantiriladi, bu esa ilmiy g‘oyalarga ob’ektiv yondashish va ularni turli nuqtai nazardan tahlil qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Tadqiqot jarayonida ilmiy halollik, xolislik va etika talablariga rioya qilish ham muhimdir. Shunday qilib, magistratura talabalarining tadqiqotchilik ko‘nikmalari, pedagogik ta’lim nuqtai nazaridan, ularga ilmiy faoliyatni samarali olib borish uchun zarur bo‘lgan barcha nazariy va amaliy qobiliyatlarni shakllantirish jarayoni sifatida tushuniladi. “Ta’lim sifatini bugungi kunda oshirish va shu orqali barqaror ta’lim tendekslarini tashkil qilinishiga erishilnishi mumkindir. Ta’lim tizimida eng muhim fundamental va amaliy tadqiqotlarning istiqbolini oldindan belgilash

va ishlab chiqishdan iboratdir. Ko‘rsatilgan maqsadning amalga oshishi jamiyatni rivojlantirish va bosh muammoni yechishga qodir bo‘lgan barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, bugungi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan bir, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi” .

Magistratura bosqichi talabalarida tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning kontseptual asoslari talabalarning ilmiy izlanishlari, tanqidiy fikrlashlari va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi bir qator tamoyillarga asoslanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarda turli fanlardan bilimlarni mujassamlash ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun to‘g‘ri keladi, bu yerda tadqiqot ko‘pincha ijtimoiy, madaniy, siyosiy va tarixiy jarayonlarni keng tushunishni talab qiladi. U.A.Usmanova ta’kidlaganidek, “Fan bilan ta’lim jarayoni integratsiyasini yuqori darajada tashkil etish uchun avvalo, o‘quv va ilmiy-muammoli laboratoriyalar holati hamda ularda olib boriladigan tadqiqotlarning mazmun-mohiyatiga e’tibor berish zarur. Bunda asosiy e’tibor talabaning ushbu faoliyatiga qiziqishi va kerakli ko‘nikmalarni hosil qila olishiga qaratilishi, buning uchun ilmiy laboratoriyalarda olib boriladigan tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar qo‘proq mahalliy muammolar bilan bog‘langan bo‘lishi lozim” .

Magistratura talabalari o‘rganilayotgan hodisaning turli elementlari orasidagi bog‘lanishni ko‘rish, uni kengroq tizimning bir qismi sifatida tushunish va ushbu tizimdagi o‘zgarishlarning mumkin bo‘lgan oqibatlarini bashorat qilish qobiliyatini rivojlantirishi kerak. Bu tadqiqotni yaxshiroq tashkil etishga, asosiy muammolar va ularning yechimlarini aniqlashga yordam beradi. Bu jarayonda muammoli ta’lim yondashuvi o‘quvchilarda ilmiy usullar yordamida real muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar hal qiladigan tadqiqot muammolari muayyan ijtimoiy yoki gumanitar muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, bu ularda tanqidiy tahlil qilish va nazariyani amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. “Ilmiy tadqiqot natijalari bayonining maqsad va vazifalari ushbu yo‘nalishdagi yangiliklar va ma’lumotlarni ommalashtirishdan iboratdur. Buning natijasida ilmiy tadqiqot ishidan olingan xulosalar soha vakillari va mutaxassislarning e’tiboriga havola etiladi va bildirilgan munosabatlar orqali ish samaradorligini aniqlash, zarur hollarda yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish imkoniyati vujudga keladi” . Tanqidiy

tahlil nuqtai nazaridan, muallif tomonidan ilmiy tadqiqot natijalarini bayon etish maqsadlari va vazifalarining ma'lum bir tomonlarini yoritgan bo'lsa-da, ayrim muhim jihatlarni yetarli darajada ochib bermagan. Unga ko'ra, ilmiy tadqiqot natijalarini ommalashtirish asosiy maqsad sifatida keltirilgan.

Haqiqatdan ham, ilm-fan yo'nalishidagi yangiliklar keng jamoatchilikka yetkazilishi lozim, lekin tadqiqotning asosiy maqsadi faqat ma'lumot tarqatish emas, balki ushbu ma'lumotlarning amaliyotda qo'llanishi va ularning natijalarini yanada chuqur tushunishga erishishdir. Ilmdagi har qanday yangilik yoki xulosa nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kerak, ya'ni faqat ma'lumot yoyish emas, balki fanning rivojlanishiga aniq hissa qo'shishi muhim. Har qanday tadqiqotda to'liqlikka erishish qiyin. Bu holat tadqiqotning amaliy va nazariy qiymatini kamaytirishi mumkin, chunki ilm-fanda muhim jarayonlar faqatgina ma'lumot qo'shish emas, balki mavjud g'oyalarni qayta tahlil qilish, yangi nazariy tuzilmalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni talab qiladi. "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanini magistraturada o'qitishdan maqsad – talabalarda ilmiy tadqiqot metodologiyasiga ko'nikma va malaka shakllantirishdir, ta'rif va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat" .

Tadqiqot natijalarini bayon etish jarayonida tanqidiy mulohaza qilish juda muhim. Mutaxassislarning fikrlari orqali ishni samarali qilib to'ldirish imkonga ega bo'lsa-da, tanqidiy tahlil bu jarayonning asosiy qismi sifatida ko'rilishi kerak. Bu tadqiqotga tanqidiy yondashuv berib, uning ilmiy qiymati va obyektivligini ta'minlaydi. Tadqiqotlar doimiy qayta ko'rib chiqilishi, metodologik va nazariy jihatdan tanqidiy tahlil qilinishi, va turli fikrlar asosida rivojlantirilishi zarur. Ilmiy natijalarning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun tanqidiy yondashuv va fikr almashinuvi doimiy tarzda faoliyat yuritishi kerak. "Oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarini maktab umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirishga jalb qilish kelajakda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan fanlarni chuqur o'rganish bo'yicha yangi, innovatsion va integratsion o'quv rejalari va dasturlarini yaratish imkonini beradi. Oliy ta'lim professor-o'qituvchilar va maktab o'qituvchilari sa'yi harakatlari bilan ta'limning yuqori bosqichida alohida fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan o'quv mashg'ulotlarida birlashadi. Bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'quv-ilmiy, o'quv-tadqiqot, kasbga yo'naltirish ishlari uchun shart-sharoitlar yaratilishini, ko'rsatilgan ishtirokchilarning oliy o'quv yurti axborot resurslaridan foydalanishini, professor-o'qituvchilar tomonidan individual fanlar, tanlov, seminar, konferensiyalar bo'yicha treninglar o'tkazishni, olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rishni ta'minlaydi" .

Tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun oddiy masalalardan boshlash va ularning murakkabligini bosqichma-bosqich oshirish muhim ahamiyatga ega, bu esa talabalarga murakkabroq va ko‘p qirrali muammolarni hal qilishda tajriba orttirish imkonini beradi. Masalan, tarix fanini o‘rganish doirasida magistratura bosqichi talabalariga mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi topshiriqlar berish mumkin. Magistraturani tayyorlashning muhim jihati ma’lumotlarni tahlil qilish, turli yondashuv va nazariyalarni solishtirish va tadqiqot materiali asosida asosli xulosalarni shakllantirish qobiliyatidir.

Tadqiqot ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun professor-o‘qituvchilarning doimiy fikr-mulohazalari muhim ahamiyatga ega. Formativ baholash o‘quvchilarga tadqiqot jarayonida o‘z harakatlarini to‘g‘rilashda yordam beradi, summativ baholash esa natijalarni umumlashtiradi va ularning umumiy taraqqiyotini baholash imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalar magistrantlarning o‘quv va ilmiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Kibertexnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish, balki talabalarning intellektual salohiyatini rag‘batlantirish, ularga katta ma’lumotlarni tahlil qilish yoki modellashtirish dasturiy ta’minotidan foydalanish kabi tadqiqot ishlarini olib borishning yangi usullarini taklif qilish imkonini beradi.

O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini tadqiqot faoliyati tarkibiga kiritish o‘qitish usullarini ularning ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi. Ko‘nikmalarni rivojlantirishning har bir bosqichida o‘quvchilarga ularning malaka darajasiga mos keladigan topshiriqlar berilishi kerak va ular asta-sekin o‘sib borishi bilan qiyinligi ortib boradi. Ushbu kontseptual asoslar, jumladan, fanlararo yondashuvlar, muammoli ta’lim va raqamli texnologiyalardan foydalanish magistrlarga tizimli fikrlashni shakllantirish va tanqidiy tahlil hamda ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktabr.

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-sonli

3. https://ziyouz.uz/kutubxona/ziyouz/lugatlar/. O‘zbek tilining izoxli lug‘ati // A.Madvaliev tahriri ostida. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – 2008 yillar.

4. JIA Hong. Reform and Exploration of International Student-Oriented Course Construction -Taking Engineering Drawing Course as an Ehample. Advances in Social Science, Education and Humanities Research (ASSEHR), volume 184. 2nd International Conference on Education Science and Economic Management (ICESEM 2018).

5. Abu Nasr Forobiy. Baxt saodatga erishish yo‘llari haqida risola. – Toshkent. 1992, 120-bet.

6. N.N.Azizxodjaeva, Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Cho‘lpon, 2005. – 325 b.

7. A.X.Maxmudov, Bo‘lajak magistrlarni kompetentli tayyorlashning didaktik ta’minotini takomillashtirish.: Ped. fan. dokt...diss. avtoref. – Toshkent: TDPU. 2016. – 49 b.

МАКТАБ РАҲБАРИНИНГ ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРНИ БОШҚАРИШДАГИ РОЛИ

Нургизарова З.Б.
Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институти "Тиллар ва мактабгача таълим" кафедраси ўқитувчиси

Таянч сўзлар: тарбия, тарбия методлари, тарбияга раҳбарлик қилиш, таълим турлари, тарбия омиллари.
Ключевые слова: воспитание, методы воспитания, руководство воспитанием, виды воспитания, факторы воспитания.
Key words: upbringing, upbringing methods, upbringing guidance, types of upbringing, upbringing factors.

Резюме:
Мазкур мақолада умумтаълим мактабларида тарбиявий ишларни ташкил қилиш ва бошқариш, тарбия жараёнида синф раҳбари, директор ўринбосари ва директорнинг вазифалари, тарбия жараёнини ташкил қилиш методлари таҳлил қилинган.
Резюме:
В данной статье анализируются организация и руководство воспитательной работой в общеобразовательных школах, обязанности классного руководителя, заместителя директора и директора в учебном процессе, методы организации учебного процесса.
Summary:
This article analyzes the organization and management of educational work in secondary schools, the duties of the class teacher, deputy director and director in the educational process, methods of organizing the educational process.

Бугунги кунда умумтаълим мактабларида тарбиявий ишлар муайян тизим асосида ташкил қилинмоқда. Устоз мураббийлар томонидан дарс жараёнларида, ота-оналар томонидан эса оилада бажариладиган тарбиявий вазифаларга қўшимча равишда маънавий-маърифий ишлар бўйича директор ўринбосари, синф раҳбарлари ўқувчиларнинг баркамол инсон бўлиб тарбияланишларига ўз ҳиссаларини қўшмоқдалар. Тарбия ижтимоийлашув маҳсули эканлигини ҳисобга олсак, уларнинг раҳбарлиги ва назорати остида синф жамоалари ижтимоий ҳаёт тажрибасини тўпламоқдалар, ижтимоий ахлоқ нормаларини эгалламоқдалар, ўз аъзоларидан

ҳар томонлама камол топган ва тарбияланган, меҳнатга ва кўп миллатли янги Ўзбекитон давлатини ҳимоя қиладиган баркамол авлодни шакллантирмоқдалар.

Мактабдаги тарбия жараёнига раҳбарлик қилишда синф раҳбарларининг тарбиявий фаолияти алоҳида ўрин тутади. Синфда тарбиявий ишнинг асосий вазифаси сифатида ҳар бир ўқувчи билан шахснинг камол топишига фаол таъсир этадиган муҳит яратади. Синф раҳбари мактаб ўқувчиларининг ахлоқини назорат қилади, айрим ўқувчиларнинг хатти-ҳаракати ва фаолиятлари доирасида жамоатчиликнинг фикрини шакллантиради.

Мактаб директори мактабда олиб бориладиган тарбиявий ишнинг юксак даражасини таъминлаши учун энг яхши ўқитувчиларни синф раҳбари этиб тайинланишига асосли ва пухта ўйлаб ёндашиши талаб этилади. Мактаб фаолиятига раҳбарлик қилар экан директор тарбиявий жараёнда узлуксизлик ва изчиллик тамойилларини амалга ошириб, тарбиявий ишларда бошланғич ва ўрта синфлар орасидаги изчиликка риоя қилинишига алоҳида эътибор бериши мақсадга мувофиқ. Шу мақсадда мактаб директори I-IV синф ўқитувчилари ва синф раҳбарларининг ўқувчиларнинг тарбияланганлик даражасини яхши билишлари ва келгуси ишларида мана шу даражани кўтаришга йўналтирилган тизимни яратиши, синф мураббийлари учун муносиб педагогик шарт-шароитни яратишга масъул ҳисобланади.

Ўқув синфида синф раҳбарларининг қўнимсизлиги ўқувчиларнинг тарбияси ва фанларни ўзлаштиришига ўзининг салбий таъсирини кўрсатади. Кузатишларимиз натижасида, амалиётда синф раҳбарлари кўп ҳолларда 2-3 йилда алмаштирилиши маълум бўлди. Тарбия жараёни муайян тизим ва тарбия методларининг изчилликда ташкил қилиниши натижасида ўз самарасини беради. Янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги қонунда (2020 йил 23 сентябрь) умумий ўрта таълим қуйидаги 3 та босқичдан иборат эканлиги белгиланган:

- бошланғич таълим (I-IV синфлар);
- таянч ўрта таълим (V-IX синфлар);
- ўрта таълим (X-XI синфлар).

Мазкур босқичлар умумий ўрта таълимнинг ўз ичида муайян бурилиш даврларини белгилайди. Бошланғич таълим таълим олувчиларда умумий ўрта таълимни давом эттириш учун зарур бўлган саводхонлик, билим, малака ва кўникмалар асосларини шакллантиришга қаратилади. Таянч ўрта таълим эса ўқув дастурига мувофиқ таълим олувчиларга билим, малака ва

кўникмаларнинг зарурий ҳажмини беради, уларда мустақил фикрлаш ва таҳлил қилиш қобилиятларини ривожлантиради.

Шунга мувофиқ, умумий ўрта таълимда синф раҳбарларининг алмаштирилишига зарурат бўлса, мана шу даврлар оралиғидагина алмаштирилиши мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Умуман олганда эса, синф раҳбари I-IV синфларида бошланғич синф ўқитувчиси ва V-XI синфларда битта ўқитувчи томонидан олиб борилиши ўқувчиларнинг таълим ва тарбиядаги самарадорлик кўрсаткичларини таъминлайди.

Синф раҳбарларини ҳар қайси параллел синфларда директор ўзининг кундалик ишида таяниши ва улар тажрибаси асосида ёш тарбиячиларни ўргатиши мумкин бўлган анча тажрибали тарбиячилар бўладиган қилиб тақсимлаши мақсадга мувофиқдир. Борди-ю буни амалга ошириш мумкин бўлмаса, директор бундай кадрларни тарбиявий ишга мойиллиги ва қизиқиши бўлган ёш синф раҳбарларидан тайёрлаш учун қайғуриши лозим ва “Устоз-шогирд” тизими асосида ёш ўқитувчиларни тажрибали устозларга бириктириб, синф раҳбарликга тайёрлаш лозим.

Директор ва маънавий-маърифий ишлар буйича директор ўринбосарлари синф раҳбарларининг қандай ишлаётганлари, тарбияда умумий натижа нима ҳисобига қўлга киритилаётганига сира бефарқ қарай олмайдилар. Шу сабабли синф раҳбарларига мунтазам йўл-йўриқ кўрсатиб бориш директор ишига қўйиладиган энг муҳим талаблардан биридир. Директорнинг маънавий-маърифий ишлар буйича директор ўринбосарлари билан биргаликда олдиндан қачон ва қандай йўл-йўриқ кўрсатишини ўйлаб олиши жуда муҳим, чунки синф раҳбарларига берилган йўл-йўриқ уларга ҳамиша амалий ёрдам кўрсатиши зарур. Бу ишга ҳар бир ўқув йили бошида, ўқув чораги ёки ярим йиллик бошида айниқса эътибор берилади.

Педагогларнинг тарбиявий ишига раҳбарлик қилишдаги ўзига хослик мактаб типлари (бошланғич, таянч ўрта, ўрта), уларнинг иш шароити (шаҳар, массив, қишлоқ) ҳамда тарбиячиларнинг малакалари билан белгиланади. Баъзи ҳолларда директор синф жамоаси, синф фаоллари, синф сардорлари билан амалий ишлашни кўпроқ ўргатади, индивидуал ишга эътибор беради. Бу иш семинар, вебинар, очиқ тарбиявий машғулотлар, тарбиявий масалаларга оид педагогик кенгашларда умумий тушунтиришлар, педагоглар ишлаб чиқариш жамоалари ва кенг ота-оналар жамоатчилиги вакилларнининг биргаликдаги кенгашлари кўринишларида олиб борилади. Бошқа ҳолларда тарбиячилар фаолияти билан олиб бориладиган ишнинг жамоа шаклларига эътибор берилади, қўшимча равишда синф раҳбарлари ва гуруҳ фаоллари йиғилишлари ўтказилади, улар учун тре-

нинглар уюштирилади,алоҳида тартибда тарбиявий масалалар юзасидан индивидуал топшириқлар берилади ва ҳоказо.

Мактабларда тарбиявий фаолиятга раҳбарлик қилишининг муваффақияти кўп жиҳатдан директор ва унинг ўринбосарлари ташкилотчилик қобилиятларига боғлиқ. Тарбиявий жараён методикасини билиш директор ва ташкилотчига тарбиячилар жамоасини ишини йўналтиришга, уларга зарур иш шакллари ва методларини ўз вақтида эслатиб туришга, мактаб ўқувчиларининг фаоллиги ва улар тарбиясининг

Ҳозирги вақтда кўпгина мактабларда синф раҳбарларининг тарбиявий ишига раҳбарлик қилиш вазифаси ва маънавий-маърифий ишлар буйича директор ўринбосарлари қўлига топширилган (бир ўринда мактаб директори тарбиявий жараёнга умумий раҳбарликни ўзи олиб боради., иккинчи бир ҳолда бу ишга раҳбарлик вазифасини бутунлай ташкилотчига юклайди). Шунинг учун ҳам умумий ўрта таълим мактабларида ташкилотчилик қобилиятига эга ўқитувчиларнинг иш ҳажми бошқа ўқитувчиларнинг ўз лавозим вазифаларини етарли даражада амалга оширмаганлиги ҳисобига ортиб кетади. Бу эса тизимни ишдан ичқаради ва таълим-тарбия ҳамда ташкилий масалалар сифатининг пасайишига сабаб бўлади. Бу вазифаларни муваффақиятли ҳал қилиш учун ташкилотчи синф раҳбарлари фаолиятидаги кучли ва кучсиз томонлар ҳамда улар тарбиялаётган коллектив ҳақида доимо ахборот тўплаб борилиши, уларнинг фаолияти намуна сифатида кўрсатилиши ва ҳар бир синф раҳбаридан ўз ишини шунга мувофиқ ташкил қилиши талаб қилиниши мақсадга мувофиқ. Бунга мақсадга йўналтирилган кузатишлар, суҳбатлар машғулотларга кириб туриш, ҳужжатлаштиришларни ўрганиш ва ҳоказолар орқали эришилади.

Мактабнинг маънавий-маърифий ишлар буйича директор ўринбосарлари ҳар бир ўқувчи онглилик ва ижтимоий ахлоқнинг юксак даражасига эришсин, деган шиор билан иш олиб бориши лозим.

Мактабда тарбиявий жараён ривожланиб борадиган қилиб қурилиши учун мактаб директори ва ташкилотчи I-IV синфлар ўқитувчилари ва V- XI синфларнинг синф раҳбарлари билан олиб бориладиган методик ишларнинг аниқ дастурини белгилаб оладилар. Бунда асосий эътиборни турли ёш гуруҳларидаги ўқувчиларни тарбиялашнинг мазмунига қаратадилар. Зотан I-IV синфларнинг ўқитувчиси мактабга қизиқиб келган етти ёшли бола тарбиявий таъсирга осонгина берилишини билиши лозим. У яхши ўқувчи ва билимдон бўлишни истайди. Унинг тарбияси хилма-хил фаолиятда кечади. Мана шунинг учун ҳам боланинг мактаб остонасига биринчи қадамлари ёзиш, ўқиш, ҳисоблашга ўрганаётган ўқувчи сифати-

да ҳам бошқалар билан биргаликда (иккита, учта, бешта бўлиб) яшаш ва ишлашни ўрганаётган ўқувчи сифатида ҳам яхши ўйланган ва уюштирилган бўлиши муҳимдир. Уни мураккаб бўлмаган топшириқларни бажаришга ўргатиш ва унинг иши баҳоланиши, унга нима дейилгани, нимани яхши бажарган-у нимани ҳали ўрганмаганини айтиш учун кузатиб борилиши керак. Бошқалар билан биргаликда топшириқни бажариб, биринчи синф ўқувчилари ахлоқий тажриба орттирадилар.

Мактабда тарбиявий жараён энг оддий нарсалардан бошланиб, аста-секин мураккаблаштириб борилади, шу туфайли тарбиявий ишда тадрижийлик тамойилини амалга ошириш муҳим аҳамиятга эга. Шундай экан, болалар билан кўплаб суҳбалар ўтказиш, янги-янги ишларни, экскурсия ва юришларни уюштиришга шошмаслик лозим.

Ўқитувчи биринчи синфда ўзининг болаларга нисбатан муомала усули улар ўртасидаги муомаланинг характерини белгилашини доимо ёдда тутиши зарур. Ўқувчиларнинг қай даражада тарбияланганлиги, кишиларга, ўз тенгдошлари ва катталарга, ўз бурчини бажаришга, меҳнатга, жамоага муносабатидаги ўзгариш тарбиявий иш муваффақиятининг асосий мезони бўлиб хизмат қилади.

Биринчи ўқув йилининг охирига бориб биринчи синф болалари ўзларининг бурчи ва вазифаларини яхши билиб оладилар. III ва IV синфларда ўқувчилар иши фаоллашади, уларни катта синфларга ўтказишга тайёргарлик кўрилади. Мазкур синфларда болаларни тарбиялашнинг кўпгина ўзига хос томонлари юқоридаги жиҳатлар билан белгиланади.

III ва IV синфларда ўқитувчи ўқувчилар фаолиятига бевосита гуруҳ сардорлари ва етакчилари орқали раҳбарлик қилади ва уларни йўналтиради. У болаларда ўқувчилар жамоасига мансублиги билан фахрланиш ҳиссини шакллантиради, тенгдошларига дўстона муносабат ўрнатилишига ёрдам беради. Ўқитувчининг вазифаси ўқувчиларнинг хилма-хил (ўқиш, ўйин, меҳнат) фаолиятини улардан биргаликда қилинадиган ҳаракатни, умумманфаати учун қилинадиган меҳнатга, ижтимоий ва жамоа ҳаётига ижобий муносабат уйғотадиган қилиб ташкил этишдир.

Ўқувчилар ишида фаоллар ўртасидаги мусобақа катта ўрин тутади. Ўқитувчи мусобақани уюштириб, мақтов, мукофот, жазони қўллар экан, унинг меъёрига қаттиқ риоя қилишни тушуниши ва ёдда тутиши, энг муҳими, болаларнинг ахлоқий камолоти эканини унутмаслик лозим. Шу сабабли мусобақа рақобатчиликка, ҳар қандай йўл билан бўлса ҳам, яхши натижага эришиш истагига айланиб қолишига йўл қўйиш мумкин эмас.

Мусобақани ҳар бир фаол фаолиятининг бирор бир турида ғолиб чиқадиган қилиб ўтказиш мақсадга мувофиқдир.

Ўқувчиларнинг ўйин тарзидаги машғулотларида уларнинг маънавий-иродавий фазилатларини ривожлантиришга алоҳида эътибор берилади. Ўйинда болалар маълум мақсадни биргаликда ҳосил қилишга, бошланган ишни охирига етказишга, ўз фаолиятлари натижасини танқидий баҳолашга ўрганадилар. Бу жараёнда синф раҳбари ташкилотчи, ўқитувчи, тарбиячи, мураббий сифатида ўз ижодкорлиги ва педагогик маҳоратини намойиш қилиши лозим.

Адабиётлар:

1. Юлдашев М.А. Таълим сифати менежментининг ташқи ва ички
назорат механизмлари // Илм ҳам жамият. –Нукус. 2016, - № 1. – Б. 88-90.

2. Д.Э.Қаршиева. Кластер воситасида бўлажак ўқитувчиларда касбий компетенцияни шакллантиришнинг педагогик асослари(мактаб малакавий амалиёти мисолида). 13.00.01. – Педагогика назарияси. Педагогик таълимотлар тарихи.Автореферат.Чирчиқ 2021.12-б

3. Кошанова Н.М. Оила ва мураббий манфаатли ҳамкорлигининг таълим сифатини оширишдаги аҳамияти. Academic research in educational sciences volume 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804.34-б.

4. Кошанова Н.М. Таълим самарадорлигини таъминлашда оила таълим салоҳиятини яхшилаш - долзарб вазифа «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» илимий-метадологик журналы .Нукус.2021.4-сон.49-б.

5. Кошанова Н.М. Ўзаро рақобат ва назорат муҳитини шакллантиришда таълим кластерининг асосий хусусиятлари//.Педагогик таълим кластери:муаммо ва ечимлар.Халқаро илмий-амалий конференция. Чирчиқ давлат педагогика институти.2021.25-26 июнь.103-б.

6. Данилова, Л. Н. «Родители-монстры» или воспитательное партнерство [Текст] /Л.Н.Данилова//Директор школы. - 2011. - №3. - С.67-72. 77

7. Буданова Г.П. Повышение уровня воспитательной работы в школе. Нормативно-правовые основания деятельности работников, выполняющих функции классных руководителей/Г.П. Буданова, Л.Н. Буйлова. М., 2007. С. 204.

MEHNAT TARBIYASI – MA’NAVIY TARBIYANING NEGIZI

Abdumalikov A.I.
Andijon davlat universiteti, Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti
Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi, PhD.

Tayanch so’zlar: ezgulik, adolat, vijdon, halollik, insonparvarlik, go’zallik, ma’naviyatning tamal toshi, qadriyatlar, mehnat.
Ключевые слова: добродетель, справедливость, совесть, честность, человечность, красота, краеугольный камень духовности, ценности, труд.
Key words: virtue, justice, conscience, honesty, humanity, beauty, the cornerstone of spirituality, values, work.

Резюме:
Ushbu ilmiy maqolda o’tmishda o’z otlariga ega boigan oilalarda bolalar kichik yoshlaridan chavandozlikni o’rgana boshlagan. Inqilobgacha oigan ayrim mualliflaming kitoblarida o’zbeklar o’gil bolalarni besh yoshidan otga mindirganini va ular o’n yoshlaridan jang o’yinlari hamda chavandozlik poygalarida qatnashgani tilga olingan.
Резюме:
Согласно этой научной пословице, в прошлом в богатых семьях, владевших собственными лошадьми, детей начинали обучать верховой езде с юных лет. В книгах некоторых авторов революции упоминается, что узбеки с пяти лет сажали мальчиков на лошадей, а с десяти лет принимали участие в боевых играх и конных скачках.
Summary:
In this scientific proverb, in the past, in wealthy families who owned their own horses, children began to learn horsemanship from a young age. In the books of some of the authors of the revolution, it is mentioned that Uzbeks put boys on horses from the age of five, and from the age of ten they took part in combat games and equestrian races.

Yozma manbalarda o’zbeklarning faqat erkaklari emas, balki ayollari ham ot minishni yaxshi bilgani qayd qilingan. Tarixiy manbalarda yozilganidek, o’zbek ovullarida ot poygalari har qanday qulay hollarda, hatto, yangi uy solinishi munosabati bilan ham oikazilgan. Bunday musobaqalarga kishilar qunt bilan tayyorgarlik ko’rganlar, o’z otlarini tayyorlaganlar va bunday ishlarda o’smirlar hamda yoshlar zimmasiga ko’p vazifalar yuklangan. Ayrim kishilar o’zining butun hayotini poyga otlarini tayyorlash kasbiga bagishlagan, Otalar yoki bobolar oczlarining ana shu sohadagi tajribalarini va chavandozlarga muhabbatini

kichkintoylarga o'rgatgan. O'zbek bolalari o'yinlarining ayrimlari harbiy o'yinlar bo'lib, buning sababi vatan mudofaachilarini tayyorlash va tashqaridan tez-tez boiib turadigan hujumlami muvaffaqiyatli qaytarish zarurligidan edi.

"Kamon otish", "Nayzabozlik", "Urush" va boshqalar harbiy o'yinlarga kirgan. O'zbek bolalari orasida 5-6 yoshlaridan boshlab kamon otish o'yini juda ommaviy tus olgan. Jamoatchilik bu o'yinni ma'qullagan va kattalar doimo bolalami qamon otishga rag'batlantirganlar. Xalq tarbiyada kamon otish o'yiniga qanchalik e'tibor berganini shundan ham anglash mumkinki, onalar o'z allalarida o'giining kuchli va kamon otishda mohir boiishi haqidagi istaklami kuylaganlar. Uzoq o'tmishda o'zbeklar oigan kishining qabriga ham kamon o'qini qo'yib ko'mganlar. Boshqacha aytganda, o'zbek uchun kamon o'qi qabristongacha hamroh boigan. Kamon otish jasurlikni tarbiyalagan, mohir kamonchi - jangchilar tayyorlashning yaxshi maktabi bo' lgan. Xalq pedagogikasi bolalaming qoilaridan keladigan mehnatda qatnashuvini ulami kompleks tarbiyalashning samarali vositalaridan biri deb hisoblagan. Mehnatning jamoa turlari yosh avlodni tarbiyalashda alohida ahamiyatga ega bo lib, o'zbek xalqida jamoa boiib bajariladigan ishlaming ko'maklashish, hashar kabi birqancha shakllari boigan.

O'zbek xalqining mehnat an'analari ichida hashar muhim rol o'ynaydi. U xalqimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ajoyib an'analaridan biridir. Hashar yaqin kishilarining, tanish-bilish, oshna- og'ayni, qadindosh-urug', hamkasblaming imorat qurish, to'y va ma'rakalar uyushtirish, qishloq xo'jalik ekinlarini tez yig'ib olishda o'zaro bir-birlariga yordam berishidir.

Bunday ishlar jarayonida yoshlar mehnat qilishgagina o'rganib qolmay, balki jamoaga uyushish, umumiy ishdan manfaatdorlik, o'zaro yordam zaruratini anglash kabi yuksak axloqiy sifatlami egallaydilar.Shuni ta'kidlash kerakki, qadim zamonlardan buyon zarur, mas'uliyatli hamda ko'p kuch va mablag' sarflab bajariladigan ishlarda qoilanadigan xolisona jamoaviy o'zaro yordamning umuman e'tirof etilgan va ishonchli shakllari bo'lib, xalqning hayotida juda muhim rol o'ynagan. Ular mehnatkashlar hamkorligining yorqin ko'rinishini, xalqning jamoachilik, do'stlik, o'rtoqlik, bir-biriga tayanish va o'zaro hamjihatlik haqidagi g'oyalarini ifodalagan va shunga ko'ra katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan.

Qadimda donishmand xalqimiz aqliy va mehnat tarbiyasida chorvachilik, bog'bonchilik, suvchilik sirlari haqida bolalarda tasawur hosil qilish va maium bilimga ega boiishlari umuman, inson qo'li va aqli yaratuvchilik qudratiga egaligini bilishga qiziqish tuyg'usini o'stirish maqsadida, o'zlari yaratgan maqollardan mohirona foydalanganliklarini ko'ramiz:

Bog'bon bo'lsang, sahar qil,
Dehqon bo'lsang, shudgor qil.

Dehqon - yer sultoni,
Cho'pon - yaylov sultoni.
Chorva to'q - tashvish yo'q.
Molli uy - moyli uy.
Qo'yni boqsang, qo'zilar,
Molni boqsang, buzoqlar.
Suv qatrasi - dur qatrosi.
Qor - yerning ko'rpasi.
Yomg'ir-yerning sho'rvasi.
Barvaqt qilingan harakat,
Hosilga berar barakat.
Vaqt ketdi - baxt ketdi,
Vaqt g'animat, o'tsa - nadomat.

Xalq pedagogikasida yigit-qizlarni yoshligidan mehnatsevarlik va kasb-hunarga havas hissini tarbiyalashga alohida e'tibor berildi. Turli kasb egasi bo'lgan ota-onalari, buva va buvilari bilim va tajribalarini bolalariga qunt bilan o'rgatdilar, ularni ustoz-shogird sifatida dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, ovchilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik, o'ymakorlik, zargarlik, to'qimachilik, tikuvchilik, tabiblik va boshqa sohada kasbkor bo'lib yetishishiga ko'maklashishdilar. Bunda "Mehnatingni halol qilsang, huzurini ko'rasan", "Mushkulliklardan hayot emas, faqat tadbir va mehnat qutqazadi", "Baxtli bo'lish-mehnatni sevish va rohatni mehnatda ko 'rishdir", "Mehnating – ziynating", "Ota kasbi - davlat kasbi", "Ustoz ko'rmagan shogird, har maqomga yo'rg'alar", "Avval o'rgan, keyin o'rgat", "Aql qo'lga yetkazar, hunar ko'kka", "Ustozsiz shogird-jonsiz kesak" kabi xalq maqollari yoshlar uchun asosiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qildi.

"Vafodorlik" ertagida shunday deyiladi: "Chol asta-sekin Gulshodni tabiblikka o'rgatibdi, giyohlardan har xil dorilar tayyorlashni va bemorlaming kasalini aniqlash yoilarini o'rgatibdi. Bir yildan so'ng, Gulshod choldan ko'p narsani o'rganib olibdi.

Asta-sekin butun yurtga Gulshodning tabiblik hunari maium boiibdi, har tomondan uning oldiga bemorlar kelibdi..."

"Oygul bilan Baxtiyor" ertagida: "Qadim zamonda bir podshoh boigan ekan, uning bir qizi bor ekan. U qiz juda aqlli, dono ekan. Soz chertar ekan, qo'shiq aytar ekan, gilam to'qir ekan, surat solar ekan. Qisqasi, qirq hunari bor ekan..." - deyilgan.

"Makkar ustia bilan ayyor kal" ertagida keltirilishicha, charx yigirib kun ko'ruvchi qashshoq kampiming o'g'li onasini qo'yarda-qo'ymay podshohning qiziga sovchi qilib yuboribdi. Podshoh yigitning onasiga:

“Bolangga ayt, qirq turli hunar o’rgansin, o’rgangan hunarining hammasi boshqa-boshqa boisin, bir-biriga o’xshamasin debdi”. Yigit qirqta hunami qunt bilan o’rganib, podshohning qiziga uylanibdi.Shorasul Zunnunning mashhur “Oz-oz o’rganib dono bo’lur” kitobida kasb-hunaming sharofati xususida shunday hikoya (hikoyat) keltiriladi. “Qadimgi arab hukmdorlaridan xalifa Xorun ar-Rashidga tobe bir shahar boshligi shunday hikoya qiladi:

- Otam har vaqt meni hunar o’rgatishga da’vat qilib: “o’g’lim yoshligingni g’animat bilib, hunar o’rgan, mansab va davlatingga ishonma, bir kun bulaming hammasi qoidan ketishi mumkin, ammo hunar doimo sen bilan birga boiadi, seni hech bir muhtojlikka tushirmaydi”, - deb nasihat qilardi.

Men otamning nasihatini jonu dilim bilan qabul qilib, hunar o’rganishga bel bogiadim. Hunarlar orasida gilam to’qish hunari menga juda ham ma’qul boiib tushdi. Gilam to’qiydigan eng mohir ustaga shogird boiib, shu hunami o’rganishga g’ayrat bilan kirishdim. Nihoyat, gilam to’qishda mohir usta boiib yetishdim.

Xalifa Xorun ar-Rashid otam vafot etgandan keyin uning o’miga meni shahar boshligi etib tayin qildi. Oradan bir necha vaqt o’tgandan keyin xalifa Xomn ar-Rashidni ziyorat qilish maqsadida ikki yo’ldoshim bilan paytaxt Bag’dodga jo’nadik. Bir necha kun safar ranjini tortib, Bog’dod shahriga dohil bo’ldik. Qornimiz och edi. Juda ziynatlangan va ozoda bir oshxonaga kirdik. Oshxona egasi bizni ko’rgan zamon darhol yonimizga kelib, hol-ahvol so’rashib aytdi:

- Sizlar boshqa shahardan kelgan obroii kishilarga o’xshaysizlar, bozorda ovqatlanish sizlar uchun aybdor. Oshxonaga yaqin bir ozoda joyim bor, o’sha yerda ovqatlaning.Biz uning taklifini qabul qildik. U bir xizmatchisiga bizni o’sha joyga olib borishni buyurdi. Xizmatchi bizni juda bezatilgan bir uyga olib bordi va uyning eshigini ochib:

- Shu uyda dam olib turing, men hozir borib ovqat keltiraman,-dedi. Biz uyga kirgan edik, xizmatchi eshikni berkitib jo’nab ketdi. Oradan ozgina fursat ham o’tmagan edi, biz turgan yer ikkiga ajralib, hammamiz pastga, bir yerto’ladagi uyga tushib ketdik. Yuqoridagi uyning ikkiga ajralgan yeri yana avvalgidek bir-biriga jipslashdi. Biz hayron bo’lib qo’rqib turgan edik, oshxona egasining bir necha xizmatchilari qo’llariga pichoq ushlaganlari holda yonimizga keldilar, ularni ko’rgach, hammamiz jonimizdan umid uzdik. Oshxona egasi musofirlami shunday hiyla bilan o’ldirib, ulaming go’shtlarini ovqatga solib, pishirib, sotar ekan. Shu tobda mening miyamga bir fikr kelib, ularga:

- Biz yaxshi gilam to’qishni bilamiz, bizni o’ldirishdan nima foyda ko’rasiz? Borib, boshligingizga ayting, bizga gilam to’qish uchun kerakli narsalarni

yuborsin, tayyor bo'lgan gilamlarni sotib juda katta foyda ko'radi, - degan edim, ularga taklifim ma'qul boiib, chiqib ketdilar.

Taklifim oshxona egasiga ma'qul boiibdi. Ertasiga bizni boshlab kelgan xizmatchi gilam to'qishga kerak bo'ladigan asbob va boshqa narsalami keltirib berdi. Biz gilam to'qishga kirishdik. Tayyor boigan gilamni xizmatchi kelib olib ketardi. Bir necha vaqt shu xilda umr kechirdik. Bir kun juda ham chiryli, guidor gilam to'qidim, uning bir chetiga otim yozilgan muhrimni bosdim. Oshxona egasini chaqirtirib:

- Ko'rdingmi, bu gilam qanday chiroyli to'qilgan, podshohlarga maxsus bir gilam, buni bozorga sotmasdan, xalifa Xorun ar-Rashidga olib boring, u sizga ko'p in'om qiladi, -dedim.

Oshxona egasiga bu so'zim ma'qul bo'lib, ertasiga gilamni Xorun ar-Rashidga olib borgan. Xorun gilamning chiroyligiga zavqlanib, uning u yoq bu yog'ini ko'rar ekan, ko'zi gilamning bir chetiga bosilgan muhrimga tushib qolgan, bundan shubhalanib, oshxona egasidan bu gilamni qayerdan olganini so'ratgan ekan, u bir savdogardan sotib olganini aytgan. Xorun ar-Rashid muhrimni ko'rsatib, uni qamoqqa olgan, bir necha vaqt qiynagandan keyin oshxona egasi aybiga iqror bo'lgan.

O'sha kuni Xorun ar-Rashidning yuborgan odamlari kelib bizni ozod etib, xalifaning huzuriga keltirdilar. "Oshxona xizmatchilarini qamadilar Xorun ar-Rashid bizga ko'p iltifotlar qildi. Oshxona egasi va uning xizmatchilarini dorga ostirdi. Xalifa Xorun ar-Rashid yonida bir necha kun turib, keyin o'z shahrimizga qaytdik. Shunday qilib, hunarimning sharofatidan men ham, ikki yo'ldoshim ham o'limdan qutuldik".

Ushbu hikoyatda har bir inson uchun kasb-hunar o'rganish zarurligi g'oyasi va yigit to'qigan gilamda uning aql-idroki, zakovati, kasbga boigan muhabbati o'z ifodasini topgan.

O'zbek xalq pedagogikasida bolalami mehnat tarbiyasida o'z-o'ziga xizmat qildirish, ishontirish, qiziqtirish, nasihat qilish, maslahat berish, amalda ko'rsatish va rag'batlantirish usullaridan samarali foydalanish yaxshi natija bergan. Bu usullar, namunali ishlar qilgan yigit-qizlarga nisbatan qoilangan: "Barakalla", "Juda soz", "Rahmat", "Umringdan baraka top", "Baxtli bo'lgin" so'zlari bilan yigit-qizlaming ko'ngli ko'tarilgan, kulib-erkalab boshi silangan va h.k. Shuningdek, mehnat tarbiyasida ijtimoiy foydali mehnat qilishni istamagan, topshiriqni bajarmagan, dangasa-ishyoqmaslarga nisbatan esa jazolash usuli qo' llangan. O'zbek xalq pedagogikasida iqtisodiy tafakkur bilan tijorat faoliyati uzviy birlikni tashkil etshgan. Xalq iqtisodiy tarbiyaning zamrligi va mohiyatini bilgan holda, bolalami yoshligidan tijorat (savdo-sotiq) ishlariga jalb etadi. Bolalar ota-bobolarining yonlarida bo'lib, hisob-

kitobni, tarozida narsalarning og'irligini aniqlashni, xaridorlar bilan qay tarzda muloqotda, muomalada bo'lishni o'rganadilar, shu zaylda ular o'zlari ham mustaqil suratda tijorat (savdo-sotiq) ishlarini bilib oladilar. Natijada bolalarning yoshligidan savdo-sotiq ishiga jalb ettirilishi ularning iqtisodiy tarbiyasiga yordam beradi: bolalar mollarning sifatini aniqlash, bir molning boshqa moldan farqini ajratish malakasini egallaydilar.

Mehnat tarbiyasi - tarbiyaning muhimturi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo‘lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, institutizm, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko‘zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo‘lganligi uchun ham Mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo‘lgan. Mehnat tarbiyasi g‘oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo‘lib, “mehnat ta’limi”, “kasbga yo‘naltirish”, “politexnik ta’lim”, “kasb ta’limi” singari tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilohiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda Mehnat tarbiyasiga katta e’tibor berilgan. Lekin ularga materialist (moddiyunchi)lardan farqli tarzda Mehnat tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko‘nikma va malakalarni shakllantirish ko‘zda tutilmagan. Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o‘zini anglay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi. Jumladan, chaqaloklar go‘daklik bosqichiga o‘tishlari bilanoq, ularga dastlabki Mehnat tarbiyasi berila boshlanadi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste’molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma’naviyati kemtik shaxs ham bo‘lib shakllanishi mumkin. Bolalarga Mehnat tarbiyasi berishda bog‘cha, maktab singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o‘rin tutadi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Bolaning imkoniyatlaridan yengil Mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og‘ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va institutizm bo‘lishiga qat’iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha Mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o‘qish jarayonining o‘zi og‘ir aqliy mehnatdir. Maktabga o‘z vaqtida kelib-ketish, o‘qish-yozishni o‘rganish, berilgan bilimlarni egallash uchun o‘quvchilarga. Mehnat tarbiyasi berilgan bo‘lishi kerak. Chunki o‘quv topshiriqlarini bajarish, dars o‘zlashtirish, o‘tilganlarni takrorlash, yozma ishlar bajarish, kerakli matnlarni yodlash, ko‘chirmalar olish, lug‘atlar bilan ishlay olishi uchun o‘quvchi muayyan

intizomga rioya etishi, tashkilotchilik qobiliyati va ishchanlik xususiyatiga ega bo‘lishi, ishning ko‘zini bilishi kerak. Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish jarayonlarining ham o‘rni katta. Chunki bu jarayonlarda o‘quvchilarni bevosita tegishli mehnat ko‘nikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda qo‘llash bosqichini o‘taydilar. Shuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo‘nalishi o‘ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar. Shuning uchun ham mehnat ta’limi imkon qadar xilma-xil bo‘lishi hamda o‘quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va jinsiy xususiyatlarig amuvofiq kelishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997-yil 29-avgust)ga muvofiq, o‘rta maxsus ta’lim bosqichining majburiy bo‘lganligi o‘zbek o‘quvchilariga Mehnat tarbiyasi berishda alohida ahamiyat kasb etgan. Chunki, bu bosqich to‘liq kasbga yo‘naltirilgan bo‘lib, kasb hunar kollejlari o‘quvchilari bevosita o‘zlari tanlagan kasblarga doir ko‘nikma va malakalar shakllantirsalar, akademik litsey o‘quvchilari kelajakda egallaydigan kasblarning nazariya asoslarini o‘zlashtirganlar.

Oliy ta’limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida Mehnat tarbiyasi bevosita kasb ta’limi bilan qo‘shib amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi berishda o‘quvchilarning bo‘shvaqtidan to‘g‘ri foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarning o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan, mehnat amaliyotini o‘tashlarini to‘g‘ri tashkil etish, ularni bolalar, o‘smirlari ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari qoshidagi to‘garaklarga ko‘proq jalb qilish yosh avlodning komil shaxslar sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A.Olijanob fazilatlar sohibi bo`lgan bag`rikeng xalqimiz oldida ta`zim qilaman. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 38 b.

2. Karimov I.A.Hayot sinovlarida toblangan Qashqadaryo eli har qanday yuksak marrani egallashga qodir. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 27 b.

3. Karimov I.A. Ozodlik havosidan to`yib nafas olgan xalq o`z yo`lidan hech qachon qaytmaydi. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 27 b.

4. Otamurodov S., Xusanov S. Ma’naviyat asoslari. – T.: Ma’naviyat, 2003 yil.

5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2006 yil.

6. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz takomil bosqichlari. – T.: Iqtisod maliya nashriyoti, 2006 yil.

7. Ma’naviayat. Asosiy tushunchalar izohli lug’ati. –T.: G’ofur G’ulom, 2009 yil.

TALABALARNI KASB-AMALIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Joldasov I.S.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Tarix" kafedrasi katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: talaba, ta'lim, tarbiya, ijodiy qobiliyat, huquqiy ta'lim,ustoz-shogird.
Ключевые слова: студент, образование, подготовка, творческие способности, юридическое образование, преподаватель-ученик.
Key words: student, education, training, creative ability, legal education, teacher-student.

Резюме:
Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida zamonaviy talablarga javob beradigan yoshlarni tayorlash va yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan.
Резюме:
В данной статье представлена подробная информация о подготовке молодежи, соответствующей современным требованиям, в системе высшего образования и предоставлении отличного образования молодежи, а также создании условий для развития инклюзивного образования в регионах.
Summary:
This article provides detailed information about the preparation of young people who meet modern requirements in the higher education system and the provision of excellent education for young people, as well as the creation of conditions for the development of inclusive education in the regions.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston "Taraqqiyot strategiyasi"ning "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishining maqsadida: "Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish"[1] belgilangan bo'lib, bu talabalarning kasbiy kompetentligini ta'minlashning institutsional asoslaridan biri sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Aksariyat bitiruvchilarning bilim va

malakasi mehnat bozori talablariga javob bermayotganini ham tan olishimiz kerak. Mahalliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy yetish darajasi juda past"[2].

Shu sababli ham "Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da ko'rsatib o'tilganidek, "oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish"[3] kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Umuman ta'lim-tarbiya jarayoni o'zining ma'lum tushunchalari, rivojlanish va faoliyat tamoyillari, didaktik imkoniyatlari bilan doimiy munozaralarga sabab bo'ladi. Masalan, ta'lim deganda insonda ma'lum bilimlar, qarashlar va e'tiqodlar, axloqiy qadriyatlar, siyosiy yo'nalish va hayotga tayyorgarlik ko'rish maqsadida ijtimoiy institutlar tomonidan yo'naltirilgan ta'sir tushunilsa, tarbiyani ham ushbu tushunchalardan ayro holda ta'riflab bo'lmaydi. Ta'lim jarayoni va uning amaliy jihatlariga e'tibor qaratish ma'lum qoidalar, huquqiy-me'yoriy asoslariga ega bo'ladi. Huquqiy ta'lim - bu huquqiy madaniyat va faol huquqiy xulq-atvorni rivojlantirish maqsadida shaxsga maqsadli, doimiy ta'sir ko'rsatishdir. Huquqiy ta'limning asosiy maqsadi insonga hayotda zarur bo'lgan huquqiy bilimlarni berish va uni qonunlar va qoidalarni hurmat qilish va ularga rioya qilishga o'rgatishdir, ya'ni yetarli darajada yuqori huquqiy madaniyatni shakllantirishdan iborat.[4] Talabalarning amaliy kompetensiyasini shakllantirish o'zining kelajak kasbiy faoliyati va shogirdlarini kasbga yo'naltirishda , yosh avlodni jamiyatga ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mexnat va kasb tarbiyasini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish ishlarini samarali amalga oshirish yetarlicha tarixiga ega bo'lib, xalqimizning millat, elat bo'lib shakllanishida jamoaviy mexnat, zaruriy kasblar, xunarlarni egallashida, turmush tarzining rivojlanishida o'z o'rniga ega bo'lgan. Ma'lumki, odamzod paydo bo'lishidan boshlab mexnat bilan shug'ullangan, turli turmush buyumlari yasagan yumushlar bajargan. Keyinchalik bu ustoz-shogird tamoyillari shakliga ko'cha borgan. Dastlab faqat kun kechirish uchun qilingan mehnat takomillashib kattaroq maqsadni, moddiy manfaat ko'rish uchun amalga oshirilib hatto, X asrlarda yirik harbiy qo'shinlarni, millionlab xalqlarni buyumlar, anjomlar bilan ta'minlay oladigan ishlab chiqarish sohalari darajasigacha taraqqiy etdi. Bundan tashqari, ushbu mutaxassislarning har biri aniq ma'lumotlar, o'ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega, shuning uchun ular bu kasbga, sohaga oid faoliyatlarda ularga ma'lum bo'lgan usullar, muammoga

yondashish, idrok qilish va boshqalarga tayanib, ba'zi ulardagi atamalardan foydalanishda ziddiyatlarning kelib chiqishi holatlari kuzatilishi orqali kasbga yo'naltirish muammolar hal etilib borilgan. Bu ba'zi amaliy masalalarni tushunish borasida ham yakdillikning buzilishiga olib kelgan. Bu tafavvurlar faqatgina har bir hodisa, jarayonlarning hayotiy zarurati va mohiyati, amaliy jihatiga munosabat asosida yechim topadi.

Buning yagona sababi - kasbiy yo'nalish bilan bog'liq bilimlarning mazmuni bo'lib, kasbga yo'naltirish ishlarining tizimi va metodologiyasini ishlab chiqishdagi muvaffaqiyatli ishlarni davom ettirish muhimligi bilan asoslanadi.[5]

Sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari deyarli barcha davrlarda o'z asarlarida, she'r va g'azallarida, adabiy meroslarida halol mehnatni, kasb-hunar egallashni muqaddasligini va zarurligini ta'kidlab, ulug'lab o'tganlar. Ulug' bobokolonimiz Alisher Navoiy o'z g'azallarida yoshlarni ilmu hunar egallashga, X asrda yashab ijod etgan ulug' bobokalonimiz Abunasr Al - Forobiy ham kishilarni halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqiradi. Forobiyning fikricha, inson – "Ojiz banda", "Hech narsaga qodir bo'lmagan mavjudot" emas, balki u eng oliy kamolot bo'lib "Aql-idrok ziyosiga ega, o'zi uchun zarur bo'lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir".[6] Forobiy mehnat va kasb - hunar ko'nikmalarini axloqiy fazilatlarni hosil qilish lozimligini ta'kidlab: "Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda, podshohlar ham o'zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo'lib qolar edi. Kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lmas ekan, xalqlar va shahar ahllarida, odob-axloq, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilishi uch insondagi zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo'l bilan: ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar shaharlar o'rtasida nazariy fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlari birlashtirish degan so'zdir" degan edi. [7] Kasb-hunar egallashni ahamiyati to'g'risida qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037)ning asarlarida ham bolaga yoshligidan biror kasb-hunarni o'rgatish lozimligi, so'ngra o'z kasb-hunaridan hayotda foydalanish, yani halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o'rgatish kerakligi xususida "Yoshlarga ilm bera borib, ularga hunar o'rgatmok muhim ma'suliyatli ishdir. Hunar o'rganish birla yoshlar har qanday nojuya hatti-harakatlardan xoli bo'ladilar"[8] deb ta'kidlaydi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotida Sharqu - G'arbda ham yoshlarni kasb-hunar egallashlariga alohida e'tibor bilan qaralgan. Ularni kasb-hunar egallashlariga otalik, ustozlik maslahatlarini, yo'l-yo'riqlarini muntazam berib kelganlar. Rasman kasbga oid maslahat idoralari asrimiz boshlarida paydo

bo‘la boshlagan. Mazkur ma’lumotlarga asoslanib kasbga yo‘naltirish ishlari qadimdan shakllanib kelganligini, jamiyat taraqqiyotnning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rivojlanib borganligini xulosa qilish mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli farmoni. 2022-yil 28-yanvar. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylarga yo‘llagan tabrigi. 2020-yil 30-sentabr. https://president.uz/uz/lists/view/5569

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. 2019-yil 8-oktabr. https://lex.uz/docs/4545884

4. Karimova O. “Huquqshunoslik” va “Konstitutsiyaviy huquq” fanlarini o‘qitish muammolari // Xalq ta’limi. – 2006. – №4. – B. 46 – 49

5. Murtazayev M.,Doniyorova Sh. Texnologiya ta’limi bo‘yicha hunarmandchilik sohalarini milliylik asosida amaliy o’rgatish asoslari , Fiziko-texnologicheskogo obrazovaniye: Tom 4 № 4 (2021): Journal of Physics and Technology Education.

6. M.Xayrullayev “Farobiy”T.:1983 y. 83 b.

7. Xayrullayev M. M . O‘rta Osiyoda ilk uygonish davri madaniyati, T., 1994;

8. Rahmatulloh Sayfuddinov. “Halol kasb – farovonlik omili”. Movarounnahr. Toshkent – 2013.

9. Joldasov I.S. “Elektron ta’lim muhitida ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyatlari” Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал. 2024 5/3-сан.oktabr.

THE PERSPECTIVES OF FUTURE PROFESSIONALS ON IMPROVING THEIR RESEARCH SKILLS THROUGH ACADEMIC WRITING

Musoyeva A.B.
Samarkand state institute of foreign languages, PhD, docent

Tayanch so‘zlar: ko‘nikma, tadqiqot kompetensiyasi, akademik yozish, pedagogik kompetensiya, ilmiy yozuv kompetensiyasi.
Ключевые слова: компетентность, исследовательская компетентность, академическое письмо, навыки, педагогическая компетентность, компетентность научного письма.
Keywords: competency, research competence, academic writing, skills, pedagogical competence, scientific writing competency.

Резюме:
Ma’lumki, hozirgi ta’lim jarayonida shaxsni tarbiyalashda ilmiy yozuv hamda tadqiqot kompetensiyasining ahamiyati beqiyosdir. Sababi, aynan tadqiqot kompetensiyasiga ega bo‘lish ilm-fan rivojiga hissa qo‘shishga intiladigan bo‘lajak mutaxassislarning ko‘payishiga zamin yaratadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqot kompetensiyasi va akademik yozish ko‘nikmalari darajasini o‘rganish hisoblanadi. Shu maqsadda, 397 nafar bo‘lajak o‘qituvchilarga Google Forms yordamida ko‘p tanlovli so‘rovnoma yuborildi hamda unga asosan statistik tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning katta qismi tadqiqot kompetensiyasi va akademik yozish bo‘yicha yetarli bilim va tushunchaga ega.
Резюме:
Как мы знаем, научное письмо является важнейшим компонентом в образовании людей в рамках текущей образовательной структуры. Это исследование направлено на оценку исследовательской компетентности и навыков академического письма будущих преподавателей. Пересмотренная анкета с множественным выбором была распространена среди 397 потенциальных преподавателей через Google Forms, онлайн-инструмент для опросов. Данные опроса прошли статистическую оценку через Google Forms, что облегчает применение описательной статистики. Результаты исследования показывают, что значительная часть потенциальных преподавателей обладает знаниями и пониманием исследовательской компетентности и академического письма.
Summary:
As we know that scientific writing is a crucial component in the education of individuals within the current educational framework. This study seeks to evaluate the research competence and academic writing skills of future educators. A revised multiple-choice questionnaire was distributed to 397 potential instructors via Google Forms, an online survey tool. The survey data underwent statistical evaluation through Google Forms, facilitating the application of descriptive statistics.

The findings of the study indicate that a considerable proportion of prospective educators possess knowledge and understanding of research proficiency and academic writing.

Introduction. Many individuals have dedicated considerable time to researching various topics globally. This has endured since ancient times and possesses profound historical roots. Ancient Greek scientists and philosophers originating from Central Asia achieved significant breakthroughs through their relentless quest for knowledge. The findings were obtained from multiple sources, encompassing thorough research, careful analysis, and significant study. Recent research has expanded its focus to encompass various advancements and attributes that enhance the effectiveness and accuracy of scientific inquiry. As a result, a significant number of individuals are engaged in research on a global scale.

Developing research proficiency in prospective teachers, particularly in the area of ESL, poses a significant challenge. In our country, English is frequently taught as a second or foreign language, and due to significant progress in this area, many young individuals achieve English proficiency from an early age. In higher education, students are equipped with enhanced knowledge and skills. In certain instances, this may prove insufficient for enhancing their proficiency in academic writing and research skills. It is crucial for Uzbekistan's education system to focus on the enhancement of higher education curriculum that emphasizes the significance of academic writing skills and research competence.

Literature review. As we know that scientific research involves the systematic and methodical clarification, interpretation, and enhancement of data within the scientific domain. Scientific research is an objective, systematic, and multi-stage process based on established facts aimed at advancing knowledge that is not present in existing literature [1]. As a result, it can be stated that during the process of scientific research, each researcher initially prepares and contributes to the field by systematically and clearly analyzing the resulting data. Research involves seeking answers to questions, requiring a well-thought-out plan for implementation, a concept that applies to all forms of exploration in our daily lives.

In the context of our dissertation, both research and competence are essential terms that require clear definitions. K. Riskulova defines "competence" as the laws, principles, regulations, norms, responsibilities, tasks, and obligations essential for an individual in a specific field. Competence relates to an individual's practical involvement, characterized as the ability to demonstrate competency standards in professional experience, motivated by creativity in

alignment with societal needs. The primary criteria are defined by successful performance and the development of competitive talent [2].

Consequently, it can be said that competency is essential for every future expert and will facilitate efficient performance throughout their career. In this context, since our focus is on future experts, namely educators, the significance of pedagogical competency and professional competence within them is unparalleled. Research competence primarily drives the future expert towards self-improvement and personal growth, enabling contributions to science, while professional competence facilitates the accurate transmission of gained information.

The textbook "General Pedagogy," authored by N. Atayeva, M. Salayeva, and S. Hasanov, defines pedagogical competence as a skill, portraying it as a refined and adept individual in the field. A teacher-educator is characterized by a comprehensive understanding of their subject matter, the ability to analyze related disciplines effectively, and a command of educational techniques [3].

We believe that the terms professional competence and pedagogical competencies may be used interchangeably.

Professional competence refers to the capacity of prospective educators to comprehend the subject matter, maintain its relevance, and apply it appropriately in instructional contexts. In the professional realm, knowledge, credentials, and abilities are essential; yet, the development of personal attributes and successful societal engagement is paramount [4]. Consequently, in the cultivation of professional competence, it is essential to provide many chances for the prospective teacher to develop personal attributes and establish their role in society.

The notion of professional competence is an element of pedagogical ability or professionalism that ensures the efficacy of educational endeavors, whereby professional competence serves as a metric of professionalism, and the effectiveness and success of professional activities are its determinants [5]. Consequently, professional competence is crucial in the educational endeavors of an aspiring teacher, serving as a measure of their proficiency and a criterion for favorable outcomes.

The professional growth of a foreign language educator starts with the instruction of a foreign language as a second language. The rationale is that, as an integrated system of language acquisition, instruction, and evaluation, each phase should be grounded on continuous communicative learning [6]. Consequently, it can be said that the future expert will enhance their professional competencies after years of education. During these courses, they enhance

their research proficiency and actively participates in scientific endeavors. This exemplifies not their scientific endeavors aimed at acquiring a certain degree, but rather their pedagogical research, publishing of scholarly publications, and inquiry conducted during instruction.

UNESCO publications describe "competence" as a methodical amalgamation of values, attitudes, knowledge, and skills encountered daily. It asserts that the paramount competencies of the 21st century encompass:

- √ Continuous learning (curiosity, critical analysis, ongoing inquiry);
- √ Independence (entrepreneurship, accountability, self-worth, innovation, resilience);
- √ Interaction with others (respect, openness, empathy, collaboration, camaraderie, leadership);
- √ Interaction with the world (environmental stewardship, global awareness);
- √ Interaction with diverse tools and resources (creative, rational, ethical, and sustainable utilization of technology and available assets);
- √ Transdisciplinary (systemic thinking, establishing connections, devising solutions to global challenges);
- √ Multiliteracy (intercultural competence, health literacy, scientific literacy, data literacy, financial literacy, numeracy, general literacy) [7].

The competencies endorsed by UNESCO, including Continuous Learning and Multiliteracies, are intrinsically linked to research competence and are crucial for the professional development of future specialists.

In some contexts, research competency is referred to as "scientific competence." For instance, from several global organizations such as the Organization for Economic Cooperation and Development (OECD) and the Program for International Student Assessment (PISA), as well as from international scholars such Beghetto [8], Bybee [9], Chun-Yen [10], Cohen, Manion, Morrison [11], Kind and Osborne [12], Krell et al. [13], Lijnse and Klaassen [14], Schwartz et al. [15], and Sadler and Zeidler [16] did study on scientific competence. Consequently, the previously stated study conducted by scholars is significant for understanding scientific capability.

Research Methodology. The research involved 397 prospective educators from four institutions: Uzbekistan State University of World Languages, National University of Uzbekistan after Mirzo Ulugbek, Bukhara State University, Jizzakh State Pedagogical University, and Samarkand State Institute of Foreign Languages.

This study employs a 20-item Multiple Choice Questionnaire, organized into four distinct sections. The survey was carried out with prospective educators

from five universities in Uzbekistan, employing an online Google Forms software application. The survey consists of three sections. The initial section gathers demographic information and learning profiles of the participants. The second part assesses their emotions, convictions, and drive regarding L2 writing. The third part evaluates the competencies in digital literacy of both pre-service and in-service teachers. Finally, the fourth component assesses the frequency of obtaining feedback and making revisions.

Results and Discussions. In order to assess their writing proficiency, the participants were queried about their level of writing expertise. In the table below, you can see the preliminary results of the survey of future specialists (see table 1):

Table 1

Results of a survey conducted among students

Universities	**UzSUWL**		**UzNU**		**BuxSu**		**SamSIFL**		**JSPU**	
Questions	**EG**	**CG**	**EG**	**CG**	**EG**	**CG**	**EG**	**CG**	**EG**	CG
State your level of English:										
Pre-intermediate	4	5	4	5	6	5	6	5	5	6
Intermediate	15	14	14	15	14	15	17	16	13	14
Upper intermediate	17	18	16	14	15	14	14	15	14	14
Advanced	5	5	4	5	5	6	6	5	4	3
How would you describe your level of Writing Proficiency?										
Advanced	4	5	4	5	4	5	5	4	4	5
Very good	13	13	12	13	14	13	15	16	13	13
Good	18	17	16	16	16	15	17	15	14	15
Weak	6	7	6	5	6	7	6	6	5	4
How well do you know about research competence?										
I am familiar or very familiar with it	15	15	12	14	16	13	15	14	13	14
I know the main idea	20	21	19	18	19	20	21	22	18	18
I only have a vague idea	4	3	4	3	3	4	3	2	3	2

I have never heard of it	2	3	3	4	2	3	4	3	2	3
In general, you find writing assignments in English:										
Easy	6	7	8	9	6	8	8	9	6	7
Difficult	15	14	13	12	15	14	15	14	10	11
Very difficult	12	12	10	10	10	10	13	10	14	12
Neither difficult nor easy	8	9	7	8	9	8	7	8	6	7
The references you mostly use:										
Books	15	16	14	16	15	15	16	17	14	13
Journals	8	9	10	11	12	11	14	13	13	11
Both	18	17	14	12	13	14	13	11	10	13
Put a tick next to the weaknesses or difficulties in your academic writing:										
Paraphrasing/ Summarizing	2	3	2	1	2	2	3	2	1	2
Language use (spelling, punctuation, grammar and vocabulary)	3	3	4	2	2	3	2	3	2	2
Finding relevant references/ resources	5	6	5	7	7	6	7	7	6	5
Referencing and citation	6	5	4	6	7	6	6	6	7	6
Coherence and cohesion	6	6	5	6	7	6	7	6	5	6
Choosing a significant topic	3	3	4	2	2	3	2	3	2	2
Presenting data on statistical style	3	4	3	2	3	2	4	3	3	4
Writing the paragraph into suitable order	3	3	3	3	3	2	3	3	2	2

Writing literature review	6	6	5	7	5	7	5	5	6	5
Writing introductions/ conclusions	4	3	3	3	2	3	4	3	2	2
What kinds of internal factors are contributing to your difficulties in academic writing?										
Lack of confidence	14	14	11	11	13	11	11	12	13	14
Self-motivation	11	10	8	9	10	10	11	9	6	7
Lack of knowledge & ideas	14	15	16	17	15	16	17	17	13	14
Feeling of under-pressure	2	3	3	2	2	3	4	3	4	2
What kinds of external factors are contributing to your difficulties in academic writing?										
Teacher's teaching style	9	9	10	11	10	12	9	9	10	11
Classroom atmosphere	7	8	6	7	6	5	7	6	4	5
Materials	10	10	9	10	11	12	13	13	9	10
Lack of corrective feedback by the teacher/ supervisor	8	8	6	6	7	6	8	7	9	6
Unresponsive teacher	7	7	7	5	6	5	6	6	4	5
What kinds of digital tools do you use in academic writing?										
Grammarly	5	6	4	5	4	5	6	7	4	3
Quill bot	3	2	2	1	2	2	2	1	1	1
Turnitin	0	1	1	0	1	1	0	1	0	0
Mendeley, Zotero	1	2	1	2	1	2	2	1	1	1
Google	6	7	8	9	7	8	8	8	6	7
Google dictionary	5	6	5	6	6	7	7	7	6	7

Online websites	6	5	5	6	8	7	6	5	4	4
Google translator	6	5	6	5	5	4	5	5	6	5
YouTube videos	4	3	3	2	3	2	4	3	4	4
Antiplag.uz	5	5	3	3	2	2	3	3	4	5
If you use above digital tools, how often do you use them?										
Never	4	5	4	5	3	5	4	3	5	4
Rarely	9	8	9	9	8	6	9	8	6	7
Frequently	20	21	19	18	20	21	22	23	17	18
Very frequently	8	8	6	7	9	8	8	7	8	8
For what purposes do you use above digital tools?										
To have correct spellings/ punctuations	6	7	5	6	4	5	8	7	4	4
To minimize grammatical errors	6	5	7	8	5	6	4	5	6	7
To have accurate word choices	5	6	4	5	7	8	6	4	4	5
To write well-crafted sentences	6	7	5	6	4	5	7	8	6	7
To organize my writing ideas	8	9	10	9	11	12	10	10	8	7
To have correct referencing	4	3	2	2	3	2	3	3	2	3
To verify papers for plagiarism	6	5	5	4	6	6	5	4	6	4

We deemed it appropriate to examine the following question for analysis. The table indicates that over 80% of participants express a preference for writing in English, with a nearly identical percentage of students favoring the review of samples prior to composing in English. Furthermore, there are participants who

respond with “Disagree” and “Not sure” to the subsequent questions, which clearly highlights the significance of the issue under investigation (refer to Table 2):

Table 2

Please read the statement below and mark each row to show how much you agree or disagree:											
№	**Questions**	**Strongly Agree**		**Agree**		**Disagree**		**Strongly disagree**		**Not sure**	
		1	**%**	**2**	**%**	**3**	**%**	**4**	**%**	**5**	**%**
1	I enjoy writing in English	134	33	213	54	27	7	13	3	10	2
2	I do not enjoy writing in English because it is a very difficult skill for me	50	12	68	17	117	29	142	36	20	5
3	I feel that I can be a good writer if I practice writing regularly	120	30	200	50	37	9	29	7	11	3
4	I prefer to look at a writing model before I start writing in English	114	29	187	47	41	10	36	9	19	5
5	Academic writing is not an important skill for me	25	6	43	11	203	51	118	30	8	2
6	Academic writing skills are necessary for my current graduate studies & publishing	94	24	119	30	84	21	44	11	56	14
7	Academic writing is important for your future career	109	27	138	35	50	12	35	9	65	16
8	I am a good writer in both Uzbek and English	75	19	79	20	146	37	67	17	30	7
9	I think the writing traditions in Uzbek and English are quite different	207	52	90	23	38	9	42	10	20	5
10	In terms of writing style, Uzbek and English are similar	87	22	52	13	183	46	50	12	25	6
	MEAN		25		30		23		14		6

The table below provides insights into the participants’ utilization of sources in academic writing, their awareness of plagiarism, and their engagement with platforms such as Research Gate, Academia, and Google Scholar (refer to Table 3):

Table 3

Please read the statement below and mark each row:							
№	Questions	Yes		No		Not sure	
		1	%	2	%	3	%
1	I can use reliable sources for my academic writing	247	62	87	22	63	16
2	I can understand which information on the Internet that I can or cannot use as references for my writing	232	58	76	19	89	22
3	I am aware of copyright or ownership of any online materials	216	54	128	32	53	13
4	I understand what is plagiarism	376	95	12	3	9	2
5	I check my article using online plagiarism checker before submission	107	27	215	54	75	19
6	I have academic social network/website/ apps such as Research Gate, Academia, Google Scholar for sharing knowledge	64	16	237	60	96	24
7	I can use Google with appropriate key words to find some references	217	55	93	23	87	22
8	I can use online application that retrieves and analyzes academic citation such as Publish or Perish	37	9	256	64	104	26
9	I can use video/audio conferencing services (Zoom, Google Meet)	325	82	48	12	24	6
10	I can create online surveys (Google Forms, Survey Monkey)	98	25	193	49	106	27
	MEAN		48		34		18

The table below elucidates the role of educators in enhancing academic writing, their engagement with students, the feedback provided, and the aspects students prioritize in academic writing (refer to Table 4):

Table 4

Please read the statement below and mark each row to show how frequent the given statements in your studies:									
№	Savollar	Always		Sometimes		Rarely		Never	
		1	%	2	%	3	%	4	%
1	I receive an oral and written instruction about how to carry out an academic writing	73	18	120	30	196	49	8	2

2	I discuss about my academic writing with my teacher/supervisor	64	16	105	26	215	54	13	3
3	My teacher/supervisor assign a writing task and demonstrate how to plan and carry it out	57	14	158	40	163	41	19	5
4	I get feedback about how to structure my written papers	36	9	144	36	200	50	17	4
5	I go back to my writing to revise the content and make my ideas clearer	198	50	154	39	39	10	6	1
6	I go back to my writing to edit grammar, vocabulary, spelling and punctuation	200	50	150	38	40	10	7	2
7	In my assignment, in general, I pay more attention to the language (spelling, grammar) than to the content (ideas)	183	46	163	41	36	9	15	4
8	I pay more attention to the content (ideas, organization) than to the language (spelling, grammar, etc)	65	16	75	19	243	61	14	3
9	I give almost equal attention to the both content (ideas, organization) and the language (spelling, grammar, etc)	152	38	176	44	58	15	11	3
10	I discuss my work with other students to get feedback on how I can improve it	38	9	76	19	187	47	96	24
	MEAN		27		33		35		5

Conclusion. The findings of this study indicate that the participants had positive perceptions of their research competencies and academic writing abilities. Numerous respondents identify some deficiencies in their academic writing; however, they retain a substantial level of confidence in their overall writing abilities. The quantitative data gathered from respondents demonstrates their research ability, signifying their engagement in research activities to various extents, including studying, reading publications, and sometimes authoring papers. Furthermore, they exhibit digital competence in using research tools, allowing them to adeptly use digital technology in their academic endeavors and investigations.

Literature:

1. Çaparlar, C. Ö., & Dönmez, A. (2016). What is Scientific Research and How Can it be Done? Turkish journal of anaesthesiology and reanimation, 44(4), 212–218. https://doi.org/10.5152/TJAR.2016.34711

2. Riskulova K.J. System of formation of sociolinguistic competence of future English language teachers. Autoref. diss. ... ped.science. - Tashkent.: - 2017. - 14 p.

3. Atayeva N., Salayeva M and Hasanov S. General pedagogy (theory and practice of pedagogy), Study guide. Book II. Based on the general editing by H. Boboyev. - T.: "Science and Technology", 2013. - P. 735.

4. Zimin V.N. Innovative activity in the system of advanced training as a factor in the growth of professional competence of engineering and teaching staff: Diss…, Cand. ped. sciences. – Ulan-Ude, 2005. – P. 78.

5. Mamatkulov Kha.A. Improvement of information-methodological support for the development of professional competence in foreign languages among pedagogues. Diss.. Ped. science. doctor of philosophy - T.: 2007. - B. 20.

6. Rashidova F.M. Improving the professional competence of foreign language teachers. - T.: 2016. - P. 21.

7. Marope, M., Griffin, P., & Gallagher, C. (2017). Future Competence and the Future of Curriculum. UNESCO-IBE: Geneva. https://www.ibe.unesco.org/en/articles/competences

8. Beghetto, R. A. (2007). Factors Associated with Middle and Secondary Students' Perceived Science Competence. Journal of Research in Science Teaching, 4(6), 800–814. https:// doi. org/ 10. 1002/ tea. 20166

9. Bybee, R., McCrae, B., & Laurie, R. (2009). PISA 2006: An Assessment of Scientific Literacy. Journal of Research in Science Teaching, 46(8), 865–883. https:// doi. org/ 10. 1002/ tea. 20333

10. Chun-Yen, T. (2015). Improving Students' PISA Scientific Competencies Through Online Argumentation. International Journal of Science Education, 37(2), 321–339. https:// doi. org/ 10. 1080/ 09500 693. 2014. 987712

11. Cohen, L., Manion, L., & Morrison, K. (2007). Research methods in education. Routledge.

12. Kind, P., & Osborne, J. (2017). Styles of scientific reasoning: A cultural rationale for science education? Science Education, 101, 8–31. https:// doi. org/ 10. 1002/ sce. 21251

13. Krell, M., Vorholzer, A., & Nehring, A. (2022). Scientific Reasoning in Science Education: From Global Measures to Fine-Grained Descriptions of Students' Competencies. Education in Science, 12, 97. https:// doi. org/ 10. 3390/ educs ci120 20097

14. Lijnse, P. L., & Klaassen, C. W. J. M. (2004). Didactical structures as an outcome of research on teaching–learning sequences? International Journal of Science Education, 26(5), 537–554. https:// doi. org/ 10. 1080/ 09500 69031 00016 14753

15. Schwartz, I., Adler, I., Madjar, N., & Zion, M. (2021). Rising to the Challenge: The Effect of Individual and Social Metacognitive Scafolds on Students' Expressions of Autonomy and Competence Throughout an Inquiry Process. Journal of Science Education and Technology, 30, 582–593. https:// doi. org/ 10. 1007/s10956- 021- 09905-4

16. Sadler, T. D., & Zeidler, D. L. (2009). Scientific literacy, PISA, and socio-scientific discourse: Assessment for progressive aims of science education. Journal of Research in Science Teaching, 46(8), 909–921.

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ТАБИАТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШДАГИ ҚОНУНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Rakhimova G.S.
Toshkent Turin politexnika universiteti
menejment, iqtisod va gumanitar fanlar bo'limi
tarix fanlari doktori (DSc)
Rasulov M.A.
Qo'qon davlat pedagogika instituti biologiya kafedrasi o'qituvchisi
Yakubov K.N.
Qo'qon davlat pedagogika instituti tarix kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: sanoat, korxona, qaror, neft, metallga ishlov berish, ko'mir, gaz, qurilish, atrof-muhit, salomatlik, iqlim o'zgarishi.
Ключевые слова: промышленность, приказ, предприятие, нефть, металлообработка, уголь, газ, строительство, окружающая среда, здоровье, изменение климата.
Key words: industry, enterprise, oil, metalworking, coal, gas, construction, environment, health, climate change.

Резюме:
Maqolada O'zbekiston SSRda sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta'sirlari, qabul qilingan qarorlarning amaliy natijalari, kimyo, qurilish, neft, gaz sanoat turlari kengayishi natijasida qishloq xo'jaligi sanoati majmuasi shakllantirilishi, tabiiy qazilmalarining qazib olinishi natijasida atrof-muhitning iqlim o'zgarishlariga olib kelish sabablari tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan.
Резюме:
В статье рассмотрено негативное воздействие промышленных предприятий на окружающую среду в Узбекской ССР, практические результаты принятых решений, формирование агропромышленного комплекса в результате расширения химической, строительной, нефтяной, газовой промышленности, на основе исторических источников объяснены причины изменения экологического климата в результате добычи природных ресурсов.
Summary:
In the article, the negative effects of industrial enterprises on the environment in the Uzbek SSR, the practical results of the adopted decisions, the formation of an agricultural industrial complex as a result of the expansion of the chemical, construction, oil, gas industries, the reasons for the environmental climate changes as a result of the extraction of natural resources are based on historical sources. explained.

Kirish. Qariyib to‘rt yil davom etgan ikkinchi jahon urushi mamlakatda xalq xo‘jaligini tinch izga o‘tkazish borasida bir qator ishlarni amalga oshirishni talab edi. Zero, sanoatni tinch hayotga moslab qayta qurush urushdan keyingi yillarda katta qiyinchiliklar bilan amalga oshirildi, hamda xalqning hisobsiz moddiy va jismoniy harakatlarini talab qildi. Ikkinchi jahon urushi yillari O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni ko‘payishiga xizmat qildi. O‘zbekiston Kommunistik Partiyasining buyrug‘iga asosan X syezdda 90 dan ortiq katta zavod va fabrikalar evakuvasiya qilingan edi. 1945-yil 26 mayda Davlat Mudofaa Qo‘mitasining “Qurol-yarog‘ ishlab chiqarishni qisqartirish munosabati bilan sanoatni qayta qurush tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori chiqdi. Bu bilan butun mamlakat miqyosida ko‘p korxonalari va butun sanoat tarmoqlari tinchlik davri mahsulotlarini ishlab chiqarishga o‘tkazildi.

Metodologiya. 1940-yillardan O‘zbekistonda paxta tozalash, to‘qimachilik, oziq-ovqat, kimyo kabi ko‘plab tarmoqlarni rivojlantiruvchi sanoat korxonalari ishlagan bo‘lib, urush yillari frontga mahsulot yetkazib berish bilan bir vaqtda qishloq xo‘jaligi uchun mashina, mexanizm, uskunalar va iste’mol buyumlari ham ishlab chiqarildi. 1940-yillarda kimyo-7,6 foiz, elektroenergiya-24,3 foiz, tekstil-28,3 foiz, qurilish mollari-31 foiz, paxta tozalash-10 foiz, oziq-ovqat-14 foiz yalpi mahsulot ishlab chiqarildi. 1943-yilda ham kimyo, metallga ishlov berish, yoqilg‘i, elektr energiyasi, mashinasozlik, qurilish mollari, tekstil, paxta tozalash, oziq-ovqat sanoat korxonalari ishladi. Ayni paytda mamlakatda uch turdagi: davlat, koopyerativ va xususiy sanoat korxonalari 1942-yilga kelib, xususiy va koopyerativ sanoat korxonalari faoliyati davlat sanoat korxonalari tasarrufiga o‘ta boshladi va 1940-yilda koopyerativ sanoat korxonalarining 19 foizi, davlat sanoat korxonalarining 81 foiz ishlab chiqarishni xajmini tashkil etdi[1]. 1940-yilda O‘zbekistonda jami 55 ta paxta tozalash sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelgan bo‘lsa, korxonaning soni 1950-yili 63 ta, 1960-yili 65 ta, 1979-yili 107 ta[2] ga etdi.

Adabiyotlar tahlili. P. Oldak o‘z tadqiqotlarida “tabiatni muhofaza qilish tizimlariga loqaydlik 1973-yilga kelib Ukraina, Moldaviya, Shimoliy Kavkaz xududlarida ham sanoat korxonalari aholi turmush tarziga, qishloq ho’jaligi mahsulotlariga jiddiy zarar keltirdi”[3] - deb ta’kidladi. O‘zbekistonning ko‘plab sanoat korxonalarida atrof-muhitni muhofaza qilish tizimlari yetishmadi va vaqtida ta’mirlanmadi. Ayniqsa kimyo, neft va kon sanoatlarida texnik ta’minotlar ancha orqada qolgandi.

1962-yilda Markaziy epidemiologik nazorat bo‘lim rahbari N.Masharipov, O‘zbekiston ilmiy-tadqiqot institutining sanitariya, gigiena direktori O‘zSSRda xizmat ko‘rsatgan olim, dosent A.Z.Zahidov boshchiligida tekshiruvlar o‘tkazilganda, 1962-yilda respublika O‘rta Osiyo tif-paratif kasalliklari bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan aholi soni jihatdan 45 foizni tashkil etganligi aniqlangan[4].

Bu ittifoqdosh respublikalar orasida O‘zbekiston yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘ldi. Yuqmli va oshqozon-ichak kasalliklar ko‘proq suvdan tarqalishi va ifloslangan ichimlik suvini iste’mol qilishi natijasida aholining zaharlanishi yuzaga kelgan.

Iqtisodchi N.Petrakovni ta’kidlashicha, “sanoatlashtirish siyosatini jadallik bilan amalga oshirilishi oxir oqibat kuchli muammolarga duch keldi: iqtisodiyot, millarlararo munosabatlar va ekologiyada ko‘rindi”[5] -deya mulohazalar yuritgan. 1989-yilda sobiq Ittifoq ko‘plab syezdlari va majlislarida besh yillik rejalar asosida qurilgan gigant sanoat korxonalarining atrof-muhit, suv, havo va iqlim o‘zgarishlariga olib kelganini muhokama qilib o‘tdi. Lekin bu ma’ruza va ma’lumotlar faqat qog‘ozlarda qolib ketgan. Sanoatlashtirish siyosatida tabiat resurslarini tejamkorlik bilan ishlatilmasligi ekologik muammolarga sabab bo‘lgani, sanoat korxonalarini iqtisodiy inqirozlari tufayli ishsizlikning ortib borishi, millatlar o‘rtasida nizolarga olib keldi.

Natijalar. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, urushdan keyingi yillarda sanoatni tinch hayotga moslab qayta qurush katta qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘ldi. Xalq xo‘jaligi qurilishining o‘ziga xos xususiyati uzoq muddatli rejalashtirishni besh yillik reja bilan birga qo‘shib olib borish borishdan iborat bo‘ldi. U xalq xo‘jaligining 15 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishi, masalan, sanoat ishlab chiqarishni uch baravarga oshirishni, oziq-ovqat va xom ashyo resurslarining mo‘l-ko‘lligini ta’minlashni nazarda tutgan edi. Bu noilmiy loyihada yana ilgarigidek O‘zbekistonga SSSR paxta mustaqilligining kafolati sifatida asosiy o‘rni ajratildi[6]. Respublika tinch hayotga ishlashga moslashayotgan vaqtda sanoat uchun, aholini oziq – ovqat va xalq iste’mol mollari bilan ta’minlash uchun yoqilig‘iga, elektr quvvatiga, xom ashyoga katta ehtiyoj sezar edi, shuningdek malakali ishchi kadrlar yetishmadi. Avvalo, respublika xalq xo‘jaligi “paxta uchun kurash”ning tarkibiy qismiga aylandi. Bunday sharoitda paxtachilik va irrigasiya qurilishi uchun mashinalar, shu jumladan, kultivatorlar, o‘g‘itlagichlar, chigit ekish seyalkalari, ko‘rak terish mashinalari, ekskovatorlar, buldozyerlar va boshqalarni ishlab chiqaradigan mashinasozlik zavodlarini qayta qurush va yangi zavodlarni yaratish yuzasidan katta ishlarni avj oldirib yuborildi. Asosiy qurilishlar respublikaning markaziy shaharlariga joylashtirildi. Birgina Toshkent shahridagi sanoat korxonalari asosan paxtachilik bilan bog‘liq tarmoqlardan iborat bo‘ldi[7].

Tahlillar. Albatta, sovet hukumati tabiatni asrash masalalariga alohida e’tibor bilan qaradi. Shu maqsadda bir qator hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston SSRda ham 1959-yil O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining “Tabiatni qo‘riqlash haqida”gi qonuni qabul qilindi. Qonunda O‘zbekiston hududidagi barcha tabiiy boyliklardan foydalanishni davlat tomonidan tartibga solish va muhofaza qilish belgilandi[8]. 1960-yil 22 aprelda SSSR Ministrlar Sovetining “SSSRda suv resurslaridan

foydalanishni tartibga solish va muhofaza qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[9] qarorlar qabul qilindi.

Biroq, ko‘mir sanoat korxonalarida quvvat manbai va aholini issiqlik tizimi bilan ta’minlashda ham muhim o‘rin egalladi. Qazib olingan yoqilg‘i va yonilg’ining sanoat zahiralari Angren, Sharg’un va Boysun konlarida joylashgan bo‘lib, qazib olinayotgan ko‘mirning deyarli 96.5 foizi qo‘ng‘ir ko‘mir va qolgani toshko‘mirdan iborat bo‘ldi. O‘zbekiston xalq xo‘jaligida kimyo sanoati ustuvor o‘rinlardan birini egalladi. O‘zbekistonda kimyo sanoatini rivojlantirishda birinchi navbatda Chirchiq elektr kimyo kombinati ishga tushirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan edi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda respublikada Qo‘qon superfosfat zavodi, Samarqand superfosfat zavodi barpo etildi. Undan so‘ng birin - ketin Farg‘ona azotli o‘g‘itlar zavodi, Navoiy kimyo kombinati, Olmaliq kimyo zavodlari ishga tushirildi. Farg‘ona gidroliz zavodi 1946-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning tarkibida spirt, furfurola ishlab chiqaradigan gidroliz-spirt zavodi, loyiha bo‘yicha yiliga 100 tonna kislota, yiliga 880 ming m3/ vodorod, 290 ming m3 kislorod, yiliga 620 tonna uglekisliy gaz, ksilitan va furfurola ishlab chiqaradigan sex, katali-zator, gidrotormozn suyuqligi, suyuq shisha tayyorlaydigan sex, yer osti suvlarni va davr suvlarining nasos sexi, elektrosex, ta’mirlash-mexanika sexi, ta’mirlash - qurilish sexi va boshqa sexlar ham zavod tasarrufida bo‘ldi. Zavod uchun asosiy xom ashyo Farg‘ona yog‘-moy kombinatidan keltirilgan sheluxa hisoblangan[10].

Korxonaning ko‘plab chiqindi tozalash texnik qurilmalarini ishdan chiqishi avvalo, ishchi-xodimlarning salomatligiga salbiy ta’sir etardi. Afsuski, ijtimoiy muammolar o‘z vaqtida oldi olinmasligi, atrof-muhitning sanoat korxonalari chiqindilaridan keskin zararlanishi, aholining dehqonchilik, bog‘dorchilik va chorvachilik sohalariga salbiy ta’sir eta boshladi. Sanoat korxonalarining chiqindilaridan Markaziy Osiyoning tabiiy va antropogentida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi[11]. Kimyo sanoati korxonalaridagi ishning og‘irligi va kimyoviy changlar ta’sirida ishchilarning zaharlanish holatlari ma’sul rahbarlarni tashvishga solmadi. Ishchi xodimlarning salomatligi yo‘lida to‘lanadigan qo‘shimcha mablag‘lar esa ularning salomatligini davolashga yetarli bo‘lmadi. Ma’muriy-buyruqbozlik boshqaruvi modeli sanoat korxonalarida mahsulotlarning sifatini yaxshilashga, korxona xodimlarining moddiy rag’batiga e’tibor berilmasligiga hamda korxona ishlarining umumiy natijalarini inqirozga olib kela boshladi. 1986-yilda O‘zbekistonda bir kun davomida 471 ta sanoat korxonalar chiqindi tashlamalarni daryolarga oqizib kelgan[12]. Kimyo sanoatining tabiatga keltirgan salbiy ta’siri respublikadagi asosiy daryolarning suvi sifatidagi o‘zgarishlarida ko‘rindi. Natijada, daryo suvlaridan foydalanish imkoniyatlari cheklanib qoldi. Suvning tarkibidagi kimyoviy zaharli tashlamalar tuproqning hosildorligini pasayishiga olib kelgan. Sanoat majmualariga yaqin hududlarda o‘simliklar hosildorligi 30

foizgacha kamayib ketishiga olib keldi. Bundan tashqari o‘simliklar dunyosiga suv, tuproq va havodagi kimyoviy chiqindi chang tarkiblari ham salbiy ta’sir etib o‘simlik turlarining yo‘q bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun o‘simliklardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini olib borish muhim bo‘ldi. O‘zbekiston bo‘yicha o‘rmonlarni muhofaza qilish bo‘yicha ajratilgan yerlar.

1961-yil 27 noyabrda O‘z SSR Ministrlar Soveti, O‘z SSR Oliy Kengashi Prezidiumi va O‘zbekiston KP MQning 835-sonli qo‘shma qarori bilan “O‘zbekiston tabiatni qo‘riqlash va ko‘kalamzorlashtirish jamiyati” tashkil qilindi. 1963-yil fevralda O‘z SSR Oliy Kengashining 6-chaqiriq 1-sessiyasida “Tabiat va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish” bo‘yicha O‘z SSR Oliy Kengashining doimiy deputatlik komissiyasi viloyat, shahar va tumanlar deputatlar kengashlarida ham tashkil etildi[13]. 1962-yil 12-iyul “Yerlarning davlat hisobini yuritish va ulardan qishloq xo‘jaligida foydalanishni yaxshilash to‘g‘risida”gi[14], Tadbirlar maktab, bog‘cha va sanoat korxonalarda tabiat muhofazasi uchun “Yosh tabiatshunoslar” guruhlari tuzildi, turli jamg‘armalar tashkil etish boshladi. 1972-yil 20-sentyabr SSSR Oliy Kengashining “Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan unumli foydalanishni yanada yaxshilash choralari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda 1972-yil 29-dekabr KPSS Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Ministrlar Sovetining “Tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash va tabiatni muhofaza qilishni kuchaytirish to‘g‘risida”gi va yana bir qator qarorlari qabul qilindi. Bu hujjatlar atrof-muhitni himoya qilish ishlarida yangi bosqichni belgilab bergandek ko‘rinsada, sovet xalq xo‘jaligida besh yillik rejalarning belgilanishi va ularni bajarilishini qat’iy talabi belgilangan vazifalarni bajarishga imkon bermadi. 1961-yil 27-noyabrda O‘zSSR Ministrlar Soveti, O‘zSSR Oliy soveti Prezidiumi va O‘zbekiston KP MQ “O‘zbekiston tabiatni qo‘riqlash va ko’kalamzorlashtirish jamiyati”ni tuzdi. 1963-yil fevral oyida O‘zSSR Oliy Sovetining 6-chaqiriq 1-sessiyasida “Tabiat va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish” bo‘yicha O‘zSSR Oliy Sovetining doimiy deputatlik komissiyasi tashkil etildi. Bunday komissiyalar viloyat, shahar va tuman deputatlar kengashlarida ham shakllantirildi[15].

1979-yilda mamlakatda “Atmosfera havosini muhofaza qilish” to‘g‘risida qonun qabul qilindi[16]. Qonunda davlat miqyosidagi yirik korxonalarda zaharli gazlar va boshqa chiqindilardan himoya qiluvchi vositalarni o‘rnatish, korxonalar davlat tashkilotlari tomonidan beriladigan ruxsatnomalar asosidagina ishlashini ta’minlash masalalari belgilab qo‘yildi. Shuningdek, atmosferani kuzatish va uni muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazorati tizimini tuzish vazifasi ham belgilandi. 1988-yilda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan Ittifoqqa boysunuvchi korxonalar, birlashmalar ishlab chiqargan sanoat mahsulotining salmog’i umumiy sanoat mahsulotlari hajmida 38 foizni, Ittifoq respublika vazirliklari va idoralariga

bo‘ysunuvchi korxonalar mahsuloti 54 foizni, faqat yalpi sanoat mahsulotining 8 foizi respublika va mahalliy sanoat hissasiga to‘g‘ri keldi[17]. Ayni paytda sanoat korxonalarining atrof-muhitga keltirgan jiddiy ta’sirlari sabab, O‘zbekiston hududida 27 foiz havo, suv, tuproq sifati bo‘yicha atrof-muhit milliy standartlari talabiga mos keldi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy va Farg‘ona viloyatlari atrof-muhitiga va tabiiy resurslar bazasi anchagina jiddiy bosimlar ostida turdi[18].

1967-yilda atrof-muhitni muhofaza qilish organlari tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlarda esa O‘zbekistonda ariq, kanal va daryo suvlariga bir sutka davomida sanoat korxonalari tomonidan 2304 ming kubo metr chiqindi suvlar tashlanganligi aniqlandi[19]. Jumladan, Toshkent, Samarqand viloyatlaridagi sanoat korxonalarining chiqindi changlari belgilangan me’yor PDK miqdoridan 10-12 baravar atmosfera havosini ifloslanishiga olib kelgan. Atmosfera havosining ifloslanishidan xalq aziyat chekkan, 1969-yilda aholi orasida o‘pka kasalligi, piodyermiya konyuktiv kasalliklari soni ortgan. Chirchiq kimyo kombinati chiqindilari bo‘lgan azot kislotasi, ammiak kimyo vositalari Bo‘zsuv kanalini ifloslab keldi. Toza ichimlik suvining kimyoviy vositalardan ifloslanishi aholi orasida tish yemirilishi, oshqozon sekresiyasi, oshqozon-ichak kasalliklarini 3-10 baravarga ortib borishiga olib keldi.[20]

Aslida, 1966-1970-yillar davomida O‘zbekistondagi 92 ta korxona tozalash uskunalariga, 102 korxona kanalizatsiya tizimlari bunyod etish rejalashtirilishiga qaramay, respublikada 13 ta tozalash uskunalari va 14 ta kanalizatsiya tizimiga ulandi.[21] Rejada berilgan vazifalarning o‘z vaqtida bajarilmay to‘xtab qolishi, sanoat korxonalaridagi zararli kimyoviy va metall chiqindilarning ta’siri nafaqat atrof-muhitga balki ishchi-xodimlarning salomatligiga ham salbiy ta’sir etib keldi. Sanoat korxona ishchilari o‘z ishlarini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqib ishni tashlab keta olmadi. Lekin ularning salomatligi va sanoat korxona sanitariya-gigienik vaziyatlarini yetarlicha ta’minlab bermadi. Ko‘plab kimyo, neft, metallurgiya ishchi xodimlari salomatligini asrash, o‘zini sterilizasiya qilish maqsadida alkogol ichimliklarni iste’mol qilish me’yoridan ortib ketdi. Natijada, sanoat korxonalarida alkogolizm bilan kasallanganlar soni ortib bordi. 1986-yilda Jizzax, Qarshi, Samarqand, Navoiy, Termiz, Toshkent, Qoraqalpog‘iston ASSR, Xorazm viloyatlari sanoat korxonalarida ishchilar kasallanishining ortib borishi bilan 12 ta tuberkulyoz va 23 ta narkologiya kasalxonalari ochildi.[22]

Xulosa. Atrof-muhitning asrash bo’yicha qarorlar ekologik vaziyatning o‘zgarib borishi yashil olam bilan bog‘liq o‘simlik, daraxtlarning asrashdagi hatti-harakatlar inobatga olinmadi. Meyoriy hujjarlarning sanoat korhonalari tomonidan buzulishi oziq-ovqatlar mahsulotlari zararli chiqindilardan zaharlanib aholi salomatligiga sezilarli ta’sir esa boshladi. Afsuski, qabul qilingan qarorlar sanoat korxonalarida

eskirgan chiqindini tozalash qurilmalarni ta’mirlashga xizmat qilmadi. 1980-yilning oxirlariga kelib bir qator muammolar kelib chiqa boshladi. Ittifoqdosh respublikalarda bo‘lgani singari aholi orasida iqtisodiy va ijtimoiy masalalarga nisbatan noroziliklar ko‘tarila boshladi. Barcha respublikalar qatori O‘zbekistonda ham iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish sekinlashdi, ichki muammolarning subyektiv tarzda hal etilishi ziddiyatlarni yanada kuchaytirdi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi qaror va qonunlar amalda o’z ijrosini topmadi va korxonaning daromaddan ko‘ra atrof-muhitga ziyonlarining ko‘p bo‘lishi, aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgani ma’ruzalarda ta’kidlab o‘tildi. Atrof-muhitdagi tabiat mavjudotlarining ba’zi turlarini yo‘qolib borishida sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindi changlarni ta’siri katta bo‘lgan. Hayvonlar va o‘simliklar dunyosida ko‘payish tizimdagi halokat turlarning “Qizil kitob”ga kirishiga olib keldi.

Адабиётлар:

1. Советский Узбекистан за 40 лет. Стат., сборник. –Ташкент: Узбекистан, 1964. –С. 39.
2. Узбекская ССР. –Ташкент:1981. –С. 191.
3. Олдак П.Г. Сохранение окружающёй среды и развитие экономических исследований. – Новосибирск: Наука,1980. –С. 116.
4. Ўз Р Миллий тиббиёт илмий техник архиви. 194-фонд, 1-рўйхат, 203-йиғма жилд, 62-64-варақлар.
5. Петраков Н. Экономика: тревога и напряженность // Наука и жизнь. 1989 год № 10 октябрь. –С. 6.
6. Ўзбекистонннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. – Тошкент. Шарқ, 2000. –Б. 502.
7. Paul Stronski. Tashkent : forging a Soviet city, 1930–1966. USA. University of Pittsburgh Press. 2010. –P. 210.
8. Ўз МА. Р- 2742-фонд, 1-рўйхат, 13-йиғма жилд, 41-42-варақлар.
9. Об охране окружающей среды: Сборник документов партии и правительства, 1917–1985 гг. – Москва: Политиздат, 1986. –С. 86.
10. Ўз МА. Р-2598-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд, 9-варақ.
11. Yu. Zhang, D. Zhang, Characteristics and utilization of plant diversity and resources in Central Asia. Regional Sustainability. 1 (2020) –P. 9.
12. Бахромов С. Здоровоохранения Узбекистана: проблемы и перспективы // Коммунист Узбекистана. 1988 год, - № 7 июль. –С. 28.
13. Ўз МА Р-2742-фонд, 1-рўйхат, 13-йиғма жилд, 131-варақ.
14. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. Т. 5. 1962–1965 г. – Москва., 1968. –С. 157.
15. Ўз МА. Р- 2742-фонд, 1-рўйхат, 13-йиғма жилд, 131-варақ.
16. Закон Союза Советских Социалистических Республик. Закон об охране атмосферного воздуха // Известия. 1979, 20 декабрь.
17. Мирсаидов М. Экономический суверенитет республики. – Ташкент: Узбекистан, 1990. –С. 16.
18. Қосимова С, Шожалилов Ш, Бадер А. Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва шаҳар иқлимшунослиги. –Тошкент: Истиқлол, 2005. –Б. 9.
19. Ўз МА. Р-2745-фонд,1- рўйхат,87- йиғма жилд, 15-варақ.
20. Ўз МА. Р-2742-фонд,1-рўйхат,87- йиғма жилд, 16-варақ.
21. Ўз МА Р-2742-фонд, 1-рўйхат,2- йиғма жилд, 7-варақ.
22. Бахромов С. Здоровоохранения Узбекистана: проблемы и перспективы // Коммунист Узбекистана. 1988 год № 7 июль. – С. 28.

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

MENTAL ARIFMETIKANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Mashrabjonov U.
O‘qituvchi, QDPI

Tayanch so‘zlar: abakus, arifmetika, metodika. intellektual, emotsional, personal, motorika.
Ключевые слова: счеты, арифметика, методика. интеллектуальный, эмоциональный, личностный, двигательный.
Key words: abacus, arithmetic, methodology. intellectual, emotional, personal, motor.

Резюме:
Ushbu maqolada mental arifmetikaning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi haqida fikrlar bildirilgan bo‘lib, bugungi kunda bu fanning muhim fanlardan biri ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.
Резюме:
В данной статье высказываются мысли об истории возникновения и развития ментальной арифметики, а также подчеркивается, что эта наука является одной из важнейших наук сегодня.
Summary:
In this article, thoughts are expressed about the history of the emergence and development of mental arithmetic, and it is emphasized that this science is one of the most important sciences today.

Zamonaviy ta’lim jarayonida odatdagi fanlar bilan bir qatorda innovatsion fan dasturlari ham zarur. Chunki bugun bola hayotida barcha narsalar yangilanib bormoqda, o‘zgarmoqda. Bu esa, yangicha o‘qitish metodikalari bilan birgalikda zamonaviy fanlarni ham olib kirishni talab qilmoqda. Ana shunday sohalardan biri bu – mental arifmetikadir. Mental arifmetika 5 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bolaning intellektual qobiliyati bilan birgalikda emotsional holatini ham rag‘batlantiradi. Mental arifmetikaning zamonaviy tarixiga nazar tashlasak 1993-yilda neyrobiolog olimlar tomonidan mental arifmetika bilan shug‘ullanuvchi va shug‘ullanmaydigan odamlar miyasini tomografiya qilish orqali potensiallar farqi borligi e’tiborni tortadi. Ya’ni mental arifmetika bilan muntazam shug‘ullanib yurish miya faoliyatini yaxshilaydi degan xulosaga kelingan. Shundan so‘ng nafaqat Sharqiy Osiyoda balki dunyoning har bir burchagida mental arifmetika o‘rgatuvchi markazlar soni

ham ortishni boshladi. Mental arifmetika to‘g‘ridan-to‘g‘ri bolaning intellektiga ijobiy ta’sir qilishi hisobidan qisqa vaqt ichida unda ijobiy o‘zgarishlar kuzatila boshlaydi. Qiziquvchanlik ortib, faol muloqotga kirishuvchan bo‘ladi.

Hozirgi paytda bolalar vaqtini taqsimlashda nomutanosibliklar juda ko‘p uchramoqda, asosan, mobil qurilma yoki gadjetlardan muntazam foydalanish, ularga mukkasidan ketib qolish kabi illatlar ham ko‘zga tashlanmoqda. Bu holat nafaqat bolaning jismoniy faolligini balki, ijtimoiy hayotini ham “oq-qora” qilib qo‘ymoqda. Binobarin, bolalarda bu yoshda ko‘p harakatlik, o‘rganuvchanlik, irodalilik kabi tayomillarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimi mavjud bo‘lishi kerak. Aynan shuning uchun ham ota-onalar va o‘qituvchilar oldida turgan dolzarb masala, maktab va bog‘cha ta’limi va undan tashqi vaqtlarga bolalarni qiziqtiradigan yangi dasturlarni olib kirish hamda bolalar o‘rtasida keng targ‘ib qilish zarur. Ana shunday sohalardan biri sifatida esa, mental arifmetikani bemalol aytish mumkin. Har qanday bolaning bo‘sh vaqtini samarali va qiziqarli o‘tishida mental arifmetika yordam beradi. Arifmetik amallarni bajarish odatda oson ish emas, chunki bu diqqat va iroda talab qiladigan narsa. Biroq abakus vositasida bu ishni bajarish bolaga qiziq tuyula boshlaydi. Shuning uchun ham mental arifmetika bolalarga katta motiv beradi. Mental arifmetikaning bola uchun bir qancha foydalari mavjud, quyida mana foydalarni birma-bir sanab o‘tamiz:

- miya yarim sharlarini faol ishlaydi;
- kichik motorikani rivojlanadi;
- ixtiyoriy diqqat hajmi ortadi;
- xotira mustahkamlanadi;
- tasavvur va ijodkorlik rivojlanadi;
- mas’uliyat shakllanadi;
- o‘ziga ishonch ortadi;
- ko‘p vazifalarni bajara oladi;
- irodali bo‘ladi;
- sezuvchanlik ortadi.

Inson miyasi stvol va po‘stloq sohalariga ega. Stvol qismida hayotiy zarur reflekslar paydo bo‘lib, instiktiv tarzda o‘zgarib turadi. Po‘stloq soha esa, inson asab tizimining oliy markazi bo‘lib, bu qismda faqat inson uchun xos bo‘lgan reflekslar paydo bo‘ladi. Tafakkur shakllanishi aynan shu sohaning faoliyatiga bog‘liq. Miya yarim sharlari ikki bo‘lakka ajraladi – chap va o‘ng yarim sharlar. Inson shaxsiyatini belgilanishida yarim sharlar faolligi muhim o‘ringa ega. Sank-Peterburg universiteti olimasi, biologiya fanlari doktori Tatyana Chernogovskaya Vladimrovnaning ta’kidlashida agar inson chap yarim

shari faol bo‘lsa texnik personal ya’ni aniqlikni xush ko‘radigan, jadvallar, kalendar, tahlil va qiyoslashlar orqali ish faoliyatini yuritadi. O‘ng yari shari faol bo‘lgan odamlar esa, gumanitar shaxs, ya’ni ijodkor odamlar deb e’tirof etadi. O‘ng yarim shari faol bo‘lgan odamlar uchun vaqtning tig‘izligidan ko‘ra foydali vaqtni kutish afzalroq hisoblanadi. Shuning uchun ijodkor odamlar biror ishni bajarishda vaqtga nisbatan qiyoslashmaydi, aksincha kutishadi. Mental arifmetika bilan shug‘ullanishda bolalarda ikki yarim sharning bir xilda faol ishlashiga intilish tamoyili yotadi. Ayniqsa, mental arifmetika bilan shug‘ullangan bolalarda o‘ng yarim shar kuchli ishlaydi.

Kichik motorikani rivojlantirishda ham mental arifmetikaning o‘rni katta. Kichik motorika deb, qo‘llar va bilaklardagi kichik mushaklar yordamida harkat qilish tushuniladi. Odatda kichik motorika bolaning chaqaloqlik davridan shakllanadi, Bu kichik harakatlar ko‘pchilik uchun shunchalik tabiiyki, biz odatda ular haqida o‘ylamaymiz. Ammo kichik motorika mashqlari murakkab. Ular miya va mushaklar o‘rtasida muvofiqlashtirilgan harakatni o‘z ichiga oladi. Ular yugurish yoki sakrash kabi kattaroq harakatlarni amalga oshirishga imkon beradigan katta motorli ko‘nikmalarga asoslangan .

Biz kichik motorika mahoratidan foydalanganda ba'zi misollar:

- Qalam yoki qalamni ushlab turish
- Rasmlar chizish va chiroyli yozish
- Klaviaturadan foydalanish
- Qaychi, o‘lchagich va boshqa asboblardan foydalanish

Kiyinish va tishlarini cho‘tkalash kabi kundalik vazifalarni bajarish uchun odamlar kichik motorika mahoratiga ham muhtoj.

Kichik motorika qobiliyatlari qanday rivojlanadi

Kichik motorika ko‘nikmalari chaqaloqlik davrida rivojlana boshlaydi va bolalar ulg‘aygan sari yaxshilanadi. Bolalarning barchasi bir xil sur'atda rivojlanmaydi. Ammo ular odatda turli yoshda erishadigan marralar mavjud. Misol uchun, 5 yoki 6 yoshda bolalar odatda shakllar va harflarni nusxalashlari va qoshiq yoki vilkalardan foydalanishlari mumkin. 7 yoki 8 yoshga kelib, ular odatda oyoq kiyimlarini bog‘lashlari va tugmachalarini mustaqil ravishda bog‘lashlari mumkin. Mental arifmetikada asosiy vosita abakus hisoblanadi. Aynan abakusda ishlash orqali bolalarda kichik motorika tez suratda rivojlanadi. Kichik motorika qanchalik faol bo‘lsa, bolaning miyasida boshqa nerv markazlari bilan aloqalar ham shunchalik jadallashadi.

Ixtiyoriy diqqat hajmi ortishida ham mental arifmetikaning o‘rni katta hisoblanadi. Odatda maktabga chiqqan o‘quvchilargina arifmetika amallarni ishlashadi. Masalan, birinchi sinf o‘quvchisi bir soatlik matematika darsida

oʻrtacha 5 tadan 10 tagacha misollarni ishlashi mumkin. Biroq mental arifmetika bilan shugʻullanuvchi bolalar bir darsning oʻzida 100 dan ortiq arifmetik amallarni bajara oladi. Bunda asosiysi belgilangan vaqt ichida oʻquvchi koʻplab misollarni bajarishi va tezkorlikni oshirishi kerak. Aynan mana shu bosqichda oʻquvchida ixtiyoriy diqqat hajmi ortib boradi.

Diqqatni yoʻnalishiga koʻra ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi turlariga boʻlinadi. Ixtiyorsiz diqqat uchun energiya talab etilmaydi. Ixtiyoriy diqqatning yuzaga kelishida esa, miya yarim sharlar poʻstloq sohasidagi optimal qoʻzgʻalish bilan birgalikda ikinchi ignallar sistemasining oʻrni benihoyat kattadir. Ixtiyoriy diqqatning shakllanishida nutqning vazifasi gʼoyat kattadir. Chunki xoh taʼlim boʻlsin xoh ish jarayoni boʻlsin nutq orqali turli vazifalar qoʻyiladi ham bajariladi. Ixtiyory diqqat ixtiyorsiz diqqat bilan doim almashinib turadi. Lekin oʻquvchilar mental arifmetikadan muntazam ravishda arifmetika amallarni ishlashi natijasida ixtiyoriy diqqat hajmini orttirib borishlari mumkin. Ixtiyoriy diqqat hajmining kattaligi bolaning nafaqat shu soha boʻyicha balki boshqa fanlarni oʻzlashtirishida ham ahamiyatlidir. Chunki ixtiyoriy diqqat qanchalik kuchli shakllangan boʼlsa bolada iroda ham shunchalik shakllanib boradi. Bu esa, oʻz-oʻzidan aqliy yuklmalarga bardoshli boʻlishni oʻrgatadi. Mental arifmetika darslarida nafaqat arifmetik amallarni ishlash balki darsda qoʻshimcha vositalardan foydalanish ham diqqat hajmini ortishida qatnashadi. Masalan, grafik diktant ishlatish oʻquvchini darsga qiziqtiribgina qolmay balki uning diqqati uchun ham taʼsir qiladi. Bundan tashqari flesh kartalardan foydalanish ham diqqatga bevosita taʼsirini oʻtkazadi. Mental arifmetikani bolaga oʻrgatishdagi maqsadlardan biri ham aynan uning diqqatini rivojlantirishdir.

Mental arifmetika darslarida oʻquvchida diqqat bir qatorda xotira ham mustahkamlanib boradi. Chunki diqqat va xotira bir-biri bilan chambarchas bogʻliq. Abakusda ishlash jarayonida oʻquvchi toshlarni hayolida tutib turishi lozim, shuni evaziga “hayoliy abakus” ishlata oladi. Biroq, bu jarayonni oʻzida xotira muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir operatsiyadan keyin hayoliy abakusda necha qiymat ifodalanishi xotirada muhrlanib qolishi zarur. Dastlabki mashgʻulotlarda bu jarayonni amalga oshishi biroz qiyin boʻladi. Bora-bora oʻquvchi toshlarni xotirada ushlab turishi osonlashadi. Chunki xotira ham mashq qilib boriladi. Bundan tashqari trenajorlarda ishlaganda qisqa xotirani koʻproq ishlatish zarurati koʻpayadi. Chunki millisekundlar ichida sonlarni ekranda koʻrinishi xotira ustida koʻproq ishlash kerakligini koʻrsatadi.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, mental arifmetika bolaning nafaqat intellektual balki emotsional tafakkuriga ham katta taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun ham

mental arifmetika bilan shug‘ullanuvchi bolalarda ijodkorlik qobiliyati ham tez rivojlanadi. Shu soha bo‘yicha dars beradigan pedagoglar kuzatuviga ko‘ra, maktab o‘quvchilari orasida mental arifmetika bilan shug‘ullanuvchi va shug‘ullanmaydigan bolalar o‘rtasida ijodkorlik qobiliyati taqqoslanganda mental arifmetika bilan shug‘ullanuvchi bolalarda ijodiy to‘siq mavjud emasligini e’tirof etishgan. Mental arifmetika bolaning ovng yarim shari ishini faollashtirishi hisobidan bolada ijodiy yondashuv ancha tezlashadi. Arifmetik amallarni hayoliy abakusda ishlashda esa, tasavvurning ahamiyati ham g‘oyat kattadir. Shuning uchun ham mental arifmetika mashg‘ulotlarida o‘quvchilar dastavval abakus qurilmasi bilan batafsil va puxta tanishib chiqishlari zarur. Undan keyin esa, abakusda sonlar qiymati, ularni bajarishda barmoqlar harakatini to‘g‘ri tartibga solishni o‘rganishlari zarur. Odatda turli kasb-hunar egalari bilan suhbatda ularning o‘z kasb-hunariga oid bo‘lgan turli harakatlarni bajarishlarini guvohi bo‘lamiz. Masalan, sartarosh hayolan qaychini o‘ynayotgan bo‘ladi. Yoki taksist bilan mashina haqida suhbatlashganda mashinani qanday boshqarishni hayolan qo‘l harakatlari bilan ko‘rsatib beradi. Shifokorlar esa, operatsiya jarayonini vizual tasavvur qilishadi. Endi faraz qilaylik, taksist odamga jarrohlikka oid biror gap aytilsa, qanchalik tasavvur qila olarkan? Hech qanday. Chunki jarrohlik jarayonida qatnashmagan odam bu haqida tasavvur qilishi qiyin hatto o‘rinsiz hamdir. Aynan mana shu narsalarni inobatga oladigan bo‘lsak mental arifmetika darslarida avvalo abakusni o‘quvchilarga yaxshilab o‘rgatish, har bir detalni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Bolalarda ijtimoiylashuv jarayoni boshlanar ekan mas’uliyat ham shakllanib boradi. Bu jarayon o‘rtacha bolaning 6-7 yoshidan keyin taraqqiylashib boradi. Ayniqsa, ijtimoiylashuv jamoalarda tezroq shakllanadi. Jamoalarda aqliy yuklamalar qanchalik ko‘p yoki xilma-xil bo‘lsa jarayon yanada tezlashadi. Bog’chaga chiqmagan bola bilan bog‘chaga chiqqan bola o‘rtasida qanchalik tafovut bo‘lishi mumkin: bog‘chaga brogan bola avvaliga yangi jamoada o‘zini noqulay his qiladi, chunki u shu vaqtgacha bunday jamoada ishtirok etmagan. Qat’iy talab yoki majburiyatlarni ham bajarmagan ana shu narsaga bolaga qattiq ta’sir qila boshlaydi. Shuning uchun bog‘chaga chiqqan bolalar yig‘loqi bo‘lishadi. Biroq bu vaqtincha, bola asta-sekin jamoaga moslashib boradi, boshqa bolalar bilan tez kirishuvchan bo‘ladi. Aqliy topshiriqlarni ham bajarish uchun kordinatsiyalanadi. Bola bog‘chaga chiqmasdan tog‘ridan-to‘g‘ri maktabga borsa ham baribir shu holat takrorlanadi. Aksincha endi asoratlar ko‘payadi. Mental arifmetikada asosan bolalar arifmetik amallarni bajarishadi. Arifmetik amallarda o‘ziga xos shunday xususiyat borki, har bir misolni ishlashda uning boshi va yechimi bo‘ladi. Bu algortim bolani mas’uliyatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Masalan, 9+8+1-3=? ushbuamalni ishlashni 9 raqamini abakusga kiritishdan boshlanadi. Hamda oxirida javob 15 chiqishi bilan yakunlanadi. Har safar o‘quvchi bu kabi amallarni bajarganda o‘zida mas’uliyat hissini shakllantirib boradi.

Shaxning o‘ziga nisbatan ishonchi doimo bir xil bo‘lmaydi. Ayniqsa, aqliy vazifalarni bajarish qiyinligi va natijadorlik uchun ko‘proq vaqt talab qilinishi hisobidan. Ta’lim jarayonida o‘quvchi qaysi mashg‘ulotda o‘ziga nisbatan ishonchini mustahkamlashi mumkin? Albatta matematika yoki arifmetika. Lekin ko‘pchilik matematikani bir xilda tushunavermaydi va “sevmaydi” shuning sababdan ham maetematikani eshitgandayoq og‘ir yukni his qilishadi. Mental arifmetika bilan shug‘ullanishda esa, oson arifmetik amallarni ishlash barobarida o‘quvchida o‘ziga nisbatan ishon hissi kuchayib boradi. Shuning uchun ham mental arifmeika bilan shug‘ullanuvchi bolalarda qisqa fursat ichida tezkor hisoblash ko‘nikmasi shakllanadi. O‘quvchi qanchalik bu soha bilan shug‘ullansa, shunchalik ishonchi ortib boradi. Mental arifmetika treneri esa, o‘quvchining rivojlanishiga qarab vazifalarni murakkablashtirib borishi lozim. Bu narsa o‘quvchi doimo o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda pog‘onama-pog‘ona harakat qilish degan xulosani paydo qiladi. Nega shaxsning o‘ziga nisbtan ishonchi oshishida mental arifmetikaning ahamiyati salmoqli. Chunki, mental arifmetikada, umuman, matematikada o‘lchovlar aniq. Masalan, bitta sinfdagi o‘quvchilarga bir xil predmet tasvirini chizish topshirig‘i berilsa, masalan quyosh va bulutlar. Sinfdagi har bir o‘quvchida rasmlar turlicha, aynan bir xil emas. Lekin oddiygina 2+2+5= amali berilsa, o‘quvchilar darrov 9 javobini chiqarib berishadi. Sinfdagi barcha o‘quvchi bo‘lmasada aksariyat o‘quvchilarda natija bir xil ya’ni 100% ni qayd etadi. Shuning uchun ham mental arifmetika bilan shug‘ullanish bolada o‘ziga nisbatan ishonchni kuchayishiga olib keladi.

Shu paytgacha olimlar odam bir vaqtning o‘zida ikkita vazifani bajara olmaydi degan xulosada edi. Biroq vaqt o‘tishi bilan oldingi xulosalar ishonchsizlanmoqda. Odam bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifani ham bajara olishi mumkin. Mental arifmetika bilan shug‘ullanuvchi bolalarda ayniqsa shu qobiliyat tez namoyon bo‘ladi. Bu esa, mental arifmetika bilan shug‘ullanish miyaning fizio-anatomik o‘zgarishiga sabab bo‘lishini ko‘rsatadi. Mental arifmetika bilan bir necha oy yoki yil daavomida shug‘ullangan o‘quvchilar arifmetik amallarni ishlash bilan bir qatorda boshqa vazifalarni ham bajara olishadi. Masalan, tennis koptogini o‘ynatish, o‘tirib-turish mashqini bajarish, polga suyangan holda mashq bajarish, sakrash orqali yoki she’r aytgan holda ham arifmetik amallarni bemalol bajara olishadi. Faqatgina bu ko‘nikmani uzoq

vaqt saqlab qolish uchun o‘quvchi muntzam ravishda arifmetik amallarni shu zaylda ishlab turishi turishi talab etiladi. Aksincha mashg‘ulotlardan uzoq vaqt tanaffus qilinsa, ko‘p vazifani bajara olish ko‘nikmasi ham yo‘qolishi mumkin. Lekin tanaffusdan so‘ng yana mashqlar davom ettirilsa, ko‘nikma qayta tiklanadi. Chunki tanaffus vaqtida ushbu ko‘nikma izlari batamom yo‘qolib ketmaydi, uning izlari miya yarim sharlari po‘stloq sohasida qolgan bo‘ladi.

Mental arifmetikaning rivojlanish bosqichlari. Xitoy abakusi (Suan-Pan) miloddan avvalgi 1200-yillarda ixtiro qilingan. Bu samarali va aniq matematik hisoblash vositasi edi. Uning ba'zi tamoyillari o‘zidan oldingilaridan - yunonlarning Salamis lavhasi va Rim qo‘li abakidan olingan. Qadimgi xitoy abakisi 2/5-tizimda ishlagan, uning yuqori palubasida ikkita va pastki palubada beshta tosh bo‘lgan. Toshlar qo‘shish, ayirish, bo‘lish, ko‘paytirish va kvadrat ildizlarni topish kabi arifmetik hisoblarni bajarish uchun manipulyatsiya qilingan. Ruslar 1600-yillarda Schoty deb nomlanuvchi abakning o‘z versiyasini o‘ylab topdilar. Ammo u keyinchalik Yaponiya va Koreyada taqdim etilgan Suan Panga nisbatan mashhurlikka erisha olmadi va 1930 yilda yaponlar uni improvizatsiya qilib, soroban deb nomlanuvchi 1/4 tizimli abakusni ishlab chiqdilar. Soroban 10-bazasi tizimida ishlaydi va oxir-oqibat Xitoy abakusiga nisbatan mashhurlikka erishdi.

Odam borliqni sezgi a’zolari orqali idrok qiladi. Bunda, ko‘z, quloq, burun, til, teri va vestibular sezgi a’zolarini aytishimiz mumkin. Ta’lim jarayonida esa, asosan ko‘z, quloq va kinestetik sezgilar muhim hisoblanadi. Mental arifmetika mashg‘ulotlarida ham ko‘z, quloq va kinestetik sezgilar faol ishtirok etadi. Abakusda ishlashda ham ko‘z ham barmoq sezgisi ishtirok etsa, og‘zaki misollarni ishlashda esa, bevosita eshitish orqali ham operatsiyalarni bajariladi.

Adabiyotlar:

1. Гальперин П.Я. Лекции по психологии [Текст] / П.Я. Гальперин. - 5-е изд. М.: Книжный дом Университет, 2010. – 397 с.

2. Карпова С.И. Обогащение содержания образования как фактор развития детской одаренности / А.И. Савенков, С.И. Карпова, Н.А. Вершинина // Вестник Московского городского педагогического университета. Серия: Педагогика и психология. 2012. №3 (21). С. 73-83.

3. Найбауэр А.В. Итоги переходного периода введения Федерального государственного образовательного стандарта дошкольного образования: насущные проблемы и возможные решения // Современное дошкольное образование. Теория и практика. 2016. №1. С.14–19.

4. Цаплина О.В. Позитивная психология в образовании // Современная психология: теория и практика. Материалы X международной научно-практической конференции, 2013. С. 130-135.

MATRITSALARNI KRIPTOGRAFIYADAGI TATBIQLARI

Xurramov O.Sh.
QarDU Algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: matritsa, shifr, raqam, xabar, o‘lcham, teskari matritsa.
Ключевые слова: матрица, шифр, число, сообщение, размер, обратная матрица.
Key words: matrix, cipher, number, message, size, inverse matrix.

Резюме:
Ushbu maqolada matritsalardan foydalanib turli mazmundagi xabarlarni kodlab yetkazish o‘rganilgan. Matritsalarni turli mazmundagi xabarlarni shifrlashtirishda foydalansa bo‘ladi. Berilgan shifr matritsa uchun teskari matritsa topilgan. Shifrlangan matritsaga teskari matritsani ko‘paytirilgan. Hosil bo‘lgan matritsadagi raqamlarni jadvaldagi harflarga aylantirib berilgan xabar olingan.
Резюме:
В данной статье изучается кодирование сообщений различного содержания с помощью матриц. Матрицы можно использовать для шифрования сообщений различного содержания. Для заданной матрицы шифрования находится обратная матрица. Обратная зашифрованная матрица умножается. Сообщение получается преобразованием чисел полученной матрицы в буквы таблицы.
Summary:
In this article, the encoding of messages of various contents using matrices is studied. Matrices can be used to encrypt messages of various contents. The inverse matrix is found for the given cipher matrix. The inverse of the encrypted matrix is multiplied. The message is obtained by converting the numbers in the resulting matrix into the letters in the table.

Matritsalarni turli mazmundagi xabarlarni shifrlashtirishda foydalansa bo‘ladi.
Birinchi o‘rinda lotin alifbosini raqamlashtirib olamiz.

A	B	D	E	F	G	H	I	J	K	L
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
M	N	O	P	Q	R	S	T	U	V	X
12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
Y	Z	O‘	G‘	Sh	Ch	Ng	’	.		
23	24	25	26	27	28	29	30	31	0	

Izoh: 0 raqami bo‘sh joy(probel)ni mos qo‘yamiz.

Ikkinchi o‘rinda shifr matritsani tanlab olamiz. E’tibor qiling, shifr matritsa doimo kvadrat matritsa bo‘lishi shart.

Misol uchun $A=\begin{pmatrix}2 & 1\\ 5 & 3\end{pmatrix}$

Uchinchi o‘rinda esa xabarni yuqorida tanlangan ikkinchi tartibli kvadrat matritsaga mos matritsaga aylantirib olamiz:

Xabar: Mening maqolam.

Dastlab harflarni sonlar orqali yozib olami:

12-4-13-8-29-0-12-1-16-14-11-1-12-31

Endi bu sonlarni 2 ta ustundan iborat matritsa ko‘rinishda yozamiz(bu shifr matritsaning o‘lchamiga bog’liq ravishda o‘zgaradi):

$$\begin{pmatrix}12 & 4\\ 13 & 8\\ 29 & 0\\ 12 & 1\\ 16 & 14\\ 11 & 1\\ 12 & 31\end{pmatrix}$$

Endi bu matritsani shifr matritsaga ko‘paytirsak shifrlangan xabar matritsa paydo bo‘ladi, ya’ni

$$\begin{pmatrix}12 & 4\\ 13 & 8\\ 29 & 0\\ 12 & 1\\ 16 & 14\\ 11 & 1\\ 12 & 31\end{pmatrix}\cdot\begin{pmatrix}2 & 1\\ 5 & 3\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}12\cdot2+4\cdot5 & 12\cdot1+4\cdot3\\ 13\cdot2+8\cdot5 & 13\cdot1+8\cdot3\\ 29\cdot2+0\cdot5 & 29\cdot1+0\cdot3\\ 12\cdot2+1\cdot5 & 12\cdot1+1\cdot3\\ 16\cdot2+14\cdot5 & 16\cdot1+14\cdot3\\ 11\cdot2+1\cdot5 & 11\cdot1+1\cdot3\\ 12\cdot2+31\cdot5 & 12\cdot1+31\cdot3\end{pmatrix}=$$

$$=\begin{pmatrix}24+20 & 12+12\\ 26+40 & 13+24\\ 58+0 & 29+0\\ 24+5 & 12+3\\ 32+70 & 16+42\\ 22+5 & 11+3\\ 24+155 & 12+93\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}44 & 24\\ 66 & 37\\ 58 & 29\\ 29 & 15\\ 102 & 58\\ 27 & 14\\ 179 & 105\end{pmatrix}$$

Yuqoridagilaran shifrlangan matritsani sonlar qatoriga aylantirsak

44-24-66-37-58-29-29-15-102-58-27-14-179-105

Bu to‘la shifrlangan xabar. Endi uni o‘qish uchun shifr matritsa va yuqoridagi jadval kerak bo‘ladi. Shifrni ochish jarayoni quyidagicha bo‘ladi.

a). Berilgan shifr matritsa uchun teskari matritsa topiladi

$$A^{-1}=\begin{pmatrix}3 & -1\\ -5 & 2\end{pmatrix}$$

b). Shifrlangan matritsaga teskari matritsani ko‘paytiramiz

$$\begin{pmatrix} 44 & 24 \\ 66 & 37 \\ 58 & 29 \\ 29 & 15 \\ 102 & 58 \\ 27 & 14 \\ 179 & 105 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 3 & -1 \\ -5 & 2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 12 & 4 \\ 13 & 8 \\ 29 & 0 \\ 12 & 1 \\ 16 & 14 \\ 11 & 1 \\ 12 & 31 \end{pmatrix}$$

d). Hosil bo‘lgan matritsadagi raqamlarni jadvaldagi harflarga aylantirib berilgan xabar olinadi.

Natijada, 12-4-13-8-29-0-12-1-16-14-11-1-12-31 ni yozib olamiz

Endi lotin alifbosidan foydalanib

A	B	D	E	F	G	H	I	J	K	L
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
M	N	O	P	Q	R	S	T	U	V	X
12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
Y	Z	O‘	G‘	Sh	Ch	Ng	’	.		
23	24	25	26	27	28	29	30	31	0	

Izoh: 0 raqami bo‘sh joy(probel)ni mos qo‘yamiz.

Quyidagi xabar kelib chiqadi.

Xabar: Mening maqolam.

Adabiyotlar:

1. Курош А.Г. Курс высшей алгебры. 2008. – 432 с.

2. Sh.A.Ayupov, B.A.Omirov, A.X.Xudoyberdiyev, F.H.Haydarov Algebra va sonlar nazariyasi , Toshkent «Tafakkur-bo‘stoni» 2019 y.

3. Хожиев Ж.Х. Файнлейб А.С. Алгебра ва сонлар назарияси курси, Тошкент, «Ўзбекистон», 2001 й.

4. https://youtu.be/TJQD4dnCbAA

5. https://youtu.be/vrxzWNTtF68

INTERFAOL USULLAR BILAN PYTHON DASTURLASH TILININI O'QITISH

Abduqodirova P.T.
Andijon davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi dotsenti, (PhD).
Ibaydullayev D.
Andijon davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi 2-kurs magistri

Tayanch so'zlar: ta'lim, dars, interfaol usullar, Python, informatika, pedagogik faoliyat, o'qituvchi kompetensiyasi, innovatsion texnologiya.
Ключевые слова: образование, урок, интерактивные методы, Python, информатика, педагогическая деятельность, компетентность учителя, инновацыонные технологии.
Key words: education, lesson, interactive methods, Python, informatics, pedagogical activity, teacher competence, innovative technology.

Резюме:
Python dasturlash tili Guido van Rossum tomonidan yaratilgan va 1991 yilda chiqarilgan. Python yuqori darajadagi ma'lumotlar strukturasi va oddiy lekin samarador obyektga yo'naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi. Maqolada Python dasturlash tilinini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish hamda uning o'quv jarayonida qo'llanilishi keltirilgan. Shu bilan birga Python dasturida statistik tahlil qilish imkoniyatlari va tartibi bayon etilgan.
Резюме:
Язык программирования Python был создан Гвидо ван Россумом и выпущен в 1991 году. Python предоставляет высокоуровневые структуры данных и простые, но эффективные стили объектно-ориентированного программирования. В статье рассматривается использование интерактивных методов при обучении языку программирования Python, а также его применение в учебном процессе. В то же время описаны возможности и порядок статистического анализа в программном обеспечении Python.
Summary:
The Python programming language was created by Guido van Rossum and released in 1991. Python provides a high level of data structure and simple but efficient object-oriented programming styles. The article presents the use of interactive methods in teaching the Python programming language, as well as its application in the educational process. At the same time, the Python program describes the possibilities and procedure for statistical analysis.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish, ta’lim muassa¬sa¬lari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar informatika fanini o‘qitish jarayoniga xalqaro taj¬ri¬balarni samarali tatbiq etish, o‘quvchilarning tabiiy-intellektual qobi¬liyatini rivojlantirishda dasturlash tillarini o’rganish, interfaol ta’lim texnologiyalaridan foyda¬la¬nish darajasini oshirdi.

Ta’lim sohasini jadal isloh qilish davrida pedagogik yangiliklarni joriy etishga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyat alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Ta’lim jarayonida innovatsiyalar – bu dars berishning zamonaviy metodikasi, ta’lim mazmunini yangi uslublar bilan boyitish hamda ta’lim natijalarini baholashning yangi metodlaridir.

Ta’lim muassasalarining o‘quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari hisoblangan interfaol metodlar, ilg‘or xorijiy tajribalar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiyalarni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish – dars jarayonidagi pedagogik mahoratni, bo‘lajak o‘qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, ta’lim beruvchining ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarini tashkil etishi va amalga oshirish hamda o‘z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi[2].

Bilim dargohiga tahsil olishga kelgan ayrim ta’lim oluvchilarda dasturlash tillarini o‘zlashtirish qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun ham, o‘qituvchining maqsadi – o‘quvchilarda mazkur o‘quv predmetiga nisbatan e’tiborni kuchaytirib, ular bilan ishlash jarayonida ularda mustaqil bilim olish, qiyosiy va tizimli-funksional tahlil qila olish, o‘rganilayotgan ob’ektning muhim jihatlarini aniqlay olish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak bo‘ladi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun pedagog o‘z faoliyatini innovatsion ta’lim texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar, tanqidiy va tahliliy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalar, loyihalashtirish texnologiyalari asosida shakllantirilishi lozim. Zamonaviy ta’limda passiv, nofaol, faol va interfaol strategiyalar mavjud. Ushbu strategiyalardan mohirona foydalanish ta’lim samaradorligi va sifatini ta’minlaydi.

Python dasturlash tili Guido van Rossum tomonidan yaratilgan va 1991 yilda chiqarilgan. Python – bu o'rganishga oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo'lgan oz sonlik zamonaviy dasturlash tillari qatoriga kiradi. Python yuqori darajadagi ma'lumotlar strukturasi va oddiy lekin samarador obyektga yo'naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi.

Stack Overflow saytining 2019-yildagi dasturchilar o’rtasida dasturlash tillari bo’yicha olib borilgan so’rovnomasida, eng qulay va ko’p foydalaniladigan dasturlash tillari ro’yxatida Python JavaScriptdan so’ng ikkinchi o’rinni

egallagan. Shu bilan bir qatorda dunyoning Twitter, Pinterest, HP, Symantec, Instagram va Groupon kabi yirik korxonalar aynan Python dasturlash tilidan foydalanmoqda. YouTube, DropBox, Google va Quora kabi dunyoning mashhur online platformalarining dasturiy ta'minoti ham aynan Python dasturlash tilida yozilganligi ushbu dasturlash tiliga bo'lgan talabning yuqori ekanligini anglatadi. Python nafaqat web sohasida balki sun'iy intellekt va robotexnika sohasida ham yuqori talabga ega til hisoblanadi.

Python dasturlash tilining sintaksisi o`zi kabi sodda va oson ekanligini, o`zgaruvchilarning tipini e'lon qilinmasligini, shuningdek sonlar bilan ishlaganda nafaqat butun va haqiqiy sonlar ustida balki kompleks sonlar ustida ham amallar bajarishni ko`rsatilgan misollar yordamida o`rgana oladi va uni amaliyotda bajara oladi. Shuning uchun xam, Python dasturlash tilinini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish vujudga keladigan muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish imkonini beradi. Shuningdek, bo'lajak dasturchilar o'z ustilarida mustaqil ishlashlari va Python dasturida ishlash bo`yicha bilim saviyalarini oshirish uchun standart modullardan foydalanishlari mumkin.

Python dasturlash tili yordamida statistik tahlil ishlarini ham oson va tushunarli tarzda ifodalashimiz mumkin. Statistik tahlil ma'lumotlarni o'rganish, tushunish va xulosa chiqarish uchun asosiy vositadir. Ko'pgina sohalarda, jumladan, ilmiy tadqiqotlar, biznes, tibbiyot va muhandislikda statistik tahlil muhim ahamiyatga ega. Python dasturlash tili bu sohada kuchli vosita bo'lib, turli xil kutubxonalar orqali statistik tahlilni osonlashtiradi.

Python dasturida statistik tahlilni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy qadamlar bajariladi: ma'lumotlarni yig'ish va tayyorlash, ma'lumotlarni tozalash, ma'lumotlarni tasvirlash va vizualizatsiya qilish, deskriptiv statistikalarni hisoblash, statistik sinovlarni o'tkazish va model yaratish va baholash. Ushbu qadamlarni izchil va aniq bajarish orqali ma'lumotlardan samarali xulosa chiqarish va qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Pythonda mavjud bo'lgan kutubxonalar bu jarayonni osonlashtiradi va tezlashtiradi.

Python dasturida statistik tahlil qilish qadamlari:

- Tahlilarimizning natijalarini jadval ko'rinishda chiqarish uchun pandas kutubxonasidan foydalanamiz;
- o‘zlashtirilgan baholarni ro‘yhat ko'rinishida kiritamiz;
- har bir baholarda nechta ekanligini aniqlab olamiz;
- kiritilgan baholardan foydalangan holda ularning o‘rtachasini, dispersiyasini, o‘rtacha kvadratik chetlanishini va variyatsiya koeffisentini topamiz;
- olingan natijalarni jadval ko‘rinishida chiqaramiz.

O‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning joriy qilinishi ta'limni ko‘rgazmali va mazmun-mohiyati jihatidan emotsional bo‘lishini

kuchaytirib, turli tipdagi o‘rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid o‘yin dasturlarini tuzish malakalarini shakllantiradi.

Va yana, o‘quvchilarni informatika faniga qiziqtirishda auksion, seminar, konferensiya, festival, musobaqa, hamda breyn-ring kabi o‘yin metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ye.V.Soboleva, Ye.G.Sabirova, N.S.Babiyeva, M.G.Sergeyeva, J.V.Torkunova “Formation of Computational Thinking Skills Using Computer Games in Teaching Mathematics” mualliflarning ta’kidlashicha, interfaol usullar yordamida matematik ko‘rsatkichlarni oshirish, o‘quvchilarni matematik modellashtirish, dasturlash faoliyatiga jalb qilish va shu orqali o‘rganishni shaxsiylashtirishga hissa qo‘shish mumkin. Interfaol usullarni kiritish tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Mualliflar matematik modellashtirish, loyihalash va o‘z dasturiy mahsulotingizni yaratish tajribasini o‘z ichiga olgan o‘yin xarakteridagi ta’lim va kognitiv harakatlar ketma-ketligini tavsiflaydi. Taqdim etilgan variantdagi ilmiy-nazariy faktlar, matematika, mantiq, o‘yin nazariyasi va boshqalarning qonuniyatlari va usullari kelajakning raqobatbardosh mutaxassisini sifatli tayyorlash uchun zarur fundamental asosdir. Barcha raqamli texnologiyalar asosida bilimlarni faollashtirishda fundamental ilmiy tamoyillarni tushunish yotadi[4].

Aqliy o‘yinlar o‘qitish sifatiga va mavzuni qiziqarli, tushunarli bo‘lishiga xizmat qiladi. Intellektual o‘yinlarda o‘quvchilar g‘olib chiqish maqsadida berilgan har bir topshiriqni astoydil bajaradilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish ortib boradi. Bunday o‘yinlar darsning maqsadi va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi[1].

Bundan tashqari, darslarda matematik modellashtirish va kompyuterdan foydalanish o‘quvchilarga ma’lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko‘rinishida taqdim qilish, o‘quv jarayonida sezilarli darajada mustaqil ishlashlarini rivojlantirish bilan birga, dasturlashni o‘zlashtirishlarida yaxshi natija beradi.

Umuman olganda, interfaol ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayonida qo‘llanilishi informatikani o‘rganishga qiziqishni kuchaytiradi, ta’limni ko‘rgazmali qilib, barcha o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Александров Д.В., Грачев И.В., Фанин Д.Н. Case-технологии Учебное пособие. – Владимир, 2006. – Б. 11.

2. Ishmuhammedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. – T.: RBIMM, 2008. – B. 78.

3. Nishonaliev U.N. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari: muammolar, yechimlar // Pedagogik ta’lim. -Toshkent, 2000. -№3. – B. 23-24.

4. Е.В.Соболева, Е.Г.Сабирова, Н.С.Бабиева, М.Г.Сергеева, Ж.В.Торкунова “Formation of Computational Thinking Skills Using Computer Games in Teaching Mathematics” EURASIA Journal of Mathematics, Science and Technology Education, 2021, 17(10), em2012 ISSN:1305-8223

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA STEM YONDASHUVI VA UNING ASOSIY TAMOYILLARI HAMDA KOMPONENTLARI

Ismoilov U.
Andijon davlat universitet Umumiy fizika kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: STEM, fizika ta’limi, ilm-fan, texnologiya, muhandislik, matematika, o‘qitish metodikasi, tamoyillar, komponentlar, integratsiya.
Ключевые слова: STEM, физическое воспитание, наука, технология, инженерия, математика, методы обучения, принципы, компоненты, интеграция.
Keywords: STEM, physical education, science, technology, engineering, mathematics, teaching methods, principles, components, integration.

Резюме:
Ushbu maqolada fizika fanini o‘qitishda STEM (Ilm-fan, Texnologiya, Muhandislik va Matematika) yondashuvining ahamiyati, asosiy tamoyillari va komponentlari o‘rganilgan. STEM yondashuvi orqali o‘quvchilarga turli fanlarni bir-biriga bog‘langan holda o‘rganish imkoniyati beriladi. Ushbu maqolada STEM yondashuvi asosida fizika darslarida o‘quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar tahlil qilinadi. Shuningdek, STEM yondashuvi asosiy tamoyillari - integratsiya, muammoli o‘qitish va amaliyotning fizika faniga tatbiqi ko‘rib chiqilgan.
Резюме:
В этой статье исследуются важность, ключевые принципы и компоненты подхода STEM (наука, технология, инженерия и математика) к преподаванию физики. Благодаря подходу STEM студентам предоставляется возможность изучать различные предметы в связной форме. В данной статье анализируются методы, направленные на развитие теоретических знаний и практических навыков учащихся на уроках физики на основе STEM-подхода. Также рассматривается применение основных принципов STEM-подхода – интеграции, проблемного обучения и практики – к физической науке.
Summary:
This article explores the importance, key principles, and components of the STEM (Science, Technology, Engineering, and Mathematics) approach to teaching physics. Through the STEM approach, students are given the opportunity to study various subjects in a connected manner. This article analyzes methods aimed at developing students' theoretical knowledge and practical skills in physics classes based on the STEM approach. Also, the application of the main principles of the STEM approach - integration, problem-based learning and practice - to physical science is considered.

Kirish. STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) - bu ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikani integratsiyalashgan holda o‘qitishga qaratilgan ta’lim yondashuvi. Fizika fanida STEM yondashuvi o‘quvchilarga fanlararo bilimlarni berish bilan birga, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar ilmiy izlanish olib borishga, texnologiyalardan foydalanishga va muhandislik amaliyotlarini qo‘llashga o‘rganadilar. Ushbu maqolada STEM yondashuvining asosiy tamoyillari va komponentlari, shuningdek, ularning fizika fanida o‘qitishda qanday rol o‘ynashi yoritiladi.

Metodlar.Mazkur maqolada fizika fanida STEM yondashuvining qo‘llanilishi, uning asosiy tamoyillari va komponentlari bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar tahlil qilindi. Tadqiqot usuli sifatida adabiyotlarni tahlil qilish bilan birga, STEM yondashuvi asosida o‘quvchilarni fizika fanidan o‘qitishning turli tajribalari o‘rganildi.

Avvalo, STEM yondashuvining fizika ta'limiga qanday ta’sir ko‘rsatishi bo‘yicha milliy va xalqaro tajribalar tahlil qilindi. O‘quvchilarning STEM yondashuviga mos o‘quv dasturlarida qanday nazariy va amaliy bilimlar olgani o‘rganildi. Shu bilan birga, fizika fanida tajriba o‘tkazish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va muhandislik dizaynlarini ishlab chiqish jarayonlari tahlil qilindi.

Fizika fanida STEM yondashuvini qo‘llash usullari tadqiqotda muhim o‘rinni egalladi. Masalan, darslarda raqamli laboratoriyalar, simulyatorlar va boshqa texnologik vositalardan foydalanish amaliyoti o‘rganilib, bu jarayonlar o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqot va eksperimental ko‘nikmalarini qanday rivojlantirishi kuzatildi.

Empirik tahlil usuli orqali o‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyotda qanday qo‘llagani, muhandislik dizayni va texnologik vositalar yordamida qilingan tadqiqot natijalari ko‘rib chiqildi. Jumladan, fizika qonunlarini muhandislik loyihalari orqali amalda sinab ko‘rish tajribalari o‘rganilib, STEMning ta'lim jarayoniga ta’siri aniqlandi. Ushbu tahlillar o‘quvchilarning ilmiy muammolarni hal qilishda qanday natijalarga erishayotganini ko‘rsatib berdi.

Shuningdek, STEM yondashuvi orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ilmiy-tadqiqotlarni olib borish metodikasi fizika fanida qanday qo‘llanilishi ham ushbu tadqiqotning bir qismi sifatida tahlil qilindi.

Natijalar.STEM yondashuvi fizika ta'limida quyidagi asosiy tamoyillar va komponentlarni o‘z ichiga oladi: Tamoyillar – bu ma'lum bir yondashuv yoki jarayonning asosiy qoidalari va yo'nalishlari. Ular o‘qitish jarayonini

boshqaradigan prinsiplar bo‘lib, ta’lim berishning qanday amalga oshirilishini belgilaydi. Tamoyillar o‘quvchilarga bilimlarni qanday yetkazish, ularni qanday o‘rgatish va rivojlantirishda yo‘naltiruvchi asosiy mezonlardir. Fizika fanida STEM yondashuvining tamoyillari o‘quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini birlashtirishga, muammolarni hal qilishga va fanlarni bir-biri bilan bog‘lashga qaratilgan.

Komponentlar – bu yondashuvni tashkil etuvchi asosiy qismlar yoki elementlar. STEM yondashuvida har bir komponent o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, ular birgalikda ishlaganda o‘quvchilarga ko‘p fanli bilim va ko‘nikmalarni yetkazib beradi. Fizika fanida STEMning komponentlari ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlaridan iborat bo‘lib, bu fanlar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi va o‘quvchilarning keng qamrovli bilim olishini ta’minlaydi.

Tamoyillar: Integratsiya- STEM yondashuvi turli fanlarni bir-biriga bog‘lab o‘rgatishni nazarda tutadi. Fizika fanida bu tamoyil ilmiy tushunchalarni matematik modellar va texnologik innovatsiyalar orqali tushuntirishga yordam beradi.

Elektromagnit maydon nazariyasini o‘rgatishda fizika va matematikani birgalikda qo‘llash mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga Maksvel tenglamalarini (matematik qism) tushuntiradi, so‘ngra bu tenglamalar asosida elektromagnit maydonning texnologik ilovalari, masalan, radio signallarini uzatish va qabul qilish mexanizmlarini (texnologik qism) ko‘rsatadi. Bu bilan o‘quvchilar nazariy bilimlarni texnologiya va amaliyotga bog‘lashni o‘rganadilar; muammoli o‘qitish- STEM yondashuvi asosida o‘quvchilar real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun ilmiy usullardan foydalanishga o‘rgatiladi. Masalan, fizik qonunlar yordamida muhandislik masalalarini hal qilish.

O‘quvchilarga "Energiya tejovchi uy dizayni" bo‘yicha loyiha beriladi. Bu loyiha davomida ular Nyutonning issiqlik uzatish qonunlari asosida uyda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib boradilar. Shuningdek, ular o‘z loyihalarida muhandislik dizaynini ishlab chiqadilar va texnologiyalardan foydalanib, simulyatsiya asosida uy dizaynini sinab ko‘radilar ; amaliy o‘qitish- STEM yondashuvi nazariyani amaliyot bilan birlashtiradi, bu esa o‘quvchilarning ilmiy va texnikaviy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Fizika fanida elektr zanjirlarini o‘rganishda o‘quvchilar avval Ohm qonunini nazariy o‘rganadilar. So‘ngra laboratoriyada real elektr zanjirlarini yaratadilar va o‘lchov asboblari yordamida qarshilik, kuchlanish va tok kuchini o‘lchaydilar. Bu orqali ular nazariy bilimlarni amaliyotda qanday qo‘llashni o‘rganadilar.

Komponentlar:

1. Science (Ilm-fan): Fizika fani STEMning ilmiy qismidir. Fizikadagi asosiy qonuniyatlar va nazariyalar o‘quvchilarga kashfiyot qilish va ilmiy tadqiqotlar olib borishda yordam beradi.

Gravitatsiya qonunini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar Nyutonning umumiy tortishish qonunini o‘rganadilar va uning Yer va boshqa osmon jismlari harakatiga ta’sirini tushunadilar. So‘ngra o‘quvchilar simulyatsiyalar va tajribalar orqali gravitatsiya qonunini kosmik loyihalarda (masalan, sun'iy yo‘ldoshlarning orbitalarini hisoblashda) qanday qo‘llash mumkinligini o‘rganadilar.

2. Technology (Texnologiya): STEM yondashuvida texnologiya o‘quvchilarga raqamli asbob-uskunalar va dasturlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Fizika darslarida zamonaviy simulyatsiya dasturlari (masalan, "PhET Interactive Simulations") yordamida o‘quvchilar elektr maydon, magnit maydon yoki mexanik tizimlar kabi fizik hodisalarni ko‘rsatadigan tajribalarni bajaradilar. Bu dasturlar yordamida o‘quvchilar nazariy bilimlarni virtual muhitda sinab ko‘radilar va o‘z tajribalaridan xulosa chiqaradilar.

3. Engineering (Muhandislik): Fizika fani muhandislik bilan chambarchas bog‘liqdir. STEM yondashuvi muhandislik dizaynlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi.

O‘quvchilarga "Ko‘prik loyihalash" topshirig‘i beriladi. Fizikaning statika bo‘limidagi bilimlarga asoslangan holda, ular ko‘prikning kuchlanishga chidamliligini hisoblashadi va o‘z loyihalarini muhandislik ko‘rinishida amaliyotga tatbiq etadilar. So‘ngra ular bu ko‘prikning modellarini sinovdan o‘tkazib, uning qanchalik barqaror ekanligini baholaydilar.

4. Mathematics (Matematika): Fizika fanida matematik modellar va hisob-kitoblar muhim rol o‘ynaydi. STEM yondashuvi matematikani fizika qonunlarini tushuntirish va tajribalarni rejalashtirish uchun ishlatadi.

Fizikaning harakat qonunlarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar Nyutonning harakat tenglamalarini matematik modellar yordamida yechishadi. Masalan, kuzda erkin tushayotgan jismning tezligini va yo‘lini matematik tenglamalar orqali hisoblaydilar. Bu jarayonda o‘quvchilar nazariy bilimlarni matematik modellar orqali amaliy masalalar bilan bog‘laydilar.

Yuqorida keltirilgan misollar STEM yondashuvi fizika ta'limida qanday qo‘llanishini va u orqali o‘quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini birgalikda rivojlantirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Muhokama.Fizika fanida STEM ning qo'shimcha ta'lim jarayonini yanada samarali va mazmunli qiladi. Bu korxonalar o'quvchilarga faqat

nazariy bilimlarni emas, balki ularni amaliyotda qo'llash ham beradi. Ilmiy ko'rinishidagi, o'quvchilari STEM resurslari asosida o'qitilganda ular ko'proq resurslar bilan ilmiy izlanishlarga jalb qilish va real hayotdagi odamlarga yordam berishadi. Bybee ta' yutug'icha STEMning ta'lim darajasini o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarishni rivojlantirish, ularni yuqori texnologiyaga tayyorlashda muhim kasb etadi .

STEM fizika darslari nazariya va amaliyotni birlashtirish ustida ishlash. Sanders va Kelley tadqiqotida STEM tizimini zamonaviy o'quvchilarning amaliy bilimlarini kuzatishda eng samarali foydalanishdan biri tadqiqot ta'minlagan. Ular STEM orqali turli texnologik ishlab chiqarish va muhandislik tajribalari orqali real hayot muammolarini ilmiy usullar bilan hal qilish o'rganishlarini qayd etgan.

Muhokama jarayonida STEM tizimining texnologiya va muhandislik bilan chambarchas bog'liq aniqlanishi kerak. Zamonaviylar, resurslar, va simlar yordamida o'quvchilarning ilmiy va amaliy ko' laboratoriyalarini olib borish orqali foydalanish kengayadi. Vasquez va Comer ning tadqiqoti ko'rsatganidek, STEM saratoni ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish bilan ajralib turadi, bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasini ishlab chiqarish va natijada bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi. STEM ishlab chiqarish orqali o'quvchilarning yuqori ilmiy fikrlash va texnikaviy yechimlar ishlab chiqarish chiqish ko'rinishidagi jarayoni ta'kidlangan. Bu ko' yangi mahsulot ishlab chiqarish ilmiy va texnikni yaxshilashda, global texnologiya zarur ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy o'quvchilar texnologiyalari va dasturiy ta'minotidan keng foydalanish imkoniga ega bo'lgani sababli, ular nazariy bilimlarni real hal qilishda tezroq qo'llashga ega bo'ladilar.

Umuman olganda, STEMni jismoniy nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarning ilmiy tadqiqotiga bo'lgan yordamini kuchaytiradi va ularni yuqori texnologiyali kasblarga tayyorlaydi. Zamonaviy texnologiya va laboratoriyalar yordamida fizikani STEM ning ishlab chiqarish jarayoniga asoslanib o'qitish o'quvchilarining ta'lim jarayonidagi ishtirokini, o'rganish nazariy va amaliy ko'rinishini yanada rivojlantiradi.

Fizika fanini o‘qitishda STEM yondashuvi o‘quvchilarning ilmiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuv orqali fanlararo bog‘liqlikni tushunish, texnologik vositalardan foydalanish, muhandislik dizaynlarini ishlab chiqish va matematik modellarni qo‘llashga oid bilim va ko‘nikmalar shakllantiriladi. STEM yondashuvi kelajakdagi ilmiy-tadqiqot va texnikaviy yangiliklar uchun zarur bo‘lgan poydevorni yaratadi. Fizika fanini o‘qitishda

ushbu yondashuvni kengroq qo‘llash ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Bybee, R. W. (2013). The case for STEM education: Challenges and opportunities. Arlington, VA: NSTA Press.

2. Kelley, T. R., & Knowles, J. G. (2016). A conceptual framework for integrated STEM education. International Journal of STEM Education, 3(1), 11.

3. Vasquez, J. A., Comer, M., & Sneider, C. (2013). STEM lesson essentials, grades 3-8: Integrating science, technology, engineering, and mathematics. Heinemann.

4. National Research Council. (2011). Successful STEM education: A workshop SUMMARY:. National Academies Press.

5. Ё Маматохунов (2021) Методика организации самостоятельной учебной деятельности школьников по физике во внеурочных занятиях - Universum: психология и образование, 10-12

6. Mamatohunov Yu. A., Rakhmatulina R. (2019) Methodology for organizing educational and methodological activities of students in the process of forming students' independence in physics lessons. European Journal of Research and Reflection in Education Sciences N-7

7. Abduqodirov A.A., Fayzullayev M. (2019). O’quvchilarning metakognitiv kO’rinishini kuzatishning nazariy asoslari. Toshkent: O’zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti.

8. Jo’rayev M., Abdullayeva B.S. (2021). Fizika darslarida metakognitiv yoritishni qO’llash usullari. Toshkent: Fan va texnologiya.

KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O‘QITISH ISTIQBOLLARI

Egamnazarova S.X.
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
informatika kafedrasi stajyo‘r-o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kompyuter grafikasi, vizualizatsiya, animatsiya, infografika.
Ключевые слова: компьютерная графика, визуализация, анимация, инфографика.
Key words: computer graphics, visualization, animation, infographics.

Резюме:
Ushbu maqolada informatika fanlarini o‘qitishda kompyuter grafikasidan foydalanishning ta’lim jarayonidagi o‘rni va samaradorligi tajriba va statistik tahlil asosida o‘rganiladi. O‘zbekistonda qay darajada bu sohaga e’tibor berilmoqdaligi ta’kidlanadi. Maqola davomida kompyuter grafikasi yordamida o‘quvchilar bilim olish jarayonida yuzaga kelgan o‘zgarishlar, o‘quvchilarning qiziqishi va o‘zlashtirish darajasiga ta’siri keltirilgan.
Резюме:
В данной статье на основе опыта и статистического анализа изучается роль и эффективность использования компьютерной графики при преподавании информатики в учебном процессе. Подчеркивается, какое большое внимание уделяется этой сфере в Узбекистане. В ходе статьи представлены изменения, произошедшие в процессе обучения студентов с помощью компьютерной графики, влияние на интерес и уровень мастерства учащихся.
Summary:
In this article, the role and effectiveness of using computer graphics in the teaching of computer science in the educational process is studied based on experience and statistical analysis. It is emphasized how much attention is paid to this field in Uzbekistan. In the course of the article, the changes that occurred in the process of students’ learning with the help of computer graphics, the impact on the students’ interest and mastery level are presented.

Kirish. Kompyuter grafikasining informatika fanlaridagi ahamiyati ortib bormoqda. Informatika ta’limida grafik vositalardan foydalanish murakkab kontseptsiyalarni vizual tarzda ifodalash va o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirish imkonini beradi. Informatika fanlarini o‘qitishda kompyuter grafikasi juda ko‘p foyda keltiradi. Bu texnologiya nafaqat darsliklarni jonlantiradi, balki murakkab kontseptsiyalarni tushunishni ham yengillashtiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida raqamli texnologiyalar biz o‘rganish uslubimizni o‘zgartira boshladi. Kontseptsiya “Raqamli o‘quv dasturi” kompyuter texnologiyalari ta’limga kiritilganda paydo bo‘ldi. Ta’lim maydonini yaxshilash maqsadida raqamli o‘quv dasturlari va ularning elementlari bosqichma-bosqich joriy etildi.

O‘zbekistonda kompyuter grafikasini rivojlantirish sohasida bir qator ilmiy tadqiqotlar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Masalan, o‘quv jarayonida elektron darsliklar ishlab chiqish va multimedia texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar mavjud. Bu usullar talabalar uchun vizual o‘rganishni osonlashtirib, bilim olish jarayonini qiziqarli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, sohada avtomatlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ham kuzatilmoqda. Bu jarayonlar qishloq xo‘jaligidan tortib, ishlab chiqarishga qadar turli sohalarda inson omilini kamaytiradi, bu esa yangi ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarga talabni oshiradi.

O‘zbekistonda animatsion grafikaga ham katta e’tibor berilmoqda. Bu sohada zamonaviy dasturiy ta’minot va texnologiyalar yordamida yaratish jarayonlari rivojlanmoqda, bu esa reklama, ko‘ngilochar sanoat va boshqa sohalarda ko‘plab imkoniyatlarni ochmoqda. Kompyuter grafikasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va ilmiy tadqiqotlar doirasida, O‘zbekiston Milliy universiteti kabi ilmiy muassasalarda o‘zaro integratsiyalashgan ta’lim tizimlari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu muassasalarda kompyuter grafikasi va animatsiyasi bo‘yicha tajribalarni oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kompyuter grafikasi sohasida jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Informatika ta’limida kompyuter grafikasi texnologiyalarini tadqiq qilish bo‘yicha olimlar tomonidan bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Quyida ushbu yo‘nalishdagi ba’zi muhim tadqiqotlar va olimlarning olib borgan ishlarini keltirish mumkin.

2022-yilda Yale universiteti tadqiqotchilari kompyuter grafikasining ta’limdagi samaradorligini o‘rganish maqsadida bir necha tajriba o‘tkazdi. Tadqiqotda grafik vositalardan foydalangan holda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi 20% yuqoriroq bo‘lganligi kuzatildi. Tadqiqotga ko‘ra, interfaol grafik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini sezilarli darajada oshirgan. Yale tadqiqotlari natijasida shuni aniqladiki, grafik vositalar qo‘llanilgan ta’lim modelida o‘quvchilarning qiziqishi va faolligi an’anaviy ta’limga nisbatan sezilarli ravishda ortadi.

MIT professori Aaron Hertzman va uning hamkasblari kompyuter grafikasi va o‘quv jarayonida uning foydasi haqida keng qamrovli tadqiqot olib bordi. Ular o‘quvchilarning grafik vositalardan foydalangan holda algoritmlar va ma’lumotlar tuzilmalari kabi murakkab mavzularni o‘rganish jarayonini o‘rganishdi. Tadqiqot

davomida kompyuter grafikasi orqali mavzuni o‘rganayotgan o‘quvchilar tezroq va samaraliroq bilim olganliklari aniqlandi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda grafik vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarda mantiqiy va ijodiy fikrlash darajasining ortishi qayd etildi.

Cambridge universiteti tadqiqotchilari 2023-yilda kompyuter grafikasining matematika va fizika kabi aniq fanlarni o‘qitishda samaradorligini o‘rganishdi. Bu tadqiqotda o‘quvchilar grafik simulyatsiyalar yordamida fizik jarayonlarni vizual ravishda o‘rganishgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, grafik simulyatsiyalar va 3D modellarni qo‘llagan o‘quvchilar mavzuni chuqurroq va tezroq tushunishga erishgan. Cambridge tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, grafik vositalar yordamida amaliy va ko‘rinadigan jarayonlar yaratish o‘quvchilarning texnik tushunchalarini ancha osonlashtiradi.

Stanford universiteti tadqiqotchilari ham kompyuter grafikasi yordamida ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan bir necha tadqiqotlar o‘tkazgan. Tadqiqot guruhi rahbari professor Daniel Cohen kompyuter grafikasi va vizual texnologiyalar yordamida o‘quvchilar dars materiallarini yanada chuqurroq va qiziqarliroq qabul qilishlari mumkinligini isbotladi. Tadqiqot davomida turli xil grafik vositalar yordamida berilgan ma’lumotlar o‘quvchilar tomonidan tezroq o‘zlashtirilgan va ular bilimlarni aniqroq eslab qolgan.

Natijalar va muhokama. Tadqiqotda informatika darslarida ishlatiladigan kompyuter grafikasi vositalari va dasturlarining ta’siri tahlil qilindi. Masalan, Photoshop, CorelDraw AutoCAD va Blender, Canva kabi dasturlar o‘quvchilarga mavzuni amaliyotda o‘rganish imkonini beradi. Grafik vositalar orqali o‘quvchilar algoritmlar, ma’lumotlar tuzilmalari va dasturiy ta’minot arxitekturasini chuqurroq o‘rganish imkoniga ega bo‘ldilar. 2023-yil “Umumta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda infografikadan foydalanish metodikasi” nomli dissertatsiya ishimizda umumta’lim maktabidagi 9-sinflarida o‘qitish jarayoniga tatbiq qilish bo‘yicha tashkiliy ishlar olib borildi. Pedagogik tadqiqotlarlarda faraz sifatida nazorat sinflarida olib borilgan an’anaviy metodika asosida olingan natijalar tajriba sinflarida olib borilgan innovatsion texnologiyasi asosida olingan natijalar bilan taqqoslanib, tajriba sinflaridagi olingan natijalarning samarli ekanligi ko‘rsatiladi.

Umumlashtiruvchi eksperiment natijalari

1-jadval.

Guruhlar	Tajriba guruh	Nazorat guruh
5 baho	5	3
4 baho	11	10
3 baho	9	10

2 baho	0	0
Samaradorlik	64	56

Bundan ko‘rinib turibdiki, informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda infografik metodlar asosida yaratilgan elektron axborot ta’lim resursidan foydalanib o‘tkazilgan mashg’ulotlarda tadqiqotlar texnologiyasini qo‘llash natijasida o‘quvchilarda ta’limiy faoliyatga nisbatan nisbatan motivatsiya oshdi, ularda mustaqil tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllandi, mustaqil fikr va kreativlik(ijodkorlik) ko‘nikma va malakalari rivojlandi. Olingan natijalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ta’limda sifat samaradorligi eksperimental guruhda nazorat guruhiga nisbatan 56 % dan 65 % ga oshdi (1-diagramma).

Umumta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyasidan foydalanish talabalarga qisqa vaqtda yaxlit mavzularni eslab saqlab qolish, ular bo‘yicha amaliy mashg’ulotlar bajara



1-diagramma. Sifat samaradorligi holati.

olish, ya’ni o‘zlashtirish sifatini oshirdi. Bunda ta’limning samaradorligi va o‘quvchilardaa shakllangan fanga oid kompetentlik matematik statistik mezonlar orqali 1,08 barobarga, ya’ni 8 % ga oshganligi isbotlandi.

Umumlashtiruvchi eksperiment natijalari

1-jadval.

Guruhlar	Tajriba guruh	Nazorat guruh
5 baho	5	3
4 baho	11	10
3 baho	9	10
2 baho	0	0
Samaradorlik	64	56

Bundan ko‘rinib turibdiki, informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda infografik metodlar asosida yaratilgan elektron axborot ta’lim resursidan foydalanib o‘tkazilgan mashg’ulotlarda tadqiqotlar texnologiyasini

qo‘llash natijasida o‘quvchilarda ta’limiy faoliyatga nisbatan nisbatan motivatsiya oshdi, ularda mustaqil tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllandi, mustaqil fikr va kreativlik(ijodkorlik) ko‘nikma va malakalari rivojlandi. Olingan natijalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ta’limda sifat samaradorligi eksperimental guruhda nazorat guruhiga nisbatan 56 % dan 65 % ga oshdi (3.1-diagramma).

Umumta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyasidan foydalanish talabalarga qisqa vaqtda yaxlit mavzularni eslab saqlab qolish, ular bo‘yicha amaliy mashg’ulotlar bajara olish, ya’ni o‘zlashtirish sifatini oshirdi. Bunda ta’limning samaradorligi va



1-diagramma. Sifat samaradorligi holati.

o‘quvchilardaa shakllangan fanga oid kompetentlik matematik statistik mezonlar orqali 1,08 barobarga, ya’ni 8 % ga oshganligi isbotlandi.

Xulosa. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kompyuter grafikasi yordamida informatika darslarini o‘tkazish samaradorligi yuqori. Boshqa tadqiqotlar bilan solishtirganda, kompyuter grafikasining ta’limdagi foydasi o‘z tasdig’ini topgan. Ushbu texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat qiziqishini, balki texnik ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Keyingi tadqiqotlarda kompyuter grafikasi va boshqa interfaol vositalarni qo‘llash samardorligini yanada chuqurroq o‘rganish taklif etiladi. Informatika fanlarini o‘qitishda kompyuter grafikasidan foydalanish o‘quv jarayonida samaradorlikni oshiradi va o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasini yuksaltiradi. Bu texnologiyalar nafaqat o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki ularda ijodiy va texnik ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Adabiyotlar:

1. Www.Lex.uz
2. www.Gazeta.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. “Umumta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda infografikadan foydalanish metodikasi”, magistrlik dissertatsiyasi, S.X.Egamnazarova, 2023, 76-80-b.
5. “Kompyuter grafikasi”, Sh.I.Razzoqov, 2013, o‘quv qo‘llanma

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI MATHCAD VA MAPLE DASTURLARIDAN FOYDALANIB O‘QITISH METODIKASI

Ismoilov E.O.
Nizomiy nomidagi TDPU
“Umumiy matematika” kafedrasi dotsenti v.b., PhD

Tayanch so‘zlar: differensial tenglama, Mathcad, Maple, grafik, diagramma, Runge-Kutta usuli, Eyler usuli.
Ключевые слова: дифференциальное уравнение, Mathcad, Maple, график, диаграмма, метод Рунге-Кутта, метод Эйлера.
Key words: differential equation, Mathcad, Maple, graph, diagram, Runge-Kutta method, Euler's method.

Резюме:
Maqolada differensial tenglamalarni Mathcad va Maple dasturlaridan foydalanib o‘qitish metodikasi yoritib berilgan. Mathcad va Maplening afzalliklari hamda differensial tenglamalarni yechishda ushbu dasturlardan qanday foydalanish kerakligi batafsil bayon etib berilgan. Bundan tashqari, maqolada, matematika fani o‘qituvchilari uchun, ta’lim jarayonida Mathcad va Mapledan foydalanishga doir bir qancha taklif va tavsiyalar ham keltirilgan.
Резюме:
В статье описана методика обучения дифференциальным уравнениям с использованием программ Mathcad и Maple. Подробно описаны преимущества Mathcad и Maple, а также способы использования этих программ для решения дифференциальных уравнений. Кроме того, в статье приводится ряд предложений и рекомендаций для учителей математики по использованию Mathcad и Maple в учебном процессе.
Summary:
The article describes the method of teaching differential equations using Mathcad and Maple programs. The advantages of Mathcad and Maple are described in detail, as well as how to use these programs to solve differential equations. In addition, the article provides a number of suggestions and recommendations for mathematics teachers on the use of Mathcad and Maple in the educational process.

Ma’lumki axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi va samarali shakllaridan biridir. Bu, asosan, o‘quvchilarning mustaqil ishlariga qaratilgan aniq bir o‘quv dasturini amalga oshirishdir. Axborot jamiyatiga o‘tish ta’lim mazmunini va o‘qitish usullarini modernizatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Kompyuter matematik bilim va ko‘nikmalarni tuzish va tizimlashtirish, dunyoqarashni shakllantirish va o‘quvchi ongini rivojlantirish uchun kuchli vositaga aylanmoqda. Matematikani o‘qitishda kompyuterdan tizimli

foydalanishda quyidagi asosiy fikrlarni hisobga olish kerak: Kutilayotgan natijani olish uchun o‘quv jarayonida kompyuterdan doimiy ravishda foydalanish shart; O‘qituvchi kompyuterni yaxshi bilishi, o‘quv materialidan o‘quvchilarni faollashtirishga yo‘naltirilgan turli xil o‘quv faoliyatlarida foydalanish uchun moslashuvchan metodologiyani qo‘llamog‘i zarur [1]. Keyingi vaqtlarda matematika va informatika fanlari kesimida yangi fundamental-ilmiy yo‘nalish “kompyuter matematikasi” yo‘nalishi paydo bo‘ldi va ilmiy hisob-kitoblarda hamda o‘quv jarayonlarida keng qo‘llanilmoqda. Hozirgi vaqtda kompyuter matematikasi, kompyuter industriyasi va programmalashtirish texnologiyalarining jadal suratlar bilan rivojlanishi ta’lim-tarbiya, ilmiy-metodik va ilmiy tadqiqot ishlarini avtomatlashtirishning asosi sifatida e’tirof etilmoqda. Ayni vaqtda zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni qo‘llash natijasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-metodik, ilmiy-texnik, injenerlik, moliyaviy va iqtisodiy, kimyoviy, biologik masalalarni yechishni avtomatlashtirish tomon yo‘naltirilgan ko‘plab dasturiy vositalar mavjuddir. Masalan: Mathematica, Maple, Matlab, Mathcad, Derive, Scientific, Workplace, Femlab, FeexPDE kabi universal dasturiy muhitlar shular jumlasidandir. Bulardan ikkitasi professional matematiklar va ilmiy-tadqiqotlar olib boruvchi mutaxassislar tomonidan keng qo‘llanilmoqda.

Mathcad injenerlik hisob-kitob ishlarining instrumenti sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirda yetarlicha murakkablikka ega bo‘lgan hisob-kitoblarni bajarishda, ilmiy-tekshirish ishlarida har xil sonli algoritmlarni va analitik almashtirishlarni bajarishda foydalanilmoqda. Matematika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalari sohasida qo‘lga kiritilgan eng ilg‘or yutuqlardan hisoblangan Mathcad, Maple dasturiy muhitlaridan foydalanish darsning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlovchi asosiy mezonlardan biridir. Mathcad professor-o‘qituvchilar, stajorlar, tadqiqotchilar, aspirantlar, talabalar, texnik muhandislar va fiziklar, qolaversa barcha kasb egalari uchun hisoblash ishlarini bajarib beruvchi dasturiy ta’minot hisoblanadi. Bu dastur bilan turli kasb egalari o‘z sohalariga tegishli masalalarni hal etishi va kerakli grafiklarni, diagrammalarni olishlari mumkin. Mathcad dasturini, boshqacha qilib aytganda, dasturlash tili deyish mumkin. Masalan, differensial tenglamalarni Mathcad dasturida yechishda Given-Odesolve hisoblash blogidan foydalanish mumkin [2]:

Given

$$y'''(x) - 2^{-x}\cdot y(x) = x\cdot\sin(x)$$

$$y(0) = 1$$

$$y'(0) = 1$$

$$y''(0) = -0.5$$

$$y := \text{Odesolve}(x, 2)$$

$$x := 0, 0.1 .. 2$$



Bu yerda uchinchi tartibli o‘zgaruvchi koeffitsientli differensial tenglama yechish algoritmi keltirilgan.

Ma’lumki, o‘quv jarayonida differensial tenglamalarning tor doiradagi sinflarini yechish o‘rgatiladi, lekin ta’lim jaranida, biz, kompyuter matematikasi tizimlarini qo‘llash natijasida differensial tenglamalarning keng doiradagi sinflarini yechish imkoniyatiga ega bo‘lamiz, bu esa darsning samarali va qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Mathcad Given-Odesolve hisoblash blogi yordamida yechim funksiyadan hosila olish va uni integrallash mumkin. Bu yuqoridagi grafikda ko‘rinib turibdi. Yana shuni ta’kidlash kerakki, Mathcad differensial tenglamalarning umumiy va analitik yechimlarini topish imkoniyatiga ega emas. Bu muammoni Maple tizimida hal qilish mumkin. Differensial tenglamalarni Maple dasturida yechishda dsolve(tenglama, o‘zgaruvchi, variant) komandasi ishlatiladi, bu yerda tenglama – differensial tenglama, o‘zgaruvchi – differensial tenglama yechimi, variant – shart bo‘lmagan parametr bo‘lib, kalit so‘z=qiymat ko‘rinishda beriladi [3]. Maple dsolve komandasi yordamida ko‘p sondagi differensial tenglamalarning umumiy va analitik yechimlarini topish mumkin. Agar variant type=exact ko‘rinishda berilsa, analitik yechim topishga harakat qilinadi. Agar variant type=series ko‘rinishda berilsa, yechim qator ko‘rinishda izlanadi. Agar variant type=numeric ko‘rinishda berilsa, sonli yechim izlanadi. Endi quyidagi:

$$\frac{\partial}{\partial x}y(x)=\sqrt{x^2-y(x)}+2x$$

differensial tenglamani analitik yechishga harakat qilamiz:

> eq:=diff(y(x),x)=sqrt(x^2-y(x))+2*x;

$$eq:=\frac{\partial}{\partial x}y(x)=\sqrt{x^2-y(x)}+2x$$

> dsolve(eq,y(x));

$$8\frac{y(x)\sqrt{x^2-y(x)}}{2\sqrt{x^2-y(x)}-x}+\frac{4\,y(x)\,x}{2\sqrt{x^2-y(x)}-x}-\frac{6\,x^2\sqrt{x^2-y(x)}}{2\sqrt{x^2-y(x)}-x}-\frac{3\,x^3}{2\sqrt{x^2-y(x)}-x}-_C1=0$$

Yechim oshkormas holda topildi.

> isolate(%,y(x)); komandasi yordamida yechimni analitik holga keltiramiz:

$$y(x)=\frac{5}{4}x^2+\frac{1}{2}(-x+\sqrt{-_C1})\,x+\frac{1}{4}_C1$$

Agar

$$y(1)=0$$

boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi xususiy yechimni topmoqchi bo‘lsak, Maplening solve komandasidan foydalanib, o‘zgarmas C1 ning qiymatini topamiz:

> x:=1;y:=0;solve(y = 5/4*x^2+1/2*(-x+sqrt(-C1))*x+1/4*C1,C1);

$$x:=1$$

$$y:=0$$

-9

U holda, xususiy yechim quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$y(x)=\frac{5}{4}x^2+\frac{1}{2}(-x+3)x-\frac{9}{4}.$$

Differensial tenglamalarni Maple dasturi yordamida yechishga doir yana bir nechta misollar keltiramiz:

```
> diff(y(x),x$2)-y(x)=sin(x)*x;
```

$$\left(\frac{\partial^2}{\partial x^2}y(x)\right)-y(x)=\sin(x)x$$

```
> dsolve(diff(y(x),x$2)-y(x)=sin(x)*x,y(x));
```

$$y(x)=-\frac{1}{2}\cos(x)-\frac{1}{2}\sin(x)x+_C1\,e^{x}+_C2\,e^{(-x)}$$

Bu yerda, umumiy yechim topildi. Yechimdagi *S1* va *S2* lar ixtiyoriy o‘zgarmaslar.

Boshlang‘ich shartlar differensial tenglamalarda vergul orqali beriladi va tenglama bilan birlashtiriladi:

```
> restart;dsolve({diff(v(t),t)+2*t=0,v(1)=5},v(t));
```

$$v(t)=-t^2+6$$

Hosilalar boshlang‘ich shartlarda operator ko‘rinishida: D(D(y))(0) yoki D(@@2)(y)(0) ko‘rinishda yoziladi:

```
> de1:=diff(y(t),t$2)+5*diff(y(t),t)+6*y(t)=0;
```

$$de1:=\left(\frac{\partial^2}{\partial t^2}y(t)\right)+5\left(\frac{\partial}{\partial t}y(t)\right)+6\,y(t)=0$$

```
> dsolve({de1,y(0)=0,D(y)(0)=1},y(t),method=laplace);
```

$$y(t)=-e^{(-3t)}+e^{(-2t)}.$$

Endi to‘rtinchi tartibli tenglama yechamiz:

```
> de2:=diff(y(x),x$4)+2*diff(y(x),x$2)-cos(x)=3;
```

$$de2:=\left(\frac{\partial^4}{\partial x^4}y(x)\right)+2\left(\frac{\partial^2}{\partial x^2}y(x)\right)-\cos(x)=3$$

```
> dsolve(de2,y(x)):combine(%);
```

$$y(x)=-\cos(x)-\frac{1}{2}_C1\cos(\sqrt{2}\,x)-\frac{1}{2}_C2\sin(\sqrt{2}\,x)+\frac{3}{4}x^2+_C3\,x+_C4.$$

Quyidagi tenglama uchun yechim o‘zgaruvchini almashtirish usuli yordamida topiladi:

```
> restart;q:=(2*sqrt(x*y(x))-x)*diff(y(x),x)+y(x);
```

$$q:=(2\sqrt{x\,y(x)}-x)\left(\frac{\partial}{\partial x}y(x)\right)+y(x)$$

O‘zgaruvchini almashtirish uchun DEtools paketining Dchangevar komandasi qo‘llaniladi:

```
> restart;q:=(2*sqrt(x*y(x))-x)*diff(y(x),x)+y(x);
```

$$q:=(2\sqrt{x\,y(x)}-x)\left(\frac{\partial}{\partial x}y(x)\right)+y(x)$$

```
> with(DEtools):f:=Dchangevar({y(x)=v(x)*x},[q],x);
```

$$f:=(2\sqrt{x^2\,v(x)}-x)\left(\frac{\partial}{\partial x}v(x)\,x\right)+v(x)\,x.$$

XX asrning 50 yillaridan boshlab bir vaqtda juda sekin va yetarlicha katta tezlikda o‘tadigan kimyoviy reaksiyalar ostida sodir bo‘ladigan jarayonlarning kinetikasi o‘rganila boshlandi. Ana shunday ko‘plab amaliy masalalar oddiy differensial tenglamalar hamda oddiy differensial tenglamalar sistemasining alohida turlari uchun Koshi masalasini yechishga keltiriladi. Bunday tenglamalarni *maxsus differensial tenglamalar* yoki *maxsus differensial tenglamalar sistemasi* deb atash mumkin. Ushbu turga tegishli differensial tenglamalar va ularning sistemasini eng ishonchli hisoblangan Runge-Kutta usulini qo‘llab sonli yechganda, olingan yechimning integrallash oralig‘ining nolga yaqin qismida sekin, keyingi qismga o‘tganda, ya’ni o‘tish fazasida keskin

o‘zgarishi kuzatildi. Kuzatilgan hodisa bunday turdagi tenglamalarni yechish uchun Runge-Kutta, Eyler va shular kabi hisoblash matematikasi kursidan ma’lum bo‘lgan boshqa usullarning yaroqsiz ekanligini bildiradi. Amaliyotda ushbu sinfga tegishli shunday differensial tenglamalar uchraydiki, ularni yuqorida qayd etilgan usullar bilan sonli yechish uchun millionlab, milliardlab, hatto undan ko‘p nuqtalarda integrallashga to‘g‘ri keladi. Maxsus differensial tenglamalar yoki ularning sistemasining yechimlari ikki qismdan iborat bo‘ladi. Ulardan biri yetarlicha sekin o‘zgaradigan, ikkinchisi katta tezlik bilan nolga intiladigan funksiyadir. Ana shu ikkinchi funksiya qiymatlarini hisoblashda amaliy jihatdan ma’lum qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan, quyidagi Koshi masalasini qaraylik:

$$y'' + 101 \cdot y' + 100y = 0, \qquad (1)$$

$$y(0) = 1.01, \qquad y'(0) = -2. \qquad (2)$$

Berilgan ushbu ikkinchi tartibli o‘zgarmas koeffitsientli bir jinsli differensial tenglamaning xarakteristik tenglamasi

$$k^2 + 101 \cdot k + 100 = 0$$

$k_1 = -1, k_2 = -100$ yechimlarga ega bo‘lgani uchun (1) tenglamaning umumiy yechimi

$$y(x) = C_1 \cdot e^{-x} + C_2 \cdot e^{-100x} \qquad (3)$$

ko‘rinishda yoziladi. Berilgan boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi xususiy yechim quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$y(x) = e^{-x} + 0.01 \cdot e^{-100x} \qquad (4)$$

Olingan analitik yechim ikkita funksiya yig‘indisidan iborat bo‘lib, ulardan birinchisining qiymatlari nisbatan tekis va sekin o‘zgaradi, ikkinchi funksiyaning qiymatlari tez o‘zgaruvchan bo‘lib, nolga katta tezlik bilan intiladi.

Quyidagi jadvalda bu ikki funksiya taqribiy qiymatlarining [0; 0.1] kesmadagi o‘zgarish qonuniyati keltirilgan:

Jadval. $y(x) = e^{-x} + 0.01 \cdot e^{-100x}$ *funksiya taqribiy qiymatlarining [0; 0.1] kesmadagi o‘zgarish qonuniyati.*

x	$Y_1 = e^{-x}$	$Y_2 = 0{,}01 \cdot e^{-100x}$
0	1	0,01
0,00001	0,99999	0,009999
0,0001	0,9999	0,0099
0,001	0,999	0,009
0,01	0,99	0,004
0,1	0,9	0,0000004

Jadvaldagi qiymatlardan ko‘rinib turibdiki, [0;0.1] kesmadan tashqarida, ya’ni o‘tish fazasida yechimning ikkinchi qo‘shiluvchisi hisobga olmasa ham bo‘ladigan darajada kichik qiymatlarga ega bo‘lar ekan. Bundan (1)-(2) masala yechimini [0;0.1] *kesmada yetarlicha kichik qadam bilan sonli topish va o‘tish fazasida kompyuter vaqtini tejash hamda yaxlitlash xatoliklarini kamaytirish maqsadida integrallash qadamini kattalashtirish zarur* degan xulosaga kelish mumkin. Amaliy hisoblar bu xulosaning noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatdi. Chunki yuqorida keltirilgan tanish usullarni qo‘llab, turg‘un yechim olish uchun birinchi funksiya hisobiga integrallash oralig‘ining barcha qismida bir xil bo‘lgan yetarlicha kichik integrallash qadami talab etiladi.

Bunday muammolar Maple tizimida osongina hal qilinadi. Berilgan tenglamaning umumiy yechimi Mapleda osongina quyidagicha topiladi:

```
> restart;
> eq:=diff(y(x),x$2)+101*diff(y(x),x)+100*y(x)=0;
```

$$eq := \left(\frac{d^2}{dx^2}y(x)\right) + 101\left(\frac{d}{dx}y(x)\right) + 100\,y(x) = 0$$

```
> dsolve(eq,y(x));
```

$$y(x) = _C1\,e^{(-x)} + _C2\,e^{(-100x)}$$

Tenglamaning boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi xususiy yechimi esa Mapleda quyidagicha topiladi:

```
> cond:=y(0)=1.01,D(y)(0)=-2;de:=dsolve({eq,cond},y(x));
```

$$cond := y(0) = 1.01,\ D(y)(0) = -2$$

$$de := y(x) = e^{(-x)} + \frac{1}{100}e^{(-100x)}$$

```
> plot( exp(-x)+1/100*exp(-100*x),x=0..0.1);
```

buyrug‘i esa differensial tenglamaning yechimi bo‘lgan funksiyaning $x = [0; 0.1]$ kesmadagi grafigini avtomatik ravishda chizib beradi hamda o‘quvchida **differensial tenglamaning yechimi bo‘lgan funksiya grafigi haqida to‘la tasavvur shakllanishiga yordam beradi.**



$y(x) = e^{-x} + 0.01 \cdot e^{-100x}$ **funksiyaning** $x = [0; 0.1]$ kesmadagi grafigi.

Ta’lim jarayonida Maple dasturidan foydalanilishi yechim funksiya grafigini amalda ko‘rish imkonini beradi va o‘quvchilar funksiya grafigiga qarab yechimning qanchalik to‘g‘ri topilganini to‘la-to‘kis anglab yetadilar.

Matematika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalari sohasida qo‘lga kiritilgan eng ilg‘or yutuqlardan hisoblangan Mathematika, Maple, Mathlab kabi dasturiy muhitlardan hisoblangan Mathcad va Mapledan foydalanish o‘quvchilarni to‘liq darsga jalb qilish imkonini beradi hamda o‘quvchilarda matematika fanini va uning so‘nggi yutuqlarini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni yanada oshiradi. O‘quvchilar matematika fanini chuqur o‘rganish kerakligini ongli ravishda tushunib yetadilar hamda o‘zlari, mustaqil ravishda, matematika fanining eng so‘nggi yutuqlarini o‘rganishda kirishadilar [4].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim jarayonida va ilmiy-tatqiqot ishlarida Mathcad va Maplening qo‘llanishi ko‘pgina muammolarning hal etilishida katta yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Kiryanov D.V. Mathsad 15/ MathsadPrime 1.0 SPb.: BXV – Peterburg, 2012. – 400 s.
2. Agapova N.V. Perspektivы razvitiya novых texnologiy obucheniya. – M.: TK Velbi, 2005. – 247 s.
3. Sdvijkov O.A. Matematika na kompyutere: Maple – 8. M.: SOLON – Press, 2003.
4. Takemitsu Hasegawa, Hiroshi Sugiura. A user-friendly method for computing indefinite integrals of oscillatory functions. Journal of Computational and Applied Mathematics. Volume 315, 1 May 2017, Pages 126-141.

FIZIKANI ARXITEKTURA VA QURILISH FANLARIGA INTEGRATSIYASI ASOSIDA O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Nortojiyev A.M.
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti v.b., p.f.b.f.d (PhD).

Tayach so‘zlar: umummuhandislik fanlari, quruvchi-muhandis, arxitektura va qurilish sohalari, fizika fani, integratsiya, texnika oliy ta’lim muassasalari, mutaxassis, konstruksiya.
Ключевые слова: общие инженерные науки, инженер-строитель, архитектурно-строительное направление, физика, интеграция, технические высшие учебные заведения, конструкция.
Key words: general engineering sciences, civil engineer, architectural and construction direction, physics, integration, technical higher education institutions, design.

Резюме:
Maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fani va umummuhandislik fanlarining integratsiyasini ta’minlovchi asosiy fizik tushunchalar, arxitektura va qurilish fanlarini o‘qitishdan maqsadi, fizikani umummuhandislik fanlariga integratsiyasini ta’minlovchi takomillashtirilgan mavzulari hamda fizika kursining umummuhandislik fanlariga fanlararo integratsiya orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari ketma-ketligi tadqiq etilgan.
Резюме:
В статье рассмотрены основные физические понятия, обеспечивающие интеграцию физики и общетехнических наук в технических вузах, цели преподавания архитектуры и строительных наук, усовершенствованные темы, обеспечивающие интеграцию физики в общетехнические науки, а также этапы последовательного формирования профессиональной компетентности студентов посредством междисциплинарной интеграции курса физики с общеинженерными науками.
Summary:
The article discusses the basic physical concepts that ensure the integration of physics and general engineering sciences in technical universities, the goals of teaching architecture and construction sciences, advanced topics that ensure the integration of physics into general engineering sciences, as well as the stages of the consistent formation of professional competence of students through the interdisciplinary integration of a physics course with general engineering sciences .

Kredit-modul tizimida arxitektura va qurilish sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan yo‘nalishlarda fizika fani uchun ajratilgan kredit miqdori o‘rtacha

4÷10 ga teng. Bundan ko‘rinadiki, fizika fani mashg‘ulotlari uchun ajratilgan soatga nisbatan, mustaqil ta’lim uchun ajratilgan soat ko‘proq. Demak, kam vaqt ichida katta miqdordagi ma’lumotlarni talabalarga yetkazib berish lozim. Chunki, auditoriya mashg‘ulotlari uchun ajratilgan soatlar avvalgiga nisbatan o‘rtacha 1,6 marta kamaydi. Bu muammoni qanday qilib hal etish mumkin? Bu muammoni yechishning eng to‘g‘ri yo‘li bizning nazarimizda, auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’limni to‘g‘ri hamda samarali tashkil etishdir. Bunda talabaning kelajakda qaysi yo‘nalishda mutaxassis bo‘lishini hisobga olish muhimdir. Ya’ni, fanlararo integratsiyani ta’minlash kerak.

Xalqaro tajribalarga ko‘ra, texnika sohasidagi bo‘lajak mutaxasislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ularning kasbiy motivatsiya, ixtirochilik va boshqarish, axborotlarni izlab topish va ularga ishlov berish, o‘z-o‘zini faollashtirish kabi muhim sifat ko‘rsatkichlarini rivojlantirishda intellektual axborot resurslarining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun texnika yo‘nalishi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarni loyihaviy – konstruktorlik, ishlab chiqarish va tashkiliy-boshqaruv faoliyatlariga kompetensiyalarini rivojlantirishda fanlararo integratsiyani o‘quv jarayoniga joriy etish, talabalarning mustaqil bilim olishi uchun dasturiy ta’lim vositalari asosida o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ta’limning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy mehnat bozori, bugun ta’lim sifatiga oshayotgan talablarni taqdim etib, bo‘lajak mutaxassislarning kompetentligi va kasbiy tayyorgarligi, o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalari, shu jumladan texnik oliy ta’lim muassasa bitiruvchilari o‘rtasida raqobat kuchayishiga olib keladi.

O‘z ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda tayyorgarligi va qobiliyatliligi, o‘zining faoliyati samaradorligi va sifatini yaxshilashni nazarda tutadi.

Bunday g‘oyalarni amalga oshirish-keng qamrovli tayyorgarlik, zamonaviy kishilar shaxsini mutaxassisi sifatida shakllantirish va rivojlantirish, o‘z ishining professional (mutaxassis)lari va jamiyat hamda jamoa a’zosi sifatida, qaysiki kasbiy kompetentlik aloqalari va ta’lim mazmuniga qaratilgan faqat kompetent yondashuv asosida yotadi.

Fanlararo integratsiya orqali talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirish bo‘yicha belgilangan vazifa (maqsad)larga erishish uchun oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tizimli ravishda bu ishni amalga oshirishlari zarur. Buning uchun, ta’lim dasturlarida binar (ikkilik) va integratsiyalashgan ma’ruzalar, turli kafedralar, turli fanlar va sikl (davr)

lardan o‘qituvchi ma’ruza materiyalini uzatishni rejalashtirishi, turli fanlardan “ko‘prik” munosabatlar qurish kiritilgan bo‘lishi kerak.

Davlat ta’lim standartida kasbiy va umumiy kompetensiyalar, ya’ni, bitiruvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar belgilab qo‘yilgan. Ularga asosiy kasbiy ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda integrativ yondashuv orqali erishish mumkin. Aynan integrativ ta’lim bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligi shakllanishi jarayoni va kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fani va umummuhandislik fanlarining integratsiyasini ta’minlovchi asosiy fizik tushunchalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Umummuhandislik fani nomi	**Fizika fani va umummuhandislik fanlarining integratsiyasini ta’minlovchi tushunchalar**
Muhandislik dinamikasi	*kuch, kuch momenti, inersiya momenti, impuls momenti, momentlarning saqlanish qonuni, mexanik kuchlanish, deformatsiya, Guk qonuni, absolyut va nisbiy uzayish, cho‘zilish va siqilishda potensial energiya, mustahkamlik chegarasi, Yung moduli.*
Qurilish fizikasi	*harorat, namlik, issiqlik o‘tkazuvchanlik, konveksiya va nurlanish, havoning absolyut va nisbiy namligi, shudring nuqtasi, yorug‘lik nurlari, nurlanish energiyasi, yorug‘lik* oqimi*, tovush haqida umumiy ma’lumotlar, tovushning fizikaviy tavsiflari: to‘lqin uzunligi, tarqalish tezligi va chastotasi, tovush bosimi, eshitish chegarasi.*
Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar	*moddalarning tuzilishi, zichlik, absolyut va nisbiy namlik, bosim, deformatsiya, kapillyarlik hodisasi.*
Metall konstruksiyalari	*modda zichligi, mexanik kuchlanish, deformatsiya, absolyut va nisbiy uzayish, mustahkamlik chegarasi, cho‘zilsh diagrammasi, Yung moduli, Guk qonuni, kuch, Nyuton qonunlari.*
Bino va inshootlar zilzila bardoshligi	*mexanik to‘lqinlar, bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin, to‘lqin uzunligi, mustahkamlik chegarasi, tebranishlar, amplituda, chastota, tebranish davri, rezonans hodisasi.*
Suyuqlik va gaz mexanikasi	*suyuqlik va uning fizik xossalari, ideal va real suyuqliklar, gidrostatik bosim va uning xossalari, uzluksizlik va Bernulli tenglamalari, Arximed qonuni, suyuqlikning laminar va turbulent harakati.*

Texnika oliy ta’lim muassasalarining arxitektura va qurilish ta’lim yo‘nalishi talabalari-qurilish mexanikasi, qurilish materiallari va buyumlari, binolarning injenerlik kommunikatsiyalari, yog‘och konstruksiyalari, metall konstruksiyalari, temirbeton va tosh konstruksiyalari, qurilish fizikasi va binolar



energiya samaradorlik injineringi kabi fanlarni 4 yil davomida o‘zlashtirishlari talab etiladi. Yuqorida keltirilgan fanlarni puxta o‘zlashtirishlari uchun albatta fizika fanidan olingan bilim va ko‘nikmalar zamin yaratadi. Chunki, fizikaning oddiy qonun va qonuniyatlarni bilmay turib, qurilish binolarida ro‘y berayotgan fizik hodisa hamda jarayonlarni tushuntirib bo‘lmaydi.

Qurilish fizikasi va binolar energiya samaradorlik injineringi fani bino va uning qismlarida sodir bo‘ladigan fizikaviy jarayonlarni, bu jarayonlarning binoga va insonga ta’sirini o‘rganadi. Ya’ni bir tomondan bino ichida insonning yashashi va muayyan faoliyati uchun maqsadga muvofiq bo‘lgan ichki havo haroratini va namlikni yaratish bo‘lsa, ikkinchi tomondan bino qismlarini uzoq muddatga xizmat qilishini ta’minlash uchun sharoit yaratishdir. Bino va uning qismlarida sodir bo‘ladigan fizikaviy jarayonlar uch turga bo‘linadi:

Issiqlik texnikasi-bino va uning qismlarida issiqlik energiyasining harakatini va suv bug‘laridan tashkil topgan massa almashinish jarayonlarini o‘rganadi.

Yorug‘lik texnikasi-binolar ichida tabiiy yorug‘lik maydonini vujudga keltirish va bu maydonning inson faoliyatiga ta’sirini o‘rganadi.

Akustika-bino ichida va uning ayrim qismlarida tovush to‘lqinlarining tarqalish qonuniyatlarini o‘rganadi.

Issiqlik texnikasi bo‘limini mukammal o‘rganishlari uchun fizika fanining: termodinamika asoslari, qaytar va qaytmas issiqlik jarayonlari, termodinamika qonunlari, nisbiy va absolyut namlik, ko‘chish hodisalari kabi fizik tushunchalarni puxta o‘zlashtirish talab qilinadi.

Yorug‘lik texnikasi bo‘limini yaxshi o‘zlashtirishlari uchun: geometrik optika, optikaning asosiy qonunlari, fotometrik tushunchalar va birliklar mavzularini puxta o‘zlashtirish talab etiladi.

Akustika bo‘limida-tebranma harakatning elastik muhitdagi tarqalishi, yassi va sferik to‘lqin tenglamalari, to‘lqinlarning interfrensiyasi va diffraksiyasi,

turg‘un to‘lqinlar, tovush to‘lqinlari kabi mavzularni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishlari talab etiladi.

Temirbeton va tosh konstruksiyalari, metall konstruksiyalari, yog‘och konstruksiyalari kabi fanlarni to‘laqonli o‘zlashtirishlari uchun talabalar fizika fanidan-moddalarning zichligi, deformatsiya turlari, elastiklik kuchlari, mexanik kuchlanish, absolyut va nisbiy uzayishlar, Yung moduli, cho‘zilish va siqilishda moddalarning mustahkamligi, chiziqli kengayish koeffitsiyenti kabi tushuncha hamda kattaliklarni yaxshi tushinib etgan bo‘lishlari kerak. Aks holda, kutilayotgan natijalarga erishib bo‘lmaydi.

Quyidagi 2-jadvalda arxitektura va qurilish fanlarini o‘qitishdan maqsadi, fizikani umummuhandislik fanlariga integratsiyasini ta’minlovchi takomillashtirilgan mavzulari keltirilgan:

2-jadval.

№	Arxitektura va qurilish fanlari	Fanni o‘qitishdan maqsad	Fizikani arxitektura va qurilish fanlariga integratsiyasini ta’minlovchi takomillashtirilgan mavzulari
1.	Muhandislik dinamikasi	Talabalarga insho-ot elementlarida, konstruksiyalarida hosil bo‘ladigan zo‘riqishlar va deformatsiyalarni aniqlash usullarini hamda mustahkamlikka, bikrlikka va ustuvorlikka mazkur konstruksiyalarni hisoblash usullari bo‘yicha mos bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir.	Elastiklik kuchlari. Qurilish materiallarining ishqalanish ta’sirida yemirilishi. Qurilish materiallarining deformatik xossalari. Egilish usuli orqali Yung modulini aniqlash(laboratoriya).
2.	Suyuqlik va gaz mexanikasi	Suyuqlik va gaz mexanikasi kursi asoslarini talabalarga tushuntirish va turli suyuqlik bilan bog‘liq bo‘lgan muhandislik masalalarini yechishda, gidrostatika va gidrodinamikani asosiy qonuniyatlarini qo‘llashdan iborat.	Moddaning suyuq holati. Suyuqlikning tuzilishi. Suyuqliklarning egri sirti ostidagi bosimi. Suyuqlik bilan qattiq jism chegarasidagi hodisalar(ma’ruza). Suyuqliklarning ichki ishqalanish koeffitsiyentini Stoks usuli bilan aniqlash(laboratoriya).

3.	Bino va inshootlar zilzila bardoshligi	Talabalarning bino va inshootlarni zilzila ta'siriga hisoblash hamda ularning zilzilabardoshligini ta'minlash bo'yicha yetarli darajada bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirish.	Inersion demferlar haqida tushuncha va ularning qurilishda qo'llanilishi. Rezonans hodisasining qurilish inshootlariga ta'siri. Havodagi tovush tezligining haroratga bog'liqligini o'rganish(laboratoriya).
4	Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar	Talabalarda har qanday inshootning turhunligi va uzoq muddat davomli ishlashini ta'minlashda asosiy o'rin tutuvchi uning yer osti qismini tashkil etuvchi zamin va poydevorlarga oid ilmning asoslarini shakllantirish.	Nyutonning uchinchi qonunining qurilishda qo'llanilishi. Suyuqlik bilan qattiq jism chegarasidagi hodisalar. Kapillyarlik.

Quyidagi rasmda fizika kursining umummuhandislik fanlariga fanlararo integratsiya orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari ketma-ketligi keltirilgan.



1-rasm. Fizikani umummuhandislik fanlariga integratsiyasi orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari.

Demak, fizikani umummuhandislik fanlariga integratsiyasi fizik tushunchalar orqali amalga oshiriladi. Bunda, fizika fanining arxitektura va qurilish sohalariga moslashtirilishi talablarning kasbiy kompetensiyasini shakllanishiga asos yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Begmatova D.A., Nortojiyev A.M., Khudayberdiyev S.S., Mahmadiyorov A.Z., Nosirov N.B. The importance of physical exercises in the training of specialists in the field of architecture and construction // International Conference on Problems and Perspectives of Modern Science. AIP Conference Proceedings 2432, 030056 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0089959 Published Online: 16 June 2022.

2. Норов Н.Н. Бино ва иншоотлар архитектураси.- ўқув қўлланма/ Н.Н. Норов. – Тошкент, 2020. - 222 б.

3. Mukhamadalievich, N.A. (2022). The method of conducting practical classes in the subject of physics in technical higher educational institutions through the method of designing objects of professional activity. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 350-354.

4. Begmatova D.A., Nortojiyev A. M., Khudayberdiyev S.S., Raximov I.A., Avezov U. Qurilish yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda fanlararo integratsiyani o‘tkazish usullari // Arxitektura va qurilish sohasida innovatsiya, integratsiya, tejamkorlik mavzusidagi xalqaro on-line ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent, 2021. – B. 279–282.

5. Nortojiyev A. M., Mahmadiyorov A.Z. Qurilishda fizika. O‘quv qo‘llanma-Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. ISBN 978-9943-8232-0-4.-158 b.

6. Jasprit Singh. Modern Physics for Engineers / ISBN: 978-3-527-61769-2. — .WILEY-VCH Verlag GmbH & Co. KGaA, 2009 y. P. 400.

7. Nortojiyev A. Fizikani o‘qitishda integrativ ta’limning o‘rni // Физика фанининг ривожида истеъдодли ёшларнинг ўрни.–Тошкент, 2020.–B. 371–376.

8. Нортожиев, А. М. (2023). Физикани архитектура ва қурилиш фанларига интеграцияси орқали талабаларнинг касбий компетенциясини шакллантириш. Ustozlar uchun, 16(1), 189-194.

9. Р.Г. Яхин, Л.И. Потапова. Особенности преподавания физики в строительном вузе. Казанский педагогический журнал. 2015 - 75-79 стр.

10. Gareth Jones. "Competence and Understanding-A Personal Perspective" Selected Contributions from the International Conference Girep Epec 2015, Wroclaw Poland, 6–10 July 2015 u. Pp. 11-24.

ALGEBRA FANINI O‘QITISHDA KONTEKSTLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Jurayeva M.N.
Qarshi davlat unversiteti
Algebra va geometriya kafedrasi katta o’qituvchisi
Abdiraxmonova R.E.
Qarshi davlat unversiteti
Algebra va geometriya kafedrasi katta o’qituvchisi

Tayanch so`zlar: kontekstli ta'lim texnologiyasi (TCO), sinf-dars tizimi, differensiallashtirish texnologiyasi, o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi.
Ключевые слова: технология контекстного обучения (ТСО), классно-урочная система, технология дифференциации, технология индивидуализации обучения.
Key words: contextual learning technology (TCO), class-lesson system, differentiation technology, technology of individualization of teaching.

Резюме:
Kontekstli ta'lim texnologiyasi (KTT) – ma’naviy jihatdan tugallanmagan matnning bir qismi sifatida qaraladi va o'rta maktablarda o'quv jarayonini tizimli tashkil etishda, oliy ta'lim muassasalarida vaziyatlarni o'yin simulyatsiyasiga asoslangan holda boshqarishda qo’l keladi. Ushbu maqolada algebra fanini o‘qitishda kontekstli topshiriqlardan foydalanish haqida so`z yuritilgan.
Резюме:
Контекстная образовательная технология (КТТ) рассматривается как часть морально незавершенного текста и полезна при системной организации учебного процесса в общеобразовательной школе, при управлении ситуациями на основе игрового моделирования в высших учебных заведениях. В данной статье говорится об использовании контекстных задач в обучении алгебре.
Summary:
Contextual educational technology (CTT) is considered as a part of the morally unfinished text and is useful in the systematic organization of the educational process in secondary schools, in the management of situations based on game simulation in higher education institutions. will come This article talks about the use of contextual tasks in teaching algebra.

Kirish. Mamlakatimizda ham jamiyat taraqqiyotida asosiy omillardan biri talabalarga ta’lim-tarbiya berish orqali ularning ma’naviy va intellektual salohiyatlarini oshirish bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston

Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash asosiy vazifa sifatida” belgilangan[1]. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun talabalarning aqliy hamda ma’naviy dunyosini boyitish, invariativ va variativ tahdidlarga qarshi tura olish kompetentsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirish, samarali ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni o’quv-tarbiya faoliyatida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan pedagogik an’analarga yangicha qarash, to‘plangan tajribani ijobiy va salbiy tomonlari bilan qayta ko‘rib chiqish davr talabidir. Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat o'qitishi, balki bolaning qanday o'rganishini tushunishi va his qilishi, bundan tashqari, sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar tomonidan olingan bilim va ko'nikmalar kelajakda foydali bo'lishi va haqiqatda ishlatilishi mumkinligini taxmin qilishi kerak. Bu shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning ham, ta'lim jarayonini tashkil etishda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning vazifasidir. Algebra, matematika fanida muhim bir qism hisoblanadi va har bir o‘quvchi uchun muhimdir. Algebraik ifoda esa algebra fanini o‘rganishga eng asosiy tushunchasi hisoblanadi. Bu mavzuni yaxshilab o‘rganmasdan turib algebraning keying mavzularini tushunish qiyin. Aksariyat hollarda ko‘pchilik matematikaga bo‘lgan qiziqishi aynan 7-sinfga kelganda so‘nadi. Sababi ham aynan shu algebraik ifodalar mavzusidir. Bungacha bo‘lgan mavzularning barchasi aniq sonlar ustida algebraik amallar bajarilgan bo‘lsa bu mavzuga kelib algebraik ifodalar ustida algebraic amallar bajariladi. Shunday ekan bu mavzuni o‘quvchilar qanchalik chuqur o‘rganishi matematikaga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirmaslikka xizmat qiladi. Algebra fanining tarixiy ildizi eramizdan III asr oldin Misr va Yunonistonda paydo bo‘lib, unda butun va musbat ratsional sonlar ustida arifmetik amallar qaralgan. Grek matematigi Diofant tenglamalarni butun sonlarda yechish masalalari bilan ham xuddi shu davrda shug‘ullangan. Birinchi va ikkinchi darajali tenglamalarni yechish hamda «algebra» so‘zining paydo bo‘lishida eramizning 800-850-yillarida yashab, ijod qilgan xorazmlik Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiyning xizmati benihoya kattadir[2].

Bugungi kunda yangi dars berish metodlaridan asosiysi «interaktiv» metod bo’lib, hozirda uning chala tarjimasi ko’p hollarda «interfaol» deya yuritiladi. «Interaktiv» atamasi aslida inglizcha «interactive» so’zidan olingan bo’lib,

«o’zaro ta’sirlanish» ma’nosini bildiradi va biror faoliyat yoki muammoni muloqotda, o’zaro bahs-munozara, fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o’quv qollanmalarini varaqlaganimizda «o’qitishning interaktiv metodlari» termini qo’llanishining ham guvohi bo’ldik. Shunday ekan, yuqoridagi kabi terminlarning turlicha nomlanish holatlari kabi muammoning yechimini topishni va unga aniqlik kiritishni endilikda soha mutaxassislari e’tiboriga qaratamiz. Noan’aviy darslardan ko’zlangan maqsad muayyan bir o’qiv predmetini o’qitishda, ma’ruza, labaratoriya yoki semenar mashg’ulotlarini yanada mazmunli, qiziqarli va tushunarli o’tkazishda interfaol metodlardan foydalangan holda o’qituvchi – o’quvchi faoliyatiga yangilik kiritish hamda o’quvcilar bilimini tez va samarali baholashga erishishdir. Kontekstli ta'lim texnologiyasida biz zamonaviy maktabni shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan beshta asosiy shartni ko'rib chiqamiz[3].

-jamiyatda hayot va faoliyatga imkon qadar tayyor bo'lgan bitiruvchilarni tayyorlash va tarbiyalash uchun.

- maktabning ta'lim maydonida ijtimoiy hayot kontekstini modellashtirish;

- maktab o'quvchilarini ijtimoiy yo'naltirilgan harakat va xatti-harakatlar usullarini o'zlashtirishga undaydigan motivatsion rag'batlardan foydalanish;

-ijtimoiy-shaxsiy yo'naltirilgan maktab madaniyati;

-o`qituvchining rivojlangan shaxsi va uning o`qituvchi shogirdi shaxsiga insonparvarlik munosabati.

Kontekstli ta'lim texnologiyasida mavzuni kengaytirish vektori o'quv fanlari orasidagi chegaralarning xiralashishi bilan ifodalanadi. Rolli o'yin loyihasi bo'yicha ishning barcha bosqichlaridan o'tib, o'quvchilar har xil turdagi tadqiqotlar va ma'lumotlar bilan har tomonlama ishlash zarurligiga duch kelishadi. Tabiiyki, bu yerda turli matematika fanini o‘rganish jarayonida olingan bilimlar, malakalar ham katta talabga ega. Boshlang`ch sinf matematika kursida algebra elementlari muhim o`rinni egallaydi va bu elementlar 1-4 sinflarda arifmetik va geometrik materiallar bilan bir qatorda uzluksiz ravishda o`rgatib boriladi. Hozirgi kunda boshlang`ich sinf o`quvchilariga mana shu algebra elementlari bo`yicha Davlat Ta’lim Standartlari talablari darajasidagi bilim ko`nikma va malakalar hosil qilish xar bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi uchun muhim asosiy vazifalardan biridir Boshlang`ich sinf o`quvchilarida algebra elementlari bo`yicha Davlat Ta’lim Standartlari talablari darajasida bilim, malaka va ko`nikmalar hosil qilish uchun matematika fanidan o`quv tarbiya jarayonida va algebra elementlarini o`rgatishni rejalashtirishda quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz[4].

- algebra elementlarini o`qitish jarayonida o`qitishning an'anaviy va hozirgi kunda dolzarb bo`lib turgan noan'anaviy usullarini, ilg`or pedagogik texnologiyalarni tanlash:

- o`qitishning yangi pedagogik texnologiyalarni tanlashda o`tiladigan algebraik materiallarning mazmunini va qiyinlik darajasini hisobga olish;

- algebra elementlariga doir mavzularni sinflar bo`yicha taqsimlayotganda o`quvchilarning yosh xususiyatlarini va shu mavzularini o`rgana olish qobilyatlarini hisobga olish;

- algebra elementlarini o`rganish jarayonoda o`quvchilarning arifmetik va geometirik materiallarni o`rganish jarayonida olgan bilimlaridan o`z o`rnida foydalanish;

Uzluksiz matematik ta'lim tizimida qo'llanishi mumkin bo'lgan interfaol va qiziqarli pedagogik strategiyalar o'quvchilarni mustaqil, tanqidiy fikrlashga undaydi, ularni bilim olishda faollashtiradi; o'quvchilar va o'qituvchilar orasida bo'lgan o'zaro ijobiy xamkorlikni namoyish etadi. Interfaol strategiyalarning mazmunini anglab yetgan o'quvchilar ta'lim jarayoniga o'zlari bilmagan holda qiziqish bilan kirishib ketadilar. Tajriba shuni ko'rsatadiki, yangi interfaol strategiyalar ishlatiladigan andozali dars mobaynida o'quvchi o'zi uchun yangi bo'lgan bilimlarni samarali o'zlashtiradi. Chunki bugun sinflarni to'ldirib o'tirgan o'quvchilar sho'x, beg'ubor bolalik gashtini surayotgan, ba'zan hayolparast bolalardir. Ular orasida hatto 45 daqiqalik dars jarayonining nihoyasini intiqlik bilan kutib, ta'limga yuzaki, yengil qaraydigan o'quvchilar ham yo'q emas. Yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan matematik ta'limning interfaol strategiyalari ta'lim jarayonining yengillashuvini, aniqlashuvini, keng auditoriyani qamrab olishga mo'ljallanganligini, o'qituvchining faqatgina yo'l—yo'riq ko'rsatuvchi nazoratchiga aylanishini, o'qitishning erkin va majburiyatsizligini hamda eng asosiysi o'quvchilar uchun o'ta qiziqarliligini va samaradorligini ta'minlab bera oladi. Vazifamiz taqdim etilayotgan matematik ma'lumotlar tizimni o'quvchilar ongiga singdirishda imkon qadar oson, qiziqarli serqirra va shu bilan birga samarali yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta'lim berishning nazariyasi va amaliyotda o`quvchilarning bilim olish harakatlarini faollashtirish eng dolzarb muammolardan biri bo`lgan. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, yangi ta'lim texnologiyalari ularni egallayotgan bilimlarni

o’zlari qidirib topishlaria, mustaqil o’rganib tahlil qilishlariga xatto xulosalarni xam o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi. Yangi asr o`qituvchisi ta’lim berish, tarbiyalay olish va ta’lim oluvchining bilimlarini xolisana baholay olish, qolaversa, nazorat qilish hamda ta’lim-tarbiyajarayoniga bo`lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi xislatlariga ega bo`lishi kerak. U o`z faoliyatida qobiliyatli, zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini tushuna bilishi, dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini keng nuqtai-nazardan aniqlash, qolaversa, kompyuter va boshqa o`qitish texnik vositalaridan ta’lim jarayonida foydalana olishi lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.05.2020 yildagi PQ-4708-son. Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

2. Abdullayeva B.S., Djurayeva D.SH., Djurakulova A.X. Matematika o’qitish metodikasi. TERMIZ – 2020, 25b

3. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi. Universitetlaming matematika fakulteti bakalavr yo'nalishidagi talabalari uchun darslik - T.: O'qituvchi, 2008 y. 359 b.

4. Левитас Г.Г. Методика преподавания математики в основной школе Учебное пособие. Издательский дом «Астраханский университет», 2009, 180с.

5. M.Jurayeva, R.Turg’unboyev, Контекстние задачи в методической подготовке учителей математики в класси ческих университетах, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborotnomasi, 2019 yil, ISSN: 2010-9075, 56-58 bet

6. M.Jurayeva, Bo’lg’usi matemateka uqituvchilarini mavzuning o‘quv materialini mantiqiy-matematik tahlilini bajarishga o‘rgatish usullari, QarDU xabarlari, 2/2020, 161-164 bet

7. M.Jurayeva, Bo’lg’usi matematika o’qituvchilarini mavzudagi masalalarni mantiqiy-matematik tahlilini bajarishga o’rgatish, Международный научной практический журнал , “глобалние науки и инновации 2020: центральная Азия”, ISSN 2664-2271, 2020 yil, 43-44 bet, Nur-Sultan, kazaxstan

8. M.Jurayeva, R.Turg’unboyev, Matematik analiz kursida teoremalar va ularning isbotlarini o’rgatish metodikasi, “Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў ” Илмий- методикалық журнал 6/1 2020 yil. ISSN: 2183-7138, 94-97 bet, Nukus

9. M.Jurayeva, Bo’lg’usi matematika o’qituvchilariga noan’anaviy ta’lim metodlarini o’qitish haqida, Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2021-yil, 2-son(126), 186-189 bet, Samarqand.

10. M.Jurayeva, Bo`lg`usi matematika o`qituvchilarida o`quvchilarga asosiy didaktik birliklarni o`rgatish texnologiyasi bo`yicha kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi, “Eurasian journal of academic research”, UIF = 8.1 | SJIF = 5.685, 417-420 betlar, O’zbekiston, 2022

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI DARSLARINI 4 “K” MODELI ASOSIDA O‘QITISH

Xakimova Yo.T.
Qo’qon Davlat Pedagogika Instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti “Informatika” kafedrasi katta o’qituvchisi, PhD.

Tayanch so‘zlar: zamonaviy o‘qituvchi, 4 ta “K” modeli (tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, muloqot va hamkorlik), 4 ta “K” malakasi (tanqidiylik, ijodkorlik, muloqot, jamoada ishlash), innovatsion texnikalar, usullar, ta’limni tashkil etish shakllari.
Ключевые слова: современный педагог, 4 модели “K” (критическое мышление, креативное мышление, коммуникативность и коллаборационизм), 4 навыка “K” (критичность, креативность, коммуникативность, совместная работа), инновационные приемы, методы, формы организации обучения. Abstract. The article discusses the issues of improving the quality of education, modern education, how a modern teacher should teach a student today, 4 "K" skills, effective use of modern methods in the classroom.
Key words: modern teacher, 4 "K" models (critical thinking, creative thinking, communication and collaboration), 4 "K" skills (criticality, creativity, communication, teamwork), innovative techniques, methods, forms of learning organization.

Резюме:
Maqolada ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy ta’lim, bugungi kunda zamonaviy o‘qituvchi o‘quvchiga qanday ta’lim berishi kerak, 4 “K” ko‘nikmalari, darslarda zamonaviy metodlardan unumli foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. Kalit so‘zlar: zamonaviy o‘qituvchi, 4 “K” modeli (kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativlik va kolloboratsiya), 4 “K” ko‘nikmalari (tanqidiy, ijodkorlik, muloqotchanlik, hamkorlikda ishlash), innovatsion uslublar, metodlar, ta’limni tashkil qilish shakllari.
Резюме:
В статье рассматриваются вопросы повышения качества образования, современного образования, как современный учитель должен обучать ученика сегодня, навыки 4 “K”, эффективное использование современных методов на уроках.
Summary:
The article discusses the issues of improving the quality of education, modern education, how a modern teacher should teach a student today, 4 “K” skills, effective use of modern methods in lessons.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimi kundan kunga takomillashib bormoqda. Xususan, uzluksiz ta’lim tizimini samarali tashkil etish va unga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish umumiy o‘rta ta’lim maktablarining

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonida sifat va samaradorlikka erishishda g‘oyatda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy ta’lim o‘quvchilarga beriladigan bilimlarning to‘laqonli amalga oshirilishini ko‘zda tutadi. O‘zgarishlar davrida ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta’lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida Informatika va axborot texnologiyalari darsliklari yangidan 4 “K” modeli asosida tayyorlandi. 4 “K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF5712 sonli Farmoniga binoan ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shu maqsadda “Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida aytilgan. O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni o‘qituvchiga ishonib topshirilgan. Shuning uchun har bir o‘qituvchi bu katta ishonchni o‘zining pok vijdoni va mas’uliyat hissi bilan oqlashi zarurdir. Buning uchun u tinimsiz izlanishi, jamiyatimizda sodir bo‘layotgan yangiliklardan xabardor bo‘lishi, yangi pedagogik texnologiyarni o‘z faoliyatida doimiy qo‘llab borishi kerak. Hozirgi zamon ta’limi oldida turgan asosiy maqsad, o‘quvchi shaxsini bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni fikr yuritish faoliyatiga o‘rgatishdan iborat. Shuningdek, zamonaviy darslarni tashkil qilish negizida 4 “K” modelini qo‘llash asosida o‘quvchilarda kritik (tanqidiy) fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativ va kooperativ ko‘nikmalarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugingi kunda ta’limni isloh qilish tizimiga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog‘liq. Ana shunday yondashuvlardan biri 4 “K” modelidir. 4 “K” modeli kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativlik va kolloboratsiya kabi tushunchalarni qamrab oladi.

1) kritik (tanqidiy) fikrlash - o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish demakdir;

2) kreativ fikrlash (ijodıy yondashuv) - o‘z maqsadiga erishish yo‘lida yangiliklarga qo‘l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko‘nikmalarini o‘rgatish;

3) kommunikativlik (muloqatchanlık) - odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish;

4) kooperatsiya (hamkorlikda ishlash) - ta'lim oluvchining jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirish. Informatika va axborot texnologiyalari fani o'quvchillarda 4 "K" modeli ko'nikmalarini shakllantirishga, ularning tayanch va fanga oid kompetensiyalari elementlarini shakllantirishga, har bir fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishga, ma'naviy yetuk, sog'lom avlod bo'lib tarbiyalashda, kasb-hunar tanlashlari uchun xizmat qiladi. Tavsiya etilayotgan metod va usullar dars mazmunini ochishiga, o'quvchilar faolligini oshirishga yordam berib, darsning samaradorligini oshiradi. Quyidada keltirilgan innovatsion metod va interfaol o'yinlar o'quvchilarda 4 "K" modeli tarkibidagi kritik (tanqidiy) fikrlash ko'nikmasi, kreativlik (ijodkorlik) ko'nikmasi, kommunikativlik (muloqotchanlik) ko'nikmasi, va kooperatsiya (hamkorlikda ishlash) kabi ko'nikmalarni rivolantirishda hamda fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, zukkolik, tirishqoqlik, chaqqonlik va aniq harakat qilish, bilimlarni puxta egallash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib o'tish esa bolalarni darsdaga faolligini va zo'r ishtiyoq bilan qatnashishlarini ta'minlaydi. Krıtık (tanqıdıy) fıkrlashnı rıvojlantıruvchı usullar.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: O'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari:

- √ tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati;
- √ baholash – kirish va chiqish ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;
- √ tushuntirish – o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog'liq izchil matnlar qurish; maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni to'g'ri shakllantirish, zarur ma'lumotlarni va uning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;
- √ o'zini boshqara bilish – o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);
- √ modellashtirish – amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati;
- √ o'rganilayotgan predmetga turli nuqtali nazardan qarash amaliyoti;
- √ kuzatish va o'lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti;

√ muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;
√ dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;
√ strategik fikrlash. “1 daqiqa” usuli. Tavsifi: Bu usul o‘quvchilarda o’tilgan darslarni takrorlash yoki mustahkamlash uchun o’tkaziluvchi metod hisoblanadi. O’quvchi 1 daqiqa ichida bi ratama yoki tushunchalarning bir nechta ma’nosini aytishi yoki daftarga yozishi talab etiladi. Masalan bu metodni Informatika va axborot texnologiyalari fani misolida ko’rib chiqishimiz mumkin.

Masalan: 1 daqiqa ichida quyidagilarni bajaring.
Word dasturining asosiy 10 ta vazifasini ayting.
Excel dasturining asosiy 10 ta vazifasini ayting.
Power Point dasturining asosiy 10 ta vazifasini ayting.

Bunda o‘quvchilarning mavzuni to‘liq o‘zlashtirganligni va darsdagi aosiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini tushunib yetganliklarini bilib olishlari mumkin. Erishiladigan natija: O‘quvchilar bu usul orqali tanqidiy fikrlashga oid tahlil – topshiriqni alohida eslash, tasavvur qilish qobiliyati hamda dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Bu usuldan oliy ta’lim amaliy darslarida, maktab o‘quvchilaridan yuqori va quyi sinflarda matematika, fizika, aniq va tabiiy fan darslarining mustahkamlash qismida foydalanishlari mumkin.

Kreativlik (Ijodkorlik) ko‘nikmasi.

√ qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish qobiliyati;
√ tasavvur – ko‘plab original va nostandart g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
√ optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;
√ g‘oyalarni rivojlantirish – g‘oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma’lumotlarning paydo bo‘lishida o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

2-usul “Globoalfabe” metodi. Bu metoddan darsni mustahkamlash yoki takrorlash bosqichida foydalanish mumkin.

Foydalanish vositalari: Turli xil rangli yoki shaklli stikkerlar yoki A4 formatdagi qog‘ozlar. O‘tkazilish tartibi:

√ Har bir guruh yoki ishtirokchiga turli xil rangli (havorang, kulrang, qizil, yashil) stikerlarga;
√ Har bir stikerlarga alfabit harflari yozib chiqiladi;
√ Stikerlar o'quvchilarga yoki talabalarga tarqatiladi.
√ Bo'lib berilgan stikerlardagi harflar asosida mavzuga oid tushunchalarni aytishlari lozim.

Topshiriq yakunida tahliliy ishlar o'qituvchi tomonidan tekshirilib baholanadi. Kreatıvlık (ıjodıy yondashuv)nı rıvolantıruvchi usullar. Kreativ fikrlash ko'nikmalari orqali o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Muloqot qilish ko'nikmasi.

√ muloqotdan cho'chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik.
√ muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;
√ muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;
√ muloqot qoidalari ma'nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;
√ boshqa odamlarning fikrini tinglashni o'rganish;
√ o'zining ijobiy obrazi shakllanishini ta'minlash;
√ o'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalash amaliyoti;
√ taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;
√ o'z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;
√ katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti. "Sirli soat" usuli. Tavsifi: Bu usulda o'quvchilar kommunikativlikka jalb etish, dars jarayonida faolligini oshirish, o'tilgan mavzuni o'zlashtirganlik va tushunchalarni yodda saqlab qolganlik darajasini aniqlash, tushunchalar orasidagi bog'lanishlarni topishga o'rgatish uchun foydalanish mumkin. Erishiladigan natija: Bu o'yin o'quvchilarda hozirjavoblik, mantiqiy fikrlashni va kundalik hayotiy faoliyatimizda rivojlantiradi, shuningdek atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga, sodir bo'layotgan hodisalarga qiziqishini oshiradi. Qo'llanilish doirasi: Bu metodni barcha darslarda tashkiliy qismida, yangi mavzudan oldin va mustahkamlash qismida

o‘tkazish mumkin. Foydalanish vositalari: O‘qituvchi soat maketi yoki soat rasmi tushirilgan rangli rasmdan foydalanishi mumkin.

O‘tkazish tartibi:

√ “Sirli soat” deb nomlanishi shundaki soatda raqamlar o‘rni bo‘sh faqat soat millari bor.

√ O‘quvchilar soatdagi sirli jumboqni yechishlari uchun raqamlarga mos keladigan mavzu yoki fanga bog‘liq to‘g‘ri va aniq ma‘lumotlar keltirishlari lozimligi tushuntiriladi.

√ O‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri topilgan ma‘lumotlar orqali raqamlar o‘z o‘rniga qo‘yiladi.

√ Soatning sirini yechishda faol bo‘lgan o‘quvchilar yoki guruh rag‘batlantiriladi. Bu metodni og‘zaki tezkor savol-javob tarzida yoki guruhlarga yozma topshiriq ko‘rinishida berish mumkin. Kollaboratsiya (hamkorlikda ishlash)ni rivolantiruvchi usullar.

Kollaboratsiya: Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Jamoaviy ishlash ko‘nikmasi.

√ umumiy maqsadlarni o‘z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo‘nalishini qurish qobiliyati;

√ ijtimoiy o‘zaro ta’sir, ya’ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o‘z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;

√ o‘z rejalari va g‘oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko‘nikmalarini va o‘z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;

√ o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;

√ mustaqillik, avtonomiya va tashabbuskorlik. “MMM” usuli. Tavsifi: O‘quvchilar bilan bu usul matematika darslarida tashkil qilinadi. Ushbu metod o‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari mustahkamlash imkonini beradi. Metodni qo‘llash jarayonida o‘quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg‘ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi.

Guruhlarning faoliyatlari quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

1-bandga misol (o‘rganilgan mavzuga oid) 2-bandiga masala 3-bandiga mantiqiy topshiriq Har bir bandda topshiriqlar to‘liq yozilib yonidagi sherigiga yoki boshqa guruh a’zolariga uzatadilar. Topshiriqni olgan ishtirokchilar navbati bilan uni bajarib yechimini topib yozadilar.

Erishiladigan natija: Bu usul orqali o‘quvchilar o‘zaro faollikda ishlashga, topshiriqlarni birgalashib navbati bilan yechishga, o‘rganilgan mavzular bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga erishadilar. Qo‘llanilish doirasi: matematika va tabiiy fanlarida darsning asosiy, mustahkamlash qismlarida va qizizqarli daqiqalarida tashkil qilish mumkin.

Foydalanish vositalari: MMM usuli jadvali tushirilgan tarqatmalar. O‘tkazish tartibi:

1.2. Sinf o‘quvchilarning yakka yoki guruhlarda ishlashlari e’lon qilinadi. O‘quvchilarning yangi mavzu bo‘yicha misol yecha olish darajasi o‘rganiladi va ular yechilgan misollar jadvalning 1-bandiga yozib boriladi.

3. O‘quvchilarning yangi mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan masala yechishga oid bilimlari o‘rganiladi va bu masalalar jadvalning 2-bandiga yoziladi.

4. O‘qituvchi mantiqiy topshirqini yozadilar va sheriklariga uzatadilar. O‘zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi va ular jadvalning 3-bandiga yoziladi.

5. Topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilandi.

6. Yakunida ishlar tahlil qilinib g‘oliblar aniqlanadi.

Zamonaviy ta’limda zamonaviy o‘qituvchi ta’lim shaklini mavzu, o‘quvchilar va tarjibasidan kelib chiqib tanlaydi. Bunda albatta zamonaviy metodlar qo‘l keladi. Xulosa shuki, o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida o‘quvchilarda 4 “K” modelini darslarda tadbiq etish maqsadga muvofiq. Bunda albatta zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi Xalq ta’limi tizimini 2023 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini to‘g‘risidagi PF5712 sonli Farmoni. https//www.lex.uz.

2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU, 2003.

3. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. “Boshlang’ich ta’limda innovatsiya”. -T.: TDPU 2007.

4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Qarshi: “Nasaf”, 2000.

5. Toshpulatova Sh.O. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobilyatlarini rivojlantirish. Ped.fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtor.-T., 2018, 26 b.

6. To‘raqulov X.A. Boshlang‘ich ta’limda innovasion yondashuvlar qilishning ijtimoiy jihatdan zarurligi // Boshlang‘ich ta’limda innovason texnologiyalar: muammolar, echimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Jizzax, 2006.-III qism.-B.153-157. 7. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. -T.: 2023.

FUNKSIYALAR VA ULARNING TURLI SOHALARDAGI TATBIQLARI MAVZUSINI YORITISHDA KLASTER METODIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA AHAMIYATI

Xurramov O.
QarDU Algebra va geometriya kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: klaster metodi, funksiya, astronomiya, ovoz to'lqinlari, navigatsiya,dengiz biologiyasi,aviatsiya, ishlab chiqarish sanoati, jinoyat tergovi, tibbiy tasvirlash va farmatsiya, zamonaviy trigonometriya, harajat funksiyasi, kirim funksiyasi, foyda funksiyasi, talab funksiyasi, taklif funksiyasi.
Ключевые слова: кластерный метод, функция, астрономия, звуковые волны, навигация, морская биология, авиация, обрабатывающая промышленность, криминальное расследование, медицинская визуализация и фармация, современная тригонометрия, функция затрат, функция предложения, функция прибыли, функция спроса, функция предложения.
Key words: cluster method, function, astronomy, sound waves, navigation, marine biology, aviation, manufacturing industry, criminal investigation, medical imaging and pharmacy, modern trigonometry, cost function, supply function, profit function, demand function, supply function.

Резюме:
Klaster metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi.
Biz trigonometriyaning tarixiy qo'llanilishini va trigonometriyaning turli xil real hayotda qo'llanilishini o'rganilgan.Tarix davomida astronomlar yulduzlar va sayyoralarning Yerdan uzoqligini hisoblash uchun trigonometriyadan foydalanganlar.
Резюме:
Кластерный метод считается формой мышления, не направленной на конкретный объект. Его использование осуществляется в связи с принципом деятельности мозга человека.Мы изучили историческое использование тригонометрии и различные практические применения тригонометрии. На протяжении всей истории астрономы использовали тригонометрию для расчета расстояний звезд и планет от Земли.
Summary:
The cluster method is considered a form of thinking that is not directed to a specific object. Its use is carried out in connection with the principle of human brain activity.We studied the historical uses of trigonometry and various real-life applications of trigonometry.Throughout history, astronomers have used trigonometry to calculate the distance of stars and planets from Earth.

Klaster metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning talaba tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'qitish jarayonida amalga oshiriladigan bu metod puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan talaba bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Dars mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu metod mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan. Biron-bir mavzuni chuqur o'rganishdan oldin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi.

"Klaster" metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki gurux asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarnng majmui tarzida namoyon bo'ladi.

Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtrish va ular o'rtasidaga aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. "Klaster" metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi.



Funksiyalar va ularning turli sohalardagi tatbiqlari mavzusini yoritishda klaster metodidan foydalanib tushuntramiz hamda trigonometrik funksiyalarni turli sohalarga tadbiqlarini alohida qaraymiz:



Bizga, $X \subset R, Y \subset R$ to‘plamlar berilgan bo‘lib, x va y o‘zgaruvchilar mos ravishda shu to‘plamlarda o‘zgarsin: $x \in X$, $y \in Y$.

Ta’rif. Agar X to‘plamdagi har bir x songa biror f qoidaga ko‘ra Y to‘plamdan bitta y son mos qo‘yilgan bo‘lsa, X to‘plamda funksiya berilgan (aniqlangan) deyiladi va

$$f: x \to y \text{ yoki } y = f(x)$$

kabi belgilanadi. Bunda X - funksiyaning aniqlanish to‘plami (sohasi), Y - funksiyaning o‘zgarish to‘plami (sohasi) deyiladi. x - erkli o‘zgaruvchi yoki funksiya argumenti, y esa erksiz o‘zgaruvchi yoki funksiya deyiladi. [1-3]

Endi biz trigonometriyaning tarixiy qo‘llanilishini va trigonometriyaning turli xil real hayotda qo‘llanilishini o‘rganamiz.

Ko‘prik yoki bino kabi mexanik inshoot trigonometriyaning oddiy namunasidir. Arxitektorning rejasi ko‘plab trigonometrik elementlarni o‘z ichiga oladi, bu yerda ularning topilmalari rejaga amal qilish uchun taqqoslanadi.

1. Astronomiya. Insoniyat sivilizatsiyaning boshidanoq quyosh tizimining sirlariga qiziqib qolgan. Tarix davomida astronomlar yulduzlar va sayyoralarning Yerdan uzoqligini hisoblash uchun trigonometriyadan foydalanganlar. Bugungi kunda NASA olimlari undan kosmik kemalar va raketalarni qurish va uchirish uchun foydalanadilar. Trigonometriyasiz odamlar hech qachon Oyga yetib bormagan bo‘lardi.

2. Ovoz to‘lqinlari. Trigonometriya musiqa nazariyasi va ishlab chiqarishda ham muhim ahamiyatga ega. Ovoz to‘lqinlari sinus va kosinus funksiyalari bilan vizual ravishda ifodalanishi mumkin bo‘lgan takrorlanuvchi to‘lqin naqshida harakat qiladi. Sinus egri chizig‘i bitta notani

ifodalashi mumkin va akkordni modellashtirish uchun koʻplab sinus egri chiziqlar birgalikda ishlatilishi mumkin. Musiqaning grafik tasviri kompyuterlarga tovushlarni yaratish va tushunish imkonini beradi. Shuningdek, u ovoz muhandislariga kerakli tovush effektlarini olish uchun ovoz toʻlqinlarini koʻrish, ovoz balandligi va boshqa omillarni oʻzgartirish imkonini beradi.

3. Navigatsiya. Harakatlanuvchi transport vositalarini boshqarish va monitoring qilish navigatsiyaning turli shakllarida oʻrganiladi.

Ushbu shakllarga quyidagilar kiradi: Dengiz navigatsiyasi, Aviatsiya navigatsiyasi

Kosmik navigatsiya, Yer usti navigatsiyasi

Harakatlanuvchi ob'yektlarni oʻrganish navigatsiya deb nomlanadi va oʻsha paytda oʻlchangan burchak yoki masofa trigonometriya bilan amalga oshiriladi. Harakatlanuvchi jismning aniq joylashishini aniqlash uchun kompas, aniq qutblar, trigonometrik nisbatlar va turli formulalardan foydalaniladi.

4. Dengiz biologiyasi. Dengiz biologlari okeanda yashaydigan oʻsimliklar, hayvonlar va boshqa turlar kabi dengiz hayotini oʻrganadilar. Trigonometriya dengiz biologiyasida mavjudot yoki oʻsimlikning olamdan qanchalik uzoqda va qaysi burchakda ekanligini taxmin qilish uchun qoʻllaniladi. Burchak, kuzatuvchi qayerda ekanligiga qarab, tushish burchagi yoki balandlik burchagi boʻlishi mumkin. Suv sathi toʻgʻri burchakli uchburchakning asosi sifatida qabul qilinadi, buyumning chuqurligi esa balandlikning qiya masofasi hisoblanadi.

5. Aviatsiya. Samolyot uchayotganda, shamol xavfsizlik va texnologiyani birlashtirishda ajralmas rol oʻynaydi. Toʻgʻri burchakli uchburchakning ikkita perpendikulyar tomoni shamol yoʻnalishini tasvirlaydi. Shunday qilib, biz trigonometrik nisbatlarning ta'rifini qoʻllash orqali samolyotning manzilgacha boʻlgan masofasini hisoblashimiz mumkin.

6. Ishlab chiqarish sanoati. Trigonometriya ishlab chiqarish sanoatida keng qoʻllaniladi, bu ishlab chiqaruvchilarga transport vositalaridan tortib zigzag qaychigacha boʻlgan hamma narsani qilish imkonini beradi. Muhandislar trigonometrik munosabatlardan mashinalar, asboblar va jihozlarda ishlatiladigan mexanik qismlarning oʻlchamlari va burchaklarini taxmin qilish uchun foydalanadilar. Bu avtomobilsozlikda juda muhim, chunki u avtomobil ishlab chiqaruvchilarga har bir elementni aniq oʻlchash va ularning birgalikda xavfsiz ishlashini taʻminlash imkonini beradi.

Tikuvchilar, shuningdek, yubka yoki bluzkaning oʻziga xos shaklini yaratish uchun zarur boʻlgan dart burchagini yoki mato uzunligini aniqlash uchun foydalanadilar.

7. Jinoyat tergovi. Sud-tibbiyot ekspertlari va jinoyat detektivlari jinoyat joyida nima sodir boʻlganligini aniqlash uchun trigonometriya funktsiyalarini qoʻllaydilar, qonning sochilishini oʻrganadilar, zarba burchagini aniqlash uchun oʻq teshiklarini tahlil qiladilar va jinoyatchining oʻrnini aniqlash uchun navigatsiya texnologiyasidan foydalanadilar.

8. Tibbiy tasvirlash va farmatsiya. Ortopediyada trigonometriya vertebraning buzilish darajasini va nervlarning shikastlanganligini aniqlaydi. Bundan tashqari, protez qoʻllar va oyoqlarni shakllantirish uchun ishlatiladi, chunki nisbatlar maksimal potentsial funksiyada ishlashni osonlashtirish uchun moslashtirilgan. Xuddi shunday, turli xil koʻrish, ultratovush, yadroviy tibbiyot va magnit-rezonans usullaridan foydalangan holda kasalliklarni tashxislash va davolash trigonometriyadan foydalanish hisoblanadi. Bundan tashqari, ular aniq burchaklarni hisoblash uchun foydalanadilar, bu esa har bir nurning zararli hujayralarni aniq nishonga olishiga imkon beradi. Diagnostik radiologiya shifokorlarga tanangizdagi tuzilmalarni kuzatish imkonini beradi.

9. Zamonaviy trigonometriya. Zamonaviy trigonometriyaga Bobil, Shumer, Yunon va Hindiston astronomlari katta ta'sir koʻrsatgan. Astronomiya trigonometriyaning ochilishi bilan sifatli kuzatuv fanidan bashorat qiluvchi miqdoriy fanga oʻtdi. Ushbu transformatsiya trigonometriyani qoʻllashni ommalashtirdi va tabiiy hodisalarning matematik tasvirini amalga oshirish mumkinligini koʻrsatdi. Kuzatuv maʻlumotlari birinchi marta matematik modellarga tarjima qilinishi mumkin. Shunday qilib, Ptolemeyning Almagesti nazariy matematika uchun Evklidning elementlari qilganidek, amaliy matematikaga xizmat qiladigan muhim lahza boʻldi.

Ushbu ma‘lumotlar BYJU‘S Future School platformasidan https://www.byjusfutureschool.com/blog/real-life-application-of-trigonometry/ olindi.



Funksiyalarning iqtisodiy misollarga tatbiqlarini ko‘rib o‘tamiz.



Xarajat funksiyasi

$$C(x) = mx + b$$

1-misol. Ishlab chiqaruvchining o'zgarmas harajati 5000 000 so'm bo'lib, har bir chiqarilgan mahsulot uchun esa 500000 so'm sarf qiladi. Umumiy harajatni ishlab chiqariladigan maxsulot xajmi orqali ifodalovchi funksiyani toping.

$$f(500\,000) = 500\,000x + 5\,000\,000$$

Kirim funksiyasi

$$R(x) = mx$$

Foyda funksiyasi

$$P(x) = R(x) - C(x)$$

2-misol. Tovarni sotish narxi 0,4$. O'zgarmas xarajat 200$ har bir tovar uchun ketgan xarajat esa 0,2$ bo'lsa,

a) Umumiy xarajatni
b) Umumiy krimni
c) Foyda funksiyalarini toping.

Yechish.

a)umumiy xarajat funksiyasi $C(x) = 0,2x + 200$

b)umumiy krimni funksiyasi $R(x) = 0,4x$

$$P(x) = 0,4x - (200 + 0,2x)$$

c)foyda funksiyasi $P(x) = 0,2x - 200$

Talab va taklif funksiyasi

Talab funksiyasi. Bu funksiya $D(p)$ orqali ifodalanib, pul birligida sotilishi mumkin bo'lgan tovarlar sonini bildiradi

$$D(p) = ap^{\alpha} + b, \qquad a > 0,\ b > 0,\ \alpha < 0$$



Taklif funksiyasi. Bu funksiya $S(p)$ orqali ifodalanib, bu narxda ishlab chiqaruvchining taklif qilgan tovarlar sonini bildiradi.

$$S(p) = cp^{\beta} + d, \quad c > 0, \ d > 0, \ \beta \geq 1$$



3-misol. Tadqiqotchi ma'lum bir iste'mol bozorida choyga bo'lgan talabni o'rganmoqchi. Qancha miqdorda choy ishlab chiqarish uchun u quyidagi funksiyani tuzdi: $Q_t = f(P_t; Y; A; P_C)$

Bu yerda Q_t - talab qilinadigan choy miqdori, P_t - choyning narxi, Y - iste'molchilarning o'rtacha daromadi, A - choyni reklama qilishga sarflanadigan xarajat, N - iste'molchilar soni, P_C - kofe (muqobil ichimlik sifatida) narxi.

Xulosa. Ta'lim - tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Shu sababli ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish muhim pedagogik vazifa sanaladi.

Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va talabaning faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda talabaning o'rganishga yo'naltirilgan faoliyati, boshqacha aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishish hisoblanadi.

Bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim jarayonining sifatini oshirish, samaradorligini takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada boy tajriba to'plangan. Ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash borasida to'plangan mavjud tajribalar orasida interfaol metodlar va elektron ta'lim vositalaridan foydalanish alohida o'rin tutmoqda. Zero, interfaol metodlar turli murakkablikdagi o'quv materiallarini juftlikda, kichik guruhlar va katta guruhda talabalar tomonidan birgalikda, o'zaro o'zlashtirish imkonini beradi. Bu esa talabalarning bilish imkoniyatlarini oshiradi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida klaster metodini qo'llash orqali OTMda o'qitish sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga erishish.

Adabiyotlar:

1. T.Azlarov, H.Mansurov Matematik analiz 1-qism, Toshkent “O‘qituvchi” 1994.
2. B.A.Shoimqulov, T.T.Tuychiyev, D.H.Djumaboyev, Matematik analizdan mustaqil ishlar. “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati” nashriyoti Toshkent 2008.
3. Т.Жўраев, А.Саъдуллаев, Г.Худайберганов, Ҳ.Мансуров, А.Ворисов “Олий математика асослари” Т. Ўзбекистон 1-қисм 1994.
4. A.Gaziyev, I.Israilov, M.Yaxshiboyev, Funksiyalar va grafiklar “Voris-nashriyot” Toshkent-2006

Internet saytlar

5. www.eknigu.com/lib/Mathematics/
6. www.eknigu.com/info/M_Mathematics/MC
7. https://www.byjusfutureschool.com/blog/real-life-application-of-trigonometry
8. www.ziyo.net

RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA LOYIHALASHTIRISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRUVCHI TRELLO ELEKTRON TA’MINOTI

Berdieva Z.I.
Nukus shahri 22 – umum ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: raqamli ta’lim muhitida loyihalash, loyihalash kompetensiyalari, elektron didaktik ta’minot, MindMeister, Trello, Canva, Scratch, Padlet.
Ключевые слова: проектирование в цифровой образовательной среде, компетенции проектирования, электронное дидактическое обеспечение, MindMeister, Trello, Canva, Scratch, Padlet.
Key words: design in the digital educational environment, design competencies, electronic didactic support, MindMeister, Trello, Canva, Scratch, Padlet.

Резюме:
Bu maqolada raqamli ta’lim sharoitida loyihalashtirish kompetensiyasini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan elektron ta’minotlar, ularning o‘quvchilarga ta’siri o‘rganiladi. Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida loyihalash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur Trello elektron ta’minotga yondashuvlar tahlil qilinadi.
Резюме:
В этой статье рассматриваются электронные материалы, необходимые для развития компетенции проектирования в условиях цифрового обучения, а также их влияние на учащихся.В этой статье будут проанализированы подходы к электронному обеспечению Trello, необходимые для формирования и развития компетенций проектирования в цифровой образовательной среде.
Summary:
This article explores the electronic materials required for developing design competencies in the context of digital learning, as well as their impact on students. The article will analyze approaches to electronic tools like Trello, which are essential for shaping and enhancing design competencies in the digital educational environment.

Kirish. Bugungi kunda raqamli ta’lim texnologiyalari jadal rivojlanib bormoqda, bu esa o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qayta tashkil etishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Loyihalashtirish kompetensiyalari o‘quvchilarning muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash, amaliy bilimlarni qo‘llash, samarali ishlash va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishda o‘zini

ko‘rsatadi. Raqamli ta’lim sharoitida bu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun elektron ta’minotlar va raqamli vositalar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu maqolada raqamli ta’lim sharoitida loyihalashtirish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan elektron ta’minotlar haqida batafsil so‘z yuritiladi.

Loyihalashtirish kompetensiyasini rivojlantirish. Loyihalashtirish kompetensiyasi o‘quvchiga yangi g‘oyalarni yaratish, tahlil qilish, sinovdan o‘tkazish va natijalarni baholash kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiya o‘quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilishda yordam beradi. Raqamli ta’lim texnologiyalari bu jarayonni osonlashtirib, o‘quvchilarning loyihalashtirish qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi. Buning uchun o‘quvchilarga zamonaviy elektron ta’minotlar yordamida loyiha yaratish, uni boshqarish, tahlil qilish va yakunlash ko‘nikmalarini berish mumkin.

Raqamli ta’lim vositalari va elektron ta’minotlar.Raqamli ta’lim sharoitida loyihalashtirish kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi elektron ta’minotlar samarali hisoblanadi:

1. Trello

Trello – bu vizual loyiha boshqaruv vositasi bo‘lib, u o‘quvchilarga loyiha rejalashtirish va uning jarayonlarini boshqarishda yordam beradi. Trello yordamida o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantiradi:

- Loyihani bosqichlarga bo‘lish: Har bir vazifani alohida kartalar sifatida ko‘rish va ularni bajarish tartibini belgilash.
- Resurslarni taqsimlash: O‘quvchilar o‘z jamoalari orasida vazifalarni samarali taqsimlashni o‘rganadilar.
- Vaqtni boshqarish: Loyihani yakunlash uchun zarur bo‘lgan vaqtni rejalashtirish va nazorat qilish.

2. MindMeister

MindMeister – bu aqlni kartografiya qilish va g‘oyalar yaratish uchun interaktiv vositadir. U o‘quvchilarga yangi g‘oyalarni yaratish va ularni vizual ravishda tuzishni o‘rgatadi. Bu vosita orqali o‘quvchilar:

- G‘oyalarni tizimlashtirish: Loyihalarni shakllantirishda zarur bo‘lgan barcha fikrlarni va faktlarni tartibga solish.
- Ijodiy fikrlash: Keng ko‘lamdagi g‘oyalarni sintez qilish va ulardan yangi yechimlar ishlab chiqish.

3. Canva.

Canva – grafik dizayn uchun mo‘ljallangan platforma bo‘lib, o‘quvchilarga loyihalar yaratish va ularni vizual tarzda ifodalash imkonini beradi. U orqali o‘quvchilar:

- Vizual kontent yaratish: O‘quvchilar o‘z loyihalarining grafik, diagramma yoki infografikalarini yaratadilar.
- Kommunikatsiya: O‘z g‘oyalarini boshqalarga tushunarli va jozibali tarzda taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

4. Google Docs va Google Sheets.

Google Docs va Google Sheets kabi ofis dasturlari o‘quvchilarga loyihalarni yaratishda hujjatlarni ishlab chiqish va ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu vositalar yordamida o‘quvchilar:

- Hamkorlikda ishlash: Bir nechta foydalanuvchi bir vaqtning o‘zida bir hujjat ustida ishlashi mumkin, bu esa jamoaviy loyihalarda muhimdir.
- Ma’lumotlarni tahlil qilish: Google Sheets yordamida o‘quvchilar ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishni o‘rganadilar.

5. Scratch.

Scratch – bu vizual dasturlash muhitidir, u o‘quvchilarga dasturlashni o‘rgatish va ijodiy loyihalar yaratish imkonini beradi. Scratch yordamida o‘quvchilar:

- Dasturlashni o‘rganish: Oddiy kodlash yordamida o‘z loyihalarini yaratish.
- Logika va algoritmlar: Kompyuter dasturlari yaratishda zarur bo‘lgan logika va algoritmga asoslangan fikrlashni rivojlantiradilar.

6. Padlet

Padlet – bu interaktiv doska bo‘lib, o‘quvchilarga turli g‘oyalarni bir joyda jamlash va ularni rivojlantirishda yordam beradi. U orqali o‘quvchilar:

- Hamkorlikda ishlash: O‘quvchilar birgalikda muammolarni tahlil qilib, ijodiy yechimlar ishlab chiqishadi.
- Vazifalar va fikrlarni jamlash: Loyihaning barcha jihatlarini birlashtirish va ular haqida fikr almashish imkonini beradi.

Trello - bu loyiha boshqarishning eng mashhur va qulay vositalaridan biri bo‘lib, uning vizual interfeysi va intuitiv foydalanish imkoniyatlari unga turli sohalarda, jumladan, ta’lim, biznes va ijodiy ishlarda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu maqolada Trello platformasining loyihalashtirish jarayonida qanday qo‘llanilishi haqida batafsil so‘z yuritiladi. Trello - bu onlayn loyiha boshqarish vositasi bo‘lib, o‘zining sodda va foydalanuvchilarga qulay interfeysi bilan ajralib turadi. U, asosan, Kanban metodologiyasiga asoslangan bo‘lib, loyiha jarayonini boshqarishni vizual tarzda taqdim etadi. Trello asosan kartalar (cards), ro‘yxatlar (lists) va taxtalar (boards) shaklida ishlaydi, bu esa foydalanuvchilarga loyihalarini tartibga solish, vazifalarni boshqarish va ularni izchil bajarishda yordam beradi.

Trello ning loyihalashtirishda qo‘llanilishi.

Trello ni loyihalashtirish jarayonida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda qo‘llash mumkin:

1. Loyihani rejalashtirish va tartibga solish.

Trello yordamida loyiha boshidan oxirigacha bo‘lgan jarayonni boshqarish osonlashadi. Loyihani boshlashda, Trello da taxta (board) yaratib, har bir vazifani alohida ro‘yxat (list) va karta (card) shaklida tartibga solish mumkin. Masalan:

- Ro‘yxatlar: Loyihada bajarilishi kerak bo‘lgan bosqichlar (masalan: "Rejalashtirish", "Ijro", "Yakuni").
- Kartalar: Har bir vazifa yoki ish (masalan: "Topshiriq 1: Raqamli marketing strategiyasini ishlab chiqish").

Bu yondashuv loyihani batafsil rejalashtirish va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini beradi.

2. Vazifalarni taqsimlash va boshqarish. Loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash zarur. Trello yordamida har bir jamoa a’zosi uchun alohida kartalar yaratiladi va ular turli ro‘yxatlar orqali taqsimlanadi. Har bir karta ichida quyidagi ma’lumotlarni kiritish mumkin:

- Vazifaning qisqacha tavsifi
- Vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslar
- Bajarish muddati
- Vazifa bajaruvchisi (masalan, jamoa a’zosi)

Bundan tashqari, Trello jamoa a’zolariga "responsibility" (javobgarlik) tayinlash imkonini beradi. Bu esa loyihaning har bir bosqichini kuzatishda va javobgarlikni taqsimlashda yordam beradi.

3. Vaqtni boshqarish va monitoring qilish. Trello da vazifalar uchun belgilangan muddatlar, boshlanish va tugash sanalari kiritilishi mumkin. Har bir vazifaga tegishli bo‘lgan "due date" (muddat) bilan jadval tuziladi. Bu imkoniyat yordamida:

- Loyiha rejasidagi barcha vazifalar va ularning bajarilish muddatlari aniq ko‘rsatiladi.
- Kechikkan vazifalar uchun eslatmalar yuboriladi.
- Loyihaning umumiy tayyorgarlik darajasi haqida tezkor ma’lumot olish mumkin.

4. Hamkorlik va jamoaviy ish. Trello ning eng katta afzalliklaridan biri bu jamoa a’zolari o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlashdir. Jamoa a’zolari bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifa ustida ishlashlari mumkin. Trello da quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- Izohlar: Jamoa a’zolari kartalar ustida izoh qoldirishlari mumkin, bu esa muhokama olib borish va fikr almashish uchun qulay.
- Fayllarni ulashish: Har bir karta ichida fayllarni joylashtirish mumkin, bu esa barcha kerakli hujjatlarni bir joyda to‘plash imkonini beradi.
- Push xabarnomalar: Jamoa a’zolariga kartalar bilan bog‘liq yangilanishlar haqida eslatmalar yuboriladi.

Bu jarayonlar jamoaviy ishlashning samaradorligini oshiradi va loyihalarni tezkor ravishda yakunlash imkonini beradi.

5. Loyihani monitoring qilish va tahlil qilish

Loyihani boshqarish va monitoring qilishda Trello ajoyib vosita hisoblanadi. Trello da o‘zgarishlarni kuzatish uchun:

- Progress bars: Vazifaning bajarilish jarayonini vizual tarzda ko‘rsatish uchun progress bars (yuklanish lentalari) foydalaniladi.
- Power-Ups: Trello ning maxsus imkoniyatlari orqali qo‘shimcha funksiyalarni faollashtirish mumkin (masalan, Calendar, Gantt chart, Burndown charts va boshqalar).
- Raportlar: Trello da amalga oshirilgan ishlar va ularning holati haqida batafsil tahlillarni olish mumkin.

6. Integratsiyalar va qo‘shimchalar. Trello turli boshqa platformalar bilan integratsiya qilish imkonini beradi. Masalan, Google Drive, Slack, Dropbox, GitHub, Evernote va boshqa ko‘plab dasturlar bilan bog‘lanish mumkin. Bu esa loyihani yanada samarali boshqarish va turli tizimlardan olingan ma’lumotlarni yagona joyda jamlash imkonini beradi.

Trello ning loyihalashtirishda afzalliklari.

- Soddaligi: Trello ning foydalanish uchun minimal o‘rganish jarayoni talab qilinadi, bu esa foydalanuvchilarga tezda boshlash imkonini beradi.
- Vizual interfeys: Loyiha jarayonini vizual tarzda ko‘rish orqali ishni boshqarish osonlashadi.
- Mobil moslashuvchanlik: Trello ning mobil ilovasi mavjud, bu esa foydalanuvchilarga istalgan joydan va vaqtdan qat’i nazar loyihani boshqarish imkonini beradi.
- Ko‘p foydalanuvchi imkoniyati: Bir nechta foydalanuvchi bir vaqtning o‘zida bir taxta ustida ishlashi mumkin, bu esa hamkorlikda ishlashni samarali qiladi.
- Integratsiya: Trello boshqa mashhur dasturlar bilan integratsiya qilinishi mumkin, bu esa loyiha boshqaruvini yanada qulay qiladi.

Trello - bu loyihalashtirish jarayonida samarali va qulay vosita bo‘lib, u jamoaviy ishni optimallashtirish, vazifalarni taqsimlash, vaqtni boshqarish va

loyiha progressini kuzatishda muhim rol o‘ynaydi. Uning intuitiv interfeysi va ko‘p funksiyalari loyiha boshqaruvchilariga har qanday loyihani muvaffaqiyatli boshqarish va tezkor yechimlarni ishlab chiqishda yordam beradi. Trello ning afzalliklari uni loyihalashtirish jarayonida keng qo‘llashga imkon yaratadi, ayniqsa, dinamik va jamoaviy ishlashni talab qiladigan loyihalarda.

Loyihalashtirish kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli ta’lim vositalarining ahamiyati

Raqamli ta’lim vositalari loyihalashtirish kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi asosiy afzalliklarni taqdim etadi:

1. Hamkorlikda ishlashni o‘rgatadi: Ko‘p sonli elektron ta’minotlar o‘quvchilarga jamoaviy ishlarni rivojlantirish, fikr almashish va resurslarni taqsimlashni o‘rgatadi.

2. Ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi: Vizual va interaktiv vositalar o‘quvchilarni yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga undaydi.

3. Qaror qabul qilish va muammolarni hal qilishga tayyorlaydi: Raqamli vositalar yordamida o‘quvchilar muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topishda ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

4. Ma’lumotni tahlil qilish va boshqarishni o‘rgatadi: O‘quvchilar raqamli vositalar yordamida katta miqdordagi ma’lumotlarni tahlil qilish va samarali boshqarishni o‘rganadilar.

Xulosa. Raqamli ta’lim vositalari o‘quvchilarning loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilar yaratish, tahlil qilish, rejalashtirish va boshqarish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilarga yordam beradigan elektron ta’minotlar orqali nafaqat akademik muvaffaqiyatlarga erishish, balki kelajakda yuzaga keladigan real muammolarni hal qilishga tayyorlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Jonassen, D. H., & Reeves, T. C. (1996). Learning with technology: Using computers as cognitive tools. In D. H. Jonassen (Ed.), Handbook of Research on Educational Communications and Technology (pp. 693-719).

2. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017-1054.

3. Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. T. (2010). Teacher Technology Change: How Knowledge, Confidence, Beliefs, and Culture Intersect. Journal of Research on Technology in Education, 42(3), 255-284.

4. Savery, J. R. (2006). Overview of Problem-Based Learning: Definitions and Distinctions. Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning, 1(1), 9-20.

5. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. San Rafael, CA: Autodesk Foundation.

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA INDIVIDUALLIGINI TA’MINLASH IMKONIYATLARI

Davletov E.Yu.
“Ma’mun universiteti” NTM “Umumkasbiy fanlar” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Tayanch so‘zlar: tayanch kompetensiyalar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, individuallik, hulq-atvor, iqtidor, layoqat, pedagogik hamkorlik, ijodkorlik, faoliyat, izlanish, kasbiy tafakkur, didaktik vositalar.
Ключевые слова: основные компетенции, учащиеся начальных классов, индивидуальность, темперамент, достоинство, педагогическое сотрудничество, творчество, деятельность, исследование, профессиональное мышление, дидактические средства.
Key words: basic competences, pupils of primary classes, individuality, temperament, dignity, pedagogical cooperation, creativity, activity, research, professional thinking, didactic means.

Резюме:
Ushbu maqolada tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individualligini ta’minlash imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. SHuningdek, maqolada o‘qituvchi faoliyati, uni demokratlashtirish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan, xalqaro tajribalardan saralab foydalanish, o‘quvchi iqtidori, individualligining komponentlari, hayotiy tayanch kompetensiyalar bayon qilingan.
Резюме:
В данной статье было высказано представление о возможностях обеспечения индивидуальности младших школьников в процессе формирования базовых компетенций. В статье также показана деятельность педагога, описаны направления ее демократизации, использование сортировки из международного опыта, читателя, компоненты индивидуальности, основы жизнедеятельности.
Summary:
In this article, an idea was made about the possibilities of ensuring the individuality of Primary School students in the process of formation of base competences. The article also shows the activities of the teacher, the directions of its democratization, the use of sorting from international experiences, the reader, the components of individuality, the base of life are described in the article.

Maktab ta’limini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi[1]da o‘quv tarbiya jarayonida o‘quvchilarning individualligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki har bir shaxs o‘zining boshqalarga o‘xshamaydigan

betakror xususiyatlari va layoqatlariga ega. Shuning uchun ham o‘quvchilarga bilimlarni frontal tarzda taqdim etish tizimidan asta sekin voz kechib ularning individual layoqatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan modulli o‘qitish tizimiga o‘tish, tayanch kompetensiyalarni o‘zlashtirish natijasida individual ta’lim traektoriyalarini tanlashlariga erishish, o‘qituvchining kasbiy faoliyati, pedagogik tafakkurini ushbu maqsadga yo‘naltirish alohida ahamiyatga ega.

Ma’lumki, so‘nggi vaqtlarda pedagoglarni ortiqcha yuklamalardan ozod qilish, butun kuch-g‘ayratini o‘quvchilarga bilim berish va ularning iqtidorlarini ro‘yobga chiqarishga safarbar etish sohasida katta ishlar amalga oshirildi.

Oliy pedagogik ta’lim va malaka oshirish jarayonida bo‘lajak pedagoglar va o‘qituvchilarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish, ularda kreativ dunyoqarashni shakllantirish tizimini joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Pedagogika sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlarini pedagoglarda kreativ dunyoqarashni shakllantirishga qaratish orqali o‘quvchilarning individual layoqatlarini ro‘yobga chiqarish mexanizmlarini ishlab chiqish xalqaro tajribalardan saralagan holda maqsadga muvofiq tarzda foydalanish, bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini va xalqning milliy mentaliteti[2]ni hisobga olish zaruriyati kuchaymoqda.

Ilg‘or o‘qitish metodlari tajribalar va novatorlik yondashuvlarini qo‘llashda ajdodlarimiz merosiga murojaat qilish ham alohida ahamiyatga ega. Chunki ota-bobolarimiz yosh avlodning layoqatlarini shakllantirishda ularning individualligiga e’tibor qaratganlar.

Pedagogika ensiklopediyasida “individuallik – 1) muayyan hodisa va narsa, shaxs va jonivorning o‘zigagina xos, betakror, xususiy belgilari; 2) inson ruhiyatining o‘ziga xosligi, betakrorligini ifodalovchi atama” sifatida talqin qilingan[3; 84-b.].

Individuallik tushunchasi doirasida shaxsning integratsiyalashgan o‘ziga xosligi tushuniladi. Individuallik deganda shaxsning layoqatlari, o‘zligi, ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishini ta’minlaydigan imkoniyatlari, turmush tarzi va o‘ziga nisbatan ijodiy munosabatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ijtimoiy va tabiiy muhitni o‘rganishga bo‘lgan intilishlari tushuniladi. Ushbu xususiyatlar har bir shaxsning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

Har bir shaxs o‘ziga xos betakror. Shuning uchun ham o‘z rivojlanishining individual yo‘liga ega. Pedagoglar va ota-onalarning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning o‘z xususiyatlarini to‘liq namoyon qilishlariga sharoit yaratishdan iborat.

Ma’lumki, maktab ta’limi o‘quvchining quvonchlari, muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligining asosiy manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham maktab

va unda faoliyat ko‘rsatuvchi pedagoglar o‘quvchilarning rivojlanishlari uchun asosiy omil vazifasini o‘taydilar. O‘quvchi o‘z kundalik hayotining katta qismini maktabda o‘tkazadi. Agar o‘quvchilar maktabda muvaffaqiyat qozonsalar, ularda tayanch hayotiy kompetensiyalar samarali shakllanib, ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishlariga asos bo‘ladi. Buning uchun o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar uzoq muddat davomida qattiq mehnat qilishlari kerak. Shuning uchun ham har bir o‘quvchi muvaffaqiyatga erishish maqsadida mehnat qilishi, ushbu jarayonda duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi.

Shunisi ayonki, tabiat ta’lim-tarbiyaga nisbatan shaxsga kuchliroq ta’sir etuvchi omildir. Shuning uchun ham tabiat ta’limning asosini tashkil etadi. Maktab ostonasiga qadam qo‘ygan har bir o‘quvchida o‘ziga xos tabiiy iqtidor mavjud. Ta’limning asosiy vazifalaridan biri mana shu iqtidorni pedagogik faoliyat va didaktik vositalar uyg‘unligida ro‘yobga chiqarishdan iborat. O‘qituvchilar o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan iqtidorni tarbiyalashlari va ularda etishmaydigan faoliyat tajribasini shakllantira olishlari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik faoliyati o‘ta murakkab, mas’uliyat doirasi keng, katta mehnat va kuch sarflashni talab qiladigan xodisadir. Shu bilan bir qatorda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash juda maroqli va qiziqarli. Bu jarayonda dastlab o‘quvchilarda muloqot kompetensiyasi shakllanadi. Mazkur muloqot jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasida pedagogik hamkorlik muhiti vujudga keladi. Hamkorlik jarayonida o‘quvchilarda o‘z-o‘zini namoyon qilish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Bu esa ularning o‘ziga xos layoqatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay vaziyatni vujudga keltiradi.

O‘quvchilarning individual xususiyatlarini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat rejali tarzda amalga oshirilib, quyidagi muammolarga yechim topishga yo‘naltiriladi:

- o‘quvchilarning intellektual, axloqiy, kommunikativ, estetik va jismoniy layoqatlarini namoyon qilishlariga ko‘maklashish;
- kundalik hayotiy faoliyat davomida o‘z iqtidorlarini va ijodkorliklarini namoyon qilishlariga yordam berish;
- o‘quvchining o‘z-o‘zini anglashga intilishini qo‘llab-quvvatlash kabilar.

Ta’lim-tarbiyaviy faoliyatning mazmuni fidoiylik, fuqarolik va axloqiy tarbiya yo‘nalishlarini mujassamlashtiradi. Shuningdek, ularda xulq-atvor madaniyati, ekologik faoliyat ko‘nikmalari, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, ijodkorlikni shaklantirishga ham yo‘naltiriladi.

Individuallikning asosini o‘quvchilarda o‘zi va kundalik turmush tarziga nisbatan ijodiy munosabat tajribasiga ega bo‘lish tashkil etadi. Ushbu tajriba hayotiy tayanch kompetensiyalar orqali namoyon bo‘ladi. Aynan mazkur kompetensiyalar shaxs faoliyati va tafakkurining o‘ziga xos uslubi, xulq-atvorning individual shakli va yo‘llarini tanlash, atrofdagilarga nisbatan munosabat usullarini o‘zlashtirishga asos bo‘ladi.

Individuallikning tarkibiy qismlari sifatida shaxsning iqtidori va layoqatlari namoyon bo‘ladi. Uning namoyon bo‘lishi asosida muayyan o‘quvchining individualligi haqida fikr yuritish mumkin. Xuddi shu iqtidor va layoqatlar o‘quvchining qiziqishlari va mashg‘ulotlari sohasini belgilaydi. Tayanch kompetensiyalarning sifati ham o‘quvchilarning qiziqishlari sohasi bilan bevosita bog‘liq. Muayyan faoliyatga nibatan barqaror qiziqish va ushbu faoliyatda o‘z layoqatlarini namoyon etish shaxsning o‘ziga xos uslubini belgilab, hayotiy faolyaitining betakrorligini ta’minlaydi.

Mayllar va layoqatlar individuallikning namoyon bo‘lishi va rivojlanishiga asos bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining muhim vazifalaridan biri har bir o‘quvchining o‘ziga xos betakror jihatlarini ilg‘ay va aniqlay olishdan iborat. Bu individuallikning asosi bo‘lib, muayyan yoshdagi o‘quvchining muvafaqiyatlari va faoliyat uslubini belgilaydi. Ushbu muvaffaqiyat o‘quvchidagi tabiiy iqtidorning yorqin namoyon bo‘lishiga asos yaratadi. Har bir shaxsda ijtimoiy-madaniy tajriba mavjud bo‘lib, ushbu tajriba o‘zida bilim, ko‘nikma, malaka va tayanch kompetensiyalarni mujassamlashtiradi. Ushbu bilim ko‘nikmalarning asosini shaxsning o‘zini anglashi, namoyon qilishi va faoliyatini tashkil etishi belgilaydi. Ushbu tajribaning nechog‘li boyligi o‘quvchining o‘ziga xosligi va individualligini ko‘rsatadi.

Navbatdagi yo‘nalish shaxsning axloqiy yo‘nalganligidir. U jamiyatda qaror topgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq holda shakllanadi.

Muhim komponentlardan yana biri shaxsning ijodiy faolligidir. Ijodkorlik mavjud bo‘lmasa, shaxsning individualligi ifodalanmaydi. Bunday shaxslar umumiy jihatlarga ega bo‘lib, ularning mavjudligini farqlash murakkabdir. O‘qituvchi shaxsning individualligini aniqlash va namoyon bo‘lishiga ko‘maklashish uchun kreativ kasbiy faoliyat tajribasiga ega bo‘lishi lozim. O‘quvchilarni kundalik hayotiy faoliyatga tayyorlash, ularning individualligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarni kundalik faoliyatga tayyorlash kompetensiyaviy yondashuvning asosini tashkil qilib, maktabdagi o‘quv-tarbiya jarayoni aynan shu maqsadga yo‘naltiriladi. O‘quvchilarga umuminsoniy madaniyat boyliklari va tarixiy tajribalarni taqdim etish orqali ularni rivojlantirish va ijodiy

faollikka undashga yo‘naltirilgan faoliyat amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda o‘quvchining faoliyati tarkib topadi.

O‘quvchilarning kundalik hayotiy faoliyatini shakllantirishda oila ham muhim o‘rin egallaydi. Buning uchun ota-onalar o‘quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida doimiy izlanishlari lozim. Chunki oila o‘quvchilarda kundalik hayotiy faoliyatni shakllantirishda juda katta intellektual imkoniyatlarga ega. O‘qituvchining muhim vazifalaridan biri oila bilan o‘quv jarayoni aloqadorligini ta’minlash, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini ham hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga muvaffaqiyatli yo‘naltirishdan iborat. Bunday yondashuv o‘quvchilarda kundalik hayotiy tajribani shakllantirish bilan bir qatorda ularning salomatligini mustahkamlab, aqlini charxlaydi. O‘z iqtidorlarini namoyon qilishlari uchun qulay pedagogik vaziyatni vujudga keltirishga hizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori. https://lex.uz

3. Педагогика: энциклопедия. II жилд. жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2015. 376 бет.

4. Davletov E. Y. The role of basic and science competences in supporting pupils’maturity //Central Asian Problems of Modern Science and Education. – 2018. – Т. 3. – №. 3. – С. 208-211.

5. Davletov E.Y. O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 5. – С. 377-382.

6. Davletov E.Y. Social-Pedagogical and Psychological Aspects of Forming Initial Classes Students' Basic Competences. Eastern European Scientific Journal, 2018, No. 5, pp. 290-294.

7. Davletov E.Y. Methods and Factors of Development of Students’ Information-Communicational Competences during Math Classes. Eastern European Scientific Journal, 2018, No. 1, pp. 36-39.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA RASM ASOSIDA HIKOYA QILISH MASHQLARI KREATIVLIKNI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Niyozmatova U.
O‘zbekiston tumani, 67-maktab o‘qituvchisi
Isaqov Z.
Qo‘qon DPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Tayanch so‘zlar: 4K tamoyili, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, bayon, ijodiy bayon, kreativlik.
Ключевые слова: принцип 4К, сотрудничество, коммуникативное, творческое мышление, критическое мышление, высказывание, творческое высказывание, творчество.
Key words: 4K principle, cooperation, communication, creative thinking, critical thinking, expression, creative expression, creativity.

Резюме:
Maqolada boshlang‘ich sinf “Ona tili” darsliklarining zamonaviy talablar asosida yaratilganligi tahlil qilinadi. Ona tili darslarida rasm asosida hikoya qilish mashqlarini bajarish orqali mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning kreativligini oshirishning dolzarb metodlari yuzasidan amaliy tavsiyalar beriladi.
Резюме:
В статье анализируется создание учебников «Родной язык» начального класса с учетом современных требований. Даны практические рекомендации по актуальным методам повышения творческой активности учащихся на занятиях путем выполнения упражнений по рассказыванию историй по картинкам на занятиях родного языка.
Summary:
The article analyzes the creation of textbooks "Native Language" for primary school taking into account modern requirements. Practical recommendations are given on current methods of increasing students' creative activity in the classroom by performing exercises on telling stories from pictures in native language classes.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimining 4K tamoyiliga asoslanganligi hech kimga sir emas, albatta. Bu degani ta’lim faqat maktab, imtihonlar va yoki fan-texnika rivoji uchun emas, balki, inson uchun, uning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ham xizmat qilishini anglatadi[5,201]. Quruq yodlash, o‘qib-yozish, bir so‘z bilan aytganda, olingan

bilimlarning faqat nazariyada qolib ketishi “o‘zini oqlamagan” tizim sifatida bugungi ta’lim lug‘atidan chiqib ketayotgan tushunchalardir.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda “4K” modelini o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Mamlakatimizda maktab o‘quvchilari uchun 4K tamoyiliga asoslangan yangi avlod darsliklarining amaliyotga kiritilishi ham xuddi shu maqsadlarni ko‘zlagan bo‘lib, bunda asosiy e’tibor har bir o‘quvchi uchun maktabda olingan bilimlarning hayot maktabida ham o‘rni va manfaati bo‘lishiga qaratilgan. Qolaversa, har bir o‘rganilgan material o‘quvchilar dunyoqarashini oshirishga, kreativ va mantiqiy fikrlash ko‘lamini kengayishiga asos bo‘lishi kerak.

Avvalo, 4K tamoyili mohiyatini ochiqlab olsak. 4K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kommunikativlik: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Kreativ fikrlash: O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi, mantiqiy fikrlash nuqtayi nazarini shakllantiradi.

“4K” modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo‘llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko‘nikmasi esa savol-javoblar va mashg‘ulotlar orqali rivojlanadi.

Shuningdek, zamonaviy ta’limdan kutilayotgan eng asosiy natija bu bolalardagi yangilik yaratish va ijodkorlik sifatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshirishdan iborat. Bu natijaga erishishda esa, boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida berilgan rasm asosida hikoya qilish mashqlari alohida ahamiyatga ega.

Rasm asosida hikoya tuzish nafaqat bugungi kunda balki, o‘tgan asrlarda ham pedagoglar tomonidan eng ko‘p murojaat qilingan metodlar toifasiga kirgan. Buni biz 1990-yil nashr etilgan Fred Ligon, Elizabet Tannenbaum va Carol Richardson Rodgers tomonidan yaratilgan “Picture stories” kitobi[8] orqali ham bilishimiz mumkin. Bu kitob ingliz tilini bilmaydigan yoki endi o‘rganuvchilar uchun ham manfaatli bo‘lib, unda rasm asosida hikoya qilish orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish va ularda kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan. Bundan tashqari, Stiv Boukett tomonidan yaratilgan “Developing literacy and creative writing through storymaking” kitobida[9] ham bolalarda savodxonlik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rasm asosida hikoya tuzish orqali oshirish yo‘llari belgilab berilgan.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalardan tashqari siz bu haqida turli ijtimoiy tarmoq saytlaridan ham kerakli ma’lumotlarni topishingiz mumkin. Birgina www.pinterest.co.uk sayti[10]ga 2024-yil yarmiga qadar 740 ta rasm asosida hikoya tuzishga mo‘ljallangan suratlar joylangan bo‘lib, bu ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan eng ko‘p yuklangan ma’lumot sifatida qabul qilingan.

O‘zbekistonda ham rasm asosida hikoya qilishning metodologik asoslari chuqur bo‘lmasa-da, ko‘p o‘rganilgan sohalar qatoriga kiradi. Jumladan, JDPI katta o‘qituvchisi, (PhD) Shohida Siddiqovaning “Boshlang‘ich sinflarda rasm asosida matn tuzish[7]” mavzusi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borganini ko‘rishimiz mumkin.

Rasm asosida matn yaratish mashqlari maktabgacha yoshdan boshlanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar hali o‘qish-yozishni bilmasdan turib, rasm asosida tarbiyachi yordamida og‘zaki hikoyalar tuzadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishdir.

Maktab miqyosida esa bu metod nisbatan kam ishlatiladigan metod bo‘lib, ko‘pgina yangilanishlarga muhtoj. Agar ushbu mashq turlaridan katta yoshli o‘quvchilar o‘rtasida ham amalda ko‘proq foydalanilsa, bolalarning umumiy rivojlanishi uchun ayni muddao bo‘lardi.

Quyida rasm asosida hikoya tuzishga oid topshiriqlar mazmun-mohiyati, amalga oshirish bosqichlari va amaliy ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

Bolalarni hikoya qilishga o‘rgatish uchun narsa-buyumlarni tasvirlovchi predmetli rasmlardan, sujetli rasmlardan, reproduksiyalardan, peysaj va naturmort, etud rasmlardan foydalaniladi. M.M.Konina bolalarni rasmlarga qarab hikoya qilishga o‘rgatishning quyidagi mashg‘ulot turlarini ajratib ko‘rsatadi[6]:

1) narsa-buyumlarlarni tasvirlovchi rasmlar bo‘yicha tasviriy hikoya tuzish;

2) voqeaband rasmlar bo‘yicha tasviriy hikoya tuzish;

3) voqealar ketma-ket keladigan rasmlar to‘plami asosida hikoya tuzish;

4) peyzajli (manzarali), naturmort rasmlar bo‘yicha tasviriy hikoya tuzish.

Rasm asosida hikoya qilishda oltin qoida – bu “Nima? Qachon? Qayerda? Nima uchun?” kabi savollariga javob topish.

Rasmga asoslanib, hikoya qilish bu kreativ jarayon bo‘lib, unda o‘quvchi tasvirga o‘z so‘zlari orqali jon kiritadi. Ushbu jarayonda o‘quvchilar quyidagilarga e’tibor qaratishi talab etiladi:

Rasmni diqqat bilan kuzatish. Har bir detal, qahramon, makon va zamon elementlari va rasmdan anglashilib turgan hissiyotni o‘rganing.

Asosiy g‘oya, qarama-qarshilik va rasm yetkazmoqchi bo‘lgan xabarni aniqlash. Bu sizga umumiy syujet va yo‘nalishni shakllantirishga yordam beradi.

Obrazlarni jonlantirish. Rasmda berilgan shaxslar yoki jonzotlar shaxsiyati, kayfiyati va tarixi haqida tasavvur hosil qiling. Ularni qog‘ozda jonlantiring.

Voqea sodir bo‘layotgan joy, vaqt va atrof-muhitga oid holatni tasvirlang.

Hodisalar ketma-ketligini tartiblash. Rasmga bog‘liq holda hikoyaning kirish, o‘rta va tugallanish qismlarini ishlab chiqing.

Hissiy tafsilotlarni qo‘shish. Tovush, hid va boshqa hissiy tafsilotlar orqali o‘quvchini hikoya olamiga olib kirish yanada osonlashadi.

Aytma, ko‘rsat! O‘quvchiga nima bo‘layotganini birma-bir aytmasdan ko‘rsating.

Rasmli ma’lumotni yozma yoki og‘zaki asarga samarali aylantirganingizga ishonch hosil qilish uchun qayta ko‘rib chiqing, kerakli joylarini qayta tahrirlang.

Kitob o‘qish yoki televizor ko‘rish imkoniyati berilgan har bir bola, albatta, ko‘rish orqali o‘rganishni tanlaydi. Sahifalardagi so‘z qudrati cheksiz, albatta, lekin kichik yoshdagi bolalar uchun visual ma’lumotlar tasavvurlarini boyitishga ko‘proq xizmat qiladi. Bir rasm o‘zida minglab so‘zlarni aks ettira oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun 2023-yil “Novda” nashriyoti tomonidan nashr etilgan umumta’lim maktablari uchun darsliklar[1;2;3;4] jahon standartlariga to‘la mos ravishda “4K” modeliga asoslangan holda yaratilgan bo‘lib, undagi mavzular doirasi avvalgi darsliklardan tubdan farq qiladi. Xususan, boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida nafaqat o‘quvchilar tilshunoslik tushunchalarini balki, yoshiga mos ravishda mavzuga yaqin yondosh mavzularni integratsiyalashgan tizim orqali ham o‘rganib boradi. Bu

boshlang‘ich sinflarda berilayotgan bilimlarning tartibli, izchil, yaxlit bo‘lishiga va o‘quvchi tasavvurida bir butunlik kasb etishi bilan ahamiyatlidir.

Qolaversa, ona tili darsliklarida 4K tamoyili asosida rasmga oid matn yaratish mashqlarining ko‘pligi o‘quvchilar nutq madaniyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 1-sinf ona tili darsliklarining har ikkala qismi bo‘yicha rasm asosida matn yaratish mashqlari 15 tani tashkil etadi. Sinf darsliklaridagi rasm asosida matn tuzish topshiriq quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Sinfi	1-qism	2-qism	3-qism	4-qism	Jami:
1-sinf	6	9	-	-	15
2-sinf	7	6	6	10	29
3-sinf	9	7	6	7	29
4-sinf	6	7	6	3	22
Jami:	95				

Rasm asosida yozma matn tuzish mashqlari 1-sinf ona tili darslaridan boshlangan bo‘lib, bu savod o‘rgatishdan keying davrga to‘gri keladi. Savod o‘rgatish darslarida ham bu mashq turidan unumli foydalanish mumkin. Lekin bunda o‘quvchilar matnni faqat og‘zaki ravishda tuza oladi. Matn tuzish topshiriqlari 2 xil usulda berilishi mumkin: 1) bir rasm asosida; 2) voqealar ketma-ketligini ifodalovchi bir nechta rasm asosida.

Bir rasm asosida matn tuzish mashqlari ona tili kitobining ilk darslarida berilgan. Shartida aynan matn tuzing, deyilmagan bo‘lsa-da, “Rasmni ta’riflang”, “Rasm asosida gaplar tuzing” kabi jumlalardan foydalanilgan.

1-sinf 1-qism ona tili darsligining “Matn tuzish” bo‘limi[1]da esa voqealar ketma-ketligiga asoslangan 4 ta mavzuda seriyali rasmlar berilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar matn tuzish bilan birga unga sarlavha topish va reja asosida matn yaratish haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

Ona tili darsligining 2-sinf 4-qism[2] 79-sahifasida berilgan 13-mashq boshqa darsliklardagi topshiriqlardan ajralib turadi. Bu mashqning o‘ziga xosligi shundaki, o‘quvchilardan matn tuzish talab qilingan ushbu rasm oddiy emas, mashhur rassom Karavajoning “Mevalar solingan savatcha” nomli kartinasidir. Bu kabi san’at namunalarining darslikda berilishi va uni ta’riflash topshirig‘i bolalarda haqiqiy san’at asarlari namunalaridan bahramand bo‘lish va ularni tushunish imkonini beradi.

Bu mashq turlari barcha yoshdagi o‘quvchilar uchun mos keladi. Chunki u miyada yangiliklar yaratishga javob beruvchi qismlarni harakatga keltiradi. Misol uchun, agar darslikda biror ertak, hikoya yoki biror ilmiy-ommabop matn berilgan bo‘lsin. O‘quvchi u ma’lumotni tayyor holda qabul qiladi.

Talab etilsa, o‘qiydi, yozadi hamda unga oid topshiriqlarni bajaradi. Izlanish va qayta ishlash talab etilmasdan olingan ma’lumot miyaning xotira qismidan vaqtinchaga joy oladi. Biroq shu matn yoki asarga oid rasm, voqealar ketma-ketligini aks ettiruvchi rasmlar seriyasi berilsa-chi? Bunda bir hikoyaning o‘quvchilar nutqi va tasavvurida turli xil variantlari yaratiladi. O‘quvchi rasmni izohlash va kerakli so‘zlarni grammatik va mantiqiy to‘g‘ri bog‘lab matn holiga keltirish uchun izlanadi, fikr yuritadi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchi o‘ziga kerakli bilimga “mehnat qilib” erishadi.

Psixologlarning ta’kidlashicha, inson tafakkuri biror bir to‘siqqa duch kelsagina ishlaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchiga beriladigan barcha bilimlar, ma’lumotlar tayyor holda bo‘lmasdan, o‘quvchini fikrlashga, yaratuvchanlikka undaydigan topshiriqlar orqali berilishi maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro miqyosda o‘tkazilgan tajribalardan birida mutaxassislar o‘quvchilar qo‘liga bir tasvir berib uni sharxlashni so‘raydi. U surat qop-qora qog‘oz va o‘rtasida bitta oq nuqtadan iborat tasvir edi. Tajriba so‘nggida shu ayon bo‘ldiki, mutaxasislar qo‘lida ushbu eksperimentda nechta o‘quvchi qatnashgan bo‘lsa, mazkur rasm yuzasidan shuncha xil fikrlarga to‘la javob varaqalari paydo bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarimizdan ba’zi rivojlangan davlatlar bolalari kabi kreativ fikrlash, kashfiyotlar yaratishini kutishdan oldin, o‘quv dasturimiz, darsliklarimiz va metodlarimiz safiga manashunday mustaqil fikrlashni talab qiladigan mashq turlarini ko‘proq kiritishimiz, ularni to‘g‘ri fikrlashga emas, avvalo, fikrlashga o‘rgatishimiz kerak!

Adabiyotlar:

1. Yuldasheva D.Sh. Ona tili. 1-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
2. Kuranov S. Ona tili. 2-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
3. Toirova M.E. Ona tili. 3-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
4. Baynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili. 4-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
5. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh,. Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, – 2009. – 352 b.
6. https://cyberleninka.ru/article/n/nutq-va-uning-psixologik-jihatlati
7. https://jdpu.uz/mavzu-boshlangich-sinflarda-rasm-asosida-matn-tuzish/
8. https://www.ala.org/sites/default/files/advocacy/content/diversity/AmericanDreamBibliography.pdf
9. https://www.google.ru/search?newwindow=1&sca_esv=4dbd1c17396be272&sxsrf=ADLYWIK6LTmEGQ87poTF-kRaNt3uKmgD-A:1728540387944&q
10. www.pinterest.co.uk

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUV FANLARINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Jabborova O.M.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshtemirova D.D.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘quv fanlari, o‘qitish jarayoni, zamonaviy yondashuvlar, metodik tahlil, tashhislash, bilim, ko‘nikma, malaka.
Ключевые слова: начальный класс, учебные дисциплины, учебный процесс, современные подходы, методический анализ, диагностика, знания, умения, навыки.
Key words: primary school, academic disciplines, educational process, modern approaches, methodological analysis, diagnostics, knowledge, skills, skills.

Резюме:
Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari muammosi to‘g‘risida fikr yuritilgan va mualliflarning yondashuvlari taqdim etilgan.
Резюме:
В статье рассмотрена проблема современных подходов к преподаванию учебных предметов в начальных классах и представлены подходы авторов.
Summary:
The article examines the problem of modern approaches to teaching subjects in primary schools and presents the approaches of the authors.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim sifatiga erishish vazifasi qo‘yilib amalga oshirilmoqda [1]. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari muammosini tadqiq etish va bu borada metodik tizimlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari mazmuni. Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim bosiqichda o‘quv fanlari quyidagi tarkiblar asosida o‘qitilayotganligini eslatib o‘tish lozim:

1) tabiiy fanlar;

2) aniq fanlar;
3) gumanitar fanlar.

Boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini bunday tarkibda o‘qitish metodik yondashuvlarning zamonaviylashtirib borishni taqozo etmoqda. Chunki har bir yo‘nalishdagi o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodikaga asoslanayotganligi ma’lum[2]. Misol uchun, Tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida shu o‘quv fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqib metodikalar tanlanmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim bosqichida rang-barang metodikalarga amal qilish yuzaga kelganligini ta’kidlash lozim. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarining davlat ta’lim standartlari va talablariga mos ravishda yagonalashtirilgan o‘qitish metodikalarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada boshlang‘ich ta’lim muammolari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni uyg‘unlashtirish, ularda ishlab chiqilayotgan nazariy-metodik yondashuvlarni amaliyotga tadbiq etish va boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitish bo‘yicha eng ilg‘or tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan oliy pedagogik ta’lim muassasalarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarning tadqiqot ishlarini ham uyg‘unlashtirib borish va eng muhim yondashuvlarni amaliyotga tadbiq etish kutilgan samarani beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari mazmuni ana shular bilan belgilanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganib borish zaruriyati. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha davlat ta’lim standartlari va talablarining mazmuniga ko‘ra, mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim bosqichida tipiklashtirilgan yondashuvlarga asoslanish taqozo etiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitish bo‘yicha yondashuvlarni o‘rganib borish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur masala bo‘yicha bizning yondashuvimiz quyidagilardan iborat:

1) o‘quv fanlarini o‘qitishni metodik tahlil qilib borish;
2) o‘quv fanlarini o‘zlashtirishni tahlil qilib borish;
3) o‘quv fanlarini o‘qitishning samaradorligini tashhislab borish.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quv fanlarini o‘qitishning metodik jihatdan tahlil qilib borilishi muhim masaladir. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodikasini o‘rganib borish, tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilg‘or metodikalarini monitoring qilish va mamlakat miqyosida boshlang‘ich ta’limda o‘quv fanlarini o‘qitishning yagonalashtirilgan metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayni paytda, o‘quv

fanlari turkumidan kelib chiqib metodikalarni individuallashtirishga ham e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni o'qitishda rang-barang metodikalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki gumanitar fanlar xususiyatlariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zlashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini tarkib toptirish taqozo etiladi. Shu sababli mazkur masalada asosli yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish lozim[3].

Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi masalasini ham tahlil qilish va bu borada zamonaviy yondashuvlarga asoslanish dolzarb bo'lib turibdi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlanib borish jarayonini o'rganib borish, ularda shakllanayotgan ko'nikmalarni kuzatib borish muhim ahamiyatga egadir. Chunki boshlang'ich sinf o'quv fanlari bo'yicha har yili yangi avlod darsliklari yaratilmoqda. Bunday darsliklardagi ma'lumotlar va ularning ifodalash usullarini tahlil qilib borish muhim ahamiyatga egadir. Chunki yangi avlod darsliklaridagi ma'lumotlarning muntazam yangilanib turishi boshlang'ich ta'lim samaradorligiga va o'quvchilarning yagonalashtirish o'zlashtirish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'quv fanlari bo'yicha yaratilayotgan yangi avlod darsliklarini ommaviy ravishda tahlildan o'tkazish va shundan so'ng undan foydalanishni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quv fanlari yangi avlod darsliklarini tayyorlashda ma'lumotlarni murakkablashtirish va ularning ifodalash metodikasini qiyinlashtirishdan voz kechish muhim ahamiyatga egadir. Umuman boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'zlashtirish masalasida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi.

Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitish samaradorligini tashhislab borish muhim ahamiyatga egadir. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qitish metodikasini, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini va o'quv fanlarini umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tashhislab borish muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, boshlang'ich ta'limda o'qitilayotgan aniq fanlarni o'qitish metodikasini tashhislash muhim ahamiyatga egadir. Chunki keyingi paytlarda boshlang'ich sinflarda aniq fanlarni o'qitishda yangicha yondashuvlar tarkib topib borayotganligi ma'lum. Masalan, ko'pchilik aniq fanlar o'qituvchilari individual yondashuv vositasida fan olimpiadalari dasturlari bo'yicha ham qo'shimcha o'qitish jarayonini tashkil qilayotganligi ma'lum. Shu jihatdan milliy va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan fan olimpiadalarining dasturlarini tashhislab borish va ularning boshlang'ich sinf o'quv fanlari dasturlariga

uyg‘unlashtirish metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, bunday metodika oliy pedagogik ta’lim muassasalari boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganish ahamiyati. Boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganib borish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Bunda quyidagi amaliy natijalarga erishish mumkinligini ta’kidlab o‘tish lozim:

1) boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitish bo‘yicha metodikalarni yangilanishga erishish;

2) boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning metodikalarini tipiklashtirish;

3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini ta’minlash.

Boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasini yangilab borish va bu borada asosli yondashuvlarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitish samaradorligini har bir o‘quv yilida o‘rganib borish muhim ahamiyatga egadir. Xorijiy mamlakatlarning tajribalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasini har 5 yilda yangilanib borilishi bu borada amaliy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Yangilanayotgan metodikada o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini joriy qilib borish ham muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan har bir o‘quv yili yakunida boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitish samaradorligi bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitish metodlarini tipiklashtirish dolzarb bo‘lib turibdi. Unga ko‘ra, o‘quv fanlarini o‘qitishning tajriba-sinovdan o‘tgan metodlarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayni paytda, mahoratli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodikalaridan tajriba-sinov asosida foydalanish boshlang‘ich ta’limda o‘qitishning tipiklashtirilgan metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bugungi kunda asosiy maqsad boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, ularning bilim va ko‘nikmalarin rivojlantirib borish jarayonini kuchaytirish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Buning uchun boshlang‘ich ta’limda tipiklashtirilgan metodlar majmuidan foydalanish kutilgan samarani berishini eslatib o‘tish joiz.

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim bosiqichidagi eng muhim masalalardan biri o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga erishishdir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limda o‘qitilayotgan tabiiy, aniq va gumanitar fanlar turkumini

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari teng ravishda o‘zlashtirishi kerak. Albatta bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishi va layoqati ham hisobga olinishi lozim. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitish va ularni o‘zlashtirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur masalada pedagogik ilmiy tadqiqotlarda bayon qilib kelinayotgan yondashuvlarni uyg‘unlashtirish va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatini yagonalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga erishish ta’minlanishini eslatib o‘tish lozim.

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari muammosi bo‘yicha nazariy va metodik tadqiqotlarni yaratish muhim ahamiyatga egadir. Bunday tadqiqotlar natijasida boshlang‘ich ta’lim sifatiga erishish yo‘nalishlariga ega bo‘linadi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www. ziyonet.uz

2. Jabborova O. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar. Darslik. – Toshkent, 2023

3. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish texnologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2021

TIMSS VA PISA NATIJALARI ASOSIDA TALABALARNING FUNKSIONAL SAVODLILIGINI TASHKILLASH BO'YICHA ASOSIY YO'NALISHLAR

Abdullayeva U'. T.
ChDPU.“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ta'lim, monitoring va baholash, savodxonlik, fikrlash, izoh, matn, vaziyat, savol.
Ключевые слова: **образование, оценка, грамотность, мышление, интерпретатsiя, текст, си**туatsiя, вопрос.
Key words: education, assessment, literacy, thinking, interpretation, text, situation, question.

Резюме:
Talabalarning funksional savodxonligini rivojlantirishda o'rganish dasturdagi har bir mavzu katta rolga ega. Shu jumladan qozoq tili adabiyotining alohida o‘rni bor.
Резюме:
Каждый предмет учебной программы играет важную роль в развитии функциональной грамотности учащихся. В частности, особое место занимают казахский язык и литература.
Summary:
Each subject of the curriculum plays an important role in the development of students' functional literacy.

Mamlakatimizda o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Funktsional savodxonlik - bu ta'lim va shaxsning ko'p rejalashtirilgan faoliyati o'rtasidagi uyg'unlashgan shaxsiy shaxsni shakllantirish ko'rsatkichidir. O‘zbekiston o‘sib kelayotgan avlodlar tafakkurini rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan rivojlangan davlatlardan biridir. Shu o‘rinda talabalarning ta’lim sifatini keng ko‘lamli baholash va tahlil qiluvchi xalqaro qiyosiy tadqiqotlarda ishtirok etish natijalarini ko‘rib chiqamiz. Mamlakatning xalqaro tadqiqotlardagi ishtiroki nimani beradi?

- ta'lim monitoringi va baholash tizimini isloh qilish;
- O‘zbekiston ta’lim tizimining jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuvi;
- ta’lim mazmunini yangilash, ta’lim sifatini nazorat qilishning o‘zbek tizimini yaratish;

- Bu milliy kadrlar malakasini oshirish imkonini beradi. Tadqiqot davomida dasturda ishtirok etuvchi mamlakatlarning xususiyatlarini aniqlash imkonini beruvchi omillar ham ko‘rib chiqiladi. Bu ta'lim jarayonini tashkil etish va oilada bolaning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni har tomonlama baholashdir. Ta’lim sohasida o‘z xususiyatlari bilan jahon darajasida tan olingan bir qancha xalqaro loyihalar mavjud. Ular orasida ta’lim tizimining taniqli ekspertlari bahosi asosida ob’ektiv mamlakatlarni mustaqil baholashni amalga oshiruvchi TIMSS, PISA xalqaro tadqiqotlari mamlakatimizda olib borilmoqda. PISA (Program for lnternational Student Assessment) xalqaro ta'lim 15 yoshli o'quvchilarning funktsional savodxonligini baholovchi Inson taraqqiyoti indeksining ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda o‘quvchilar bilimi 3 yo‘nalish (matematik savodxonlik, tabiiy fanlar savodxonligi, o‘qish savodxonligi) bo‘yicha baholanadi. Mamlakatimizda ta’lim tizimini yangilash borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jahon tajribasi tatbiq etilib, O‘zbekiston ta’lim tizimi yangi mazmun sari yo‘l oldi. Ta'lim tizimida o'qituvchining shaxs sifatidagi qiyofasi, uning kasbiy malakasi alohida. O'qituvchi ta'lim jarayonini yangilashda asosiy shaxsdir. Sifatli ta'limga olib keladigan ta'lim qanday bo'lishi kerak? O‘quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini ochib bera oladigan o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak? Bugungi kunda bu savollar nafaqat o‘qituvchilarni, balki ta’lim tizimi xodimlarini ham o‘ylantirmoqda. O'qituvchilarning aksariyati sinfda axborot tashuvchisi rolini o'ynaydi. Hozirgi vaqtda darsni tashkil etish sxemasi o'qituvchining yangi materialni tushuntirishi bo'lib, u talaba uchun etarli emas va samarasizdir. Sababi, talabaning o'quv jarayonida faol ishtirok etmasligi (passiv tinglovchi). Shu bois hozirgi kunda talabaning motivatsion qobiliyatini va o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish juda muhim. Bunday texnologiyalardan foydalanish uchun har bir o‘qituvchi o‘z kasbiy saviyasini oshirishi kerak. Shu nuqtai nazardan, malaka oshirish tizimi boshlandi. ta'lim tizimini takomillashtirish va jahon tendentsiyasiga mos ravishda ko'p vektorli dasturlar; ta’lim vositalari, malaka oshirish uchun raqamli ta’lim resurslari tayyorlandi[1]. O’qituvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishning ba’zi o’quv-uslubiy vositalarini sanab o’tamiz. "PISA international study", "TIMSS international study" va "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish sifatini PIRLS baholash" - uslubiy asboblar - matematika va fan va o'qish savodxonligi haqida muhim ma'lumotlar. Ushbu metodik vositalarda maxfiylik rejimidan

olib tashlangan test topshiriqlari namunalari va so‘rovnoma savollaridan foydalaniladi. PIRLS uslubiy vositasi 2016-yilgi xalqaro tadqiqotga samarali tayyorgarlik ko‘rish maqsadida o‘qituvchilarning katta jamoasi uchun mo‘ljallangan. Ushbu ta'lim vositalari oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilari uchundir talabalar, ta'lim ma'muriyatining bo'lim vakillari va ta'lim sifatini baholash masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan. Funktsional savodxonlikning yana bir mexanizmi ota-onalarning bolalarni o'qitish va tarbiyalashda faol ishtirokini ta'minlashdir. Ta’limning o‘quvchilar muvaffaqiyatiga ta’sirini baholash uchun PISA konsorsiumi xalqaro imtihon topshiruvchilardan ularning oilalarining madaniy kelib chiqishi haqida so‘radi. Bular talabalarning shaxsiy xonasi va dars stoli mavjudligi, kompyuter dasturlari (elektron darsliklar), internet, klassik adabiyot va ensiklopedik lug‘atlar, san’at asarlari (rasmlar) dan foydalanish imkoniyatlariga oid savollardir.

Kompyuterning nafaqat maktabda, balki uyda ham internet tarmog‘iga ulanganligi o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir (kerakli ma'lumotlarni olish va taqdim etilgan materialning mazmunini tushunish qobiliyati). Ya'ni, Internetdan faqat axborot ehtiyojlaridan kelib chiqib foydalanish kerak. Bolaning sog'lig'i, ruhiyati va ta'limiga ta'sir qiladigan saytlarga cheklovlar kerak. Yosh avlod ongini zaharlaydigan saytlarni cheklovchi maxsus xizmatlar mavjud. Masalan, “Ota-ona nazorati” xizmati salbiy kontentning ta’sirini imkon qadar cheklash va bolalarning axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan. Xizmatning asosiy vazifalaridan biri kerakli veb-saytlar ro'yxatini ishlab chiqishdir. Ushbu xizmat xavfli kontentga kirish huquqini bolaning yoshiga qarab cheklash imkonini beradi. Biroq bolaning tafakkurini kengaytirish, bilim olishiga yo‘l ochadigan intellektual saytlar mavjud. Masalan, aytish mumkinki, bugungi kunda o‘quvchilar 90 foiz ta’limni internetdan oladilar. Bu tez va yangi bilim manbai. Shuning uchun faqat undan foydalanish madaniyatini oshirish kerak. XXI asr shiddatli raqobat davri. O‘zbekistonlik o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari qatoriga o‘quvchi hayotida oilaning rolini hisobga olgan holda ta’lim tizimining mazmunini yangilash va pedagog kadrlarning kasbiy malakasini oshirish kiradi. Savodxonlik shaxsni yanada mustaqil ta'lim olish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy vositalardan biridir. Ushbu kontseptsiya uchta komponentdan iborat. Bu pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishi sifatida shaxsning o'qitish jarayonida o'rgangan narsani tushunish qobiliyatidir. Fan o’qituvchisi ishining amaliy tomoni berilgan savolga to’liq javob berish jarayonida o’quvchiga matnli ma’lumot berishdan iborat. undan foydalanishni

o‘rgatishdir. Va eng muhimi, o'quvchi faoliyatining asosiy ko'rsatkichi sifatida fikrlash qobiliyatidir. PISA testi maktab bitiruvchisining o‘qish savodxonligi bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda maktab ta’limi sifatini baholash sohasidagi xalqaro ekspertlar nuqtai nazaridan muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni aniq belgilab berdi. O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash uchun matnda keltirilgan ma’lumotlarni solishtirish, muallifning fikrini bilish, javob tayyorlashda dunyo haqidagi o‘z fikriga tayanish, o‘z fikrini himoya qilish uchun dalillar keltirish tavsiya etiladi. Matn, vaziyat va savol savodxonlikni baholashning uchta asosiy parametridir. O'quv materiallari assortimenti turli formatlarda - badiiy adabiyotda taqdim etilgan va ilmiy ommabop matnlar, rasmiy hujjatlar, jamoat ahamiyatiga ega bo'lgan voqealar haqidagi ma'lumotlar, jadvallar, rasmlar, chizmalar va xaritalar. PISA matnlarining o‘ziga xosligi ular bayonining haqiqiyligidir (hayotdan olingan misollar). Bunda ushbu tadqiqot yo‘nalishida test savollari sifatida badiiy matnlardan ham foydalaniladi. PISA tadqiqotida o'qish savodxonligi tushunchasi o'quvchilarning yozma matnlarni tushunish qobiliyati va mulohaza yuritish, ularning mazmunidan o‘z maqsadlariga erishish uchun foydalanish, jamiyatning faol hayotida ishtirok etish uchun bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish deb tushunish mumkin. O’quvchilarning o’qish malakalarini tekshirish o’qish texnikasi yoki matn mazmuniga xosdir U tushunishni baholashga emas, balki o'qish jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini baholashga qaratilgan. O'qish savodxonligini baholashda uchta jihat e'tiborga olinadi:

- o'quv materiallarining formati;
- vazifa turi;
- matnning konteksti yoki maqsadi. O‘quv jarayonida matnni to‘liq anglaganligini va o‘zlashtirish darajalarini isbotlovchi mashqlar baholanadi: ma’lumot topish, matnni tushuntirish, matn mazmuni yoki uning shakli haqida fikr yuritish va ularni baholash. Taklif etilayotgan matnlar uch turga bo'linadi:
- butun matnlar (badiiy adabiyot matnlari);
- to‘liq bo‘lmagan yoki bo‘sh matnlar (xat, reklama, diagramma, jadval, bannerdagi eslatmalar, xabar, e’lon, fotosuratlar va boshqalar);
- aralash matnlar (ilmiy asarlar, avtobiografiyalar, gazetalardagi maqolalar va boshqalar) matndan ma'lumot topish, matnni ko'rib chiqish, uning asosiy elementlarini aniqlash va savol emas, balki zarur (sinonim) shaklni tasvirlash qobiliyatini baholash uchun Vazifalar ma'lumot qidirish uchun ishlatiladi. Talabalarning matnni tushuntirish qobiliyatini

baholashda matnda berilgan turli ma’lumotlarni solishtirish, muallif bayon qilgan fikrlardan xulosa chiqarish yoki matn mazmunini tushunish tavsiya etiladi. Matn mazmuni yoki shakli bo'yicha aks ettirishni baholash uchun talaba topshiriqni bajarishi kerak jarayonida ularning matndagi ma’lumotlarni boshqa joydan olgan bilimlari bilan bog‘lay olishiga, matnda keltirilgan ta’kidlarni hayotga qarashlari bilan bog‘lab, isbotlashiga e’tibor qaratiladi. So‘nggi yillarda badiiy matnni talqin qilish muammosi jurnalist o‘qituvchilarning turli jihatlari bilan diqqat markazida bo‘lmoqda. “Talqin” so‘zining lug‘atdagi ma’nosi “tushuntirish”, “tushuntirish”, ma'nosini bildiradi. Ingliz va frantsuz tillarida “interpret” bir vaqtning o‘zida “tarjima” ma’nosini bildiradi va mustaqil ravishda “tushuntirish, muhokama qilish” degan ma’noni anglatadi. Matnni talqin qilish bu matn mazmunini ochib berish demakdir. Natijada, har qanday matnni o'qish, har qanday so'zni umumiy qabul qilish (faqat odam o'qigan yoki eshitgan narsalarini tushunsa) talqindir. Matnni ma'lum darajada talqin qilish chuqur, ma'lum darajada to'liq bo'lishi mumkin. Matnni tadqiqot faoliyati yoki o'quv amaliyoti sifatida talqin qilishning asosiy vazifasi - matndan iloji boricha ko'proq ma'lumot olish, muallif tomonidan matnga yuklangan mazmunni, shuningdek, muallifga nisbatan qo'yilgan mazmunning ma'nosini tushunishdir. nafaqat o'zi uchun, balki boshqalar uchun ham bo'ladi. Cheklangan makonda tilning badiiy matni imkoniyatlaridan sezilarli darajada oshib ketadigan axborot hajmini jamlaydi. Demak, badiiy asarni talqin qilishning ma’nosi matnni bir butun sifatida tushunish va tushuntirish, shuningdek, uning har bir tafsiloti butun asarni yoki butun asarni bir kichik detalda aks ettiruvchi qandaydir tizimni tushunishdan iborat. Izoh lisoniy birliklarning semantikasida o‘z ifodasini topgan asarning konseptual mazmuni mazmunini o‘rganishga yo‘l ochadi. O'qish savodxonligining tarkibiy qismlari quyidagicha tahlil qilinadi: PISA dasturining o'qish savodxonligi komponentlari 3 turga bo'linadi:

1. Vaziyat.
2. Matn.
3. Aspekt matn, vaziyat va savol o'qish savodxonligini baholashning 3 asosiy o'lchovidir. O'quv materiallari turli formatlarda, xususan, badiiy va ilmiy-ommabop matnlar, rasmiy hujjatlar, ommaviy voqealar haqidagi ma'lumotlar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar va xaritalarda taqdim etiladi.

1-komponent - vaziyat: Vaziyat toifalari: shaxsiy foydalanish uchun o'qish, ommaviy foydalanish uchun o'qish (ommaviy foydalanish), bilim uchun o'qish

va o'qitish uchun o'qish. Vaziyatlarda sodir bo'ladigan hayotiy hodisalar-vazifalar. Shu munosabat bilan, PISA dasturida vaziyatlarning yoritilishi: -30% shaxsiy vaziyatlar, -30% ijtimoiy vaziyatlar, -25% ta'lim holatlari, -15% vaziyatning 4 ta xususiyati mavjud: 1. shaxsiy toifa (insonning intellektual qiziqishini qondirish uchun mo'ljallangan matnlar, ya'ni shaxs haqidagi tadqiqotlar, shaxsiy xatlar, tarjimai hol);

2. ommaviy toifa (jamiyatning umumiy muammolari va faoliyatiga oid matnlar, rasmiy hujjatlar, voqealar haqidagi ma'lumotlar, ommaviy xabarlar);

3. ta'lim, ta'lim toifasi (qoidalarga muvofiq, maxsus ta'lim uchun darsliklardagi matnlar, ma'lumot to'plash, bilim uchun o'qish); 4. kasbiy toifa (ish, kasb-hunarga oid matnlar, muayyan muassasaga tegishli qoidalar tilga olinadi). 2-komponent - Matn: Matn shakli (shakl) 4 ga bo'linadi. 1. To‘liq matn (badiiy adabiyot, reportaj, she’r, asar, maqola, munajjimlar bashorati, texnik matn, qonun, ilmiy asos, ko‘rsatma matnlari) 2. Diskret (to‘liq bo‘lmagan) matn (grafika, jadval, rasm, diagramma, reklama, skanvord, e’lon, kartochka, so‘rovnoma, salomlashish, izoh) 3. Aralash matn (butun va to‘liq bo‘lmagan matnlar, muallif veb-sahifalari xarakterini birlashtiradi). 4. Murakkab matn (bitta mavzu, lekin har bir muallifning fikri va fikri. Masalan, har bir shoirning oqqush mavzusida yozilgan asari yoki har bir gazetada bir xil mavzu bo'yicha yozilgan material va bir nechta mavzularni o'z ichiga olgan parcha-parcha matnlar). Matn turi (turi) 6 qismdan iborat. 1. Tavsif (“nima?” degan savolga javob beradi, ma’lumot, texnik ko‘rsatmani ko‘rsatadi) 2. Qissa (mazmun) (“nima? qachon?” degan savolga javob beradi, roman, hikoya, drama, biografiya, komikslar, voqea haqidagi gazeta xabari.)3. Tushuntirish (tarkib) (xotira modeli ko'rsatilgan diagramma, onlayn ensiklopediya yozuvi) 4. Isbot (argumentatsiya) (tahririyatga xat, bahsli mavzuni hal qilish) 5. Yo'riqnoma (ko'rsatma) (foydalanish yo'nalishini ko'rsatadi, masalan, retsept, boshqa ko'rsatmalar). 6. Shartnoma (bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan matnlar, xatlar, elektron xatlar, xabarlar). 3-komponent - aspekt: uchinchi komponent - aspekt. Aspektning o‘zi besh nuqtadan iborat: 1. Axborot izlash (matndagi tayanch so‘zlarni topish, kodni belgilash) 2. Har tomonlama tushunish (matnni rejalashtirish, uni kichik mavzularga ajratish, nomlash, konspekt, tezis).3. Tarjimani rivojlantirish. Bu talabalarning qiziqishini oshirish, mumkin bo'lgan javoblarni rag'batlantirish uchun maxsus usullar orqali mantiqiy fikrlash darajasini rivojlantirishdir. 4. Matn mazmunini taqdim etish va baholash. Bu qanday matn turlariga tegishli ekanligini aniqlash. Agar matn hikoya bo'lsa, kompozitsion tuzilishi tahlil qilinadi. 5. Matn shakli (shakl) ko'rsatilishi kerak. Asar janriga e’tibor qaratish, muallifning fikr va g‘oyalarini ochib berish,

mavzu, adabiyot nazariyasi tahlili olib boriladi. Savollar va ularning turlari quyidagicha tasniflanadi va tavsiflanadi: Bugungi kun talabasi uchun savol mazmunini tushunish yetarli emas. U nafaqat murakkab savollarga to'liq javob beradi, balki xulosalar chiqaradi, ularni isbotlaydi va baholaydi. shunga o'xshash vazifalarni bajara olishi kerak. Bunday kompetentsiya matn bilan ishlashda rivojlanadi. Ta'limning natijasi kompetentsiyani shakllantirishdir, shuning uchun tushunish, qo'llash va mulohaza yuritish, isbotlash, baholash vazifalarini farqlay bilish kerak. Mulohaza yuritishga asoslangan vazifalarga g'oyalarni taqdim etish, qurish, dalillarni keltirish, asosli xulosalar chiqarish va boshqalar kiradi. o'yladi operatsiyalar faolligini talab qiladi [3]. Shuning uchun inson mantiqiy fikrlash qobiliyatiga va baholash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'qituvchidan mahorat talab qiladi. Dars davriga qarab videoroliklarni ko‘rsatish, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini bildirish ham samaralidir. O'qish savodxonligi bo'yicha savollar tasnifi:

1. Aniqlovchi savollar - o'z-o'zidan berilgan fikrning haqiqat yoki yolg‘onligini farqlashga qaratilgan.

2. Qo`shimcha savollar - mavzularga oid yangi bilim va xulosalarni aniqlash bilan bevosita bog`liq. Bunday savollarning grammatik xususiyatlari kim, nima, qachon, qanday, qayerda, nima uchun va hokazo. so‘roq olmoshlaridir.

3. O'tkir savollar - aniq muammolarni muhokama qilishda shoshilinch savollar ham beriladi ya'ni ular hayotiy, shoshilinch, prinsipial mazmunda yaratilgan. Umuman olganda, savol-javob platformasi samaraliroq, chunki talaba ko'pincha yodlangan yoki qisqa javoblar berish bilan cheklanadi. O`z nuqtai nazarini ifoda etishga, uni bugungi kun bilan bog`lashga o`rgatish orqali insonning hayotiy fazilatlarini shakllantirish mumkin. O‘quvchilarda o‘qish savodxonligini shakllantirish uchun faol o‘qitish usullari orqali o‘rgatish o‘z samarasini isbotladi. Turli vaziyatlarda qiziqarli, voqea-hodisalarga boy material taklif qilish orqali bolalar matnni diqqat bilan o‘qish, mazmuni bo‘yicha ochiq savollar berish, uning mazmunini tushunish uchun qahramonlar o‘rniga o‘zini vaziyatga qo‘yish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishlari kerak. Axborotni o‘qish jarayonida uning aniq, tushunarsiz, qiziqarli ma’lumotlar, yangi ma’lumotlar ekanligi ko‘rib chiqiladi, qo‘shilaman yoki qo‘shilmayman deb belgilashga, kontekstdagi so‘zlarning ma’nosini ajrata olishga (notanish so‘zlarning ma’nosini taxmin qilish) o‘rganiladi.), matnning tuzilishini tushunish. Bugungi kunda qozoq tili darslari to‘rtta ko‘nikmaga yo‘naltirilgan xalqaro tajriba asosida o‘qitiladi: tinglash, o'qish, yozish, talaffuz. O'qishning turli usullarini qo'llash orqali biz o'quvchilarni malakali o'qishga o'rgatishimiz mumkin:

- bir qarashda o'qish;
- aniq ma'lumotni topish uchun o'qish;
- umumiy fikrni tushunish uchun o‘qish;
- batafsil o‘qish;
- rasmga qarab taxmin qila olish;
- matn turlarini (xabar, maqola, reklama, tavsif va boshqalar) farqlash uchun o‘qish;
- intensiv o'qish (katta, hajmli matn);
- diqqatni o'qishga qaratish (agar tarkib keyinroq sinfdoshiga aytilsa);
- kontentni muhokama qilish. Va har qanday og'zaki yoki yozma ma'lumotni tushunishni ta'minlash uchun so'zlarni sinonimlar bilan almashtirish, jumla yoki qismni o'z so'zlari bilan qayta yozish (perifraziya), savollarga o'z so'zlari bilan javob berish, ma'lum. Bitta iqtibos bo'yicha o'z nuqtai nazarini bildirish, ya'ni uni yozib olish kabi vazifalarni bajarish o'z samarasini beradi. Asosiysi, bu vazifalarni bajarish

BOSHLANG‘ICH TA’LIM MUASSASALARDA TARBIYAVIY ISHLARNI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA QO‘LLASH HOLATI

Karimjanov A.
ChDPU. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti.

Tayanch so‘zlar: jamiyat, oila, Vatan, loiha, ilmiy intelektual, yondashuvlar, tadbirkorlik, sadoqat.
Ключевые слова; общество, семья, Родина, лоиха, научный интеллект, подходы, предпринимательство, лояльность.
Key words: society, family, Homeland, moose, scientific intelligence, approaches, entrepreneurship, loyalty.

Резюме:
maqolada hozirgi zamon ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf talabalarda tarbiyaviy ishlarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishning uziga xos xususiyatlarini aks etilgan.
Резюме:
в статье отражены особенности организатsии воспитательной работы у учащихся начальных классов на основе современных подходов в современном образовательном процессе.
Summary:
the article reflects the peculiarities of the organization of educational work among primary school students based on modern approaches in the modern educational process.

Hozirgi zamon voqeliklardan kelib chiqqan holda tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar o‘qituvchidan doimiy izlanishni, o‘quv faoliyatda tarbiyaviy ishlarning yangi, nisbatan samaraliroq usullari va vositalaridan foydalanib ishlashni talab etmoqda. Yoshlarni barkamol avlod sifatida tarbiyalash ularni ma’naviy-ma’rifiy qobiliyatlarini o‘stirish, ularni jamiyatga, oilaga, Vatanga manfaat keltiradigan sifatida voyaga yetkazish o‘quv nazariyasining muammolaridan hisoblanadi.

Birinchi naubatda o‘quv muassasalar ta’lim tizimini zamonaviy loyihasi tayyorlanib, ta’lim tizimining asosi bo‘lgan yangi o‘quv rejalar, dasturlar yaratildi.

Viloyat markazlarida tashkil etilgan oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ilmiy intellektual imkoniyat va moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi “O‘zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o‘quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi milliy ўquv dastur”, hamda kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda oliy ta’lim muassasalari pedagog xodimlarini kasbiy-dunyoviy bilimlarini yuqori darajaga kўtarish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, ularni zamonaviy o‘quv laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, mashg‘ulotlik va o‘quv uslubiy materiallar, pedagog kadrlar bilan ta’minlash amalga oshirildi. Shuningdek, mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifatini oshirish, xorijda tayyorlanadigan mutaxassisliklarni qo‘shma fakultet va institutlar ko‘magida tayyorlash tajribasi yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonda oliy o‘quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta’lim maskanlari sonini ko‘paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Muassasalarda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishi hozirgi tarbiya tizimini yanada oshirib borishda asosiy omillardan hisoblanadi. Undan tashqari muassasalardagi yuridik shaxs maqomi moliya ho‘jalik faoliyatida mustaqil bo‘lgani, o‘quv kadrlarni ish sifati natijalarini xolisona baholash asosida moddiy yordam berish tarbiya sohasida o‘quv yondashuvlar asosida olib borilayotgan jiddiy ishlar hisoblanadi.

Mamlakatimiz kelajagi yoshlar qo‘lida ekan tushunchadon, ma’naviyatli, mustaqil fikrlab, mustaqil ish yuritadigan yoshlarni tarbiyalab, mamlakat rahbari ta’biri bilan aytganda, jamiyatimizning eng katta boyligi, aql-zakovat boyligi bo‘lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa ekanligi ko‘p bor ta’kidlandi.

Respublikamizda tarbiya tizimini rivojlantirish tamoyili o‘zluksiz tarbiya tizimining barcha turlarida tarbiya jarayonini demokratlashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini taraqqiyot strategiyasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar stratsgiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog‘lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta’minlash uchun;

- ma’naniy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

- tarbiya jarayonida O‘zliksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash;

- yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

- homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzliksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, o'zliksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

- aholining farzand tarbiyasi bo'yicha tushunchalarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni ўzliksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

- ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga karshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish;

- ўzliksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish.

Ta'lim-tarbiya sohasida o'quv yondashvlarni asoslantirish o'zida falsafiy, psixologik va ta'limning insonparvarlik g'oyalari asosida tayyorlanadi.

Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda.

Ushbu talablar doirasida ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, o'zliksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga tushunchadon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari, shu jumladan, ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur mashg‘ulotliklar yetarli emas.

Shu munosabat bilan «Uzliksiz ma’naviy tarbiya» konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi chiqargan qarorlarida o‘quvchilar o‘rtasida ongli intizomni kuchatirishni ta’minlash va ularning bo‘sh vaqtlarini yaxshi o‘tkazishga xizmat qiladigan tarbiyaviy ishlarni keng yo‘lga qo‘yish zarurligi ko‘rsatib berilgan edi. Bu qarorda o‘quvchilarning tarbiyaviy ishlarda tarbiya vazifalariga bo‘ysundirilishi muassasa o‘quvchilarining muvaffaqiyat bilan o‘qishlariga ko‘maklashuvchi va jamiyatning har tomonlama ma’lumotli holda faol o‘quvchilari qilib tarbiyalashga yordam berish kerak deb aytilgan.

Boshlang‘ich ta’lim muassasalarda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish ishlari asosan quyidagi yondashuvlardan iborat:

a. O‘quvchilarda vatanparvarlik dunyoqarashini tarbiyalashda siyosiy saviyasini oshirish;

b. O‘quvchilarni milliy g‘oya asosida Vatanga muhabbat, millatga sadoqat ruhida tarbiyalash;

v. O‘quvchilarni ijtimoiy –siyosiy faoliyatini, tashabbuskorligini o‘stirish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy –iqtisodiy hayotga ongli ravishda ishtirok etishini ta’minlash;

g. O‘quvchilarning olgan tushunchalarini kengaytirish, chuqurlashtirish va amalda qo‘llanish vazifasini to‘g‘ri hal qilishga va muassasani bitirib chiqqandan keyin erkin ravishda biron kasb tanlashga tayyorlashga yordam berish;

d.Yoshlarni o‘z-o‘zini boshqarish va o‘stirish, san’at, jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa sohalarga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish;

ye.O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini xursandona o‘tkazishlariga va ularning sog‘liqlarini mustahkamlashga xizmat qiladigan o‘yin – kulgilar va boshqa xil tarbiyaviy ishlarni yo‘lga qo‘yish.

Adabiyotlar:

1. R.D.Ishmuxamedov Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari Toshkent. TDPU. 2005 y.

2. A.Karimjanov. F.Ochilov. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim tarbiya muammolari.O‘quv qullanma. Toshkent. Chirchiq.2021 y.

3. A.Karimjonov «Pedagogik tizimni boshqrish asoslari». (O‘quv qullanma), Nizomiy TDPI Toshkent 2008

4. A.Karimjonov. «Metodikai fanni Tarbiyach» (Darslik) Toshkent 2022.

ОИЛА-МАҲАЛЛА-МАКТАБ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ТИЗИМИДА ҲАМКОРЛИКНИ КУЧАЙТИРИШДА БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ЎРНИ

Ибрагимов А.А.
Самарқанд вилояти педагогик маҳорат мактаби директори, п.ф.д.,профессор
Салимов А.
Самарқанд давлат университетининг Ўзбекистон Финляндия педагогика институти "Бошланғич таълим методикаси" кафедраси ўқитувчиси

Таянч сўзлар: илм-фан, таълим-тарбия, оила, маҳалла, мактаб, инсон капитали, таълим масканлари, бошланғич синф ўқитувчилари, миллий дастур, мактаб.
Ключевые слова: наука, образование, семья, микрорайон, школа, человеческий капитал, образовательные учреждения, учителя начальных классов, национальная программа, школа.
Key words: science, education, family, microdistrict, school, human capital, educational institutions, primary school teachers, national program, school.

Резюме:
Ушбу мақолада бугунги кунда мамлакатимизда оилавий тарбия самарадорлигини, мамлакатимиз аҳолисининг умумий маданий савиясини ошириш маълум даражада маҳалла-оила-мактаб ҳамкорлигига ҳам боғлиқлигига алоҳида эътибор қаратилган. Сўзсиз ушбу масалаларни ижобий ҳал қилишда таълим-тарбия юзасидан фаолият олиб бораётган бошланғич синф ўқитувчиларининг ўрни беқиёс эканлиги ҳеч биримизга сир эмас. Мақолада ушбу соҳа эгаларининг мақсад ва вазифалари бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.
Резюме:
В данной статье особое внимание уделяется тому, что повышение эффективности семейного воспитания и общего культурного уровня населения нашей страны в определенной степени зависит от сотрудничества соседства-семьи-школы. Ни для кого из нас не секрет, что в положительном решении этих вопросов несравненную роль играют учителя начальных классов, работающие в сфере образования. В статье даются предложения и рекомендации относительно целей и задач владельцев данного месторождения.
Summary:
This article pays special attention to the fact that increasing the effectiveness of family education and the general cultural level of the population of our country to a certain extent depends on the cooperation of neighborhood-family-school. It is no secret to any of us that primary school teachers working in the field of education play an incomparable role in the positive resolution of these issues. The article provides proposals and recommendations regarding the goals and objectives of the owners of this field.

Кириш. Мамлакатимизда сўнгги йилларда илм-фан, таълим-тарбия соҳаларини давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айлантиришга қаратилганлиги кундан-кунга долзарблик касб этмоқда. Оилада фарзанд дунёга келган кундан бошлаб, то унинг камолот ёшига етгунига қадар уни ҳар томонлама қўллаб-қувватлайдиган, ҳаётда ўзининг муносиб ўрнини топиши учун хизмат қиладиган яхлит узлуксиз тизим яратилмоқда-ки, ушбу жараёнларда инсон капиталига эътиборни янада кучайтириш, ҳамда бунинг учун барча имкониятларни сафарбар этиш борасида муҳим дастур ва лойиҳалар амалга оширилмоқда. Эътибор қаратамиз, масалан, беш йил олдин юртимизда 5 минг 211 та боғча фаолият олиб борган бўлса, бугунги кунга келиб бу рақам 19 минг 316 тага, тизимдаги қамров даражаси эса 62 фоизга, 6 ёшлилар ўртасидаги қамров даражаси эса 77 фоизни ташкил қилмоқда.

Мавзунинг долзарблиги. Мамлакатимизда янги турдаги ва янги сифат босқичларидаги таълим масканлари, хусусан, Президент мактаблари, ижод мактаблари, ихтисослашган мактаблар ўз фаолиятларини олиб боришмоқда. 2024 йилнинг 3-чорагига келиб, математика йўналишида 112 та, физика йўналишида 14 та, кимё-биология йўналишлари бўйича 87 та, информатика ва ахборот коммуникацион технологиялари бўйича 99 та, хорижий тиллар бўйича 207 та ихтисослаштирилган мактаблар ўз фаолиятларини олиб бормоқдалар.

“Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”ни амалга оширишда узлуксиз таълим тизимининг асосий бўғини ҳисобланган умумий ўрта таълимнинг ўрни каттадир. Унда таълим-тарбия жараёнини ривожлантириш, шахсда бошланғич тадқиқотчилик элементларини шакллантиришда мактабнинг оила ва маҳалла билан биргаликдаги фаолияти ниҳоятда муҳим аҳамиятга эгадир. Бу борада Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг қуйидаги сўзларини айтиб ўтишимиз жоиздир: “Ҳаммамизга аёнки, тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам бу – илм-фан, таълим ва тарбиядир. Эртанги кунимиз, Ватанимизнинг ёруғ истиқболи, биринчи навбатда, таълим тизими ва фарзандларимизга бераётган тарбиямиз билан чамбарчас боғлиқ. Буюк юнон олими Аристотелнинг “Ватан тақдирини ёшлар тарбияси ҳал қилади”, деган сўзлари бор. Қаранг, бу фикрлар милоддан аввал айтилган. Демак, инсоният онгли ҳаёт кечира бошлаган даврдан буён таълим ва тарбия масаласи, доимо долзарб аҳамият касб этиб келмоқда.

Бир ўйлаб кўрайлик, дунёдаги ривожланган давлатлар қандай қилиб юксак тараққиёт ва турмуш фаровонлигига эришмоқда? Энг аввало, илм-фан ва таълимга қаратилган улкан эътибор туфайли эмасми?

Шунинг учун ҳам кейинги йилларда юртимизни ҳар томонлама тараққий эттириш, янги Ўзбекистонни яратиш мақсадида барча соҳалар қатори таълим тизимида ҳам туб ислоҳотлар олиб борилмоқда.

Юқоридаги фикрларни тасдиғи ҳамда миллий дастурнинг вазифаларидан келиб чиқиб, бошланғич таълим мактабларининг аввало ўқитувчиларида сўнга ўқувчиларда тадқиқотчилик элементларини шакллантиришда оила, маҳалла, мактаб таълими ва тарбияси билан ҳамоҳанг равишда амалга ошириш зарур. Бунинг учун эса:

- бошлағич таълим-тарбия шакллари, усул ва воситаларини жаҳон андозаси талабларига мос тарзда ривожлантириш;

- Ўқитувчи-мураббийларнинг, ота-оналарнинг, маҳалла фаолларининг ҳамкорликдаги ижодий изланишларини ва маҳоратларини оширишнинг самарали йўлларини топиш;

- Оила – маҳалла – мактаб ҳамкорлигида қишлоқ ёшлари учун касб-ҳунар таълимининг илғор моделларини ҳаётга кенг жорий этиш;

- Оила-маҳалла-мактаб таълим-тарбия тизимида ҳамкорликни кучайтириш;

- Болаларни бўш вақтларини оила-маҳалла-мактаб ҳакорлигида қизиқарли, мақсадли ташкил этишга эришиш лозим.

Оилаларнинг болалар тарбияси учун имконият доиралари анча кенг бўлиб, кўплаб оилаларимиз моддий жиҳатдан яхши таъминланган. Ота-онанинг кўпи ўрта махсус маълумотли. Бундай ҳолатлар бошланғич синф ўқитувчиларининг фаолият соҳасидаги билимлар билан қуролланишига ва оила, маҳалла ва мактаб билан ҳамкорликда болалар таълим-тарбиясини яхшилаш имкониятларини яратади. Ота-оналарнинг билим савияси, умумий таълим-тарбияга оид маданияти, ижтимоий интилишлари ва талаблари, болалар тарбиясига нисбатан турлича муносабатлари, шаклланган ҳаётий тажрибалари, тарбия ва ижтимоий тараққиёт натижасида ҳосил қилган ишонч ва эътиқодлари, оиладаги ўзига хослик болалар тарбиясига салмоқли таъсир кўрсатади.

Мактабга тез-тез бориб турувчи ота-оналарнинг фаолияти мақтовга сазовордир. Чунки ўқитувчилар билан бўлган учрашувлар, болалари юзасидан билдирган фикрлар ўз навбатида ота-оналар учун муҳим аҳамият касб этади. Энг муҳими, улар болалари қаерда, ким билан юради, уларнинг дўстлари ким ва қандай фанларга қизиқишларини билиб оладилар, назорат қилиш имконияти ортади. Натижада болада тадқиқотчилик элементлари шаклланиб боради.

Ўрни келганда шуни алоҳида таъкидлаш керакки, айрим мактаб ўқитувчилари орасида ўз ишига масъулиятсизлик билан муносабатда бўлувчи

шахслар ҳам йўқ эмас. Уларнинг энг ёмон хатоларидан бири таълим-тарбияга оид барча камчиликларни ота-оналар зиммасига юклаб қўйиб, ўзлари эса кузатувчи бўлиб қолишларидир.

Бошланғич синф ўқитувчилари ота-оналарнинг фаол ёрдамисиз болаларнинг баркамоллигини таъминлай олмайди. Бу ўринда тарбиячининг ўзини тарбиялаш лозимлигини ҳам эсдан чиқармаслик керак. Ўзига нисбатан талабчан муаллим ота-оналар билан ҳамкорликда ўқувчиларда мустақил фикрлаш ва ҳаракат қилиш, янгиликни сезиш, ташаббускорлик ҳамда ижодкорлик қобилиятларини, тадқиқотчилик элементларини шакллантириш мақсадида уларга қатъий талаблар қўйиш учун маънавий ҳуқуққа эга бўлади.

Республикамизда айрим мактабларда ва маҳаллаларда ота-оналарни маълум гуруҳларга бўлиб мажлисларга чақириш жорий этилмоқда. Масалан, ёш ва кам тажрибали оилаларни алоҳида, нотўлиқ оилаларни, кўп болали оилаларни алоҳида-алоҳида чақириб, улар билан ишлаш йўллари белгиланмоқда.

Мактабни, маҳаллани ва оилани ўзаро боғловчи восита - бу ўқувчилардир. Ўқувчилар билан ишлаш, уларнинг илмий дунёқарашларини, тадқиқотчилик кўникмаларни шакллантириш, ижтимоий фаолликларини таъминлаш орқали ота-оналарга таъсир кўрсатиш усулларини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Бу борада мактаб, маҳалла ва оила алоқасини таъминловчи ота-оналар мажлислари, болалар тарбиясига алоқадор муаммоларни жамоа бўлиб ҳал этиш кабиларнинг ролини инкор этиб бўлмайди. Жумладан, “Болангизнинг қандай фанларга қизиқиши борлигини биласизми?”, “Болаларимиз қизиқишлари, ҳамда дунёқарашлари ҳақида суҳбатлашайлик”, “Глобал ҳаёт бўсағасида” каби мавзуларда олиб бориладиган суҳбатлар ота-оналарни ўз болалари ҳақида, уларнинг келажаги ҳақида қайғуришларига сабаб бўлди.

Хулоса.Юқоридагилардан хулоса қилиб шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, маҳалла, мактаб ва оиладаги масъулиятли вазифаларнинг бажарилишида бошланғич синф ўқитувчиларининг тарбиявий фаолиятлари ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга. Масалан, бошланғич синф ўқитувчиларининг ҳар бир ўқувчисининг оиласига кириб бориши шу оилага ва ота-оналарга ҳурмат сифатида баҳолонади. Бошланғич синф ўқитувчиларининг ота-оналар билан биргаликда таълимий-тарбиявий чора-тадбирларни белгилашлари, ўқувчилар кўз олдида ота-оналари билан суҳбатлашишлари уларнинг тарбиясига самарали таъсир кўрсатади. бошланғич синф ўқитувчиларининг ота-оналар билан суҳбатидан кейин ўқувчилар ҳаётида сезиларли ўзгаришлар юз беради, бу уларни хурсанд қилади, янада куч-ғайрат

сарфлашга илҳомлантиради. Ўз навбатида, бошланғич синф ўқитувчилари ота-оналар томонидан билдирилаётган хабар. танқидий фикрларини вазминлик билан тинглашлари, мулойимлик билан эшитишлари ва имконият доирасида ижобий ҳис этишлари жуда муҳимдир. Бундай муносабатларда бошланғич синф ўқитувчиларига ота-оналарни ўз тенгқурларидек дўст тўтишлари, Келинг, биргаликда ўйлаб кўрайлик? Сиз нима дейсиз? каби дўстона савол-жавоблар орқали иш тутишлари тавсия этилади. Бу амалий кўрсатмалар айниқса, мактаб ўқувчиси психологияси учун жуда муҳимдир. Оилавий байрамларни нишонлаш, ёшлар тарбиясида алла, эртак, халқ мақол ва маталларидан, қўшиқларидан самарали фойдаланиш, биргаликда маданий ҳордиқ чиқаришни, миллий спорт ўйинларини, тарихий обидалар ва қадамжоларга саёҳатлар уюштириш, бошқа миллат маънавиятига ҳурмат билан қараш, оила китобхонлигини ташкил этиш, оилада тил, мулоқот ва кийиниш маданиятига алоҳида эътибор бериш, фарзандларга касб-ҳунар ўргатиш, оилада бўш вақтни ижтимоий фойдали меҳнат воситасида самарали ташкил этиш, болани иқтидорига қараб меҳнат ёки илм олишга ундаш оила маънавиятини, болани илмий ижодий фаолиятини шакллантиришнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. - // Халқ сўзи, 2020 йил 24 сентябрь, №202 (7704).

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.

3. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган маросимдаги маърузаси. www.uza.uz. 07.01.2017й.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони

5. Шавкат Мирзиёев. “Мактаб таълимини ривожлантирмасак, ёшларимиз шароит бор жойларга кетади”. https://kun.uz/53070317

6. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев ҳужжатли фильмда оиланинг ҳаётидаги ўрни ҳамда нима уни бахтли қилиши тўғрисидаги нутқидан.2018 йил 24 июнь.

7. Н.Н. Азизхўжаева. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти. 2006 й. Мазкур ўқув қўлланмада таълимнинг моҳияти, тамойиллари ва мазмунининг асосий назариялари кўриб чиқилган.

8. D.A. Zmaranda, L.-L. Pop-Fele, C. Gyorödi, R. Gyorödi, G. “Pecherle Performancye Comparison of CRUD Methods using NET Object Relational Mappers: A Case Study”.

9. Темур тузуклари. Тошкен. Нашриёт манбаа бирлашмаси. – 1991.

10. Икромжон Иномов “Иқтисодий тарбия назарияси”. Тошкент. Тошкент Давлат Иқтисодиёт Университети. 2005. -248 б.

11. Авлиёқулов Н.Х., Мусаева Н.Н. Педагогик технология. Дарслик. -Т.: “Тафаккур бўстони”, 2012. 208 б.

12. А.Х. Косимов., Ф.А. Холикова. Педагогик маҳорат ва педагогик технологиялар фанидан маърузалар матни. Тошкент 2004.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION TA’LIMNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yalg‘ashev B.F.
Fizika-matematika fanlari doktori (DSc)
Boshlang‘ich ta’limda matematika va tabiiy fanlar kafedrasi professori

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich, ta’lim, matematika, o‘qitish, mazmum, laboratoriya, o‘rganish, qiziqish, talaba, o‘rganish.
Ключевые слова: начальная школа, образование, математика, преподавание, содержание, лабораторная работа, обучение, интерес, студент, учеба.
Keywords: Elementary, education, mathematics, teaching, content, laboratory, learning, interest, student, larning.

Резюме:
Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida innovatsion ta’lim texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Interaktiv usullar, AKT, STEM yondashuvi va muammoli o‘qitish metodlari asosida o‘quvchilarning matematik tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali usullar ishlab chiqilgan.
Резюме:
Эта статья посвящена изучению особенностей инноватsionных образовательных технологий на уроках математики в начальной школе. На основе интерактивных методов, ИКТ, подхода STEM и проблемных методов обучения разработаны эффективные методы, направленные на развитие математического мышления и творческих способностей учащихся.
Summary:
This article is devoted to the study of the features of innovative educational technologies in mathematics lessons in elementary school. Effective methods aimed at developing mathematical thinking and creative abilities of students have been developed on the basis of interactive methods, ICT, the STEM approach and problem-based teaching methods.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi,

shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun malakali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati benihoyat kattadir.

Matematika darslarining qay darajada qiziqarli o‘tishi o‘qituvchining tayyorgarligiga bog‘liq. Bolalarning matematik savodxonligini, hisoblash malakalarini oshiruvchi, ularni mustaqil fikrlashga, mantiqan o‘ylashga, xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosidagi mashg‘ulotlar mazkur fanning boshlang‘ich sinflardan boshlab mukammal o‘rgatilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Matematika darslarida interfaol metodlarning amalga oshirish yo‘llari quyidagicha Jumladan: didaktik o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash, tushunchalar tahlili, “Blits – so‘rov”, “Zinama – zina”, BBB (Bilaman. Bilib oldim. Bilishni xohlayman) metodlari darsning uy vazifasini so‘rash, o‘tilgan mavzuni takrorlash bosqichlarida qo‘llaniladi.

Yangi mavzuni o‘rganishda “Hamma bir – biriga o‘rgatadi”, “Klaster”, “Davra”, “KBI (Kuzatish. Bahslashish. Ishontirish), “Muammo”, “Uchta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri” kabi interfaol metodlardan, “Davom ettir”, “Tez javob”, “Zanjir”, “Topag‘on” “Sirli son”, “Rebus” kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. Darsni mustahkamlash jarayonida, “Akvarum”, “Blits – so‘rov”, “Fikriy hujum”, kabi interfaol metodlardan, “O‘zim tekshiraman”, “O‘yin topishmoq”, “Nima yo‘qolib qoldi?” kabi didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. O‘quv jarayonini yuqoridagi metodlar asosida olib borish o‘quvchi uchun an’anaviy darsni tashkil etish uslublaridan ko‘ra samaraliroq natijalarga erishish jihatdan foydalidir. Matematikaa darslarida yangi innovatsion usullardan foydalanish mashgulotlarning sifat va samaradorligini oshirish muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Mashg‘ulotlar jarayonida turli matematik o‘yinlarning motivatsiyalash imkoniyati kengdir.O‘yinni rejali o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. O‘yinni boshlashdan oldin bir mavzu tanlab olinadi va shu o‘yinga kerak bo‘lgan barcha vositalar tayyorlanadi. Har bir guruhda 5 ta o‘quvch bo‘ladi (kam yoki ko‘p bo‘lishi ham mumkin).Guruhda ishlash o‘quvchilar o‘rtasida vazifalarni taqsimlashga tayanadi. Sinfni guruhlarga ajratish xohish yoki hisob bo‘yicha amalga oshiriladi. O‘quvchilarning o‘yin faoliyati bo‘yicha aniq va hajm jihatidan ko‘p bo‘lmagan tushuntirish beriladi. O‘qituvchi guruhlarning ishlash tezligi turlicha bo‘lishini hisobga olgan holda vaqt chegarasini belgilaydi. O‘quvchilar kerakli axborotlar paketi va ma’lumotlar bilan ta’minlanadi. O‘quvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib yetganligi tekshirib ko‘riladi. O‘quvchilar zarurat tug‘ilsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib, to‘g‘ri yo‘nalishda ishlayotganligini qayd

etadi va ularga yordam beradi. Guruhlarda ish yakunlangach sardor natijalari bo‘yicha og‘zaki hisobot beradi. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o‘qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyat to‘g‘ri va aniq bajarish, vaqt sarfi aniq mezon hisoblanadi. Dars jarayonida multimedia vositalari o‘qituvchi uchun birmuncha qulayliklar yaratadi. O‘qituvchi tushuntiradi, o‘quvchi kuzatadi, bilimlarni an’anaviy idrok etadi, o‘quv mashg‘ulotlarining har bir o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi nazorat qilinadi. Test, nazorat ishlari interfaol usulda tez va qulay tarzda o‘tkaziladi. Dars uchun tarqatma materiallar tayyor holda chop etiladi, foydalaniladi. Jadvallar, turli pedagogik texnologiya metodlarini qo‘llash imkoniyati tug‘iladi. Jamiyatning yangilanishi ta’lim – tarbiya sohasini tubdan isloh qilish, unga yangicha munosabat va yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, sog‘lom, mustaqil fikrlovchi, aqliy jihatdan rivojlangan yuksak axloqli va iste’dodli shaxsni shakllantirish masalasi davlat ahamiyatiga molik masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Natijada:

1.Bilimlarni mustaqil ravishda yangi vaziyatda qo‘llash.

2. Mavzularni o‘rganish davomida yangi muammolarni ko‘ra bilish.

3. Bir muammoning bir necha yechimlari bo‘lishi mumkinligini anglash.

4. Muammoni hal qilishning yangi usullarini topish malakalarini egallab olish.

Mustaqil fikrlash – bu inson sezgi organlari va aqliy faoliyatining birinchi natijasi o‘laroq, mustaqil ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlashtirish, mavhumlashtirish kabi fikriy operasiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir.

Boshlang'ich sinfda o‘quvchilarga sonli ifodalarni o‘rgatish

Ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda ishtirok etishga, ijtimoiy jarayonlarda faollik ko`rsatishga, mamlakat taqdiri uchun mahsuliyat his qilishga qobiliyatli shaxsni shakllantirish - milliy dasturining asosiy maqsadidir.

Mazkur maqsadga erishish uchun hozirgi kunda ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan tub o`zgarishlar – ta`lim mazmunini modernizatsiya qilish, ta`lim shakllarini takomillashtirish, ta`lim muassasalarini moddiy-texnika bazasini qayta qurishda namoyon bo`lmoqda.

Modernizatsiyalashgan ta`limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida o`quvchilar o`z huquqlarini himoya qilish ko`nikmasi, huquqiy madaniyatining yuqori darajada bo`lishini tahminlash qilib belgilanganligi bejiz emas.

Hozirgi kunda har bir insonning o`z huquqlarini bilishi, qonun doirasida faoliyat olib borishini jadallashib borayotgan hayotimizni taqozo etmoqda.

Boshlang'ich sinflarda matematik ifodalar ya'ni sonli ifoda va o‘zgaruvchili ifodalar haqidagi tushunchalarni shakllantirish bo‘yicha reja asosida ish olib boriladi.

Sonli ifodalar mazmuniga ko‘ra sonlardan tuzilgan bo‘ladi. Sonlardan, amal belgilaridan va qavslardan tuzilgan ifodaga sonli ifoda deyiladi.

Ya’ni 3+7, 21:7, 5*2-6, (20+5)*4 -15 shunday misollarga sonli ifodalar deb aytamiz.

Ifodada ko‘rsatilgan har bir amalni ketma-ket bajarish natijasida hosil bo‘lgan son sonli ifodaning qiymati deyiladi

Umuman olganda, sonli ifodani quyidagicha ta’riflashimiz mumkin. a) Har bir son sonli ifodadir.

b) Agar A va B ni sonli ifodalar deb olsak, u holda(A+B), (A-B), (A*B) va (A:B) ham sonli ifoda bo‘ladi.

Ko‘rsatilgan amallar orqali, sonli ifodaning qiymatini to‘amiz.O‘quvchilarda matematik ifoda tushunchasini tarkib to‘tirishda sonlar orasiga qo‘yilgan amal belgisi ham ma'noga ega ekanini hisobga olish kerak: bir tomondan, u sonlar ustida bajarilishi kerak bo‘lgan amalni bildiradi. Masalan, 7+3 - yettiga uchni qo‘shish kerak. Ikkinchi tomondan, amal ishorasi ifodani aniqlash uchun hizmat qiladi.(7+3 – bu 7 va 3 sonlarning yig’indisi).

Ko‘aytma va bo‘linma ifodalari ham shunday o‘rgatiladi. Bunday ifodalarni o‘rgatish metodikasi har xil bo‘lishi mumkin.Bolalar berilgan ifodalarni darhol o‘qishi, ularning qiymatni to‘ishi o‘qituvchining o‘qitish metodikasiga ham bog'liq. Agar o‘qituvchi har bir narsani o‘zidek tushuntirsa, bola o‘z ustida ishlab keta oladi.Bola eng asosiy tushunchani ya’ni bo‘lish va ko‘aytirishda eng muhim quyidagi qoidalarga amal qilishi kerak bo‘ladi.

a) Har qanday sonni nolga ko‘aytirsak nolni o‘zi bo‘ladi.

b) Har qanday sonni nolga bo‘lish mumkin emas degan qoidalarni bola esdan chiqarmasligi kerak bo‘ladi.

Ifodani almashtirish bu berilgan ifodani, boshqa qiymati berilgan ifoda qiymatiga teng bo‘lgan ifoda bilan almashtirish deganidir.Boshlang’ich sinflarda ifodalarni almashtirishda quyidagilar asosida bajariladi:

a) Bir xil qo‘shiluvchilar yig’indisini ko‘aytma bilan almashtiriladi.

3+3+3+3=3*4 yoki aksincha 6*5=5+5+5+5+5+5

b) Hisoblash usullarini asoslash uchun amallar xossalariga doir bilimlarni qo‘llanib, o‘quvchilar ushbu ko‘rinishdagi ifodalarni almashtiradilar.

36 + 40= (30+6) + 40 = (30+40) +6 = 70 + 6 =76

108:4= (100+8) : 4 =100:4 +8:4 = 25+2=27

O‘zgaruvchini ifodalovchi belgi sifatida harfdan foydalanish boshlang'ich sinf matematika kursida qaraladigan arifmetika nazariyasi masalalarini ongli, chuqur va umumlashgan holda o‘zlashtirish maqsadlariga hizmat qiladi, keyinchalik o‘quvchilarga o‘zgaruvchi funksiya tushunchalari bilan tanishtirish uchun yaxshi tayorgarlik bo‘ladi. Boshlang'ich sinflarda algebraik misollarni yechish uchun algebra qonun va qonuniyatlarga emas balki arifmetik qoidalarga asoslaniladi.

Masalan, 6+α=20 dan α qo‘shiluvchini to‘ish noma'lum sonni to‘ish qoidasi bilan yechiladi.

O‘zgaruvchili ifoda ustida ishlash: 5α + 6 ifodada α harfi o‘zgaruvchi hisoblanib, shunday ko‘rinishdagi ifodalarga o‘zgaruvchili ifoda deyiladi. O‘zgaruvchini alfavitning istagan harfi bilan belgilash mumkin. Harflardan tashqari □ belgi ham qo‘llaniladi. Masalan, 5* □ + 6.

Ifodada o‘zgaruvchining o‘rniga qo‘yish mumkin bo‘lgan sonlar o‘zgaruvchining qiymatlari, bunday sonlar to‘lami esa berilgan ifodaning aniqlanish sohasi deyiladi. Ifodada o‘zgaruvchining o‘rniga shunday qiymatlarni qo‘yish mumkinki, natijada ma’noga ega bo‘lgan sonli ifoda hosil bo‘lsin.

Buni necha misollarda ko‘ramiz.

1. Harfiy ifodalarning qiymatlarini shu ifodalarga kirgan harflarning berilgan qiymatlarida to‘ish. Masalan, b + c yozuv nimani bildiradi? Agar b = 58, c = 27; b = 39, c = 39; b = 7, c = 97 bo‘lsa, yig’indining son qiymatlarini to‘ing.

O‘quvchi daftaridagi yozuv ushbu ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

1) b=58, c=27 b + c =
2) b=39, c= 39 58 + 27 = 85
3) b=7, c=97 39 + 39 = 78
7 + 97 = 104

Shu joyning o‘zida o‘quvchilar mashqlar bajarishadi va bu mashqlarning borishida harflar qiymatlarining va ifodalar qiymatlarining jadvalda yozilishi bilan tanishadilar. Masalan, jadvalning bo‘sh kataklarini to‘ldiring:

a	16	53	47	28
b	72	86	13	64
a+b				

Avval jadvalni analiz qilish kerak va bir qancha savollar bilan murojaat qilish kerak. Jadvalning oxiriga nima yozilgan? (a va b sonlarning yig’indisi). Birinchi satrida-chi?

(Qo‘shiluvchi a va uning qiymatlari). Ikkinchi satrida-chi?

(Qo‘shiluvchi b va uning qiymatlari).

Shundan keyin ushbu savollar beriladi: nimani to‘ish kerak? (yig’indining qiymatini.) Yig’indining birinchi qiymatini qanday to‘ish kerak? (16 ga 72 ni qo‘shish kerak, 88 chiqadi.) va hokozo.

1. Harfiy ma’lumotli masalalarni yechish.

Masalan:

a) Yanvar oyida Alisher 10 ta kitobcha o‘qidi, fevral oyida esa 8 ta kitobcha o‘qidi. Ikki oy ichida Alisher nechta kitobcha o‘qigan?

b) Yanvar oyida Charos 7 ta kitob o‘qidi, fevral oyida esa 8 ta kitob o‘qidi. Ikki oy ichida Charos nechta kitob o‘qigan?

c) Yanvar oyida o‘quvchi a ta kitob o‘qidi, fevral oyida esa b ta kitob o‘qidi. Ikki oy ichida o‘quvchi qancha kitob o‘qigan?

Masalani jadval orqali yechish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yanvar oyida	10	7	a
Fevral oyida	8	8	b
JAMI:	18	15	a+b

Shundan keyin o‘quvchilar shunga o‘xshash 2 – 3 ta masala tuzishadi va jadval chizib yozishadi.

Keyin bolalar harfiy ma’lumotli masalalarni yechishga kirishadilar. Masalan, bochkada a litr suv bor edi. Gullarni sug’orish uchun b litr suv olindi. Bochkada necha litr suv qoldi? Umumiy ko‘rinishdagi yechimi (a – b) bo‘ladi. O‘quvchilar ifodaga kiruvchi harflarga bir qancha son qiymatlar beradilar, shu son qiymatlar bo‘yicha masalalar tuzadilar va ularni yechadilar.

Bundan keyingi ish o‘quvchilarni bir o‘zgaruvchili ifodalar (a + 7, b – 5, 35–k ko‘rinishdagi ifodalar) bilan tanishtirishdan iborat bo‘ladi. Bu o‘rinda ham, ikki o‘zgaruvchili ifodalarni kiritishdagi kabi sonli ifodalardan harf va sonlardan tuzilgan ifodalarga o‘tishga doir masalalar yechish kerak.

II va III sinfni umumlashtirish harakteriga ega bo‘lgan quyidagi mashqlarni keltiramiz.

1. Jadvalni to‘ldiring:

a	**b**	**a+b**	**b+a**
8	32		
7	19		
17	27		

Jadval to‘ldirilgandan so‘ng o‘quvchilarga savol beriladi: a+b va b+a yig’indilari haqida nima deyish mumkin? (Ular teng). Yig’indining o‘rin almashtirish xossasini harflar yordamida qanday yozish mumkin? (a+b = b+a).

2. a+a+a+a+a+a yig’indini ko‘aytma bilan almashtiring. Bu mashq ko‘aytirish amalining aniq mazmunini umumlashtirishga hizmat qiladi.

Mashqni bajarishga kirishib, o‘quvchilar bunda qo‘shiluvchilar bir xil ekanini ko‘radilar, demak, yig’indini ko‘aytma bilan almashtirish mumkin: birinchi ko‘aytuvchi a harfi, ikkinchi ko‘aytuvchi 6 dan iborat bo‘ladi. Bunday yoziladi: a+a+a+a+a+a=a*6

3. Ifodani yozing va uning qiymatini uch usul bilan to‘ing:

a va b sonlarning yig’indisini 7 ta orttiring. Yig’indini bir necha bilik orqali orttirishni uch usuli o‘quvchilarga tanish: bu sonni yig’indiga uch usul bilan qo‘shishdir.

Bunda faqat “orttirish” so‘zini “qo‘shish” so‘zi bilan almashtirish kerak ya’ni bunday bajarish kerak:

(a+b) + 7 = (a+7) +b = a+(b+7)

4. Ifodani taqqoslang:

α* 20 va α * 13 + α * 7

240: k va 210: k + 49: k

Ifodalarni taqqoslash sonni yig’indiga ko‘aytirish, bo‘lish qoidalaridan va boshqa qoidalardan foydalanish bilan amalga oshiriladi.

a * 20 va a * 13 + a*7 ifodalar orasiga “=” belgini qo‘yishni bolalar bunday asoslaydilar: Birinchi ifodadagi 20 sonini xona qo‘shiluvchilari 13 va 7 ning yig’indisi bilan almashtirish va α sonini shu yig’indiga ko‘aytirish kerak, u holda ikkinchi ifodaning o‘zi hosil bo‘ladi yoki ikkinchi ifodani α soni bilan 13 va 7 sonlari yig’indisiga, ya’ni 20 ga ko‘aytirish bilan almashtirish mumkin. Bu holda birinchi ifodani o‘zini hosil qilamiz.

Xulosa qilib aytganda, sonli ifodalar o‘quvchilarni kengroq fikr yuritishga ya’ni, dunyoqarashini keng qilgan holda fikrlashga undaydi. Sonli ifodalar ustida ishlayotganimizda o‘quvchilarni tushunishi oson bo‘lishi uchun avvalambor o‘quvchilar aytilayotgan terminlarni analiz qilib, yaxshi tushunishlari kerak va tasavvur qilishlari kerak bo‘ladi.Ana shunda o‘quvchilar nima yechayotganliklarini, uni nimaligini bilishadi va katta sinfga chiqqanlarida ham misollarni yaxshi yechishga ‘oydevor bo‘lar edi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Makkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi 997-son “Xalk ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash soxasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori

2. Yunusova D. Matematikani ukitishning zamonaviy texnologiyalari. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2011. - 200 b..

3. Yunusova D. Bulajak matematika ukituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. - T.: Fan, 2009. - 165 b.

4. Yunusova D.I. Ta’lim texnologiyalari asosida matematik ta’limni tashkil etish. T., “Universitet”, 2005, 131 b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

Toshmatova O‘.R.
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi

Tayanch so’zlar: pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, shakl, metod, vositalar, aqliy xujum, tarmoqlar, sinkveyn, zigzag, kichik guruhlarda ishlash, bahs munozara, fsmu, yumaloqlangan qor, akt, zamonaviy metodlar, zamonaviy dars shakli,internet, elektron pochta.
Ключевые слова: педагогические технологии, интерактивные методы, форма, метод, инструменты, мозговой штурм, сети, синквейн, зигзаг, работа в малых группах, дебаты, фгму, круглый снег, икт, современные методы, современная форма обучения, интернет, электронная почта
Key words: pedagogical technologies, interactive methods, form, method, tools, brainstorming, networks, cinquain, zigzag, work in small groups, debate, fsmu, rounded snow, ict, modern methods, modern form of teaching, internet, electronic mail.

Резюме:
Maqolaning asosiy mazmunida boshlang’ich sinflarda interfaol metodlar ,ularning turlari,boshlang’ich sinflarda qo’llash usullari zamonaviy texnalogiyalarining ta’lim jarayonidagi o’rni, umumiy o’rta ta’lim maktablarining boshlang’ich sinf o’qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan foydalanish imkoniyatlari haqida yozilgan
Резюме:
В основном содержании статьи интерактивные методы в начальных классах, их виды, роль современных технологий в образовательном процессе, методы применения в начальных классах, современная педагогика учителей начальных классов общеобразовательных школ возможности использования технологий
Summary:
In the main content of the article, interactive methods in primary grades, their types, the role of modern technologies in the educational process, methods of application in primary grades, modern pedagogy of primary grade teachers of general secondary schools opportunities to use technologies

Kirish. Ta'lim o`qituvchi va o`quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo`lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o`qituvchi o`z bilimi, ko`nikma va malakalarini mashg`ulotlar vositasida o`quvchilarga yetkazadi, o`quvchilar esa uni o`zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo`ladi. Ayni vaqtda Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish —

Raqamli O`zbekiston - 2030 strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta‘minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanad O`rganish jarayonida o`quvchilar o`zlashtirishning turli ko`rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o`zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o`ziga xos tafovutlarga tayanadi.

Asosiy qisim. Ta'lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o`quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o`quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topish, mustaqil o`rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishga o`rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

«Videotopishmoq» metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko`chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O`qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o`rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o`quvchilar e'tiboriga o`rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o`quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o`qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O`quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o`z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o`quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi. Boshlang`ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o`yinlardan, zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan

foydalanish o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o`rganganlarini hayot bilan bog`lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O`qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg`or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Bizningcha, ta'limiy o`yinlarga qo`yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o`yinlar o`quvchilar yoshiga mos bo`lishi kerak;
2. O`yinlar o`tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo`lishi lozim;
3. Ta'limiy o`yinlarni o`tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o`yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lishi kerak;
5. Ta'limiy o`yinlarning o`tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Barcha o`quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko`rinishidagisidan foydalangan bo`lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o`quvchi bilan shug`ullanish mumkin. AKT‘dan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3- sinfgacha matematika, badiiy o`qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o`quv fanlari bo`yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo`lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyuterning o`zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo`yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi.

Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta‘lim jarayonida AKT‘dan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi - axborotliligi, ko`rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo`yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo`shimcha axborotlardan foydalanish mumkin.

Maktabda mavjud bo`lgan Internet - bu global axborot tizimi ekanligi barchaga ma‘lum. U elektron pochta, izlash tizimlarini o`z ichiga oladi va turli axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Undan kerakli axborotlarni topish, qayta ishlab chiqish va ularni ko`paytirib, barcha kompyuterlarga o`rnatib bolalarga mustaqil juftlikda, guruhda, individual ishlashni taklif etish mumkin. O`quvchilarga turli xildagi topshiriqlarni taklif etish: tadqiqot o`tkazish, asosiysini tanlash, taqdimot tayyorlash, jadvalni to`ldirish imkoni paydo bo`ladi.

Axborot olishning boshqa bir usuli - dars davomida bevosita Internetdan axborot olish hisoblanadi. Internetdan avvaldan kerakli materialni topish, darsda

esa uni o`quvchilarga ko`rsatish mumkin. Ishni o`rganilgan material bo`yicha dialog ko`rinishida olib borish mumkin.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari Internetdan mustaqil foydalanishni, kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keyingi ishlarida foydalanishni biladilar. 2-sinfdanoq o`quvchilar faqat daftarda emas, balki bevosita kompyuterda ham topshiriqlarni bajara oladilar. O`quvchilar kompyuter bilan ishlash birinchi ko`nikmalarni oladilar, o`zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko`nikmalarini takomillashtirib boradilar. Barcha o`quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinflarda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning asosidir. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnalogiyalaridan foydalanish esa o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashni kengaytirish bilan birga ularni mdarslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy ta‘lim dasturlaridan xabardor bo‘lish imkonini beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnalogiyalari asosida tashkil etilishi ta‘lim- tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Multimedia texnalogiyalaridan foydalanish, ilovalarini har bir darsda qo‘llash natijasida o‘quvchilarda mustaqil,ijodiy fikrlash yanada rivojlanadi. Aytishimiz joizki interfaol va zamonaviy metodlar, axborot kommunikativ vositalarning boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llanilishi o‘quvchilarda zamonaviy va kreativ fikrlashiga sabab bo‘ladi va darsning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi -O`zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risidagi Farmoni.

Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O`quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012.

Yo`ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining -Bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 132- son qarori

B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Sano-standart nashriyoti. Toshkent – 2017. 92-bet.

T.T.Omonov,N.X.Xo‘jayev,S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent.-IQTISOD-MOLIYA 2009. 106-bet.

O‘QUVCHILAR HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHGA ERISHISHDA HARAKATLI O‘YINLARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI

Toshmuradov Sh.G‘.
Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so‘zlar: yosh o‘qituvchi, murabbiy, yangi bilim, pedagogik tajriba, jismoniy sifat, boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, chidamlilik, maktab.
Ключевые слова: молодой учитель, тренер, новые знания, педагогический опыт, физическое качество, начальная школа, ученик, выносливость, школа.
Key words: young teacher, coach, new knowledge, teaching experience, physical quality, primary school, student, endurance, school.

Резюме:
Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat malakalariga alohida ahamiyat qaratilgan. Saralab olingan bir nechta sinov mashqlari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning jismoniy tarbiya darslarida qo‘llaniladigan vosita va usullarni ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirish masalari bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.
Резюме:
В данной статье основное внимание уделяется двигательным навыкам учащихся начальной школы. С помощью нескольких избранных тестовых упражнений были сделаны предложения и рекомендации по вопросам совершенствования средств и методов, используемых на занятиях по физическому воспитанию учащихся младших классов, с учетом их возрастных особенностей.
Summary:
This article focuses on the motor skills of primary school students. Using several selected test exercises, suggestions and recommendations were made on improving the means and methods used in physical education classes for primary school students, taking into account their age characteristics.

Kirish. Dunyoda jadallikda bilan rivojlanib, zamonaviy ta’limning turli yo‘nalishlari, takomillashib borayotgan davrda har tomonlama shakllangan yuqori intelektual salohiyatga ega insonlarga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Dunyo ta’limi jarayonidagi ushbu vaziyat yosh o‘qituvchi va murabbiylardan yangi bilimlarni o‘rganish va o‘z mehnat faoliyatlari jarayonida faol qo‘llashlaridek talabni qo‘ymoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlarida pedagoglar eng kichik detallargacha ahamiyat bergan holda o‘quv-tarbiya, dars mashg‘ulotlarini ijobiy va yuqori samaradorlikda, mohirona tashkil qilishlarini talab qilmoqda. Shuning uchun ham o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni sog‘lom va baquvvat bo‘lib voyaga yetishlarida, munosib hissasini qo‘shish har bir jismoniy tarbiya va sport murabbiylarini oldida turgan eng asosiy vazifasidan biridir.

Mavzuning dolzarbligi. Umum o‘rta talim maktablarining 1-4 sinf o‘quvchilarining tezkorlik jismoniy sifatining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan pedagogik tajribalarda. Boshlang‘ich 1-4 sinf o‘quvchilari tomonidan pedagogik tajribalar avvalida qayt etgan natijalarining o‘rtacha ko‘rsatkichlarining ilmiy uslubiy bayoni quyidagicha ko‘rinishga ega (1,2-jadvalga qarang).

1-jadval.

1-4 sinif o‘quvchilarining tezkorlik sifatining rivojlanganlik ko‘rsatkichlari 30 m. masofaga yugurishda ko‘rsatilgan natijalar (soniya)

Sinflar	Guruhi	№	Dastlabki x±m	t	p
I	T	17	6,8±0,13	2,09	<0,05
	N	16	6,7±0,12	0,54	>0,1
II	T	35	6,8±0,10	2,91	<0,01
	N	32	6,7±0,21	0,44	>0,1
III	T	35	6,7±0,10	3,65	<0,001
	N	32	6,8±0,10	2,67	<0,05
IV	T	27	6,6±0,09	3,77	<0,001
	N	19	6,7±0,10	2,14	<0,05

Demak, 1 sinf o‘quvchilarining pedagogik tajribalarning boshida qayt etgan natijalari tajriba guruhi o‘quvchilarida o‘rtacha 6,8±0,13 soniyaga teng bo‘lgan natijalani qayt etgan bo‘lsalar 2 sinf tajriba guruhi o‘quvchilarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari 6,8±0,10 soniyaga teng ekanligi ma’lum bo‘ldi. 1-2 sinf tajriba guruhi o‘quvchilarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari esa quyidagicha. Demak 1 sinf nazorat guruhi o‘quvchilari tajriba avvalida o‘rtacha 6,7±0,12 soniyaga va 2 sinf nazorat guruhi o‘quvchilari pedagogik tajriba avvalida o‘rtacha 6,7±0,21 soniyaga teng bo‘lgan natijani qayt etdilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan jismony test sinov (1600 m. masofaga yugurishda) mashqlarida 1-4 sinf o‘quvchilarining tadqiqot avvalidagi ko‘rsatkichlari matimatik statistik taxlil qilindi. Natijalarning ilmiy bayoni esa

quyidagicha ko‘rinishda. Demak unga ko‘ra 1 hamda 2 sinf o‘quvchilaridan shakillantitlgan nazotar guruhlarining natijalari 1 sinf o‘quvchilarida o‘rtacha 9,57±0,08 daqiqaga, 2 sinf nazorat guruhi o‘quvchilarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari esa 1 sinf o‘quvchilarining o‘rtacha ko‘rsatkichidan kichik farq bilan o‘rtacha 9,29±0,10 daqiqaga teng bo‘lgan natijani ko‘rsatdilar (2-jadvalga qarang).

2-jadval

1-4 sinif qo‘quvchilarining 1600 m. masofaga yugurishda ko‘rsatilgan natijalar (soniya, daqiqa)

Sinflar	Guruhi	№	Dastlabki x±m	t	p
I	T	17	10,00±0,21	3,16	<0,01
	N	16	9,57±0,08	1,49	>0,1
II	T	35	9,33±0,11	2,07	<0,05
	N	32	9,29±0,10	2,23	<0,05
III	T	35	8,87±0,12	2,22	<0,05
	N	32	8,89±0,08	1,17	>0,1
IV	T	27	8,50±0,12	2,59	<0,05
	N	19	8,52±0,17	0,31	>0,1

1-4 sinf o‘quvchilarining turgan joyda uzunlikka sakrash sinov mashig‘i bo‘yisha pedagogik tajrib avvalida qayt etgan natijalari matematik statistik taxlil qilinganida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari quyidagicha ekanligi aniqlandi. Demak unga ko‘ra 1 sinf tajriba guruhi o‘quvchilari uzunlikka sakrash mashig‘i bo‘yicha tadqiqot boshida o‘rtacha 116±1,55 sm ga, hamada nazorat guruhi o‘quvchilari esa tengdoshlaridan ko‘p farq qilmaydigan natijani ya’ni 114±1,43 smga teng bo‘lgan natijani qayt etdilar.

Ushbu mashq bo‘yicha 2 sinf o‘quvchilarining pedagogik tajriba avvalidagi o‘rtacha ko‘rsatkichlari quyidagicha natijalarni qayt etdilar. Demak 2 sinf o‘quvchi-laridan tashkil etilgan nazorat guruhi o‘quvchilari pedagogik tajribaning avvalida o‘rtacha 121±2,18 smga teng, tajriba guruhi o‘ruvchilari esa o‘rtacha 117±2,15 smga teng bo‘lgan natijalarni qayt etdilar natijalarga qarab hulosa qilish mumkinki ko‘rsatkichlar orasidagi farq sezilarli darajada kata emas (3.6-jadvalga qarang).

Turgan joyidan uzunlikka sakrash mashg‘i bo‘yicha 3 sinf o‘quvchilarining tadqiqot avvalida qayt etgan natijalari quyidagicha. Demak nazorat va tajriba guruhi o‘quvchilarining pedagogik tajriba avvalidagi ko‘psatkichlari nazorat

guruhi o‘quvchilarida o‘rtacha 133±3,15 smga, tajriba guruhi o‘quvchilarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari esa 123±3,32 smga teng ekanligini ko‘rish mumkin.

3-jadval

Turgan joyidan uzunlikka sakrashda erishilgan natijalar (m)

Sinflar	Guruhi	№	Dastlabki x±m	t	p
I	T	17	116±1,55	3,77	<0,001
	N	16	114±1,43	1,87	>0,1
II	T	35	117±2,15	3,90	<0,001
	N	32	121±2,18	2,48	<0,05
III	T	35	123±3,32	4,61	<0,001
	N	32	133±3,15	2,57	<0,05
IV	T	27	140±2,88	4,96	<0,001
	N	19	145±2,91	3,05	<0,01

O‘quvchlarning jismoniy tarbiya darslarini yuqori samaradorlikda tashkil qilish, o‘quvchilarning harakat sifatlarini rivojlantirish maqsadida harakatli o‘yinlarni, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslari jarayonida qo‘llashga qaratilgan, metodika ishlab chiqildi va metodikaning samaradorligi pedgogik tajribalar orqali asoslab berildi.

Murabbiy tomonidan yuqorida e’trof etilgan jihatlar bo‘yicha bilmlarni egallanganligi o‘quvchilarga beriladigan yuklamalarning shiddati hajmi meyori kabilrni to‘g‘ri taqsimlash imkonini beradi. Avval aytilganidek metodika ishlab chiqish davomida etibor qaratilishi lozim bo‘lgan eng dastlabki jihatlardan biri bu o‘quvchilarning yoshini inobatga olishdir.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodika o‘quvchilar harakat sifatlarini rivojlantirishga erishishda ma’lum yo‘nalishga asoslangan bo‘lib bunda harakatli o‘yinlarni qo‘llash orqali maktab o‘quvchilarni harakat sifatlarini rivojlantirishga erishishni nazarda tutadi.

Boshlang’ish sinif yoshidagi o‘quvchilarni jismoniy tarbiya darslari orqali maktablarda tashkil qilingan jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni harakatlarga o‘rgatishda harakatli o‘yinlarning ba’zi turlaridan maxsus vosita sifatida foydalanishni ko‘zda tutadi. Harakatli o‘yinlarni saralashda harakatli o‘yinlarning xususiyati, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshiga mos kelshiga qarab tanlandi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi ma’lumotlarga tayangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat malakalari, saralab olingan bir nechta sinov

mashqlari yordamida tadqiq qilinganida belgilangan talab darajasida rivojlanish darajasiga ega emasligi aniqlandi. ushbu muammoning yechimiga erishish uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning jismoniy tarbiya darslarida qo‘llaniladiga vosita va usullarni ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirish zarurati mavjud.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot ishlari jarayonida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlarga ko‘ra umumiy o’rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining jismoniy ko’rsatkichlarini, yuqori rivojlanish dinamikasida hamda barqaror rivojlanishiga erishish maqsadida jismoniy tarbiya fani dars jarayonlarini jamoaviy va individual talqinda milliy va harakatli o‘yinlarni inovatsion texnologiyalardan foydalangan holda joriy qilish orqali, to‘g‘ri tashkillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilishi ayni maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlar:

1. Abdullaeva M. Bolalar o‘yinlarida o‘zaro munosabatlar. //Boshlang‘ich ta’lim.- Toshkent – 2000 / 51-78 bet.

2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- Toshkent “Nihol nashryoti / 2013 yil 278 bet.

3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –Toshketn “O‘qituvchi”, 2004. -102 bet.

4. Jumaev M.E., M.Yu.Yuldasheva, B.U.Mingbaeva, G.A.Mamatova “Boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innavatsiyalar” metodik uslubiy qo‘llanma – Toshkent – 2017 / 74-85 bet.

5. Jammatov J.Sh. “Umum ta’lim maktabi sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabaqalash–tirilgan jismoniy tayyorgarligi”. Ped.f.b.f.d. diss. avtoreferati. Chirchik – 2020 y. 56 bet.

6. D.A. Zmaranda, L.-L. Pop-Fele, C. Gyorödi, R. Gyorödi, G. “Pecherle Performancye Comparison of CRUD Methods using NET Object Relational Mappers: A Case Study”.

ПОНЯТИЕ И ЗАДАЧИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Тожибоева Г. Р.
старший преподаватель доктор философских педагогических наук (PhD)
Чирчикского государственного педагогического университета

Tayanch so‘zlar: pedagogik diagnostika, rivojlanish, qobiliyat, shaxs, boshlang'ich sinf o'quvchisi, diagnostik kompetentsiya.
Ключевые слова: педагогическая диагностика, развитие, способности, личность, младший школьник, диагностическая компетенция.
Key words: pedagogical diagnostics, development, abilities, personality, primary school student, diagnostic competence.

Резюме:
Maqolada asosiy e'tibor boshlang'ich maktabda pedagogik diagnostikaning vazifalariga qaratilgan. Zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisi qo'llashi kerak bo'lgan pedagogik diagnostikaning ilmiy usullariga asoslangan kichik maktab o'quvchisi shaxsini, uning aql-zakovati, tadqiqotchilik qobiliyati, tafakkurini rivojlantirishning mohiyati ochib beriladi.
Резюме:
В статье акцентируются задачи педагогической диагностики в начальной школе. Раскрывается сущность развития личности младшего школьника, его интеллекта, исследовательских способностей, мышления с опорой на научные методы педагогической диагностики, которые должен уметь применять современный учитель начальных классов.
Summary:
The article focuses on the tasks of pedagogical diagnostics in primary school. It reveals the essence of the development of the personality of a primary school student, his intellect, research abilities, thinking based on scientific methods of pedagogical diagnostics, which a modern primary school teacher should be able to apply.

Происходящие в Узбекистане социально-экономические преобразования обусловили демократизatsiю системы образования и условия для внедрения в школьную практику педагогической диагностики. В целях обеспечения реализatsii задач по внедрению системы дифференцированной подготовки учителей, поставленных в постановлении Президента Республики Узбекистан от 25 января 2021 года, внедряется система дифференцированной подготовки учителей общеобразовательных школ. В целях качествен-

ной организатsии внедрения данной системы и надлежащей подготовки проводятся диагностические тесты, оценивающие знания и навыки учителей.

Действительно, возникновение новых типов образовательных учреждений, переход на образование по выбору, обновление его содержания, разработка новых технологий обучения и воспитания, освоение самой школой сферы дополнительных услуг, в том числе и платных, профессиональная конкуренция обусловили изменения требований общества к качествам личности учителя начальных классов и его профессиональной деятельности. В связи с этим появилась потребность в учителе, являющемся конкурентоспособным на рынке труда; специалисте высокого класса, способном создавать образовательные технологии на уровне мировых стандартов; специалисте, который с первых же дней пребывания ребенка в школе проявит себя по отношению к нему как профессионал. Потому большую роль в деятельности учителя начальных классов играет педагогическая диагностика.

Педагогическая диагностика классного руководителя в начальных классах с учащимися есть большая, целостная работа в отдельности с каждым ребенком, что позволяет выявить качество обучения и воспитания ребенка. После проделанной работы учитель анализирует полученные ответы, корректирует и делает прогнозы на развитие педагогического процесса школьника.

Без педагогической диагностики невозможно контролировать воспитательный процесс, грамотно формулировать педагогические задачи; невозможно организовать целенаправленный, обоснованный процесс развития личности учащегося.

В настоящее время в каждой общеобразовательной школе работают психологи, которые помогают как самим учащимся и им родителям, так и учителю. Но, каким бы квалифицированным специалистом он не был, он не сможет проявить к каждому обучающемуся свой индивидуальный подход. Рекомендатsии и наблюдения будут носить поверхностный характер.

В сложившейся ситуатsии приобретает большое значение диагностическая компетенция учителя начальных классов. Во-первых, он работает с небольшим количеством детей, видится с ними каждый день, общается и многое другое. Во-вторых, учитель после окончания вуза, имеет определенную психологическую подготовку к работе с детьми.

На сегодняшний день самыми важными качествами современного классного руководителя является умение изучать личность учащегося, умение контролировать темп личностного развития каждого ученика и управлять учебно-воспитательным процессом. Чтобы воспитать человека, необходи-

мо знать его во всех отношениях. В начале работы с детским коллективом, учителю необходимо подбирать такие методики работ с детьми, что помогут в формировании детского коллектива и его развитии.

В условиях глобализatsii профессионализм приобретает и будет все больше приобретать ценностную значимость. Это значит, что вопросы трудоустройства, зарплаты, аттестatsii специалиста будут зависеть от его профессиональной компетентности, в число которых входит и диагностическая компетенция.

В современном мире диагностическая деятельность классного руководителя начальных классов начальных классов становится все более востребованной. Это находит отражение в научных исследованиях по развитию профессиональной компетентности учителей.

Ориентatsiя на свободное самоопределение личности выдвигает на первый план задачи развития способностей и склонностей классного руководителя начальных классов, раскрытия его творческого потенциала. В значительной степени успешному решению этих задач способствуют средства и методы педагогической диагностики.

Анализ теоретической диагностики позволил выявить, что термин «педагогическая диагностика» в Узбекистане используется в образовательном процессе с начала 1980-х годов. Особенностью основного подхода к определению педагогической диагностики является распространение данного понятия в первую очередь на область дидактики. В большей степени характерно рассмотрение педагогической диагностики применительно как к обучению, так и к воспитанию. Важное место в диагностике воспитанности ставятся нравственные качества.

Многими отечественными и зарубежными психологами и педагогами (Ш.А. Абдуллаева, Ш. Курбанов, Э. А. Сейтхалилов, Э. Р. Юзликаева, О.М. Жаббарова, Г.Р. Тожибоева, Ю.К. Бабанский, Л.В. Занков, К. Ингенкамп и др.) доказано, что организatsiя обучения и воспитания на диагностической основе значительно повышает эффективность и результативность этих процессов. В научной литературе установлено, что успех учебно-воспитательной работы находится в прямой зависимости от уровня высокопрофессиональной деятельности классного руководителя начальных классов, в основе которой лежит теория и практика педагогической диагностики. Поэтому проблема диагностического обеспечения педагогического процесса приобрела особую актуальность не только в социальном аспекте, но и в научном.

Одной из важнейших профессиональных компетенций педагога является диагностическая компетенция. В профессиональном стандарте четко

определено, что педагогу нужно знать: основные закономерности возрастного развития, стадии и кризисы развития и социализatsiи личности, индикаторы и индивидуальные особенности траекторий жизни и их возможные девиatsiи, приемы их диагностики. Воспитательная деятельность начинается с диагностики личностных результатов обучающихся. Чтобы поставить цели и спланировать воспитательный процесс, прежде всего необходимо составить представление о нравственной воспитанности школьников: какие ценности они разделяют, какой нравственный идеал у них сформирован. Таким образом, согласно профессиональному стандарту классный руководитель должен работать над совершенствованием своих компетенций планирования и диагностики.

Сущность педагогической диагностики – изучение результативности учебно-воспитательного процесса в школе на основе изменений в уровне воспитанности учащихся и росте педагогического мастерства учителей.

Педагогическая диагностика призвана ответить на следующие вопросы: что и зачем изучать в духовном мире воспитателей и воспитанников, по каким показателям это делать, какими методами пользоваться, где и как использовать результаты информatsiи о качестве педагогической деятельности. При каких условиях диагностика органически включается в целостный учебно-воспитательный процесс, каким образом научить учителей самоконтролю, а учащихся – самопознанию.

Сущность педагогической диагностики определяет ее предмет: кого воспитывать в соответствии с поставленными целями и задачами воспитания (объект воспитания, критерии воспитанности), при каких условиях (воспитательная ситуatsiя), кто и что при этом должен делать (определение функций общества, семьи, школы, классного коллектива, самого ребенка), какими средствами, путями, методами воздействовать на воспитателей и воспитанников (деятельность субъектов воспитания).

Диагностика строится на материалистическом понимании связей человека с окружающей средой. Личность сознательно или бессознательно адаптирует к социальной среде, к условиям жизни и воспитательным требованиям. Этот процесс принято называть приспособлением. Но существует сознательное изменение себя и обстоятельств. Чем выше уровень общественного развития, тем теснее связь индивида с обществом, тем активнее его воздействие на историю, на социальный прогресс.

Педагогическая диагностика осуществляется в процессе обучения и воспитания. В большинстве случаев педагоги думают, что они знают своих учащихся, что никакого специального изучения не требуется. Но когда эти

знания подвергаются глубокому анализу, то оказывается, что они поверхностны и неадекватны. Классный руководитель начальных классов и воспитатели часто судят о своих воспитанниках по ранее сложившимся впечатлениям, по тем situatsiям, которые прежде возникали. Иногда некоторых школьников несправедливо относят к категории трудных, а действительно исправившийся трудный подросток еще долго ощущает настороженное отношение к себе своих учителей.

Диагностика, которую может осуществлять классный руководитель в работе с классом - это педагогическое изучение учащихся класса, получение данных об условиях их жизни, особенностях развития, обучения и воспитания.

С помощью различных педагогических диагностических методик учитель получает данные о качестве обучения, качестве воспитания младших школьников в школе. После получения данных, учитель анализирует их, оценивает, делает по полученным данным прогноз на будущее развитие педагогического процесса.

На прикладном и теоретическом уровне, диагностика классного руководителя начальных классов, помогает решать актуальные проблемы, такие как: что изучать, как изучать, какими методами, средствами, как контролировать состояние педагогического процесса, как использовать и фиксировать полученные результаты.

Литература:

1. Гутник Ирина Юрьевна Педагогическая диагностика как компонент содержания подготовки будущего учителя // ЧиО. 2016. №3 (48). URL: https:// cyberleninka. ru/article/n/ pedagogicheskaya-diagnostika-kak-komponent-soderzhaniya-podgotovki-buduschego-uchitelya

2. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика: Пер. с нем.- М.: Педагогика,1991. - 238 с. (Зарубеж.шк. и педагогика).

3. Тожибоева Г. Р. Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов // Наука и мир. – 2020. – Т. 2. – №. 1. – С. 32-33.

4. Тожибоева Гульмира Рифовна, Зилолахон Умарова. Проблема развития творческих способностей студентов в процессе обучения // SAI. 2024. №Special Issue 18. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/problema-razvitiya-tvorcheskih-sposobnostey-studentov-v-protsesse -obucheniya

5. Тожибоева Гульмира Рифовна. Педагогическая диагностика, Учебное пособие - Чирчик: «Zebo Prints», 2023. – 136 стр.

6. Тожибоева Г. Р., Мухамедшина Ш. Г., Pedagogika universitetida uzluksiz pedagogik amaliyotida pedagogic diagnostika, “Pedagog” respublika ilmiy jurnali, 7 – tom 4 – son/2024 - yil/15 – aprel., 510-513 б. https://bestpublication.org/index.php/pedg/article/view/10710/10680

7. Онахон Маннаповна Жабборова, Дилором Мукимовна Тошпулатова. Бошланғич синф ўқитувчиларига қўйиладиган талаблар // Академические исследования в области педагогических наук. 2021. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/boshlan-ich-sinf-ituvchilariga-yiladigan-talablar.

8. Курбанов Ш.Э., Сейтхалилов Э.А. Управление качеством образования. Т.: 2004. 675 с.2024).

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

MILLIY MADANIYATNI YANADA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI VA BU YO‘LDA MUSIQA O‘QITUVCHISINING OLDIGA QO‘YILGAN VAZIFALAR

Choriyev B.B.
Termiz davlat universiteti “Musiqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: san’at, iste’dod, musiqa, madaniyat, pedagog, etika, estetika, Farobiy, Shayx Sa’diy.
Ключевые слова: искусство, талант, музыка, культура, педагог, этика, эстетика, Фараби, Шейх Саади.
Key words: art, talent, music, culture, educator, ethics, aesthetics, Farabi, Shaykh Sa'di.

Резюме:
Mazkur maqolada milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi, pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to‘lash, rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari va musiqa o‘qituvchisining ta’lim va tarbiya berish samaradorligini oshirish yo‘lidagi vazifalari haqida bayon etildi.
Резюме:
В данной статье рассматривается концепция дальнейшего развития национальной культуры, права, обязанности, основные гарантии деятельности педагогов, принципы справедливого вознаграждения, стимулирования и социальной защиты их труда, а также задачи учителя музыки в повышении эффективности образования и воспитания.
Summary:
This article discusses the concept of further development of national culture, the rights, responsibilities, main guarantees of the activities of educators, the principles of fair remuneration, incentives and social protection of their work, and the tasks of music teachers in increasing the effectiveness of education and upbringing.

Kirish. Noyob san’at iste’dod qobiliyatiga ega har qanday shaxs, o‘ziga xos, takrorlanmas bir olamda yashaydi. Ijodiy aktlarning o‘ziga xosligi, ularga nisbatan extiyotkorlikni talab etgan holda ularni asrab avaylab iloji boricha uzoq muddatga saqlab, keyingi avlodlarga yetkazishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son Qarorida asosiy tamoyillar sifatida quyidagilar belgilab berilgan:[1]

Ijod erkinligi, madaniyatlararo munosabatlarda teng huquqlilik, inson huquqlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish va madaniyatlar xilma-xilligini saqlash;

Madaniyat va san‘at sohasida ta‘lim-tarbiyaning tizimliligi, ilmiyligi va davomiyligini ta‘minlash;

Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarning ommaviyligi va ochiqligiga erishish;

Shaxs ruhiyati va kamolotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi g‘oyalarga murosasiz bo‘lish kayfiyatini shakllantirish.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan kasb turidir. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr Al-Farobiy “Bu fan tanning sog‘lig‘i uchun foydalidir” degan edi. Bobomiz Shayx Sa’diy aytgan edi: “Musiqa odam ruhining yo‘ldoshidir”.[3]

- Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Musiqa insonga tez ta’sir etuvchi emotsional hissiyotni aktiv rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatini ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go‘zallikni xis eta oladigan, o‘z kasbiga, ona vataniga mehr qo‘ygan bo‘lishi kerak. Shu bois o‘quvchilarda inson ma’naviyatining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo‘lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqa o‘qituvchisining oldiga qo‘yilgan vazifalari quyidagilardir:

1. O‘quvchilarda musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirish.

2. Musiqiy faoliyatlar jaroyonida badiiy ijodkorlik va his-tuyg‘ularni rivojlantirish.

3. Asarlarning badiiy-g‘oyaviy mazmuni vositasida o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash.

4. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o‘quvchilarda ishtiyoq uyg‘otish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o‘qituvchining professional va axloqiy qiyofasiga bog‘liq. Har qanday san’atkor ham maktabda musiqa

darslarini olib borolmaydi. Buning uchun, musiqa o‘qituvchisi o‘z kasbiga va bolalarga mehr qo‘ygan yuksak madaniyatli keng dunyoqarashli ma’naviy yetuk, biron bir cholg‘u asbobini mohirlik bilan ijro eta oladigan shaxs bo‘lmog‘i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fizologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy sohalaridan, musiqa o‘qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo‘lmog‘i kerak. Musiqa o‘qituvchisi musiqa san’atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lishi lozim.

Ya’ni musiqa o‘qituvchisi cholg‘uchi, xonanda, dirijyor, jo‘rnavozchi, musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ish ko‘rmog‘i lozim.

Tahlil va natijalar. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarish, maktabda musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarish, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllarini (san’atkorlar bilan uchrashuvlar, ma’ruza-konsertlar, shoirlar bilan uchrashuvlar, “Navro‘z” bayramlari, “Alifbe” bayramlari) uyushtirish va tashkil etish musiqa o‘qituvchisining zimmasiga yuklatiladi va vazifasiga kiradi. Shu bilan birga, maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi markazlari (bolalar musiqa maktablari, bolalar teatri, o‘quvchilar saroylari) bilan aloqada bo‘lib, iqtidorli o‘quvchilarni jalb etish va faoliyatini maktab hayotida qo‘llash ham musiqa o‘qituvchisining zimmasidagi vazifasidan biridir.

Xulosa va takliflar. O‘zbekistonning “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra “9 va 11 yillik umumiy o‘rta ta’lim” joriy etildi. Barcha o‘quv predmetlari qatori musiqa predmeti bo‘yicha ham aytish konseptsiyasi ishlab chiqildi. Yangi dastur mazmunida milliy musiqa meroslaridan to‘laqonli foydalanish, ommaviy xalq kuylari va qo‘shiqlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqa o‘z aksini topgan. Mazkur dasturning o‘quv jarayoni, musiqa o‘qitish metodikasi. Darslarning yil, chorak mavzulari, taxminiy rejasi, namunaviy darslar ishlanmasi, mahalliy musiqa va dars faoliyatlari dars mavzusining ajralmas bir qismi bo‘lib, umumiy mavzuga bo‘ysunadi va mantiqan uzviy birlashib mazmunan bir butunlikni tashkil etadi. Bu hozirda ishlayotgan o‘qituvchilardan ish mazmuni va uslubida yangilanish jarayonini talab etadi.

Demak, yangi dastur mazmunida dars o‘tish uchun, musiqa o‘qituvchisi o‘zining musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Chunki, mamlaktimizda yosh avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini, insonni ma’naviy, ma’rifatli qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishda jamiyat va davlat tomonidan qo‘yilgan katta ma’suliyatni musiqa o‘qituvchisining oldiga vazifa qilib qo‘yilmoqda. Musiqaning millatimiz taraqqiyoti yo‘lidagi xizmati g‘oyat beqiyosdir. Musiqa

kelajak avlodlarining ongini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi. Musiqa nafaqat madaniy, balki siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning naqadar ma’suliyatli ekanini his qilmoq kerak.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son Qarori. https://lex.uz/docs/4084926.

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.02.2024 yildagi O‘RQ-901-son. https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/01/pedagog-maqomi/.

3. B.R.Boltayev “Maktabgacha ta’limda musiqa tarbiyasi” o‘quv qo‘llanma. “SamDU tahririy-nashriyot” bo‘limida chop etilgan. 2019-yil. 14-bet.

ETNOMUSIQANING XALQ IJODIYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Xakimov O.B.
Termiz davlat universiteti “Musiqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: etnomusiqashunoslik, etnomusiqa, etnojaz, xalq ijodiyoti, folklor, xalq musiqasi, kuy va garmoniya, ritm, shakl va janrlar.
Ключевые слова: этномузыковедение, этномузыка, этножаз, народное творчество, фольклор, народная музыка, мелодия и гармония, ритм, формы и жанрыю
Keywords: ethnomusicology, ethnomusic, ethnojazz, folk art, folklore, folk music, melody and harmony, rhythm, form and genres.

Резюме:
Ushbu maqolada etnomusiqaning turli xalqlar, madaniyatlar va etnik guruhlar orasidagi aloqalari va ularning musiqa merosini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy soha ekanligi, "Etnomusiqa" atamasi, an’anaviy va xalq musiqasi, uning shakllari, uslublari va rivojlanishi, etnomusiqaning asosiy tushunchalari, uning rivojlanish tarixi, janrlari va hozirgi zamon etnomusiqasining ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.
Резюме:
В данной статье рассматривается этномузыковедение как научная область, направленная на изучение связей между различными народами, культурами и этническими группами, а также их музыкального наследия. Обсуждаются термин «этномузыка», традиционная и народная музыка, ее формы, стили и развитие, основные понятия этномузыковедения, история его развития, жанры и значение современной этномузыки.
Summary:
In this article, ethnomusicology is a scientific field focused on the study of relations between different peoples, cultures and ethnic groups and their musical heritage, the term "ethnomusic", traditional and folk music, its forms, styles and development, the main concepts of ethnomusicology, its the history of development, genres and importance of contemporary ethnomusic are discussed.

Kirish. Etnomusiqashunoslik – bu xalq musiqasini, uning tarixi, shakllari, funksiyalari va jamiyatdagi o‘rnini o‘rganadigan fan sohasidir. Xalq ijodiyoti esa, milliy an’analar, urf-odatlar va ijtimoiy hayotning musiqiy ifodasidir. Etnomusiqashunoslikning xalq ijodiyotidagi o‘rni va ahamiyati quyidagi jihatlardan iborat:

1. Madaniy merosni saqlash: Etnomusiqashunoslik xalq musiqasining noyob namunalarini o‘rganib, saqlash va tadqiq etish orqali milliy madaniyatni

avloddan-avlodga yetkazadi. Bu xalq musiqasining o‘ziga xosligini, uning tarixiy va madaniy ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

2. Musiqiy boylikni o‘rganish: Xalq ijodiyoti turli musiqiy janrlar, qo‘shiqlar, raqslar va cholg‘ularning shakllanishi va rivojlanishini yoritadi. Etnomusiqashunoslik ushbu boyliklarni ilmiy ravishda o‘rganib, xalq musiqasining tushilishi, estetikasi va uslubiy xususiyatlarini aniqlaydi.

3. Jamiyatni tahlil qilish: Xalq musiqasi o‘sha jamiyatning ruhiyatini, qadriyatlarini, ijtimoiy munosabatlarini va tarixiy tajribalarini aks ettiradi. Etnomusiqashunoslik bu musiqaning ma’no va funksiyasini tushunishga yordam beradi, shuningdek, xalq musiqasi jamiyatda qanday rollarni bajarishini o‘rgatadi.

4. Xalq musiqasining ta’siri: Etnomusiqashunoslik xalq musiqasining boshqa madaniyatlar va san’at shakllariga ta’sirini tahlil qiladi. Bu jarayon musiqaning universal ahamiyatini va madaniyatlararo aloqalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

5. Xalq ijodiyotining zamonaviy kontekstda qiymati: Bugungi kunda etnomusiqashunoslik nafaqat xalq musiqasini saqlash, balki uni zamonaviy san’at va madaniyat bilan integratsiya qilishga ham e’tibor beradi. Bu xalq musiqasining innovatsion rivojlanishiga va yangi shakllarini yaratishga yordam beradi.[1]

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umuman olganda, etnomusiqashunoslik xalq ijodiyotini o‘rganish orqali milliy va global madaniyatning rivojiga xizmat qiladi, xalqlar o‘rtasidagi madaniy muloqotni rivojlantiradi va xalq musiqasining ahamiyatini oshiradi.

Etnomusiqa - bu musiqaning turli xalqlar, madaniyatlar va etnik guruhlar orasidagi aloqalari va ularning musiqa merosini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy soha. “Etnomusiqa” atamasi ilk bor XX asrda etnomusiqashunoslik ilmiy sohasi shakllanib, uning tadqiqotlariga e’tibor qaratilganidan keyin paydo bo‘ldi. Etnomusiqa, asosan, an’anaviy va xalq musiqasi, uning shakllari, uslublari va rivojlanishi bilan shug‘ullanadi.[2] Ushbu maqolada etnomusiqaning asosiy tushunchalari, uning rivojlanish tarixi, janrlari va hozirgi zamon etnomusiqasining ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

- Tadqiqot metodologiyasi. Etnomusiqa tushunchasi 1900-yillarning boshlarida shakllana boshladi. Etnomusiqashunoslik, asosan, musiqa va etnografiya sohalarining kesishgan nuqtasida rivojlanadi. Musiqa o‘ziga xos ijtimoiy va madaniy hodisa bo‘lib, unda xalqlarning dunyoqarashi, urf-odatlari, tarixiy tajribalari aks etadi. Etnomusiqashunoslik va etnomusiqa sohasining shakllanishi etnografiya va folklor tadqiqotlari bilan chambarchas bog‘liqdir. [3]

Musiqaning butun dunyo bo‘ylab tarqalishi va o‘zaro aloqalarning kuchayishi bilan etnomusiqa, xalqlar va madaniyatlarning musiqa an’analari o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar boshlanadi. Birinchi etnomusiqashunoslik tadqiqotlari 19-asrning oxirida, asosan, Yevropaning turli mintaqalarida olib borilgan. O‘z navbatida, bu tadqiqotlar musiqaning xalq va an’anaviy shakllariga oid ilmiy qarashlarning shakllanishiga xizmat qildi.

- Tahlil va natijalar. Etnomusiqa turli xalqlar va madaniyatlarda turli shakllarda mavjud bo‘lishi mumkin. Biroq, uning asosiy elementlari ko‘pincha umumiydir va quyidagicha tasniflanadi:

1. Kuy va garmoniya: Har bir xalqning o‘ziga xos kuy tizimi mavjud. Kuy – bu musiqaning ritmik va tonalli tuzilmasi, garmoniya esa akkordlar va tovushlarning birlashmasidan tashkil topadi. Etnomusiqada garmonik tizimlar, odatda, oddiy yoki murakkab bo‘lishi mumkin.

2. Ritm: Ritm etnomusiqada muhim rol o‘ynaydi. Xalq musiqasida ritmik tuzilmalar o‘zgaruvchan va ba’zan noan’anaviy bo‘lishi mumkin. Har bir etnik guruhning o‘ziga xos ritmik an’analari bor.

3. Musiqa cholg‘ulari: Etnomusiqa turli xalq musiqalarida turli xil musiqa cholg‘ularidan foydalanadi. Masalan, sharq musiqasida qobuz, dutor, rubob kabi torli cholg‘ular, G‘arb musiqasida esa skripka, gitara, pianino kabi cholg‘ular keng tarqalgan.

4. Shakllar va janrlar: Etnomusiqa shakllari ko‘pincha an’anaviy va xalq janrlariga asoslanadi. Ushbu janrlar xalqlarning tarixiy, madaniy va diniy an’analari bilan chambarchas bog‘liqdir. Misol uchun, turli xalq qo‘shiqlari, raqslar, marosimlar va ritual musiqalari etnomusiqaning turli shakllarini tashkil etadi.

Etnomusiqa xalqning madaniyati, tarixiy tajribalari, ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Har bir xalq o‘z musiqasini an’anaviy tarzda yaratadi va bu musiqalar orqali o‘z madaniyati va tarixini ifodalaydi. Masalan, o‘zbek xalq musiqasida, asosan, “shashmaqom” va “maqom” tizimlari bilan ifodalangan musiqiy an’analar mavjud. Bu musiqalar nafaqat eshitiladigan san’at shakli, balki xalqning diniy, ijtimoiy va hayot tarzini aks ettiruvchi hodisadir.[4]

Bundan tashqari, etnomusiqa ijtimoiy hodisa sifatida ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Musiqa xalqlar uchun ijtimoiy va ruhiy jihatdan muhim bo‘lib, ko‘plab marosimlar, bayramlar, nikoh va boshqa ijtimoiy voqealar musiqasiz o‘tkazilmaydi. Shu sababli, etnomusiqa xalqning o‘ziga xos dunyoqarashini va hayotini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda etnomusiqa nafaqat xalq musiqasining an’anaviy shakllari bilan cheklanmaydi. Globalizatsiya va texnologiyaning rivojlanishi bilan

etnomusiqa yangi shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Yangi texnologiyalar yordamida xalq musiqalari o‘zaro uyg‘unlashmoqda, turli xalqlarning musiqiy an’analari bir-biriga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon “dunyo musiqasi” (world music) deb nomlangan janrni yaratdi.

“Dunyo musiqasi” janri o‘zida etnik musiqaning elementlarini birlashtirgan, ammo global miqyosda mashhur bo‘lgan musiqalarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda, etnomusiqa zamonaviy musiqalar bilan uyg‘unlashib, yangi janrlarni yaratishda davom etmoqda. Xalq musiqasining zamonaviy shakllari musiqachilar tomonidan turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, birlashuvni va ko‘p madaniyatlilikni aks ettirishga xizmat qiladi.[5]

Etnomusiqaning kelajagi davom etayotgan madaniy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Globalizatsiya jarayonlari, texnologiyalar va madaniyatlararo aloqalar etnomusiqaning yangi shakllarini yaratishga imkon bermoqda. Shu bilan birga, an’anaviy musiqalarni saqlab qolish va avloddan-avlodga o‘tkazish masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Etnomusiqa nafaqat madaniy merosni saqlash, balki turli xalqlar o‘rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Etnomusiqa - bu nafaqat xalq musiqasining o‘rganilishi, balki uning madaniyat va jamiyatdagi o‘rni, tarixiy, ijtimoiy va diniy ahamiyatini anglatadi. Etnomusiqa sohasining rivojlanishi musiqaning xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi bog‘lanishini, o‘zaro ta’sir va uyg‘unlashuvni o‘rganishga imkon beradi. Hozirgi kunda etnomusiqa nafaqat an’anaviy shakllarda, balki zamonaviy musiqaning bir qismi sifatida ham rivojlanmoqda. Shu sababli, etnomusiqa nafaqat o‘ziga xos san’at shakli sifatida, balki global madaniyatlarning ajralmas qismiga aylangan muhim ilmiy va madaniy sohadir.

Etnojaz - bu musiqa va adabiyotdagi janr bo‘lib, unda milliy va etnik elementlar, shuningdek, an’anaviy musiqiy uslublar zamonaviy jaz musiqasi bilan birlashtiriladi. Bu janrda turli xalqlarning an’anaviy musiqasi jazning ritmik va garmonik tuzilmalari bilan uyg‘unlashtiriladi. Etnojaz, ko‘pincha milliy musiqiy cholg‘ular va ohanglarni zamonaviy jazz-kompozitsiyalar bilan birlashtirish orqali yangicha va noyob tovushlarni yaratadi.

Shu o‘rinda o‘zbek san’atiga o‘ziga xos yo‘nalish olib kirgan ijodkor Ravshan Namozov ijodi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Ravshan Namozov - o‘zbek folklor va estrada janrlarini birlashtirib, o‘zgacha milliy yo‘nalishni yaratilishiga qo‘shgan hissasi bilan tanilgan. Ravshan Namozov “etnojaz” (etnik jaz) kabi janrlar bilan shug‘ullanishi bilan ham e’tiborga molik. [7]

Ravshan Namozovning “Mana shundoq” qo‘shig‘i o‘zining samimiyligi va jozibadorligi bilan tanilgan. Ushbu qo‘shiqda san’atkor sevgi, qayg‘u

va hayotdagi murakkab vaziyatlar haqida o‘z fikrlarini ifoda etadi. Uning ovozi, musiqa va so‘zlar orasidagi uyg‘unlik qo‘shiqning tinglovchilar uchun ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Qo‘shiqning so‘zlari oddiy va tushunarli bo‘lishiga qaramay, undagi ma’nolarni har bir tinglovchi o‘zicha qabul qiladi. “Mana shundoq” qo‘shig‘i ko‘pincha ko‘plab odamlar tomonidan sevilgan va yodga olinadigan qo‘shiqlardan biri bo‘lib, Ravshan Namozovning ijodi va uning xalq o‘rtasida keng tarqalgan mashhurligini aks ettiradi.

Ravshan Namozov - o‘zbek xalq musiqasining taniqli ijrochisi va bastakori. Uning folklor qo‘shiqlari o‘zbek xalqining turli urf-odatlarini, an’analarini, hayotini aks ettiradi. Namozovning qo‘shiqlari ko‘plab tinglovchilarni o‘zining samimiyligi, xalqona ruhiyatiga yaqinligi bilan jalb qiladi.

Namozovning qo‘shiqlari ayniqsa yurtimizning mahalliy folklor an’analarini saqlashga va ularni zamonaviy auditoriyaga yetkazishga xizmat qilgan. U hali ham o‘zining ijodi va ijrolari bilan mashhur bo‘lib kelmoqda.

Ravshan Namozov 1961-yil 10-iyul kuni Termiz shahrida san’atkor Abdurahmon Namozov oilasida dunyoga kelgan. Termiz musiqa bilim yurtini tamomlagan, u yerda o‘z otasi Abdurahmon Namozov va Shokir Mahmudovdan saboq olgan. U 1985-yil Germaniyada o‘tkazilgan “Yoshlar festivali” va 1990-yil Olmaotada o‘tkazilgan “Osiyo ovozi” birinchi xalqaro festivalida gran-prini qo‘lga kiritgan.

Ravshan Namozov o‘z ijodini 1989-yilda tuzilgan “Qars” guruhida boshlagan. 1991-yildan yakkaxon chiqishlar qilgan. 1993-yil “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoniga sazovor bo‘lgan.

Ravshan Namozov zamonaviy uslubda aytilgan surxon qo‘shiqlari bilan tanilgan. Uning “Xayol”, “Yor-yor yoron-ey”, “Biyo-biyo”, “Chipradalli”, “Kovushim”, “Mana shundoq” kabi qo‘shiqlari xalq orasida ancha mashhurlikka erishgan, san’at shinavandalarining ko‘nglidan joy olgan.

2022-yil 24-sentyabrda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Ravshan Namozov bu yorug‘ olamni bevaqt etdi.

- Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada etnomusiqashunoslikning xalq ijodiyotidagi o‘rni va ahamiyati keng ko‘lamda tahlil qilindi. Etnomusiqashunoslik, xalq musiqasining tarixi, shakllari va jamiyatdagi roli orqali madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Etnomusiqashunoslik nafaqat an’anaviy musiqani o‘rganadi, balki zamonaviy madaniyat va san’at bilan integratsiya jarayonlarini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Ushbu maqola yuzasidan quyidagi takliflarni berish mumkin:

- Etnomusiqashunoslikni yanada rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlar va anjumanlar tashkil etish muhimdir. Bu, mualliflar va tadqiqotchilarning o‘zaro fikr almashishini va yangi g‘oyalar bilan tanishishini ta’minlaydi.

- Xalq musiqasining an’anaviy shakllarini zamonaviy musiqaga integratsiya qilish uchun san’atkorlarga ko‘mak berish va yangi ijodiy loyihalar ishlab chiqish zarur.

- O‘quv dasturlarida etnomusiqashunoslik va xalq musiqasining ahamiyatini oshirish uchun maxsus kurslar va seminarlar o‘tkazish taklif etiladi.

- Xalq musiqasining o‘zaro ta’sirini kuchaytirish va madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish maqsadida xalqaro festivallar va tadbirlar tashkil etish zarur.

- Yosh avlodni xalq musiqasi va etnomusiqashunoslik bilan tanishtirish uchun ijodiy dasturlar va musiqiy tanlovlar o‘tkazish muhimdir.

Bu takliflar etnomusiqashunoslik sohasini rivojlantirish va xalq ijodiyotining ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Etnomusiqa nafaqat madaniy merosni saqlash, balki xalqlar o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Этномузыкология: история формирования научно-образовательных центров, методы и результаты ареальных исследований: Материалы международных научных конференций 2011-2012 годов [Электронный ресурс]:-Электрон. дан. -СПб: СПбГК (Санкт-Петербургская государственная консерватория имени Н. А. Римского-Корсакова), 2014. 601с. Режим доступа: http://e.lanbook.com/books/element.php?pl1_id=72782 ЭБС «Лань».

2. Лобкова Г. В., Иванова Т. Г. История фольклористики и этномузыкологии (конец XVIII-XIX век): Учебное пособие. Направление подготовки 53.03.06 Музыкознание и музыкально-прикладное искусство. Направленность (профиль) программы «Этно-музыкология». СПб.; Саратов: Амирит, 2020. 396 с.

3. Фольклорно-этнографическая практика: Учебно-методический комплекс по направлению подготовки 072901 «Музыковедение» [Электронный ресурс]:-Электрон. дан. -СПб.: СПбГК (Санкт-Петербургская государственная консерватория имени Н.А.Римского-Корсакова), 2013. 19 с. -Режим доступа:http://e.lanbook.com/books/element.php?pl1_id=72781

4. Фундаментальная электронная библиотека «Русская литература и фольклор». URL: http://feb-web.ru/

5. Фольклор и постфольклор: структуры, типология, семиотика. URL:

6. http://www.ruthenia.ru/folklore/

7. Академик. Словари и энциклопедии: Web: http://www.dic.academic.ru

8. https://uz.wikipedia.org/

9. D.A.Karimova Musiqiy pedagogik mahorat asoslari o‘quv qullanma. T. 2008 y.

10. Fayziyev O.O‘quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish. T. 1992 yi.

11. Sharipova G.M. Musiqa va uni o‘qitish metodikasi. T.Turon-Istiqbol 2006 y.

12. Maqomat.O.Matyoqubov. Musiqa nashriyoti T. 2004 y.

13. . O.Ibrohimov O‘zbek xalq musiqa ijodi.T. 1997 y.

O‘ZBEK DOSTONCHILIGI

Hamidov Sh.O‘.
Termiz davlat universiteti musiqa ta’limi kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: baxshi, jirov, baxsi, do’mbira, terma, nag’ma, ashula ,qo’shiq, xalfa, shoir, yuzboshi.
Ключевые слова: бахши, джиров, бахси, домбира, терма, нагма, песня, песня, калфа, поэт, юзбаши.
Key words: bakhshi , jirov, baxsi, dombira, terma, nagma, song ,song, kalfa, poet, yuzbaşi.

Резюме:
Ushbu maqolada o‘zbek dostonchiligining paydo bo’lish bosqichlari,ularning voxalarga mansub ijro yo’llari va uslublari, dostonchilikni yuzaga kelishi haqida so’z yuritilgan. O’sha davrlarda yashab ijod etgan halq baxshilari hamda ularning ijod yo’llarini davom ettirb kelgan shogirdlarining faoliyatlari haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari Tojikiston, Qoraqalpog’iston, Qirg’iziston respublikalari baxshichilik san’ati to‘g’risida ma’lumotlar bayon etilgan.
Резюме:
В данной статье описаны этапы становления узбекской саги, способы и стили исполнения в последствии, а также возникновение саги. Обсуждалась деятельность людей, живших и работавших в те времена, и деятельность их учеников, продолжавших свое творчество. Кроме того, представлены данные по боевым искусствам республик Таджикистан, Каракалпакстан, Кыргызстан.
Summary:
This article describes the stages of the emergence of Uzbek saga, ways and styles of performance in the wakes, and the emergence of saga. The activities of the people who lived and worked in those times and the activities of their disciples who continued their creativity were discussed. In addition, data on martial arts of the republics of Tajikistan, Karakalpakstan, Kyrgyzstan are presented.

O‘zbek xalq musiqsai merosi boy va uzoq o‘tmishga ega. Uning ildizlari ming yillik tarixga egaligi manbalarda zikr etib kelinadi. Doston – o‘zbek xalqining qadimgi ma’naviy – madaniy va badiiy merosi, durdonasi bo‘lib uninng asosini xalq hayoti va kurashi, orzu umidlari tashkil etadi. Xalqqa xos insonparvarlik, qahramonlik, mardlik, mehnatga muhabbat, do‘stlik, sevgi va sadoqat kabi olijanob fazilatlar xalq dostonlaridagi qahramonlar obrazi mujassamlashgan. Doston – o‘zbek mumtoz musiqasi yirik epik janri bo‘lib,

oʻziga xos mavqei, mazmuni, shakli, ichki qonuniyatlari va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Xalq dotonlarida epik tasvir, koʻpincha nasr (soʻz) bilan, lirik kechinmalar she'r va musiqa orqali ifodalanadi. Ular asrlar osha shu kulargacha saqlanib, yashab sayqal topib xalqimiz hayotida muhim oʻrin egallb kelmoqda. Dunyodagi ayrim xalqlarda oʻzining boy tarixiga oid lirik hajmdagi, katta qiziq-qiziq voqea va sarguzashtlarni hikoya, qissa, maqtash "doston" soʻzi ma'nosini anglatadi. Oʻzbek xalq dostonchilgi, shunigdek, epik hikoya, doston janri (doston , qissa, hikoya, madhiya, qasida, sarguzashlari o'zining nasriy va nzmiy unsurlarini musiqa cholg'u jo'navozligida qamrab olganligida namoyon bo'ladi. Boston she'riy va nasriy parchalardan iborat matndan, aytim va cholg'u musiqasidan, doston aytuvchining xonandalik san'atidan va soz cherta bilishidan iborat. Shu bilan birga, dostonning bevosita tinglovchilar davrasida qaynab va ilhomga kirib, ijrochining tinglovchi bilan jonli muloqotda bo'lishi, badihago'ylik uslubiga tayanish doston ijrochiligida muhim ahamiyat kasb etadi. Dostonlarning paydo boʻlishining asosiy manbai xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayotidir. Dostonlarning yuzaga kelishida, saqlanib va rivoj olishida ijrochi baxshi, dostonchi, shoir , jirov, yuzboshilar muhim o'rin egallaydi. Qadimgi zamonlarda "baxshi" soʻzi xalqona usullar bilan bemorni davolochi tabib, doira yoki boshqa cholg'u chalib, afsungarlik aytimlari orqali kasal tanasidan yovuz ruhlarni quvadigan davolovchi shaman – baxshi yoki shaman folbinchi, shuningdek ayrim hududlarda "ustoz" ma'nolarini anglatadi. Bugungi kunda bu soʻz xalq dostonlarini kuylaydigan ijodkor san'atkorni bildiradi. Baxshi cholg'u chertganda sozanda, she'riy parchalarni kuyga solib aytganda xonanda, matnlarni bir zumda toʻqib ketadigan shoir, dostondagi hikoya parchalarini yoddan oʻqiydigan soʻz ustasi, harakat va mimika orqali ifodalovchi aktyor hamdir. Doston aytuvchilarni turli xududlarda o oʻziga xos she'vasida: Xorazmda – dostonchi, baxshi yoki xalfa (ayol ijrochi;)

Qashqadaryo-Surxandaryoda – yuzboshi, baxshi, shoir; Samarqandda – baxshi,

Xoʻjand (Tojikiston) va Oʻsh (Qirg'iziston) viloyatlarida – soqiy yoki azanda, Farg'ona vodiysida (Namangan) - baxshi yoki sannovchi, Qoraqalpog'istonda – baksi va jirov deb aytishgan. Dostonlarning mavzusi va shakllari asrlar davomida yuzaga kelgan an'analarga asoslanadi. Ular mavzu doirasi jihatidan juda keng boʻlib, vatanga sadoqat, qahramonlik, xalqning qudrati, ozod mehnati, sevgi, do'stlik, tinchlik, hurlik, haqiqat, ishonch, umid, insoniylik kabi ezgulikni targʻib qiladi. Dostonlarda hikoya qilinadigan voqealar ma'lum bir qabila tomonidan chegaralanmagan; ularda hayot va turmush mulohazalari, oila munosabatlari va orzu-umidlari ifoda etib kelingan. Ozodlik va ona yurt, vatan

uchun olib borilgan qahramonlik, hamrohlari yoki mahbubalarini qutqarish, chin sevgi, bosqinchilik yoki tahqirlashga qarshi kurashga chorlovchi, umuman olganda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ahillik, ezgulik kabi insoniy fazilatlar ulug'lanib, yovuzlik qoralanadi va ushbu mavzularni talqin etish dostonchilikning xususiyatlaridandir. O‘zbekistonda mavjud dostonlarni mavzusiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: 1. Qahramonlik-bahodirlik dostonlari; 2. Tarixiy dostonlar; 3. Romanik (sevgi haqidagi) dostonlar; 4. Diniy dostonlar. Bulardan tashqari jangnoma, maishiy, zamonaviy va avtobiografik dostonlar ham amaliyotda mavjud. Har bir dostonning muaddimasi cholg’u kuyi ohanglari yordamida ochilib beriladi. “Sayqal” va boshqa cholg’u kuylari odatda har bir aytim – terma namunalaridan keyin yoki oldin ijro etiladi. O’zbek dostonchilk san’atida ikkita asosiy ijro uslui mavjud: 1. Rechitativ – deklmatsion – tomoq, ya’ni “bo’g’iq ovoz” aytimi. Mazkur aytim jarangsiz, xira bo'lib, u do'mbira yoki qo'biz jo'rligida birmuncha jonli tus oladi (Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan viloyatining Pop tumani). 2. Qo’shiqsimon- kuychan – cholg’u ansambli jo’rligida (Xorazm voxasi) ijro etiladi. Ularda kuy tuzilishi, xarakteri va ritm-usul holatlari ancha rivojlangan.

Ushbu musiqiy dostonlarda terma qo‘shiq ijro tarzi turlicha bo‘lib, u baxshining badiiy didi va mahoratiga bog'liq bo‘ladi. Baxshi ijro jarayonida dostondagi har bir tasvirga mos so‘z, she’r va kuy topib, avjga chiqa boradi, o‘zlarining ta’biri bilan aytganda, “qaynaydi”. Ayrim holatlarda u tinglovchilarga murojaat etib, ularning diqqatini o‘ziga jalb qilib turadi. Yirik namoyandalari - Fozil Yo‘ldosh o‘g'li (1872-1955), Ergash Jumanbulbul o‘g’li (1868-1937), Po‘lkan shoir (1874-1941), Islom shoir (1874-1956) Samarqand maktabi yuksak darajaga ko‘tarilishiga katta hissa qo‘shishgan. Ularning repertuarida “Alpomish”, “Yodgor”, “Kuntug’mish”, “Avazxon”, “Sohibqiron” kabi o‘nlab dostonlar o‘rin olgan. Qashqadaryo dostonchilik maktabi (G‘uzor, Shahrisabz, Chiroqchi, Qamashi, Yakkabog’, Dehqonobod) o‘z repertuari musiqiy-poetik yo‘lda aytilgan. Kuylari kalta, diapazoni kichik, ritm-o‘lchovi ravon. Xalq kuylaridan ham keng foydalanib kelingan. Yirik namoyandalaridan — Abdulla shoir Nurali o‘g’li (1874-1957), Xudoyqul baxshi Niyozov, Hamro shoir, Qodir baxshi Rahimov. Hozirgi kunda ularning shogirdlari O’zbekiston xalq baxshilari Shomurod baxshi Tog‘ayev, Abduqahhor baxshi Rahimov va boshqalar ustozlari an’analarini davom ettirmoqdalar. Surxondaryo dostonchilik maktabi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrlarda dong’i ketgan baxshichilik san’atining markazi bo’lgan. Bu davrda yashab, ijod etgan baxshilar Boysun-Sherobod dostonchilik maktabi bilan bog’liqdir. Bu maktab namoyandalari nafaqat doston aytish, balki termachi va do’mbirachi sifatida ham mashhur

bo’lishgan va ushbu an’ana hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Surxondaryo dostonchilik maktabi (Boysun, Sherobod, Qumqo‘rg’on, Sho‘rchi, Denov, Angor) voha musiqa uslubining muhim qismi bo‘lib, qahramonlik-bahodirlik dostonlar ijrosi asosiy o‘rin egallaydi. Tantanavorlik, jozibali xarakterdagi ijro do‘mbira kuylari bilan hamohangdir. Surxondaryoga xos bo‘lgan “qo‘ng’irotcha nag‘malar» ham dostonlarda qo‘llanib kelingan. Yirik namoyandalari — Sherna baxshi Beknazar o‘g’li (1855-1915), Mardonqul Avliyoqul o‘g’li, Umar Safar o‘g’li, Ahmad yuzboshi, Chori yuzboshi, Xoliyor Abdunazarkarim o‘g’li, Xushvaqt Mardonqulov, Muhammad baxshi Berdiqulov, ularning shogirdlari — O‘zbekiston xalq baxshilari Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov, Boborayim Mamatmurodov va boshqalar. Surxondaryo vohasida “Go‘r‘og’li” dostonining 32 ta varianti, “Alpomish” dostonining 40 ta varianti keng tarqalgan.

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov “Yuksak ma’nviyat-engilmas kuch” Toshkent. Ma’naviyat. 2008yil.
2. Sh. M. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”.
3. G’.G’ofurov “Xlq o‘yinlari, qo‘shiqlar va an’anlriga bir hazar”. Toshkent Kamalak. 1992 yil.
4. T. Mirzayev, B. Sarimsoqov “O‘zbek poetikilodi”.Toshkent. O‘qituvchi. 1963 yil.
5. F. Karimov “O‘zbek xalq musiqa me’rosi” Toshkent. G’G’ulom. 1985 yil.
6. N. Qosimov “Musiqa folklor ijrochiligi” Toshkent. G. G’ulom. 2003 yil.
7. O‘.Toshmatov O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi “Toshkent. G. G’ulom. 2015 yil.
8. S.Yoldoshev, G’ Sattorov “Folklor-etnografik xalq ansambllari” Toshkent. O‘qituvchi. 2007y.
9. O. Bo’riyev “Navro’z tarixidan lavhalar “Toshkent. O‘zbekiston”
10. G’. G’afurov “Umidlarda xalq qalbi “Toshkent. Yosh gvardiya.1986 yil.
11. U. Qoraboyev “Badiiy ommaviy tadbirlrda “Toshkent. O’qituvchi. 1986 yil.
12. U. Qoraboev “Badiiy ommaviy tadbirlarda”Toshkent. O‘qituvchi. 1986 yil.
13. U. Qoraboev “Tabiat bayramlariToshkent. Mehnat. 1988 yil.
14. U. Qoraboev “Bo‘sh vaqt va dam olish madaniya Toshkent. O’zbekiston. 1989 yil.
15. T. Mirzaev “O‘zbek folklori ocherklari”Toshkent. FAN. 1988 yil.
16. I. Yormatov “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” Toshkent. FAN. 1994 yil.
17. “O‘zbek xalq og’zaki poetik ijodi Toshkent. “O’qituvchi”. 1990 yil.

ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯСИДА БАХШИ ДОСТОНЧИЛИК САНЪАТИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Худойбердиев Н.
Термиз давлат университети
Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси

Таянч сўзлар: бахшичилик, халқ оғзаки ижоди,фолклор, этномаданият, достончилик мактаби,сурхон миллий чолғулари.
Ключевые слова: бахчилик, народное устное творчество, фольклор, этнокультура, школа сказительства, сурханские национальные забавы.
Key words: bakhchilik, folk oral creativity, folklore, ethnoculture, school of storytelling, Surkhan national pastimes.

Резюме:
Ушбу мақолада халқимимиз миллий маданиятининг ноёб дурдоналарининг бой мусиқий мероси бўлган халқ оғзаки ижод маҳсули саналмиш сурхон этно фолклорининг бахшичилик ва достончилик йўналишидаги мусиқий анъаналарининг маънавий маданий хаётимиздаги ўрни ҳамда аҳамияти ҳақида батафсил маълумотлар келтирилган бўлиб, ўқувчиларга бахшичилик санъати динамикасини янада кучайтириш орқали уларнинг бахшичилик маҳоратини ўстириш, нозик дид эгаси этиб тарбиялаш ва юксак шинавандалик меъзонида ўлчанишини ёрқин ифода эта оладиган даражада вояга етказиш каби бир қатор вазифалар киритилган.
Резюме:
В данной статье представлена подробная информация о роли и значении музыкальных традиций сурханского этнофольклора, представляющего собой богатое музыкальное наследие уникальных шедевров национальной культуры нашего народа, в направлении бахши и эпоса в нашей духовно-культурной жизни. жизнь включает в себя ряд задач, таких как воспитание человека до дегустатора и доведение его до возраста, когда он сможет ясно выражать то, что ему меряют высокие стандарты утонченности.
Summary:
This article provides detailed information about the role and importance of the musical traditions of Surkhan ethno-folklore, which is a rich musical heritage of the unique masterpieces of the national culture of our people, in the direction of bakhshi and epic in our spiritual and cultural life. A number of tasks are included, such as raising a person to be a taster and bringing him to an age where he can clearly express what he is measured by high standards of sophistication.

Олимларимиз мусиқа меросимизнинг шаклланиш даврини 4000 йилга тенг деб ҳисобламоқдалар. Ана шу узундан – узоқ йиллар, давомида мусиқий меросимиз икки йўналишда шаклланиб келиб, бир-бирига муштарак ҳолда

ривожланиб ўзига хос жозиба сифатларига эга бўлган мусиқий мерос ташкил топган.Шундай экан, ўзбек халқига мансуб бўлган бой мусиқий меросимиз жумладан сурхон этно фолъклорининг бахши достончилик йўналишидаги мусиқий анъаналаримиз оғзаки ижод маҳсули сифатида шу кунгача халқимизга ҳизмат қилиб келмоқда. Бу олижаноб мақсадга эришишда тўғри йўлга қўйилган тарбия катта аҳамиятга эгадир.Бизнинг таълим-тарбия тизимимиз ҳамма учун бир хил имкониятлар яратади ва ҳар бир кишида мавжуд бўлган иқтидор, қобилиятни ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратишга қаратилади. Ўрта Осиёдан чиққан олим ва мутафаккирлар Форобий, Ибн Сино, Ибн Зайла ва Абу Абдуллоҳ Хоразмий X-XI асрлар Шарқ мусиқа илмининг шаклланишига ва ривожига асосий ва ҳал қилувчи ҳисса қўшганлар.Мусиқанинг келиб чиқишини турли афсоналар, диний ривоятлар билан боғламаган ҳолда илмий ёндашув билан шарҳлаган. Бу зотлар мусиқа илмини математиканинг таркибий қисми деб қараганлар ва улар яратган бу соф илмий йўналиш халафлар томонидан қабул қилинган.Хусусан, Сафийуддин Урмавий (1216-1294), Қутбиддин Шерозий (1236-1310), Абдулқодир Марофий (XIV аср), Маҳмуд Омулий (вафоти 1349), Абдураҳмон Жомий (1414-1492), Зайнулобидин Ҳусайний (XVaср), Нажмиддин Кавкабий (XVI аср), Дарвиш Али Чангий (XVII аср) каби Мусиқа маданий ҳаётимизда кенг ўрин тутган топади ва салобат бахш этиб уни кўркам қилади,Миллий маданиятимиз бобокалони Абу-Наср Ал-Фаробий эса мусиқанинг шахс шаклланишига аниқ таъсирини қуйидагича баён этади: «Бу фан шу маънода фойдалики, кимнинг феъл атвори мувозанатни йўқотган бўлса, тартибга келтиради, камол топмаганларни камолотга етказади ва мувозанатда бўлганларнинг мувозанатини сақлайди. Бу фан таннинг соғлиги учун ҳам фойдалидир». Шундай экан, ўзбек халқига мансуб бўлган бой мусиқий меросимиз жумлада сурхон этно фолъклорининг бахшичилик ва достончилик йўналишидаги мусиқий анъаналаримиз оғзаки ижод маҳсули сифатида шу кунгача халқимизга ҳизмат қилиб келмоқда.Миллатимизнинг маънавий юксалиб бораётганлиги жараёнида миллий қадриятларимизни қайта тиклаш,уни қалбдан ҳис этиш тарғибот қилиш, ёш авлод тарбиясида қўллаш каби ишларни бажариш ҳар бир устоз саъаткорларнинг зиммасидаги катта масъулиятдир.Этно-фолъклоримиз ёшларимиз қалбига ҳар тамонлама мукаммаллик, ҳалоллик, камтарлик, яхшилик ва эзгуликни жойлаш аҳамият касб этади. Шу ўринда маънавий баркамол қилиб тарбияланишида бахши достончилик санъатининг роли хам алохида эга.Чунки, халқимизнинг мениталитетига хос бўлган қадриятларни сақлаб қолиш, уни халқимиз мулкига айлантириш мухим ахамиятга эгадир. Аждодларимиз қолдирган бахши достончилик санъатидан ёшларни баҳраманд қилиш уларнинг интеллектуал имкониятларини янада кучайтириш, илм- фан ва маънавиятга бўлган интилишларини ҳар тамонлама қўллаб- қувватлаш каби вазифаларни амалга ошириш асосий мақсадлардир.

XXI-асрда ижтимоий иқтисодий муносабатлар ривожида инсон ақл заковати ва маънавияти асосий мувофиқлаштирувчи,ривожлантирувчи омил ва восита эканлиги тобора намоён бўлмоқда.Шунинг учун бугунги кунда халқимизнинг миллий ўзлигини англаш жараёни фаоллашиб бораётганлиги сабабли ёшларни маънавий-ахлоқий аҳамияти сезиларли даражада юзага чиқмоқда.Шу боис жамиятимиз тараққиёти учун янгича миллий руҳда фикрловчи шахснинг шакилланиши муҳим аҳамиятга эга.

Ақлий ва жисмоний ривожланишнинг гармоник қўшилишига аҳлоқий софлик, санъатга ва ҳаётга эстетик муносабат - шахснинг тўлақонли камолга этишида муҳим шартлардир.Бу олижаноб мақсадга эришишда бахши достончилик тарбияси катта аҳамиятга эгадир. Халқимизда «Қуш уясида кўрганини қилади» деган мақол бор. Оиладаги ижобий муҳит, аъзоларининг ўзаро муносабатлари, бир-бирига бўлган ҳурмат ва эътибор, меҳрибонлик, ўзаро ёрдам ва уларнинг бахшичилик санъатига бўлган муносабатлари болаларда дастлабки тушунча ва кўникмаларнинг ривожланиб боришида асосий ўрин тутади.Зотан, ўқувчининг фаолияти жуда мароқли, ўзига хос гўзал ва шакл жиҳатидан ранг-барангдир.Бу хил фазилатлар болаларга хос бўлган доимий эҳтиёжга айлангандагина ёшларда намоён бўладиган илмий бадиий-эстетик тарбия муҳим маънавий гўзалликка пухта замин ҳозирлайди.

Бахшичилик санъати мураккаб психологик-физиологик жараён бўлиб, ёшларга ахлоқий тарбия беришнинг энг фаол шаклидир. Шундай экан, бахшичиликда инсон камолоти ва миллат руҳи яшайди.Ўзбек халқи этно-фольклорининг ўзига хос хусусиятлари миллатнинг равнақ топишида ва шаклланишида муҳим омил ҳисобланади Жумладан; этно-фольклор дурдоналари авлод-аждодларимиздан ўтиб келганлиги чолғулар ва достонларда ҳам ўз аксини топган. Ўзбек халқ этно-фольклори достончилиги минг йиллик тарихга эга булиб, Айниқса, “Қарлиқлар” ҳудудида яшаган кўчманчи ва ярим кўчманчи ҳамда ўтроқ чорвадор қабилаларда достончилик санъати катта нуфузга эга бўлган ва йирик достонларни яратганлар.

Adabiyotlar:

1. И.Жабборов “Ўзбек халқи этнографияси” Т-1994й.

2. М.Муродов, А.Эргашев. 1-китоб “Алпомишнома” (Сурхондарё талқинида) Т-1999й.

3. Choriyev , B. (2022). G’ijjak qobuz bas cholg’usining yaratilish tarixi va o’zbek musiqa ijrochiligida tutgan o’rni. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 34–37. Retrieved from https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/573

4. Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O’zbekistonda xalq cholg’ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko’p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. Science and Education, 3(4), 776-780.

5. Choriyev, B. (2021). Bolalar musiqa va san’at maktablari hamda umumiy o’rta ta’lim muaassasalari integratsiyasini ta’minlashning nazariy asoslari. In republican scientifical conference modern education and upbringing problems, solues and perspective of development. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan.

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

РАҚАМЛАШТИРИШГА АСОСЛАНГАН ТУРИЗМ САНОАТИНИНГ ИННОВАЦИОН МОДЕЛИ ВА ЯНГИЛАНИШ ЙЎЛИ (LONGITUDINAL CASE STUDY)

Севинчова Н.Н.
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби докторанти

Таянч сўзлар: рақамлаштириш, ақлли туризм, рақамли трансформатсия, миллй туризм, рақамли технологиялар.
Ключевые слова: цифровизация, умный туризм, цифровая трансформация, национальный туризм, цифровые технологии.
Key words: digitization, smart tourism, digital transformation, national tourism, digital technologies.

Кириш. Туризм минтақавий иқтисодиётни қўллаб-қувватлашнинг самарли воситаси эканлиги аллақачон исботланган (Қуи ва бошқ., 2021). Компьютер технологиялари, сунъий интеллект, рақамли иқтисодиёт ва янги энергия каби соҳаларни ўз ичига олган илмий ва технологик инқилобларнинг янги босқичининг жадал ривожланиши билан анъанавий бозор таъминоти ўзгаришда давом этмоқда, бу эса иқтисодий ривожланишнинг янги усулларини келтириб чиқаради, таркибий тузилмаларни ўзгартиради. Ҳар бир саноатнинг модели (Бартсзак, 2021, Ансиллаи ва бошқ., 2023) ва туристик манзарали жойларнинг ишлаши ва бошқарувига, сайёҳлик саёҳати тажрибасига кўп томонлама ўзгартиришлар киритилинди. Илғор сайёҳлик технологияларига сармоя киритиш манзарали жойлар ва жамоат инфратузилмасини ўзгартиришни талаб қилади ва шу билан ресурсларнинг камайиши ва технологик инновациялар орқали ресурсларни максимал тақсимлаш тартибини бузади (Янг ва бошқ., 2023; Зҳенг ва Кҳанг, 2023) ва бундан ташқари туризм саноати ресурсларни кўп талаб қиладиган ривожланиш режимига ўтиши ва туризм ресурсларининг энергия истеъмолини камайтириши, саноат бозоридаги операцияларнинг нархини пасайтириши, туризм ва спорт, туризм ва интернет каби тегишли тармоқларнинг интеграциясини фаол равишда ривожлантиришини талаб

қилади, туризм ва таълимни бирлаштириш ва тарғиб қилиш, бой туризм инновацион саноатини шакллантириш ва юқори сифатли ривожланишга туртки беради (Тиан ва бошқ., 2023). Одамлар технологик инновацияларнинг қўллаб-қувватловчи ролидан тўлиқ фойдаланишлари, “Интернет+”, 5G ва янги инфратузилма каби технологияларни туризм сектори билан мувофиқлаштиришлари ва Ўзбекистоннинг туризмига ёрдам бериш учун туризм саноатида янги технологиялар, товарлар ва хизматларни ривожлантиришни фаол равишда рағбатлантиришлари керак. Саноат юқори сифатли ўсиш бўйича ўзининг стратегик мақсадига эришади. Анъанавий туризмдан ақлли туризмга жадал равишда ўтиш нафақат ўзбек корхоналари ҳал қилиши керак бўлган амалий муаммо, балки корпоратив стратегик ўзгаришларни ўрганишда ўрганилиши керек бўлган назарий муаммодир.

Сўнгги йилларда рақамли технологияларнинг янги авлоди ва бир қатор илғор технологиялар маданият ва туризм соҳаларига интеграциялашувини тезлаштириди ва уларни саноат ва таварларни қиймат занжирининг ўрта ва юқори учларига олиб чиқадиган янги динамик энергияга айлантирди (Пан ва бошқ., 2022; Чен ва бошқа., 2023). Ҳозирги кунда Ўзбекистонда тақдим этилаётган стратегияда юқори технологияларга асосланган инновацион ва рақамли туризмга аҳамият берилади. Янги асрда рақамли технологияларга асосланган, электрон бизнес ва электрон тижоратни назарда тутувчи рақамли туризмнинг шаклланиши тенденциявий тус олди. Ҳозирги вақтда Ўзбекистон ҳам ушбу умумжаҳон тенденциядан четда қолаётгани ёқ.

Кейинг йилларда рақамли туризм соҳасини ривижлантиришга алоҳида эътибор қаратилинмоқда. Рақамли туризм энг аввало кенг полосали Интернет порталини яратишни, оптик толали алоқа линиялари ётқизишни тақозо қилади. Шуни инобатга олган ҳолда, ушбу вазифага жиддий эътибор қаратилди. Биргина 2020 йилда қарийб 800 мингта кенг полосали интернет-портал яратилди ва 12 минг километр оптик толали алоқа линиялари ётқизилди. Айни пайтда Яратилинаётган ўнлаб замонавий корхоналар, ИТ-парклар бамисоли тараққиёт дарвозаси бўлиб, улар миллий иқтисодиётимиз ривожига хизмат қилмоқда. Жумладан, келгуси 5 йилда Тошкент шаҳрини ривожлантириш бўйича таклифлар тайёрланди. Келаётган сайёҳларни авваламбор давлат пойтахти кутиб олишини инобатга олган олган ҳолда, “Тошкент -яшаш учун қулай яшил шаҳар”, “Бизнес учун улкан имкониятлар шаҳри”, “Минтақавий инвестициялар маркази”, “Рақамли пойтахт”, “Билим ва инновациялар шаҳри”, “Пойтахт-маданият ва маъри-

фат булоғи”, “Соғлом турмуш ва сифатли тиббиёт” дастурларини амалга ошириш бўйича ҳукумат кенг кўламли режаларни белгилаб олган.

Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш илмий-техникавий инқилоб ва саноат ўзгаришларининг янги босқичи учун янги имкониятлардан фойдаланишнинг стратегик танловидир ва рақамли ва реал иқтисодий интеграциясини юқори сифатли ривожланишининг муҳим жиҳати ҳисобланади. Бу корхоналар ақлли туризмга сифатли силжишлар қилишлари кераклигини кўрсатади. Бундай вазиятда туризмни ўзгартириш ва модернизация қилиш учун рақамлаштириш қандай қўлланилиши миллий стратегик эҳтиёжларни ва иқтисодиётнинг асосий кураш майдонини қондириш учун корхона бошқаруви тадқиқотлари муҳим масала бўлиб қолди.

Рақамли корхоналарнинг ижтимоий ҳаётга кириб бориши ортиб бораётганлиги сабабли, фойдаланувчи тажрибасини доимий равишда ошириб, такомиллаштирилган операциялар ёрдамида қандай қилиб харажатларни минималлаштириш ва самарадорликни ошириш мумкин? Рақамали технологиялар тинимсиз тараққий этар экан, туризм саноати доимий инновациялар ҳолатида қолмоқда. Ҳозирги вақта одамлар юқори сифатли саёҳатга қизиқиши ортиб бормоқда ва ақлли туризм энг машҳур саёҳат турига айланди (Мора ва бошқ.,). Анъанавий диққатга сазовор жойларни томоша қилиш тажрибасидан ташқари, жамоатчилик илмий ва технологик саргузаштларнинг юқори даражаларига, маданий туризмга ва туризмнинг бошқа ривожланган шаклларига тобора кўпроқ мойил бўлмоқда. Туристик маҳсулотлар нуқтаи назаридан, табақалаштирилган ва шахсийлаштирилган юқори сифатли товарлар ва хизматлар саёҳатчиларнинг истеъмол талаби учун янги ўсиш соҳалари сифатида пайдо бўлди. Бундан ташқари, Ўзбекистон аҳолисининг қариши ва бойлиги юқори шахслар сони ортиб бориши билан ақлли туризм, конъгилочар ва соғломлаштириш туризмига эҳтиёж ҳам ортди. Шунинг учун мураккаб туристик модел кўпроқ амалдадир. Анъанавий туризмнинг интеллектуал туристик режимга эволюцияси рақамли иқтисодиёт асрида муқаррар тенденциядир. Бироқ, COVID-19 сабабли, баъзи қишлоқ интеллектуал туризми заиф ахборот инфратузилмасига эга, ақлли хизмат кўрсатиш платформаларини секин ривожлантирди ва туризм ресурсларини тўлиқ интеграциялашмаган (Сигала, 2020). Қолаверса, қишлоқ туризми учун интеллектуал маркетинг даражаси етарлиемаслигича қолмоқда ва истеъмолчи маълумотларини қидириш канали операторнинг маркетинг каналига мос келмайди (Ризвановис ва бошқ., 2023). Шу билан бирга, туризмнинг қиймат занжирининг паст даражадаги қулфланиши ва қишлоқ туризми секторида инновацияларнинг етиш-

маслиги каби муҳим муаммолар мавжуд. Қишлоқ туризми саноати учун сунъий интеллект, катта маълумотлар, булутли ҳисоблаш ва бошқа технологияларни тўлиқ қўллаш рақамлаштириш ва интеллектга эга бўлган тўртинчи саноат инқилоби туфайли манзарали хизматлар ва опреациялар сифати ва самарадорлигини оширишда муҳим ютуқ бўлди. Рақамли технологияларни ривожлантириш ва Ўзбекистонда саноат ва иқтисодий сиёсатни яратиш учун назарий асосга анъанавий саноатни ўзгартириш ва модернизация қилишни қўллаб-қувватловчи рақамли технологияларнинг ички механизмларини очиб бериш ёрдам беради.

Ҳозирги тадқиқот бу ушбу жумбоққа ечим таклиф қиладими? Адабий таҳлилга кўра, бир томондан, саноати ривожланган мамлакатлар юзлаб йиллар давомида йирик туризмдан ақлли туризмга, экстенсив туризмдан мослашувчан туризмга ўтишган, бу эса умумам босқичма-босқич ривожланиш хусусиятларини очиб беради. Бироқ, Ўзбекистоннинг туризм саноати олдинга силжиш учун зудлик билан стратегик ўзгаришларни амалга ошириши керак. Бошқа томондан, тажриба туризмдан интеллектуаллаштиришга ўтиш технологиянинг тубдан ўзгаришини англатади. Интеллектуал туризмнинг иккита элементи уни бошқа техник парадигмалардан ажратиб туради. Биринчидан, интеллектуал туризм-бу интеллектуал технология ва бизнесга яқиндан ўхшаб кетадиган туризм модели бўлиб, технология ва бошқарувнинг чуқур инреграциялашуви натижасидир; иккинчидан, интеллектуал туризм ҳали ривожланиш босқичида, ривожланган мамлакатлар корхоналари билан бир қаторда кеч ривожланаётган мамлакатлар ҳам уни ўрганмоқда ва ҳали етук технологик парадигма шаклланмаган. Шу сабабли, Ўзбекистон корхоналари ақлли туризмга ўтиш ва юксалишда заиф бошқарув асосларининг қисқа кенгашини тўлдириш учун тезкорлик билан ҳаракат қилишлари керак, кенг кўламли менежментдан рақамли менежментга ўтиш қобилиятини амалга ошириш, ақлли туризм технологияси билан бошқарув қобилиятини мослаштириш ва амалга ошириш керак. Ушбу икки босқичли ўзгариш парадигмаси стратегик трансформациялар бўйича мавжуд адабиётларда ҳали аниқ кўриб чиқилмаган.

Стратегик ўзгаришлар бўйича тадқиқотларга кўра, ташкилий таълим орқали салоҳиятни ошириш ташкилотлар учун стратегик ўзгаришларни амалга оширишда қабул қилиш керак бўлган муҳим йўлдир. (Биркинша ва бошқа., 2016). Улар орасида рақамли технология тажрибага асосланган ташкилий таълим ёндашувини ўзгартирди бу нафақат эксплуатациявий ўрганиш самародирлигини оширади (Лусч ва Намбисан, 2015), балки кашфиёт ўрганиш нархини ҳам пасайтиради (Ёо ва бошқа., 2012) ва кор-

хоналарда стратегик ўзгаришларни амалга оширишда муҳим аҳамиятга эга эканлигини билдиради. Бироқ, рақамли технология ташкилий таълимни рағбатлантирадиган ва ташкилотларга стратегик ўзгаришларни кескин ўсишига ёрдам берадиган механизмларни ўрганиш бўйича кам тадқиқот олиб борилди.

Ушбу тадқиқот рақамлаштириш қандай қилиб инновatсялар ва туризм саноатини модернизация қилишнинг асосий тадқиқот муаммосига қаратилинган мантиқни чуқур таҳлил қилади. Марказий корхонанинг интеллектуал туризм сакраши стратегик ўзгаришлар жараёни, "рақамлаштиришга асосланган ақлли туризм, сакраш стратегик ўзгаришлар жараёни, стратегик трансформация натижалари" ва рақамлаштириш технологиясини танлашдан тортиб, ўзгариш жараёнидан ягона стратегик трансформациягача бўлган ички механизмни очиб беради.

Технологик-иқтисодий парадигмадаги инқилоб. Интеллектуал туризм-бу хизмат самарадорлигини сезиларли даражада ошириш учун жиддий дизайн, ривожланиш жараёнлари, логистика ва хизматлар каби қиймат занжири тармоқларига қўлланилиши мумкин бўлган техно-иқтисодий парадигма (ТИП). Аввалги ТИП тадқиқотлари асосан хизмат кўрсатиш компаниясининг стратегиялари билан боғлиқ бўлмаган ишлаб чиқариш операцияларига қаратилган. Бошқа томондан, интеллектуал туризм кенг қамровли бизнес стратегияси орқали бизнес стратегиясини янгилашнинг асосий усули сифатида пайдо бўлди.

Материаллар ва усуллар. Longitudinal case study, бир вазиятли тадқиқот усулидан фойдаланишнинг асосий сабаблари қуйидагилардан иборат: биринчидан, корхоналарнинг кенг кўламли туризмдан интеллектуал туризмга ўтиш жараёни ва механизми индуктив ва кашфиёт характерига эга бўлиб, вазиятни ўрганиш мақсадга мувофиқдир, ушбу турдаги тушунтириш механизми ёки жараёнини очиб бериш учундир (Корнелиссен ва Вернер, 2024; Гибберт ва бошқ., 2008). Иккинчидан, битта амалий тадқиқот мураккаб ва динамик жараённинг батафсил тақдимотини қўллаб-қувватлайди.

Топилмалар ва муҳокамалар.Интеллектуал туризм бир қанча ўзгаришларга дуч келмасдан олдин, анъанавий сайёҳлик туризми ўз миқёсидаги бизнесни ривожлантириш стратегиясини амалга оширди, бу эса тезда саноат етакчисига айланишга қаратилинди. Бироқ, истеъмолни ошириш ва бозор талабининг тез ўзгариши билан анъанавий космик операторларга асосий устунлик сифатида таянадиган кенг қамровли бошқарув стратеги-

яси энди ҳаётий эмас ва кўпроқ бизнеснинг муҳим муаммолари аниқланмаган деб қаралмоқда.

Назарий таъсирлар. Рақамли технология ва бошқарув қобилияти ўртасидаги номувофиқликни ҳисобга олган ҳолда, Ўзбекистон сайёҳлик фирмалари учун ақлли туризмда стратегик силжишга эришиш учун назарий модел таклиф этилади. Корхонанинг силжиш стратегияси кенг кўламли туризмдан ақлли туризмга ўтиш кўп босқичларга бўлинган, биринчиси рақамли ремедиация, иккинчиси, ақлли инновациялардир. Биринчиси кенг қамровли ривожланишдан рақамли бошқарув орқали рақамли бошқарувга ўтиш қобилиятини амалга оширади.

Хулоса. Ривожланган мамлакатларда анъанавий туризмнинг ақлли туризмга илғор ва ижодий ўтишидан фарқли ўлароқ, Ўзбекистон туризми тез стратегк ўзгаришларни ва янги саноат моделларини ишлаб чиқишни намойиш этди. Бироқ, технологияни ривожлантириш контекстида ташкилий таълим ва стратегик ўзгаришлар бўйича олдинги тадқиқотлар Ўзбекистон сайёҳлик фирмалари стратегик ўзгаришларга қандай эришишлари мумкинлиги ҳақида етарли назарий сабабларни тақдим эта олмади.

Адабиётлар:

1. D.N. Angwin et al. (New integration strategies for post-acquisition management. Long Range Plan-2015)

2. Scand. J. Manag (Organizational learning and strategy-1995)

3. Mirziyoyev Sh. (Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To’dirilgan ikkinchi nashr-2022)

TIBBIYOT KASBIY MUHITIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING BA’ZI JIHATLARI

Buranova D.Dj.
Xorijiy tillar kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

Tayanch so‘zlar: tibbiyot, ingliz tili, kommunikativ, talabalar, metodologiya, standartlar, kasbiy muloqot, amaliyot.
Ключевые слова: медицина, английский язык, коммуникативный, студенты, методика, стандарты, профессиональное общение, практика.
Key words: medicine, english, communicative, students, methodology, standards, professional communication, practice.

Резюме:
Tadqiqotning maqsadi tibbiyot OTMlarida talabalarning ingliz tilini o‘rganishidagi asosiy uslubiy yondashuvlarini aniqlash va tahlil qilish, shuningdek, ularning professional nuqtai nazardan ingliz tilini o‘rganishlari hamda tibbiy terminologiya va muloqot ko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari jarayonida duch keladigan muammolar yechimini aniqlashdan iborat. Kasbiy faoliyatda til savodxonligini oshirishga yordam beradigan yoki to‘sqinlik qiladigan amaliy jihatlarni aniqlash, kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishga qaratilgan o‘qitishning turli usullarini idrok etish tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Tadqiqot ob’yekti tibbiyot OTMlarida ingliz tilini o‘qitish jarayoni, shu jumladan qo‘llaniladigan uslubiy yondashuvlar, o‘quv materiallari va vositalari, shuningdek ularning tibbiyot talabalarining nutq salohiyati va kasbiy til savodxonligini rivojlantirishga ta’siridan iborat. Tadqiqot natijalari tibbiy kontekstda professional muloqot uchun zarur bo‘lgan til ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga qaratilgan tuzilgan mashqlar va vazifalar to‘plamini ishlab chiqish, interfaol ta’lim resurslari asosida dasturiy ta’minotni yaratish, shuningdek, mazkur metodlarni integratsiyalashuvining yaxlitligi va harakatchanligini ta’minlash mexanizmlarini joriy etishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot usullari tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘qitish bilan bog‘liq mavjud ilmiy-tadqiqot, o‘quv rejalari va uslubiy materiallar tizimli ravishda ko‘rib chiqishga qaratilgan bo‘lib, o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlar va usullarni aniqlashtiradi.
Резюме:
Целью исследования является выявление и анализ основных методологических подходов студентов к изучению английского языка в медицинских вузах, а также определение путей решения проблем, с которыми они сталкиваются в процессе изучения английского языка с профессиональной точки зрения и овладения медицинской терминологией и навыками общения. Выявление практических аспектов, которые помогают или препятствуют повышению языковой грамотности в профессиональной деятельности, восприятие различных

методов обучения, направленных на формирование коммуникативной компетенции, определяют цели и задачи исследования. Объектом исследования является процесс преподавания английского языка в медицинских вузах, включая используемые методические подходы, учебные материалы и инструменты, а также их влияние на развитие речевого потенциала и профессиональной языковой грамотности студентов-медиков. Результаты исследования включают разработку набора структурированных упражнений и заданий, направленных на овладение языковыми навыками, необходимыми для профессионального общения в медицинском контексте, создание программного обеспечения на основе интерактивных образовательных ресурсов, а также внедрение механизмов, обеспечивающих целостность и мобильность интеграции данной методологии. Методы исследования направлены на систематическое рассмотрение существующих научных исследований, учебных планов и методических материалов, связанных с преподаванием английского языка в медицинских высших учебных заведениях, разъясняются основные подходы и методы, используемые в процессе обучения.

Summary:

The purpose of the study is to identify and analyze the main methodological approaches of students in the study of English in medical high schools, as well as to determine the solution to the problems faced in the process of their learning English from a professional point of view, mastering medical terminology and communication skills. The identification of practical aspects that help or hinder the improvement of language literacy in professional activities, the perception of various methods of teaching aimed at the formation of communicative competence determine the goals and objectives of the study. The object of research is the process of teaching English in medical universities, including the methodological approaches, educational materials and tools, as well as their influence on the development of speech potential and professional language literacy of medical students. The results of the study include the development of a set of structured exercises and tasks aimed at mastering the language skills necessary for professional communication in a medical context, the creation of software based on interactive educational resources, as well as the introduction of mechanisms for ensuring the integrity and mobility of the integration of these methods. The research methods are aimed at a systematic review of existing scientific research, curricula and methodological materials related to the teaching of English in medical higher educational institutions, identifying the basic approaches and methods used in the teaching process.

Kirish. Globallashuv va tibbiyot sohasidagi xalqaro hamkorlik sharoitida ingliz tilini mukammal egallash bo‘lajak shifokorlarni kasbiy tayyorlashning ajralmas qismiga aylanmoqda. Mazkur jihat turli grantlar va o‘quv dasturlarida ishtirok etish, xorijlik xamkorlar bilan aloqani mustahkamlash, jahon ilmiy maktabidan unumli foydalanish, xotirani mustahkamlash, kasbiy dunyoqarashni kengaytirish kabi turli maqsadlarni ko‘zlaydi. Ingliz tilida, ayniqsa tibbiy terminologiya va kasbiy amaliyot sharoitida samarali muloqot qilish qobiliyati muvaffaqiyatli professional faoliyatning asosiy omilidir. Shu munosabat bilan amaliyot va soha nuqtai nazaridan talabalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan metodologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati ortib bormoqda. Bunda ingliz tilini o‘qitishda hozirgi kun zamonaviy usullarning asosiy talablari va qoidalariga binoan qo‘llaniladigan

kommunikativ va interfaol usullar o‘zining qulayligi va samaradorligi bilan keng ishlab chiqilgan va optimallashtirilganligini aytish o‘rinli.

Bo‘lajak shifokorlar uchun yuqori darajadagi til tayyorgarligini ta’minlash uchun tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida qo‘llaniladigan o‘quv materiallarining tahlili, mavjud darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va boshqa manbalarning talabalarning ehtiyojlariga muvofiqligini muntazam baholash davr talabidir. Zamonaviy va ilg‘or metodologik standartlar tahlili tibbiyot talabalari uchun zarur bo‘lgan nutq potensiali va kasbiy til savodxonligini shakllantirishga qay darajada hissa qo‘shish, shuningdek ularni takomillashtirishning mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarini aniqlashga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchi kommunikativ vaziyatni rivojlantirish uchun leksik birliklar va turli interfaol konstruksiyalardan foydalanadi. K. V. Baranbaevaning ta’kidlashicha, ingliz tilini o‘qitishdan asosiy maqsad – shaxsning kommunikativ kompetentsiyasini ma’lum darajaga yetkazish va bir kishidan boshqasiga ma’lumot uzatish orqali mukammallikka erishish, kommunikativ xulq-atvorni tanlash qobiliyatini shakllantirishdir [3]. U kommunikativ kompetensiyani muloqotning turli sohalarida matnlar yaratish mahoratini o‘zlashtirishni matn kompetensiyasining mohiyatiga ega bo‘lish qobiliyati sifatida izohlaydi. Umuman olganda, uning qarashlarini kommunikativ kompetensiya tushunchasining ma’lum ma’nodagi tasnifi sifatida qabul qilishimiz mumkin. Boshqa mutaxassislarning ta’kidlashicha, nutq jarayoni og‘zaki faoliyatning bir turi sifatida, ma’ruzachilar o‘rtasidagi aloqani til vositasida ta’minlashga qaratilgan imkoniyatdir. Bunda og‘zaki nutq shakllaridan biri bo‘lgan dialog suhbatdoshlar o‘rtasida turli masalalarni birgalikda muhokama qilinishini ta’minlaydigan oddiy aloqa turi sifatida talqin etiladi, kommunikativ kompetensiya, o‘z navbatida, nutq, til, ta’lim, ijtimoiy-madaniy va ma’rifiy omillarga tayanadigan ob’ektlardan iborat bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi [14].

Bizningcha, kommunikativ kompetensiya haqida gapirganimizda, ingliz tili darslarida ona tilidan foydalanish imkon qadar minimal darajada qo‘llanilishi lozimligi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy usullar reytingida birinchi o‘rinni kommunikativ aloqa egallaydi, bu usul kundan-kunga ingliz tilini o‘qitishning ajoyib usuli sifatida tan olinadi. Xalqaro miqyosda so‘zlashish uchun ingliz tili ayniqsa muhim bo‘lib, mazkur tilni o‘qitishda o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta’siri va muloqotiga asoslangan ushbu usulning afzalliklari haqiqatan ham dolzarbdir. Shuningdek, mutaxassisligi chet tili bo‘lmagan OTMlarning talabalari uchun ingliz tilini o‘rganishda guruhlarda ishlash, munozaralar,

taqdimotlar kabi uslublardan foydalanish ingliz tilini o‘rganishda eng maqbul usullarlardandir [11].

Ingliz tili darsliklarining yangi turlari yildan yilga ko‘payib, uslublar takomillashib, ingliz tili o‘qituvchilari oldiga ko‘plab vazifalar qo‘ymoqda, ularning doimiy ravishda malakalarini oshirishlarini talab qilmoqda [7, 13, 17, 21]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida mutaxassislik matnlarini tushuna olish, yetarli so‘z boyligiga ega bo‘lish, lekin, shunga qaramay, kommunikativ kompetensiyaga, ya’ni og‘zaki nutqni yaxshi o‘zlashtira olmaslik hollari ko‘p uchraydi. O‘ylaymizki, buning sababi – chet tillariga o‘qitishning eski metodikasi, grammatik tarjima, zerikarli qoidalarni yodlash kabi holatlarga asoslangan uslublar vositasida o‘qiganlikdir. Jahon miqyosidagi ko‘plab ilmiy izlanishlarda qayd etilishicha, bugungi kun tillarga o‘qitish uslublari asosan kommunikativ metodikaga asoslangan bo‘lib, u interfaol usullar asosida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilganligi bilan muvaffaqiyatlidir [6, 4, 12, 18]. Yana boshqa bir qarash esa til va kontent maqsadlarining integrasiyalashuvi asosida o‘rganuvchiga bilimlarni etkazish uslubining samarali ekanliginini ta’kidlab, so‘z boyligi, tajriba, kontent va grammatikaning muvozanatli sintezi asosida kommunikativ strategiyaning to‘g‘ri ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq ekanligini muhokamaga qo‘yadi [16]. Mazkur uslub, o‘ylaymizki, tibbiyot talabalarining nafaqat til ko‘nikmalari, balki kasbiy malakasini ham rivojlantirishga qaratilganligi bilan muhim. Kommunikativ yondashuv asosida fanlararo bilimlarni birlashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun keng qamrovli ta’lim muhitini yaratadi.

Buyuk Britaniya Liverpul Universiteti Tillarni o‘qitish Markazi direktori, tilshunos olim Djeff Tompsonning fikricha, zamonaviy til o‘qitishning mashhur uslublaridan hisoblangan kommunikativ kompetensiyaga asoslangan yondoshuv bugungi kunda ko‘plab ekspertlar va o‘qituvchilar orasida eng samarali deb tan olingan bo‘lsa-da, bu borada qator anglashmovchilik va muammolar mavjud [20]. U kommunikativ yondoshuvning so‘nggi paytlarda ayniqsa jadallik bilan rivojlanib ketganligi, mazkur uslubning birlamchi ko‘rinishidan ancha yiroqlashgan holda o‘zgarib borayotganligiga alohida e’tibor qaratadi. Bizning fikrimizcha, Dj.Tompsonning kommunikativ kompetensiya borasidagi ba’zi qarashlari turli soha mutaxassislari uchun xorijiy tillarni qo‘llashda xamma vaqt ham kerak bo‘lmasligi mumkin. Masalan, uning chuqurroq bilimlarga ega bo‘lishga qaratilgan kuchli metodologik yondashuvining zaruriyatiga har vaqt ham kasbiy ingliz tilida, ayniqsa, tibbiyotda unchalik ehtiyoj yo‘q [2, 8, 9,], chunki, o‘z tajribamizdan kelib chiqib, ta’kidlaymizki, bu bo‘lajak

shifokorlarning tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirishga olib kelishi mumkin. Tillarni o‘rganishning soddalashtirilgan mexanizmlarini qo‘llash, an’anaviy va murakkab shakllarni iloji boricha qisqartirish yoki olib tashlash, ko‘proq mutaxassislik bo‘yicha leksik birliklarni va informativ shakldagi matnlarni o‘zlashtirish, kommunikativ kompetentsiyaning interfaol shakllariga urg‘u bergan holda, tibbiyot kasbida o‘z sohasi uchun nutq salohiyatini takomillashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Kommunikatsiya va axborot almashinuvidagi har qanday buzilishlar xodimlarning birgalikda ishlab, umumiy maqsadlarni shakllantirishga va ularga erishishga qodir emasligiga olib keladi [15], chet tilida professional muloqotni olib borishning to‘g‘ri strategiyasini o‘zlashtirish esa til va aloqa to‘siqlarini yengishga yordam beradi, bu, o‘z navbatida, tashkilot faoliyatining samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p millatli jamoalarda ishonchni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [19].

Tadqiqot savollari. Tibbiyot OTM lari uchun ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyaga alohida e’tibor qaratish ayniqsa muhim bo‘lib, bizning fikrimizcha, nutq salohiyati til savodxonligi ko‘rsatkichlari tizimining asosiy mezonlaridandir. O‘ylaymizki, nutq salohiyati mezonining barcha sohalar uchun til kompetensiyasining asosiy xususiyatini aks ettirar ekan, uning universalligini isbotlash uchun yetarli darajadagi ko‘plab tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularda kommunikativ kompetensiyaning sifat ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Biz metodologiya nuqtai nazaridan yondashgan holda, nofilologik oliy ta’limda o‘qitish bilan bog‘liq bo‘lgan va kasbiy faoliyatda til savodxonligini oshirishga ta’sir etuvchi nutq salohiyati jihatlarni ko‘rib chiqishga qaror qildik.

Jumladan, Y.A.Danilova [5] xorijiy tillarni o‘qitishning zamon metodologik konsepsiyalari talqinida quyidagi jihatlarga e’tiborni qaratadi:

1. Grammatik-tarjimaviy (deduktiv) metod: adabiyotni asl nusxada o‘qish, tarjima, lug‘at va grammatikaga urg‘u berish;

2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri metod: tarjimasiz, ko‘rish, gapirish, induktiv grammatika;

3. Audiolingual metod: tildan mexanik tarzda foydalanish, tinglash;

4. Sukunat metodi: kognitiv yondashuv, o‘z-o‘zini ifoda etish uchun tildan foydalanish, tilning tuzilish strukturasi, diagrammalar, sukunat saqlash;

5. Suggestopediya: ishontirish mahorati, rolli o‘yinlar, dialoglar, leksik boylik, grammatikaning chegaralanganligi, tarjimaga ruxsat beriladi;

6. Jamoa metodi: kognitiv muhit, o‘qituvchi terapevt, ochiqlik muhiti, kichik guruhlar;

7. To‘liq jismoniy bag‘ishlov metodi: tinglash qobiliyati, og‘zaki quvlash, ko‘rish, ona tilini bilish;

8. Kommunikativ yondashuv: motivasiya, individualizasiya, kommunikativ yo‘nalish, vaziyatlilik, funksionallik, ochiqlik, faoliyat, ko‘rgazma [5].

Y.A.Danilovaning fikricha, ularning ichida eng ilg‘orlaridan Amerikaning kommunikativ yondashuvga asoslangan amerikalik kommunikativ nazariyasi bo‘lib chiqqan. Albatta, Y.A.Danilova mazkur yondashuvni Rossiya ta’lim tizimiga moslashish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqar ekan, ta’lim sifatini oshirish muammosini hal etishda bilimlar va metodlar xalqaro almashinuvi talab etilishini ta’kidlaydi. O‘ylaymizki, bizning ta’lim tizimimiz uchun xam ilg‘or xorijiy tajribalardan unumli foydalanish, turli tadqiqotlar nazariyasi, ta’lim texnikalari almashinuvini qo‘llash sifat ko‘rsatkichlarimizni oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Lekin sohaga oid ingliz tilini o‘rganishda Y.A.Danilova tomonidan keltirilgan metodlarning faqat bizga tegishli, professionallik nuqtai nazaridan bo‘lajak shifokorlar auditoriyasiga mos jihatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

I.Y. Abramova va O.M.Sherexova [1] lar talabalarning kasbiy faoliyat sohasida xorijiy tillar bo‘yicha muloqot kompetensiyasiga bag‘ishlangan izlanishlarida dialogik va polilogik nutq bo‘yicha kommunikativ vaziyatlarni simulyasiya qilish usullaridan foydalangan holda o‘qitishning amaliy tajribasini tavsiflaydilar. Tadqiqotchilar talabalarning kasbiy faoliyat sohasida chet tillari bilan muloqotga tayyorligini o‘rganadilar, shuningdek, tilshunos bo‘lmagan talabalarga kasbiy faoliyat sohasidagi dialogik va polilogik nutqni ishbilarmonlik aloqalari sohasidagi haqiqiy kommunikativ vaziyatlarni simulyasiya qilish usullaridan foydalangan holda o‘qitishning amaliy tajribasini tavsiflaydilar. Ular auditoriya bilingvizmi (ya’ni ikki tillilik) sharoitida mutaxassisligi lingvistik bo‘lmagan talabalar o‘rtasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish samarali ekanligi haqidagi g‘oyani ilgari suradilar. Bunda dialogik va polilogik nutqni o‘qitishning xorijiy va mahalliy tajribasi ko‘rib chiqilar ekan, talabalarni jahon lingvodidaktikasida qo‘llaniladigan kasbiy muloqotga tayyorlashning innovasion usullari tavsiflanadi.

Jahon lingvodidaktikasida ishbilarmonlik aloqalari uchun dialogik va polilogik nutqini o‘zlashtirishning turli metodikalari borasidagi tadqiqotlarni I.Y. Abramova va O.M. Sherexova lar o‘z izlanishlarida tavsiflab, rivojlangan mamlakatlarning oliy o‘quv yurtlarida mutaxassisligi chet tili bo‘lmagan talabalar uchun ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha metodikalar majmuini aniqlaydilar. Umuman olganda, biz mazkur tadqiqotchilarning fikriga qo‘shilgan holda, ularning turli mamlakatlar kesimida kasbiy ingliz tilini o‘qitishdagi dialogik

va polilogik nutqni o‘zlashtirish bo‘yicha metodikalar va ularning natijalarini tasniflashtirdik (4.1-jadvalga qarang):

4.1- jadval

Ba’zi mamlakatlar kesimida kasbiy ingliz tilini o‘qitishda dialogik va polilogik nutqini o‘zlashtirishning turli metodikalari jihatlari va natijalari

Mamlakat	Metodika	Natija
AQSh universitetlari	Talabalarni ingliz tili o‘z ona tili bo‘lgan to‘rtta talabadan va tilni bilmaydigan oltita o‘quvchidan iborat kichik guruhlarga muloqotga jalb qilish amaliyoti keng qo‘llaniladi	O‘quv muhiti va kontekstni ta’minlaydi, bu yerda talabalar ma’lum bir fan bo‘yicha nutqda asta-sekin muloqot qilishni uddalaydi
Malayziya davlat universiteti	Talabalarning ishbilarmonlik doirasida mijozlar bilan munosabatlarni o‘rnatish, hamkasblari va rahbarlari bilan muammolarni muhokama qilish, telekonferensiyalarda qatnashish, aloqalar va maslahatlar uchun tarmoqlar yaratish kabi faoliyatda ingliz tilini o‘zlashtirish qo‘llaniladi	Notiqlik mahorati , muloqot qobiliyati kabi ko‘nikmalar rivojlantirilishiga erishiladi, tashabbuskorlikni rivojlantirish va tillarni o‘rganishga motivasiya oshiriladi
Timisoara shahridagi Ruminiya politexnika universiteti	Aloqa va jamoatchilik bilan aloqalar o‘rnatish bo‘yicha bakalavr talabalariga ingliz tilida muloqot o‘rgatish jarayonida mijozlar va hamkorlar bilan uchrashuvlarni rejalashtirish, ular bilan suhbatlashish, ko‘rgazmalar tashkil etish, taqdimotlar, reklama strategiyasi va mahsulot modellashtirish kabi kommunikativ vaziyatlar tashkil etiladi	Ingliz tilini kasbiy bahs-munozaralar, qizg‘in tashkilotchilik ishlari orqali o‘rganish davomida faol muloqot strategiyasiga erishiladi
Tailandning Sil-pakorn universiteti	Nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda talabalar ingliz tilida so‘zlashishi uchun amaliyotga yo‘naltirilgan, ma’lum vazifalarga asoslanish yondashuvi; talabalar Internet resurslaridan foydalangan holda ma’lumotlarni topadilar	Talabalar amaliyotga yo‘naltirilgan informativ xarakterdagi ma’lumotlarni topish va suhbatdoshiga taqdim etish orqali nutq kompetensiyasini shakllantiradi

O‘ylaymizki, yuqoridagi jihatlar asosida kasbiy ingliz tilini o‘qitishdagi dunyoviy uslubiy tizim turli metodikalar kesimida faol muloqot strategiyasiga

erishish uchun poydevor yaratadi. I.E. Abramova va O.M. Sherexova larning ta'kidlashicha, mazkur turli xildagi texnikalardan foydalanish jarayonida talabalarning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqish ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi, bunda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning yuqori darajasiga erishiladi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar lingvistik bo'lmagan mutaxassislik talabalariga ikki tilli auditoriya sharoitida kasbiy dialog yoki polilog o'rgatish ayniqsa qiyinligini ta'kidlab, bunga quyidagi muammoli sabablarni sanab o'tadilar:

1. Auditoriyada ingliz tilidan foydalanish zerikarli hamda sohaga xos bo'lgan turli xildagi kommunikativ vaziyatlardan mahrum bo'lsa, mazkur holat talabalarning kasbiy jamoalarida, madaniyatlararo o'zaro munosabatlarda qiyinchiliklarga va kommunikativ muammolarga olib keladi.

2. Ta'lim mulqotini talabalar odatda o'zi tanigan kursdoshlari, o'qituvchisi bilan birgalikda, savol-javob shaklidagi kam sonli dialogik birliklar vositasida o'rganadilar. Haqiqiy kasbiy faoliyatda esa muloqot odatda begonalar bilan tez-tez sodir bo'ladi, bunda talabalar uchun kommunikativ vaziyat murakkablashadi, ular suhbatdoshining nutq reaksiyasini tushunishda, muhokama qilinayotgan mavzuni turli xil nuqtai nazardan talqin qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

3. Dialogik va polilogik nutqni o'zlashtirish ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama nutq tabiatini murakkablashtiradi, bu esa suhbatdoshlaridan qaramlikka: ularning nutq tezligi, xarakteri, mavzudagi kutilmagan o'zgarishlarni anglashga tayyor emasligi, suhbatdoshlarini tinglash va tushunishdagi qiyinchiliklar, kommunikasiya vaqtidagi cheklovlar, to'g'ri javob topa olmaslik kabi murakkabliklarga olib keladi [1].

Qo'shimcha qilib aytish mumkinki, auditor bilingvizm tibbiyot uchun ingliz tilini o'zlashtirish uchun ko'p hollarda samara beruvchi usullardan birdir. Turli metodikalardan foydalanish, qo'shimcha uslublarni izlash, ularni auditoriya xususiyatlariga moslash, qayta ishlash va takomillashgan yangiliklar bilan boyitish orqali mutaxassislik uchun ingliz tili ta'limni takomillashtirish mumkin. Ingliz tilini o'rganish jarayonida auditor bilingvizm nazariyasini qo'llash haqiqatan ham samarali bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

O'zbekiston Respublikasi tibbiyot OTMlarida talabalarning ikki tilliligi o'quv jarayonidagi ona tili hamda ingliz tilidan foydalanishni o'z ichiga olar ekan, bunda quyidagi afzalliklar namoyon bo'lishini taxmin qilamiz:

1. Til ko'nikmalari mustahkamlanadi: talabalar ingliz tilidagi tibbiy atamalar va tushunchalarni ona tilidagi analoglar bilan bog'lashni o'rganadilar, bunda

ma’lumotni yaxshiroq eslab qolish, ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish unumdorligi oshadi.

2. Kasbiy kompetensiya rivojlanadi: ikki tilli yondashuv ingliz tilini kasbiy fanlarga birlashtirishga imkon yaratadi, tibbiy terminologiyani rivojlantirish va uni amalda qo‘llash qobiliyatini takomillashtiradi.

3. Ikki tilli ta’limning turli usullari va strategiyalaridan foydalanish: ingliz tili o‘qituvchisi o‘quv jarayonini talabalarning ehtiyojlariga va ularning individual talablariga moslashtiradi, motivasion texnikalardan unumli foydalanadi.

4. Til o‘rganishdagi to‘siqni yengish: ona tilidan ingliz tiliga o‘tish yengil va yumshoq tarzda amalga oshib, talabalarning ingliz tilidan foydalanishidagi murakkabliklarni kamaytiradi hamda ularning tilidan foydalanishga qaratilgan ishonchini oshiradi.

Shu asosda, ona tilida so‘zlashadigan auditoriya uchun tibbiyot OTMlarida qo‘llaniladigan auditor bilingvizm ingliz tilini kasbiy sohada muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun asos yaratadi. Metodlarni birlashtirish va innovasion yondashuvlarni joriy etish orqali talabalar ingliz tili ko‘nikmalarini oshirishi taqozo etiladi. Bunda so‘z boyligi, tajriba, kontent va grammatikaning muvozanatli sintezi asosida kommunikativ strategiyaning to‘g‘ri ishlab chiqilishi nazarda tutiladi. Professional muzokaralar orqali o‘qish, yozish, tinglab tushunish kompetensiyalarini takomillashtirish, shuningdek, yangi, ommabop va yengil uslublarni qidirib topish orqali kommunikativ strategiyani to‘g‘ri ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur jarayon mobaynida nutq kompetensiyasiga asoslangan topshiriqlardan boshlanib, so‘ngra autentik matnlarni o‘qish, yozma topshiriqlarni bajarish, mavzuga oid video materialni idrok etish orqali tinglash kabi vazifalarni idrok etish amalga oshiriladi. Bunda, masalan, onlayn platformalar va mobil ilovalar vositasida mustaqil o‘zlashtirish, klinik ssenariylar – bemorlar ko‘rigi, tibbiy vaziyatlarni qo‘llash orqali amaliyotga oid interfaol kasbiy muhit o‘yinlarini yaratish kabi texnikalarni ishlab chiqish nazarda tutildi.

Tahlil va natijalar. Umuman olganda, ingliz tiliga o‘qitish mezonlari doimiy izlanishlar va tajriba vositasida namoyon bo‘lib, takomillashib, o‘zgarib boruvchi voqelikdir. Negaki, jahon miqyosidagi muloqotda ingliz tili asosiy o‘rinlardan birini egallab, bu tilni o‘qitish sifati talablari kundan kunga yangi, ommabop va yengil uslublarni qidirib topishni talab qilmoqda. Shunday ekan, ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy jahon metodologik ta’minotidan unumli foydalanish omillari ta’lim sifatini belgilab beruvchi turli texnologiyalar majmuini anglatadi. Shuningdek, turli suhbatdoshlar bilan muloqot amaliyotini kiritish, guruh muhokamalari kabi usullar talabalarga turli

kasbga oid vaziyatlarda kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda o‘quv dasturlari faol tinglash va turli xil aloqa uslublariga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Mazkur qarashlar asosida kasbiy muhitda ingliz tilidagi kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning metodologik shartlari namoyon bo‘ladi (1-rasmga qarang).

1-rasm. Kasbiy muhitda ingliz tilidagi kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning metodologik shartlari

Bu erda turli xil interfaol o‘qitish usullaridan foydalangan holda o‘rganuvchilarni o‘quv jarayoniga jalb qilishga mo‘ljallangan topshiriq va mashqlar majmui asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular nutq faoliyatining reseptiv va mahsuldor turlarida talaffuz, leksik va grammatik ko‘nikmalardan muvofiqlashtirilgan holda foydalanish bilan tavsiflanadi.

Xulosa va takliflar. Tibbiyot OTM lari talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bunday tizimli vazifalar ko‘lamining ishlab chiqilishi o‘rganuvchilarning nutq, o‘qish, tinglash va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, kasbiy faoliyatga ingliz tilida to‘liq kommunikativ tayyorgarligini shakllantirishga yordam beradi. Mavzuga oid video materiallar va unga tegishli topshiriqlar taqdimoti o‘quv jarayonini to‘ldirib, materialni chuqurroq o‘zlashtirishga hissa qo‘shadi. O‘ylaymizki, o‘quv jarayonini tashkil etishga qaratilgan bunday kompleks yondashuv nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirishga, balki talabalarni sohaviy va kasbiy muloqot kompetensiyasini to‘liq shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Tibbiyot OTMlari uchun ingliz tili fanidan amaldagi dasturlar va darsliklar tadqiqotimiz doirasida tahlil qilinar ekan, tibbiyot sohasi va amaliyoti uchun ingliz tilini kommunikativ jihatdan idrok etish borasida ularning takomillashuvi

va qayta ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Dasturiy ta’minotlarni bugungi kunda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish nuqtai nazaridan to‘ldirishda quyidagi asosiy jihatlarni sanab o‘tish o‘rinli:

- professional muloqot qobiliyatlarini shakllantirishda tibbiy kontekstda bevosita qo‘llaniladigan til ko‘nikmalariga qaratilgan axborot va matnlar, o‘qish, yozish, tinglash, gapirish va ixtisoslashtirilgan tibbiy so‘z birikmalarini egallash uchun tuzilgan mashq va vazifalar majmui, interfaol ta‘limga jalb qiluvchi multimedia resurslari asosidagi yangicha dasturiy ta’minotni yaratish;

- mutaxassislik bo‘yicha muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullarning yaxlitligini ta’minlovchi, hamda ayni paytda mobil va intensiv ravishda ularni tibbiyot sohasi va amaliyotiga integrasiyalashuvini ta’minlovchi mexanizmlarni joriy etish.

Shu asosda, sog‘liqni saqlash sohasi uchun xalqaro metodologik standartlar tamoyillariga javob beruvchi, kasbiy ingliz tili borasida kommunikativ kompetensiyani mukammal o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratish lozimligi quyidagi shartlar asosida belgilanadi:

1. Tibbiyot OTMlarida kommunikativ ingliz tili ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari asosida yangicha uslubiy yondashuvlar va standartlarni belgilash.

2. Sifatli kasbiy tayyorgarlik mezonlariga va malaka talablariga kommunikativ ingliz tilini soha va amaliyot nuqtai nazaridan idrok etish tamoyillarini joriy etish.

Adabiyotlar:

1. Абрамова И.Е., Шерехова О.М. Обучение диалогу и полилогу на английском языке студентов-нелингвистов // Высшее образование в России. – 2020. Т. 29. № 6. – С. 102-110.

2. Арнольд Э. Some comments on the science content of ESP // ESPMENA Bulletin. № 21. – P. 1-10.

3. Баранбаева К.Б. Развитие коммуникативной компетенции учащихся на уроках английского языка через активные формы обучения // Вестник науки и образования. № 3(27). Том 2, – 2017. – С. 66.

4. Бакиева Г.Х., Кушиева Н.Х. English language teaching based on the cluster model in the higher education system // Teaching Foreign Languages and Applied Linguistics. International Conference, USWLU, Tashkent, – 2016.

5. Данилова Е.А. Обучение английскому языку в высшей школе. Зарубежный опыт // Вестник МФЮА. № 4/201. – С. 228-229.

6. Ehrlich A. Medical Terminology for Health Professions // Delmar Publishers Inc. Part I. – 2016. – P. 5-7. URL: https://www.amazon.com/s.

7. Gunnarsson B. Professional Discourse // Karolinska Institutet, 2017. URL: https://ki.se/en/startpage.

8. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes // A learning-centered approach. Cambridge University Press. – 1987.

9. Hutchinson T., Waters A. How communicative is ESP? // ELT Journal. Vol.38 – 19842. – P. 108-113. Oxford University Press.

10. Johnson K. Innovation in Medical English // Stanford University, 2021. URL: https://med.stanford.edu.

11. Li J. Research on interaction and communication in English teaching // Hebei, China. Web of Conferences 5, 0100. – 2016. – P. 1-5. URL: https://www.shs-conferences.org/articles/shsconf.

12. Макарова О.Ю. Педагогическая система профессионального воспитания студентов медицинских вузов (материалы докторской диссертации). Казань, – 2014. ВАК РФ. URL: https://www.dissercat.com.

13. Müller C. Blended Learning in Medical Education // Heidelberg University, 2018. URL: https://www.uni-heidelberg.de/en.

14. Никулина Т.В. Преподавание английского языка в условиях ФГОС // МБОУ "Центр образования №27. Тула. URL: http://co27tula.ru.

15. Prescott D., El-Sakran T., Albasha L., Aloul F., Al-Assaf Y. Engineering Communication Interface: An Engineering Multi-disciplinary Project // US-China Education Review. 2011. A 7. P. 936-945. URL: https://www.researchgate.net.

16. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and methods in language teaching. (2nd ed.). New York, NY: Cambridge University Press. – 2001.

17. Roberts A. Technology-Enhanced Learning in Medical English // UCSF, 2019. URL: https://www.ucsf.edu.

18. Шарипова Ф.И. Современные подходы формирования языковой компетенции у студентов медицинских вузов // Современное образование (РФ). – 2019. – С. 18-23.

19. Tenzer H., Pudelko M., Harzing A.-W. The impact of language barriers on trust formation in multinational teams // Journal of International Business Studies. 2014. № 45 (5). P. 508-535. DOI: https://doi.org/10.1057/jibs.2013.64.

20. Thompson G. Some misconceptions about communicative language teaching // ELT Journal. Volume 50, Issue 1, January – 1996. – P. 9-15.

21. Thompson S. Teaching Medical English // Harvard Medical School, 2020. URL: https://hms.harvard.edu.

HARBIY XODIMLAR MULOQOTIDA IJTIMOIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI

Kenjaeva Z.T.
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi o‘qituvchisi

Tanyanch so‘zlar: ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy munosabat, kompetensiya, kompetentlik.
Ключевые слова: социальная психология, социальное отношение, компетенция, компетентность.
Key words: social psychology, social attitude, competence, competency.

Резюме:
Ushbu maqolada harbiy xodimlar muloqot xulqida ijtimoiy munosabatlar ahamiyati yoritib berilgan. Harbiy xodimlar muloqot xulqida kasbiy xarakterini belgilab beruvchi muayan ijtimoiy markerlar shakllanib qolishi yoritib berilgan. “Kompetentsiya” va “kompetentlik” termilarini qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Harbiy xodimlarning muloqot madaniyati va salohiyati ijtimoiy turmush bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadigan layoqatlari tahlil qilingan.
Резюме:
В данной статье подчеркивается значение социальных отношений в коммуникативном поведении военнослужащих. Пояснено, что в коммуникативном поведении военнослужащих формируются определенные социальные маркеры, определяющие их профессиональный характер. Рассмотрено употребление терминов “компетенция” и “компетентность”. Проанализированы культура общения и потенциал военнослужащих, которые формируются в неразрывной связи с общественной жизнью.
Summary:
This article emphasizes the importance of social relationships in the communicative behavior of military personnel. It is explained that in the communicative behavior of military personnel certain social markers are formed that determine their professional character. The use of the terms “competence” and “competency” is considered. The culture of communication and the potential of military personnel, which are formed in inextricable connection with public life, are analyzed.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlar, aslida, insonning siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlarini o’z ichiga olgan murakkab jarayon hisoblanadi. Masalan, interktsionizm vakillari uni shaxslararo o’zaro ta’sirning turlicha namoyon bo’lishi shaklida tushunsalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasi tarafdorlari insonlarning bir-birlariga nisbatan talablari, kutishlari va manfaatdorliklarining o’zaro almashinuvi jarayoni sifatida tasavvur

qiladilar. Shunga o’xshash hozirda turli-tuman qarashlar mavjud bo’lib, ularning barchasini birlashtiradigan yagona g’oya – bu, odamlar o’rtasida sodir bo’ladigan o’zaro ta’sir hisoblanadi.

XXI asrning dastlabki yillaridan muloqot kategoriyasi psixologiya fanidagi markaziy kategoriyalardan biri hisoblanadi. So‘nggi 20-25 yil ichida muloqot muammolari psixologiyadagi, ayniqsa, ijtimoiy psixologiyaning eng yirik tadqiqot predmetiga aylanib bormoqda.

Zotan, shaxslararo muloqot o‘ta murakkab jarayon bo‘lganligi uchun unga yagona to‘g‘ri ta’rifni berish juda mushkul. Shu bois, muloqot tushunchasi uning ayrim tomonlariga urg‘u berish orqali ta’riflanadi. Xususan, harbiy xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda fuqarolar bilan tez-tez muloqotga kirishadilar. Ular faoliyatining samaradorligi odamlar bilan muloqotga kirishish, psixologik aloqa o‘rnatish qobiliyatlariga bog‘liq. Kommunikativ xususiyatlar harbiy xodimlari kasb mahoratining muhim tarkibiy qismidir. Tinimsiz xalq ichida bo‘lishi, hamda turli ijtimoiy guruh vakillari bilan muloqot qilishi natijasida harbiy xodimlari millat mentaliteti, iqtisodiy-ijtimoiy holatini juda yaxshi o‘zlashtirib oladilarki, bu ularning asosiy vazifasi uchun muhim hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, to‘xtovsiz bir ish bilan shug‘ullanish natijasida ularning muloqot xulqida ham kasbiy xarakterini belgilab beruvchi muayan ijtimoiy markerlar shakllanib qoladi.

Darhaqiqat, harbiy xodimlar ijtimoiy vazifasi nuqtayi nazaridan o‘zini jiddiy tutishga urinishi, har bir elementga diqqat bilan qarashi, ma’lum vaqt o‘tgach, uning muloqot xulqiga ta’sir etadi. Shuning uchun harbiy hodimlar ishdan tashqari holatlarda (nonushta, maishiy tadbirlarda va hokazoda) ham jiddiy va kuzatuvchan kayfiyatda bo‘lib qolishlari mumkin. Bunday kayfiyat ularni hushyor, shubhali nazar bilan qarovchi, kelgan kishi bilan rasmiy muloqotga kirishadigan stereotipga aylantirib qo‘yadi.

Shuni ta’kidlash mumkinki, dastlab amerikalik tilshunos N.Xomskiy tomonidan shaxsning til tizimi, til belgilari, ularni leksik-grammatik real vaziyatlarda qo‘llanishiga oid salohiyatlarini tahlil qilish maqsadida ilmiy iste’molga olib kirilgan “kompetensiya” va “kompetentlik”ka (ingl. sompetence - qobiliyat) termini bugungi kunda psixologiya, pedagogika va sosiologiya sohalarida shaxsning turli faoliyatlariga baho berish vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda [3].

Xususan, V. N. Kunitsinaning qo‘llanmasida shaxsning muloqot madaniyati va salohiyati ijtimoiy turmush bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadigan layoqatlari:

1) operativlik – ijtimoiy tizim va tuzilmalarning o‘zaro aloqasidan xabardor bo‘lgan holda, vaziyatga tezlikda baho berish va uning yechimini topish;

2) orientasion – tuzulmalar haqida to‘laqonli xabardor bo‘lgan holda harakat yo‘nalishini mo‘ljallash;

3) verbal – fikrini og‘zaki va yozma tarzda hamda vaziyatga mos holda aniq va tushunarli tarzda bayon qilish;

4) kommunikativ – muloqotning madaniy normalarga tayangan suhbatlashish;

5) etik – xalqning an'anaviy odob-axloq nomlariga rioya qilish;

6) ijtimoiy-ruhiy – shaxslararo munosabatlarni oqilona hal qilish;

7) ego kompetentlik – o'z dini, millati, jinsi, ajdod-avlodiga oid ustuvor va zayif jihatlar haqidagi bilim singari sotsial kompetensiyalar asosida belgilanadi [1, 110].

Sotsial kompetensiyaning ushbu tarkibiy qismlari harbiylarni faoliyatiga baho berishda ham muhim ahamiyatga ega. Binobarin, operativlik va oriyentasion kompetensiyalar komandirning o'z bilim va tajribalariga tayangan holda, bir fikriy to'xtamga kelishi (fikriy oriyentasiya) va zudlik bilan qaror qabul qilishi (operativlik) kabi eng muhim layoqatlarini taqozo etadi. Verbal, kommunikativ, etik, ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar esa harbiylarning muloqot, ijtimoiy va madaniy layoqatlariga dahldor bo'lib, ular hamkasblar o'rtasidagi yozma va og'zaki shakli, rasmiy va norasmiy muloqotlari, komandir – askar muloqotlariga oid kompetensiyalarini aks ettiradi.

Keltirilganlardan ma'lum bo'ladiki, kompetensiya insonning shaxsiy (ruhiy), ijtimoiy, kasbiy faoliyatlariga xos qobiliyat, salohiyatiga baho berish vositasi bo'lib, kompetentlik deb yuritiladigan ushbu sifatlarni belgilashda uning lisoniy bilimi, nutq odobi va muloqot madaniyati orqali namoyon bo'ladigan kommunikativ kompetensiyaga tayaniladi. Harbiylik faoliyatida ushbu kompetensiya harbiy etika va kasbiy masalalari bilan chambarchas bog'liqdir.

K.F. Sedov kommunikativ kompetensiyani "nutqiy faoliyat va suhbat odobiga xos normalar hamda ijtimoiy munosabat me'yorlariga rioya qilgan holda muloqot samaradorligiga erishish ko'nikmasi", – deb ta'riflaydi [2,314]. Shuningdek, u kommunikativ kompetensiyani tarkiban "lisoniy (til), nutqiy, diskursiv, madaniy va ritorik" kompetensiyalardan tashkil topishini ham qayd etadi.

Xulosa. Shunday qilib, til muayyan jamiyat vakillari uchun umumiy ijtimoiy hodisa bo'lsa ham, uning ma'lum bir nutq vaziyati bilan bog'lanishi subyektning iqtidori va ijtimoiy faoliyati bilan bog'liqdir. Inson lisoniy faoliyatiga xos ana shunday obyektiv va subyektiv ko'rsatkichlar almashinuvini tilning "ma'lum ijtimoiy vazifa, kasb-hunarga ixtisoslashganligi bilan xarakterlanuvchi sotsial xoslangan nutq" lar misolida kuzatiladi [4, 283]. Harbiylarning nutqi va muloqoti ham ana shunday ijtimoiy-madaniy va kasbiy xoslangan turlardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Куницына В. Н. Межличностное общение. Учебник. – СПб: Питер, 2001. – С. 110.

2. Седов К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 314.

3. Хомский Н. О природе и языке. – М.: КомКнига, 2005.

4. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ... dis. – Toshkent: O'zR FA TAI, 2004. – Б. 283.

РОЛЬ ЖЕНЩИН В ДУХОВНОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В КНИГЕ "АВЕСТА"

Умаралиева Г.Б.
ГИИКУз, кафедра «Социально-гуманитарные науки», старший преподаватель

Tayanch so'zlar: axloqiy tarbiya muammosi, yaxshilik va yomonlik tushunchalari, odamlar o'rtasidagi munosabatlar, yoshlar tarbiyasi, qizlar tarbiyasi, erkaklar tarbiyasi.
Ключевые слова: проблема нравственного воспитания, понятия добра и зла, отношения между людьми, воспитание молодежи, воспитание девочек, воспитание мужчин.
Key words: the book of Avesta, the purity of offspring, the issue of moral education, the concepts of good and evil, relations between people, education of youth, education of girls, education of men.

Резюме:
Ushbu maqolada “Avesto” kitobida bayon etilgan yoshlar tarbiyasi va insonning ichki tarbiyasi ko‘rib chiqiladi. “Avesto”da yoshlarni axloqiy tarbiyalashga katta e’tibor berilgan. Yovuzlik va yolg‘ondan saqlanish, sog‘lom odob-axloq, munosib hayotni tanlash insonning to‘g‘ri yo‘ldan borishiga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Har bir inson o'zining ruhiy holatini tiklashi, ichki his-tuyg'ularini va g'oyalarini to'g'ri yo'nalishda shakllantirishi kerak. Maqolada sog‘lom avlodni voyaga yetkazishda oilada ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilish muhimligi ochib berilgan.
Резюме:
В данной статье рассматривается воспитание молодежи и внутреннее воспитание человека, изложенные в книге "Авеста". В Авесте уделяется большое внимание нравственному воспитанию молодежи. Подчеркивается, что воздержание от зла и лжи, выбор здоровой морали и добропорядочной жизни помогают человеку идти по правильному пути. Каждый человек должен восстановить свое духовное состояние, формировать свои внутренние чувства и идеи в правильном направлении. В статье раскрывается важность пропаганды моральных и духовных ценностей в семье для обеспечения здорового поколения.
Summary:
This article talks about the education of youth in the society described in the book "Avesta" and the internal education of a person. In the Avesta, great attention is paid to moral education for young people. It is emphasized that refraining from evil and lying, choosing healthy morals and an honest life will help a person to set his life on the right track. Every person should restore his spiritual condition, form his inner feelings and ideas in the right direction. The importance of promoting moral and spiritual values in the family to ensure healthy offspring is highlighted.

В «Авесте»женщина изображается хозяйкой дома. Она создает теплую атмосферу в доме, вносит вклад в укрепление семьи. Основная ответственность за воспитание детей лежит на женщине. Она прививает детям моральные

ценности, учит доброте, справедливости и уважению к старшим. Женщина служит примером для детей. Ее доброта, терпение, мудрость и трудолюбие играют важную роль в формировании личности детей. Женщины передают традиции и обычаи своего народа из поколения в поколение. Таким образом, культурные ценности сохраняются. В «Авесте»воспитание детей тесно связано с религиозными взглядами. Женщина, как правило, ближе к религии и передает детям религиозные знания. Несмотря на то, что мир значительно изменился со времени написания «Авесты», воспитательные принципы, изложенные в ней, не утратили своего значения. Семейные ценности, уважение к старшим, трудолюбие и мораль остаются актуальными.

Основные принципы воспитания в Авесте:

- «Доброта и сострадание»: дети должны воспитываться в доброте и милосердии.

- «Уважение к старшим»: дети должны относиться с уважением к родителям, учителям и другим взрослым.

- «Трудолюбие»: дети должны быть приучены к труду с раннего возраста.

- «Честность и правдивость»: честность и правдивость считаются одними из важнейших качеств человека.

- «Справедливость»: дети должны впитать в себя понимание справедливости.

«Основное содержание»

В «Авесте»большое внимание уделяется духовному воспитанию молодежи, смирению и трудолюбию. Кроме того, отношения между людьми должны быть совершенными. В «Авесте»подчеркивается, что для формирования здорового поколения люди должны обладать отношениями, основанными на доброте, честности и справедливости. «Авеста»– священные книги зороастрийской религии, в которых также уделяется большое внимание духовной и физической чистоте человека. Чистота и опрятность играют важную роль в учении Зороастра, так как они непосредственно связаны с духовным состоянием человека и его положением в обществе. «Авеста»считает важным стремление к чистоте мыслей, слов и дел. Каждый человек должен стремиться сохранять свою внутреннюю чистоту, то есть душевное состояние. В этом важно, чтобы мысли и слова были чистыми, и человек избегал плохих путей и плохих чувств. Также уделяется большое внимание физической чистоте. Человек должен заботиться о своей чистоте и здоровье, так как физическая чистота связана с духовной чистотой. Для этого необходимо следовать здоровым привычкам, мыться, соблюдать гигиенические правила.

В «Авесте»чистота связана с духовной и физической, а также с бережным отношением и уважением к природе. Забота о чистоте природы и окружающей среды также является частью чистоты. Кроме того, людей учили с детства заботиться о питьевой воде, растениях и природе и строго следовать правилам. Согласно зороастрийским законам, зороастрийские мужчины имеют

право жениться в возрасте семнадцати лет. Если мужчина обладает способностью к зачатию, но не женится, ему ставится клеймо и для позора его заставляют ходить с цепью на поясе. Такие виды наказаний в то время способствовали формированию здоровой социальной среды. Как говорится в «Авесте», мужчина должен быть материально и духовно сильным, чтобы жениться. Для этого он должен вовремя есть, иначе не сможет выполнить свои служебные и моральные обязанности. Считалось, что человек, который не ест и не пьет, не сможет выполнять религиозные обряды и не сможет иметь здоровых детей. В семейных отношениях важна чистота рода, поведение главы семьи учитывалось. Пребывание в одиночестве также осуждалось. Девушке, достигшей совершеннолетия, которая не хочет выходить замуж и намеренно проводит свою жизнь без брака, наказывалась поркой.

Кроме того, в «Авесте»содержатся советы о том, что при заключении брака и выборе супруга нельзя торопиться, и нужно прислушиваться к советам родителей и старших. Учение «Авесты» подчеркивает, что основная цель рода – духовное развитие потомков и приведение их к правильным моральным ценностям. Учение Зороастра придает особое значение духовному развитию и моральной чистоте человека. Большое внимание уделяется нравственному воспитанию и духовной чистоте последующих поколений. То есть каждое поколение несет ответственность за воспитание следующего поколения, за показания ему правильного духовного пути, полезного для общества. В учении «Авесты» род, поколение и их развитие рассматриваются как важная тема. Согласно учению Зороастра, правильное воспитание каждого поколения, стремление к воспитанию здорового потомства и сохранению духовной жизни необходимы для общего благополучия и развития общества. В «Авесте»содержатся правила и выражения, касающиеся рода, поколений и их духовного развития:

- "Духовная чистота и справедливость обеспечивают мир и стабильность среди поколений."
- "Поколение, воспитанное на правильном моральном пути, будет иметь светлое будущее и стабильность общества."
- "Развитие личности, физическое и духовное здоровье человека помогает будущим поколениям."

Зороастрийцы считали брак священным, поэтому развод не допускался по другим причинам, включая клевету, ссоры между мужем и женой или неспособность ужиться с родителями. В «Авесте» говорилось, что если родители хотят женить своих сыновей или выдать дочерей замуж, в первую очередь необходимо определить физическое здоровье жениха или невесты. Авеста – это священный текст древних иранцев, содержащий глубокие философские и религиозные взгляды. В этом тексте женщине уделяется важная роль в воспитании молодого поколения. В Авесте женщина изображается хозяйкой дома. Она создает теплую атмосферу в доме, вносит вклад в укрепление се-

мьи. Основная ответственность за воспитание детей лежит на женщине. Она прививает детям моральные ценности, учит доброте, справедливости и уважению к старшим. Женщина служит примером для детей. Ее доброта, терпение, мудрость и трудолюбие играют важную роль в формировании личности детей. Женщины передают традиции и обычаи своего народа из поколения в поколение. Таким образом, культурные ценности сохраняются. В Авесте воспитание детей тесно связано с религиозными взглядами. Женщина, как правило, ближе к религии и передает детям религиозные знания. Несмотря на то, что мир значительно изменился со времени написания Авесты, воспитательные принципы, изложенные в ней, не утратили своего значения. Семейные ценности, уважение к старшим, трудолюбие и мораль остаются актуальными.

Основные принципы воспитания в Авесте:

-Доброта и сострадание: дети должны воспитываться в доброте и милосердии.

-Уважение к старшим: дети должны относиться с уважением к родителям, учителям и другим взрослым.

-Трудолюбие: дети должны быть приучены к труду с раннего возраста.

-Честность и правдивость: честность и правдивость считаются одними из важнейших качеств человека.

-Справедливость: дети должны впитать в себя понимание справедливости. В Авесте большое внимание уделяется духовному воспитанию молодежи, смирению и трудолюбию. Кроме того, отношения между людьми должны быть совершенными. В Авесте подчеркивается, что для формирования здорового поколения люди должны обладать отношениями, основанными на доброте, честности и справедливости. Авеста – священные книги зороастрийской религии, в которых также уделяется большое внимание духовной и физической чистоте человека. Чистота и опрятность играют важную роль в учении Зороастра, так как они непосредственно связаны с духовным состоянием человека и его положением в обществе. Авеста считает важным стремление к чистоте мыслей, слов и дел. Каждый человек должен стремиться сохранять свою внутреннюю чистоту, то есть душевное состояние. В этом важно, чтобы мысли и слова были чистыми, и человек избегал плохих путей и плохих чувств. Также уделяется большое внимание физической чистоте. Человек должен заботиться о своей чистоте и здоровье, так как физическая чистота связана с духовной чистотой. Для этого необходимо следовать здоровым привычкам, мыться, соблюдать гигиенические правила.

В Авесте чистота связана с духовной и физической, а также с бережным отношением и уважением к природе. Забота о чистоте природы и окружающей среды также является частью чистоты. Кроме того, людей учили с детства заботиться о питьевой воде, растениях и природе и строго следовать правилам. Согласно зороастрийским законам, зороастрийские мужчины имеют право

жениться в возрасте семнадцати лет. Если мужчина обладает способностью к зачатию, но не женится, ему ставится клеймо и для позора его заставляют ходить с цепью на поясе. Такие виды наказаний в то время способствовали формированию здоровой социальной среды. Как говорится в Авесте, мужчина должен быть материально и духовно сильным, чтобы жениться. Для этого он должен вовремя есть, иначе не сможет выполнить свои служебные и моральные обязанности. Считалось, что человек, который не ест и не пьет, не сможет выполнять религиозные обряды и не сможет иметь здоровых детей. В семейных отношениях важна чистота рода, поведение главы семьи учитывалось. Пребывание в одиночестве также осуждалось. Девушке, достигшей совершеннолетия, которая не хочет выходить замуж и намеренно проводит свою жизнь без брака, наказывалась поркой.

Кроме того, в Авесте содержатся советы о том, что при заключении брака и выборе супруга нельзя торопиться, и нужно прислушиваться к советам родителей и старших. Учение Авесты подчеркивает, что основная цель рода – духовное развитие потомков и приведение их к правильным моральным ценностям. Учение Зороастра придает особое значение духовному развитию и моральной чистоте человека. Большое внимание уделяется нравственному воспитанию и духовной чистоте последующих поколений. То есть каждое поколение несет ответственность за воспитание следующего поколения, за показания ему правильного духовного пути, полезного для общества. В учении Авесты род, поколение и их развитие рассматриваются как важная тема. Согласно учению Зороастра, правильное воспитание каждого поколения, стремление к воспитанию здорового потомства и сохранению духовной жизни необходимы для общего благополучия и развития общества. В Авесте содержатся правила и выражения, касающиеся рода, поколений и их духовного развития:

- "Духовная чистота и справедливость обеспечивают мир и стабильность среди поколений."
- "Поколение, воспитанное на правильном моральном пути, будет иметь светлое будущее и стабильность общества."
- "Развитие личности, физическое и духовное здоровье человека помогает будущим поколениям." Зороастрийцы считали брак священным, поэтому развод не допускался по другим причинам, включая клевету, ссоры между мужем и женой или неспособность ужиться с родителями. В Авесте говорилось, что если родители хотят женить своих сыновей или выдать дочерей замуж, в первую очередь необходимо определить физическое здоровье жениха или невесты.

Если у человека на коже были дефекты, такие как белые, черные или красные пятна, его не выбирали. Они считали, что люди с дефектами подверглись влиянию дыхания Анхиты. В разделе "Вендидад" говорится, что царь Джамшид построил подземные туннели, когда возникла угроза уничтожения

людей. В 2-м разделе "Вендидад" Творец Ахурамазда проводит совет богов на берегу реки Дойтия в Иранском Виджа, и на совет приходит обладатель хороших стад Джам (Джамшид). На этом совете Ахурамазда говорит Джамшиду о необходимости построить страну, в которой будут радостные, плодородные пастбища и построены просторные и высокие дома. Кроме того, туда нужно привезти семена самых великих, благородных и лучших мужчин и женщин земли. В 29-м разделе говорится: "Но, ни в коем случае не впускайте туда – “горбунов, бесплодных, глупых, двуличных, денщиков, кастратов, щербатых", и вообще никого, кого затронул Ахриман".

В Авесте также уделяется внимание духовным ценностям людей для достижения чистоты и духовной чистоты. Для обретения веры и наград человек должен сохранять внутреннюю чистоту и стремиться к правильным поступкам. Чистота включает в себя духовную и физическую чистоту. Каждый человек несет ответственность за сохранение своего духовного и физического здоровья. Чистота и чистота человека отражают не только его внутреннее состояние, но и его отношение к обществу и природе. Авеста уделяет большое внимание формированию отношения молодежи к чистоте. Подчеркивается необходимость избегать зла, ошибок и грехов, а также важность справедливости и доброты.

Для молодежи моральная чистота – это выражение физической и духовной чистоты. Придерживаясь чистоты, они должны стремиться быть всесторонне развитыми, здоровыми и чистыми людьми. Таким образом, Авеста призывает людей к общей духовной, физической и социальной здоровью. В Авесте, как в священной книге зороастрийской религии, также уделяется особое внимание молодежи, особенно девушкам. В учении Зороастра подчеркивается важность каждого человека в полном развитии человечества, в том числе и роли женщин. В Авесте содержатся различные точки зрения и рекомендации по социальной роли и моральным обязанностям женщин.

Литература:

1. Авесто” (Асқад Маҳкам таржимаси) -Т.: 2001.
2. Ҳамиджон Ҳомидий. “Авестодан Шоҳномага”.-Т.:2007.
3. History of Civilizations of Central AsiaThe crossroads of civilizations:A.D. 250 to 750Multiple History SeriesUNESCO PublishingVolume III.1996,394
4. Bioesthetic problems and their impact on our national values.G Umaraliyeva - Culture and Arts of Central Asia, 2018
5. Socio-philosophical aspects of the concept of bioaesthetics. G Umaralieva - Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2024
6. Specific features of state and law relations.GB Umaralieva - Мировая наука, 2020
7. bioesthetics: harmony of form and movement.GB Umaralieva - Мировая наука, 2020
8. Bioesthetic problems and their impact on our national values.G Umaraliyeva - Culture and Arts of Central Asia, 2018
9. Specific features of state and law relations.GB Umaralieva - Мировая наука, 2020
10. Mavjudlik falsafasining fundamental kategoriyasi. ARISLANBAYEVA Z.E. 2020

TYUTORLAR FAOLIYATI IJTIMOIY PEDAGOGIK TIZIM SIFATIDA

Kulniyazov T. U.
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch sózlar: tyutorlik faoliyat, tyutor-maslahatchi, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, moral tyutor, darslar rahbari,
Ключевые слова: тьюторская деятельность, тьютор-консультант, социально-педагогический деятельность, моральный тьютор, руководитель занятий.
Key words: tutoring activity, socio-pedagogical activity, tutor-councelor, moral-tutor, director of studies.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada xorijiy va mahalliy oliy ta'lim muassasalari tyutorlik tizimi, uning mazmun va tuzilishi, tyutorlik tizim xususiyatlari hamda amaliyoti o'rganilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье исследуется тьюторская система зарубежных и республиканских высших учебных заведений, ее содержание и структура, особенности тьюторской системы, а также ее практика.
SUMMARY:
This article reveals the tutoring system of foreign and republican higher educational institutions, its content and structure, the features of the tutor system, as well as its practice.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-madaniy va ta'lim sohasidagi istiqbolli o'zgarishlar kasbiy ta'lim sharoitlarida yetuk va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning keskin muammolarini hal qilishning samarali yo'llarini qidirish zarurligini dolzarb masalaga atlantirib qo'ydi. Bilimli, ijodiy faol, tashbbuskor, yaratuvchanlik qobiliyatga va ushbu faoliyat samaradorligi uchun ma'suliyatni o'z zaimmasiga olgan shaxslar jamiyat uchun zarur. Ta'lim modelining ustuvor yo'nalishlari talabalarning butun hayoti davomida xususiy ta'lim yo'nalishini ijtimoiy va kasbiy faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlagan holda aniqlash hamda amalga oshirishni shakllantirish bilan bog'liq. Binobarin, o'z imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishga intiluvchi talabalarning shaxsi ta'lim-

tarbiya jarayonida birinchi o‘ringa chiqib oladi va ularning kasbiy pozitsiyasini shakllantirish muammosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida raqobatbardosh mutaxassislarni kasbiy yetishtirish bilan bog‘liq masalalarni mavjud zamonaviy ta’lim sharoitlarida oliy ta’lim muassasalari o‘z kompetensiyalarini nomoyon qilishi orqali talaba-yoshlarni iltimoiy-pedagogik, psixologik qo‘llab-quvvatlashning amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim. Bizning fikrimizcha, bunday qo‘llab-quvvatlash oliy ta’lim muassasalari tarbiya tizimida tyutor faoliyatining yetakchi bo‘lishini ta’minlashda eng maqbul usul hisoblanadi.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida yuz berayotgan muntazam o‘zgarishlar uning mazmunini o‘zgartirishni, faoliyatning maqsad va vazifalari, tashkil etish vositalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Tyutorlar faoliyati oliy ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya ishlarida muhim omilllardan biri hisoblanadi.

Jahonning rivojlangan davlatlari oliy ta’lim muassasalarida mavjud bo‘lgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatdagi xorijiy tajribalarni o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonida tyutorlarning innovatsion modeli va tuzilmalarini ishlab chiqishdagi faoliyatini amalga oshirshining yo‘nalishlarim shakllari va usullarini tahlil qilish imkonini beradi va uni oliy ta’lim muassasalarida ta’lim muhitini modellashtirishda qo‘llash muayyan darajada obyektiv baholashni ta’minlaydi. Har qanday oliy ta’lim muassasasining ta’lim-tarbiya ishlarining amaldagi tajribasi so‘zsiz bebaho. Ammo, u jamiyat rivojlanishi dinamikasi doirasida modernizatsiyalash va yangicha yondashuvlarni talab qiladi [3, 37-40 b].

Biz taqdim qilgan materiallarda xorijiy oliy ta’lim muassasalarining keng tarqalgan va samarali ta’lim-tarbiya amaliyotini ko‘rib chiqamiz.

Yevropa oliy ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya faoliyatining institutsionallashgan shakli sifatida tyutorlik tizimi alohida jozibadorlik kasb etadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, tyutorlik tizimi o‘rta asrlardayoq yuzaga kelgan va ko‘pchilik davlatlar oliy ta’lim muassasalarining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishida yetakchi usullardan biridir. Mazkur tizim Buyuk Britaniyada paydo bo‘lib, taxminan XIV asrda klassik ingliz universitetlari hisoblangan – Oksford va keyinchalik Kembrijda ommalashgan.

“Tyutorlik” tushunchasining aniq ta’rifi mavjud emas, chunki har bir oliy ta’lim muassasasi ushbu amaliy faoliyatni o‘z xohishiga ko‘ra tashkil qiladi. Muhim jihati shundaki, tyutor oliy ta’lim muassasasida amaliyotchi mutaxassis bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda tyutorlik amaliyoti o‘qituvchi–tyutor bilan kichik talabalar guruhini (ikkitadan beshtagacha) o‘rganishdan iborat bo‘ladi.

Tyutorlik – bu faqat kasbiy bilimlarni yetkazib berishga asoslangan dasturiy ta’lim-tarbiya berish shakli, balki bizning fikrimizcha, talaba shaxsiga, o‘z-

oʻzini anglashga va oʻzini namoyon qilishga yordam berishga yoʻnaltirilgan talabalarning zamonaviy tarbiya amaliyotlaridan biri hisobalanadi.

Tyutorlik tizimining tuzilishi Buyuk Britaniyada [7] Kembridj va Oksford universitetlarining namunasiga tayanadi. Masalan, Kembridj universitetida quyidagicha yoʻnalishlarga ega [8]:

– darslar rahbari (Director of studies) talabalarning oʻquv jarayonini ta'minlaydi;

– axloqiy tyutor (Moral tutor) talabalarning universitet hayotidagi ishtirokini ta'minlash uchun mas'uldir;

– tyutor yoki maslahatchi (Tutor or Supervisor) talabalarning oʻquv yili davomida ta'lim olishi uchun mas'uliyatni oʻz zimmasiga oladi.

Oksford universitetida yuqoridagi uchta vazifani bitta inson bajaradi. Talabalarning tyutor bilan hamkorlikdagi darslarida ajratilgan oʻquv vaqti Oksfordta 90%, Kembridjda esa 75% ni tashkil qiladi. Yangi universitetlarda boʻlsa, haftasiga 1-2 soat ajratiladi. Tyutor va talabalar faoliyatining asosi, uning ishtirokchilarining teng pozitsiyasi va oʻzaro munosabatlari boʻlib, u quyidagi faoliyat yoʻnalishlariga tayanadi:

– oʻrganuvchilarning zaruratlarini aniqlash;

– ta'lim jarayonini tashkil etish;

– har xil yoʻnalishlarning maqsadlarini belgilash;

– harakatlarni rejalashtirish;

– oʻqish uchun manbalarni aniqlash;

– oʻzaro harakatdagi ta'lim jarayoni va guruhning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikda ishlash;

– oʻquv rejasini tuzish;

– oʻqituvchilarga instruktorlar deb emas, balki doʻst va yordamchi munosabatda boʻlish;

– mustaqil ishlarni ta'lim jarayonida qoʻllash;

– amalga oshirilgan ishlarni baholash mezonlarini ishlab chiqish;

– oʻz-oʻzini nazorat qilishni qoʻllash;

– bilim va koʻnikmalarning jamlanmasini oʻquv yurtidan tashqarida egallash yoʻli bilan kengaytirish;

– kelajak hayotga ta'sir etuvchi qarorlarni qabul qilish.

Talabalar oʻzora munosabatlarda tyutor tizimining oʻziga xos xususiyati ular uchun zarur vazifalarni tanlash va ularni hal qilish dasturlarini ishlab chiqishda mustaqil boʻlishidir. Bunda har bir talabaning tayyorgarlik va bilim darajasi hisobga olinib, uning qanday aniq natijalarga va qay darajada erishishi, ishning qanday shakli talaba uchun qulay, asosan mustaqil yoki toʻla avtonomli boʻlishi aniqlanadi. Koʻpchilik tyutorlar talabani oʻqitish maqsadi, vazifalarni oʻzi

samarali aniqlashi va ularga erishish yo‘llarini topishi mumkin, deb hisoblaydi. Bunda tyutor faqat talabalarga yo‘nalish berish rolini amalga oshiradi. Masalan, tegishli adabiyotni o‘qishni va muayyan tadbirlarda ishtirok etishni tavsiya qiladi.

Biz E.Belitskaya, Yu.Derajne, T.Kovaleva, T.Litvinova, S.Shennikov va boshqalar kabi ko‘plab rus olimlarining ilmiy ishlarini tahlil qilib, tyutorlar faoliyatining mazmun-mohiyatini tushunishning umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Natijada, tyutorlar faoliyatining pedagogik xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi tarixiy, pedagogik va tashkiliy farqlar aniqlandi. Masalan, Yu.L.Derajne ta’kidlab o‘tganidek, “Tyutor masofaviy ta’limning eng muhim tizimlashtiruvchi komponenti bo‘lib, u o‘qituvchi, maslahatchi, metodist va tyutorlik faoliyatni amalga oshiradi” [1; 58-b.].

S.Shennikov nuqtai nazaridan “Tyutor” atamasi mustaqil ta’lim va ta’limni tashkil qilish jihatda “o‘qituvchi-maslahatchi-mutaxassis” sifatida qaraladi [6; 360-b.].

Tadqiqotchilar T.Kovaleva [2; 246-b.], M.Popovlar [5; 59-b.] tyutor hamrohligini talaba va tarbiyachi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga asoslangan pedagogik texnologiya sifatida talqin qiladi. Bunda talaba o‘z maqsad va vazifalarini to‘g‘ri tushunib etadi va uni amalga oshiradi. Bir so‘z bilan aytganda, “tyutor” tushunchasini “murabbiy” deb talqin qilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida “tyutor” tegishli malaka talablariga javob beradigan, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, biriktirilgan guruh talabalariga ta’lim-tarbiya berish, shuningdek, ularni mehr-muruvvat, adolat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etishda ularni besh muhim tashabbus doirasidagi to‘garaklarga jalb qiladigan va ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammolarga belgilangan tartibda yechim topadigan xodim hisoblanadi [4; 382-b.].

Shunday qilib, xorij oliy ta’lim muassasalari tarbiya faoliyatining afzalligi – talabalarni ijtimoiy va pedagogik qo‘llab-quvvatlash ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy muhitga moshlashuvini ta’minlaydigan tyutorlik amaliyoti bu talabalarni jamoa va guruh a’zosi sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan har xil xizmatlar, turli darajadagi strukturalar, jamoalar, seminar-treninglar va mahorat darslarini tashkillashtirishdan iborat.

Tyutorlik faoliyatni tashkil qilishning taqdim etilgan xorijiy tajribalarda, so‘zsiz, talabaning shaxsiy-kasbiy rivojlanishi va subyektiv pozitsiyasi, oliy ta’lim muassasalari muhitida samarali moslashuvi bilan bog‘liq ko‘pgina ijobiy jihatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Tarbiya sohasida xorij va mamlakatimiz tajribalarining integratsiyalashuvi bizga o‘zaro o‘tish va o‘zaro harakat jarayoni sifatida namoyon bo‘lib, natijada

milliy qadriyatlarimizga asoslangan pedagogik tajribamiz saqlanib qoladi va yangilanadi hamda tarbiya jaroyining barqaror rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Xorijiy tajribalarda shaxsga yo‘naltirilgan modellar sifatida tarbiyada birdamlikning konservativ jamoaviy modellari va talabalarning individual o‘ziga xosligiga yo‘naltirilgan tarbiya modellarini aniqlash, bizga oliy ta’lim muassasalarida tarbiya muhitini modellashtirish, talabaning kasbiy mustaqil o‘z- o‘zini tarbiyalash, bo‘lajak mutaxassislarning individual xususiyatlarini shakllantirish bo‘yicha mulohaza yuritish imkonini beradi.

Ammo, biz mahalliy oliy ta’lim muassasalarimizning tarbiya faoliyatini xorijiy tajribalardan o‘zlashtirib olingan g‘oyalarga asoslanmaslikga e’tibor qaratamiz. Xorijiy oliy ta’lim muassasalari tyutorlik amaliyoti tajribasini qo‘llashda xalqimiz milliyligini, amaldagi qonunchilik normalarini, mintaqani zamonaviy ijtimoiy muhitini, oliy ta’lim muassasalari va ularning manbalarini hisobga olish muhim.

Shunday qilib, tyutorlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini oliy ta’lim muassasalarida tashkil qilishni va mazkur faoliyatning maqsadliligini ko‘rib chiqib, hozirgi sharoitlarda ta’limni ikki darajali tizimga va o‘qitishda kompetentlik yondashishga o‘tishda, oliy ta’lim muassasalarida shakllangan tyutorlik faoliyat tizimi muhim aspekt bo‘lib qolmoqda. Mazkur tizim talabalar orasida muhim ijtimoiy yo‘naltirilgan faoliyatda ishtirokini qamrab olish, faqat faol talabalardan tashkil topgan guruhlarni tanlab olish va ular uchun alohida sharoitlar yaratish imkoniyatini beradi. Talabalar bilan kundalik shaxsiy ishlari ularning ongliligiga emas, balki quyidagi muammolarni hal qilishga qodirligi talab etiladi. Ular zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishda, o‘zaro munosabatlarni baholashda, ijtimoiy rolini bajarishda, real hayotda o‘zini anglashning individual muammolarini hal etishda hamda turmush tarzi qiyinchiliklarini yengib chiqish usullarini tanlashda yuzaga keladi.

Adabiyotlar:

1. Деражне Ю.Л. Тьютор в открытом обучении. // Учебно-методическое пособие. – М.: 1998. – 58 с.

2. Ковалева Т.М., и др., Профессия «тьютор». – М.: Тверь. «СФК офис». 2012. – 246 с

3. Кулниязов Т.У. Образовательно-воспитательные практики тьюторства зарубежных вузов. // Ilim hám jámiyet. Ilimiy-metodikalıq jurnal. – Nókis. 2022. №2. – B. 37-40.

4. Kulniyazov T.U. Kalmenov R.M. Tyutorlıq iskerliginde sociallıq tarmaqlardıń áhmiyeti // “Arnawlı pedagogika: mashqalalar hám sheshimler” Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya. – Nókis. 2023. – B. 381-383.

5. Попов М.Н. Тьюторское сопровождение студентов в вузе. // Гуманитарные науки. 2013. №1. – С. 59-65.

6. Щенников С.А Открытое дистанционное образование. – М.: Наука. 2002. – 527 с.

7. https://careers.yorku.ca/ сайт Йоркского университета.

8. https://www.lse.ac.uk/economics/events-and-seminars сайт Лондонской школы экономики.

KO’ZI OJIZ TALABALARGA INGLIZ TILINI O’RGATISHDA “SPELLING AUDIO DICTIONARY” QO’LLANMASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yakubova N.
O’zbekiston Davlat jahon tillari universiteti dotsenti v.v.b.

Tayanch so’zlar: ko’zi ojiz talabalar, ingliz tilini o’rgatish, spelling audio dictionary, talaffuz, eshitish qobiliyati, so’z boyligi, inklyuziv ta’lim, texnologik vositalar, o’quv samaradorligi, individual yondashuv.
Ключевые слова: слепые студенты, обучение английскому языку, орфографический аудиословарь, произношение, слух, словарный запас, инклюзивное образование, технологические средства, эффективность обучения, индивидуальный подход.
Key words: blind students, English language teaching, audio spelling dictionary, pronunciation, hearing, vocabulary, inclusive education, technological means, learning effectiveness, individual approach.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada ko’zi ojiz talabalar uchun ingliz tilini o’rgatishda “spelling audio dictionary” qo’llanmasidan foydalanishning samaradorligi va o’ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ko’zi ojiz talabalar duch keladigan muammolar, xususan, yangi so’zlarni talaffuz qilish, imlosini o’rganish va eshitish orqali bilim olish jarayonidagi qiyinchiliklarga yechim sifatida ushbu vositaning samarasi o’rganildi. Tadqiqot davomida 15 nafar ko’zi ojiz talaba ishtirokida eksperimental mashg’ulotlar o’tkazilib, “spelling audio dictionary” yordamida so’zlarni o’rganish jarayoni kuzatildi. Natijalar shuni ko’rsatdiki, ushbu vosita talabalar so’z boyligini oshirish, talaffuzni yaxshilash va eshitish qobiliyatini rivojlantirishda samarali bo’lib, o’quv jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Shuningdek, bu metod talabalarni mustaqil ishlashga rag’batlantirishi va individual yondashuvni ta’minlashi bilan ajralib turadi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье анализируется эффективность и особенности использования пособия «Орфографический аудиословарь» при обучении английскому языку слепых учащихся. В ходе исследования изучалась эффективность данного инструмента как решение проблем, с которыми сталкиваются незрячие ученики, в частности, произношения новых слов, изучения правописания и трудностей в процессе приобретения знаний путем аудирования. В ходе исследования проводились экспериментальные занятия с участием 15 незрячих студентов и наблюдался процесс изучения слов с помощью «орфографического аудиословаря». Результаты показали, что этот инструмент эффективен для увеличения словарного запаса учащихся, улучшения произношения и развития навыков аудирования, что значительно об-

легчает процесс обучения. Также этот метод отличается тем, что стимулирует учащихся к самостоятельной работе и обеспечивает индивидуальный подход.

SUMMARY:

This article analyzes the effectiveness and features of using the "Spelling Audio Dictionary" manual in teaching English to blind students. The study examined the effectiveness of this tool as a solution to the problems that blind students face, in particular, pronunciation of new words, learning spelling and difficulties in the process of acquiring knowledge through listening. The study conducted experimental classes with the participation of 15 blind students and observed the process of learning words using the "spelling audio dictionary". The results showed that this tool is effective in increasing students' vocabulary, improving pronunciation and developing listening skills, which greatly facilitates the learning process. This method is also distinguished by the fact that it stimulates students to work independently and provides an individual approach.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ta’lim, ishbilarmonlik va texnologiya sohalarida ham asosiy vosita sifatida qaralmoqda. Bu tilni o’rganish har bir inson uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Shunga qaramay, nogironligi bo’lgan sha xslar, xususan, ko’zi ojiz talabalar uchun ingliz tilini o’rganish jarayoni o’ziga xos yondashuv va vositalarni talab qiladi.

Ko’zi ojiz talabalar uchun ingliz tilini o’rganishdagi qiyinchiliklar:

- Matn yoki darsliklardan vizual foydalanishning imkoni yo’qligi.
- Yangi so’zlarning talaffuzi va ma’nosini mustaqil o’rganishdagi cheklovlar.
- An’anaviy ta’lim usullari ko’zi ojiz talabalar ehtiyojlarini to’liq qondira olmasligi.

Shu nuqtai nazardan, “spelling audio dictionary” kabi texnologik qo’llanmalar ko’zi ojiz talabalar uchun o’qitish jarayonini yengillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada “spelling audio dictionary” qo’llanmasi yordamida ingliz tilini o’rgatishning samaradorligi, bu metodning o’ziga xos xususiyatlari va ta’lim jarayoniga ta’siri o’rganiladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — ko’zi ojiz talabalar uchun ingliz tilini o’rgatishda “spelling audio dictionary" qo’llanmasidan foydalanishning samaradorligini aniqlash va ushbu metodning o’quv jarayoniga qanday ta’sir qilishini tahlil qilishdir.

Mazkur tadqiqot nogironligi bo’lgan talabalar uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirishga hissa qo’shadi. “Spelling audio dictionary” qo’llanmasidan foydalanish yangi texnologiyalar yordamida ko’zi ojiz talabalar uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot natijalari ushbu vositadan foydalanish bo’yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda ko’zi ojiz talabalar uchun ingliz tilini o’rgatishda “spelling audio dictionary” qo’llanmasidan foydalanish samaradorligi o’rganildi. Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

Tadqiqotda 15 nafar ko'zi ojiz talabadan iborat guruh ishtirok etdi. Ular turli yoshdagi va turli darajadagi ingliz tilini bilish ko'nikmalariga ega edi. Ishtirokchilar quyidagicha guruhlashtirildi:

- Boshlang'ich daraja (Beginner) — 5 nafar talabalar.
- O'rta daraja (Intermediate) — 7 nafar talabalar.
- Yuqori daraja (Advanced) — 3 nafar talabalar.

Tadqiqot jarayoni quyidagicha amalga oshirildi:

1. "Spelling Audio Dictionary" qo'llanmasining qo'llanilishi:

- Talabalarga "spelling audio dictionary" dasturidan foydalanish bo'yicha qisqacha ko'rsatmalar berildi.
- Har bir talaba dastur yordamida yangi so'zlarni tinglash, so'zlarning talaffuzini va imlosini o'rganish uchun mashqlarni bajardi.
- So'zlar talaffuzining to'g'ri o'rganilishi uchun har bir talaba bilan individual ishlash tashkil qilindi.

2. Mashg'ulot bosqichlari:

- Boshlang'ich bosqich: Talabalar dasturdan foydalanishni o'rganishdi va undan mustaqil foydalanish bo'yicha ko'nikma hosil qilishdi.
- Amaliy bosqich: Har bir darsda dasturdan foydalanib, yangi so'zlar talaffuzi va imlosi o'rganildi.
- Nazorat bosqichi: Talabalar dastur yordamida o'rganilgan so'zlar bo'yicha test va amaliy topshiriqlarni bajardilar.

3. Ma'lumot yig'ish usullari

- Kuzatuv: Talabalarning mashg'ulotlardagi faoliyati kuzatildi va yozib borildi [4].
- Sinov va testlar: Har bir bosqichda talabalar bilimlari maxsus testlar yordamida baholandi.
- Intervyu: Mashg'ulotlardan so'ng talabalar bilan suhbatlar o'tkazilib, ushbu metodga bo'lgan munosabatlari o'rganildi [3].

4. Tahlil usullari

Tadqiqotda olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilindi va quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholandi:

- Yangi so'zlarni o'zlashtirish darajasi.
- So'zlarni talaffuz qilish aniqligi.
- Talabalar o'zlashtirishidagi ijobiy o'zgarishlar.

NATIJALAR.

Tadqiqot davomida olingan natijalar "spelling audio dictionary" qo'llanmasining samaradorligini isbotladi. Quyida asosiy natijalar keltirilgan:

1. So'z boyligini oshirish.

Mashg'ulotlar davomida talabalar o'rtacha 30% yangi so'zlarni o'zlashtirishga erishdi. Boshlang'ich darajadagi talabalar 20-25 ta yangi so'z o'rgangan bo'lsa, o'rta va yuqori darajadagi talabalar 40-50 ta yangi so'z o'zlashtirdi.

2. Talaffuzni yaxshilash.

Talabalarning 85% so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgandi. Bu, ayniqsa, dastur orqali so'zning ovozli talaffuzini bir necha bor tinglash imkoniyati tufayli amalga oshdi.

3. O'quv jarayonining samaradorligi.

"Spelling audio dictionary" qo'llanmasidan foydalanish o'quv jarayonini sezilarli darajada soddalashtirdi. Talabalar so'zlarning talaffuzi va imlosini eshitish orqali tahlil qilish va mustaqil ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

4. Talabalar fikri.

Intervyu natijalariga ko'ra, talabalar ushbu metodni qulay va samarali deb baholadi. Ularning fikricha, audio orqali o'rganish ko'zi ojiz talabalar uchun qulayroq va eshitish orqali yangi bilimlarni mustahkamlash osonroq.

Muhokama. Mazkur tadqiqotning natijalari ko'zi ojiz talabalar uchun ingliz tilini o'qitishda "spelling audio dictionary" qo'llanmasining samaradorligini tasdiqladi. Ushbu metodning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ***Individual yondashuv:*** "Spelling audio dictionary" talabalarga mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, ingliz tilini bilish darajasi turlicha bo'lgan talabalar uchun muhimdir.

- ***Didaktik moslashuvchanlik:*** Dastur har bir talabaga moslashuvchan yondashuvni taklif etadi: talabalar o'zlariga qulay tezlikda dars materiallarini o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi [5].

- ***Eshitish qobiliyatini rivojlantirish:*** Ko'zi ojiz talabalar uchun asosiy o'rganish vositasi eshitish bo'lganligi sababli, audio asosidagi o'qitish usuli ushbu qobiliyatni yanada rivojlantiradi.

- ***Cheklovlar:*** Shunga qaramay, ushbu metod ba'zi cheklovlarga ega:

- Texnologik vositalarning mavjudligi va sifati talablar darajasida bo'lmasligi mumkin.

- O'qituvchining texnologik vositalardan foydalanish bo'yicha malakasi muhim ahamiyatga ega [2].

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, "spelling audio dictionary" qo'llanmasidan foydalanish ko'zi ojiz talabalar uchun ingliz tilini o'rgatishda samarali va qulay vosita ekanligi tasdiqlandi. Ushbu metod talabalarning so'z boyligini oshirish, talaffuzni yaxshilash va eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Ko’zi ojiz talabalar uchun ingliz tilini o’rgatishda “spelling audio dictionary”dan foydalanish ancha samarali ekanligi tadqiqot natijalari orqali isbotlandi. Bu usul nafaqat eshitish va talaffuz qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki talabalar uchun yangi so’zlarni ko’nikmaga aylantirish jarayonini ham osonlashtiradi. Kelajakda ushbu metodni yanada rivojlantirish va boshqa tillarni o’rgatishda qo’llash imkoniyatlari mavjud.

Amaliy tavsiyalar:

1. O’qituvchilar “spelling audio dictionary” kabi texnologik vositalarni o’quv jarayoniga keng joriy etishlari lozim.
2. Ko’zi ojiz talabalar uchun maxsus qo’llanmalar va dasturlar ishlab chiqilishi kerak.
3. Kelajakda ushbu metodni boshqa tillarni o’rgatishda ham qo’llash imkoniyatlari o’rganilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Smith, J. (2020). Teaching English to Visually Impaired Learners. Oxford University Press.
2. Brown, A. (2018). Audio Tools in Language Learning: Accessibility and Effectiveness. Cambridge Press.
3. Uzbekistan Education Ministry. (2022). Inclusive Education for Students with Disabilities.
4. Johnson, K. (2019). Innovative Methods in Teaching English Spelling and Pronunciation.
5. World Health Organization (2021). Assistive Technologies for Education.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Sabirova D.
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: frazeologik birliklar, ingliz tili, o'zbek tili, lingvomadaniy xususiyatlar, madaniyatlararo muloqot.
Ключевые слова: фразеологизмы, английский язык, узбекский язык, лингвокультурные особенности, межкультурная коммуникация.
Key words: phraseological units, English language, Uzbek language, linguocultural features, intercultural communication.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Frazeologik birliklar xalqning madaniyati, tarixi, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvistik vositalar hisoblanadi. Tadqiqot davomida har ikki tildagi frazeologizmlar taqqoslandi, ularning shakllanishi va semantik mazmunida aks etgan milliy xususiyatlar tahlil qilindi. Shuningdek, diniy, mifologik, tarixiy, va turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlar o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, har bir tilda xalqning madaniyati va mentalitetiga xos bo'lgan o'ziga xos jihatlar mavjud. Ushbu tadqiqot lingvomadaniyatshunoslik, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo muloqot sohalarida amaliy ahamiyatga ega.
РЕЗЮМЕ:
Данная статья посвящена изучению лингвокультурных особенностей фразеологизмов английского и узбекского языков. Фразеологические единицы являются важными языковыми средствами, отражающими культуру, историю, традиции и мировоззрение народа. В ходе исследования сравнивались фразеологизмы обоих языков, анализировались национальные особенности, отразившиеся в их формировании и смысловом наполнении. Также изучались фразеологизмы, связанные с религиозным, мифологическим, историческим и бытом. Результаты показывают, что хотя фразеологизмы английского и узбекского языков имеют сходство, каждый язык имеет свои особенности, характерные для культуры и менталитета народа. Данное исследование имеет практическое значение в области лингвистики, теории перевода и межкультурной коммуникации.
SUMMARY:
This article is dedicated to the study of the linguocultural features of phraseological units in English and Uzbek. Phraseological units are essential linguistic tools that reflect the culture, history, traditions, and worldview of a nation. In this study, phraseological units from both languages were compared, and their formation and semantic content, which express national characteristics, were analyzed. Additionally, phraseological units related to religion, mythology, history, and lifestyle

were examined. The results indicate that while English and Uzbek phraseological units share similarities, each language exhibits unique features shaped by the culture and mentality of its people. This research is of practical significance for linguocultural studies, translation theory, and intercultural communication.

Kirish. Frazeologik birliklar har qanday tilda xalqning tarixiy, madaniy va milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi muhim til birliklaridan biri hisoblanadi. Ular ko‘p hollarda xalqning ma’naviy boyligi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifodalaydi [4]. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni lingvomadaniy jihatdan o‘rganish, bu birliklarda aks etgan madaniy qadriyatlarni taqqoslash va o‘xshashlik hamda farqlarni aniqlash bugungi kunda lingvistikaning dolzarb masalalaridan biridir.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni lingvomadaniy nuqtai nazardan taqqoslash, ularning shakllanish omillari va madaniy mazmunlarini o‘rganish. Ushbu tadqiqot natijalari ikki til va madaniyat o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga, shuningdek, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga yordam beradi.

Metodologiya. Tadqiqot davomida quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. *Taqqoslash usuli:* Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar lingvomadaniy jihatdan taqqoslandi. Ularning shakllanish manbalari, semantikasi va qo‘llanilish konteksti o‘rganildi.

2. *Kontekstual tahlil:* Frazeologik birliklarning kontekstdagi ma’nosi va madaniy mazmuni tahlil qilindi.

3. *Tarixiy-etimologik tahlil:* Frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixi va shakllanish omillari o‘rganildi.

4. *Statistik tahlil:* Ingliz va o‘zbek tillaridagi eng ko‘p uchraydigan frazeologik birliklar soni va ularning turlariga oid statistik ma’lumotlar to‘plandi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy manbalar va materiallardan foydalanildi:

- Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik lug‘atlar.

- Frazeologik birliklarning qo‘llanilishiga oid adabiyotlar (badiiy asarlar, maqolalar va internet resurslari).

-Lingvomadaniyatshunoslik bo‘yicha ilmiy maqolalar va tadqiqotlar.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. *Frazeologik birliklar to‘plami:* Ingliz va o‘zbek tillaridan 500 ta frazeologik birlik tanlab olindi.

2. *Analiz:* Ushbu birliklar lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Ularning madaniy mazmuni va milliy o‘ziga xosligi o‘rganildi.

3. *Natijalar taqqoslanishi:* Olingan natijalar asosida o‘xshashlik va farqlar aniqlanib, xulosalar chiqarildi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlariga oid quyidagi asosiy jihatlar aniqlandi:

1. Madaniy qadriyatlar aks etishi

Frazeologik birliklarda xalqning madaniyati, tarixi va urf-odatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan:

- Ingliz tili: “Break the ice” frazeologizmi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash ma’nosini bildiradi. Bu ibora qadimda muzli daryolarni ochish uchun qilinadigan ishlar bilan bog‘liq [3].

- O‘zbek tili: “Muz eridi” [1] iborasi ham ijtimoiy munosabatlarning iliqlashishini anglatadi, biroq u bevosita xalqning ijtimoiy psixologiyasini aks ettiradi.

2. Diniy va mifologik omillar

Frazeologik birliklarning shakllanishida diniy va mifologik omillar katta rol o‘ynaydi:

- Ingliz tili: “Forbidden fruit” iborasi Injildagi Adan bog‘i voqeasiga ishora qiladi.

- O‘zbek tili: “Oshig‘i olchi bo‘ldi” [6] iborasi qadimgi turkiy xalqlar orasida o‘yin va omad bilan bog‘liq mifologik tushunchalardan kelib chiqqan.

3. Hayvonlar bilan bog‘liq frazeologizmlar

Har ikki tilda hayvonlar bilan bog‘liq frazeologik birliklar mavjud [5]. Biroq ular o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega:

- Ingliz tili: “As sly as a fox” – tulkiga o‘xshab ayyor.

- O‘zbek tili: “Tulki kabi ayyor” [6] – o‘xshash ma’no hamda hayvon timsolida ifodalanadi.

4. Milliy urf-odatlar va turmush tarzi

Frazeologizmlarda xalqning turmush tarzi va urf-odatlari ham aks etadi:

- Ingliz tili: “Hit the nail on the head” – to‘g‘ri aytish. Bu ibora inglizlarning amaliy hayotidan olingan [2].

- O‘zbek tili: “Qo‘lni ishga urmoq” – aniq va samarali ish boshlashni anglatadi.

5. Qo‘llanilishdagi o‘xshashlik va farqlar

Ba’zi frazeologik birliklar ikki tilda ham o‘xshash ma’noni bildiradi, biroq ularning ifodasi turlicha bo‘lishi mumkin:

- Ingliz tili: “To spill the beans” – sirni oshkor qilish.

- O‘zbek tili: “Og‘zidan chiqib ketdi” [1] – sirni aytib qo‘yish.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar lingvomadaniy jihatdan bir qator o‘xshashlik va

farqlarga ega. Ularning shakllanishiga xalqning turmush tarzi, diniy e'tiqodlari, tarixiy voqealari va madaniy qadriyatlari ta'sir qiladi.

O'xshashliklar

- Har ikki tilda frazeologik birliklar metaforik xarakterga ega.

- Diniy va mifologik manbalar frazeologizmlarning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Farqlar

- Ingliz tilida individualizm va shaxsiy erkinlikni aks ettiruvchi frazeologizmlar ko'p uchraydi, masalan: "Every man for himself".

- O'zbek tilida esa jamoaviylik va milliy birlikni aks ettiruvchi frazeologizmlar ustunlik qiladi, masalan: "Bir tanu bir jon".

Ushbu tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi, lingvomadaniyatshunoslik va madaniyatlararo muloqotda qo'llanilishi mumkin.

Xulosa. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar xalqning madaniyati, tarixi va turmush tarzini aks ettiruvchi lingvistik vositalar bo'lib, ularning o'rganilishi ikki til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot natijalari lingvomadaniyatshunoslik sohasida yangi ilmiy yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Kharatova, S. K., & Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. Science and Education, 3(3), 713-718.

2. Maslova V. A. Linguoculturology: Studies. Manual for students. higher. Studies. Institutions. - M.: Publishing center "Academy" 2001. - 86-90 p.

3. Telia V. N. Cultural and national connotations of phraseology / V. N. Telia // Slavic linguistics. - M., 1993. - pp. 45-54.

4. Usmonov, F. (2019). Linguocultural competence as the means of identifying images in fixed similies. Theoretical & Applied Science, (5), 17-20.

5. Butaev Sh. English-Uzbek, Uzbek-English Dictionary. Tashkent. "O'qituvchi". 2013.

6. Tuxtaxodjayeva N.A. "Badiiy tarjimada lingvokulturalarning ifodalanishi" (ingliz va o'zbek tillari misolida). Fan dok. diss. avtoref. –T., 2017.

4K TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING SHAXSLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PARADIGMALARI

Bekimbetova G.R.
Ajiniyoz nomidagi NDPi dotsenti, p.f.d (DSc)

Tayanch so'zlar: muloqot, kommunikatsiya, milliy tarbiya, shaxslararo munosabat, kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya, shaxsiy pozitsiya.
Ключевые слова: коммуникация, коммуникация, национальное воспитание, межличностное отношение, критическое мышление, креативность, сотрудничество, коммуникация, личностная позиция.
Key words: communication, communication, national education, interpersonal relations, critical thinking, creativity, cooperation, communication, personal position.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada shaxslararo munosabat madaniyatining falsafiy, psixologik va pedagogik asoslari, milliy tarbiya asosida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish masalalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье представлена информация о философских, психолого-педагогических основах культуры межличностных отношений, вопросах формирования культуры межличностных отношений на основе национального воспитания.
SUMMARY:
This article provides information on the philosophical, psychological and pedagogical foundations of the culture of interpersonal relations, issues of forming the culture of interpersonal relations based on national education.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir!" mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko'rgazmasida: "XXI asr kishisi uchun eng zarur bo'lgan "4K" ko'nikmasi bo'yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ko'nikmalar, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish" masalalariga alohida e'tibor qaratish va "...darsliklar quruq ma'lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki

oʻqish-yozishni oʻrgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali oʻquvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur boʻlgan hayotiy koʻnikmalarni ham oʻrganishi" zarurligini ta'kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda oʻqituvchilar majburiyatlari haqida "...bugun darsliklar oʻzgaryapti. Shunga yarasha oʻqituvchilar ham oʻzgarishi kerak",[1] - deb aytgan fikrlari 4K tamoyili asosida talabalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini yana da kuchayttirishni talab qiladi.

Respublikamizda shaxslararo munosabat madaniyatining falsafiy, psixologik va pedagogik asoslari, milliy tarbiya asosida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish masalalari boʻyicha E.Yu.Agzamova, Z.Azimova, M.Bekmurodov, M.Davletshin, E.G'oziev, R.X.Dushanov, O.Musurmonova, S.Nishonov, M.Quronov, R.Safarova, Z.Saliyeva, A.Ochildiev, N.Safayev, Sh.Shodmonova, A.Xoliqov, F.Mirzayeva, U.Ibragimov, I.X.Kalonov, V.M.Karimova, L.Ya.Olimov, B.N.Sirliev, Yo.A.Farfiev, F.A.Shigakova, S.X.Shomirzaev, M.S.Qodirovlar kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo, pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni koʻrsatdiki, hozirgi pedagogik amaliyotda shu paytgacha talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvining ajralmas qismi sifatida shaxslararo muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi oʻrganilmagan, bu esa ushbu turdagi koʻnikmalarni maqsadli rivojlantirish tizimining etishmasligiga olib keladi.

Muloqot — ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashinishidan iborat bo'lgan o'zaro tasir etishidir. [2]. Bu inson hayotining barcha jabhalarida muhim ahamiyatga ega. Odam qayerda muloqot qilishiga qarab, ikkita asosiy turni ajratish mumkin: rasmiy va norasmiy. Birinchisining asosiy farqi, odamni hukm qilishda cheklaydigan va kesib oʻtib boʻlmaydigan ma'lum bir ramkani bildiradigan turli xil munosabatlarning mavjudligi [3].

Talabalarning shaxslararo mulaqot koʻnikmalari jarayonida muloqot madaniyatining me'yor va qoidalariga amal qilish talab etiladi. Chukni, mazkur jamiyatning ijtimoiy-madaniy, shaxsiy-tipologik hususiyatlari, umummadaniy munosabatlar, umuminsoniy qadriyatlar, taraqqiyotidagi qarama-qarshiliklari bilan bog'liqlikda shaxslararo mulaqot ham oʻzgarishlarda sodir boʻladi.

A.S.Zolotnyakova muloqotni nafaqat shaxsiy, balki amalga oshiriladigan ijtimoiy va shaxsga yoʻnaltirilgan jarayon sifatida tushundi munosabatlar, shuningdek, ijtimoiy me'yorlarga munosabat" [4] deb tushuntirib oʻtgan. Ammo, Shaxsning atrofdagilar bilan oʻzaro mulaqoti nafaqat ichki quvvatlarni rivojlantirishga, balki insonning fikriy nuqtai nazardan ham foydalanish

imkonini berishi mumkin. Mazkur jarayonda shaxsning his-tuyg'ulari, fikrlarini o'zaro qiyoslashiga imkoniyatyat yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Biz shaxslararo muloqot ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shaxslararo o'zaro ta'sirga hissa qo'shadigan ongli kommunikativ faoliyatning avtomatik ravishda bajariladigan komponentlari sifatida aniqlaymiz va ularning tuzilishiga shaxslararo mulaqot mazmuniga ko'ra ajratib o'tdik. (1-rasm)



Muloqot jarayon sifatida quyidagi o'ziga xosliklarga ega: yaxlit, kooperativ faoliyat, informatsion aloqa, o'zaro ta'sir ko'rsatish, o'zaro munosabat, o'zaro bir-birini tushunish. Muloqot jarayonida har bir inson doimiy ravishda ob'ekt va sub'ekt rolini bajaradi. Sub'ekt sifatida u muloqot jarayonida boshqa kishilar haqida ma'lumotga ega bo'ladi, unga nisbatan ijobiy munosabat bildirishi yoki befarq bo'lishi mumkin. O'z navbatida shaxs muloqot jarayonida bilish ob'ekti sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarning nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda talabalarining jamoaviy faoliyatga qo'shilishi, ijtimoiy-madaniy, axloqiy-tipologik munosabatlari yordam beradi.

Talabalarning shaxslararo mulaqot davomida umuminsoniy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, xalq an'analari orqali jamiyatdagi xulq-atvor qoidalarini o'rganadilar, shaxslararo o'zaro muloqat ko'nikmalari rivojlantiradi. Ushbu maqolada insoniyatning o'z tarixida to'plangan qadriyatlar to'plami, ta'lim mazmunining muloqat madaniyatga yo'naltirilganligi inson madaniyatining yaratuvchisi sifatida qarashga imkon beradi.



Tadqiqotimizda 4K tamoyili asosida ta'lim mazmunining

asosini tashkil yetishi mumkin bo‘lgan asosiy masalasi shaxslararao muloqat ko‘nikmalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash orqali ushbu muammoni hal qilishga qisman yondashishga qo‘yidagilar imkon berdi. (2-rasm)

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ushbu maqolada sub’ektlarning manfaatlarini munosabatlarni tartibga solish masalalari bo‘yicha muvofiqligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlarning yangi pedagogik algoritmi sifatida o‘rganish, ijtimoiy sheriklikning ilmiy tashkil etilgan faoliyati tanlangan vaziyatda mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlar qabul qiladigan shaxsni shakllantirishga yordam berish uchun ishlab chiqish masalalariga qaratildi. Talabalar jamoasida shaxslararo muloqatlarni shakllantirish usullari qo‘yidagilardan iborat. (3-rasm)



Talabalar jamoasida shaxslararo muloqatlarni shakllantirish mumkin bo‘lgan pedagogik sharoitlar aniqlandi:

OTM professor-o‘qituvchilarini talabalar jamoasida shaxslararo muloqatlarni shakllantirish bo‘yicha pedagogik ishlarga tayyorlash;

talabalarni o‘qitish jarayonini faollashtirish;

talabailar jamoasida shaxslararo muloqatlarni shakllantirish usullaridan foydalanish;

talabalar jamoasida shaxslararo muloqatlarni shakllantirish usullaridan foydalanish talabalar o‘rtasidagi muloqatlar va talabalar jamoasining faoliyati sohasidagi eng tipik muammolarni hal qilishga yordam berdi.

Adabiyotlar:

1.https://uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak_440060.

2. Muloqot - Vikipediya

3. New Message! (women-community.com)

4. Золотнякова, А.С. Личность в структуре педагогического общения [Текс]: Пособие по спецкурсу. - Ростов н/Д : РГПИ, 2014. - 80 с

TIBBIY LITSEYDAGI BIOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLANISHI

Shaxmurova G.A.
Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, tibbiy ta’lim, biologiya, tibbiy litsey, virtual reallik, interaktiv ta’lim, masofaviy ta’lim, ta’lim platformalari, biologik jarayonlarning vizualizatsiyasi.
Ключевые слова: инновационные технологии, медицинское образование, биология, медицинский лицей, виртуальная реальность, интерактивное обучение, дистанционное образование, образовательные платформы, визуализация биологических процессов.
Key words: innovative technologies, medical education, biology, medical lyceum, virtual reality, interactive learning, distance education, educational platforms, visualization of biological processes.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu ish O‘zbekistondagi tibbiyot litseyida biologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga bag‘ishlangan bo‘lib, ta’lim va tibbiyotning zamonaviy tendensiyalari sharoitida alohida e’tiborga loyiqdir. Unda o‘qitishning an’anaviy usullaridan yanada ilg‘or va texnologiyaga yo‘naltirilgan yondashuvlarga o‘tish o‘z ifodasini topgan bo‘lib, bu ayniqsa bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.
РЕЗЮМЕ:
Данная работа посвящена применение инновационных технологий в медицинском лицее на занятиях по биологии в Узбекистане, и заслуживает особого внимания в контексте современных тенденций в образовании и медицине. Она отражает переход от традиционных методов обучения к более передовым и технологически ориентированным подходам, что особенно актуально для подготовки будущих медицинских специалистов.
SUMMARY:
This work is devoted to the use of innovative technologies in a medical lyceum during biology classes in Uzbekistan, and deserves special attention in the context of modern trends in education and medicine. It reflects the transition from traditional teaching methods to more advanced and technology-oriented approaches, which is especially important for the training of future medical specialists.

Tez rivojlanayotgan ilmiy-texnologik progress davrida innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayoniga kiritilishi, ayrim kritik muhim va dinamik rivojlanayotgan sohalar, masalan, tibbiyot va biologiyada, o'qitishning ahamiyatli qismi bo'lib chiqmoqda. Tez rivojlanayotgan ilmiy-texnologik

progress davrida innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayoniga kiritilishi, ayrim kritik muhim va dinamik rivojlanayotgan sohalar, masalan, tibbiyot va biologiyada, o'qitishning ahamiyatli qismi bo'lib chiqmoqda. Bu biologik jarayonlarni vizualizatsiya qilish uchun virtual va qo'shimcha haqiqat, materialni chuqurlashtirilgan o'qish uchun interaktiv onlayn platformalar va talabalar uchun amalga oshirilgan ta'limning turli shakllarini o'z ichiga oladi, ularga zamonaviy tibbiy ma'lumotlarga va jahon ta'lim manbalarga kirish imkonini beradi. Bunday yondashuv nafaqat talabalarning qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi, balki kelajakdagi tibbiyot mutaxassislari uchun juda muhim bo'lgan murakkab biologik tushunchalarni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Interfaol doskalar, virtual laboratoriyalar va o'quv ilovalari kabi vositalardan foydalanish o'rganish, samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, uni talabalar uchun yanada ko'rgazmali va tushunarli qiladi. [2,3,4].

COVID-19 pandemiyasi masofaviy ta’limga o‘tishni sezilarli darajada tezlashtirdi va ko‘plab ta’lim muassasalari uchun qiyinchilik va imkoniyat yaratdi. Onlayn platformalar talabalarga keng turdagi o‘quv materiallari va resurslaridan foydalanish imkonini beradi, bu O‘zbekiston kabi tibbiy ta’limni yaxshilashga intilayotgan mamlakatda ayniqsa muhimdir.

O'zbekiston tibbiyot ta'limida eng so‘nggi texnologiyalardan foydalanish xalqaro hamkorlik va bilim almashishga ham hissa qo'shmoqda. Talabalar va o‘qituvchilar xalqaro konferensiya, vebinar va seminarlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu o‘zbek tibbiyot ta’limining jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning muhim jihati ularni mahalliy sharoit va ehtiyojlarga moslashtirishdir. O‘zbekistonda ushbu texnologiyalar mamlakatning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zbek va rus tillarida o‘quv dasturlari va materiallarni ishlab chiqish va bu texnologiyalarni mamlakatning turli mintaqalaridan kelgan talabalar uchun qulay qilishdan iborat.

O‘zbekiston tibbiyot litseylarida biologiya fanini o‘qitishda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish ham o‘quvchilarni sog‘liqni saqlash sohasidagi kelgusi vazifalarga tayyorlaydi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va genetik modellashtirish kabi zamonaviy texnologik yechimlarni o'zlashtirish bo'lajak shifokorlarning murakkab klinik va tadqiqot muammolarini hal qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun juda muhimdir [5,6].

O‘zbekiston tibbiyot litseylarida biologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki tez

o‘zgarib borayotgan tibbiyot manzarasida samarali faoliyat yurita oladigan yuqori malakali tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashga ham zamin yaratmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda o‘quv jarayoniga, jumladan, tibbiyot litseylari va biologiya o‘qitishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yildi:

1. O‘quv dasturlarini yangilash: O‘zbekistonda biologiya va tibbiyot fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari eng yangi fan yutuqlari va texnologik yangiliklarni hisobga olgan holda yangilandi. Bu zamonaviy tadqiqot usullariga yo'naltirilgan yangi kurslarni joriy etishni o'z ichiga oladi.

2. Raqamli texnologiyalardan foydalanish: Ko‘plab ta’lim muassasalarida o‘rganishni yanada interaktiv va qulayroq qiladigan raqamli o‘quv qo‘llanmalari va platformalari joriy qilingan. Bunga elektron darsliklar, ta’lim dasturlari va onlayn kurslardan foydalanish kiradi.

3. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik: O‘zbekiston tibbiy ta’lim sohasida bilim va tajriba almashish maqsadida xalqaro tashkilotlar va ta’lim muassasalari bilan faol hamkorlik qiladi. Bunga xalqaro ta’lim loyihalari va dasturlarida ishtirok etish kiradi.

4. Infratuzilmani rivojlantirish: Ta’lim muassasalari infratuzilmasini yaxshilash, shu jumladan, laboratoriyalarni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, kompyuter sinflarini yaratish va yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulanish ham innovatsion texnologiyalardan foydalanishda muhim qadamdir.

5. O‘qituvchilar malakasini oshirish: O‘qituvchilarning malakasini oshirish, jumladan, ularni o‘qitishning yangi texnologik usullari va yondashuvlariga o‘rgatish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda.

6. Elektron ta’lim va masofaviy ta’lim sohasidagi tashabbuslar: COVID-19 pandemiyasi masofaviy ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishni rag‘batlantirdi, bu esa talabalarga karantin vaqtida o‘qishni davom ettirish imkonini berdi.

Bu tashabbuslar O‘zbekistonning ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va talabalarni bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan tibbiyot dunyosida ishlashga tayyorlash istagini aks ettiradi. Bu boradagi sa’y-harakatlarning muvaffaqiyati texnologik bazani doimiy yangilab borish, mahalliy ehtiyojlarga moslashish va barqaror moliyalashtirishga bog‘liqligini ta’kidlash muhim [1].

O‘zbekistonda innovatsion texnologiyalarni tibbiy ta’limga integratsiyalash borasidagi salmoqli sa’y-harakatlar va yutuqlarga qaramay, hali ham dolzarb bo‘lib qolayotgan ayrim muammolar mavjud:

- moliyalashtirishning yetarli emasligi: asosiy muammolardan biri ta’lim infratuzilmasini yangilash, zamonaviy texnika va texnologiyalarni xarid

qilish uchun ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklanganligidir. Bu esa o‘qitishning innovatsion uslublarini to‘liq joriy etishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

- o'qituvchilar malakasidagi tafovut: Ilg'or o'quv dasturlariga qaramasdan, o'qituvchilar tayyorlashning hozirgi darajasi va zamonaviy texnologik o'quv jarayoni talablari o'rtasida tafovut mavjud. O'qituvchilar yangi texnologiyalardan samarali foydalanish uchun qo'shimcha trening va yordamga muhtoj bo'lishi mumkin.

- texnologiyalardan foydalanish imkoniyati: O‘zbekistonning ayrim hududlarida zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internetdan foydalanish cheklanganligicha qolmoqda. Bu mamlakatning turli mintaqalari o'rtasida sifatli ta'lim olishda tengsizlikni keltirib chiqaradi.

Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatining mavjud tizimi hozirgi vaqtda me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan talablarni qanoatlantirmaydi, chunki ko'pchilik hollarda ayrim umumpedagogik majburiyatlarning bajarilishi bilan cheklanadi va ko'pincha talabalar guruhlarda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish bo'yicha intuitiv taqdim qilish va sog'lom fikr asosida qaror qabul qilish talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olmasdan bajariladi. Ko'rinib turibdiki, tyutorlarning amaliy faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirish jarayoni bu – pedagogik boshqaruv tizimining sifatini oshirishga, barcha ta'lim muhitini uyg'unlashtirishga olib keladigan tashkiliy o'zgarishlar tizimi hisoblanadi.

Yu.K.Babanskiy ushbu jarayonlarni "Optimallashtirish va takomillashtirish faoliyat metodologiyasi, dialektik tizimli-faoliyat yondashuvi, boshqarish

nazariyasi va mehnatni ilmiy tashkil etish, tizimlarning umumiy nazariyasi, pedagogik jarayonning umumiy qonuniyatlarining birligi sifatida" ta'kidlaydi [1; 256-b.]. Bizning fikrimizga ko'ra, oliy ta'limning tashkiliy faoliyati sharoitlarida demokratik va insoniylik tarbiya tizimi, ochiq tarbiya muhiti sifatida mumkin bo'lib, unda yangi kasbiy, tarbiyalangan, madaniyatli va vatanparvar shaxs shakllanadi.

F.F.Korolyov fikriga ko'ra, "… kelajak rivojlanish jarayonlarini optimal boshqarish g'oyalari faoliyatning barcha sohalari uchun xos bo'lib, shu jumladan pedagogikada boshqaruvchi bo'ladi [4; 9-b.]". Shunday qilib, ijtimoiy-pedagogik faoliyatni optimallashtirish, aslida, o'zini tahlilchi sifatida o'z ichiga olgan ijodiy jarayondir (retrospektiv, optimallashtirish jarayonining genezisi, erishilgan ijobiy effektlar tahlili ushbu jarayonining bilimlar va munosabatlarning nisbiy yakunlangan xususiyatlari sifatida; real hayotiy vaziyatlar, muammolar, tarbiya tizimining imkoniyatlarini, uning o'zgarish qobiliyatini tahlil qilish; amaldagi tashkiliy madaniyatni tahlil qilish) va ushbu jarayonni amalga oshirish strategiyasi va taktikasi yaratish, pedagogik muammolarni bartaraf etishni, tyutorlarning amaliy faoliyatini qamrab olgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tyutorlik faoliyati oliy ta'lim muassasalaridagi zamonaviy sharoitlarda o'zaro muloqotlar va ijtimoiy munosabatlar sohasida milliy qadriyatlarni shakllantirish, ijtimoiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, amaliy qobiliyatlarni shakllantirish orqali ijtimoiylashuv jarayoninini optimallashtirishni ta'minlovchi insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan muhitni tashkil etish muammolarini hal etadi [3; 171-175-b.]. Bunda esa o'quv yurtida shaxslararo muloqotlarni umumiy insoniylik bilan ruhiy-axloqiy qadriyatlarning faollashishini ta'minlaydigan seminarlar tashkil qilish ahamiyat kasb etadi. Bu esa, samarali ta'lim-tarbiya dasturida mavjud ko'p qirrali va o'qishdan tashqari faoliyat sohasini optimallashtirishga nisbatan yo'naltirishga asos bo'ladi [2; 33-36-b.].

Ma'lum bo'lishicha, tyutorning kasbiy roli individual, shaxsiy, xususiy sifatlarining qorishmasidan iborat bo'lib, ularning adekvatligi kasbiy majburiyatlarini samarali amalga oshirishni taqozo etadi va tyutorning rolini bajarishga ta'sir qiladi. Tyutorlar bunda talabalarning madaniy o'sishi jarayoniga, har xil vaziyatlarda ma'lum tajribasini shakllantirishga maqsadli ta'sir ko'rsatadi. Ammo tyutorning ishlarini faqat axborot beruvchi va nazorat sifatida bir tomonlama tushunmaslik kerak.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, tyutorning funksiyalari ko'p, u eng avvalo ustoz, zamonaviy ma'noda – menejer, ya'ni u boshqa insonlarning resurslari va potensialini aniq maqsadlarda erishish uchun qo'llanuvchi inson.

Shuningdek, tyutorlarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida tyutorlikning an'anaviy va innovatsion modellari internatsionallashuv darajasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Tyutorlikning an'anaviy modellariga quyidagilar kiritildi:

– **"tyutor – informator"** – talabalarga zarur axborotlarni o'z vaqtida yetkazib berishni asosiy vazifasi deb hisoblaydi. U talabalarni mustaqil bo'lishini hisobga olib, talabalar guruhi turmushiga kirib borishni lozim deb hisoblamaydi;

– **"tyutor – tashkilotchi"** – talabalar guruhi faoliyatini o'quv mashg'ulotlaridan tashqari tadbirlar (kechalar, teatrlarga borishlar va boshq.) yordamida mazmunli tashkil qilish lozim, deb hisoblaydi U o'z majburiyatlariga guruh sardorlarini saylashni ham qamrab oladi, guruhdagi shaxslararo nizolarning yuzaga kelishida mas'uliyatini sezadi va ularni hal qilishga intiladi.

– **"tyutor – psixoterapevt"** – talabalarning shaxsiy muammolari haqida o'ylab qayg'uradi, ularning mulohazalarini eshitishga tayyor, ularga o'z maslahatlari bilan yordam berishga intiladi. Tyutor o'zining shaxsiy vaqtini talabalarni psixologik qo'llab-quvvatlashga sarflaydi, ular bilan yaqin munosabatlarni yo'lga qo'yadi va hissiy charchoqlarga qaramay kun davomida talabalarning muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi;

– **"tyutor – ota-ona"** – ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarga nisbatan ota-onasidek munosabatda bo'lish rolini qabul qiladi, ularni nazorat qiladi va ko'pchilik holatda talabalarning tashabbuskorligini chegaralab qo'yadi. Talabalarning shaxsiy va oilaviy ishlarini psixologik qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan emas, aksincha, nazorat qilish, uning qaroriga to'liq rioya etishni talab qiluvchi ota-ona sifatida amalga oshiradi. Bu insonlar ko'pincha katta yoshdagilar bo'lib, ular o'zlarining hayot tajribalariga tayanib ish yuritadi.

– **"tyutor – do'st"** – talabalar guruhi hayoti bilan yaqindan qiziqadi, u guruhning ko'pchilik tadbirlarida ishtirok qilishga intiladi. Talabalar tyutorni guruh a'zosi sifatida qabul qiladi, ammo ko'p hollarda zarur vaziyatlarda talab qilish uchun zarurli masofani saqlash xislati yetishmaydi. Ko'p hollarda bunday tyutorlarning rolini yosh o'qituvchilar yoki doktorantlar bajaradi;

– **"tyutor – beg'am talaba"** – qaysi bir majburiyatlarni bajarishni zarur deb hisoblamaydi, o'z vazifalarining doirasini ochiq-oydin tasavvur qilmaydi. U rasman tyutor deb sanaladi, ko'pincha talabalar guruhining nimaligini ham tasavvur qilmaydi;

– **"tyutor – rahbariyat"** – talabalarning mashg'ulotlarni qoldirishlari haqida rahbariyatni xabardor qilishni o'zining asosiy vazifasi deb biladi, ularning o'z vaqtida qatnashishni nazorat qiladi. Asosan nazoratchi vazifasini bajaradi,

ammo tyutor ota-onadan farqli tomoni, buni rasmiyatchilik jihatdan bajaradi hamda talabalar guruhining manfaatlariga shaxsiy qiziqishi va aralashishi kuchli bo‘lmaydi.

Har bir toifaning ustunlik jihatlarining mavjudligi tyutorning barcha zarurli funksiyalarning oqilona amalga oshirishni inkor qilib, bittasini kuchaytiradi. Bundan tashqari “psixoterapevt” va “ota-onalar” talabalarning shaxsiy hayotlariga aralashadi, bu esa aslida mumkin emas va ular tomonidan tyutorga nisbatan qarshilik ko‘rsatishini yuzaga chiqaradi. “Beg‘am talaba” boshqalarning tyutor – bu “hech kim emas” va uni qaysi bir majburiyatga kiritishning zaruriyati yo‘q, degan fikrlarini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda zamonaviy tyutorlarning o‘z faoliaytiga mas’uliyati sezilarli darajada kengayib, Yevropa ta’lim tizimida mavjud tyutorlik faoliyatning bir nechta turlarini ko‘rib chiqildi va tyutorlikning innovatsion modellariga quyidagilar kiritildi:

telefon/e-mail tyutor – bunday holatda tyutor telefon va elektron pochta orqali talabalar bilan aloqada bo‘lishi zarur. Agar talabalarda qandaydir tushunmagan savollar tug‘ilgan taqdirda, ularga zarur ma’lumotlarni aloqa vositalari yordamida yetkazib berishga harakat qiladi;

elektron tyutor (e-tyutoring) – tyutor va talaba orasidagi masofa va internetdan foydalanish jihatidan farqlanadi. Buni zamonaviy onlayn texnologiyalardan sezilarli darajada foydalanishni o‘z ichiga olgan o‘quv dasturlarida talabalarni o‘qitish, qo‘llab-quvvatlash, boshqarish va erishgan yutuqlarini baholash sifatida qarash mumkin;

avtomatik tyutor (autotyutoring) – kompyuter tyutori talabalar bilan interfaol muloqot qilish orqali fan va texnologiyaga oid atamalarni o‘rganishga yordam beradi. Talabalar savollarni klaviatura yoki ovoz yordamida kiritadilar, avtotyutor esa gapiradigan, yuz ifodalari va hatto imo-ishoralarni o‘zgartiradigan jonlantirilgan “yordamchi” sifatida tasvirlanadi.

Tyutorlik faoliyatining yuqorida keltirilgan modellari zamonaviy xorij pedagogikasida talabalarning individual ta’lim traektoriyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalarida juda dolzarb hisoblanadi.

Tyutorlik ishlarini takomillashtirish samaradorligining garovi oliy ta’lim muassasalari rahbariyatiga e’tibor qaratishidir, u bugungi kunda ushbu faoliyat turiga tyutorlarning rasman majburiyatlari, deb qaraladi. Bizning nazarimizda, tyutorlarni ham o‘qituvchilarning, ham yuqori kurs talabalarining umumiy sonidan, ularni tyutorlar bo‘yicha rahbariyat choralari bilan samarali o‘qitish va ularning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini nazorat qilish mexanizmlari bilan

tanlab olish mexanizmiga keskin zaruriyat bugungi kunda mavjud. Buning uchun vijdonan mehnatga tyutorlarning qiziqishlarini ta’minlash zarur.

Tyutorlarning faoliyati kasbiy pedagogik faoliyat sifatida maqsadli va motivatsion xususiyatlariga ega bo‘ladi. Bunda “tyutorlik faoliyatining jazibadorligi alohida imkoniyatlarning inson hayot kechirishining ustun motivlariga mos kelishi bilan tavsiflanaldi” [5; 262-b.]. Tyutorni motivatsiyalashning xilma-xilligi bois, faoliyat jozibadorligi ularning tarbiya jarayoniga va talabalar bilan olib boriladigan tarbiya ishlariga bog‘liq boshqada turlariga jalb qilish vositasining ko‘p xilligiga bog‘liq bo‘ladi.

Bularning barchasi oliy ta’lim muassasalarida tyutorning amaliy faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirishning rivojlanish istiqbollari, ta’limning zamonaviy sifatiga erishishda uni yanada modernizatsiyalash bo‘yicha ijobiy prognozlash uchun asos bo‘ladi. Bu esa, tyutorlar faoliyatining zamonaviy shakllarini qidirishni nazarda tutadi. Tyutorlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirishning muhim mezoni sifatida talabalar muhitini uyg‘unlashtirish jarayonida milliy qadriyatlar va an’analarni saqlagan holda ilmiy asoslangan yagona tashkiliy-metodik ta’minotni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. Общедидактический аспект. – М.: Педагогика. 1977. – 256 с.

2. Бейлина Н.С. Куратор студенческой группы как субъект воспитательной деятельности вуза. // Балтийский гуманитарный журнал. 2015. №2 (11). – С. 33-36.

3. Буянова Г.В. К вопросу об исторических предпосылках создания института кураторства в вузе. // Балтийский гуманитарный журнал. 2018. Т. 7, №3(24). – С. 171-175.

4. Королёв Ф.Ф. Системный подход и возможности его применения в педагогических исследованиях. // Структурно-системное исследования педагогических явлений и процессов. – М.: НИИ общей педагогики. 1970. – С 9-11.

5. Сериков Г.Н. Управление достижением качества образования. – Челябинск. Изд. центр «Уральская академия», 2009. – 262 с.

ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚ АНЪАНАЛАРИ ВА ҚАДРИЯТЛАР ЁШЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ

Исмайлов А.С.
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: урф-одат, анъана, миллий қадриятлар, одоб-ахлоқ, маънавият.
Ключевые слова: обычаи, традиции, национальные ценности, этика, духовность.
Key words: customs, traditions, national values, ethics, spirituality.

РЕЗЮМЕ:
Ушбу мақолада қорақалпоқ халқининг бетакрор – миллий анъана ва қадриятлари, дастурлари маданияти, урф-одати, миллий маънавияти, хақида сўз боради.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассказывается об уникальных национальных традициях и ценностях, культурных обычаях, обычаях и национальной духовности каракалпакского народа.
SUMMARY:
This article tells about the unique national traditions and values, cultural customs, traditions and national spirituality of the Karakalpak people.

Миллат ва ўз миллий қадриятларига эга давлат бор экан, унинг мустақиллиги ва эркинлигига, дастур ва урф-одатларига ўз таъсирини ўтказиш, уларнинг устидан ҳукмронлик қилиш, бойликларидан ўз манфаати йўлида фойдаланишга қаратилган интилиш ва ҳаракатлар ҳамиша хавф-хатар сифатида сақланиб туриши тарихдан маълум.

Шундай экан, бундай хавф-хатарларга қарши қурол сифатида юртимизда истиқомат қилаётган ҳар бир инсон, энг аввало, ёш авлоднинг ҳар томонлама етук, иродаси мустаҳкам, иймони бўлиб камол топиши учун жамоатчилик орасида маънавий билимларимизни юқори даражага кўтариш ҳар қачонгидан хам жуда аҳамиятлидир.

Ўзбекистон ўз мустақиллигини қўлга киритган дастлабки кунлардан бошлаб, жамиятимизнинг барча соҳалари қатори маънавий, мафкуравий ҳаётимизда ҳам катта ўзгаришлар юз берди.

Ҳаётини, олдига қўйган аниқ мақсадларини ҳис қиладиган, келажаги ҳақида қайғурадиган миллат ҳеч қачон миллий ғоя ва мафкурасиз яшама-

ган, яшай олмайди ҳам. Мафкура бўлмаса ҳарқандай миллат ва жамият, қолаверса, ҳар қандай шахс ўз йўлини йўқотиш мумкин.

Миллий мафкура миллатнинг орзу мақсадларини белгилайди, тарих синовларидан ўтишда халқнинг рухий дунёсини кўтариб, таянч бўлади, ана шу миллат, шу жамият дуч келадиган кўплаб ҳаётий ва рухий муаммоларга жавоб қидиради. У инсонга факат моддий бойликлар учун эмас, аввало, Аллоҳ инъом этган ақл-заковат, иймон-эътиқод, инсоф-диёнат натижасида юқори маънавий билимга эришиш учун интилиб яшаш кераклигини англатадиган бу мураккаб ва таҳликали дунёда унинг тараққиёт йўлини ёритадиган шамчироқдир.

Миллий ғоя ва мустақиллик мафкураси халқни халқ, миллатни миллат қиладиган, унинг обрў-эътиборини, ор-номусини, ишонч-эътиқодини мужассамлаштирувчи, жамиятимизнинг ўзига хос ривожланиш йўли, турмуш тарзи, манфаат ва муддаоларига таянган ҳолда доимий тараққий топиб, такомиллашиб борадиган ғоялар тизимидир.

Халқни ёрқин келажак ва буюк мақсадлар йўлида бирлаштириш, мамлакатимизда истиқомат қиладиган, миллати, тили ва диний эътиқодидан қатъи назар, ҳар бир фуқаро Ватанимиз бахту саодати учун маъсулият ҳисси билан яшашга ўргатиб бориш, аждодларимизнинг бебаҳо мероси қадрият ва урф-одатларимизга муносиб бўлиш, юксак фазилатли ва комил инсонларни тарбиялаш, уларни бунёдкорлик ишларга жалб этиш, бу муқаддас замин учун фидойиликни ҳаёт тарзига айлантириш миллий истиқлол мафкурасининг бош мақсади ҳисобланади.

Мустақиллик даври олдимизга қўйган иқтисодий, ижтимоий, сиёсий вазифаларни муваффақиятли адо этиш, аввало, уларни ижобий натижалар билан еча оладиган шахсларни тарбиялаш зарур. Бу эса ўта мураккаб ва масъулиятли вазифа бўлиб, ана шу масалаларни ҳал қилмасдан туриб олға бир қадам ҳам ташлай олмаймиз. Агар иқтисодий ўсиш, тараққиёт жамиятнинг бўй-басти бўлса, маънавият, маърифат ва сиёсий онгнинг етуклиги, унинг руҳи, ақли, жони бўлади. Буюк давлатчиликка, буюк келажакка эришиш учун ақлли, доно, билимли, шу билан бирга ўзининг ўтмиши, буюк қадриятлари, миллати билан фахрланадиган ҳамда келажакка ишонч ҳиси юқори бўлган инсонларни тарбиялашимиз керак. Мустақиллик тарихимизни ва маданий меросимизни қайта тиклашга, бугунги кунимизни ва келажагини онгли тушунишимизга, ўзлигимизни англаб, дунё халқлари орасида ўзимизга лойиқ ўрнимизни билиб олишимизга имкон яратди.

Маънавият – инсоннинг эгаллаган билимлари асосида бажарган ишлари унинг турмуш тарзига айланиб кетиш босқичидаги хатти-ҳаракатлари мажмуаси эканлиги аллақачон исботланган. Ҳақиқатан, инсон ўз олдига қўйган мақсадларига эришиш жараёнининг қонуниятларини билиб олиши зарур бўлади. Эгаллаган билимлари асосида амал қилинадиган ҳаракатларига

кўникма ҳосил қилиш учун бундай иш-ҳаракатларни ҳаётда бир неча марта, гоҳида ўн марталаб синаб кўришга тўғри келади. Кўп вақт ва куч сарфлаш орқали эришилган мақсад вазифаларининг кўрсаткичлари шахсда қаноат ҳосил қилмасдан инсон мақсадига эришса, демак, бу ҳаракатларга кўникма пайдо бўлади. Навбатдаги ҳаракат тез ва қийинчиликларсиз, мақсад кўрсаткичлари мақсадга мувофиқ амалга ошади. Охир-оқибат бу ҳаракатлар тажриба шаклида намоён бўлиб, ҳаётда минг марта қайта-қайта такрорланиб, турмуш тарзига айланади ҳамда инсонда пайдо бўлган руҳиятни бойитади. Бу эса ўз навбатида кўникма ва тажриба босқичларидан ўтиб руҳиятга айланади.

Шу жойда «Қадрият нима?», деган савол ўз-ўзидан пайдо бўлади.

Қадрият – маълум бир инсонлар гуруҳи (оила, жамоа, жамият) ўртасида алоҳида эътиборга сазовор бўлган ҳамда шу гуруҳ аъзолари томонидан асрлар оша қадрланиб келинган руҳий маданият. Демак, қадрият – бу оила, жамоа ёки жамиятда алоҳида аҳамиятга эга бўлган руҳият шаклидир.

Қадриятлар оилавий, жамоавий шаклда миллий ва умуминсоний бўлиши мумкин. Қадриятлар орасида ўзаро алоқа бўлса ҳам, улар бир-бирларидан фарқланади. Масалан, оила учун, бир руҳият шакли, масалан, таваллуд кунни нишонлаш алоҳида эътиборга молик ҳодиса. Бу маълум бир оила аъзоларининг анъанавий қадрияти ҳисобланади. Ўзга оила шу санани билса ҳам, уни қадрласа ҳам эътиборга сазовор сана сифатида нишонлайди. Улар учун бу нарса қадрият эмас, ҳар бир маҳаллада, қишлоқ ва овулларда, меҳнат жамоасида ёки таълим муассасасида қандайдир бир ижтимоий ҳодиса (тўй-хашамларни ўтказиш, жамоа бўлиб сайлларга чиқиш ва б.) анъана бўлган. Улар ана шу анъаналарни асраб авайлайди. Улар учун бу қадрли ҳисобланади. Бу эса ана шу жамоанинг қадриятидир. Маълум бир халқнинг урф-одат, анъаналарининг бажарилиши одат сифатида сақланиб қолган. Уни ўша халқ интиқиб кутади, чунки бу нарса улар учун жуда қадрли. Чунки бу миллий қадрият.

Бундан ташқари, ирқи, миллати, жинси, эгаллаб турган лавозими, касб-коридан қатъи назар, инсоният жамияти учун жуда қадрли нарса ва ҳодисалар борки, улар умуминсоний қадриятлар деб аталади. Бунга яшаш ҳуқуқи, билим олиш, тинчлик, хотиржамлик, базму байрамлар ва бошқа ижтимоий ҳодисалар мисол бўла олади.

Демак, «Нима учун қадрият одамлар учун қадрли?», деган саволга келсак, аввало, қадрият инсонлар ҳаётида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, у одамларнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий эҳтиёжлари билан бирга маънавий эҳтиёжларини ҳам қондиради. Мисол тариқасида ҳамма учун қадрият деб ҳисобланадиган байрам – янги йилни олиб қараймиз. Мазкур байрамда инсон хоҳлайдими, йўқми ўтиб бораётган эски йилни сарҳисоб қилади ҳамда келгуси йил учун ҳеч кимга айтмайдиган, юрагининг тўридаги режаларини

тузиб чиқади. Инсонлар кўпинча, орзу-умидларини янги йил билан боғлайди. Бу маънавий руҳ ва унинг озиғи билан боғлиқ. Ёҳуд билим олиш жараёнини олиб қараймиз. Бу жараён инсон руҳиятининг юксалиши, руҳнинг хотиржамлиги ва инсон қалбининг жўшқинлиги билан боғлиқ. Шу сабабли у инсонга хос бўлиб, барча учун қадрли.

Ҳақиқатан, инсон руҳиятини юксалтирмасдан туриб, жамият турмуш тарзида, мамлакатимизнинг тараққий этишида муваффақиятларга эришиш мумкин эмас. Ислоҳотларнинг биринчи босқичида миллий руҳиятни изга тушириб олиш йўлида кўзланган мақсад асосан амалга оширилади ва иккинчи босқичда амалга оширилиши лозим бўлган вазифаларга асос яратилади. Ижтимоий ҳодисалар билан бирга миллий руҳиятимиз ҳам тикланиб бормоқда. Ислоҳотларнинг кейинги босқичида амалга оширилиши лозим бўлган мақсад ва вазифаларнинг долзарблиги маънавияти етук шахсларни тарбиялашга эътиборни янада кучайтириш зарурлигини англатади.

Биз иқтисодий тикланиш, иқтисодий тараққиётнинг маънавий шаклланиш, руҳий покланиш, руҳий юксалиш ҳаракатлари билан ҳайрихоҳ, жам бўлишимиз керак. Сиёсатимизни шунга асосан қурамиз ва уни тўлиғи билан бажарамиз. Юксак ва пок руҳиятга эга инсон нафақат ўзининг оиласи, қариндош-уруғлари, яшаётган ўрнини, балки бутун мамлакатнинг манфаатларини кўзлаб яшайди, меҳнат қилади.

Бугунги кунда маънавий тарбия мустақил давлатимиз сиёсати даражасига кўтарилди. Халқнинг техникага оид саводхонлиги, одоб-ахлоқ, шаффофлик, сўз эркинлиги, фикрлаши маънавий юксалишнинг асосидир.

Маънавий етук инсон тушунчаси кўп қиррали тушунчадир. Маънавий етук инсон комил инсон тушунчаси билан уйғунлик касб этиб, бу икки маънавий тушунчанинг турли босқичларини акс эттиради.

Маънавий бой инсонгина комил инсон бўла олади. Юксак одоб-охлоққа, маданий ва жисмоний фазилатлар ҳар томонлама етук, чуқур ва замонавий билимга, кенг илмий-фалсафий дунёқарашга эга бўлган шахс комил инсон ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича 5 та муҳим ташаббус www.lex.uz

2. Қосназаров Қ., Пазылов А., Тилегенов А. Педагогика.-Нөкис: Билим, 2009.-256 б.

3. Қарақалпақ фольклоры . (Көп томлық). 5-том. Қарақалпақ халық қосықлары ҳәм салт жырлары. 5-том. -Нөкис: «Қарақалпақстан», 1980. –С. 487.

4. Исмайлов А.С. Ўқувчи ёшларни тарбиялашда миллий анъаналар ва урф-одатларнинг таълим-тарбиявий аҳамияти. “Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар” мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари. Тошкент-2020.-186 б.

5. Исмайлов А.С. Қорақалпоқ халқ анъаналари воситасида ёшларни маънавий тарбиялашнинг педагогик асослари. п.ф.ф.д (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс..... Н., 2022. – 130 б.

MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI – TALABALARNING «OMMAVIY MADANIYAT»GA TA'SIRCHAN MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN

Urazimbetov A.
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Nukus innovatsiya instituti tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: talaba, mediasavodxonlik, axborot madaniyati, gloabllashuv jarayoni, milliy-ma'naviy xavfsizlik, ma'naviy-mafkuraviy ta'sir.
Ключевые слова: студент, медиаграмотность, информационная культура, процесс глобализации, национально-духовная безопасность, духовно-идеологическое влияние.
Key words: student, media literacy, information culture, globalization process, national and spiritual security, spiritual and ideological influence.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada talabalar ongida «Ommaviy madaniyat»ga ta'sirchan mexanizmlarini rivojlantirishga «Mediasavodxonlik va axborot madaniyati» fanini o'qitishning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье представлена информатsія о значении преподавания «Медиаграмотности и информатsіонной культуры» для развития механизмов влияния на «Общественную культуру» в сознании студентов.
SUMMARY:
The article provides information on the importance of teaching "Media Literacy and Information Culture" for the development of mechanisms of influence on "Public Culture" in the minds of students.

Mamlakatimizda yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan yoshlar bilan ishlash siyosati samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. "… O'zbekistonda barqarorlik, tinshlik va faravonlikni ta'minlashag sezilarli darajada ta'sirini ta'minlash maqsadida yangidan Yoshlar ishlari agentligi faoliyati tashkil yetilgan"[3] va "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yoshlar"[2] ustuvor yo'nalishlari asosida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi istiqbolli bosqishga olib shiqish hamda yoshlarni

manaviyatimizga zid har xil yod g‘oyalardan himoyalash bo‘yisha vazifalar ishlab shiqilgan. Ushbu yo‘nalishlardagi vazifalar ijrosini ta’minlashda pedagogika soha mutaxassislarning yoshlarni turli xil axborot xurujlaridan har tomonlama himoya qilishning ijtimoiy-pedagogik usullari va ularning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini ro‘yobga shiqarish bo‘yisha yangisha ilmiy-amaliy yeshimlarni topish imkoniyatini to‘g‘dirmoqda.

Davlatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev yoshlar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni bugungi kundagi yangi samarali bosqishga olib shiqish zarurligi to’g’risida shunday ta‘kidlaydi: “Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni yaxshi yegallagan, mustaqil hayotiy va ijtimoiy pozitsiyaga yega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yisha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholisining, birinshi navbatda, yoshlarning ongi, ta‘fakkuri va qalbini yegallash ushun qanday keskin ommaviy kurash borayotganini, diniy yekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, “ommaviy madaniyat” kabi davlatimiz rivojiga qarshi tahdidlar kushayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum susaytirmasdan, aksinsha ularni yangi bosqishga ko‘tarishimiz zarur” [1].

“Pedagogika” ensiklopediyasida “Ommaviy madaniyat (arabsha ommaviy – umumga, umumxalqqa tegishli, oid) – 1. Xalq madaniyati,ma‘naviyati, urf-odatilari, marosimlari,an‘analari san’ati va shu kabilarni ifodalovshi tushunsha. 2. Ommaviy axborot vositalari rivoji bilan bog‘liqjarayon va hodisa. 3. Ommaviy texnologik ishlab shiqarish. 4. Madaniyatning murakkab, hamma vaqt ham bir xil talqin qilinmaydigan o‘ziga xos shakli” tarzida talqin yetiladi [7].

Tadqiqotlar tahlili “Ommaviy madaniyat”ni G‘arb madaniyati bilan shambarshas bog‘liq hodisa deb tushunish, shuningdek, uni g‘oyasizlik, maqsadsizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholashga oid ilmiy yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Vatanimiz milliy-ma’naviy xavfsizligini ta’minlash, jamiyatimiz a’zolari ma’naviyatiga, yoshlarimiz axborot madaniyatiga tahdid solayotan tashqi mafkuraviy omillarning obektiv va subektiv jihatlari, g‘oyaviy xavf-xatarlarning oldini olishning samarali usullari, vositalari va yo‘llarini aniqlash zaruriyati bilan bog‘liq.

Birinshidan, gloabllashuv jarayonida jamiyatimiz ijtimoiy ma’naviy hayotga xavf solayotgan xatarlar, tahdidlar o‘ziga xos ma‘naviy-ahloqiy saviyasiz axborot shaklda namoyon bo‘lib, ularning ta’sir kushi kundan-kunga ortib

bormoqda. Jumladan, ja‘miyatimiz ushun turli yovuz va vayronkor g‘oyalar, har xil asoslanmagan qarashlarning murakkab sintezi sifatida shiqayotgan ma’naviy tahdidlar jamiyat milliy xavfsizligi doirasida jamiyat ma’naviy xavfsizligiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligini afsus bilan ta’kidlash lozim. Ma’naviy tahdidlarning mazmun-mohiyati, paydo bo’lish usullari ijtimoiy oqibatlarini hozirgi zamon nuqtai nazaridan ilmiy o‘rganish, ilmiy tahlil yetishda yangisha yondashuvlarni taqozo qilmoqda.

Ikkinshidan, bugungi zamon insoniyat taraqqiyoti davrida axborot-kommunikatsiya, raqamli vositalariga ma’naviy-mafkuraviy ta’sir ko‘rsatishning zamonaviy quroliga aylanib bormoda, ular globallashuv jarayonida tezkor, xilma-xil shakl va usullarda namoyon bo‘lmoqda. Bu yesa tashqi ma’naviy tahdidlarning tarixan yangi sifat bosqishiga kirganligini ko‘rsatmoqda. Shu bois, buzg‘unshi va vayronkor g‘oyalarning bugungi davrda namoyon bo‘lish xususiyatlarini ijtimoiy-siyosiy jihatdan ilmiy tadqiq yetish katta ahamiyat kasb yetadi.

Ushinshidan, bugungi globallashuv davrida, uning mazmun-mohiyati, ijobiy hamda salbiy jihatlari, xususan, hozirgi kunda yoshlarimizga mafkuraviy ta’sir ko’rsatish vositasi sifatida xalqaro maydonda turli siyosiy kushlarning milliy va strategik rejalariga xizmat ko‘rsatishga harakat qilayotgani, bundav vaziyatlar orqali milliy ma’naviyatimiz, a‘na‘nalarimiz qadriyatlarimizga qarshi turli yovuz va vayronkor g‘oyalarning tinimsiz yopirilib kelayotgani, ularning hayotimizda yertangi kunda qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi bilan asoslanadi.

Bunday sharoitda mamlakatimizda «Mediasavodxonlik va axborot madaniyati» fanini o‘qitishni samarali amalga oshirish g‘oyaviy-mafkuraviy hurujlar, tahdidlarning oldini olishning muhim sharti hisoblanadi. Bu borada, Yurtimiz tinshligi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi va rivoji g‘oyalaridan tashqi ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda samarali foydalanishning oqilona yo‘llarini izlab topish, aniqlash va amaliyotga joriy yetish muhim ahamiyat kasb yetadi [4].

To‘rtinshidan, hozirgi dunyo g‘oyaviy qarama-qarshiliklari murakkab tus olgan bir davrda yoshlarning ongu tafakkurini mediasavodxonlik va axborot madaniyati asosida shakllantirish va rivojlantirish, tarbiyalash yeng muhim asosiy g‘oyaviy vazifadir. Yoshlar turli g‘oyaviy obektiv va subektiv omillar ta’sirida ma’naviy tahdidlarning asosiy obektiga aylanib, bugun yoshlar kushli g‘oyaviy, mafkuraviy va axborot bosimi ostida yashashga majbur bo‘lmoqda. Bugun ana shu tashqi tahdidlarning oshib borishi milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash vazifasini kun dolzarb muammo sifatida tartibiga qo‘ymoqda.

Bu ma’naviy tahdidlarning oldini olishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida yoshlarimizning hayotiy maqsadlarini, mediasavodxonlik va axborot madaniyatini, orzu-ideallarini bilish, ma’naviy-axloqiy hayotidagi za‘ruriy ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashni talab yetadi [6].

Beshinshidan, davlatimizda o‘zining ma’naviy-mafkuraviy ta’sir kushiga ko‘ra oila, mahalla, uzliksiz ta‘lim tizimi va ommaviy axborot vositalari g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb yetadi. Hozirgi paytda, ushbu fuqarolik jamiyati institutlari ma’naviy tahdidlarning oldini olish va unga qarshi ommaviy kurashishda muhim o‘ringa yega bo‘lib hisoblanadi. Shu sababli, ularning kundalik faoliyatida jamiyat ma’naviy milliy xavfsizligi masalalari uyg‘unligini ta’minlashni tizimli tahlil qilish orqali mavjud muammo va kamshiliklarning oqilona yeshimlarini topishga xizmat qiladi [5].

Xo‘sh, bunday murakkab va shiddatli keshayotgan globallashuv sharoitlarda “ommaviy madaniyat”ning talabalar tarbiyasiga o‘tkazayotgan salbiy holatlardan qanday qilib qutilish mumkin?

Bizning fikrimizsha, buning sababi quyidagi yo‘nalishlarga asosiy ye’tibor qaratishimiz za‘rur:

- milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga yerisha olish. Bunda, asrlar osha qon-qonimizga singib borgan oilani muqaddas saqlash, ota-onani ulug‘lash, farzandning oila hamda Vatan oldidagi burshi, o‘zaro mehr-oqibat, or-nomus, iffat, hayo kabi fazilatlar, ustoz hamda shogirdlar odobi kabi yezgu qadriyatlarga sodiq qolish;

- yoshlar ongini takomillashtirishga oid umumbashariy tajribalarning yutuq hamda kamshiliklarini o‘rganish, ularni ta‘lim jarayonida samarali qo’llay olish, boshqa xalq vakillarga yaxshi munosabatda bo’lish, ularning madaniyati hamda milliy qadriyatlariga ongli yondasha olish, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, demokratiya g‘oyalarining aks yetishi;

- tarbiyaviy ham ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkillashtirishda yoshlarning qiziqish, istak hamda xohishlarini ko’zda tutib, unda har qanday zo‘rlik hamda majburlovlardan voz kesha olish, yoshlarning asosiy qiziqishi hamda faoliyat doirasini tashkil qilayotgan turli tuman sohalarni tarbiya jarayonida to‘liq qamray bilish. Bu ommaviy axborot vositalari xizmatidan samarali foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish, milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks yettira oladigan internet saytlari, multimedia, video roliklarni ko‘paytira olish. Yoshlarimizning ongiga ijobiy ta’sir qiluvshi milliy musiqa, kino san’atining tarbiyaviy ahamiyatlaridan foydalanish;

- milliy intellektual salohiyatini oshirish. Buning asosida ta’lim hamda milliy tarbiyani oshirish, urf-odat, an’ana, qadriyatlarni umumbashariy qadriyatlarga

uyg‘un ko’rinishda yoshlar dunyo qarashining ajralmas qismiga aylantira olish. Yoshlarning siyosiy ongini, axloqiy, huquqiy, yestetik, ma‘naviy, mediasavodxonlik va axborot madaniyatini yuksaltira olish;

- yoshlarda umummillat hamda jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan yuqorida quyishlari, jamiyat hamda millat oldidagi insoniy burshlarini to’liq anglashlari, xalq baxt-saodati va yurt farovonligi yo‘lida mehnat qilishlariga yerishish ushun ijtimoiy ham psixologik sharoit oshib berish;

- yoshlarda ma‘naviy mafkuraviy immunitetni oshirish, milliy istiqlol g‘oya targ‘ibotini izshil ravishda davom yettirish.

Ushbu ko‘rsatib o‘tilgan jarayonlarning qaror topishi, shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarining ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish masalasiga alohida ye’tibor qaratilishi globallashuv sharoitida ta‘lim-tarbiya jarayonining muvafaqiyatini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. –B. 17.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yisha qo‘shimsha shora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ–3775-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgasha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmon.

4. Juraev R.X., va boshqalar. Pedagogika fani konsepsiyasi. - Toshkent: O‘qituvshi, 2014.-232b.

5. Kurbaniyazova Z., Pazilov A., Qosnazarov Q., Seytmuratov Q. Pedagogika teoriyasi. –Toshkent, 2018. -456 b.

6. Masharipova N.R. Sharq xalqlari pedagogik tafakkurida o‘zlik tarbiyasining didaktik vositalari. Ped. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) … diss. –Samarqand, 2021. -146 b.

7. Pedagogika: yensiklopediya / Jamoa. III jild. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2017. –B. 49.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI LOYIHALASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Nazarova K.F.
Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi
Ilmiy rahbar:
Toshkent amaliy fanlar universiteti Pedagogika fanlari doktori, professor **Hamroyev G‘. H.**

Tayanch so'zlar: nutq, kommunikativ, boshlang'ich sinf, o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim, kompetentsiya, rivojlantirish, loyihalash, pedagogik muammo, yechim va usullari.
Ключевые слова: речь, коммуникативность, начальный класс, ученик, учитель, образование, компетентность, развитие, проектирование, педагогическая задача, решения и методы.
Key words: speech, communicative, primary class, student, teacher, education, competence, development, design, pedagogical problem, solutions and methods.

РЕЗЮМЕ:
Mazkur maqolada boshlang'ich maktab o'quvchilarining nutq qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini loyihalash tilni o'zlashtirish va umumiy ta'lim muvaffaqiyati uchun keng ko'lamli ta'sir ko'rsatadigan muhim pedagogik muammodir. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limning shakllanish yillarida samarali og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xos bo'lgan muammolar va imkoniyatlarni ta'kidlab, ushbu jarayonni loyihalashdagi asosiy fikrlar o'rganiladi.
РЕЗЮМЕ:
В данной педагогической статье планирование процесса развития речевого аппарата учащихся является важным вопросом, оказывающим широкое влияние на овладение языком и общеучебные успехи. В данной статье будут изучены основные идеи в построении этой статьи, если вы хотите оказаться в антиконституционной лаборатории, чтобы развить эффективное устное общение в годы восстановления образования.
SUMMARY:
In this pedagogic article, the design of the process of developing student speech equipment is an important issue that has a wide impact on language acquisition and general educational success. In this article, the main ideas in the design of this article will be studied, if you want to be in an unconstitutional laboratory, to develop effective oral communication during the recovery years of education.

Kirish. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining nutq kompetentsiyasini rivojlantirish jarayonini loyihalash tilni o’zlashtirishning turli jihatlarini,

muloqot qobiliyatlarini va yoshga mos keladigan o'qitish usullarini hisobga olgan holda kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning nutq kompetentsiyasi – tilni mukammal o'rganib, tushunib, va ishlatib bo'lish masalasi – ma'naviy, ijtimoiy, va akademik kompyuter uchun kritik zarbaga ega.Zamonaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq kompetentsiyasini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. Nutq qobiliyatlari nafaqat muvaffaqiyatli o'rganishning asosiy asosini tashkil qiladi, balki bolalarning ijtimoiy moslashuvida ham muhim rol o'ynaydi. Pedagoglar oldida bolalarning til ko'nikmalarini oshirishning samarali usullari va strategiyalarini ishlab chiqish vazifasi turibdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq kompetentsiyasini rivojlantirish muammosini hal qilishda birinchi qadam hozirgi holatni tahlil qilishdir. O'qituvchilar o'quvchilarning nutqini rivojlantirish darajasini baholashlari, ular duch keladigan asosiy qiyinchilik va muammolarni aniqlashlari kerak. Nutq kompetentsiyasini rivojlantirishning yakuniy maqsadlarini aniqlash nimaga erishish kerakligi haqida aniq tasavvurni shakllantirish imkonini beradi. Maqsadlar aniq, o'lchanadigan, erishish mumkin, tegishli va vaqt bilan bog'liq bo'lishi kerak (Smart). Aniqlangan muammolar va belgilangan maqsadlar asosida nutq kompetentsiyasini samarali rivojlantirishga qaratilgan usullar va dasturlar ishlab chiqiladi. Talabalarni hisobga olish va turli xil ta'lim uslublarini qo'llab-quvvatlash uchun turli xil tadbirlarni ta'minlash muhimdir. Nutq kompetentsiyasini rivojlantirish jarayonini loyihalash ta'lim jarayoniga innovasiyalarni kiritishni talab qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, o'qitishning interfaol usullari va o'yin formatlaridan foydalanish o'quv jarayonini yanada jozibali va samarali qilishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosi didaktika, shuningdek, metodika fanlari sohasidagi yangi, zamonaviy yo'nalish bo'lib, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilish an'anaviy mavzularni o'rganishga nisbatan murakkab kechadi.

O'quvchilarning muvaffaqiyatini muntazam ravishda baholash o'qituvchilarga metodlar va dasturlarni to'g'rilash, shuningdek, o'quv jarayoniga o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi. O'quvchilar va ularning ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarning yanada samarali bo'lishi uchun qayta aloqa tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq kompetentsiyasini rivojlantirish jarayonini loyihalash murakkab, ammo muhim pedagogik muammodir. Uning yechimi tizimli yondashuvni, innovatsiyalarni va zamonaviy jamiyatdagi

bolalarning o’zgaruvchan ehtiyojlariga usullarni moslashtirishga doimiy tayyorlikni talab qiladi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining nutq kompetentsiyasini rivojlantirishning adabiy tahlili hayotning turli sohalarida bolalar nutqidan foydalanish ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, uslubiy yondashuvlar va pedagogik amaliyotni o’rganishni o'z ichiga oladi. Bunday tahlilda e'tiborga olinishi mumkin bo’lgan bir nechta jihatlar mavjud:

1. Nutq kompetentsiyasining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash: boshlang’ich sinflarda nutqiy kompetentsiya tarkibida qanday ko’nikma va malakalar muhim sanalishini o’rganish. Bu lug’at, grammatika, tinglash va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishni o’z ichiga olishi mumkin.

2. Nutq kompetentsiyasini o’rgatish metodikasi bo’yicha tadqiqotlar o’tkazish: bolalarning muloqot ko’nikmalarini rivojlantirish uchun boshlang’ich sinflarda qo’llaniladigan turli o’qitish usullarini tahlil qilish. Qaysi usullar samarali va bolalarning yoshi xususiyatlariga mos kelishini aniqlash kerak.

3. Nutq kompetentsiyasini rivojlantirishda o’qishning o’rni: bolalarda nutq ko’nikmalarini rivojlantirishga o’qishning ta’sirini o’rganish. Bu o’qish usullarini tahlil qilish, adabiy asarlardan foydalanish va ularning til ko’nikmalarini rivojlantirishdagi rolini o’z ichiga olishi mumkin.

4. Til kompetentsiyasini rivojlanishning boshqa sohalari bilan bog'lash: til kompetentsiyasining kognitiv rivojlanish, ijtimoiy qobiliyatlar va umumiy akademik muvaffaqiyat bilan bog'liqligini hisobga olish. Bu bizga til ko'nikmalarini rivojlantirish bolaning umumiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tushunishga imkon beradi.

5. Nutq kompetentsiyasi darajasini baholash: boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentsiyasini baholashning turli usullarini o'rganish. Bu standartlashtirilgan testlar, ish portfellari va boshqa usullarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu yo'nalishdagi adabiyotlar tahlili o'quv jarayonida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalarni aniqlashga, o'qitish usullarini yanada takomillashtirish va takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashga yordam beradi.

Ona tili o'qitish metodikasi va nutqqa oid muammolar Sh.Yusupova hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari o'rganilgan bo'lsa, A.Ya.Bobomurodovaning olib borgan izlanishlarida ona tili ta'limida o'yin-topshiriqlardan foydalanish metodikasi yoritilgan bo'lsa, T.U.Ziyadovaning ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari nomli dissertasiyasida nazariy va eksperimental o'rganilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq kompetentsiyasini rivojlantirish ta'limning muhim jihati hisoblanadi, chunki til aloqa va bilim olishning asosiy vositasidir. Ushbu mavzu bo'yicha umumiy xulosalar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

O'yin texnikasi bolalarning til o'rganishga qiziqishini oshirishda samarali usuldir. Interfaol darslar, masalan, rolli o'yinlardan foydalanish va guruh loyihalari og'zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi. So'z boyligini kengaytirish bo'yicha faol ish tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Mnemonika, rasmlar va hikoyalardan foydalanish yangi so'zlarni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. O'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ishlar boshlang'ich sinflardan boshlanadi va nutq kompetentsiyasini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Kitoblar, hikoyalar va o'qish muammolaridan foydalanish matnni tushunishga yordam beradi.

Tilga ijodiy yondashishni rag'batlantirish, masalan, hikoya va she'rlar yozish orqali ifodali nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quv jarayonida tasviriy san'at, musiqa va dramadan foydalanish ifoda ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Ta'limga zamonaviy texnologiyalarni, masalan, ta'lim dasturlari va onlayn resurslardan foydalanish o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samaraliroq qilish imkonini beradi. Nutq kompetentsiyasini rivojlantirish har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Kichik guruhlarda ishlash va individual e'tibor til ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi

Umumiy xulosa shundan iboratki, integral yondashuv, jumladan, o'yin texnikasi, har xil turdagi matnlar bilan ishlash, zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanish va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq kompetentsiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Safarova R. Ona tili ta'limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – T.: Fan, 1995. – 110 b.

2. Nurullaeva Sh. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish usullari. Ped. fanl. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent: 2007. – 148 b.

3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan.dok. diss. avtoreferati. – Toshkent: 2003.– 44 b.

4. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi // 2017. -479 b.

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

BASLANǴÍSH MEKTEP DÁWIRINDEGI BALALAR ORGANIZMINE FIZIKALÍQ JÚKLEMELER TÁSIRINIŃ TIYKARǴÍ NÍZAMLÍQLARÍ

Utepbergenov A. K.
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı
"Sport pánleri" kafedrası professorı, biologiya ilimleri kandidatı
Mamutov P. J.
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı
"Dene tárbiya teoriyası hám metodikası" kafedrası assistenti.

Tayanch so'zlar: jismoniy faollik, bolalar tanasi, boshlang'ich maktab o'quvchilari, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, tayanch-harakat tizimi, gomeostaz.
Ключевые слова: физические нагрузки, детский организм, дети младшего школьного возраста, здоровье, физическое воспитание, опорно-двигательный аппарат, гомеостаз.
Key words: Physical activity, children's body, primary school children, health, physical education, musculoskeletal system, homeostasis.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada jismoniy faoliyatning boshlang'ich maktab o'quvchilari tanasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Jismoniy faollikning bolalar tanasining turli tizimlariga ijobiy va salbiy ta'siri yoritilgan, jismoniy mashqlar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье рассматривается влияние физических нагрузок на организм детей младшего школьного возраста. Освещены положительные и отрицательные эффекты физических нагрузок на различные системы организма детей, даны рекомендации по организации занятий физическими упражнениями.
SUMMARY:
The article examines the impact of physical activity on the body of children of primary school age. Positive and negative effects of physical activity on various systems of the body of children are highlighted, and recommendations are given for organizing physical exercise classes.

Kirisiw. Fizikalıq aktivlilik baslawısh mektep jasındaǵı balalar denesiniń rawajlanıwında áhmiyetli faktorlardan biri bolıp esaplanadı. Bul dáwirde balalar organizmi aktiv túrde ósip hám rawajlanıp baradı. Fizikalıq shınıǵıwlar salamtlıqtı saqlaw hám bekkemlew, qáddi-qáwmetti durıs rawajlandırıw,

metabolizm processlerin jaqsılaw hám tayanısh-háreket sistemasın rawajlandırıw ushın óte áhmiyetli. Zamanagóy ilimiy-izertleniwler balalardıń nawqıran rawajlanıwların támiyinlewde fizikalıq háreketlerden sistemalı túrde paydalanıw zárúrligin sıpatlap beredi [2,4].

Usı maqalanıń maqseti fizikalıq júklemelerdiń baslawısh mektep jasındaǵı oqıwshılar organizmine tásiriniń tiykarǵı nızamlıqların úyrenip shıǵıw hám ulıwma bilim beriw mekteplerinde fizikalıq aktivlilikti shólkemlestiriw hám jolǵa qoyıw boyınsha usınıslar beriwden ibarat bolıp esaplanadı.

Fizikalıq júklemelerdiń insannıń hár qıylı organlar sistemasına tásiri.

Fizikalıq júklemeler – bul organizmniń tınısh jaǵdayına salıstırmalı túrde organizmniń ishki ortalıǵı (gomeostaz)nıń májbúriy saqlanıw dárejesine salımtırmalı artıwı menen birge keletuǵın hár qanday fizikalıq aktivlilik (fizikalıq shınıǵıwlar) bolıp tabıladı.

Gomeostaz – bul kletkalardıń optimal tárizde islewi ushın insan denesiniń ishki ortalıǵınıń dinamikalıq turaqlılıǵı bolıp, organizmdi basqarıwshı hám tártipke salıwshı sistemalar iskerligin integraciyalaw hám úzliksiz túrde qálpine keltiriw arqalı támiyinlenedi.

Fizikalıq júklemeler tásirine organizmniń bir qatar funkcionallıq sistemaları aktiv qatnasadı. Bular tómendegishe:

- tayanısh-háreket sisteması;
- vegetativ nerv sisteması;
- nápes alıw sisteması;
- júrek qan-tamır sisteması;
- as sińiriw siteması;
- bólip shıǵarıw (ajıratıw) sisteması;
- endokrin sisteması.

Solay etip, hár qanday bulshıq et zorıǵıwı organizmniń integraciyalıq iskerligine mısal bola aladı.

Házirgi waqıtta tiykarǵı zaman talabınan kelip shıǵıp, mashqalaǵa aylanǵan máseleniń biri – bul insannıń háreket iskerliginiń kemeyiwi yamasa shekleniwi (gipodinamiya) áhmiyetli faktorlardıń biri esaplanadı. Bunnan júz jıllar aldın miynet operatsiyalarınıń 96%i muskullar kúshi járdeminde ámelge asırılıp kelingen. Házirgi dáwirde bul kórsetkish 99% hár qıylı mexanizmler járdeminde ámelge asırıladı. Háreket iskerliginiń jetispewshiligin qaplaw zárúr, bolmasa insan organizminiń quramalı sistemasınıń buzılıwı hám disgarmoniyası júzege keledi. Insan organizmi ózine tán bolǵan funkciyalardı atqarıwshı organlardan ibarat. Ulıwma funktsiyalardı birgelikte orınlawshı organlar toparlarınan ibarat - organ sistemaları. Sırtqı ortalıqtan organizm bir waqıttıń ózinde jasaw hám

